

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI

**AMIR TEMUR – BUYUK SARKARDA
VA DAVLAT ARBOBI**

**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari
2023-yil 6-aprel, Toshkent**

Toshkent – 2023

“Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi” // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami (6-aprel 2023-yil). – T.: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2023. – 446 b.

Mas’ul muharrir:

Musayev F.A. – O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Ijtimoiygumanitar fanlar kafedrasida professori, falsafa fanlari doktori, dotsent.

Tahrir hay’ati:

Mirzayev G‘.R. - Jamoat xavfsizligi universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida boshlig‘i o‘rinbosari, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD);

Rasulova N.S. – Jamoat xavfsizligi universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti, t.f.n.;

Turayeva S.R. – Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida professori, t.f.n.

Buyuk bobomiz Sohibqiron Amir Temur dunyo siyosati va tamaddunida ulkan iz qoldirgan siymolardan biridir. Uning adolatli davlat boshqaruvidagi boy tajribasi bugungi kunda nechog'lik ahamiyatli ekanini barchamiz yaxshi anglaymiz. Ushbu to‘plamda Amir Temur bobomizning hayot faoliyati davomida orttirgan boy tajribalari asosida qoldirgan o‘g‘itlari, davlat boshqaruvi va buyuk sarkardalik mahorati, bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlari, pand-nasihatlarini o‘rganishga oid zamonaviy tadqiqotlar va yangicha yondashuvlar borasida taklif va tavsiyalarni qamrab olgan maqolalar aks etgan. Maqolalardagi ma’lumotlarning asosli ekanligiga va imloviy xatolarga mualliflar javobgardirlar.

KIRISH SO‘ZI

Bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yanada yuksaltirish, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'siridan saqlash va himoya qilishda Vatanimiz tarixini har tomonlama va chuqur tadqiq etish, birlamchi manbalarga tayanib talqin etish, kelajak avlodga haqqoniy tariximizni o'qitish orqali ularni yuksak ma'naviyatli shaxslar etib tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Harbiy kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda harbiy ilmni rivojlantirish borasida Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan harbiy mojarolar va zamonaviy jang amaliyotlarini hamda milliy harbiy san'at tarixini chuqur o'rganib, qo'shinlarning tayyorgarlik usul va uslublarini yanada takomillashtirish vazifasi qo'yildi.

Bunda harbiy ta'lim tizimida boshlangan islohotlarni uzviy davom ettirish, oliy harbiy bilim yurtlari, litsey va kollejlari, jumladan, "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylari faoliyatini takomillashtirish, ularda ta'lim olayotgan o'quvchilar qalbida milliy ruh, ona-Vatanga mehr va sadoqat, adolat tuyg'usini har tomonlama kuchaytirish, buyuk ajdodlarimiz, jumladan, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Shohruh Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarimizning jang san'atidan keng foydalanish muhimligi alohida ta'kidlab o'tildi.

XV asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg'onish, ya'ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Amir Temurning ***“Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo'qoladi”***, degan fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Jamiyatimizda “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” ezgu g'oya asosida davlatimiz rahbari boshchiligida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar va “Uchinchi renessans” poydevorini Yangi O'zbekistonda yaratishda Amir Temur merosining o'zni muhimdir. Yosh avlodni

vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda buyuk bobokalonimiz merosining bugungi kunda o‘rnak bo‘ladigan jihatlari bisyordir.

Muhtaram Prezidentimiz, Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Kelajakda harbiy bo‘lishni orzu qiladigan botir farzandlarimiz milliy ruhni, muqaddas Vatan taqdiri uchun mas’uliyat tuyg‘usini ... Vatanimiz boy tarixidan, Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimiz jasoratidan oladi”.

Yevropa olimlari Amir Temur davlati Osiyodagi eng so‘nggi buyuk saltanat edi, deya e’tirof etadilar. Sohibqironning bunday katta davlatni, markazlashgan yirik saltanat sifatida tuzishi, tartibga keltirishi va uzoq yillar hukmronlik qilishida “Temur tuzuklari” asosiy manba sifatida xizmat qilgan.

Barkamol avlod tarbiyasi uchun Amir Temur kabi ulug‘ ajdodlarimizning hayotiy tajribasi, sarkardalik va boshqaruv mahorati hamda ijodiy merosini o‘rganish, ularning ibratli jihatlari o‘zlashtirish oldimizda turgan dolzab vazifalardandir.

Mazkur masalada muntazam o‘tkazilayotgan konferensiya va tadbirlar hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantiradi va Amir Temur merosini o‘rganishda tajriba almashish va yangi qirralarini kashf etishda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda katta ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Hurmatli konferentsiya ishtirokchilari va aziz mehmonlar! Bugungi respublika konferensiya ishtirokchilariga faol ishtiroklari uchun yana bir bor, o‘zimning chuqur minnatdorligimni izhor etishga ruxsat bergaysiz. So‘zimning yakunida shuni ta’kidlamoqchimanki, biz ilmiy-tadqiqot va ta’lim-tarbiya sohasida har doim hamkorlikni rivojlantirishga va mustahkamlashga tayyormiz, bugungi tadbirning o‘tkazilishi ham so‘zimni isboti deb hisoblayman. E’tiboringiz uchun rahmat.

M.X.Rustambayev

**O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i,
polkovnik, yuridik fanlar doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist.**

AMIR TEMUR – YUKSAK MA’NAVIY SIFATLAR SOHIBI

A.A.Odilov,

O‘zMU Tarix fakulteti dotsenti, t.f.n.

Bir yarim asrlik mo‘g‘ul istibdodidan so‘ng, 1370 yilga kelib Movarounnahrda Amir Temur davlati yuzaga keldi. Sohibqiron Amir Temur davlatining paydo bo‘lishi o‘zbek davlatchiligi taraqqiyotida ulkan ahamiyatga molik voqelik bo‘ldi. Aynan Amir Temur Movarounnahrni mo‘g‘ul istibdodidan xalos etib, bu yerda kuchli markazlashgan davlat tuzishga harakat boshladi. Amir Temur markazlashgan va kuchli davlat barpo etish jarayonida hamjihatlik, o‘zaro manfaatlar mushtarakligi, barcha tabaqa va turli qavm, xalqlar manfaatlarini hisobga olish, diniy ayirmachilik, mazhabparastlikka qarshi kurash siyosatini olib bordi.

Ta’kidlash lozimki, Amir Temur va Temuriylar hukmronligi Movarounnahr va Xuroson, umuman O‘rta Sharq xalqlari tarixida muhim tarixiy davr bo‘lib hisoblanib, aynan shu davrda turli xalqlar, etnoslar tarixida ham iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan o‘zaro yaqinlashish davri bo‘ldi¹. Mazkur davr muarrixlari xususan, Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Mu’iniddin Natanziy, Fasih Havofiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirzo Bobur, Mirzo Haydar va boshqalar hududda istiqomat qilgan turli qabilalar, ularning mavqei haqida ahamiyatga molik ma’lumotlar qoldirganlar. Amir Temur o‘z “Tuzuklari”da mazkur davrda uning davlatida 40 ta aymoq yashaganligi, ularning 12 tasi, ya’ni eng ko‘p sonli qabilalarga (barlos, tarxon, arg‘in, jaloyir, tulkichi, do‘lday, mo‘g‘ul, sulduz, to‘qay, qipchoq, arlot, totor) tang‘a berilganligini qayd etgan. Mazkur qabilalarning eng nufuzli zotlari, qabila boshliqlari amirlik martabasiga tayinlanadi. Qolgan 28 ta qabila boshliqlariga esa ulus amirligi lavozimi taqdim etiladi².

¹ Юсупова Д.Ю., Улашова С. Амир Темур ва Темурийлар даврида этнослараро муносабатлар / Бағрикенглик – ўзаро ишончни ривожлантиришнинг воситаси сифатида. Халқларо илмий анжуман материаллари. – Тошкент, 2018. – Б.3.

² Темур тузуқлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б.125-126.

Bu bilan Amir Temur ichki siyosatda markaz va hududlar mutanosibligini ta'minlash, qabilalar o'rtasida muvofiqlashtirish yo'liga amal qilishini namoyon etdi.

Bunday oqilona siyosat bilan Amir Temur markaz va hududlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minladi. Buning natijasida qabilalar orasida hamjihatlik va totuvlik munosabatlari qaror topdi. Shu o'rinda yana bir holatga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Amir Temur o'z saltanati tarkibiga kirgan hududlarda aksariyat holatlarda mahalliy sulola boshqaruvini saqlab qolgan, ko'p holda ularning vakillari Sohibqironni oliy hukmdor sifatida tan olishgan.

Masala mohiyatini bayon etishda yana bir holatga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Amir Temur o'z yurishlarida Movarounnahr hududiga ko'plab olimu fuzalo, hunarmand va boshqalarni ko'chirib keltirib, ularni turli shahar va qishloqlarga joylashtirgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra ko'chirib keltirilganlarning soni 100 mingdan ziyod bo'lgan deyiladi¹.

Amir Temur, keyinchalik boshqa Temuriylar ham ko'chirib keltirgan xalqlarga o'z xalqiga qilgan munosabatda bo'lishgan, ularga tegishli shart-sharoitlar yaratib berilgan. Ayniqsa, ilm ahli, hunarmand, usta va me'morlar hamisha Amir Temurning himmatidan bahramand bo'lishgan. Amir Temurning o'zga xalqlarga bo'lgan ehtiromini hatto uning faoliyatini tanqid ostiga olgan ibn Arabshoh ham tan olgan edi². Iste'dodli ilm toliblari qaysi xalq vakillaridan bo'lishlariga qaramay, ular yotoq-joy bilan ta'minlanganlar, harajatlari uchun maxsus nafaqalar tayin etilgan. Bu ishga hatto temuriy shahzodalar, malikalar ham bosh bo'lganliklari tarixdan yaxshi ma'lum. Amir Temur, keyinchalik Temuriy hukmdorlar ham turli qavmlar, etnoslararo to'qnashuv va nizolarga yo'l qo'ymaganlar. Sohibqiron o'z davrining peshqadam fikrlovchi vakili sifatida barcha aholini 12 ta toifaga bo'lgan. Ushbu toifalarni o'rta asrlar sharoitida ilk bora bir butun xalq deb hisoblab, ularni bir darajada ko'rishini e'lon qilgan. Xususan, Amir Temur "Tuzuklar"da bu xususda "bu o'n ikki toifani saltanatim falakining o'n ikki burji va davlatim korxonasining o'n

¹ Юсупова Д.Ю., Улашова С. Амир Темур ва Темурийлар даврида этнослараро муносабатлар / Бағрикенглик – ўзаро ишончни ривожлантиришнинг воситаси сифатида. Халқларо илмий анжуман материаллари. – Тошкент, 2018. – Б.4.

² Ўша асар. – Б.4.

ikki oyi, deb hisobladim”, deya qayd etganligi uning davlat arbobi sifatida chuqur tafakkur sohibi ekanligidan darak berar edi¹.

Amir Temur o‘z “Tuzuklari”da pirlaridan biri bo‘lmish Zayniddin Abubakr Tayobodiyning maslahatini o‘ziga “yo‘l boshlovchi yanglig‘ rahnamolik qildi”, deya yozadi. Mazkur maslahat matni quyidagicha edi: “Saltanat ishlarida to‘rt narsaga amal qilgin, ya’ni: 1) kengash; 2) maslahatu mashvarat, maslahat ayla; 3) hushyorligu malohozakorlik bilan qat’iy qaror chiqar; 4) ehtiyotkor bo‘l”

Davlat siyosatini olib borishda, u shubhasiz ustoz ta’kidlagan “maslahat va mashvarat”, davlat kengashi xulosalariga quloq solgan. Davlat boshqaruvi tizimida Amir Temur bevosita ma’naviy mezonlarga bevosita tayangan. Agar “Tuzuklar”da bayon etilgan boshqaruv masalalari tahlil etilar ekan, ularning ichida hamma vaqt to‘g‘rilik, halollik, sofdillik, fidoyilik, insof va diyonat kabi ma’naviy-ahloqiy fazilatlarga urg‘u berilganligining guvohi bo‘lish mumkin. Zero, Amir Temur o‘rta asr sharoitida “siyosat bobida ma’naviy mezonlarga o‘rin yo‘q”, degan fikrga qarama-qarshi o‘laroq siyosat va ma’naviyat mezonlari bog‘liq ham bo‘lishi mumkinligini ko‘rsata oldi.

Amir Temur o‘z saltanatida mazhabparastlik, musulmonlar orasidagi tarafkashlik, dinlararo qarama-qarshilikni qattiq qoralaydi. Xususan, u joylarda sunniylar va shialar o‘rtasidagi ixtilof va nizolarni bartaraf etishga qattiq bel bog‘laydi.

Shu davrda Yevropa davlatlari orasida katta nufuzga ega bo‘lmish Angliya va Fransiyaning Amir Temur davlati bilan o‘zaro munosabatlari masalasi ham alohida e’tiborga sazovordir. Anqara jangidan so‘ng boshqa g‘arb davlatlari kabi Angliya va Fransiya ham Amir Temur bilan o‘zaro diplomatik yozishmalarni amalga oshira boshlashdi. Amir Temur Sultoniyadagi xristianlarning katolik arxiyepiskopi Ioann IIIga katta marhamat ko‘rsatib, uni o‘z elchisi sifatida 1402 yil avgustida Fransiya jo‘natadi. 1403 yil iyunda Ioann III Parijga yetib keldi. U qirol qabulida bo‘lib, Fransiya qiroli Karl VI ga Cohibqiron nomidan bitilgan ikkita maktubni taqdim etdi.

¹ Temur tuzuklari. – Toshkent: Ўзбекистон, 2011. – Б.89-90.

Amir Temur o‘z maktublarida Boyazid ustidan qozonilgan g‘alaba va uning mohiyati haqida co‘z yuritib, turklar tomonidan nohaq asirga olingan xristianlarni ozod qilganligi, agarda yana biron kimsa ular qo‘lida tutqunda bo‘lsa, ularni ham ozod etishini ta’kidlagan edi. Amir Temur o‘z davrining ilg‘or va sog‘lom fikrlovchi davlat arbobi sifatida teng va manfaatli munosabatlar o‘rnatishni oldingi o‘ringa qo‘yadi. Xususan, o‘z maktubini “dunyo savdo ahli ila obod bo‘lajak” degan so‘zlar bilan yakunlashi yuqoridagi fikrning tasdig‘i bo‘lib xizmat qiladi.

O‘z navbatida Fransiya qiroli Karl VI ning 1403 yil 15 iyunda Amir Temurga yuborgan xatida Sohobqiron takliflari qo‘llab-quvvatlanadi.

Amir Temur va uning o‘g‘li Mironshoh Mirzo Angliya qiroli bilan ham yozishmalarni amalga oshirganlar. Angliya qiroli Genrix IV ning (1399-1413) Amir Temur va Mironshoh Mirzoga lotin tilida yo‘llagan ikkita maktubi bizning davrimizga qadar yetib kelgan. Sohobqiron va Angliya qiroli o‘rtasidagi bu diplomatik munosabatlarga avval ham Fransiyada bo‘lgan katolik arxiyepiskopi Ioann III boshchilik qildi. Angliya qiroli Genrix IV o‘z maktublarida avvalo Sohobqiron va uning o‘g‘li Mironshohga katolik ruhoniylari, umuman xristianlar, xristian savdogarlariga ko‘rsatilayotgan iliq munosabat, ularning xavfsizligi yo‘lidagi say-harakatlari uchun minnatdorchilik bildiradi. Qirolning Mironshoh Mirzo nomiga yozgan nomasida “Mirassa Amirassa”ga, ya’ni Mironshohga “buyuk hukmdor, katolik dinining homiysi”, deya murojaat qiladi. Mironshohning xristianlar, xususan katolik mazhabidagilarga ko‘rsatayotgan muruvvatini qirol yuqori darajada baholaydi¹. Boshqa dindagilarga nisbatan o‘rta asr Yevropasida jaholat va bid‘at avjiga chiqqan bir vaqtda Amir Temurning o‘zga dindagi e’tiqod kishilariga nisbatan bag‘rikengligi, muruvvati va oliyhimmatligi yuqori tahsinga sazovor bo‘lib, buni ingliz hukmdori ham mamnuniyat bilan e’tirof etgan edi. Bu Amir Temurning o‘z davriga nisbatan ham ildam fikrlagan zehnli va ilg‘or, mulohazali davlat arbobi ekanligidan dalolat berardi. Genrix IV Amir Temur va Mironshohga unga nisbatan ko‘rsatilgan do‘stona munosabatlari uchun tashakkur bildirib, Sohobqironning o‘zaro hamkorlik

¹ Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга Амир Темур саройига саёҳат. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – Б.205.

va do‘stona aloqalar, erkin savdo munosabatlarini o‘rnatish haqidagi taklifini qo‘llab-quvvatlashini bildiradi.

Amir Temurning diplomatik yozishmalarida xristian dinidagi Dominikan ordeni rohibi Fransisk nomi ham keltiriladi. Uning nomi Amir Temurning Angliya va Fransiya qirollari, Vizantiya imperatoriga yuborgan nomalarida ishonchli vakil sifatida tilga olinadi. Mazkur holat Amir Temurning o‘zga din vakillariga bo‘lgan ishonchi, uning boshqa din bo‘lgan kishisiga bag‘rikeng munosabatining yana bir ifodasi edi. 1404 yil sentabr-noyabr oylarida Amir Temur davlatida bo‘lib, bu xususda ko‘plab qimmatli ma’lumotlar qoldirib ketgan Ispaniya (Kastiliya va Leon) elchisi Rui Gonsales de Klavixo G‘arb bilan elchilik munosabatlarida oxirgi vakil bo‘lib qoldi. Yevropa hukmdorlari Amir Temur va uning davlatiga yuqori baho berib, yuksak ehtirom bilan unga munosabatda bo‘lganlar. Xususan, ularning Sohibqironga murojaatlarida uning nomi juda katta hurmat ila tilga olinib, “Oliy nasab va g‘alabalar keltiruvchi hukmdor”, “Buyuk va qudratli hukmdor Temurbek” deya e’tirof etilgan. Shubhasiz Sohibqironning oqilona ichki va tashqi siyosati unga sabab bo‘lgan edi.

Amir Temur ulkan davlat va qudratli saltanat barpo etgan holda Sharq va G‘arb o‘rtasidagi Buyuk Ipak yo‘li tarmog‘ini tikladi. Mazkur xalqaro savdo yo‘li nafaqat qayta tiklandi, balki ushbu yo‘l xavfsizligini ta’minlagan holda keng ko‘lamdagi savdo-iqtisodiy munosabatlarga yo‘l ochib berdi. Uning natijasida ichki va tashqi savdo butun saltanatda rivoj topdi, mazkur yo‘llardagi har qanday talonchilik, bosqinchilik, qaroqchilik ko‘rinishlariga chek qo‘yildi. Shu bilan birga yo‘llar, sardobalar, karvonsaroy, ko‘priklar ta’mir etildi, chet el savdogarlari uchun barcha sharoitlar yaratib berildi, har to‘xtash joylarida (bu taxminan 25-30 km oraliqda) “yomlar” tashkil etilib, ularda savdogarlar uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berildi. Amir Temur davlati chegarasiga yaqinlashgan Klavixo xalqaro savdo, chet el savdogarlariga bo‘lgan ehtirom va yuqori hurmat masalasini alohida e’tirof etgan edi¹.

Amir Temur oliy insoniy fazilatlarni tushunuvchi va qadrllovchi shaxs bo‘lgan. Uning o‘zi bu borada o‘rnak bo‘lguvchi inson edi. Shu bois

¹ Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга Амир Темур саройига саёҳат. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – Б.200-205.

ham u hokimiyatga chiqishdagi qiyin yillarda ham o‘z orqasidan iqtidorli va vijdonli kishilarni ergashtira oldi. Ulardan jasur va sadoqatli harbiylarni yetishtirdi. Ular orasida Joku barlos, amir Muso, amir Hinduka, Iki Temur, Sulaymonshoh va boshqalar bo‘lganlar. Amir Temur butun aql-zakovati, qobiliyatini ishga solgan holda o‘z atrofida turli yo‘nalishdagi kishilarni ham birlashtira oldi. Zero og‘ir mo‘g‘ul istibdodidan so‘ng ezilgan, xarob bo‘lgan, siyosiy parokandalik, iqtisodiy tanazzul kuchaygan bir paytda bunchalik diplomatik mahoratni ishga solish har qanday hukmdorning qo‘lidan kelmas edi. Amir Temurning yana bir olijanob fazilati – uning kechirimliligi, rahm-shavqatliligi, boshqalar gunohidan o‘ta bilishi ham hisoblangan. Masalan, Amir Temur sardor Alibek Jonqurboniy xiyonatini ikki marotaba ham kechirib, uni qayta xizmatga olgan. Yoki Oltin O‘rda xoni To‘xtamishxon non-tuz haqqini unutib, ikki marta Temurga qarshi bosh ko‘targanida Sohibqiron uni ikki marotabada ham kechirib yuborgan. Hatto o‘limidan sal avval uzr so‘rab kelgan To‘xtamishxon elchilarini qabul qilib, uning hokimiyatini qaytarib olishga yordam berish to‘g‘risidagi iltimosiga rozi bo‘lgan. Bag‘rikenglik, saxovatlilik, o‘zaro gina-kudratdan nari bo‘lish borasida darhaqiqat Amir Temur o‘rnak bo‘lishiga sazovor shaxs bo‘lgan.

Amir Temur o‘z “Tuzuklar”ida qo‘l ostidagilarga nisbatan adolat va insof bilan munosabatda bo‘lgan. Xususan “Tuzuklar”da buni quyidagicha ta’riflaydi: “Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shavqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlarning ko‘nglidan joy oldim... Fuqaro va qo‘l ostidagilarga rahmdillik qildim, askarlarimga in’omlar ulashdim. Zolimdan mazlunning haqqini oldim”.

Sohibqiron chin do‘stlikning qadriga yetgan va sadoqatli do‘stlikka muhim ahamiyat bilan qaragan. Uning : “Yaxshilarga – yaxshilik qildim, yomonlarni esa o‘z yomonliklariga topshirdim. Kim menga do‘stlik qilsa qadrladim, do‘stligini unutmadim va unga muruvvat,ehson, izzatu ikrom ko‘rsatdim. Kimki mening xizmatimni qilsa, uning xizmati haqqini ado etdim. Kimki menga dushmanlik qilsayu, keyin pushaymon bo‘lib, iltijo bilan himoya istab, tiz cho‘kib huzurimga kelsa, dushmanligini unutib,

muruvvat va do‘stlik ko‘rsatdim”¹, degan so‘zlari yuqoridagi mulohazaning tasdig‘i bo‘lib xizmat qiladi.

Amir Temur hayotning pastu-balandini ko‘rgan kishilarni, sadoqatli va fidoyi, jasur va shijoatli kishilarni juda qadrlagan. Buzuq niyatli, hamiyatsiz, qo‘rqqoq, chaqimchi, g‘iybatchi va qo‘rqqoqlardan nafratlangan. Shu bilan birgalikda gina-kudratdan uzoq bo‘lgan. Qaysi dushman uning oldiga bosh egib kelsa, Temur uning hurmatini joyiga qo‘yib, dushmanni do‘stga aylantirgan.

Amir Temur o‘z ustoz-pirlari – Shamsiddin Kulolning ta’limoti, Mir Sayid Barakaning yo‘l-yo‘riqlari, Abu Bakr Tayobodiyning maslahatlariga hamisha quloq solgan hamda butun faoliyatida ularga tayangan. Amir Temur din arboblari, ruhoniylar, ulamolarga nisbatan katta hurmat bilan munosabatda bo‘lgan. O‘z navbatida ularga ma’lum mas’ul vazifalarni ham ishonib topshirgan. Masalan, 1393 yil oktabrda Misr sultoni Barquq huzuriga taniqli diniy arbob shayx Suvohni elchi sifatida yuborgan. U Samarqand, Kesh, Buxoro diniy arboblari alohida ehtirom bilan munosabatda bo‘lgan. Amir Temur hamma vaqt diniy arbob, ruhoniylar, ulamolarni o‘z himoyasiga olib, ilm vakillari bilan birga munozara va suhbatda bo‘lishga ishtiyoqmand bo‘lgan. Harbiy yurish vaqtlarida ham bu masalaga e’tibor bilan qaragan. Bag‘dod olinganida u ruhoniylar, din arboblari zarur yetkazmaslikni talab qilgan, Damashqda Muhammad payg‘ambarning (s.a.v.) ikki ayollari – Umm Habiba va Umm Salmaning qabrlarini ziyorat etib, bu yerda maqbara qurishni buyurgan. Damashqda qilgan birinchi ishi Ummaviylar Jome masjidini ziyorat qilish bo‘lgan. Shuningdek, bu yerda Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) ning yaqin sahobalaridan biri – Bilol al-Habashiy qabrini ham ziyorat qilgan. Suriyada yana bir sahoba, taniqli lashkarboshi Muhammad Xolid ibn Volid qabri joylashgan Xoms shahri egallanayotgan paytda Amir Temur bu shaharni vayron etmaslikni buyurgan. Shuningdek, Erondagi ziyoratgohlarni ham obod qilishni ham buyurgan. Misr tarixchisi Ibn Tangriberdi 1404 yili Amir Temur Makkaga keladi deya hozirlik ko‘rishganini, lekin noma’lum sabablarga ko‘ra Sohibqiron Makkaga kela olmaganligini qayd etadi.

¹ Одилов А.А. Амир Темур тузуклари – давлат бошқаруви асоси. Тошкент 2016, Б.171.

Amir Temur inson e'tiqodsiz yashay olmasligini yaxshi tushungan. U dini yuksak kamolot yo'liga yetaklovchi kuch, insonni ma'naviy jihatdan komillik darajasiga olib chiquvchi vosita deb bilgan. Shu bois imon-e'tiqod, ma'naviy poklik, halollik tushunchalarini juda qadrlagan.

Amir Temur Qur'oni Karimni yod bilgan, hadislarni yaxshi tushungan, tafsir ilmidan xabardor bo'lgani bois diniy asnodagi bahslarda yirik ulamolar bilan barobar so'z yurita olgan. Bu uning ma'naviyati, imon-e'tiqodi, diyonati qanchalar mukammal bo'lganligidan darak beradi. Amir Temur musulmonchilik aqidalari jamiyat osoyishtaligi va ravnaqi, ijtimoiy adolat, ma'naviy poklik, fuqarolararo totuvlik yo'lida xizmat qilishi tarafdori bo'lgan. Amir Temurdashu bilan birga din-dinligini, davlat-davlatligini qilishi lozim degan qat'iy va to'g'ri tushuncha bo'lgan. Ibn Arabshoh Amir Temurning olim va ulamolarga bo'lgan munosabatini ta'riflab shunday deya yozgan edi: "Amir Temur olimlarga mehribon bo'lib, sayidu shariflarni o'ziga yaqin tutardi. Ulamolar va fozillarga to'la-to'kis izzat ko'rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam ko'rardi". Darhaqiqat, Amir Temur olimu – fozillarni juda qadrlar, o'zi ham qator fanlardan boxabar edi. Xususan, u tarix, falsafa, rioziyot, handasa, me'morchilik, falakiyot ilmlarini yaxshi ko'rar va qadrlar, she'riyatni sevar edi. Ibn Arabshoh bu boradagi mulohazalarni o'z asarida ham alohida ta'kidlagan.

Ulug' mutafakkir va buyuk shoir Alisher Navoiy Amir Temurga faoliyatiga ta'rif bera turib quyidagilarni ta'riflagan edi : "Agar Temur qayerda fan, madaniyat va san'at ahlini uchratsa, ularni o'z homiyligiga olar, ularga izzat-ikrom ko'rsatar, ularning tarbiyasiga ahamiyat berar hamda bu zotlardan oliy majlisida nadim (maslahatchi) sifatida va boshqa lavozimlarda foydalanardi".¹

Amir Temur Sharqning eng ko'p tarqalgan uchta tili – arab, fors, turkiy tillarini mukammal bilgan, qator tarixiy manbalardan yaxshi xabardor inson bo'lgan. Uning oila – nikoh munosabatlari, xotin-qizlar, ayollarga bo'lgan ulkan ehtiromi, farzandlar ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq fikr-mulohazalari ham yuqori e'tiborga sazovordir. Amir Temur huzurida xotin-qizlarni g'iybat qilish, ayollarga nisbatan zo'ravonlik qilish va

¹ Одилов А.А. Амир Темур тузуклари – давлат бошқаруви асоси. Тошкент 2016, Б.173.

shunga o'xshagan gap-so'zlarni aytish ta'qiqlangan. U xotin-qizlarga zo'ravonlik qilganlarni tanobini tortib qo'ya olgan. O'z xotinlari, qizlari va boshqa ayollarga nisbatan ham mehribon va shavqatli bo'lgan. Amir Temur ayollarga ma'lum erkinliklar bergan, ularni rasmiy marosim, bazmu-jamshidlarda ishtirok etishlariga ruxsat bergan. Klavixo rasmiy marosimlarda Amir Temurning suyakli xotini Saroymulxonim ishtirok etganligini alohida ta'kidlagan. Amir Temur ayol qarindoshlariga atab qator inshootlar qurdirgan. Masalan, xotini Tuman og'aga atab Behisht bog'ini, To'qal xonimga atab Dilkusho bog'ini, opasi Qutlug' Turkon og'a, singilisi Shirinbeka og'alarga hamda Bibixonimning onasiga atab maqbaralar barpo etganligi yuqoridagi mulohazaning mantiqiy tasdig'i bo'lib xizmat qiladi. U nikoh masalasini "Davlat yumishlari darajasidagi muhim ish" qatorida ko'rgan.

Amir Temur XIV asrdayoq "Kuch - adolatda" shiorini davlat siyosati mavqei darajasiga olib chiqdi. Umri davomida Sohibqiron bu shiorni o'ziga dasturul – amal qilib oldi. Amir Temur davlatidagi bu ahloqiy-ma'naviy mezon hamma davrlar uchun e'tiborli bo'lib, hozirgi kunga qadar insoniyat hayotida dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. Amir Temur harbiy san'at, soliq siyosati, raiyatga munosabatda, o'z davlat boshqaruvi tizimida, qo'l ostidagilarga munosabatda ham ushbu tamoyilga qat'iy amal qildi.

Amir Temur o'z hukmronligi davrida mutaassiblik, ayirmachilik, mazhabchilik ko'rinishlariga yo'l bermadi. Osoyishtalik, tinchlik-xotirjamlik, xavfsizlik borasida ahamiyatga molik ishlarni amalga oshirdi. Bu xususda Sohibqiron, "... saltanatimning u chetidan bu chetigacha biror bolakay boshida bir lagan tilla ko'tarib o'tadigan bo'lsa, bir donasiga ham zarar yetmaydigan tartib-intizom o'rnatdim", deya qayd qilgan edi.

SOHIBQIRON QO‘SHINIDAGI HARBIY JANG SAN‘ATI

A.A.Beknazarov,

*Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy
instituti professori, p.f.n., professor*

F.T.Shermatov,

*O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-
kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instiuti
boshlig‘ining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha
o‘rinbosari, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), podpolkovnik*

Amir Temur armiyasidagi jangchilarga doimiy maoshlar to‘langan. Maoshning hajmi xizmatni qanday olib borilishiga bog‘liq bo‘lgan. Oddiy askar 2 tadan 4 tagacha otning bahosiga teng bo‘lgan maosh, o‘n begi – o‘z o‘nligining maoshiga teng miqdordagi maoshni olgan (shuning uchun u o‘z jangchilarining yuqori maoshga erishishlaridan manfaatdor bo‘lgan); yuzbegiga oltita o‘nlikning maoshiga teng miqdordagi maosh to‘langan va hokazo. Intizomiy jazolarning turlaridan biri maoshning o‘ndan bir qismini ushlab qolish bo‘lgan.

Armiyada yengil piyodalar ham bo‘lib, ular safarda otlarda harakatlanganlar, jang olib borishda esa, kamondan nishonni bexato urish uchun arablarga o‘xshab otlardan tushib piyoda holda jang qilganlar. Piyoda jangchi qilich, 30 ta o‘qqa ega bo‘lgan kamon bilan qurollangan. Yengil piyodalar baland pastliklarda harakatlanish va shaharlarni qamal qilish uchun qo‘llanilgan. Bundan tashqari, Amir Temur tog‘larda harakatlanish uchun maxsus otryadni (tog‘ piyodalarini) tashkil etgan. [4]

Amir Temurning sarkardalik iste‘dodi uning To‘xtamishga qarshi va Hindistondagi yurishlari chog‘ida hamda turk sultoni Boyazid Yildirimga qarshi kurashlarida yaqqol namoyon bo‘ldi.

Amir Temurning To‘xtamishxonga qarshi yurishlari. Amir Temur Oltin O‘rdaning qanday xavf solib turganidan boxabar edi. U Jo‘chi ulusida sodir bo‘layotgan voqealarni diqqat bilan kuzatib turdi. 1360 yildan 1380 yilgacha, ya‘ni 20 yil ichida Oltin O‘rdada 25 ta xon almashti.

Oq Oʻrdaning hukmdori Oʻrisxon 1375 yilda Joʻchi ulusining ikki qismi – Oltin Oʻrda va Oq Oʻrdani birlashtirishga qaror qildi. Oʻrdalar birlashib, Amir Temur davlatiga jiddiy xavf tugʻdirishi mumkin edi. Bu xavfni oldini olish uchun Amir Temur yuzaga kelgan vaziyatdan mohirlik bilan foydalandi. [3]

Oq Oʻrdaning oʻzbek amirlaridan biri Toʻy Xoʻja oʻgʻlon Oltin Oʻrdaga qarshi harbiy yurishga ishtirok etishdan bosh tortganligi uchun Oʻrisxon tomonidan oʻldirildi. Toʻy Xoʻja oʻgʻlonning oʻgʻli Toʻxtamish oʻgʻlon 1376 yilda Oq Oʻrdadan qochib, Samarqandga keldi.

Amir Temur undan Oʻrisxonga qarshi kurashish uchun foydalanishga qaror qildi. Amir Temur Toʻxtamishni Joʻchi ulusida uning siyosatini yurgizuvchi kishi boʻladi deb oʻylagan edi. Lekin buning aksi boʻlib chiqdi. Amir Temurning yordami bilan Oq Oʻrdaning xoniga aylangan Toʻxtamish Oʻrisxonning izidan bordi, yaʼni u Joʻchi ulusini birlashtirish va qudratli Oltin Oʻrdani yaratish uchun kurash boshladi. Oq Oʻrdaning hukmdoriga aylangan Toʻxtamish (1377), oʻzining raqibi va soxta xon Mamayxonning Kulikovo dalasida rus knyazi Dmitriy Donskoydan chekkan magʻlubiyatidan foydalanishga qaror qildi va shu yili Kalka daryosi yoqasida Mamayxonning qolganqutgan qoʻshinini tormor etdi. Bu gʻalabadan keyin Toʻxtamish Oltin Oʻrdaning oliy hukmdori – xoni boʻldi va Joʻchi ulusining ikkala qismini birlashtirishga kirishdi.

Amir Temur bilan shijoatli va makkor Toʻxtamish oʻrtasidagi kelishmovchiliklar ochiqchasiga kurash tusini oldi.

1391 yilning 18 iyunida Qunduzcha daryosi boʻyida (Rossiya hududidagi hozirgi Samara viloyati) Amir Temur va Toʻxtamishning qoʻshini oʻrtasida jang boʻlib oʻtdi. Bu jangda har ikkala tomondan taxminan 400 ming jangchi qatnashdi va bu jang oʻsha davrning eng yirik janglaridan biri boʻldi.

Amir Temur armiyasining ushbu jangdagi jangovar tartibi Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiyning asarlarida toʻligʻicha aks ettirilgan. U Sohibqironning shaxsan oʻzi tomonidan tuzilgan edi. Amir Temur birinchi boʻlib jangovar tartibni «yetti qoʻl», yaʼni korpuslar usulida tashkil etdi, shu vaqtgacha hech kim bunday jangovar tartibni qoʻllamagan edi. Ali Yazdiy bu toʻgʻrisida shunday yozadi: «Hukmdor

o'zi yurib qo'shinni yetti qo'l tartibida safladi. Shu paytgacha hech bir podshoning qo'shinni bunday saflaganini eshitmaganman». Yana uning ma'lumot berishicha, g'animning qo'shini Amir Temurning qo'shiniga qaraganda bir nechta *koshunga* (500 ta kishiga ega bo'lgan harbiy bo'linma) ko'p edi. [5]

Amir Temur qo'shinining jangovar tartibi quyidagicha edi. Markazda saflangan qo'lga amir Sulaymonshoh qo'mondonlik qildi. Bu qo'lning ortidan mirzo Muhammad Sulton boshchiligidagi ikkinchi qo'l saf tortdi. Barang'orda Mirzo Mironshohning qo'li saflandi, Xo'ja Sayfiddinning qo'li kunbul rolini bajarib o'ng qanotda saflandi. Javang'or mirzo Umarshayxning qo'shinidan tashkil topdi. Kunbul sifatida – chap qanotda Berdibek Saribugning qo'li joylashdi. Qo'shin jangovar tartibining markazi avangard (manglay) tomonidan to'sib turildi. Qo'lning front ortida Oliy Bosh Qo'mondon Amir Temurning stavkasi bilan chag'dovul joylashdi. Amir Temur qo'mondonligidagi 20 minglik qo'shin zaxiraga ajratildi. Bu zaxira kuchlari jangning natijasi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

Qaramaqarshi tomonda xon To'xtamish o'z qo'shinini besh qismga bo'ldi, ularga ko'zga ko'ringan sarkardalar va Dashti Qipchoqning bahodirlari qo'mondonlik qildi. Jangdan oldin Amir Temur ruhiy hujum qo'lladi. Dushmanga ta'sir o'tkazish va o'z qo'shinida dushmanga nafrat uyg'otish uchun u nabirasi Mirzo Abubakr otryadiga chodirlar qurish va qozonlarda ovqat pishirishga buyruq berdi. Bular hammasi dushmanni shunday esankiratib qo'ydi, u turgan joyida qotib qoldi.

Dushmanni yakson qilib va katta o'ljani qo'lga kiritgan Amir Temur o'z qo'shini bilan Samarqandga qaytib keldi (1391 yilning oktabr oyi oxirida).

Bu harbiy yurish va jangning asosiy natijasi va undan olinadigan sabog' quyidagilardir: [3]

1. Amir Temurning qo'shini og'ir va murakkab sharoitlarda rejalashtirilgan yurishni amalga oshirdi, bunda faqat cho'l hududlaridan bosib o'tilgan yo'l 2500 kilometrdan oshib ketdi.

2. Amir Temur qo'shini safarning og'ir va harakatlanish qiyin bo'lgan uchastkalaridan dushmanga sezdirmasdan o'tdi.

3. O‘zining mohirona manyovrlari bilan Amir Temur To‘xtamishning qo‘shinini Azov bo‘ylaridan qo‘shimcha madad kuchlari kelishi ehtimoli bo‘lgan janub tomondan kesib qo‘ydi.

4. Sohibqiron o‘zining mohir harakatlari tufayli To‘xtamishni katta jangga kirishga majbur etdi va shu bilan uni og‘ir safarni amalga oshirgan o‘z qo‘shinini holdan toydiruvchi kichik urushlar olib borish imkoniyatidan mahrum etdi.

5. Safar chog‘ida Amir Temur armiyasi katta va kichik suv to‘siqlaridan kechib o‘tdi. Bunda sayoz kechuv joylaridan (brodlar), ko‘priklardan va suzib o‘tish usulidan foydalanildi.

6. Qunduzcha jangida Amir Temur birinchi bo‘lib o‘z qo‘shinini yetti qismga bo‘lishdek yangi jangovar tartibni qo‘lladi. Qudratli zaxira ham ajratildi.

7. Jangdan oldin Sohibqiron dushmanning ruhiy holatiga putur yetkazishga qaratilgan ruhiy hujumni o‘tkazdi.

8. Jang natijasini zaxiraning jangga kiritilishi va Amir Temurning qanotdan bergan qudratli zarbasi hal qildi.

9. Dushmanni ta‘qib etish shunday shiddat bilan olib borildiki, u bir joyga yig‘ilishga ulgurmasdan tarqalib ketdi yoki tor–mor etildi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning ma‘lumot berishicha, belgilangan safar tartibida (*murchil*) har bir o‘nbegi, yuzbegi, mingbegi va tumanbegi (*10 minglik qo‘shin qo‘mondoni*) o‘z mavqei va darajasiga ko‘ra, intizomga qattiq rioya qilgan holda harakatlangan. Tartibni buzganlar qattiq jazolangan, ularga hatto o‘lim jazosi ham berilgan.

Dam olish uchun to‘xtalganda, odatda, qo‘shin zanjirlar va arqonlar bilan bog‘langan aravalar bilan o‘rab olingan. Handaqlar qazilib, ularlarning oldida to‘siqlar o‘rnatilgan. G‘anim qo‘shinining paydo bo‘lishi bilan jangchilar o‘z pozitsiyalaridan chiqib, jangovar tartibga yoyilib dushmanga qarshi harakatlangan.

Amir Temur qo‘shini safar paytida quyidagi tartibda harakatlangan: bosh kuchlardan ancha oldinda Ularning ortidan kerakli narsalar ortilgan aravalar harakatlangan.

Asosiy joylarning birida suvdan kechib o‘tish uchun joy hozirlangan. Kechuv qo‘riqlash postlari bilan qo‘riqlangan. Qo‘shin daryodan qismlar

va bo‘linmalar tarkibida kechib o‘tgan. Kechuv paytida jangchilar qayiqlardan, meshlardan foydalangan yoki ponton ko‘priklari yasagan.

Amir Temur armiyasida o‘ljani taqsimlash davrida mabodo kimdir o‘zboshimchalik qilsa, hatto u Sohibqironning yaqin kishisi bo‘lsa ham, qattiq jazolangan. Uning butun mol-mulki musodara qilinib, o‘zi esa qatl etilgan. Faqat ruxsat berilganidan keyingina yurishning har bir ishtirokchisi, uning toifasi va darajasiga qaramasdan, o‘ljaning teng taqsimlangan qismini olish huquqiga ega bo‘lgan.[4]

Xulosa o‘rnida: Amir Temur tuzgan qo‘shin o‘zining tashkiliy-shtat tizimi bo‘yicha Chingizxonning qo‘shini tizimiga yaqin bo‘lsada, quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turgan:

1. Amir Temur armiyasi xalq lashkarlari hisoblansa ham, Chingizxon davrida bo‘lgani kabi umumiy xarakterga ega bo‘lmagan.

2. Chingizxon davrida qo‘shinning asosini ko‘chmanchilar tashkil etgan. Amir Temur davrida ko‘chmanchilar otliqlar va kamonchilarni yetkazib bergan. Lekin shu bilan birga o‘troq aholi ham qo‘shinning katta qismini tashkil etgan. Shunday qilib, harbiy xizmatga chorvadorlar bilan birga, urushlarning tez-tez bo‘lib turishi va ko‘lamining oshganligi munosabati bilan dehqonlar, hunarmandlar va o‘troq aholining boshqa toifalari ham chaqirilgan.

3. Amir Temur qo‘shinida armiyaning asosini tashkil etgan otliqlar bilan birga piyodalar ham katta rol o‘ynagan. Chingizxon davrida to‘laqonli piyodalar bo‘lmagan.

4. Amir Temur Sharqda birinchilardan bo‘lib armiyasiga artilleriya qurolini (ra‘d) kiritdi. Yangi turdagi o‘q otar qurolning joriy etilishi artilleriya bo‘linmalarini yaratishga imkon berdi va natijada to‘pchilar (ra‘dandozlar) soni bir necha ming kishiga yetdi. Artilleriya qurollari dushmanning tirik kuchlari va texnikasini tor-mor etish hamda qal‘alar va tsitadellarni qamal qilish uchun mo‘ljallangan. Ular qamal chizig‘ining o‘ta muhim uchastkalarida o‘rnatilgan.

5. Tog‘li joylarda mohirlik bilan harakatlanuvchi maxsus piyoda qo‘shinlar tashkil etilgan.

6. Amir Temur jangovar tartibini mohirlik bilan tuzgan va ularni chaqqonlik bilan manyovr qilgan, dushman qanotlariga va front ortiga

otliqlar bilan kutilmagan zarbalarni bergan, vaziyatdan kelib chiqib, o‘z qo‘shinini to‘qqiz va yetti qismlarga (*qo‘lga*) bo‘lgan.

7. Armiyada ayollardan tashkil etilgan qismlar joriy etilgan bo‘lib, ular jang paytida erkaklar bilan bir safda turgan va shon-shuhrat hamda jasorat namunalarini ko‘rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobi 2021 yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Qurolli Kuchlar tashkil etiganligining 30 yilligi bayramidan so‘zlagan nutqi 2022 yil.

3. J.H.Ismoilova, L.G.Levteyeva larning “O‘zbekiston harbiy sa‘nati tarixi” kitobi 2013 yil.

4. “Temur tuzuklari” (forschadan ko‘chirma). T., 1991 y.

5. Amir Temur o‘g‘itlari. T., Cho‘lpon, 1992 y.

«БАБУР-НАМЕ» КАК ЦЕННЫЙ ИСТОЧНИК ПО ИСТОРИИ ТЕМУРИДОВ

А.Мадраимов,

старший научный сотрудник Государственного музея истории

Темуридов АН УзР, доктор исторических наук, профессор,

Заслуженный деятель культуры УзР

А.Мадраимов,

доктор философии по историческим наукам (PhD),

и.о.доцента кафедры ”История и этнология

народов Центральной Азии”, Ташкентского государственного

университета Востоковедения

С точки зрения историков письменный источник начала XVI века «Бабур-наме» Захириддина Мухаммада Бабура (1483-1530), представляет собой особо ценный и богатый материал¹. Для изучения

¹ О Бабуре и Бабуридах более подробно можно получить сведения в таких книгах как: Захириддин Мухаммад Бобур энциклопедияси /Тахрир хайъати А. Каюмов ва бошқ. Бош муҳаррир А. Аъзамов. –Тошкент;

не только жизни и творчества самого автора, но и для изучения всей культурной жизни эпохи, экономики и важнейших политических событий XV-XVI веков, происходивших на территории Центральной Азии, Афганистана, Пакистана и Северной Индии. Эта книга также ценна для изучения государственного устройства, политических событий и жизни Темуридов. Она как бы является продолжением книги Амира Темура «Тузуки Темурий» («Уложения Темура»)¹. Поэтому переводчики «Бабур-наме» на персидский язык назвали книгу «Тузуки Бобурий» («Уложения Бабура»)².

Захириддин Мухаммад Бабур, был крупным поэтом, выдающимся полководцем и государственным деятелем, основоположником новой империи Бабуридов в 1526, 1527 годах, то есть в первой трети XVI века. Его главная книга жизни, написанная с 12 лет почти до конца его жизни, то есть до 1529 года, названная им «Вакаи» («События»), позднее стала известным по его имени как «Бабур-наме» во всем мире. При описании событий, связанных с правлениями таких Темуридов, как его отец Омар Шейха, правителя Ферганы, его братьев Султан Ахмад Мирзы и Султан Махмуд Мирзы, правителей Мавераннахра, а также Султана Хусейна Мирзы, правителя Хорасана со столицей в городе Герате, автор выработал и использовал особый системный подход.

Цель исследования является выявить ценные сведения по истории государственности Темуридов из книги Захириддина Мухаммада Бабура «Бабур-наме», изучить систему описания и анализа государственного аппарата, характера служащих, поэтов и мыслителей этого периода, а также личного подхода Бабура к выдающимся личностям и крупным явлениям того времени.

В книге Бабура дается описания государственного аппарата таких Темуридов, как Султан Хусейн Мирза (г.пр. 1469-1506), Султан

“Sharq”, 2014; 2017; Захириддин Мухаммад Бабур. Бабуриды. Библиография / Сост. Ш. Ш. Рустамхужаев. – Москва: Изд-во восточной литературы, 2016 и др.

¹ Квинт В. Стратегическое лидерство Амира Темура: комментарии к «Уложению». –Ташкент-Санкт-Петербург. 2021.

² Мадраимов А. Бобурноманинг форсча таржималари / Захириддин Мухаммад Бобур энциклопедияси, 2017, -160 бет.

Ахмад Мирза, Омар Шейх Мирза (умер 1494), Султан Махмуд Мирза, Султан Байсунгар Мирза и т.д.

В «Бабур-наме» описываются государственный аппарат всех Тимуридов. Вот как Бабур характеризует Тимурида отцеубийца, сына великого ученого Улугбека: «...У Улугбека ее (власть) отнял Абд ал-Латиф мирза, его сын, Однако он сам властвовал не более 5-6 месяцев»¹.

Система описания государственного устройства через характеристики служащих ярко появляется в изучении характера отца Бабура Омар Шейха и его государственного аппарата. Творческий принцип описания государственного аппарата можно наблюдать в его способе написания характеристик как самих правителей и других государственных деятелей. Например, Бабур отдельно в начале своего произведения рассказывает о себе, о своих близких родственниках, о близких ему и его родственникам эмирах, о битвах, сражениях. Он подробно описывает произошедшие исторические факты, называя точные данные о времени и места, когда, где и как они произошли, а также дает характеристику занимаемых должностей в системе государственного управления.

Стиль изложения Бабура специалисты называли лаконичным, выразительным, четким и притягательным.

Бабур как историк, один из немногих, который сперва описывает личностные качества, а потом политический портрет правителя, и затем период его управления, и государственный аппарат через характеристику должностных лиц.

Бабур раскрывает для нас историю того времени с позиции участника этих событий. Приведенные данные в его произведениях отличаются особой тщательностью и исключительной объективностью. О своем творческом принципе Бабур писал: «:... дело происходило именно так, как сказано. Все это написано не ради того, чтобы возвеличить самого себя, и истина заключается в том, что здесь изложено»².

¹ Бабур-наме / Перевод М. Салье. Издание второе, доработанное. – Ташкент.: Главная редакция Энциклопедии, 1993. – С 75.

² Бабур-наме / Перевод М.Салье. Издание второе, доработанное. – Ташкент.: Главная редакция

Когда автор сомневается в том, или ином событиях или сведениях, то он говорит, что за достоверность этого сведения отвечает рассказчик этого сведения, а не автор, то есть он. Но, некоторые его сведения, по нашему мнению, носят такой личностный характер, что приходится иногда сомневаться в полной объективности Бабура. Например, в характеристике Шейбани-хана главного политического противника.

Так же при описании истории отца Бабура Омар Шейха особо отличается тем, что автор его характеризует с особым уважением и со всеми подробностями. Это и естественно, что по другому не должно быть, согласно восточной этике.

Далее, мы приводим характеристики самых крупных последних Темуридов. Отметим, что в книге приводятся сведения о том или ином правителе, среди описаний событий, после того, когда он умирает.

Вот как описывает Бабур историю своего отца: «Рождение; и происхождения Омар Шейх Мирзы. Он родился в году восемьсот шестидесятом в Самарканде и был четвертым сыном султана Абу Саид Мирзы, млаже Султан Ахмед Мирзы, Султан Мухаммед Мирзы и Султан Махмуд Мирзы»¹.

Описание истории государственного аппарата Султан Хусейн Мирзы и его эпохи отличается тем, что в этот период государство Темуридов достигло своего расцвета, как в области культуры, так и экономики. Характеризуя этот период, Бабур пишет, что «Время Султан Хусейн Мирзы, было удивительное время, Хорасан и его столица Герат был полон одаренных людей. Каждый, кто занимался тем, или иным делом, имел цель и желание достичь совершенства». Кроме того, Бабур упоминает, что в этот период благодаря стараниям Амира Алишера Навои и другого визира Маджаддина, экономика страны улучшилось десять, возможно двадцать раз»². Высокий

Энциклопедии, 1993. – С 103.

¹ Бабур-наме / Перевод М. Салье. Издание второе, доработанное. – Ташкент.: Главная редакция Энциклопедии, 1993. – С 33.

² Цит. Соч. – С 196.

экономический и культурный уровень Герата в дальнейшем служил недостижимым эталоном для последующих правителей.

Период правления Султан Ахмад Мирзы в Мавераннахре или в Самарканде Бабур характеризует как эпохой спокойной и зажиточной жизни. Важным моментом считает он, что в это время знаменитый религиозный деятель Убайдулла Ходжа Ахрар строго следил за порядком и соблюдением шариатских норм государственными служащими.

Особо отличается характеристика другого дяди Бабура Султан Махмуд Мирзы. Этот правитель отличался особым распутством, но хорошо знающий арифметику, расчет, строго следил за расходом казенных, то есть государственных денег. Когда он стал правителем Мавераннахра, то отменил привилегии сторонников Убайдуллы Ходжи Ахрара, тем самым вызвал их недовольство. То, что он умер через шесть месяцев, может вызвать, подозрение, потому что многие самаркандцы были им недовольны.

Самая противоречивая и отрицательная характеристика у молодого Темурида Султан Али Мирзы. Он, согласившись с предложением своей матери, которая, собираясь выйти замуж за Шейбани-хана, погубила самого себя и своего сына, лишилась сперва власти, а потом и жизни. Вот как относиться к нему Бабур: «Ради благ скоротечной обманчивой жизни Султан Али мирза ушел из мира с дурной славой, послушавшись слов женщины, он сам вывел себя из круга достославных. Нельзя больше писать о делах такого человека, нельзя больше слушать о столь гнусных поступках!»¹

Изучив историю и характеристику эпохи государственного аппарата Темуридов, отраженных на страницах «Бабур-наме» мы узнаем причину падения их популярности среди населения, что привело к смене их на политической сцене новой династией, Шейбанидами.

Бабур выступает на страницах своего произведения как опытный государственный мыслитель, аналитик и приходит к выводу, что

¹ Бабур-наме / Перевод М. Салье. Издание второе, доработанное. -Ташкент.: Главная редакция Энциклопедии, 1993. -С. 49

необходимо внести существенные коррективы в аппарат управления Темуридов. Он смело писал, что «прежде наши отцы и родичи тщательно соблюдали, устав Чингиза»¹.

Система управления государства Темуридов являясь положительной в целом, в то же время позволял важным чиновникам и местным правителям безнаказанно творить беспорядки, поступать вероломно, перейти из одной стороны в другую.

На страницах «Бабур-наме» даны характеристики некоторых государственных деятелей, которые отличались своими отрицательными качествами. Наиболее яркой отрицательной характеристикой является портрет Хусрав шаха. Вот что пишет о нем Бабур: «Перед богом он был ослушником, а для людей - ненавистным, достойным того, чтобы его проклинали и поносили до самого дня воскресения мертвых».

В заключение, на основе проведенного анализа лишь некоторых сведений -о правителях и служащих, можно сказать, что в «Бабур-наме» Бабур как историк, и мыслитель выработал и использовал свой особый принцип описании истории государственного аппарата Тимуридов. Эта книга имеет важное значение для выявления научного творческого принципа такого крупного историка и государственного деятеля, каким является Захириддин Мухаммад Бабур. И не раз им пользовались для написания научных трудов по истории, но мы уверены, что ещё многие ученые будут пользоваться его историческими произведениями для углублённого изучения государственного аппарата каждого Тимурида, сильные и слабые стороны правителей. Потому что, эпоха Тимуридов Узбекистана и всей Центральной Азии, является как бы эпохой Ренессанса или высокого развития экономики, науки и культуры в целом.

¹ Цит. Соч. – С. 99

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TOG‘- KON ISHLARI HAQIDA MA’LUMOTLAR

S.R.Turayeva,

*O‘zbekiston Jamoat xavfsizligi universiteti Ijtimoiy-
gumanitar fanlar kaferasi professori, t.f.n.*

Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat, me’morchilik va tasviriy san’at, hunarmandchilik va savdo- sotiq, musiqa va she’riyat beqiyos rivoj topdi. Amir Temur va temuriylar davrida bunyodkorlik, obodonchilik rivojlanib, iqtisodiy taraqqiyot yo‘lga qo‘yilgan. Amir Temur va uning avlodlari tomonidan madrasalar, masjidlar, xonoqohlar, saroylar, bozorlar, bog‘lar, ko‘priklar, yo‘llar, bekatlar, hammomlar, kanallar, qal’alar va boshqa inshootlar bunyod etildi. Temuriylar saltanati o‘z davrida jahonning eng rivojlangan davlatlaridan biriga aylandi.

Amir Temur va Temuriylar davri konchilik ishi bilan bir qator olimlar shug‘ullangan. Buryakov Y. F, Q.Sanaqulov, X. Raupov, O. Xaitova, va boshqa olimlar tadqiqotlarida bu haqida ma’lumotlar mavjud.

Boshqa sohalar qatorida bu davrda tog‘-konchilik sohasi ham taraqqiy etgan. Yozma manbalarda XV asrga oid qimmatbaho toshlar va ularni qazib olish haqida ayrim ma’lumotlar uchraydi. Badaxshonda barcha joyda mashhur bo‘lgan la’l turlari qazib olingan. Undan uncha uzoq bo‘lmagan joyda lojuvard koni bo‘lgan tog‘ joylashgan. Aynan shu erdagi qoyalarda zangori yoki ko‘kish yoqut (sapfir) qazib olingan¹. Konlarni qazish va topilgan toshlarni qayta ishlash asosan qo‘lda bajarilgan. Badaxshon, Ko‘kcha daryosi, Amudaryoning yuqqori oqimidagi konlarni bayon eta turib, ispan sayyohi Rui Gonsales la’l qazib olishni shunday ta’riflaydi : “ Qatlamlar topilib, tog‘ qismi ko‘chirib tushiriladi, la’ldan jinsolinadi, la’lga etguncha uning sirti oz-ozdan ko‘chirib olinadi, so‘ng o‘tkiraydigan toshda bo‘linadi”².

¹ Temur va Ulug‘bek davri tarixi. – Toshkent: Qomuslar Bo‘sh taхририяти, 1996. – B. 124.

² Руи Гонсалес де Клавихо . Самарқандга Амир Темур саройига саёхат кундалиги (1403-1406 йиллар) – Т. “O‘ZBEKISTON” 2010. Б-145.

Ibn Arabshoh “Men Samarqand devorlarining haddida, g‘arb tomondan Temur bino qilgan va Damashq deb atalgan bir qasabani ko‘rdim. Ushbu qasabaning maqosi Samarqanddan taxminan yarim kunlik (yo‘l)dir. Odamlar hozirgacha qadimgi Samarqandni kavalaydilar va kufiy xati bilan tamg‘alangan dirhamlar va filslar qazib oladilar va filsu tangalarini eritib, undan kumush ajratib oladilar” – deb yozadi¹.

Amir Temur va temuriylar davrida oltin, kumush va misdan tangalar zarb etilganligi manbalarda keltirilgan. Bu davr numizmatika bo‘yicha tadqiqot olib borgan tarixchilarning yozishicha, Amir Temur davlatida 50 ta zarbxonalar bo‘lgan. Tanglar oltin, kumush va misdan zarb qilingan. Oltin tangalar dinor, kumush dirham, mis fulus deb nomlangan. Tangalar ko‘proq kumushdan zarb etilgan bo‘lib, u tanga deb atalgan. Tanganing to‘rtidan biriga to‘g‘ri keladigan 1,5 grammlik kumush pullar “Amir” so‘zidan “miri” deb yuritilgan².

Olimlarning ma‘lumotlariga ko‘ra. Amir Temur davrida tanga pullarga talab va ehtiyojning katta bo‘lganligi sababli, ular nafaqat Movarounnahrdagi markaziy shaharlar- Samarqand, Qarshi va Xorazmda. Balki Xuroson, Eron, Iroq va Ozarbayjon hududlarida, jumladan, Astrobod, Astora (Ashpara), Baku, Basra, Bog‘dod, Bamiyon, damg‘on, darband, Yazd, Isfaxon, Kermon, Hirot kabi 40 ga yaqin shaharlarda zarb etilgan³.

Amir Temur davrida saltanat hududidagi barcha qimmatbaho toshlar qazib olinadigan konlar qattiq nazoratga olinganligi tarixiy manbalarda keltirilgan. Konchilarning ishi qo‘riqchilar tomonidan kuzatib turilgan. Samarqandda barpo etilgan ko‘plab bino va inshootlarning qurilishida marmar keng qo‘llanilgan. Ayniqsa, undan naqshlar o‘yilgan qabr toshlari tayyorlangan. Yozma manbalarda Samarqand viloyati hududidan qazib olinadigan qurilish materiallari orasida “yashil marmar”, surma, gips, ganch borligi haqida ma‘lumotlar uchraydi.

XIV asr oxiriga kelib, Kesh o‘sha davrning go‘zal shaharlaridan biriga aylangan. Nizomiddin Shomiy o‘zining “Zafarnoma” asarida

¹ Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. – Тошкент. “Меҳнат”, 1992, I китоб, - Б. 86.

² Давидович Е.А. О происхождении и значении термина мира в денежном хозяйстве Средней Азии XV-начало XX вв. В сб.: История и культура народов Средней Азии. Москва, 1976. – С. 124-127.

³ Тўхтиев И. Амир Темур ва темурийларнинг молия-пул сиёсати. – Тошкент. “Ўзбекистон”, 2006. – Б.40.

Oqsaroy haqida yozib, uning peshtoq va ravoqlarini ayyuq yulduziga etkazdilar, chunonchi, biron kimsa jahonda unga teng keladigan imoratni koʻrmagan va eshitmagan edi, deb uning naqadar ulugʻvorligini madh etgan. Evropaning Madrid. Parij kabi shaharlarning maftunkor qasrlarini koʻrgan Ispaniya elchisi Klavixo Keshga tashrif buyurganida, Oqsaroyning hashamdorligi va ulugʻvorligini koʻrib, uni bunyod etishda qatnashgan meʼmor va quruvchilarning yuksak mahoratiga tan bergan va uning yuksak bahosiga sazovor boʻlgan. “ Bu erda hamma narsa oltin, lojuvard va boshqa anvoyi ranglarda tovlanar va hatto ajoyib ustalar boʻlgan Parij uchun hayratomuz edi. Bu ishlar (hatto ularda ham) goʻzal deb gʻisoblangan boʻlardir”, deb yozadi Gonsales de Klavixo oʻz esdaliklarida¹.

Ispaniyalik elchi Klavixo Samarqandda Bibixonimning qabulida boʻlganida katta xonaning oʻrtasida odam boʻyi keladigan oltin daraxtini va uning shoxlarida oltin mevalarni hayratga tushadi. Konigilda oʻtkazilgan bu bazmni Klavixo shunday taʼriflaydi: “... xontaxta qarshisida eman daraxti shaklidagi “oltin”daraxt turibdi. Toboqqa oʻrnatilgan daraxtning tanasi odam oyogʻi yoʻgʻonligicha keladi. Uning shoxlarida eman daraxti barglariga oʻxshash yaproqlar har tomonga taralgan. Balandligi odam boʻyicha bor. Daraxtning sargʻish, qizil, zangori yoqutlar, zumradlar, firuzalar va ajoyib, yirik- yirik tiniq, dumaloq, sara marvaridlardan “mevalari” bor. Baʼzi qushchalarning qanoti tushirilgan, baʼzilaritushib ketadiganday boʻlib, butoqlariga zoʻrgʻa ilinib turibdi, ayrimlari daraxtning yoqut, zumrad, firuza, marvarid va boshqa toshlardan ishlangan “mevalari”ni tumshuqlarida tutib turardi”².

Sohibqiron Amir Temurning “Oltin daraxti” va 25 ming javohiri” toʻgʻrisida hamda ularning keyingi taqdiri bilan bogʻliq koʻpgina maʼlumotlar tarixiy manbalarda qayd etilgan. Amir Temur javohirlaridan Samoinur va Koʻhinur olmosi boburiylarga nasib etgandi. Zahiriddin Muhammad Bobur vafotidan soʻng (1483-1530 yillar) Hindiston taxti uning oʻgʻli Humoyun (1530-1540, 1556-1556)ga meros qoldi. Biroq 1539-1540 yillarda Chausa va Kanavuj janglarida Sherhon Suriydan

¹ Руи Гонсалес де Клавихо . Самарқандга Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406 йиллар) – Т. “О‘ЗБЕКISTON” 2010. – Б.145.

² Руи Гонсалес де Клавихо . Самарқандга Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406 йиллар) – Т. “О‘ЗБЕКISTON” 2010. Б.188.

engilgan Humoyun oilasi bilan Eron shohi Tahmasp yoniga boshpana izlab bordi. Tahmasp ko'rsatgan mehmondorchilik evaziga hukmdor Samoinurni fors podshosiga hadya etdi¹.

Fransuz temurshunos olimi Lyusen Keren "Amir Temur saltanati" kitobida elchilarni Bog'i Chinorda sohibqiron qabulida bo'lishni Klovixonning manbalaridan foydalanib, quyidagicha tasvirlaydi: Zalga kiraverishda sof tillodan yasalgan ikki yassi kursi va ularning ustidagi javohir, zumrad va feruzalar bilan bezatilgan ettita tilla ko'zani ko'rib hayratdan yoqa ushladilar. Ko'zalarining qopqoqlari yirik yoqutdan edi; ularning atrofida olti dona tilla qadoq turar, qadahlardan birining ichidagi nodir yoqut qator javohirlar bilan o'ralgan edi. Bularning barchasi ajib bir uyg'unliuni tashkil etardi².

Yoxud ushbu javohirlardan biri "Chirg'i olam" o'zidan kichik uchta yoqut, bir qancha yirik dur va zumradlar qadab yasalgan san'at asari bo'lib, uning vazni 361 karat (1 karat-0,2 gramm) edi. "Chirog'i olam" Amir Temurdan Shohruh Mirzoga. Undan Ulug'bek Mirzoga o'tdi. Keyinchalik Ashtarxoniy Valimuhammad(1605- 1611) mazkur javohirning egasi bo'ldi. Valimuhammad 1611 yilda yoqutni Eron va Ozarbayjon shohi Abbas Safaviyga sovg'a qiladi. Safaviy hukmdori "Chirog'i olam"ni boburiyzoda Muhammad Jahongirga sovg'a qilgan. 1739 yilda Hindiston poytaxti Dehlini egallagan Eron hukmdori Nodirshoh "Chirog'i olam"ning navbatdagi egasi bo'ldi. Bir necha bor qo'ldan – qo'lga o'tgan "Chirog'i olam" Rossiya – Eron o'rtasida 1829 yil 10 fevralda imzolangan "Turkmanchoy shartnomasi"ga ko'ra 20 mln Rossiya rubli miqdorida baholanib, Eron tomonidan Rossiyaga kontributsiya to'lovi sifatida yuborildi. Tavon puli bo'lgan "Chirog' olam" eronni og'ir ahvoldan olib chiqqan javohir bo'lgandi³.

Umuman, Movarounnahrda hunarmandchilik rivojiga bir tomondan mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, ikkinchi tomondan, ayniqsa, Samarqandda mahalliy va musofir me'morlar, to'quvchilar, tikuvchilar, qurolsozlar, toshtaroshlar, tabiblar va boshqa mutaxassislarining hamkorligi

¹ Рўзиев Э. Ҳиндистонда Шершоҳ давлати. – Тошкент: "фан", 1992.- Б. 13-15.

² Люсен Кэрэн. Амир Тему́р салтанати (француз тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Б. Эрматов; махсус муҳаррир: Х. Султонов; Сўзбоши: Луи Базен)- Тошкент: "Маънавият", 1999.- Б. 145.

³ Озод Мўмин. Амир Тему́р ёкути // "Шарқ Юлдузи", 1991. №10. – Б. 142.

yordam berdi. Bu to'g'rida Ibn Arabshoh. Sharofuddin Ali Yazdiy va Rui Gonsales de Klavixo, Abdurazzoq Samarqandiy hamda Amir Temur va Mirzo Ulug'bekka zamondosh muarrixlar yozib qoldirishgan.

XIV asr oxiri XV boshlarida o'zining san'atida mahorat cho'qqisiga erishgan ustalarning nomlari manbalarda saqlangan. Qimmatbaho toshlarga naqsh soluvchi zargarlardan al-Xoms Ali Sheroziy va al-Xoja Muhammad Hofiz Sheroziy, bog'dorchilik bo'yicha yirik mutaxassis Shahobiddin Ahmad az-Zardkash shunday kishilardan bo'lgan.

Tog'-kon ishining rivojlanishi o'z navbatida hunarmandchilik va uning o'ziga xos tarmoqlarining, qurolsozlik, quruvchilik va me'morchilik, tosh va metallarga ishlov berish sohasining sezilarli rivojlanishiga asos bo'ldi. Amir Temur davrida kon ishlari rivojlangan, konlarda maxsus xavfsizligini nazorat qiluvchilar xizmati tashkil etilgan. Oliy hukmdor konchilarni mehnat qurollari, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishi, ish haqi kabi barcha ettiyojlari uchun taminotni o'z zimmasiga olgan.

AMIR TEMURNING STRATEGIK MAHORATI

A.Madraimov,

t.f.d., professor, O'zR FA Temuriylar tarixi

davlat muzeyi katta ilmiy xodimi

Alisher Navoiy ta'rifi bilan aytganda, "mulk shajaralarining bo'stoni va salotin gavharining ummoni, hoqoni jahongir sohibqiron" Amir Temur ibn Muhammad Tarag'ay Bahodur o'g'li 1336 yili Kesh – Shahrisabz yaqinidagi Xoja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan. Uning onasi Takina Moh Xonim Buxorodagi obro'li diniy ziyoli Sadr Shari'alar oilasidan bo'lgan. Sohibqiron obro'li bir bek o'g'li bo'lib, Movarounahrning amaldagi hokimi Amir Qazag'an nabirasiga uylanib, kuyov darajasiga erishdi. Uzoq qarindoshi o'rniga Shahrisabz hokimi bo'lgach, ya'ni 1360 yildan boshlab, o'n yil davomida Movarounahr mustaqilligi uchun tinimsiz kurashi rasmiy amir, amalda ijrochi hokimi etib saylanish darajasiga erishdi. Unga ikki muqaddas shahar Makkai mukarrama va Madinai munavvara rasmiy vakili bo'lmish Mir Sayyid Baraka hokimiyat ramzlari bo'lmish bayroq,

naqora va soyabonlarni topshirib, rasman Movarounnahr rahbari deb tan olgan edi.

Amir Temur o‘zining oltmish to‘qqiz yillik hayoti va qirq besh yillik faoliyati davrida avval 1360 yildan viloyat hokimi, 1370 yildan Movarounnahr amiri sifatida davlati poytaxti Samarqand shahridagi paxsa binolar o‘rniga pishiq g‘isht va koshinli oliy imoratlar, jumladan Jomi Masjid, Ko‘k saroy va Bo‘ston saroy, ajoyib bog‘ va qasrlar, Shohi Zinda majmuasidagi maqbara va masjidlar, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Dorus-sayodat va Dorul-tilovat imoratlari, Toshkent, Turkistonda Xoja Ahmad Yassaviyga bag‘ishlagan ulkan me‘moriy majmua va boshqa joylarda bunyod etgan yodgorliklar, davlat arbobi sifatida yigirma yetti mamlakatni yagona siyosiy, iqtisodiy va madaniy birlikka aylantirgani, mashhur tarixchi olimlar G‘iyosiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Hofizi Abru va boshqalarga homiyligi, va ayniqsa, **devon tartibi va sultonlik qilish tarzlari haqida joriy etgan qoida** – bu albatta “Temur tuzuklari”ning yaratilishi va boshqa ibratli ishlari jahon afkor ommasining uning shaxsi va merosiga bo‘lgan va bo‘layotgan katta e‘tiborini ta‘minlaydi.

Sohibqironning kichik zamondoshi Ibn Arabshohning tan olishicha, buyuk arab olimi, qozilar qozisi, Valiuddin Abdurahmon Ibn Xaldun Amir Temurni mavlono deb ta‘riflagan. Sohibqiron olimlarga mehribon bo‘lib, sayyidu shariflarni o‘ziga yaqin tutardi. Ulamolalar va fozillarga to‘la-to‘kis izzat ko‘rsatib, ularni harqanday kimsadan batamom muqaddam ko‘rardi. Uning lutfi qahri ichiga qorilgan bo‘lib, qo‘rsligi ezguligi orasiga qo‘shilgan edi. Amir Temur har qanday hunar va kasb bo‘lmasin, agar unda biron fazilat va sharofat bo‘lsa, shu kasb egalariga g‘oyatda mehr qo‘ygan va ularni o‘z poytaxtiga taklif qilgan. Xullasi kalom, Amir Temur har bir foydali jonni yig‘ib, nimaiki narsa bo‘lsa sarasini Samarqand shahriga keltirdi. Natijada, Samarqandda har bir ajib fan ahli namoyondasidan va san‘atlar g‘aroyib uslubidan fazilati peshonasida nishona bo‘lib, o‘z tengqurlaridan ustun turgan o‘z sohasida alloma kishilar yig‘ilgan edi.

Amir Temur davlat rahbari bo‘lgach, o‘z saroyi devonida turli munshiy, kotib, uyg‘ur bitikchilari, navisandalarni jalb etib, ularni o‘zi bilan birga olib yurar, har bir joydan o‘z oila a‘zolari, turli shahar, viloyat,

tuman hokimlari bilan xatti-kitobat olib borar edilar. Ular saroy va mamlakatda yuz bergan voqea va hodisalarni yozib eng muhim jarayonlar to'g'risida barchani boxabar qilib borganlar. Lekin ushbu qaydnomalar ma'lum darajada bir xil tarzda yozib borilgani uchun, ularning boshqalarga qiziqarli tarzda bayon etilishini istagan Sohibqiron avval yirik tarixchilardan G'iyosiddin Ali Yazdiyga, keyin Nizomiddin Shomiya o'z hayoti va faoliyati voqealarini bitishni topshirgan va bayon uslubi sodda, ravon va barcha uchun tushunarli bo'lishini talab qilgan. Natijada, ikki kitob, "Ro'znomai Hindiston" va "Zafarnoma" asarlari yuzaga kelib, ulardan maqsad, Amir Temur hayoti va faoliyatining eng muhim jihatlarini farzand, nabira va bo'lg'usi avlodlarga ibrat bo'lib xizmat qilishi kerak edi. Ammo bu ikkala muallif diniy bilimlarni yaxshi bilgani uchun ma'lum darajada ularning asarlarida, ayniqsa G'iyosiddin Ali Yazdiy kitobida sohibqironni ulug'lash uchun o'zining bor mahoratini ishga solib, barcha faoliyatini ibratli tomonini diniy tomondan izohlashga intilgan. Ikkinchi asarda ham muallif kitobning tarbiyaviy xususiyatiga katta e'tibor qaratgan. Ushbu ikki kitobdan ko'ngli to'lmagan Amir Temurning o'zi **devon tartibi va sultonlik qilish tarzlari haqida joriy etgan qoida** bayon etilgan "Temur tuzuklari"ni yaratishga kirishgan.

Tuzuk so'zining ma'nosi – urf-odat, tartib, qonun-qoida, oyin, doktrina, konstitusiyani anglatadi. U podshohlarning tarjimai holi, siyosiy faoliyati, davlatni va jamiyatni boshqarish qonun-qoidalari, haq-huquqlari bayoni, turish-turmishi, axloq-odobi, davlatni idora qilishi, turli mansab egalariga belgilaydigan huquq, burch, vazifalari, xalq bilan muomila-munosabati, xayr-saxovati, adolatli soliq siyosati, xalq va mamlakatni duo'manlardan muhofaza qilish, harbiy yurishlarni o'tkazish va boshqa qonun va qoidalar yozilgan risoladir.

"Temur tuzuklari" asari mumtoz o'zbek tilida yaratilgan bo'lib, uning asliyatini tarixchilar Jafar posho kutubxonasiida bo'lgani, undan Mir Abu Tolib ismli olib nusxa olib, uni fors tiliga tarjima qilib, buyuk Boburiylardan biri Shahobuddin Muhammad Shohijahonga taqdim etgan. Podshoh tarjima bilan tanishib, undagi ayrim tushunmovchiliklarni bartaraf etishni va asarni Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari matni bilan qiyoslashni topshirgan. Natijada, "Temur tuzuklari"ning 17

asrda fors tilida qayta tiklangan tahriri paydo boʻlib, kitob ham fors tilida qayta-qayta koʻchirilgan, yevropa, ingliz va fransuz, rus tillari, mumtoz oʻzbek tiliga ikki marta Xorazmda, bir marta Qoʻqonda mumtoz oʻzbek tiliga va Oʻzbekistonda Alixon Toʻra Sogʻuniy tomonidan tarjima qilingan edi.

Bundan avvalroq, kitob ingliz tiliga tarjima qilinib, tadqiqot va izohlar bilan 1783 yili Angliyada mayor Devi tomonidan chop etilgan edi. Soʻngra bu nashr 1785 va 1891 yillari Hindistonda qayta nashr etilgan. Fransuz olimi L. Langle Parijda 1787 yili oʻz tarjimasini chop etgan. Asarning bir qismi, Malfuzat – Amir Temurning qirq bir yoshgacha boʻlgan biografiyasi ingliz olimi K. Styuart tomonidan 1830 yilda nashr etilgan. Kitobning fors tilidagi toshbosma nashri Mumbayda 1908 yili, undan avval 1845 yili urdu tiliga tarjima Subxon Baxshi tomonidan amalga oshirilgan. Kitob rus tilida 1894 yili forscha va fransuzcha tarjimalar asosida nashr etilgan edi. Asarni rus tilga N. S. Likoshin va V. V. Panova tomonidan oʻzbek tilidagi tahrirdan tarjima qilgani ham maʼlum.

Keltirilgan maʼlumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, “Temur tuzuklari” oʻz mazmun eʼtibori hamda sohibqiron hayoti va joriy etgan tuzuklarini oʻzganish boʻyicha noyob manba sifatida olimlar va jamoatchilik eʼtiborini qozonib kelgan edi. Oʻzbekiston mustaqillik davrida asar oʻzbek tilida Alixon Toʻra sogʻuniy tarjimasini Habib Karamatov toʻldirishlari bilan akademik B. Ahmedov tahriri ostida bir necha bor nashr etilgan edi.

Bu “Temur tuzuklari” asari ikki maqola yoki kitobdan ibrat boʻlib, birinchisida “oʻzga mamlakatlarni zabt etish, ularni idora qilish, gʻanim lashkarini sindirish, dushmanni tuzoqqa tushirish, muholiflarni koʻnglini ovlab doʻstga aylantirish, doʻst dushman orasida muomala, murosayu madora qilish” bayon etilgan. Ikkinchi kitob baxtli farzandlar va nabiralarga nasihat, saltanat qurish, davlat tutish bobidagi tuzuklarini qoʻllanma sifatida yozilgan hamda avlodlarga ularga muvofiq ish yuritish topshirilgan.

Kitobning ikkinchi qismi alohida eʼtiborga sazovor. Chunki, avvalgi asarlarda Amir Temur faoliyati yoritilgan boʻlsa, uning davlatni

boshqarish tafsilotlari maxsus yoritilmagan edi. 1999 yili Akademik B. Ahmedov “Temur tuzuklari”ning ruscha tarjimasi va forscha toshbosma faksimilesiga yozgan soʻz boshidasida kitobning tarixiy ahamiyatini ochib bergan. Ayniqsa, davlat boshqaruvidagi vazirlarning oʻrni va ahamiyatiga Amir Temur katta eʼtibor bergani, ularga qoʻyiladigan talablar, vazifalarini ochib bergan.

Jamiyatni Amir Temur oʻn ikki guruhga ajratib, har bir guruh xususiyati, vazifalari ijtimoiy hayotdagi oʻrnini koʻrsatib bergan. Davlat boshqaruvida ham u asosan oʻn ikki tuzukka binoan ish koʻrgan. Davlat boshqaruvi bilan bir qatorda uning xavfsizligini taʼminlash, harbiylar va qoʻshin, aholi bilan muomamalar, umuman, sohibqiron eʼtiboridan hech bir muhim tafsilot chetda qolmaganini koʻramiz.

1370 yil aprel oyida Balxda mamlakatidagi mahalliy hokim va beklar, qavmlar oqsoqollari ishtirokida oʻtkazilgan qurultoyda Sohibqiron rasman Movarounnahr amiri deb, yaʼni amaldagi hokim etib saylangan. Amir Temur oʻzini Turon sultoni deb bilgan. U Samarqandni oʻz davlati poytaxti sifatida tanlab, uni dunyoning eng obod va goʻzal shahriga aylantira oldi. Manbalarda zikr etilishicha, Sohibqiron poytaxtida koʻpdan-koʻp imoratlar, boʻstonlar barpo qilib, oliy va mustahkam qasrlar bunyod etgan. Ularning har biri oʻzgacha gʻaroyib tartibda, koʻrkam va ajib suratda boʻlgan. Boʻstonlar asosini mustahkam qilib, fahovatli mevali koʻchatlar bilan bezadi. Ularning birini Eram bogʻi, ikkinchisini Dunyo ziynati, yana boshqasini Firdavs jannati, unisini Shimol bogʻi, bunisini Oliy jannat deb atadi. Shuningdek, baʼzi joylarni buzdirib, u boʻstonlardan har biriga oʻz majlislarini, oʻz suratini turli shakllarda: birida kulib turgan, ikkinchisida qahrlangani, oʻzi qilgan janglar tasvirlarini, rasmiy tantanalardagi holatlarini; podshohlar, amirlar, sayyidlar, ulamolar va ulugʻlar bilan suhbat qurgan majlislarini; sultonlarning uning huzurida qoʻl qovushtirib turishlarini, xizmat yuzasidan boshqa mamlakatlardan huzuriga kelgan ularning podshohu sultonlari vakillarini, oʻzining ov xalqalariyu yashirin uchrashuvlarini, turli joylarda yuz bergan janglariniyu oʻz zafarlari suratlarini; oʻz avlodlari, nabiralar, amirlari, qoʻshinlari suratlarini; ayshu ishrat majlislari va sharoblari qadahlariyu soqiylarini, oʻz ulfati qoʻshiqchilarining, turli maqomdagi gʻazalxonlik kuychilarining,

huzuridagi kanizaklariyu nikohidagi pok xonimlarning va bulardan boshqa uning bir-biriga o'xshab, ulanib ketgan, uning butun umri mobaynida o'zga mamlakatlarda voqe bo'lgan hodisalar suratlarini tasvirlatdi. Bular hammasi hech bir kamsitilmay va ziyodasiz, bo'rttirmay, qay tarzda yuz bergan bo'lsa, shundayligicha aks ettirilishi talab qilingan. Bundan Amir Temurning maqsadi, o'zining ishlaridan boshqalar xabardor bo'lib, ularni o'z ko'zi bilan mushohada etmaganlarga yaqqol namoyon qilib ko'rsatish edi. Ushbu qasrlardagi mahobatli rasmlar mavzulari keyincha mo'tabar qo'lyozmalar sahifalarini ziynatlagan miniatyuralar yaratilishi uchun asos bo'lib xizmat qilgani shubhasiz.

Shuningdek, Amir Temur Samarqandning atroflari va etaklarida bir necha qasabalar bunyod qilib, ularni shaharlar kelinchaklari bo'lgan Qohira, Damashq, Bag'dod, Sultoniya, Sheroz kabi azim va markaziy shaharlar nomi bilan atadi.

Amir Temur siyosiy faoliyati natijasida avval Movarounnahr hududi yaxlitligi, qayta tiklandi va asta-sekin yigirma yetti mamlakat hududi ulkan saltanatga aylandi. Uning saltanatini o'sha davr Yevropada Fransiya, Angliya, Ispaniya va boshqa mamlakatlari tan olib, diplomatik aloqalar o'rnatishgan edi. Keyincha Amir Temur Yevropada boshlangan Uyg'onish davri san'ati, xususan pesalar, musiqa asarlari bosh ijobiy qahramoni bo'lgan edi.

Amir Temur tomonidan Samarqandda jamlagan o'z zamonasining mo'jizasi bo'lgan mohir kotiblardan xattot ibn Bandgir, Abduqodir Marog'iy, Umar O'qta, Tojuddin Salmoniy va boshqalar; munajjim mavlono Ahmad, tabib, misgar va munajjim, zargarlardan al-Hoj Ali Sheroziy, al-Hoj Muhammad Hofiz Sheroziy; sangtaroshlardan katta bir guruhi bo'lib, ularning eng ko'zga ko'ringani Oltun edi. U o'z hunarida mo'jiza bo'lib, qimmatbaho toshlarga naqsh solar, yashmga, aqiqqa Yoqut Musta'simiyning xatidan ham chiroylik xat bilan o'yib yozardi. Qo'shiqchilardan Abdulqodir Marog'iy, uning o'g'li Safiuddin, kuyovi Nasriyn, Qutb al-Mousiliy, Ardasher al-Changiy va boshqalar bo'lgan. Uning naqqosh –rassomlari ko'p bo'lib, ularning eng ustuni Abdulhay al-Bag'dodiy bo'lib, u o'z san'atida mohir edi; bog'bonlardan Shihobuddin Ahmad az-Zardakashiy; shisha va misga naqsh soladiganlar va ulardan

boshqalar hisobsiz bo'lganlar. Ularning har biri o'z asri allomasi, o'z davrining mo'jizakor kishilari bo'lganlar. Tarixchining yozishicha, agar so'zlarning qimmatbaho xil'atlari o'sha ayonlar vasflari javharlari bilan bezatilsa, olam eng noyob toshlaru xolis tillo shodalari bilan allaqachon to'lib ketar edi.

Amir Temur va Temuriylar mislsiz san'at homiylari bo'lib, bu sohada ularga teng keladigan sulola Markaziy Osiyoda bo'lmagan edi. Ular qurdirgan oliy imoratlar, qasrlar devorlaridagi mahobatli rasmlar, ziynatli mo'tabar qo'lyozmalar, ularni bezagan nafis mo'jaz rasmlar ham ko'pligi va yuksak badiiy saviyasi yuqori darajada ekanligi bilan ajralib turadi.

Amir Temur marhamatidan bahramand bo'lganlardan biri tarixchi Nizomiddin Shomiy edi. U o'zining "Zafarnoma" asarida homiysi sultoni sohibqiron Amir Temurning siyosati asoslarini qanday ta'riflangani bilan tanishaylik.

Nizomiddin Shomiy o'z asarida, sulton va davlat arboblari uch xil toifa bo'lishi, ya'ni lutfu marhamat ko'rsatuvchi, tamoman qahru g'azab zohir etuvchi yoxud bu ikki xilning o'rtacha maromini tutuvchilardir, deb yozgan. Olimning fikriga ko'ra, uchinchi toifa sultonlar kamolatga yaqin, u Allohning tajalliyoti o'rtacha maromini o'zida jamlagan bir komil zot bo'lib, uning lutfu qahri har bir zamon talabiga ko'ra olam ahliga zohir bo'ladi... Ikki dengizdek bo'lmish bu ikki ijobiy sifatni o'zida jamlagan zot har bir asrda bir bor zohir bo'lg'usidir. Ul zotning xayrli ishlari, rasm-rusumlari, fe'l-atvori va so'zlarining natijalari ta'siri faqat yillar emas, ko'p asrlar davomida zamona sahifasida boqiy qoladi, nabira-chabiralari, do'stlari va yaqinlari o'sha yo'ldan yuradilar, uning fu'lu harakati va nufuzli hukmlariga ergashadilar.

Tarixchi o'z fikrini davom ettirib yozadi: "Bu da'voning shohidi va bu ma'noning adolatli, eng himmatli ulug' amir, ya'ni dargohi ilohiyga mansub bandalarning sarasi va mehribon Allohning yerdagi soyasi, davlat egasi, dinu dunyo qutbi, sohibqiron Amir Temur Ko'ragonning vujudi shariflaridir".

Nizomiddin Shomiy homiysisultoni sohibqiron Amir Temurnga shunday tilak bildiradi: "Alloh taolo yer yuzida uning mulklari va

sultonliklarini barqaror etsin va olam ahli ustiga uning marhamatu ehsonlarini yog‘dirsin!”

Olim o‘z homiysi Amir Temur siyosati asoslarini shunday ta’riflaydi: “Uning adolatli siyosati jazoga yaqin, qahri esa lutfga aralashdir; nishu nayzasi bol bilan birga; muloyimligi g‘azab bilan hammaqon; jamoliy jilva asnosida hazrat Muhammad shariati buyurgan amallarni ulug‘lashga intiladi; payg‘ambarlik daraxtining shohlari, valiylik boshog‘ining donalari, Xudo rasulining farzandlari, fotimayi Zahroning nuridiydalari bo‘lmish sayyidlarni ulug‘lash va hurmatlashda eng nozik tarzda e’zozu ikrom qiladi. Majlislarda hammadan ustun qo‘yadi”. Demak, tarixchi Nizomiddin Shomiy o‘z homiysi Amir Temur siyosatining asoslaridan biri - payg‘ambar avlodlari sayyidlarga hurmat ko‘rsatganini alohida ta’kidlamog‘da.

Nizomiddin Shomiy o‘z fikrini davom ettirib, Amir Temurning olimlari, o‘sha davr tushunchasiga ko‘ra, payg‘ambarlar vorislariga munosabati haqida yozadi: “Payg‘ambar hazratlarining vorislari va nubuvvat dargohining noiblari bo‘lmish ulamoning sha’nu shavkatini ulug‘lashda biror daqiqani ham e’tiborsiz qoldirmaydi”.

Tarixchi olim jamiyatdagi yana bir ijtimoiy guruhga sohibqironning hurmat ko‘rsatganini ta’kidlaydi: “Yuqori darajadagi fozillar va ulardan quyiyoq kishilarni bir-biridan farq qilib, har birini o‘z martabasig ko‘ra tutadi”. Uning ta’kidlashicha, Amir Temur “har bir kishini fazli va donishmandligi darajasiga loyiq maqomga qo‘yadi”.

Amir Temurning tasavvuf namoyondalariga hurmatini tarixchi shunday zikr qiladi: “Mashoyix va solih bandalarni ulug‘laydi, ular bilan hamsuhbat va hammajlis bo‘lishiga rag‘bat ko‘rsatadi”.

Jamiyatdagi yana boshqa guruhlariga munosabatini shunday yoritadi: “Ojiz kishilaru raiyatlarini, savdogaru dehqonlarni muhofaza etishda qonunlarga rioya qilib, adolat rasmini bajo keltiradi”.

Biz Amir Temurning shaxsiy tarixchisi Nizomiddin Shomiyning bayon etgan o‘z homiysi siyosati asoslariga yaqin fikrlarni “Temur tuzuklari”da ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Amir Temur yozadi: Saltanatim obru-martabasini saqlash uchun... “Birinchiidan, saltanatim qonun-qoidalari islom dini va kishilarning eng xayrlisi hazrati

Muhammadning shariatini bog‘lab, izzatu hurmatlash vojib bo‘lgan onhazratning avlodi va sahobalariga muhabbat bildirish asosida tuzdim...sayyidlar, ulamo, shayxlar va fozillarni o‘zimga yaqinlashtirdim”.

Endi, Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma” asarining muqaddimasida sultoni sohibqiron Amir Temur shaxsiga berilgan baho bilan tanishib ko‘raylik.

Arab olimi Ahmad ibn Arabshohning yozishicha, Amir Temur har bir foydali jonni yig‘ib, nimaiki bo‘lsa, sarasini Samarqandga keltirdi. Natijada, Samarqandda har bir ajib fan ahli namoyondasidan va san’atlar g‘aroyib uslubidan fazilati peshonasida nishonasi bo‘lib, o‘z tengqurlaridan ustun turgan o‘z sohasida alloma kishilar yig‘ilgan edi. Agar so‘zlarning qimmatbaho xil’atlari o‘sha ayonlar vasflari javharlari bilan bezatilsa, olam eng noyob toshlaru xolis tillo shodalari bilan allaqachon to‘lib ketar edi.

Mana shunday noyob iste’dodga ega bo‘lgan shaxslardan biri tarixchi Nizomiddin Shomiy bo‘lib, U sulton sohibqiron Amir Temur tarixini yozish sharafiga muyassar bo‘lgan. Nizomiddin Shomiy o‘z asari “Zafarnoma” muqaddimasida o‘z homiysi sultoni Sohibqiron Amir Temur nimaga erishganini shunday bayon etadi: “Asrlar mobaynida hali biror talabgorning aqdu nikohiga kirmagan ikki bo‘yi yetgandek go‘zal bo‘lmish Eronu Turon mamlakatlarini Amir Sohibqiron to‘la zabt etish va adolatli siyosat yuritish orqali shunday boshqarmoqdaki, u yerlarning donishmandlari hayron qolmoqda. Uning adolatiyu siyosati o‘rnatilgan kunlarda Movarounnahrning eng chekka joylaridagina emas, balki Xitoy va Xo‘tan chegarasidan Dehli va Kanboyit – Hindiston janubidagi port atroflarigacha, Bob ul-abvob – Kavkazdagi qal’adan to Misr va Rum hududlarigacha bo‘lgan yerlardan savdogarlar u yoqda tursin, bolalaru beva xotinlar ham ipakli matolar, oltin-kumush va eng zarif tijorat mollarini keltiradilar va olib ketadilar. Hech bir kimsa ularning bir doniga ham ko‘z olaytira olmaydi va bir dirhamiga ham ziyon yetkazmaydi. Bu cheksiz ne’mat va marhamatlar Amir Sohibqironning siyosati va adolati natijasidandir”.

Ushbu lavhadan: 1. Sultoni Sohibqiron Eronu Turon mamlakatlarini birlashtirib, bu joylarda adolatli siyosat olib borganini ta’kidlamoqda.

2. Bu saltanatning chegaralarini Movarounnahr eng chekkasidan Dehli – Shimoliy Hindiston sultonligi poytaxti, Kanboit – Hindiston janubidagi port shahar atroflarigacha, Bobul-Abvob – Kavkazdagi qal’adan to Misr va Rum hududigacha bo’lgan yerlar ekanligini aniqlamoqda.

3. Ushbu hududda Amir Temur adolatiyu siyosati natijasida savdogarlar, bolalaru beva beva xotinlar ham ipakli matolar, oltin-kumush va eng zarif tijorat mollariga hech kim tahdid qilmasligi, hech bir kimsa ularning bir doniga ham ko‘z olaytira olmasligi va bir dirhamiga ham ziyon yetkazmaligini ma’lum qilib, bu albatta “Amir Sohibqironning siyosati va adolati natijasidan” ekanligini ko‘rsatadi.

Ushbu ma’lumotlarni keyincha Ahmad ibn Arabshoh vaelchi Rui Gonsales Klavixo ham tasdiqlaydilar.

Tarixchi so‘zini davom ettirib, o‘z homiysi nasabi – kelib chiqishi va hasabi – o‘zi erishgan muvaffaqiyatlari to‘g‘isida ma’lumot beradi: “Amir Sohibqiron vujudi ham hasab – nomdorlik sharafi bilan orasta, ham nasab – kelib chiqishi darajasi bilan bezatilgan”. Bu o‘rinda tarixchi homiysining avvalo hasabiga e’tibor bergan. U yozadi: “Hasab shudirki, uni kishi o‘zining jiddu jahdi va say-harakati bilan hosil qiladi, nasabni esa otabobolaridan meros yili bilan topadi”.

“Amir Sohibqiron, - deb yozadi tarixchi, - avvalo kamolot va martabalarga o‘zining yetuk say-harakati va jiddu jahdi bilan erishdi”. U o‘z fikrini isboti, dalili sifatida yozgan tarixiy asarini dalil sifatida ko‘rsatadi: “Ushbu kitob boshdan oxirigacha o‘sha holatlardan xabar bergan...Kimda-kim ushbu muborak tarix mutaolasiga musharraf bo‘lsa, Sohibqironning mulku mamlakat ishlari borasida qilgan go‘zal tadbirlari va dinu davlatning muhim ishlarini tartibga solishdagi say-harakatlari qay darajada bo‘lganligini va qay yerdan boshlanib, qay yerga yetkazganligini bilib oladi”.

Amir Sohibqironning kelib chiqishi to‘g‘risida aniq ma’lumotlarni tarixchi shunday yozib qoldirgan: “Ammo uning ulug‘vor nasabiga kelsak, baxtiyor podshoh, ya’ni Chingizxon o‘z farzandlarini oyoqqa turg‘izgan vaqtida yosoq va yo‘sun bobida boshqa farzandlaridan mumtoz bo‘lgan ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyni maxsus muravvat bilan taqdirladi; o‘z lashkari

sarasidan bir qismini tanlab unga taqdim etdi. Bu qism sardori barlos qavmidan bo‘lgan Qarochor edi. Uning to‘g‘ri fikrliligi, yetukligi, siyosati va shijoatiga Chingizxonning to‘la ishonchi bor edi. Shuning uchun ul komkor podshoh mamlakatishlarini boshqarishni, siyosatu qonun-qoidalarini yurgizishni uning donishmandligi va aqlu zakovatiga havola qildi. Ana shu kishi Amir Sohibqironning ulug‘vor bobosi edi”.

Amir Sohibqiron ishlari natijasini tarixchi shunday baholaydi: “U komkor podshohning uzoqni ko‘zlash, ishning oqibatini o‘ylash kabi xislatlari oradan ko‘p vaqt o‘tgach, shu kunlarda ayon bo‘ldiki, Amir Sohibqiron hisobsiz fitnayu g‘avg‘olarni boshidan kechirgach, mamlakatni zabt etib, tartibga soldi va Chig‘atoyning qutlug‘ urug‘i nafaqat Eron va Turon saltanati, balki rub‘i maskunning aksar mamlakatlarida mulk va davlatga egalik qilmog‘i uchun zamin yaratdi”.

Ulkan hududdagi turli odamlar, xususan sarkash va gardankashlar ham itoatga kirganini tarixchi ta’kidlaydi: “Sarkashlar gardanini itoat halqasiga kiritdi; gardankashlar boshini halokat tuprog‘iga otdi; uning o‘tkir qilichi zarbidan omon qolganlar esa chaqmoqqa panja urish, tog‘ bilan bellashish, dengizga zo‘rlik ko‘rsatish va fil bilan kurash tushish g‘oyatda ahmoqlik va nihoyatda gumrohlik ekanligini tushundilar. Bo‘ysunish va farmonbardorlikdan o‘zga chora topmadilar, o‘zlarini uning xizmatkorlari va hashamlari qatoriga urdilar. Shuncha ayb va gunohlardan keyin boj va xiroj to‘lashni o‘z zimmalariga olish bilan jonlarini balo daryosidan najot sohiliga yetkazdilar. Oqibat, hammalari itoat ostonasiga bosh qo‘yib, mute’ va farmonbardor bo‘ldilar”.

Mana shunday xatti-harakat va jiddu-jahd evaziga ulkan saltanatni bunyod etgan Amir Sohibqironga tarixchi o‘z istagini bildiradi: “Buyuklik egasi Alloh taoloning soyasi, Ul hazratning jamoliyu jalolini o‘zida aks ettiruvchi bu mislsiz zot Sohibqironni ulug‘ va qudratli alloh ko‘p yillar va hisobsiz asrlar davomida jahongirlik va jahondorlik maqomida ustuvor tutsin, uning iqboli etagiyu qudrati maydonini zamoyea hodasalari gardiyu davron musibatlari zarbidan salomat saqlansin; uning buzurgvor urug‘i va nomdor avlodini toki arsh ravoqiyu yer kurrasi qoyim ekan, musalsal va barqaror etsin; ularning birlik sham‘i toki jahon bor ekan nur sohib tursin, uning go‘zal say-harakatlari butun jahonda shukronalar bilan zikr etilsin,

davlat bayrog‘i esa Isrofil karnay chalgunga qadar g‘olib bo‘lsin – Muhammad va uning avlodi haqi!”

Tarixchi homiysi madhi yakunida shunday she‘riy lavha keltirib, unda “Xudoyo, Eronu Turonni o‘z farmonida tutib turgan

Jahonning bu darvishdo‘st shohini

Xalq boshida doimo ustuvor saqlagil!

Toatu ibodat ko‘magida dilini hushyor tutgil!” – degan istakni bildiradi. Bu lavhadagi darvishdo‘st shoh va toat ibodat iboralari bejiz emasligini Amir Temur faoliyatida, ayniqsa Xoja Ahmad Yassaviyga bag‘ishlangan ulkan me‘moriy majmuani Turkistonda bunyod etganida yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Umuman, “Zafarnoma” asari muqaddimasida tarixchi Nizomiddin Shomiy o‘z davri tasnif odobiga ko‘ra homiysi Amir Temurni madh etar ekan, birinchidan ulkan saltanat bunyod etgani; davlatida adolatni qaror toptirganini; bularga o‘z xatti-harakati natijasida erishgani; kelib chiqishi ham nufuzli amir Qarochorga borib taqalishini ta‘kidlab, har bir fikrini dalillar bilan asoslashga intilganini ko‘ramiz. Natijada, ko‘z oldimizda buyuk bunyodkorlik ishlarni amalga oshirgan Amir Sohibqironning mahobatli timsolini ko‘ramiz.

Dadil aytish kerakki, yaqin o‘tmishda mavjud tuzum maqsadi inobatga olinib, buyuk sohibqiron shaxsi to‘g‘risida ijobiy fikrlar deyarli aytilmas, juda kam hollarda aytilar, aytilganda ham albatta, u davrning salbiy jihatlarini ro‘kach qilish odatga aylangan edi.

O‘zbekiston davlat mustaqilligi bizga Amir Temur shaxsini qayta kashf qilishimizga imkon yaratdi, uning mahobatli haykallari Toshkent, Samarqand, Shahrizabz shaharlarida o‘rnatildi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etildi, YUNESKO qaroriga binoan sohibqiron tavalludining 660 yilligi nishonlandi, Parij, Toshkent va Samarqandda xalqaro konferensiya, simpozium o‘tkazildi, “Amir Temur jahon tarixida” nomli albom – monografiya o‘zbek, rus, ingliz va fransuz tillarida chop etilgan, “Temur tuzuklari” bilan bir qatorda Amir Temur va Temuriylar davri siyosiy tarixi, ilm-fan, madaniyat, san‘ati, ayniqsa mo‘tabar qo‘lyozma manbalar Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Ahmad ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi”, Sharafuddin Ali Yazdiyning

“Zafarnoma”, Ibn Xaldunning “Xotiralari” va boshqa asarlar o‘zbek tiliga tarjima qilinib, ko‘plab nusxalarda chop etildi.

Amir Temur va uning davri, hayoti va faoliyatini jahonda o‘rganish keng miqyosda davom etmoqda. 2019 yili Fransiyadagi yirik temurshunos professor Lusen Keren asos solgan Temurshunoslar uyushmasi va “La Timurides” – “Temuriylar” jurnali ta’sis etilganligiga o‘ttiz yil to‘lganligi munosabati bilan ilmiy tadbirlar Parijda va Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlarida o‘tkazildi.

Amir Temur va Temuriylar merosini o‘rganishga O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyi jamoasi o‘zining hissasini qo‘shib kelmoqda. “Amir Temur jahon tarixida” nomli albom – monografiya 2002, 2006 yillari o‘zbek tilida qayta nashr qilindi. Har ikki yilda bir marta Temuriylar lavri ilm-fanini o‘rganish bo‘yicha respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari muntazam o‘tkazilib, ularning materiallari 11 kitob sifatida chop qilindi. 2017 yili “Temuriylar davlat muzeyi durdonalari” nomli albom-katalog o‘zbek, rus va ingliz tillarida, yana “Amir Temur xorijliklar nigohida” nomli kitob, pedagog J. Rahimovning “Adolat va qudrat timsoli” – “Amir Temur” nomli kitob-albomi, rus tilida “Istoriya Uzbekistana, Epoxa Amira Temura i Temuridov” (“O‘zbekiston tarixi: Amir Temur va Temuriylar davri”) nomli monografiya akademik E. Rtveladze va professor D. Alimova tahriri ostida chop etildi va boshqa nashrlar ham amalga oshirildi. Ayni shu yili fransuz olimi Lusen Keren va akademik A. Saidovning “Amir Temur va Fransiya” nomli tadqiqoti o‘zbek, rus, fransuz tillarida nashr etildi.

O‘z ma’ruzam so‘ngida Amir Temurning “Tuzuklar” asari va unga akademik Vladimir Kvint yozgan izohlari yoki “Amir Temurning strategik yetakchiligi” asari haqida o‘z fikrimni bayon etmoqchiman.

Amir Temur hayoti va faoliyati hamda uning “Tuzuklar” asari O‘zbekistonda mustaqillik davrida o‘rganishga jiddiy e’ttibor berilmoqda. “Temur tuzuklari” asarining Mir Abu Tolib Husayniy va Muhammad Afzal Buxoriyning fors tilida qilgan tarjimasidan o‘zbek tilida izohli tarjimasini nashri 1991 yili amalga oshirilgan edi. 2016 yildan keyin Amir Temurning “Tuzuklar” asariga e’tibor kuchaytirildi va bo‘lg‘usi harbiylar uchun eng muhim manba ekanligi ta’kidlangandan so‘ng “Temur tuzuklar”

bir necha marta va oxirgilaridan biri beshta tilda bir kitob sifatida ham nashr etildi.

Amir Temurning “Tuzuklar” asariga akademik, iqtisodiyot fanlar doktori, professor, Strategik tadqiqotlar markazi direktori Vladimir Kvint 2021 yili maxsus izohlar yozib, ularni “Amir Temurning strategik yetakchiligi: “Tuzuklar”ga izohlar” nomi ostidagi monografiyani o‘zbek, rus, polyak, qirg‘iz tillarida Toshkent, Sankt-Peterburg va boshqa shaharlarda nashr etildi.

Ushbu kitob taqdimoti shu aprel oyida O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyida sohibqiron Amir Temur tavalludining 685 yiligi kunida o‘tkazildi. Unda respublikadagi yirik olimlar, Polsha va Qirg‘izistondan maxsus mehmonlar ham ishtirok etdi. Taqdimotda kitobning rus, o‘zbek, polyak va qirg‘iz tilidagi nashrlari ham namoyish etildi va mutaxassislarga tarqatilgan edi.

Akademik Vladimir Kvint asarining o‘ziga xos xususiyati nimada? Birinchidan, asardan “Tuzuklar”ning 1894 yilgi Qozonda amalga oshirilgan tarjima so‘zboshi va matni aynan qayta chop etildi. Yonida bu kitobning o‘zbekcha tarjimasi ham o‘rin oldi. Muallifning “Muqaddimasi” (11-16 betlarda) o‘zbek va rus tillarida keltirilgan. Uning izohlari kitobning 48 betdan boshlanadi va 206 betdan o‘rin olgan. Monografiya oxirida adabiyotlar ro‘yxati, Izohlar muallif haqida ma’lumotlar, V. L.Kvintning chop etilgan asarlari ro‘yxati, “strateg kutubxonasi” turkumida chop etilgan kitoblar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Yevropada 1783 yil, o‘n sakkizinchi oxiridan ingliz va boshqa tillarida davom etayotgan “Temur tuzuklari” o‘rganishga rossiyalik akademik Vladimir Kvintning “Amir Temurning strategik yetakchiligi” monografiyasi munosib hissasi bo‘lib qo‘shildi deyishimiz mumkin.

Bugungi kunda ba’zilar 15 asr mutafakkiri Nikolo Makyavellining “Davlat to‘g‘risida” asaridan hamda Amerikalik sitsiolog Deyl Karnegi kitoblaridan o‘z hayotini yaxshilashni o‘rganishga harakat qiladilar. Bu ikkala muallif o‘z asarlarida muhim fikrlarni bayon etgan bo‘lsa da, ularning o‘zi hayotda ko‘p narsaga erishgan emas.

“Temur tuzuklari”ni muallifi Amir Temur o‘z faoliyati natijasida jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shgan buyuk saltanat

bunyodkoridir. Biz “Temur tuzuklari” asarini o‘qisak, akademik Vladimir Kvint “strateg daho” deb tan olgan buyuk bobomiz Amir Temurning qimmatbaho merosidan bahramand bo‘lamiz!

АМИР ТЕМУР – ВЕЛИКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ДЕЯТЕЛЬ И ПОЛКОВОДЕЦ, СОЗИДАТЕЛЬ, ПОКРОВИТЕЛЬ НАУКИ И КУЛЬТУРЫ

*Ш.К.Алимов ,
к.и.н, доцент, профессор кафедры
Гуманитарных дисциплин Академии
Вооруженных Сил Республики Узбекистан*

Амир Темур был выдающимся государственным деятелем, талантливым полководцем, искусным дипломатом, покровителем культуры и искусства, личностью, внесший большой вклад в развитие человеческой цивилизации. Для объективной оценки деятельности Темура прежде всего необходимо учитывать конкретно-историческую обстановку в середине XIV века в Средней Азии, где господствовали ханы Чагатайского улуса, население которого десятилетиями страдало от монгольского угнетения, регион был раздроблен на бекства и вилаяты, между которыми происходили постоянные раздоры и нередко с кровавыми последствиями.

В этих условиях появляется на политической арене Амир Темур. Обладая даром организатора и руководителя, Темур всегда держал руку на пульсе жизни, не теряя ощущение реальности. Темур организовал и возглавил движение по освобождению края от монгольского порабощения, за объединение раздробленных на бекства вилаятов в централизованное государство, добился признания его мощи сопредельными странами, восстановил и расширил торгово-экономические и политические отношения со многими странами Запада и Востока. Его вклад в развитие Средней Азии в различных сферах общественной жизни был поистине огромным, историческим.

Благодаря объединению Амиром Темуrom громадных географических территорий с различным уровнем культуры в единое централизованное государство, были созданы условия для бурного развития культуры, которое в последующем было названо учеными «Темуридским Ренессансом».

Амир Темур, естественно, был сыном своего времени. Он был весьма строгим правителем – требовательным к себе и окружающим. Благодаря Темуру впервые в Средней Азии была создана государственность нового типа. В своей государственной деятельности он опирался на три положения – на твердость веры, правосудие и сильную власть, основой которой был принцип **«Сила в справедливости»**.

Человечество по достоинству оценивает вклад личностей, сыгравших решающую роль в мировом развитии. И вполне естественно, что их свершения с непреодолимой силой притягивают к себе внимание новых и новых поколений. После смерти Амира Темура прошло более 600 лет, но до сих пор не угасает интерес к этой незаурядной личности, поэтому историки многих стран мира по сей день обращаются к его жизни и деятельности и посвящают ему свои труды.

Согласно решению ЮНЕСКО, 1996 год был объявлен годом Амира Темура. По инициативе ЮНЕСКО 24 апреля 1996 года в Париже была проведена неделя, посвященная 660-летию со дня рождения Амира Темура, под названием «Процветание науки, культуры и просвещения в эпоху Темуридов», имевшая огромное социально-политическое значение.

В 1996 году 660-летний и в 2006 году 670-летние юбилеи Амира Темура отмечались и в нашей стране, проведением больших торжеств. В 1996 г. в разных городах Узбекистана, в Ташкенте, Самарканде, Шахризабзе и др. прошли торжества, посвященные 660-летию Амира Темура. В Ташкенте был открыт музей Амира Темура. Воздвижение памятников нашего великого прадеда в Ташкенте, Шахрисабзе и Самарканде является образцом почитания его памяти.

Амир Темур родился 8 апреля 1336 года в селении Ходжа-Илгар близ города Кеш (ныне Шахризабз). Отец Амира Темура амир

Тарагай (Тўрғай) был из знатной семьи рода барласов из сословия военачальников-беков. В своем известном труде «Степная империя» (1941 г.) Рене Груссе писал об Амуре Темуре: «Историки Темуридов пытались возвести его родословную к одному из соратников Чингизхана и даже отнести его к семье Чингизидов. На самом же деле он никоим образом не был монголом, он был тюрком. Он принадлежал к одной из благородных семей Трансоксании, относящейся к клану барласов и имевшей владения вокруг Кеша, правителями которого они являлись».

В 1370 году на курултае местной знати и начальников войска Амир Темур провозглашается правителем Мавераннахра. Провозгласив Самарканд столицей, Темур занялся устройством внутренних дел в своем государстве. Основной его задачей было преодоление раздробленности и объединение отдельных владений в сильное централизованное государство. Амир Темур сохранил монгольскую административную систему - деление на туманы, назначив на должности начальников туманов и тысячников преданных ему людей.

Правление Амира Темура длилось 35 лет. Он создал централизованное государство, простиравшееся от Инда и Ганга до Сырдарьи и Зеравшана, от Тянь-Шаня до Босфора. В состав государства Амир Темура, кроме Мавераннахра и Хорезма, входили также Фергана, Шаш, области вокруг Закаспия, Афганистан, Турция, Индия, Иран, Ирак, южные области России, Закавказье и ряд стран Западной Азии. Всего он смог объединить 27 государств и областей.

Амир Темур в целях укрепления и расширения своей империи создал мощную, боеспособную армию. Сам Амир Темур был храбрым и талантливым полководцем. Свой полководческий талант он показал, например, в битве Кундузча (Кундурча под Чистополем, Россия), разбив мощнейшее в то время войско Тохтамиша или битве при Анкаре, разбив войско султана Османской империи Баязида Молниеносного. Амир Темур и его эмиры возвращались из других стран с богатой добычей. Вместе с трофеями привозили в Самарканд, Шахрисабз, Бухару видных ученых, искусных мастеров, музыкантов и др. Амир Темур, приобретенные богатства тратил на

благоустройство городов и селений. Он не только благоустраивал города Мавераннахра, Туркестана и Хорасана, но заново отстроил многие города покоренных стран (например, Багдад, Дербент, Байлакан и др.).

В целом нужно подчеркнуть, что основными результатами военно-политической деятельности Амира Темура стали образование и развитие сильного централизованного государства, освобождение народов Средней Азии от монгольского ига, прекращение феодальных междоусобиц и утверждение стабильности и порядка, а также восстановление среднеазиатского участка Великого шелкового пути.

Амир Темура также внес большой вклад в экономическое и культурное развитие не только Мавераннахра, но и стран Среднего и Ближнего Востока, способствовал их сближению.

В целях создания мощной империи Амир Темура уделял большое значение внешней политике. Активная внешнеполитическая деятельность содействовала созданию прочных дипломатических отношений со многими странами. Развивается экспорт и импорт товаров, налаживаются торгово-экономические отношения с Китаем, Индией, Русью, Испанией, Францией, Англией, Византией и другими государствами.

При Амире Темуре дальнейшее развитие получило ремесленное производство и торговля. Центрами ремесла и торговли были Самарканд, Бухара, Ташкент, Термез, Кеш, Карши и др. При Темуре происходит возрождение материальной и духовной культуры Мавераннахра. Развертывается большое градостроительство, куда привлекаются лучшие зодчие Средней Азии и Хорасана. Особенно большое внимание он придавал Самарканду и Шахрисабзу.

Умело организованное политическое управление Амира Темура, стала причиной мощного подъёма культуры, развития духовности и роста благосостояния народа.

Политические взгляды Амира Темура нашли своё отражение в его «Уложениях». «Уложения» являются своего рода конституцией, в которой изложен процесс управления государством и все связанные с ним аспекты. Само слово «уложение» является производным от

«уложить», «укладывать», в определенном смысле «узаконить». В данном случае слово «Уложение» понимается как устав, свод правил. «Уложение» Темура составлено им на основе различных жизненных ситуаций, их глубокого осмысления. Непосредственным толчком к созданию «Уложения» было желание обобщить собственный опыт государственной деятельности, сформулировать правила, которыми он руководствовался в своей жизни и которые рекомендовал соблюдать своим потомкам. Амир Темура писал: «Пусть эти правила послужат им руководством, как в их поведении, так и в управлении государством, дабы они могли сохранить то государство, которое я им оставляю».

«Уложение» Темура является своего рода наставлением Темура потомкам, и состоит из двух частей: биографии Амира Темура с 1342 по 1381 годы и «Уложений», т.е. своеобразного наставления по устройству государства и войска.

Написанное на староузбекском языке, оно сохранилось до наших дней только в персидском переводе XVII века. В «Уложении» большое внимание уделяется главным опорам государства: чиновникам и военачальникам, вплоть до рядового солдата. Важнейшей составной частью системы управления государством являлась армия, укреплению и совершенствованию которой Амир Темура придавал исключительное значение. В «Уложении» определены права и обязанности всех, начиная от государя и кончая простым воином. Армия Темура была самой крупной и мощной армией средневековья, как в организационном, так и в тактическом отношении. Строилась армия, как было указано выше по десятичной системе: делилась на десятки, сотни, тысячи и десятки тысяч.

Сбором и размещением войск занимались специальные чиновники - тавачи, облеченные большими полномочиями. Следует отметить, что каждый призываемый в поход воин был обязан брать с собой лук с 30 стрелами, колчан с налучьем, саблю и запас продовольствия на один месяц. У каждых двух воинов должен был быть в запасе лошадь, на каждых 10 воинов выделялась палатка, два заступа, мотыга, серп, пила, шило, сто иголок, полвеса веревки, бурдюк для воды и котел. Эти и другие вопросы военного устройства

армии Амира Темура подробно изложены в последних главах «Уложения».

При Темуре основой управления государством становятся законы и их неукоснительное исполнение, уважение и соблюдение правил ислама, а также твёрдая, последовательная политика.

Темур в своих «Уложениях» изложил, что управление государством основывается на двенадцати правилах. «...Теперь назидания моим именитым детям и способным внукам, которым предстоит управлять страной; двенадцать правил сделал для себя лозунгом и благодаря им достиг такой степени управления. С помощью этих правил я занимал страну, управлял ею и украшал престол...». Ниже приводятся эти общественно-политические слои:

1. сайиды (потомки пророка), ученые, шейхи, знатные люди, то есть интеллигенты;
2. мудрецы, знающие суть дела;
3. дервишы верующие в бога, каландары (пилигримы);
4. принцы, эмиры, военачальники, командующие войсками;
5. воины и простолюдины;
6. люди, которым можно доверять дела правительства и с которыми можно посоветоваться, доверительные лица;
7. визири, главные писари, писари девонов, инженеры;
8. врачи и табибы (лекари);
9. ученые – комментаторы текстов и хадисов;
10. люди промыслов (ремесленники, сапожники);
11. суфии;
12. торговцы и путешественники.

Центральную исполнительную власть возглавлял совет из семи визирей (аркан-и давлат) во главе с главным визирем (девонбеги). Каждый из визирей выполнял определенные функции. Так, первый визирь занимался вопросами сбора урожая, податей и налогов и их распределением. Второй, визирь по военным делам представлял государю списки войск и реестр жалованья, информировал о состоянии военного дела в государстве. Третий, визирь по делам торговли следил за пожертвованиями и налогами, которые уплачивали купцы, ведал сбором налогов со скотоводов, занимался

вопросами наследования. Четвертый визирь следил за финансовым состоянием учреждений и ведал государственной казной. Пятый – кази-калон, т.е. верховный судья. Шестой- джалал ал-ислам – особый царский надзиратель. Седьмой визирь – девони - инша – ведал отношениями с другими государствами. Визири занимались также составлением отчетов о численности населения, развитии торговли и культуры, состоянии надзора в государстве, информировали правителя о деятельности администрации, положении дел в провинциях, сборе и распределении податей, налогов и т.д.

В государстве были также должности кази (духовный судья), арзбеги (рассматривал жалобы от населения и от воинов), садри аъзам (главный чиновник по вакуфному имуществу), шейх ул-ислам (следил за исполнением законов шариата), кази ал-куззат (главный судья по гражданским делам), мунши (секретарь, отвечающий за поступление и распределение денежных средств и их учет в государстве). Области, города и районы управлялись хокимами, которые должны были заботиться о благе населения своих территорий, следить за порядком в общественных местах, обеспечивать нормальную работу лечебниц, бань, постоянных дворов, караван-сараев, базаров. В «Уложении» есть специальные разделы, в которых даны правила производства в военачальники и в правители, а также правила о назначении начальников (эмиров) улусов, кушунув и тюменей (кушун — рота в 100 человек; тюмень или туман - корпус в 10000 человек или область, способная выставить такое число воинов).

В административном отношении государство делилось на улусы, вилояты и туманы, которыми управляли хакимы, нойибы и туманбаши (т.е. правитель, наместник и тысячник). Города, области или округа имели свое финансовое управление, судью, муфтия, а также делопроизводителя. Получила распространение форма условного владения – суюргал, владельцами которого назначались приближённые лица правителя.

Государство Темур разделил на четыре части между своими сыновьями: Балх - старшему сыну Жахонгиру; Фарс-Умаршайху; Ирак, Закавказье - Мироншаху; Хорасан - Шахруху. Но

Мовароуннахр Темур держал в своих руках. Получается, что империя Амира Темура представляла собой совокупность объединённых феодальных владений. Распределение полномочий в системе власти характеризовало высокий уровень политико-правовой культуры.

«Уложение» начинается с изложения 12 правил управления государством. Темур завещал своим потомкам: «Пусть эти правила послужат им руководством как в их поведении, так и в управлении государством, дабы они могли сохранить то государство, которое я им оставлю». Среди правил: регулярное проведение курултаев по всем важнейшим вопросам общественной жизни. Они проводились не только в Самарканде (столице государства), но и в других регионах, в зависимости от того, где находился сам Темур; опора на 12 различных слоев общества (ученые, шейхи, благочестивые люди, офицеры, воины и простой народ, визири и секретари, врачи и астрологи, историки и авторы летописей, старцы, мастера всякого рода, путешественники); советы с мудрыми; соблюдение законов и справедливость; уважительное отношение к офицерам и солдатам.

Четко были определены в «Уложениях» права и обязанности эмиров. Эмиры также как и визири, должны быть из знатных родов, обладать такими качествами, как проницательность, храбрость, предприимчивость, осторожность и бережливость, опыта и привычки жить с солдатом, терпимость. Как сказано в «Уложениях» - закон для всех - как для визиря и для эмира, так и для простых подданных - был одинаковым.

В «Уложении» подчеркивалась важность наказания всех тех, кто нарушает законы, злоупотребляет властью, не выполняет своих обязанностей. Особенно он был строг к блюстителям правопорядка, государственным служащим. Изложены также правила морального и материального поощрения верноподданных - от рядового солдата, простого гражданина до высших государственных чиновников.

В «Уложении» были определены основные принципы политики разумного налогообложения, что является критерием для экономического развития государства и пополнения казны. «При сборе податей нужно остерегаться обременять народ податями или опустошать провинции, потому что разорение народа ведет за собой

обеднение государственной казны». Подати определялись производительностью земель и были дифференцированными. Основным был поземельный налог – харадж (мал), который собирался только после уборки урожая.

В «Уложении» записано, что «... власть, не опирающаяся на религию и законы, не сохранит на долгое время свое положение и силу. Вот почему я основал здание моего величия на исламе, с прибавлением к нему правил и законов, которые я точно соблюдал в продолжении моего царствования». Оценивая значение «Уложений» известный историк, переводчик и издатель этой книги на французский язык Л. Лянглэ в 1787 году писал: «Темур передал своим потомкам вместе с империей дар еще драгоценнее - искусство сохранять её». Поэтому эта книга представляет собой важный документ как по истории развития государственности, так и права.

Основная заслуга Амира Темура перед народами Средней Азии состояла в том, что он положил конец феодальной раздробленности и муждоусобным войнам, освободил Мовароуннахр от гнета монголов и объединив его население, заложил основу централизованному государству, установил мир, и приложил все усилия для дальнейшего развития страны.

Созданное Амиром Темуром государство опиралось на все существовавшие в то время социальные слои и управлялось на основе законности. Темур обеспечил в стране верховенство законов.

Установленное в стране спокойствие и порядок создали основу для развития земледелия, ремесла, торговли, науки и культуры. В короткий срок Мовароуннахр и Туркестан превратились в страну с развитой наукой и культурой.

Амир Темур вошел в историю как великий созидатель, покровитель науки и культуры. Он проявил огромную инициативу и самоотверженность в деле восстановления разрушенного в результате многолетней феодальной раздробленности и неурядиц народного хозяйства, в перестройке городов и благоустройстве страны. Он внес неоценимый вклад в дело развития науки в стране.

Таким образом, основой государственной политики Амира Темура был принцип: **«Сила в справедливости»**.

Успех государства Амира Темура был обусловлен следующими факторами:

- управление государством опиралось на проверенные и оправдавшие себя законы и правила;

- важнейшие государственные решения принимались после обсуждения компетентными политиками, старейшинами и военачальниками на советах;

- силой государства была обеспечена внутренняя и внешняя безопасность страны, что, естественно, было базой для стабильного социально-политического развития общества;

- религия ислам служила для реализации прогрессивной политики государства, объединению и мобилизации граждан;

- государство проявляло заботу о создании благоприятных условий для того, чтобы граждане в соответствии с индивидуальными способностями могли обеспечить свое материальное благосостояние;

- государство рассматривало науку и культуру как важнейшие факторы развития общества;

- правители обладали высоким организаторскими способностями и были образованными просветителями;

- созидание и благоустройство страны находилось под пристальным вниманием государства и т.д.

Сегодня, когда наша республика успешно решает задачи построения сильного социального государства, многие положения Амира Темура представляются злободневными. Одним из основных приоритетов на современном этапе является стабильность в обществе, мир и согласие людей. Основой такой стабильности в Узбекистане должно стать дальнейшее укрепление государственности и основ гражданского общества.

AMIR TEMUR DAVRIDA ELCHILIK MUNOSABATLARI

A.A.Tolipov,

*Jamoat xavfsizligi universiteti Ijtimoiy-gumanitar
fanlar kafedrası boshlig‘i, polkovnik*

Sohibqiron o‘z faoliyatining ilk davridan boshlab tashqi siyosiy aloqalarga katta e‘tibor bergan. U murakkab siyosiy masalalarni urush orqali emas, balki sulh yo‘li bilan hal etishga intilgan buyuk diplomat bo‘lgan. Ulkan xududlarni birlashtirishga, markazlashgan davlat tuzishga harakat qilgan Amir Temur qaysi xududga lashkar tortmasin, eng avval u yerlarga o‘z elchilarini yuborgan va har qanday masalalarni tinch yo‘l bilan hal qilishga intilgan.

Buyuk Amir Temur mamlakatning ravnaqi va xalqning tinchligi yo‘lida qo‘shni mamlakatlar bilan tashqi siyosatni to‘g‘ri yuritishga, ular bilan diplomatik munosabatlarni rivojlantirishga katta e‘tibor bergan. Sohobqiron Amir Temur mohir diplomat bo‘lgan. U amalga oshirilishi kerak bo‘lgan har qanday ishni tinch-totuvlik bilan hal qilishga harakat qilgan, boshqa mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun elchilarni tayyorlagan, ularning faoliyat ko‘rsatishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qilgan, boshqa yurt elchilarining izzatini joyiga qo‘ygan, ularga katta hurmat bilan qaragan.

Ispaniya elchisi Samarqandning tashqi savdoda katta o‘rin tutganligini qayd etib shunday deb yozgan edi: «Rus va Tatariyadan charm va surp, Xitoydan juda yaxshi to‘qilgan ipakliklar, ayniqsa dunyoga dong‘i ketgan atlaslar olib kelinadi. Ular ichida eng qimmatlisi sidirg‘a jujunchalardir. Bundan tashqari, yana Xitoydan tashqi dunyoning boshqa yerlarida topilmaydigan mushk hamda la‘l, gavhar, billur, ravoch va ko‘plab ziravor va dorivorlar keltiriladi. Hindistondan bu shaharga turli-tuman ziravorlar: muskat yong‘og‘i, qalampirmunchok, zanjabil, anbar, dolchin va Iskandariyaga olib borilmaydigan boshqa turli narsalar keltiriladi».

O‘sha davr muarrixii Ibn Arabshohning yozishicha, Samarqandga chet mamlakatlardan oltin va kumush, xususan Xurosondan – ma‘danlar;

Hind va Sinddan – yokut, olmos; Xitoydan – atlas, yashin toshi, mushk va boshqa mollar olib kelingan. Chet mamlakatlardan Samarqandga keltirilayotgan mollarning miqdori naqadar ko‘p bo‘lganligini Klavixoning bu shaharda bo‘lgan vaqtida Xitoy poytaxti Xonbaliqdan 800 ta tuyali savdo karvoni kelganidan bilish mumkin.

Amir Temur va Temuriylar davrida davlatlar o‘rtasida diplomatik munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda ham maxsus xizmatkorlar – xabarchi-choparlarning xizmati katta bo‘lgan. Xabarchi-choparlar tepasida «mubashshir» (arabcha «xushxabar tarqatuvchi») deb ataluvchi va saroyda hurmat-e‘tiborga ega bo‘lgan amir turgan.

Davlat xabar (xabarchi) vositasi sifatida maxsus chopar va savdo karvonlariga katta imtiyoz va qulayliklar yaratgan. Masalan, yo‘l ustida (bir kunlik masofa yo‘l ustida) yomxonalar (forscha «xabarchi qo‘nib o‘tadigan va otlar saqlanadigan joy») va rabot (arabcha «karvonsaroy»)lar qurdirilib, ularning tepasiga maxsus nazoratchilar (yomchilar, rabotbonlar) qo‘yilgan. Ularning zimmasiga choparlar, savdogarlar, elchilarga qo‘noq va oziq-ovqat berish, jo‘nab ketishlarida esa horigan va usallab qolgan otulovni almashtirib berish, yo‘lovchilarning xavfsizligini ta‘minlash vazifasi yuklatilgan. Yomxona va rabotlardan tashqari, yo‘l ustidagi qishloqlarning aholisi ham elchi va choparlarga qo‘noq berishga majbur etilganlar.

Amir Temur va Temuriylar davrida amalda bo‘lgan aloqa vositalari haqida arxeolog olimlarimiz katta ashyoviy dalillar to‘plaganlar. Qadimiy qo‘lyozma asarlarda ham bu xaqda qiziqarli ma‘lumotlarni uchratamiz.

Masalan, «Temur tuzuklari»da mana bo‘larni o‘qiymiz: «Amr qildimki, ...ming chaqqon sipoxiyni chopar etib tayinlasinlarki, turli mamlakatlar va sarxادلarning xabarlarini, qo‘shni hukmdorlarining maqsadlari va niyatlarini aniqlab, huzurimga kelib xabar qilsinlar, toki biror voqea, kor-xol yuz bermasidan burun chora va ilojini qilaylik. Chunonchi, To‘xtamishxonning Urusxondan yengilgani haqida xabar keltirganlarida, endi xuzurimga panox izlab kelishini bildim. Shu bois Urusxonga karshi urushga tayyorlana boshladim».

Amir Temur tuzgan markaziy davlat tizimida ham yetti vazirdan yettinchisi mamlakatlararo savdo va elchilik munosabatlari bilan

shugʻullangan boʻlib, bu muassasa Devoni rasoil (Elchilik devoni) yoki Devoni insho deb atalgan. Bu vazir xorijiy mamlakatlar bilan boʻladigan munosabatlarga mutasaddilik qilgan.

Sohibqiron elchisi bir necha tilni bilgan, dunyo koʻrgan, hatto Makkani tavof etib, hoji boʻlgan. Temur Anqara gʻalabasidan keyin darxol Kastiliya qiroli oldiga elchi Muhammad Keshiyini joʻnatgan va unga sovgʻalar yuborgan.

A. Saidov va L. Kerenning fikricha, «bu elchining ismi sharifi turli asarlarda har xil yoziladi: bir xil manbalarda «Muhammad al-Qozi» boshqalarida «Muhammad al-Xoji». G. Le Stranj «Xoji Muhammad» deb yozgan. Klavixo «Kundaliklar»ining har ikki ruscha tarjimasida elchining oti hech bir asossiz «Magomet Algagi» deb berilgan. Shu kabi xatolar boshqa manbalarda ham uchraydi. «Muhammad El Keshiy», yaʼni keshlik Muhammad deyish toʻgʻridir. Bu esa Sharqda kabul qilingan ism qoʻyish qoidalariga mos keladi [1].

Klavixo elchi Muhammad Xoji Amir Temurning Kastiliya kiroli Genrix III ga maxsus xat va sovgʻalar yuborganligi hamda yaxshi kutib olinganligi haqida xabar bersa-da, biroq bu xatning mazmunini bayon qilmaydi.

Argote de Molina Amir Temurning Genrix III ga elchi Muhammad Xoji orqali yuborgan xatining toʻla ispancha matnini eʼlon qilgan. Bu xat Klavixo xotiralarining 782 yili Madridda Antonio de Sancha chiqargan nashriga ilova qilingan Argote de Molinaning «Qisqacha kirish soʻzi»da keltirilgan. Xatning asl nusxasi Ispaniya arxivlarida saqlanmoqda [2].

L. Keren aytishicha, «oʻsha davrda Temur yana Fransiya, Angliya Genuya va Venetsiya podsholari oldiga favqulodda elchi qilib, nasroniy taqvodor, Sultoniya arxiyepiskopini yuborgan. U yuksak hurmat-egʻtirom bilan Konstantinopol va Kastiliya elchilarini qabul qilgan. Afsuski, bu aloqalar Temur vafotidan keyin barham topgan. Temurning maksadi Ipak yoʻli deb atalmish savdo yoʻlini butun Ovrupoga choʻzishdan iborat boʻlgan. Oʻz zafarlari bilan Temur shu yoʻllarning tashkilotchisi va soxibi boʻlgan»[3].

Amir Temur Damashqqa kelganida Misr voliysi uch nafar kishisiga zaharlangan hanjar berib, elchi sifatida elchilik marosimida

Sohibqironning joniga qasd qilishni tayinlagan. Lekin ularni Amir Temurning odamlari fosh etganlar. Elchilar nochor o'z gunohlarini bo'ynilariga olganlar.

Amir Temur Tangri taologa shukronalar aytib, elchilarni o'ldirmasdan qo'yib yuborishni buyurgan. Bu haqida Nizomiddin Shomiy «Zafarnoma» asarida batafsil to'xtalgan. Unda Sohibqironning quyidagi so'zlari keltirilgan: «Bizning yosoq va qoidamizda elchini o'ldirish rasm emas, ammo ulardan biri mufsid va fitnachidir, shariat fatvosi bilan uni o'ldirish joizdir» dedi. Buyruqqa binoan, uni o'ldirib, o'tda kuydirdilar. Elchilik nomi bilan kelgan ikkitasini qo'yib yubordilar[4].

Yukorida bayon etilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, Amir Temur elchilik nomi bilan kelgan elchilarning hurmat-izzatlarini joyiga qo'ygan va ularga gap-so'zlari va ishlariga yarasha muomala qilgan[5]. Xullas, o'zbek davlatchiligining tarixi qanchalik ko'hna bo'lsa, elchilik munosabatlari ham shunchalik qadimiydir.

Afsuski, Amir Temurning vafot etishi o'sha davr uchun tinchlik va taraqqiyot yo'lidagi juda ilg'or g'oyali rejalarning amalga oshishini ham to'xtatib qo'ygan. Yuqoridagi fikrlardan ham ko'rinib turibdiki, Amir Temurning xorijiy davlatlar bilan olib borgan diplomatik aloqalari davlat taraqqiyoti uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ushbu aloqalar natijasida Movarounnahrda tinchlik qaror topgan, jahonning ko'plab mamlakatlari bilan savdo-sotik munosabatlari va iqtisodiy aloqalar kuchayib, aholining turmush darajasi, madaniyati yuksalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Keren L., Saidov A. Amir Temur va FransiY. – T.: Adolat, 1996.– B.57.
2. Ismatulla X. Amir Temur va xorijiy dunyo // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 1995. – 22 sent.
3. Keren L., Saidov A. Amir Temur va FransiY. – T.: Adolat, 1996.– B.– 57–58.
4. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – T., 1996.– B.299–300.
5. Ahmedov B. Amir Temurni yod etib. – T., 1996. – B.155.

“TEMUR TUZUKLARI” – MUHIM TARIXIY MANBA

N.S.Rasulova,

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti dotsenti, t.f.n.*

XV asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg‘onish, ya’ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Amir Temurning “Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo‘qoladi”, degan fikrlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Amir Temur ibn Amir Tarag‘ay ibn Amir Barqul o‘rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli markazlashgan davlat asoschisi ilm-fan va madaniyat homiysi bo‘lib, Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo‘ltig‘iga qadar g‘oyat katta hududni qamrab olgan markazlashgan ulkan saltanatga asos soldi; Movarounnahrning shon-shuhratini dunyoga tanitdi, ilmu fan, hunarmandchilik, me‘morchilik, san‘at va madaniyatni mislsiz darajada rivojlantirdi, ya’ni temuriylar renessansi – Uyg‘onishiga asos soldi; insoniyat taraqqiyotida davlatchilik tizimini yuqori pog‘onaga ko‘tardi, yangi qonunlar va tartib-qoidalarni joriy etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Milliy davlatchiligimiz, g‘urur-iftixorimiz timsoli bo‘lgan bu ulug‘ zotning xalqimiz, Vatanimiz oldidagi tarixiy xizmatlarni baholashning o‘zi qiyin. Mustaqillik yillarida buyuk ajdodimizning xotirasini tiklash borasida qanday katta ishlar amalga oshirilganini barchangiz albatta yaxshi bilasiz”¹.

Yevropa olimlari Amir Temur davlati Osiyodagi eng so‘nggi buyuk saltanat edi, deya e’tirof etadilar. Sohibqironning bunday katta davlatni, markazlashgan yirik saltanat sifatida tuzishi, tartibga keltirishi va uzoq

¹ Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – B.309.

yillar hukmronlik qilishida “Temur tuzuklari” asosiy manba sifatida xizmat qilgan.

Barkamol avlod tarbiyasi uchun Amir Temur kabi ulug‘ ajdodlarimizning hayotiy tajribasi, sarkardalik va boshqaruv mahorati hamda ijodiy merosini o‘rganish, ularning ibratli jihatlarini o‘zlashtirish oldimizda turgan dolzab vazifalardandir.

Ma’lumki, “Tuzuki Temuriy” (“Temur tuzuklari”), “Malfuzoti Temuriy” (“Temurning aytganlari”) va “Voqioti Temuriy” (“Temurning boshidan kechirganlari”) nomlari bilan atalmish bu asar e’tiborga molik tarixiy manbalar sirasiga kiradi. Chunki, uning nusxalari (qo‘lyozmalari ham, toshbosmalari ham) ko‘p tarqalgan. “Temur tuzuklari”ni bugun jahonning ko‘pgina mamlakatlarida, masalan, Rossiya, Angliya, Fransiya, AQSH, Finlyandiya, Daniya, Eron, Hindiston, Turkiya, Misr, Yaman kutubxonalaridan topsa bo‘ladi.

Amir Temur faoliyatining asosiy tamoyillari “Temur tuzuklari”da o‘z aksini topgan bo‘lib, unda jahongirning saltanat boshqaruvida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha muammolaridan tortib, ichki va tashqi siyosatning mohiyati, xalqlararo va millatlararo munosabatlar, ma’naviy meros masalalari to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari bayon etilgan.


Ta’kidlash joizki, “Temur tuzuklari” qimmatli, amalda sohibi tojlarga kerak bo‘lgan dasturul amal kitob hisoblanib, undan ko‘proq nusxa ko‘chirilgan. Hukmdorlarning ko‘pchiligi mazkur asardan nusxa ko‘chirtirib, shaxsiy kutubxonalarida asraganlar va davlat boshqaruvi, ijtimoiy-madaniy va harbiy-siyosiy faoliyatlarini tartibga solishda tayanib ish tutganlar.

“Temur tuzuklari” – podsholarning turish-turmush va axloq-odob normalarini belgilovchi risoladir. Asar ikki qismdan iborat. Birinchi qismda jahon tarixida mashhur fohih, sarkarda va iste’dodli davlat arbobi sifatida nom qoldirgan Amir Temurning yetti yoshi (1342) dan to vafotiga (1405-yil, 18-fevral) qadar kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, aniqroq qilib aytganda, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo‘lga kiritish, feodal tarqoqlikka barham berish va markazlashgan davlat tuzish, qo‘shni yurt va mamlakatlarni, masalan, Eron hamda Afg‘onistonni o‘z tasarrufiga kiritish, Oltin O‘rda hukmdori To‘xtamishxon (1376–

1395), butun Yevropaga qo‘rquv va dahshat solgan Turkiya sultoni Boyazid Yildirim (1389–1402)ga qarshi va nihoyat, buyuk jahongirning Ozarbayjon, Gruziya va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan.

Ikkinchi qism Sohibqironning nomidan aytilgan va uning toju taxt vorislariga atalgan o‘ziga xos vasiyat va pand-nasihatlaridan iborat. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toju taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo‘shin boshliqlarini saylash, sipohiylarning maoshi, mamlakatlarni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo‘shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko‘rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqalar xususida gap boradi.

“Temur tuzuklari”da keltirilishicha, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, jang ko‘rgan, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshi ekanligi e’tirof etilgan. Chunki, tajribali bir kishi ming kishiga ish buyurgan.



Amir Temur saltanatida o‘tkazilgan mashvarat, qurultoy, kengash, shohona qabullar va dabdabali saroy marosimlarida o‘rta asr davlatchiligining o‘ziga xos rasmiy an‘analari jamlangan edi.

“Temur tuzuklari”da qayd etilishicha, Amir Temur mashvaratga kiruvchilarni liboslariga quyidagi talablarni qo‘ygan: “Amr qildimki, sipohiylar, amirlar, mingboshilar, yuzboshilar va o‘nboshilar devonxonaga, bazm-majlislariga kulohsiz, etiksiz, kavushsiz, bo‘rk yoqalik chakmonsiz, xanjarsiz, qilichsiz hozir bo‘lmasinlar”.

Amir Temur huzurida maslahat, kengash idoralariga qurultoy va davlat kengashini kiritish mumkin. Qurultoy – vaqti-vaqti bilan mamlakat va davlat hayotining muhim masalalarini hal etish uchun chaqirib turilgan.

Bu Temur siyosatining o'ziga xosligini ko'rsatadi. Tarixiy manbalarga ko'ra, Balx, Qarshi va Qorabog', Samarqandda qurultoylar chaqirilgan. Buni Sharqqa xos marosim, hatto millat majlisi deb atash mumkin. Qurultoylarga barcha shahzodalar, oliy martabali dindorlar, bosh amaldorlar, ma'muriyat xodimlari, harbiy boshliqlar, zodagonlar vakillari taklif qilingan.

Amir Temur o'z Tuzuklarida kengashni ikki turga bo'lgan:

- 1) til uchida aytilgani (shunchaki eshitgan);
- 2) dildan aytilgani (bunday maslahatlarni qalb qulog'iga quyib, diliga joylagan).

Amir Temur qudratli saltanatlar qo'shiniga qarshi turadigan taktik va strategik jihatdan, qurollanish, jangovarlik va intizom jihatdan ulardan ustun bo'lgan harbiy qo'shinni tuzgan. "Tuzuk"larda harbiy qonun-qoidalar, qo'shin tuzish, uni boshqarish, qo'shindagi intizom batafsil yoritilgan.

Qurultoyning davlat hayotidagi o'rni quyidagicha bo'lgan:

- jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga xizmat qilgan;
- xalq vakillari bilan kengashish vositasi;
- qurultoyda urush, tinchlik masalalari yoki davlat boshqaruviga oid boshqa muhim ishlar hal etilgan;
- qurultoy boshqaruvda jamoat fikriga tayanish imkonini yaratgan;
- markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi o'rtasidagi aloqadorlikning ta'minlanishiga ta'sir etgan;
- qurultoy monarxiyaning demokratiya bilan uyg'unlashgan ko'rinishi bo'lib davlatda tenglik, adolat tamoyillarini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatgan;
- qurultoy davlatning manbai xalq bo'lganligini anglatadi

Amir Temur dunyo siyosati va tamaddunida ulkan iz qoldirgan siymolardan biridir. Uning adolatli davlat boshqaruvidagi boy tajribasi bugungi kunda nechog'lik ahamiyatli ekanini barchamiz yaxshi bilamiz. "Temur tuzuklari"da hokimlar va vazirlarning vazifalari, o'z ishiga munosabati, aholi turli qatlami, raiyatning haq-huquqlarini himoya qilish, sipohlarga munosabat kabi ma'naviy-axloqiy qonun-qoidalar aks etgan.

Amir Temur davlatining shon-shuhratini ta'minlagan muhim kuch uning vazirlari, amaldorlari va sipohiyolari edi. Qo'l ostidagi amaldorlarini to'g'ri tanlagani va ularning kuch-quvvatidan davlatni boshqarishda foydalangani Amir Temurning eng muhim yutuqlaridan biri bo'lgan.

Tuzuklarda vazirlar, amirlar va voliyalar haqida ham muhim ma'lumotlar keltirilgan: "Vazirlar saltanat ustunlaridir... (ular) mamlakat obodonchiligini, raiyatning tinchligini, sipohlarning birligini, xazina boyligini doimo ko'zda tutadilar. Davlat, saltanat ishlarini yuzaga chiqarishda kamchilikka yo'l qo'ymaydilar. Saltanatga zararli narsalarni qaytarishda molu jonini ayamaydilar".

Shunday qilib, "Temur tuzuklari" – Sohibqironning davlat va armiya qurilishi haqidagi nazariy va amaliy fikr-mulohazalari jamlangan muhim asar. O'zbekiston zaminida tug'ilib voyaga yetgan jahongir dunyo tarixida o'chmas iz qoldirdi, buyuk davlat barpo etib, uni ilm-ma'rifat, me'morchilik markaziga aylantirdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Amir Temur o'z davlati sarhadlarini yurishlar evaziga kengaytirgan bo'lsa ham, adolatli qonunlar, to'g'ri qo'llangan boshqaruv orqali mintaqalardagi tinchlik, barqarorlik va adolatni ta'minlashga intilgan.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MADANIYATI

I.M.Haydarov,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
"Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi
kafedrasi" dotsenti, t.f.d., dotsent

XIV asr o'rtalarida Chingizxon egallab olgan yerlar uning merosxo'rlari qo'l ostida bo'lsa ham, bu yerlar mayda bo'laklarga bo'linib ketib, ularda toju taxt, xokimiyat uchun o'zaro nizolar kuchayib ketgan edi. 1348 yilga kelib Sharqiy Turkiston yerlarida Mo'gliston feodal davlati tashkil topdi, uning xoni etib Chig'atoy avlodidan Tug'luq Temur ko'tarildi. Tug'luq Temur dastlabki davrlardan o'z yerlarini kengaytirish maqsadida Movarounnahr yerlariga bir necha harbiy harakatlar uyushtirdi. Mana shunday ichki o'zaro urushlar avj olib, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy

inqiroz kuchayib borgan davrda tarix maydoniga mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda nom chiqargan buyuk sohibqiron, moxir sarkarda Amir Temur kirib keldi.

Amir Temur Shahrisabz yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida Barlos beklaridan Muhammad Tarag'ay oilasida 1336-yil 8-aprelda dunyoga kelgan¹. Uning amakisi Xoji Barlos Kesh shahrining xokimi edi. Temur yoshligidanoq harbiy maxoratga ega shaxs bo'lib, u o'z atrofiga barlos urug'idan chiqqan yosh jangchilarni to'plagan edi. 1360-1361 yillarda Tug'luq Temur hech qanday qarshiliksiz Movarounnahr yerlariga bostirib kirganida Xoji Barlos Xurosonga qochadi. Vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor xissiyoti kuchli bo'lgan yosh Temur esa amakisi hokimlik qilib turgan yerlarini dushman qo'lga bermaslik uchun Tug'luq Temur xizmatiga kiradi va tez orada uning ishonchini oqlab, Kesh viloyati yerlariga hokimlik uchun yorliq oladi.

Amir Temurning bu ishi Movarounnahrda siyosiy tarqoqliq, o'zaro kurashlar va boshboshdoqlik hukm surgan davrdagi birdan-bir to'g'ri yo'l edi. Chunki Movarounnahr amirlarining Tug'luq Temurga qarshi bosh ko'tarib chiqishi mo'g'ul bosqinchilarining Movarounnahr yerlarini yana bir bor vayron etishiga olib kelishi muqarrar edi.

Tug'luq Temur 1361 yilda Movarounnahr yerlarini boshqarishni tajribasiz o'g'li Ilyosxo'jaga topshiradi. Lekin Temur Ilyosxo'jaga xizmat qilishdan bosh tortib, o'sha vaqtda Balx hokimi bo'lib turgan Amir Kozog'onning nabirasi Amir Xusayn bilan ittifoq tuzadi. Temur o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida mo'g'ullarga qarshi kurash boshlaydi. Mahalliy hokimiyat uchun bo'lgan janglarning birida, aniqrog'i Seyistonda turkmanlarga qarshi bo'lgan janglarda o'ng qo'li va o'ng oyogidan yaralanib bir umrga oqsoq bo'lib qoladi.

1363 yilda Tug'luq Temurning vafoti Movarounnahr uchun bo'lgan kurashlarni kuchaytirib yuboradi. Lekin mo'g'ul bosqinchilari osonlikcha Movarounnahr yerlarini bermasliklari ma'lum edi. Shu munosabat bilan Amir Temur va Tug'luq Temur vafotidan so'ng Movarounnahrdan haydalgan Amir Xusaynning birlashgan qo'shinlari 1365 yilda Ilyosxo'ja qo'shinlariga qarshi ittifoqlikda kurash boshlaydilar. Toshkent va Chinoz

¹ Temur Tuзуклари. Халқаро Амир Темур жамғармаси. “Шарқ” НМАК. Т.: 2005 йил. Б-92.

oralig'ida bo'lgan mashxur «loy jangi» ittifoqchilar o'rtasidagi kelishmovchilik tufayli mag'lubiyat bilan tugaydi. Ushbu voqealardan so'ng Amir Xusayn va Amir Temur o'rtasida dastlabki ixtilof boshlanadi. «Loy jangi»da g'alabaga erishgan Ilyosxo'ja uchun Movarounnahrda keng yo'l ochilgan edi.

U katta qo'shinlar bilan Samarqandga yurish boshlaydi. Bu paytda Samarqanddagi Mavlonzoda va Abu Bakr boshliq sarbadorlar Ilyosxo'jaga qarshi chiqadilar. Mahalliy aholining vatanparvarlik namunalarini ko'rsatib qarshilik qilganliklari tufayli Samarqandni bir oz qamal qilib turgan mo'g'ul qo'shinlari Movarounnahrni butunlay tark etishga majbur bo'ladilar¹.

Movarounnaxrda mo'g'ullar ustidan qozonilgan g'alaba haqida xabar eshitgach, Amir Temur va Amir Xusayn Movarounnahrda yo'l olib Samarqand yaqinidagi Konigil degan joyda sarbadorlarning rahbarlari bilan uchrashadilar. Bu uchrashuvda o'zaro kelishmovchilik kelib chiqib, sarbadorlarning rahbarlari xiyla yo'li bilan o'ldiriladi. Movarounnahrda Samarqand taxtini Amir Xusayn egallab, uning hukmronligi tiklanadi. Shu vaqtdan boshlab Amir Xusayn va Amir Temur o'rtasidagi munosabatlar yanada keskinlashib ketadi.

Bu vaqtga kelib butun Movarounnahr yerlarida o'zaro urushlardan so'ng ijtimoiy-iqtisodiy axvol og'irlashib ketgan edi. Mana shunday bir vaqtda, mamlakatda o'zaro urushlarga barxam beradigan markazlashgan davlat tizimini barpo etish nixoyatda zarur edi. Buni birinchi bo'lib anglagan Amir Temur Amir Xusaynga qarshi zimdan kurash olib borib 1370-yilda Movarounnahr taxtini egallashga muvaffaq bo'ladi.

Vatan xaqida qaygurish, Vatan mustaqilligini tiklash xaqidagi fikrlar shu yillar yuzaga chiqib, Amir Temur Balx shahrida chaqirilgan qurultoyda Movarounnahrning amiri deb e'lon qilinadi. Temur o'z tasarrufida markazlashgan davlatni yuzaga keltirish maqsadida Kesh shahridan Samarqandga ko'chib o'tib, uni Movarounnahrning poytaxtiga aylantiradi. Soxibqiron aniq muloxazalari bilan xalqni zulmdan ozod qilish va uzoq yillik boshboshdoqlik hukmron bo'lgan yerda markazlashgan davlat tuzish mushkulligini sezganligi sababli dastlab mamlakatni tashki

¹ Марсель Брион. Мен ким, Сохибқирон-Жахонгир Темур – Т., “Янги аср авлоди”. 2014. – Б. 21-22.

xavfdan saqlash maqsadida asosini barlos urug‘lari tashkil etgan engilmas va jangovor milliy qo‘shin tuzadi, ularga katta imtiyozlar beradi¹.

Temur davlat boshqaruvida, ichki va tashqi siyosatda asosan o‘z qo‘shinlariga suyanganligi sababli harbiy isloxotga, ya‘ni qo‘shin boshliqlarini tanlash, lashkar qismlar, ularning joylashishi, askarlarning qurollanishi va harbiy intizom masalalariga keng e‘tibor bergan. U qo‘shinlarini o‘nlik, yuzlik, minglik kabi askariy birikmalarga bo‘lgan. Uning uchun har bir askar jang qilish uslublarini yaxshi bilishi farz hisoblagan. Amir Temur lashkarlarga ham katta e‘tibor berib, ular nizomni qat‘iy bajarishi, jangda ayovsiz va dovyurak bo‘lishi, dushmanga yumshoq muomalali va adolatli bo‘lishi lozim deb hisoblardi. Ibn Arabshoxning yozishicha, Temur askarlari ichida taqvodor, saxovatli, xudojo‘y kishilar ko‘p bo‘lgan. Ular bechoralarga xayru exson ko‘rsatish, boshga og‘ir kunlar tushganda yordam qo‘lini cho‘zish, asirlarga yumshoq muomalada bo‘lish va ularni ozod etishga odatlanganlar. Amir Temur doim jangda jasorat ko‘rsatgan amirlar va askarlarga aloxida e‘tibor bilan qaradi. Natijada Sohibqiron uyushqoqlik hukm surgan yuz minglik qo‘shinlari ichida intizomni mustahkamlash bilan o‘z davlatining poydevori bo‘lgan qo‘shin tuzishga muvaffaq bo‘ldi.

Temur Movarounnahr taxtini egallagan vaqtdan boshlab, o‘z davlati chegaralarini mumkin qadar kengaytirishga kirishadi. Shu maqsadda u Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi yerlarni o‘z tasarrufiga oladi. Xorazmga besh marotaba yurish qilib, 1388-yilda uni butunlay bo‘ysundiradi, bu yerda hukmronlik qilayotgan so‘fiylar sulolasini tugatadi. Temur o‘zining uch yillik (1386-1388), besh yillik (1392-1398), yetti yillik (1399-1405) yurishlari davomida Ozarbayjonda jaloyirlar, Sabzavorda sarbadorlar davlatini, Xirotda kurdlar davlatini tugatib, Eron va Xurosonni o‘z tasarrufiga oladi. 1394-1395 yillarda Oltin O‘rda xoni To‘xtamishga qarshi yurish qilib, uning ko‘p sonli qo‘shinini mag‘lubiyatga uchratadi va Oltin O‘rda xududini egallaydi². Temurning bu g‘alabasi Oltin O‘rdaga juda katta zarba berish bilan birga Temur qo‘shinlarining Volga daryosi bo‘ylarida bemalol yurishlariga ham keng

¹ Бобир Бердиев. “Темур тузуклари”да жамият ижтимоий катламларининг акс этиши. Ижтимоий фикр-инсон ҳуқуқлари. 2013 йил № 3. Б-115.

² Ҳамдам Содиков. Амир Темур салнатанида хавфсизлик хизмати. Т.: “ARTFLEX”. -2010йил. Б-9.

yo‘l ochdi. Ta’kidlash joizki, Temurning bu g‘alabalari tarix sahnasida ulkan ahamiyat kasb etdi.

Amir Temur 1398 yilda Hindistonga qilgan yurishida Dehli shahrini, 1400-yilda Suriyaga qilgan yurishida g‘alaba va Bayrut shaharlarini, 1401-yilda Damashq shahrini egallaydi.

1402-yilda Usmoniylar imperiyasining sultoni Yildirim Boyazidga qarshi yurishida uni mag‘lubiyatga uchratdi. Bu g‘alaba bilan Temur Yevropaning usmoniylar asoratiga tushishini bir necha o‘n yillar orqaga surib yubordi.

Temur 1404-yilda Kichik Osiyodan Samarqandga keladi va Xitoyga yurish uchun harbiy taraddud ko‘radi. Shubxasiz, Temur bu yurish uchun uzoq yillar tayyorlanib, jang uchun kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni yillar davomida to‘plagan edi. 1404-yilda Temur 200 minglik qo‘shin bilan Xitoy safariga otlandi. Ammo Temurning qattiq betoblighi tufayli uning qo‘shinlari 1405-yilning yanvar oyida Xitoyga yaqin bo‘lgan chegara shahar O‘tror shahrida to‘xtaydilar va shu yerda 1405-yilning 18-fevralida buyuk sohibqiron Amir Temur vafot etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Temur Tuzuklari. Xalqaro Amir Temur jamg‘armasi. “Sharq” NMAK. T.: 2005 yil. B-92.
2. Marsel Brion. Men kim, Sohibqiron-Jahongir Temur – T., “Yangi asr avlodi”. 2014. – B. 21-22.
3. Bobir Berdiyev. “Temur tuzuklari”da jamiyat ijtimoiy qatlamlarining aks etishi. Ijtimoiy fikr-inson huquqlari. 2013 yil № 3. B-115.
4. Hamdam Sodiqov. Amir Temur salnatanida xavfsizlik xizmati. T.: “ARTFLEX”. -2010yil. B-9.
5. H.Sodiqov va mualliflar jamoasi. O‘zbekiston qurolli kuchlari (o‘tmishda va hozirda) –T.: Tafakkur qanoti., 2014. 41-b.
6. H. Karamatov va mualliflar jamoasi. Amir Temur jahon tarixida. –T.: Sharq. 2000. -134 b.
7. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat. 2008. 44-b.

8. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. –T: O‘zbekiston 1998.
9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T: Ma’naviyat.2008.

SOHIBQIRON QO‘SHINIDAGI HARBIY SAN‘AT

F.M.Saydjanov,

*Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa
harbiy instituti sikl boshlig‘i, podpolkovnik*

Amir Temur armiyasidagi jangchilarga doimiy maoshlar to‘langan. Maoshning hajmi xizmatni qanday olib borilishiga bog‘liq bo‘lgan. Oddiy askar 2 tadan 4 tagacha otning bahosiga teng bo‘lgan maosh, o‘n begi – o‘z o‘nligining maoshiga teng miqdordagi maoshni olgan (shuning uchun u o‘z jangchilarining yuqori maoshga erishishlaridan manfaatdor bo‘lgan); yuz begiga oltita o‘nlikning maoshiga teng miqdordagi maosh to‘langan va hokazo. Intizomiy jazolarning turlaridan biri maoshning o‘ndan bir qismini ushlab qolish bo‘lgan.

Armiyada yengil piyodalar ham bo‘lib, ular safarda otlarda harakatlanganlar, jang olib borishda esa, kamondan nishonni bexato urish uchun arablarga o‘xshab otlardan tushib piyoda holda jang qilganlar. Piyoda jangchi qilich, 30 ta o‘qqa ega bo‘lgan kamon bilan qurollangan. Yengil piyodalar baland pastliklarda harakatlanish va shaharlarni qamal qilish uchun qo‘llanilgan. Bundan tashqari, Amir Temur tog‘larda harakatlanish uchun maxsus otryadni (tog‘ piyodalarini) tashkil etgan. [1]

Amir Temurning sarkardalik iste’dodi uning To‘xtamishga qarshi va Hindistondagi yurishlari chog‘ida hamda turk sultoni Boyazid Yildirimga qarshi kurashlarida yaqqol namoyon bo‘ldi.

Amir Temurning To‘xtamishxonga qarshi yurishlari. Amir Temur Oltin O‘rdaning qanday xavf solib turganidan boxabar edi. U Jo‘chi ulusida sodir bo‘layotgan voqealarni diqqat bilan kuzatib turdi. 1360 yildan 1380 yilgacha, ya’ni 20 yil ichida Oltin O‘rdada 25 ta xon almashdi. Oq O‘rdaning hukmdori O‘risxon 1375 yilda Jo‘chi ulusining ikki qismi –

Oltin Oʻrda va Oq Oʻrdani birlashtirishga qaror qildi. Oʻrdalar birlashib, Amir Temur davlatiga jiddiy xavf tugʻdirishi mumkin edi. Bu xavfni oldini olish uchun Amir Temur yuzaga kelgan vaziyatdan mohirlik bilan foydalandi.

Oq Oʻrdaning oʻzbek amirlaridan biri Toʻy Xoʻja oʻgʻlon Oltin Oʻrdaga qarshi harbiy yurishga ishtirok etishdan bosh tortganligi uchun Oʻrisxon tomonidan oʻldirildi. Toʻy Xoʻja oʻgʻlonning oʻgʻli Toʻxtamish oʻgʻlon 1376 yilda Oq Oʻrdadan qochib, Samarqandga keldi.

Amir Temur undan Oʻrisxonga qarshi kurashish uchun foydalanishga qaror qildi. Amir Temur Toʻxtamishni Joʻchi ulusida uning siyosatini yurgizuvchi kishi boʻladi deb oʻylagan edi. Lekin buning aksi boʻlib chiqdi. Amir Temurning yordami bilan Oq Oʻrdaning xoniga aylangan Toʻxtamish Oʻrisxonning izidan bordi, yaʼni u Joʻchi ulusini birlashtirish va qudratli Oltin Oʻrdani yaratish uchun kurash boshladi. Oq Oʻrdaning hukmdoriga aylangan Toʻxtamish (1377), oʻzining raqibi va soxta xon Mamayxonning Kulikovo dalasida rus knyazi Dmitriy Donskoydan chekkan magʻlubiyatidan foydalanishga qaror qildi va shu yili Kalka daryosi yoqasida Mamayxonning qolganqutgan qoʻshinini tormor etdi. Bu gʻalabadan keyin Toʻxtamish Oltin Oʻrdaning oliy hukmdori – xoni boʻldi va Joʻchi ulusining ikkala qismini birlashtirishga kirishdi.

Amir Temur bilan shijoatli va makkor Toʻxtamish oʻrtasidagi kelishmovchiliklar ochiqchasiga kurash tusini oldi.


1391 yilning 18 iyunida Qunduzcha daryosi boʻyida (Rossiya hududidagi hozirgi Samara viloyati) Amir Temur va Toʻxtamishning qoʻshini oʻrtasida jang boʻlib oʻtdi. Bu jangda har ikkala tomondan taxminan 400 ming jangchi qatnashdi va bu jang oʻsha davrning eng yirik janglaridan biri boʻldi.

Amir Temur armiyasining ushbu jangdagi jangovar tartibi Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiyning asarlarida toʻligʻicha aks ettirilgan. U Sohibqironning shaxsan oʻzi tomonidan tuzilgan edi. Amir Temur birinchi boʻlib jangovar tartibni «yetti qoʻl», yaʼni korpuslar usulida tashkil etdi, shu vaqtgacha hech kim bunday jangovar tartibni qoʻllamagan edi. Ali Yazdiy bu toʻgʻrisida shunday yozadi: «Hukmdor oʻzi yurib qoʻshinni yetti qoʻl tartibida safladi. Shu paytgacha hech bir

podshoning qo‘shinni bunday saflaganini eshitmaganman». Yana uning ma’lumot berishicha, g‘animning qo‘shini Amir Temurning qo‘shiniga qaraganda bir nechta *koshunga* (500 ta kishiga ega bo‘lgan harbiy bo‘linma) ko‘p edi.

Amir Temur qo‘shinining jangovar tartibi quyidagicha edi. Markazda saflangan qo‘lga amir Sulaymonshoh qo‘mondonlik qildi. Bu qo‘lning ortidan mirzo Muhammad Sulton boshchiligidagi ikkinchi qo‘l saf tortdi. Barang‘orda Mirzo Mironshohning qo‘li saflandi, Xo‘ja Sayfiddinning qo‘li kunbul rolini bajarib o‘ng qanotda saflandi. Javang‘or mirzo Umarshayxning qo‘shinidan tashkil topdi. Kunbul sifatida – chap qanotda Berdibek Saribugning qo‘li joylashdi. Qo‘shin jangovar tartibining markazi avangard (manglay) tomonidan to‘sib turildi. Qo‘lning front ortida Oliy Bosh Qo‘mondon Amir Temurning stavkasi bilan chag‘dovul joylashdi. Amir Temur qo‘mondonligidagi 20 minglik qo‘shin zaxiraga ajratildi. Bu zaxira kuchlari jangning natijasi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi.

ТҶХТАМИШХОН ҚЎШИНИ



АМИР ТЕМУР ҚЎШИНИ

Qunduzcha daryosi bo‘yidagi jangda (1391 yil 18 iyun) tomonlarning jangovar tartibi

Qaramaqarshi tomonda xon To‘xtamish o‘z qo‘shinini besh qismga bo‘ldi, ularga ko‘zga ko‘ringan sarkardalar va Dashti Qipchoqning bahodirlari qo‘mondonlik qildi. Jangdan oldin Amir Temur ruhiy hujum qo‘lladi. Dushmanga ta’sir o‘tkazish va o‘z qo‘shinida dushmanga nafrat uyg‘otish uchun u nabirasi Mirzo Abubakr otryadiga chodirlar qurish va qozonlarda ovqat pishirishga buyruq berdi. Bular hammasi dushmanni shunday esankiratib qo‘ydiki, u turgan joyida qotib qoldi.

Dushmanni yakson qilib va katta o‘ljani qo‘lga kiritgan Amir Temur o‘z qo‘shini bilan Samarqandga qaytib keldi (1391 yilning oktabr oyi oxirida).

Bu harbiy yurish va jangning asosiy natijasi va undan olinadigan sabog‘ quyidagilardir:

1. Amir Temurning qo‘shini og‘ir va murakkab sharoitlarda rejalashtirilgan yurishni amalga oshirdi, bunda faqat cho‘l hududlaridan bosib o‘tilgan yo‘l 2500 kilometrdan oshib ketdi.

2. Amir Temur qo‘shini safarning og‘ir va harakatlanish qiyin bo‘lgan uchastkalaridan dushmanga sezdirmasdan o‘tdi.

3. O‘zining mohirona manyovrlari bilan Amir Temur To‘xtamishning qo‘shinini Azov bo‘ylaridan qo‘shimcha madad kuchlari kelishi ehtimoli bo‘lgan janub tomondan kesib qo‘ydi.

4. Sohibqiron o‘zining mohir harakatlari tufayli To‘xtamishni katta jangga kirishga majbur etdi va shu bilan uni og‘ir safarni amalga oshirgan o‘z qo‘shinini holdan toydiruvchi kichik urushlar olib borish imkoniyatidan mahrum etdi.

5. Safar chog‘ida Amir Temur armiyasi katta va kichik suv to‘siqlaridan kechib o‘tdi. Bunda sayoz kechuv joylaridan (brodlar), ko‘priklardan va suzib o‘tish usulidan foydalanildi.

6. Qunduzcha jangida Amir Temur birinchi bo‘lib o‘z qo‘shinini yetti qismga bo‘lishdek yangi jangovar tartibni qo‘lladi. Qudratli zaxira ham ajratildi.

7. Jangdan oldin Sohibqiron dushmanning ruhiy holatiga putur yetkazishga qaratilgan ruhiy hujumni o‘tkazdi.

8. Jang natijasini zaxiraning jangga kiritilishi va Amir Temurning qanotdan bergan qudratli zarbasi hal qildi.

9. Dushmanni ta'qib etish shunday shiddat bilan olib borildiki, u bir joyga yig'ilishga ulgurmasdan tarqalib ketdi yoki tor–mor etildi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning ma'lumot berishicha, belgilangan safar tartibida (*murchil*) har bir o'nbegi, yuzbegi, mingbegi va tumanbegi (*10 minglik qo'shin qo'mondoni*) o'z mavqei va darajasiga ko'ra, intizomga qattiq rioya qilgan holda harakatlangan. Tartibni buzganlar qattiq jazolangan, ularga hatto o'lim jazosi ham berilgan.

Dam olish uchun to'xtalganda, odatda, qo'shin zanjirlar va arqonlar bilan bog'langan aravalar bilan o'rab olingan. Handaqlar qazilib, ularlarning oldida to'siqlar o'rnatilgan. G'anim qo'shinining paydo bo'lishi bilan jangchilar o'z pozitsiyalaridan chiqib, jangovar tartibga yoyilib dushmanga qarshi harakatlangan.

Amir Temur qo'shini safar paytida quyidagi tartibda harakatlangan: bosh kuchlardan ancha oldinda Ularning ortidan kerakli narsalar ortilgan aravalar harakatlangan.

Asosiy joylarning birida suvdan kechib o'tish uchun joy hozirlangan. Kechuv qo'riqlash postlari bilan qo'riqlangan. Qo'shin daryodan qismlar va bo'linmalar tarkibida kechib o'tgan. Kechuv paytida jangchilar qayiqlardan, meshlardan foydalangan yoki ponton ko'priklari yasagan.

Amir Temur armiyasida o'ljani taqsimlash davrida mabodo kimdir o'zboshimchalik qilsa, hatto u Sohibqironning yaqin kishisi bo'lsa ham, qattiq jazolangan. Uning butun mol-mulki musodara qilinib, o'zi esa qatl etilgan. Faqat ruxsat berilganidan keyingina yurishning har bir ishtirokchisi, uning toifasi va darajasiga qaramasdan, o'ljaning teng taqsimlangan qismini olish huquqiga ega bo'lgan.[4]

Xulosa. Amir Temur tuzgan qo'shin o'zining tashkiliy-shtat tizimi bo'yicha Chingizxonning qo'shini tizimiga yaqin bo'lsada, quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turgan:

1. Amir Temur armiyasi xalq lashkarlari hisoblansa ham, Chingizxon davrida bo'lgani kabi umumiy xarakterga ega bo'lmagan.

2. Chingizxon davrida qo'shinning asosini ko'chmanchilar tashkil etgan. Amir Temur davrida ko'chmanchilar otliqlar va kamonchilarni

yetkazib bergan. Lekin shu bilan birga o‘troq aholi ham qo‘shinning katta qismini tashkil etgan. Shunday qilib, harbiy xizmatga chorvadorlar bilan birga, urushlarning tez-tez bo‘lib turishi va ko‘laminig oshganligi munosabati bilan dehqonlar, hunarmandlar va o‘troq aholining boshqa toifalari ham chaqirilgan.

3. Amir Temur qo‘shinida armiyaning asosini tashkil etgan otliqlar bilan birga piyodalar ham katta rol o‘ynagan. Chingizxon davrida to‘laqonli piyodalar bo‘lmagan.

4. Amir Temur Sharqda birinchilardan bo‘lib armiyasiga artilleriya qurolini (ra‘d) kiritdi. Yangi turdagi o‘q otar qurolning joriy etilishi artilleriya bo‘linmalarini yaratishga imkon berdi va natijada to‘pchilar (ra‘dandozlar) soni bir necha ming kishiga yetdi. Artilleriya qurollari dushmanning tirik kuchlari va texnikasini tor-mor etish hamda qal‘alar va tsitadellarni qamal qilish uchun mo‘ljallangan. Ular qamal chizig‘ining o‘ta muhim uchastkalarida o‘rnatilgan.

5. Tog‘li joylarda mohirlik bilan harakatlanuvchi maxsus piyoda qo‘shinlar tashkil etilgan.

6. Amir Temur jangovar tartibini mohirlik bilan tuzgan va ularni chaqqonlik bilan manyovr qilgan, dushman qanotlariga va front ortiga otliqlar bilan kutilmagan zarbalarni bergan, vaziyatdan kelib chiqib, o‘z qo‘shinini to‘qqiz va yetti qismlarga (*qo‘lga*) bo‘lgan.

7. Armiyada ayollardan tashkil etilgan qismlar joriy etilgan bo‘lib, ular jang paytida erkaklar bilan bir safda turgan va shon-shuhrat hamda jasorat namunalarini ko‘rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. Amir Temur – nasha gordost. Doklad na mejdunarodnoy nauchnoy konferentsii, posvyashennoy 660-letnemu yubileyu Amira Temura, 24 oktabrya 1996 g. // Karimov I.A. Mislit i rabotat po novomu – trebovanie vremeni. T.5. – Tashkent: Uzbekiston, 1997. – s. 175 – 185.

2. Karimov I.A. Obitel vechnogo velichiY. Rech na tseremonii otkritiya pamyatnika Amiru Temuru v g. Samarkande, 18 oktabrya 1996 g.

// Karimov I.A. Mislit i rabotat po novomu – trebovanie vremeni. T.5. – Tashkent: Uzbekiston, 1997. – s. 165 – 168.

3. Amir Temur v mirovoy istorii. - Tashkent: Shark, 2001. - 304 s.

4. Karimov I.A. Poka narod jiv, imya Amira Temura vechno. Rech na tseremonii otkritiya Gosudarstvennogo muzeya istorii Temuridov, 18 oktabrya 1996 g. // Karimov I.A. Mislit i rabotat po novomu – trebovanie vremeni. T.5. – Tashkent: Uzbekiston, 1997. – s. 160 - 164.

AMIR TEMURNI IDEAL SHAXS SIFATIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA O'RGANILISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

F.T.Shermatov,

*Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa
harbiy instiuti boshlig'ining tarbiyaviy va
mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari, psixologiya
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), podpolkovnik*

A.A.Beknazarov,

*Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa
harbiy instituti professori, p.f.n., professor*

Tarbiya inson shaxsi ma'naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimidir. Ta'lim esa axloqli, odobli shaxsiga hunar o'rgatish, bilim berishdir. Inson shaxsini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan tarbiya va ta'lim doimo bir-biri bilan uzviy va uyg'unlikda bog'langan jarayonlardir. [1]

O'zbekiston hududida yashovchi har bir fuqaroni, har bir millat, elat vakillarini va ularning farzandlarini barkamol inson qilib tarbiyalash, mustaqil respublikamizning oliy maqsadlaridandir. Bu borada o'tmishda o'tgan bobo kalonlarimizning o'rni beqiyos. Ma'lumki, Sohibqiron Amir Temur qalamiga mansub “Temur tuzuklari” asari va hayotiy yo'li buyuk bobokalonimiz tarixini o'rganishdagi, uning yoshlarga ta'lim-tarbiya borasidagi bilim va ko'nikmalarni real hayotda foydalana olishini taminlaydi. Dastavval shuni aytish kerakki, Amir Temur odob-axloq,

iymon, e'tiqod, ta'lim-tarbiyada o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun bobomizning o'zi tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid dasturlar, o'gitlar, pand-nasihatlarni, shuningdek, Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko'zdan kechirish kifoY. Bular "Tuzuki Temuriy" ("Temur tuzuklari"), "Malfuzoti Temuriy" ("Temurning aytganlari") va "Voqioti Temuriy" ("Temurnng boshidan kechirganlari") nomi bilan jahonga mashhur bo'lgan asarlarni XV asr muarrixi Fosih Ahmad Havofiyning "Mujmal-i Fosixiy", Nizomuddin Shomiy (tug'ilgan va vafot etgan yili ma'lum emas) va Sharafiddin Ali Yazdiylarning mashhur "Zafarnomasi", ibn Arabshoh (1389-1450)ning "Ajoyib ulmaqdur fiaxbori Temur" (Amir Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari), Salohiddin ibn Mullo Aloiddin hoja Eshonning (Salohiddin Toshkandiy) qalamiga mansub "Temurnoma" (Amir Temur ko'ragon jangnomasi, 1908) kabilar shular jumlasidan. Tarix fanlari doktori, professor Ashraf Ahmad Temur bobomizning o'zi amal qilgan o'n bir sifatni yuksak baxolaydi. [4]

Birinchi sifat: "Men sifatlarimning eng avvalgi deb beg'arazlikni tushundim. Hammaga ham bir xil: jiddiy va odil qaradim, hech bir kimsani boshqasidan farq qilmasdim boyni kambag'aldan ustun qo'ymadim".

Ikkinchi sifat: "Men har doim Islomga qat'iy rioya qildim va Alloh Taoloning amri bilan ulug'langan shaxslarga hurmat bilan qaradim".

Uchinchi sifat: "Men kambag'allarga ko'p xayr-ehson qildim. Har mojaro va muammoni diqqat bilan tekshirdim va uni mumkin qadar to'g'ri hal qilishga butun jahdimni sarf qildim".

To'rtinchi sifat. "Xaloyiqqa rahm qildim, barchaga naf" yetkurdim. Bunda birovga nohaq ozor etkazmadim va mendan yordam so'rab kelganlarni ko'krigidan itarmadim. Qur'ondan parvardigorning Alloxning amriga bo'ysunish va xalqiga shafqat qilish darkor, degan oyatini o'zimga farz bilib, o'qib oldim va umr bo'yi barcha yumushlarimda unga amal qildim".

Beshinchi sifat: "Islomga taalluqli ishlarini men har doim kundalik va dunyoviy ishlardan ustun qo'yib keldim. Avval tangri itoatini ado etib bo'lgandan keyingina kundalik ishlarga qo'l urdim".

Oltinchi sifat: “Barcha so‘zlarimda doim haqiqatgo‘ylikka amal qildim. Bu dunyo va u dunyo xaqidagi etishganlarimdagi haqiqatni yolg‘ondan ajrata bildim”.

Yettinchi sifat: “Men har kimgaki va‘da bersam, unga vafo qildim. Hargiz va‘daga xilof ish qilmadim. Men doimo va‘dalarimni aniq bajarsam, shundagina odil bo‘lishimni va kimsaga jabr etkazmasligimni angladim”.

Sakkizinchi sifat: “Doimo o‘zimni Allohning erdagi mulkining posboni deb bildim va parvardigorning yoki uning noiblarining iznisiz uni sarf etmadim. Tangrining irodasiz unning bandalarining hech biriga zarar etkazmadim. Oliy martabadagilarga ham, fuqaroga ham birdek xayriya qilishga intildim. Men hech qachon birovning mulkiga ega bo‘lishga intilmadim va shuningdek hech qachon ko‘proq boylik orttirishga harakat qilmadim. Hech qachon birovga hasad bilan qaramadim. Bu borada Amir Husayn bilan bo‘lgan voqea menga ibratli bo‘ldi. O‘z fuqarolarning mol-mulkiga nisbatan ochko‘zligi pirovardida uni halo-katga olib keldi”.

To‘qqizinchi sifat: “Men har doim tangrimning amrini va uning payg‘ambarlarini hadislarini to‘la ado etishga intildim. Barcha qilmishlarimda shariat yo‘sunlariga butkul amal qildim va nopok ishlardan butun vujudim bilan o‘zimni tiydim. Payg‘ambar va uning sahobalarini o‘zimning yagona va eng yaxshi do‘stlarim deb bildim”.

O‘ninchi sifat: “Men har doim insof bayrog‘ini baland yahshiardim va iymon tarqatishni o‘z buyukligimning qudratli zamini deb bildim. Men inson bir onadan tug‘ilgan deb ishonganman. Shuning uchun mustahkam qudratga tayangan qudrat buyuk bo‘ladi”.

O‘n birinchi sifat: “Men doim saidlarga extirom bilan qarardim, ulamo va shayxlarni e‘zozlardim. Bu kishilarni doimo majlislarimga chaqirardim. Ularni din masalasi yuzasidan aytganlarini diqqat bilan tinglab olardim va unga amal qilardim. Shuning uchun menga nisbatan xalqning mehri baland edi va hamma mendan minnatdor edi”.

Shunday qilib, sohibqiron Amir Temurning ibratli, hayotiy pand-nasihatleri va purma‘no o‘gitlarining har bir mazmun va ma‘no kengligi, mantiqning kuchliligi, teranligi, ta‘siri, umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilganligi bilan alohida axamiyat kasb etadi, ularni hadsiz xazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz.

“Temur tuzuklari” asarida ma'naviyat masalalariga alohida etibor qaratilgan. “Temur tuzuklari” XIV-XV asrlar voqealari va hayotini yorituvchi qimmatli manba, Amir Temurning harbiy, siyosiy faoliyatidan ma'lumot beruvchi asar kim tomonidan qachon so'ralgani noma'lum. “Temur tuzuklari”da do'stlik, vafodorlik, imon va e'tiqod, kasb-hunar va boshqa insoniy fazilatlarga rioya qilish to'g'risida fikr yuritiladi, fuqarolarning shariat qonun-qoidalariga buysunish lozimligi aytib o'tiladi, qozilarning qonunlarga to'la amal qilish, tartibbuzarlarni ayamay jazolash, sipohlar va askarlarni saqlash va ularga oziq-ovqat, maosh to'lash qoidasi, vazirlar va ularning vazifalari, amirlar, sipohlar va ularni taqdirlash tartiblari, ularning bir-biriga muomalasi va turli boshqa masalalar bo'yicha mufassal ma'lumot beriladi. “Temur tuzuklari” eski o'zbek tilida yozilgan va boshqa tillarga tarjima qilingan bo'lib ikki qismdan iborat: [3]

Birinchi qismda Amir Temurning Movarounnaxrda saltanatni qo'lga kiritish uchun olib borgan urushlari va bu borada o'z yaqinlari bilan o'tkazgan kengashlari, amirlar bilan olib borgan muzokaralari haqida tavsilotlar berilgan.

Ikkinchi qismida Amir Temurning davlatni boshqarish mamlakatni idora qilish uslubi haqidagi tuzuklari, ya'ni yo'l-yo'riqlari qonun qoidalari, pand –nasixatlari o'rin olgan. Saltanatni boshqarishda Amir Temur islom dini va shariat talablariga, adolat, insof va haqiqatga tayanadi, turli tabaqa va toifaga mansub kishilarni teng ko'rib, qilgan xizmatlariga qarab ularni hurmat qiladi, mamlakatni boshqarishda eng avvalo olimu fuzalo, sayyidlar, shayxlar va oriflarga tayanardi.

“Kuch-adolatdadir” degan shiori Amir Temur ma'naviyatini belgilovchi bosh mezon, uning butun umr bo'yi amal qilgan shioridir. Bu shiorda Amir Temur hayoti va faoliyatining butun mazmunini mujassamlashgan. Amir Temurning ma'naviy-ma'rifiy qarashlarining o'z farzandlari, nabiralari, taxt vorislariga qoldirgan o'g'itlari “Temur tuzuklari”da mujassamlashgan. Bu bebaho tarixiy asarda, hokimlar va vazirlarning vazifalari, o'z ishiga munosabati, aholi turli qatlami, raiyatning haq-huquqlarini himoya qilish, sipohlarga munosabat kabi hayoti ma'naviy-axloqiy qonun-qoidalarda o'z ifodasini topgan. Sohibqironning “Temur tuzuklari” danquyidagi satrlarni mamnuniyat bilan

o‘qish mumkin: “Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to‘g‘ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin”. “Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim. Zolimlar yetkazgan ashyoviy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, ularni shariatga muvofiq odamlar o‘rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o‘rniga boshqasiga jabr-zulm o‘tkazmadim”. Amir Temur kechirimli bo‘lish inson uchun eng yaxshi fazilat sanaydi: “Menga yomonlik qilib, boshim uzra shamshir ko‘tarib, ishimga ko‘p ziyon yetkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o‘chirdim. Martabalarini oshirdim. Ular bilan muomalada shunday yo‘l tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubhayu-qo‘rquv bo‘lsa, unut bo‘lardi”. “Menga hasad qilib, o‘ldirishga qasd qilgan kishilarga shunchalik sovg‘a-in‘omlar berib, muruvvatu ehson ko‘rsatdimki, bu yaxshiliklarni ko‘rib, hijolat teriga g‘arq bo‘ldilar. Hamisha mening roziligimni olib ish tutgan do‘stlarim oldimga panohtilab kelganlarida, ularni o‘zimning taxtu davlatimga sherik qilib, hech qachon ulardan mol-mulk va tirikchilik ashyolarini ayamadim”. “Hech kimdan o‘ch olish payida bo‘lmadim. Tuzumni totib, menga yomonlik qilganlarni parvardigori olamga topshirdim.... Agar dushmanim bosh urib panohimga kelsa, rahm qilib yaxshilik va muruvvat ko‘rsatdim”, deb yzib qoldirgan. [6]

Amir Temurning do‘stlik haqidagi pandu-nasihatlar ham ibratlidir: “Sodiq va vafodor do‘st ulkim, o‘z do‘stidan ranjimaydi, do‘stning dushmanini o‘z dushmani deb biladi. Agar kerak bo‘lsa, do‘sti uchun jonini ham ayamaydi”. Amir Temurning umr bo‘yi obodonchilik, qurilish ishlariga katta ahamiyat berganligi, kambag‘alparvarligini uning quyidagi o‘gitlaridan ham bilish mumkin: “Kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz qursa, yoki biror bog‘ ko‘kartirsa, yohud biror harob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, uchinchi yili qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig‘sinlar”. “Katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona solsinlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsinlar, ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar...”. Amir Temurning quyidagi so‘zlari asrlar osha xalqimizning asl farzandlarini el-yurt, Vatan haqida qayg‘urishga chorlab keldi: “Millatning dardlariga darmon bo‘lmoq

vazifangizdir. Zaiflarni qo‘riqlang, yo‘qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo‘lsa”. Bu jumlar Amir Temurning ma'naviyati naqadar yuksak bo‘lganligini bildirib turibdi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A Karimov Amir Temur bobomizning xizmatini munosib baholab quyidagicha izohlagan edi:

Birinchidan, Amir Temur qadriyati mustamlakachilik yillarida o‘chirib tashlangan milliy tuyg‘ularimizni qayta tiklash, millatni millat, davlatni davlat qilish uchun kerak. Amir Temurning “Biz kim mulki Turon, Amiri Turkistonmiz. Biz kim millatlarning eng qadimiy, eng ulug‘i –turkning bosh bug‘inimiz” degan gaplari xalqimizga milliy o‘zligini, buyuk va jaxonshumul an'analarga voris ekanligini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, xalqimizning milliy g‘ururini milliy ongini yuksaltirish uchun qariyb unutilgan tariximizni qayta tiklash lozim. Amir Temur esa ana shu ko‘xna tarixning buyuk cho‘qqisidir.

Uchinchidan, Amir Temurning hurmatini joyiga qo‘yish farzandlarimizni kelgusi avlodni ulug‘ ajdodlarimizning nomi va me‘rosi bilan faxrlanishga o‘rgatish, ularni ana shu buyuk an'analarning munosib davomchilari qilib tarbiyalash milliy g‘ururni yuksaltirish uchun kerak.

To‘rtinchidan, Amir Temur qadriyati bizga demokratik huquqiy qudratli O‘zbekiston davlatini barpo etish uchun, “O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat” degan g‘oyani ro‘yobga chiqarish uchun kerak. Yangi asoslarini qayta tiklayotgan bir paytda Amir Temur o‘zbek xalqiga tog‘dek tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Beshinchidan, Amir Temur qadriyati mamlakatimizning jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallashi, kelgusi avlodlarga ozod va obod vatan qoldirish uchun kerak.

Uzoq yillar davomida mustamlaka iskanjasi ostida kun kechirgan xalqimiz Amir Temur kabi o‘z vatandoshini qadrlashdan maxrum edi. Ollohga shukurlar bo‘lsinkim, mustaqillik mana shu nurafshon kunlaridan yurtimiz uzra Amir Temurning ruxi bizdan rozi bo‘lib kezib yurgan bo‘lsa ne ajab.

Davlat ishlarida, xalqni boshqarishda, siyosatda adolat mezonlariga tayanganligi, saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilganligi: 1) kengash; 2) mashvaratu maslahat; 3) qat'iy qaror, tadbirkorlik, hushyorlik; 4) ehtiyotkorlik. Chunki kengash va mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari noto'g'ri bo'lgan johil odamga qiyos qilish mumkin; uning aytgan so'zlari va qilgan ishlari boshga pushaymonlik va nadomat keltirgay. Shunday ekan, saltanatni boshqarishda mashvaratu maslahat va tadbirkorlik bilan ish yuritgin, toki oqibatda nadomat chekib, pushaymon bo'lmagaysan. Shuni ham bilishing kerakkim, saltanat ishlarining bir qismi sabru toqat bilan bo'lgay, yana bir qismi esa bilib bilmaslikka, ko'rib ko'rmaslikka solish bilan bitur. Xullas, bajarilishi shart bo'lgan tadbirlarning ta'rifidan va zikridan so'ng shuni ta'kidlash lozimki qat'iylik, sabr, chidamlilik, sog'ligu sergaklik, ehtiyotkorlik va shijoat bilan barcha ishlar amalga oshirilur degan g'oyani ilgari surgan. [5]

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Amir Temurni ideal shaxs sifatida ta'lim-tarbiya jarayonida o'rganishning pedagogik-psixologik jihatlaridan kelib chiqib, ta'lim va ilmiy jarayonda keyinchalik foydalanish uchun konferensiya natijalari asosida maqolalar va ma'ruzalar to'plamini ishlab chiqib, ilmiy-nazariy va amaliy tahlil etib, Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida samarali qo'llay olish zarurligini alohida qayd etish maqsadga muvofiq.

Ta'lim-tarbiya jarayonida Amir Temurning tarixiy siymo sifatida, uning hayoti va ijodini mukammal darajada o'rganish orqali tarixiy va odilona haqiqatni royobga chiqarish maqsadga muvofiq. Butunjahon rivojlangan mamlakatlar qatori istiqboldagi ta'dqiqotlar uchun Amir Temurning bosib o'tgan tarixiy me'rosi, uning harbiy san'at rivojiga qo'shgan hissasi, buyuk sarkardaning kasbiy mahorati va iste'dodini nafaqat Respublikamiz miqiyosida, balki, butun jahon miqiyosida o'rganilishi uchun taashabbuskor g'oyalarini targ'ibot va tashviqot orqali amalga oshirish lozim.

Amir Temurning jang san'ati boyicha teatrlashgan kompozitsiyasini yoshlar o'rtasida ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviyat ma'rifat tadbirlarida sahna ko'rinishlarini namoyish qilish orqali yoshlarning ruhiyatiga Amir Temurni ideal shaxs sifatida ta'lim-tarbiya jarayonida o'rganilishining

pedagogik-psixologik jihatlarini samarali tahlil etib, amaliy hayotga tadbiq etish zarurligini alohida qayd etish maqsadga muvofiq.

Respublikamizning ilmiy-tadqiqot instutlari, ilmiy tadqiqot markazlarida va bevosita O‘R QK Akademiyasida Amir Temurning harbiy san’at taraqqiyotidagi roli boyicha mafkuraviy, ilmiy yo‘nalishlariga oid ilmiy dissertatsiyalar yozishni, mazkur muammolar boyicha ilmiy yo‘nalishlarni tarixiy manbaalardan kelib chiqqan holda aniqlab ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish lozim va bu dissertatsiya ishlari va undagi yangiliklari nazariy va amaliy ahamiyatlari butun jahon miqyosida dolzarb muammo ekanligi ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobi 2021 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Qurolli Kuchlar tashkil etiganligining 29 yilligi bayramidan so‘zlagan nutqi 2021 yil.
3. J.H.Ismoilova, L.G.Levteyeva larning “O‘zbekiston harbiy sa’nati tarixi” kitobi 2013 yil.
4. “Temur tuzuklari” (forschadan ko‘chirma). T., 1991 y.
5. Amir Temur o‘g‘itlari. T., Cho‘lpon, 1992 y.
6. Muminov I.M. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. T., Fan, 1993 y.
7. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san'at (maqolalar). T.,1996 y.
8. Axmedov B. Buyuk Temur. T., 1996 y.

TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MANBALARIDAN “TEMURNOMA” ASARI HAQIDA

*R.E.Xoliqova,
ToshDTU «O‘zbekiston tarixi» kafedrasini mudiri,
t.f.d., professor*

Tarixdan ma’lumki Amir Temur nafaqat davlat arbobi, buyuk sarkarda, shuningdek, jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan shaxsdir. Mana oradan qancha yillar o‘tsa ham ulug‘ Amir Temur shaxsi, uning faoliyati davlat arbobi va sarkardalik maqomi, harbiy yurishlari haqidagi manbalar o‘z qadrini yo‘qotmagan.

Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid ko‘plab tarixiy asarlar yozilgan bo‘lib ularga Temur tuzuklari, Nizomiddin Shomiy va Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnomalari, G‘iyosiddin Alining “Ro‘znomai g‘azovoti Hindiston”, Ibn Arabshohning “Ajoyib ul-muqdur fi axbori Temur” (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari), Mulla Salohiddin ibn Alouddinxo‘ja eshon (Salohiddin Toshkandiyning)ning “Temurnoma” va boshqa ko‘plab asarlarni misol keltirish mumkin.

Maqolamizda shunday asarlardan biri haqida so‘z yuritmoqchimiz. «Temurnoma» (Temur haqida asar) uning boshqacha nomi rus olimi V.A.Jukovskiy va barchaga tanish Ahmad Validov (Axmad Zaki Validi To‘g‘on) tomonidan nomlangan «Kunuz al-a’zam» (Ulkan xazina) bo‘lib, uning muallifi Abdurahmon Sirotidir. Bu muallif Mirzo Rumuz nomi bilan ham tarixda mashhur bo‘lgan. Ushbu asar 1712-1714 yillarda ashtarxoniyalar hukmdorlaridan Abdul Fayzxon hukmronligi davrida tuzilgan. Jahondagi nodir kitoblar saqlanadigan xazinalarda, shuningdek, Dushanbe, Toshkent, Sankt-Peterburg shaharlarida ushbu asarning 20 dan ortiq ro‘yxati mavjud.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ro‘yxatning oltitasi Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburgdagi filialining fondlarida [1, 279-294-b], 17 tasi O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi huzuridagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida [2, 181-185-b], bittasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy universitet kutubxonasi fondida [3] va nihoyat 3 ta ro‘yxat Dushanbe shahridagi Abdulg‘ani Mirzayev fondida [4] saqlanmoqda. Tarixchi olim, professor Shodmon Vohidovning shaxsiy kutubxonasida, 1720 yilda Samarqand shahrida ko‘chirilgan shu ro‘yxatning ko‘chirmasi mavjud.

Shuni ta’kidlash lozimki, bu muhim manba to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yuqorida ko‘rsatilgan fondlarning kataloglaridagina uchratishimiz mumkin.

Asar O‘rta Osiyodagi Temur va temuriylar davri, undan so‘nggi hukmdorlar davri (ushbu ish amir Shoh Murod davrida qayta ishlangan) haqida ko‘pgina ma’lumotlarga boy bo‘lishiga qaramay, tariximizning o‘rganilmagan sahifalarini to‘ldirishga qaramay ushbu ish shu kunga qadar alohida tadqiqot ob’ekti yoki ilmiy izlanishlar manbaiga aylantirilmagan.

Asarning kirish qismida muallif Abdurahmon Sirat o‘zi haqida to‘xtalmaydi, lekin asarning ichida o‘zi haqida to‘xtalib, nomini ta’kidlab o‘tadi. (qarang Rossiya FA SHI SPB fondi №378, muallifning nomi Tug‘liq Temurning ikkinchi marta kelishi va Sirdaryo qirg‘og‘idagi vafoti berilgan bo‘limda. Moskvani egallagandan so‘nggi bo‘limda, 108v, Temurning harbiy va boshqa harakatlari to‘g‘risidagi hikoyalarda 291 v va Hakim Nizari bo‘limida 298 v). Muallifning eslatishicha u Buxorodan ashtarxoniyalar xoni Abdul Fayzxonning zamondoshi bo‘lgan, Buxoroda istiqomat qilgan va bu asarni shu erda yozgan (5^a, 234^a, 291^v varaqlar).

Muallifning fikricha asar ikki jilddan iborat bo‘lgan. N.D.Mikluxo-Maklay Rossiya FA SHISPB dagi fondagi asar ro‘yxatini o‘rganganda 1 jildni tiklashga muvaffaq bo‘ldi. Muallif tomonidan asarning birinchi jildi 1714 yilda yakunlangan deyilsada, «Kunuz al-a’zam»da berilgan xronologiyada bu sana 1125/1713 yil deb ko‘rsatilgan. Abdurahmon Sirot asarining ikkinchi jildi afsuski topilgani yo‘q. Bu asarga qo‘shimcha tarzda berilgan, aniqrog‘i tuzilgan manba 1207/1713 yil [5, 283-b] XVIII asr oxirlarida Shoh Murod (1800 yil vafot etgan) hukmronligi davrigacha bo‘lgan ma’lumotlar bahsli tarzda berilgan.

Asarning bizgacha etib kelgan birinchi jildi O‘rta Osiyo tarixining so‘nggi o‘rta asrlar davriga bag‘ishlangan.

«Fixrist»ning mazmuniga qaraganda asar Temur hayotidagi muhim voqealardan tortib, tavalludi va vafoti, soʻngra Temur vorislarining tarixi, Bobur va boburiylar hukmronligi davri tarixini oʻz ichiga qamrab olgan. Qayd etilgan roʻyxatda boburiylar sulolasidagi hukmdorlardan biri Muiz ad-din Jaxondor nomi ham tilga olingan (u 1712 yil 12 aprelda taxtga oʻtirgan, lekin shu oyning 16 chi sanasida taxtdan tushirilgan. Lekin bizning muallifimiz bu haqda bilmagan). Muallifning yozishicha birinchi jild Amir Temur tugʻilishidan to shayboniylardan Abdullaxon II (hukmronlikni boshlagan 968/1560 yy. , xon deb eʼlon qilingan 991/1583 yy va podsholik qilgan yillari 1006 /1598 yilga qadar) hukmronlik qilgan yillariga qadar va ikkinchi jild yuqorida koʻrsatilgan shayboniylarning siyosiy hukmronligidan tortib to Abdul Fayzxongacha boʻlgan davrni oʻz ichiga qamrab oladi.

Muallif nomidan ushbu asarning (D67, SPb) baʼzi bir qismlarida quyidagicha maʼlumotlar beriladi: «Hamma joyda va hamisha biror kitob haqida eshitsam yoki koʻrsam oʻsha kitoblarga etishmaguncha ming xil usullarni qoʻllaganman. Shu tariqa 92 ta salmoqli tarixiy asarlarni yigʻishga muvaffaq boʻldim. Har bitta topgan kitobimdan albatta hikoyat (doston) va har bir qoʻlyozmadan maʼnoli joyini olardim, ulardagi maʼnoni anglagach undagi soʻzning somonini tashlab yuborardim, man yaratgan asar, undagi har bir hikoyat oldingilarini takrorlamasligini va boshqalar uchun yangi boʻlishini xohlardim» [6, 290-b].

Muallifning yuqorida aytgan soʻzlaridan ham bizga ayonki, asar juda koʻp yigʻilgan yozma manbalarni oʻrganish asosida yaratilgan.

Shunga qaramay Sirot asarni yozishda foydalangan manbalar roʻyxatini hamisha ham kiritavermagan. Muallif manbalarni oʻrganar ekan ulardan toʻgʻridan-toʻgʻri koʻchirmagan yoki soʻzma-soʻz keltirmagan, balki har bir muallifning hikoyatini bir-biri bilan taqqoslagan va bu ulardagi gʻoya va mazmunni taqqoslash yakuni sifatida oʻz gʻoyalarini asarida berishga harakat qilgan.

Ushbu asar, muallif taʼkidlaganidek, juda koʻplab asarlarni oʻrganish natijasida yuzaga kelgan: Hofizi Abroʻning «Tarixi Shohruhi», Rozi Qozi Safavining «Nizom ut-tavorix», Amir Kabir shayxning «Tarixi Farruxshohi», «Tarixi jahongir, Mir Alisher Navoiyning «Majlis an

nafois», Mavlono Sharofiddin ali Yazdiyning «Zafarnoma», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla' as-saa'dayn», Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirayi Davlat shohi», Xovanshohning «Ravzat us-safo», Xondamirning «Xabib us-siyar», Abdulla Xotifiyning «Tarixi Temur», Hofiz Tanish Buxoriyning «Sharafnomayi Abdullaxon», Ahmadning «Risolai Mullazoda», «Muin al fuqaro» va boshqa asarlar shular jumlasiga kiradi. Bu asarlarni o'rgangan tadqiqotchilarning fikricha muallif bu asarni yozishda folklor xarakteriga ega bo'lgan (Temurning undan ancha oldin yashab o'tgan Nosir Hisrav bilan munosabatlari va janglari tavfsilotlari yoritilgan afsonalar ham shular jumlasiga kiradi) katta boy material qo'llanilgan. Asarda Temurning Dashti Qipchoq va Rusga yurishlari, Temurning Moskvaga qilgan yurishlari (260v va boshqa varaqlar), Temurning arab mamlakatlari va kichik Osiyoga yurishlari va uning Usmoniylar sultoni Yildirim Boyazid bilan olib borgan janglari, Istanbulning egallanishi va boshqa voqealar bayoni ham berilgan. Abdurahmon Siratning «Temurnoma» (Kunuz al-a'zam) asarining «davomi» ham bor. U bittagina nusxada (D 67, SPb) ko'rsatib o'tilgan bo'lib, o'zining tuzilishi jihatidan asarning davomi, bir butuni sifatida tassurot qoldiradi. Asarning davomi xronologik tartibdan kelib chiqib taniqli temuriylar Xalil Sultondan (807-812/ 1404-1409) boshlab to boburiy Xumoyun (937-963/ 1530/1556) [7, 462-476-b] ga qadar bo'lgan hukmdorlar haqidagi qisqa-qisqa hikoyalardan iborat.

Bu asarni ko'chirgan kotiblarning nomlari ham aniqlangan. Bular Ibodullabek ibn Mo'min miroxur (1815) Muhammad ibn Nazir Muhammad (1856 Samarqand), Mulla Abdumutalibxo'ja ibn eshon, Tursunxo'ja Pirmasti (1865 Buxoro), Nurmuhammad ibn Abdulloh ibn Muhammad Yusuf (1869-1870), Mulla Muhammad Rajab (1885-1886).

Ushbu asar nafaqatgina adabiy asar, esdalik, boy folklor materialni o'zida mujassamlashtirgan manba sifatida, balki istoriografiya sohasida qilingan asar sifatida baholanishi lozim (Xulosa N.D.Mikluxo Maklayniki) [8, 1275-b].

Tarixchilar Temur va temuriylar hukmronligi davri tarixini o'rganar ekanlar boshqa manbalar qatorida ushbu asardagi ma'lumotlarga e'tiborlarini qaratishlarini, bu asar yaratilgan muhiti va uning ahamiyati

haqida baho bergan mahalliy tarixchilarning istoriografik va istoriosofik fikrlari bilan qiziqishlari lozim.

Asarning Temur va temuriylar davri hukmronligi va undagi soʻnggi davrlardagi madaniy va ilmiy hayotiga baho berishda oʻrni beqiyosdir.

Bilishimiz kerakki, ushbu asar boshqa nomlar bilan ham eslatiladi: «Dostoni Amir Temur», «Tarixi Sohibqiron Amir Temur Kuragon», «Ishtiyoqnoma», «Temurnomai Sohibqiron», «Tarixi Amir Temur Koʻragon» va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Opisanije etix spisikov sm.: Mikluxo-Maklay N. D. Opisanije persidskix i tadjikskix rukopisey instituta vostokovedeniY. Vip.3. –M.: Nauka, 197. S. 279-294.

2. Ix opisanije sm.: Sobraniye vostochnix rukopisey AN Respubliki Uzbekistan. IstoriY. –T.:Fan, 1998. S. 181-185.

3. Kal YE.F. Persidskiye, arabkiye i tyurkskiye rukopisi Turkestanskoy publicnoy biblioteki. –T.: 1989; Semenov A.A. Katalog persidskix, arabkix i tyurkskix rukopisey SAGU. I-II. №58.

4. Katalog vostochnix rukopisey akademii nauk Tadjikskoy SSR. T. I. / Pod red. I pri uchastii prof. A. Mirzayeva i prof. A.N Boldireva. Stalinabad, 1960. № 51-53.

5. Mikluxo-Maklay N.D. Opisanije persidskix i tadjikskix rukopisey instituta vostokovedeniY. Vip.3.S. 283.

6. Tam je. S. 290.

7. Sirot Abd ar-roxman. Kunuz al-azam (temurnoma). // Rukopi, SPb O IV AN Rossii, № D67 (566ab). L. 462 a-476 b.

8. Drugiye kodikologicheskiye dannije spisikov proizvedeniya Abd ar-Roxmana Sirat sm.: Mikluxo-Maklay N.D. Opisanije persidskix i tadjikskix rukopisey instituta vostokavedeniY. Vip.3. S. 279-294; Sobraniye vostochnix rukopisey AN Respubliki Uzbekistan. IstoriY. – T.:Fan, 1998. S. 181-185.; Storich CH.A. Persidskaya literatura. Bio-bibliograficheskiy obzor. V trex chastyax / Perevod s angliyskogo, pererabotal dopolnil Bregel Y.E. CH. Chast III. –M.: Nauka,1972. S. 1275.

TEMUR TUZUKLARI – YURTIMIZDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAGRIKENGLIKNING TARIXIY ASOSI

*X.D.Xaknazarov,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavsizligi
universiteti Maxsus fakultet boshlig‘i, t.f.d., dotsent*

O‘zbekiston hududida qadimdan ko‘plab millat va elat vakillari hamjihat istiqomat qilib kelgan. Ular orasida asrlar davomida milliy nizolar bo‘lmagani xalqimizning azaliy bagrikengligidan dalolatdir. Millatlararo munosabotlarda uygunlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko‘pmillatlik jamiyatining siyosiy- iqtisodiy rivojlanishida samarali ta’sir etishi ayni haqiqatdir. Millatlararo totuvlik g‘oyasi umumbashariy qadriyat bo‘lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyoti, shu joydagi tinchlik xamda barqarorlikning kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Buni Uzbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘li davomida turli soxalarda erishayotgan yuksak marralari misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Binobarin, Prezidentimiz takidlaganidek, “xalkimiz tinchlik va faravonlik, xamkorlik va xamjixatlik g‘oyalarni oliy maqsad qilib yashamokda”.

“Turku – tojik, arabu ajamning turli toifa va qabilalaridan bo‘lgan va xizmatimga kirgan kishilarning ulug‘lariga izzat – hurmat ko‘rsatdim, qolganlarini ham o‘z holiga yarasha siyladim. Yaxshilarga yaxshilik qildim. Yomonlarni esa o‘z yomonliklariga topshirdim.” o‘ninchi tuzuk “Temur tuzuklari”dan. [2]

Konstitusiyamizning 4-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf–odatlari va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”, deya ta‘kidlagan. Mazkur moddaga ko‘ra, yurtimizda yashovchi barcha millat va elatlarning urf–odatlari va an‘analari hurmat qilinishi alohida e‘tiborga olingan. O‘z navbatida, yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohatlar zamirida xalqimiz turmush darajasini yanada yuksaltirishda ezgu ishlarning amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi. [1]

Hozirgi kunda yurtimizda turli dinga e'tiqod qiluvchi din vakillarning ma'naviy dunyosi, e'tiqod erkinligi va uni ta'minlash uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Hozirgi kunda mamlakatimizda turli e'tiqodga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro hurmat o'rnatilishi uchun barcha sharoitlar mavjud. O'z navbatida respublikamizda ijtimoiy siyosiy barqarorlikni ta'minlashda avvalo millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik to'liq ta'minlangan va qonuniy kafolatlangan. Mazkur holat, ko'p millatli, ko'p konfessiyali bo'lgan mamlakatda o'ziga xos yondashuvni taqoza etadi. Ayniqsa, millatlararo munosabatlar va diniy bag'rikenglikni ta'minlash borasida O'zbekiston o'ziga xos boy tajriba orttirganligini ta'kidlash o'rinlidir.

Shu o'rinda "Temur tuzuklari"dan quyidagi buyuk sarkarda bobokolonimiz Amir Temurning quyidagi "Turli mamlakatlarda aholisiga munosabat, ularning ahvolidan xabardor bo'lish, avliyolar va din peshvolarining mozorlarini tuzatish, vaqf hamda nazr ishlarini tartibga keltirish tuzuklari"ni keltirib o'tishni joiz topdik: "Amr etdimki, fath etilgan har bir mamlakatdagi sipohiyalar (o'z ixtiyorlari bilan) panohimga kelsalar, ularni navkar qilib, (askarlarim safidan) joy bersinlar. U diyorning raiyatini yomon hodisalardan, qatl va asiru band etilishdan, talanishdan muhofaza qilsinlar. Ularning mol-mulkini, buyumlarini talon-torojdan saqlasinlar. O'sha mamlakatdan tushgan o'lja mollar egalariga qaytarib berilishini tekshirsinlar.

Sayyidlar, ulamo, mashoyix, fuzalo, akobir va ulug'larni aziz tutsinlar. Beklar, oqsoqollar, dehqonlar va ekin maydonlariga ishlov beruvchilar ko'nglini xushnud etib, o'zlariga qaratsinlar. Raiyatni umid va qo'rqinch orasida tutsinlar. Gunohlari va qilmishlariga yarasha jazolasinlar. Menga bo'ysungan mamlakatlarning sayyidlari, olimlari, shayxlari, fozil kishilari, darvishlari, zohidlarini suyurg'ol, vazifa va oylik bilan siylasinlar. Faqiru miskin, nogironlarga nafaqa tayin qilsinlar. Mudarrislar va shayxlarga kundalik maoshlar belgilasinlar.

Avliyolar, din peshvolarining mozorlari va maqbaralariga vaqfdan mablag' ajratsinlar. U yerlarni paloye, taom va chiroq bilan ta'minlasinlar. Birinchi navbatda amir al-mo'minin, mard kishilar shohi Ali ibn Abu Tolibning, unta Allohning karami va ehsoni bo'lsin, muqaddas qabrlarini

yaxshi saqlash uchun Najaf bilan Hillani vaqf etib bersinlar. Imom Husaynning, Alloh undan rozi bo'lsin, nurga cho'mgan muqaddas mozori, avliyolar ulug'i shayx Abdulqodir Jiloniyning muqaddas qabri, imomi a'zam Abu Hanifaning, unga Allohning rahmati bo'lsin, maqbarasini, Bag'dodda nurga cho'mgan boshqa mashoyixlar, din peshvolari, ulug'larning mozorlarini yaxshi saqlash uchun baholi qudrat Karbalo, Bag'dod hamda ularning atrofidagi qishloklar va boshqa joylardan vaqf sifatida yer-suv ajratsinlar. Imom Muso Kozim, imom Muhammad Naqiy, Salmon Forsiylarning nurli ravzalari uchun esa Jazoir ekin maydonlaridan va Madoin daromadidan vaqf belgilasinlar. Imom Ali ibn Musoning tabarruk ravzalari uchun Kutahbast va Tus shahri atrofidagi yerlardan vaqf ajratsinlar va palos, chiroq hamda kundalik yemish-ichmishlar belgilasinlar. Shuningdek, Eron va Turondagi shayxlarning mozorlari va qabrlari uchun har biriga alohida, nomma-nom nazru vaqflar ajratsinlar.

Yana buyurdimki, har bir mamlakat fath etilgach, u yerning gadolarini to'plab, kundalik yemish-ichmishlar bilan ta'minlab, ularga biron ish bersinlar. Hamda barchasi tamg'alansinlar, toki boshqa gadolik qilmasinlar. Agar tamg'adan keyin ham gadolik qilgudek bo'lsalar, ularni uzoq mamlakatlarga sotib yuborsinlar yoki haydasinlar. Shundagina gado zoti mamlakatimdan yo'qoladi." [2]

Insoniyat uchun eng katta boylik — tinchlik, uning manbai esa hamjihatlikdir. O'zaro totuvlik hamda do'stlik, bag'rikenglik va insonparvarlik tamoyillari barqaror mamlakatda inson emin-erkin yashaydi, ko'zlagan orzusiga erishadi. Shu jihatdan qaraganda, bizning eng asosiy yutug'imiz, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, avvalo, Vatanimiz osmonining musaffoligi, jamiyatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolararo ahillik hamda hamjihatlik, do'stlik va birdamlik muhitidir. Bu ne'matlarning qadriga yetish hamda turli millat va elatlar vakillari bir oila farzandlaridek ahil-inoq yashayotgan O'zbekistonimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash barchamizning muqaddas burchimizdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 7 mart kunidagi Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etilgan bo'lib, u har bir shaxsning vijdon va diniy e'tiqod erkinligi huquqi, fuqarolarning dinga

bo'lgan munosabatidan qat'i nazar tengligini ta'minlash, shuningdek, diniy tashkilotlar faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vazifalarni hal etish vakolati berilgan davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

Muborak Ramazon va Qurbon hayitlarining ma'naviy hayotimizdagi o'рни, mohiyati va ahamiyatini, xalqimizga mansub mehr-oqibat, shukronalik va bag'rikenglik ramzi ekanini e'tiborga olib, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrash va ulug'lash maqsadida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "Diniy bayram – Ro'za va Qurbon hayitlarini dam olish kuni deb e'lon qilish haqida"gi Farmonlari e'lon qilindi. Mazkur Farmonga muvofiq bu ikki hayitning birinchi kuni yurtimizda "dam olish kuni" deb e'lon qilinishi ham musulmonlarning manfaatini ko'zlaydi. O'zbekiston - ko'p millatli mamlakat. Bugun uning hududida 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab Birinchi Prezidentimiz rahbarligida millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikka, O'zbekiston hududida yashayotgan barcha xalqlar o'rtasidagi do'stlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan milliy siyosat ishlab chiqildi.

O'zga din vakillarining tili, o'ziga xos madaniyatini rivojlantirish, an'ana va udumlarini saqlashga qaratilgan barcha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, qonunchilik sohasida ham o'zining salohiyati va mehnati bilan yuqori mavqega erishgan turli millatga mansub kishilar faoliyat ko'rsatishadi. Milliy madaniyat, donishmandlikning cheksiz chashmalari, insoniyatning umumiy madaniyatini to'ldirib boradigan yangi qadriyatlar, tabiiy muhitga moslashishning asrlar osha charxlanib kelgan ijtimoiy tajribasi, estetik rang-baranglik jamiyatimizda mavjud bo'lgan bag'rikenglikning negizida turadi. Zero, bag'rikenglik tinchlikni saqlashning, insonlarni har tomonlama rivojlanishining eng muhim tamoyili bo'libgina qolmay, balki uning zarur sharti hamdir. 1995 yilda Toshkent shahrida "Bir samo ostida" nomli xristian-musulmon konferensiyasi tashkil etilib, unda Butunjahon Cherkovlar Kengashi vakillari hamda qator chet el xristian tashkilotlari a'zolari ishtirok etdilar.

2000 yil 13 – 15 sentabrda Toshkentda o'tgan dinlararo muloqot YUNESKO Kongressi Markaziy Osiyodagi madaniy, diniy va etnik xilma-

xilligini muhokama qildi. Unda 40 ga yaqin davlatdan 80 dan ortiq turli din konfessiyalarga mansub vakillar, yirik mutaxassislar va din peshvolari ishtirok etdilar. Kongressdan so‘ng, 18 sentabr kuni Buxoro shahrida “Tasavvuf va dinlararo muloqot” mavzusida xalqaro simpozium bo‘lib o‘tdi. Unda “tasavvuf”ga bag‘rikenglikni targ‘ib etuvchi, tinchlikka chaqiruvchi islom dinining noyob, o‘ziga xos ko‘rinishi degan ta’rif berildi. Aynan 2000 yil sentabrida Toshkent islom universitetida (hozirda O‘zbekiston islom akademiyasi) dinlarni qiyosiy o‘rganish bo‘yicha YUNESKO kafedrasi ochildi. Shuningdek, 2001 yil sentabrida Toshkentda o‘tgan Osiyo - Tinch okeani mintaqasi YUNESKO “bag‘rikenglik tarmog‘i”ning ikkinchi yig‘ilishida bag‘rikenglik tamoyillari o‘zbek xalqining urf - odatlari bilan chambarchas bog‘liqligi ta’kidlandi.

O‘zbekistonning an’anaviy bag‘rikenglik o‘lkasi ekani, islom dini va madaniyatiga qo‘shgan ulkan hissasini e’tirof etib, nufuzli xalqaro tashkilot – Islom konferensiyasi tashkiloti (O‘zbekiston unga 1996 yildan a’zo)ning ta’lim, fan va madaniyat bo‘yicha Boshqarmasi (ISESCO) Toshkent shahrini 2007 yilda islom madaniyati poytaxti deb e’lon qilishi mazkur sohada olib boirayotgan ishlarning yorqin ifodasidir.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida jami taxminan 2238 ta diniy tashkilotlar mavjud. Mazkur diniy tashkilotlar orasida diniy ta’lim muassasalari ham o‘rin olgan. Bundan tashqari 1999 yilda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan ta’sis etilgan Toshkent islom universiteti (hozirda O‘zbekiston islom akademiyasi)davlat tasarrufidagi oliy ta’lim muassasasi bo‘lib, undagi ta’lim olayotgan talabalar ham diniy ham dunyoviy bilimlarni uyg‘unlikda olmoqdalar. Shuningdek, masjid imom-xatiblarning maxsus o‘quvlarini tashkil etish hamda buyuk ajdodlarimizning merosini puxta va chuqur o‘rganish maqsadida, 2008 yilda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov rahbarligida Samarqand viloyatida Imom Buxoriy xalqaro markazi ta’sis etildi. Ta’kidlash joizki, mazkur o‘quvlar doimiy ravishda amalga oshiriladigan, imom-xatiblarning mutaxassislik mahoratlarini, dunyoda ro‘y berayotgan voqe’lik hamda turli jarayonlardan boxabar bo‘lib borishlari uchun qulay zamini yaratadi. Ushbu nufuzli dargohda imom-xatibga dars berayotgan professor-o‘qituvchilar

respublikada turli sohalarda yetakchilik qilayotgan olimlar, din va davlat arboblari hisoblanadi.

Davlat tomonidan islom diniga mansub fuqarolarning haj va umra safarlarini tashkil etish ishlariga g'amxo'rlik ko'rsatib kelinmoqda. Xususan, 2006 yil avgust oyida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning Farmoniga muvofiq "Haj va umra tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha Jamoatchilik kengashi" tuzildi.

Har yili muqaddas haj va umra safariga borayotgan ziyoratchilarimizga safar bilan bog'liq viza hujjatlari, aviachiptalarni rasmiylashtirish, Saudiya Arabistonida joylardagi sharoitlar, mehmonxona va boshqa masalalarda mutasaddi tashkilotlar bilan uyushqoqlikda ishlarni amalga oshiradi.

Bulardan tashqari yurtimizdan noislomiy tashkilotlar tomonidan ham xristian va yahudiylar uchun muqaddas qadamjolarga ziyoratlar tashkil etiladi. Har yili Toshkent va O'zbekiston yeparxiyasi tomonidan Isroilning Quddus shahriga, shuningdek, Rossiya va Gretsiya davlatlariga ziyoratlar tashkil etish yaxshi an'anaga aylandi.

Mustaqillik yillarida yuzlab cherkov, sinagoga va ibodat uylari, xususan, Toshkent, Samarqand, Navoiydagi pravoslav ibodatxonalari, Toshkent shahridagi katolik kostyoli, Samarqanddagi Arman-apostol cherkovi, Toshkentdagi Buddha ibodatxonasi qayta barpo etildi, ta'mirlandi. Shuningdek, Hazrati Imom, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Hakim va Imom at-Termiziylar, Imom Moturidiy, Shohi Zinda, Qosim Shayx, Zangi ota kabi o'nlab qadimiy yodgorlik majmualari obod qilindi va yangilari qurildi.

Yurtimizda Qur'oni karim, hadislar to'plamlari, Bibliya tarkibidagi Yangi ahd va Qadimiy ahdning ba'zi qismlari o'zbek tilida chop etildi. O'zbekiston ko'zi ojizlari uchun maxsus Brayl yozuvida Qur'onni nashr qilishga muayassar bo'lgan dunyo bo'yicha uchinchi mamlakat hisoblanishi mazkur sohada olib borilayotgan izchil ishlarning namunasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevralidagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi

Farmonida beshinchi yo‘nalish sifatida *“Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chukur o‘ylangan, o‘zaro manfaatlari va amaliy ruxdagi tashqi siyosat yuritish”* ga aloxida etibor qaratilgan. Bunda respublikaning konstitusiyaviy tuzumini, suverenitetini, xududiy yaxlitligini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni ruyobga chikarish, kibexavfsizlik sohasida axborot, normativ-xuquqiy asoslar tizimini takomillashtirish, aholini favqulodda vaziyatlardan xabrdor qilish tizimini tashkil etish va rivojlantirish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, shuningdek Millatlararo munosabatlar sohasidagi siyosatning ustivor yo‘nalishlari konsepsiyasini hamda Diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini ishlab chikish nazarda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Temur Tuzuklari. Xalqaro Amir Temur jamg‘armasi. “Sharq” NMAK. T.: 2005 yil. B-92.
2. Marsel Brion. Men kim, Sohibqiron-Jahongir Temur – T., “Yangi asr avlodi”. 2014. – B. 21-22.
3. Bobir Berdiyev. “Temur tuzuklari”da jamiyat ijtimoiy qatlamlarining aks etishi. Ijtimoiy fikr-inson huquqlari. 2013 yil № 3. B-115.
4. Hamdam Sodiqov. Amir Temur salnatanida xavfsizlik xizmati. T.: “ARTFLEX”. -2010yil. B-9.
5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: “O‘zbekiston” 2012.
6. Sog‘uniy A. Temur tuzuklari. – T.: Yangiyul Poligraph Service, 2018y. – 160 b.

AMIR TEMURNING DAVLAT BOSHQARUVIDA KADRLAR SIYOSATI

*D. G'.Raximov,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi tayanch doktoranti*

Yangi O'zbekistonda davlat boshqaruvini isloh qilish, shu jumladan, davlat xizmati tizimini munosib kadrlar bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev mazkur masalaga o'zining Prezidentlikka nomzod sifatidagi saylovoldi dasturidayoq e'tibor qaratgan edi. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining 2016-yil 19-oktabrda bo'lib o'tgan VIII sezdidagi ma'ruzasida Shavkat Mirziyoev davlat xizmatini tubdan isloh qilish va bu bo'yicha qonun qabul qilish vaqti kelganligini ta'kidlagan edi [1].

Natijada, 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi"ning ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida davlat xizmati tizimini takomillashtirish masalasi belgilangandi [2].

Shuningdek, 2017-yil 8-sentabrdagi 5185-sonli Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi"ning 6-ustuvor yo'nalishi professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish etib belgilandi. Unda davlat xizmatchilarining klassifikatsiyasi, huquqiy maqomi, davlat xizmatiga tanlov asosida qabul qilish, davlat xizmatchilari zaxirasini shakllantirish, davlat xizmatini o'tash kabi masalalarga to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari, konsepsiyada davlat xizmati tizimida kadrlar siyosatini amalga oshirish uchun mas'ul davlat organini tashkil etish vazifalari nazarda tutilgan edi [3].

Ta'kidlash joizki, davlat boshqaruvining qanchalik samarali bo'lishi tizimda faoliyat yurituvchi kadrlar salohiyatiga shunchalik bog'liq. Shu bois davlat xizmatini munosib kadrlar bilan ta'minlash bugungi kun davlat boshqaruvining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Davlat xizmatini eng munosib kadrlar bilan ta'minlash esa bevosita meritokratiya

tamoyilining elementlarini joriy etishni talab etadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida davlat xizmatiga kadrlarni qabul qilishda ularning ning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholaydigan ochiq tanlov tizimi joriy etish korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali vositalaridan biri sifatida alohida ta’kidlagan [4].

Bugungi kunda O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmati samaradorligini oshirish, xususan uni yuqori malakali, yetuk kadrlar bilan ta’minlash masalasi mutlaqo yangi bosqichga kirdi. Jumladan, 2019-yil 3-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosatini va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5843-sonli Prezident Farmoni bilan davlat fuqarolik xizmati tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari belgilandi. Shuningdek, davlat xizmati sohasi bo‘yicha vakolatli organ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etildi. Agentlik davlat xizmatiga oid tashkilotlarda yagona davlat siyosatini amalga oshirish uchun mas’ul etib belgilandi [5].

Ta’kidlash joizki, davlat xizmati tizimida davlat kadrlar siyosatining masalasini ilmiy tadqiq etish, uning milliy-tarixiy xususiyatlarini va uni amaliyotda samarali qo‘llash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatining eng muhim masalalaridan hisoblanadi.

Bu borada Amir Temur davlatida mazkur masala qay tarzda yo‘lga qo‘yilganligi o‘rganish va uning ayrim jihatlarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha takliflar tayyorlash bugungi kun davlat xizmatining eng muhim jihatlaridan hisoblanadi.

Amir Temur davrida boshqaruv ikki idora: dargoh va devonlarga (vazirliklarga) bo‘lingan. Dargoh – eng oliy davlat idorasi hisoblanib, uning boshlig‘i oliy hukmdor, ya’ni Amir Temurning o‘zi bo‘lgan. Dargoh faoliyatini boshqarish, uning vazirliklar, mahalliy hokimiyat idoralarini saltanat faoliyati bilan bog‘lab turish ishlarini oliy devon – “Devoni buzruk” olib borgan. Unga devonbegi boshchilik qilgan.

Tarixchi Azamat Ziyozoda Amir Temur davlatidagi vazirliklar borasida fikr yuritadi. Davlatda to‘rtta asosiy vazirliklar bo‘lib, ular

raiyyat, harbiy, moliya, mulkchilik (soliq) vazirliklaridan iborat edi. Mazkur to‘rt vazirlikdan tashqari yana uch vazir bo‘lib, ular saltanat tarkibidagi turli o‘lka va mamlakatlarga oid moliyaviy muomalalar va keladigan daromadlarni boshqarganlar. Bundan tashqari, mamlakatda adliya vazirligi (devoni mazolim) ham faoliyat yuritgan [6].

Temurshunos olim, akademik Bo‘riboy Ahmedov davlatda tashqi ishlar vazirligi, adliya vazirligi va davlat nazoratchisi vazirligi kabi vazirliklar faoliyat yuritganligini ta’kidlagan. Dargohdagi muhim lavozimlardan biri arzbegi hisoblangan. Unga dargohga arz-dod, shikoyat bilan kelganlar hamda mamlakatdagi o‘z munosabatini bildiruvchilarni qabul qilishni uyushtirish, tushgan arzlar, shikoyat va takliflarni oliy hukmdorga yetkazib turish vazifasi yuklatilgan. Shuningdek, davlat muassasalarida tavochi (lashkar to‘plovchi), bosh hojib, rasmiy tadbirlar boshqaruvchisi, xazinador, xonsolar, qushchi, qushbegi, kotiblar, sozandalar, g‘azalxonlar, tabiblar, farroshlar kabi bir qancha lavozimlar bo‘lgan [7].

Buyuk davlat arbobi Amir Temurning “Temur tuzuklari” davlat boshqaruvi va davlat xizmati to‘g‘risidagi fan va amliyotning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Unda, ayniqsa, davlat xizmati sohasida faoliyat yurituvchi kadrlar uchun ta’kidlangan sifatlarning ayrimlari bugungi kunda ham dolzarbdir.

Amir Temur “Kuch – adolatdadir” degan shiorga rioya qilgan holda mamlakatni idora qilgan. Sohibqiron mazkur shiorga o‘zi amal qilish bilan bir qatorda vazirlarni ham unga amal qilishga undagan. Vazirlar, davlat xizmatchilariga qo‘yilgan boshqa sifatlar aynan shu shiordan kelib chiqib shakllangan, deyish mumkin. Amir Temur hukmdorning mansabdor shaxslarni tanlab olish va ularni joy-joyiga qo‘yish qobiliyatini hokimiyatni amalga oshirish va mustahkamlashning bosh sharti deb hisoblagan. Jumladan, “Temur tuzuklari”da ta’kidlanishicha, vazir lavozimiga talabgor shaxs to‘rt fazilatga ega bo‘lishi lozim: “birinchisi – asillik, toza nasllilik; ikkinchisi – aql, farosatlilik; uchinchisi – sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada bo‘lishlik; to‘rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik” [8]. ‘

Asillik, toza naslilik fazilati temuriylar davrida vazirlarni mansabdorlarni tanlashning eng muhim jihati hisoblanadi. Boisi mamlakatlar o'rtasida josuslik xizmatlari keng avj olgan vaziyatda mamlakat uchun sadoqatli kadrlarni topish dolzarb edi. Vazir lavozimiga talabgor shaxs uchun talab qilinadigan qolgan fazilatlar esa bugunni kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Mazkur fazilatlardan O'zbekiston Respublikasi davlat xizmatiga kirish va davlat xizmatchilarini baholashda keng foydalanilmoqda.

Tadqiqotchi Ziyodulla Muqimovning fikricha, Amir Temur ortiqcha qattiqqo'llikni qoralaydi. U kechirimli hukmdor edi. Oltin O'rda xoni To'xtamish unga uch marta xiyonat qilgan bo'lsa ham uni kechirdi yoki Zindachashm uch marta xiyonat qilsa-da, uni ham kechirdi. "Sen podshohlar etagiga yopishma, halok bo'lasan, birovlarining toza qo'lini qonga bo'yaysan", – deya nasihat qildi va unga yetarli mablag', sovg'a-salomlar berib, och ko'zlarini to'yirdi. Bu o'rinda u o'z piringi: "Mamlakat kufr bilan turishi mumkin, lekin zulm bor yerda tura olmaydi", – degan fikrlariga amal qilgan. Tadqiqotchi Muqimov "Temur tuzuklari" borasida quyidagi xulosaga keladi: birinchidan, vazir tutish tuzugi orqali Amir Temur, avvalo, mamlakatning osoyishtaligi-yu, raiyatning ijtimoiy ahvolini, ikkinchidan, saltanat foydasini va nihoyat, podshohning kelajagi vazirning donoligiga bog'liqligini e'tirof etadi [9].

Azamat Ziyo Ibn Arabshoh ma'lumotlariga asoslanib, Amir Temur davrida tashqi razvedka faoliyati nihoyatda yuksak darajada yo'lga qo'yilganligini e'tirof etadi. Mazkur xizmat vakillari chakanafurush, yirik savdogar, polvon, dorboz, hunarmand, munajjim, qalandar, darvish, dengizchi, sayyoh, meshkobchi, etikdo'z, tolib niqobi ostida turli mamlakatlarda bo'lib, u yerlardagi shaharlar, qishloqlar, yo'llar, tog'u toshlar, suvlar, har bir joyning aholisi, boshliqtari, ulug'lari, amirlari, fozillari, shariflari, boyu kambag'allari to'g'risida har tomonlama batafsil ma'lumotlar yig'ib, haggio suratlari bilan Samarqandga yuborib turganlar. Bu bilan ham cheklanmay, Amir Temur harbiy, siyosiy munosabatlarga kirishayotgan mamlakatlar tarixi, urf-odatlariga oid asarlarni sinchiklab o'rgangan [10].

Umuman olganda, “Amir Temurning davlat tizimi va boshqaruvni tashkil etishdagi o‘ziga xos maktabi adolatli, insonparvar jamiyatni qaror toptirish kerakligini uqtiradi. Amir Temurning davlatchilik tamoyillari bevosita o‘z tafakkur kuchiga, o‘z fikrining to‘g‘riligiga, aql-idrok salohiyatiga, taktika va strategiyasining puxta, hayotiy va yashovchi ekanligiga qat’iy ishonch asosida shakllangan edi. Bu bevosita uning davlat va siyosat arbobi sifatida to‘laqonli siymosini, betakror shaxs sifatidagi noyob iqtidorini, fe‘l-atvorini, irodasi va olisni ko‘ra olish qobiliyatini ko‘rsatadi” [11].

Xulosa qilganda, Amir Temurning davlat boshqaruvi kadrlar siyosatidagi faoliyatini tahlil qilish orqali quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchi, davlat boshqaruvi, avvalo, dargoh va devondan iborat hukumatdan tarzida tuzilgan. Davlat xizmatchilari aynan shu klassifikatsiyadan kelib chiqib, lavozimlarga tayinlangan.

Ikkinchi, Amir Temur davlatida bir qancha vazirliklar tizimi yaratilgan bo‘lib, ular faqatgina eng muhim masalalarni qamrab olgan.

Uchinchi, “Temur tuzuklari”da nafaqat davlat boshlig‘i, balki mamlakatdagi boshqa davlat mansabdorlari ega bo‘lishi lozim bo‘lgan ma’naviy fazilatlarni ta’riflab berilgan. Amir Temur aynan shu fazilatlardan kelib chiqib, davlat xizmatini yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlagan.

Amir Temurning davlat boshqaruvida kadrlar siyosati masalasini tadqiq etib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchi, mamlakatimizda bugungi kunda dolzarb masala bo‘lgan davlat boshqaruv organlarini optimallashtirish masalasida Amir Temurning davlat boshqaruvidagi tajribasidan foydalanish mumkin. Amir Temur ixcham hukumat orqali katta mamlakatni boshqara olgan.

Ikkinchi, “Temur tuzuklari”da ta’kidlangan malaka va ko‘nikmalarni, shu jumladan, ma’naviy fazilatlarni davlat xizmatini kadrlar bilan ta’minlashning ochiq tanlovlari dasturiga kiritish bo‘lajak davlat xizmatchilarining ma’naviy qiyofasini baholashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir. // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII sezdidagi ma’ruzasi. // https://uz.fundamental-economic.uz/?page_id=1132
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. // *Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi*, 01.05.2021 y., 06/21/6217/0409-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. // *Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi*, 17.03.2021 y., 06/21/6188/0216-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. // *Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi*, 12.02.2021 y., 06/21/6168/0111-son.
6. Azmat Ziyoning “O‘zbek davlatchiligi tarixi” kitobidan // <https://e-tarix.uz/vatan-tarixi/uzbek-davlati/613-maqola.html>
7. Ahmedov B. Amir Temurni yod etib. – T.:O‘zbekiston. – B. 14.
8. Temur tuzuklari / So‘zboshi muallifi va mas’ul muharrir M.Ali, forschadan tarj.A.Sog‘uniy va H.Karomatov. – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 89-90.
9. Muqimov Z. Amir Temur tuzuklari (tarixiyhuquqiy tadqiqot). Ikkinchi to‘ldirilgan nashri. – Samarqand: SamDU, 2008. – B. 82.
10. Azamat Ziy. O‘zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) // Mas’ul muharrir: B. Ahmedov. – T.: “Sharq”, 2000. – B. 189.
11. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘raev N. Vatan tuyg‘usi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – B. 394.

AMIR TEMUR DAVLATIDA JAMOAT TARTIBI VA XAVFSIZLIGINING TASHKILY-HUQUQIY TA'MINLANISHI

M.Axmedova,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasii professori, yuridik fanlar doktori

Jamoat tartibini va xavfsizligini ta'minlashda, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig'ilishlar, namoyishlar o'tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo'ladigan joylarda jamoat tartibini va xavfsizligini ta'minlashda, shuningdek tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda hodisalarni bartaraf etishda ishtirok etish, qo'riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etish va huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish maqsadida aholi punktlaridagi jamoat joylarida patrullik qilishda ishtirok etish Milliy gvardiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan 2017 yilda tashkil topgan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi vazifasi etib, jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash masalasi bilan yaqindan shug'ullanish topshirilgani, bundan buyon mamlakatimizda jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash masalasiga Ichki ishlar bilan birga Milliy gvardiya mas'ul ekani belgilangani¹, fikrimiz isbotidir.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining asosiy vazifalaridan biri – jamoat tartibini va xavfsizligini ta'minlashga ko'maklashishdan iboratdir. Ushbu vazifani bajarish doirasida ichki ishlar organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlari bilan birgalikda kompleks tadbirlar tashkil etilib, amalga oshirilmoqda. Birgalikdagi patrul naryadlari jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash funksiyalarini amalga oshirishdan tashqari zarurat tug'ilganida aholiga zarur yordam ko'rsatib kelmoqda. Patrullik qilishdan tashqari, Milliy gvardiya kuchlari Toshkent shahrida va viloyatlar markazlarida o'kaziladigan ommaviy, madaniy va sport tadbirlari davomida ham jamoat tartibini va xavfsizligini ta'minlash orqali Milliy

¹ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т.2. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 157.

gvardiya va ichki ishlar organlarining bu borada birgalikdagi faoliyati o'z samarasini berib kelmoqda.

Mahalliy hokimlar o'zining hududida sodir etilgan jinoyatlar uchun mas'ul bo'lib, buning natijasida aholiga yoki savdo karvonlariga yetkazilgan zararni o'z hisobidan qoplashi lozim bo'lgan.

Bugungi kunda hududiy huquqni muhofaza qilish organlari zimmasiga davlatimiz rahbari tomonidan aynan shunday talab qo'yilmoqda. YA'ni, o'ziga birlashtirilgan hududda jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'ymagan, uning oldini olgan rahbar va xodimlar oylik maoshining bir necha baravari miqdorida rag'batlantiriladi, aksincha bo'lsa, oylik maoshining ma'lum qismi jarima ko'rinishida ushlab qolinadi. Bundan maqsad ularning mas'uliyatini yanada oshirishdir”¹.

Shuningdek, Milliy gvardiya shaxsiy tarkibi **“Obod va xavfsiz mahalla”** kabi konsepsiyasi asosida jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarni oldini olish tadbirlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu Konsepsiya doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri, viloyatlar markazlarida, shuningdek Respublikaning yirik shaharlarida sutka davomida uzluksiz uch smenali patrullik tashkil etilgan. Ichki ishlar organlari xodimlari, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari va jamoatchilik vakillaridan iborat bo'lgan birgalikdagi patrul naryadlari jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish maqsadida xizmatni olib bormoqdalar.

Shu o'rinda ushbu masala bo'yicha Amir Temurning tarixiy tajribasini o'rganib, xulosalarimizda qator taklif-tavsiyalarni ishlab chiqishga harakat qilamiz.

Qator tarixiy manbalarga asoslanib, Amir Temur davrida huquqni muhofaza qiluvchi organlar ixtisoslashgan degan fikrga kelish mumkin. sababi, organlarning kunduzgi, tungi hamda fuqarolik va harbiy bo'linmalarga ajratilgani, har bir organ o'z ma'lumotlarini tezlik bilan saltanat markaziga yetkazgani, davlat siri bilan bog'liq masalalar maxfiy kengashlarda, ikkinchi darajali masalalar saroyning ochiq kengashlarida muhokama qilingani, har qanday huquqbuzarliklarga nisbatan chora-

¹ Миразов Д.М. Амир Темур давлатида жамоат хавфсизлигини таъминлаш масалалари // “Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда “Темур тузуклари”нинг ўрни ва аҳамияти” мавзусидаги илмий-амалий конференция тўплами. –Тошкент. Ҳарбий-техник институти нашриёти, 2019. – Б. 15-17.

tadbirlar ko‘rilgani, Amir Temur davrida huquqiy tartibot ishlariga ikki tomonlama mas’ullar tayinlanganini manbalar tasdiqlaydi.

Har bir hududning ma’murlari bu ishga shaxsan javobgar bo‘lgan bo‘lib, o‘zlari boshqarayotgan hududlarning xavfsizligi, fuqarolarning tinchlik-xotirjamligini ta’minlashga mas’ul hisoblangan. Ma’muriy tartibdagi kichik huquqbuzarliklarni jazolash ularning vakolatiga kirgan. Agarda davlatga, shaxsga qarshi jiddiy jinoyatlar sodir etilsa, ular tegishli qoziliklarda ko‘rilgan hamda qilmishlariga yarasha jazo tayinlangan.

Saltanatda majburlov funksiyasini tashkil qilishdan asosiy maqsad ommani qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash va jinoyatlarni oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarga jazo muqarrarligini odamlar ongiga singdirish, bu orqali davlat va jamiyatning tinchlik-xotirjamligini saqlash edi. Bu davrda huquqbuzarlik va jinoyatlarni ochishda haqiqatni aniqlash muhim ahamiyat kasb etgan. Amir Temur “Tuzuklari”da bu haqda alohida to‘htalib o‘tgan: “...g‘arazgo‘y, nafsi buzuq kimsalarning tuhmati bilan katta va kichik shaharlar aholisidan hech kimni jazolamasinlar. Faqat gunohi to‘rt kishining guvohlik berishi bilan isbotlansa, gunohiga yarasha jazolasinlar. Amr etdimki, hech bir shahar va qishloqda odamlardan jon solig‘i, uy solig‘i olmasinlar. Sipohiylerden biron kishi raiyatning xonadoniga zo‘rluk bilan kelib tushmasin, raiyatning ot-ulovini tortib olmasin”¹.

Amir Temur davlatida amalda faoliyat yuritgan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifalari, vakolatlari va davlat xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rnini o‘rganish davlatchilik tariximizni chuqurroq bilishimizda katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, sud-huquq sohasi Amir Temur saltanatining majburlov apparati bo‘lib, u davlatning kuch-qudrati, qonun ustuvorligini saqlashda katta o‘rin tutgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, har bir shaharda hokimning saroyi – dorulimorat, sud idorasi – qozixona – adliya boshqarmasi – dorul adolat qurilgan va faoliyat olib borgan. Bu idoralar mamlakat huquq-tartibotini saqlashga mas’ul hisoblangan. Podshoh davlat boshqaruviga mas’ul bo‘lsa, qozi, sadr, shayul islom, muhtasib aholi tomonidan shariat ahkom (hukmlari)ni bajarilishini nazorat qilgan. Podshoh yaso, to‘ra va tuzuk asosida ish ko‘rgan.

¹ Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 138.

Amir Temur mamlakat jamoat xavfsizligini ta'minlashda ham adolat birinchi o'rinda ekanini, har bir ishda adolat ustuvor bo'lishi kerakligini qayta-qayta uqtirgan.

“Adolatning ulug‘ ishlaridan yana biri shuki, podshoh xalq haqida niyatini to‘g‘ri qilishi kerak, ularga yaxshilik qilishga moyil bo‘lishi lozim. Negaki, podshohning niyati va so‘zida har bir sohaga ta‘siri kuchli bo‘ladi. Agar adolatni niyat qilsa, xaloyiq ichida barakat va xotirjamlik bo‘ladi. Alloh o‘zi asrasin, agar niyatida zulm qilish bo‘lsa, mamlakatdan baxt va baraka ketadi, xalqning xotirjamligi va tinchligiga putur yetadi”¹.

Klavixo o‘z esdaliklarida: “Samarqand shahrida qonun juda kuchli, hech kim shohning buyrug‘isiz bir-biriga zulm o‘tkaza olmaydi, faqatgina shohning o‘zi ayrim hollarda jazo choralari qo‘llardi, xolos. Sohibqiron qayerga ko‘chib o‘tsa, o‘sha yerlarga o‘zi bilan birga qozilarni ham olib borar va o‘sha yerdagi aholi esa bu qozilarga quloq solardi. Qozilar turli ishlarga bo‘lingan: birlari muhim va jandalli ishlarni ko‘rsa, ikkinchilari Sohibqironning moliyaviy masalalarini, uchinchilari shahar va yer xo‘jayinlarining ishlarini, boshqalari esa elchilarning muammolarini hal qilardilar. Safarga chiqqanlarida ham bu qozilar o‘z ishlarini bilib qilishardi. Ular uchta chodirga oldilariga kelganlarning arzlarini eshitishar, so‘ng Sohibqironning oldiga borib, qilgan ishlarining hisobotini berishar, shundan keyin esa joylariga qaytib, birdaniga to‘rtta yoki oltita ishga hukm chiqarishar, agarda biron-bir hujjat berish haqida buyruq berishsa, shu zahoti mirzolari kelib, hujjatni kechiktirmasdan yozib, tayyor hujjatni yonlaridagi daftarga qayd qilib va unga bir belgi qo‘yishar, so‘ngra bu hujjatni tepada o‘tirgan boshliqqa kiritishardi. U yerda bu hujjat birma-bir ko‘rilib, uchta, to‘rtta joyiga siyohli muhr, oxirida esa bu muhrlar o‘rtasiga shohning muhrini bosishardi. Shohning muhriga harflar bilan **“haqiqat”** so‘zi yozilgan bo‘lib, so‘zning tagida uchta doira shaklidagi belgi bor. Xullas, har bir maslahatchining o‘z hattoti va qayd kitobi bor edi. Mirzolar shohning muhri bosilgan hujjatni ko‘rishlari bilanoq kechiktirmasdan buyruqni bajarishardi”².

Amir Temur saltanatda ichki xavfsizlik masalalariga ham katta e’tibor bergan bo‘lib, mintaqalarda tinchlik va barqarorlikni saqlash ishlari, shahar hokimi – **dorug‘alar** zimmasida bo‘lgan. Shuningdek, har

¹ Хусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б. 53-54.

² Руи Консалос де Клавиho. Амир Темур Испания элчиси нигоҳида. – Т.: Замин нашр, 2019. – Б. 150-151.

bir shahar va qishloqqa **qutvollar** tayinlangan bo‘lib, ular xalqning tinchoqsoyishtaligini qo‘riqlashgan. Bordi-yu hududda biror narsa yo‘qolsa yoki o‘g‘irlansa, qutvollar javobgar bo‘lib, ularga dorug‘alar kabi yo‘qolgan molni to‘lash majburiyati yuklangan.

Shuning uchun ham ichki xavfsizlikni ta‘minlashda uch narsani pinhon tutish zarurligi haqida yozilgan: “Avval safarni, ya‘ni yo‘l maqsadidan boshqa kishiga xabar bermaslik, chunki dushmanlar har joyda hozir va tayyordilar; ikkinchisi mazhabni, ya‘ni o‘z dinidan boshqalarni ogoh qilish kerak emas, chaqimchi va hasadchilar juda ko‘p; uchinchi oltinni, ya‘ni molni yashirin saqlash kerakki, chunki ta‘ma ahli behad va besanoqdirlar, shunday ekan, har bir sirning pinhonligi yaxshiroqdir, chunki sir mahrami olamda har qanday narsadan kamroqdur”¹.

Har bir shahar va qishloqqa **qutvol** tayinlasinlarki, sipohu raiyatga soqchilik qilsin va kimning biron narsasi o‘g‘irlansa, buning mas‘uliyati uning zimmasida bo‘lsin. Va yana buyurdimki, yo‘l ustida kuzatuvchilar, zobitlar tayinlasinlar, ular yo‘llarni qo‘riqlab, yo‘lovchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga yetkazib qo‘ysinlar. Yo‘l ustida birontasining narsasi yo‘qolsa, o‘zi o‘ldirilsa, yoki boshqa kor-hol yuz bersa, bular uchun javobgarlik ularning zimmasida bo‘lsin”².

“Yomon kishilar ikki guruhdir, birini daf qilish shart, ya‘ni ularni viloyatdan yo‘q qilish kerak va yana birini man qilish lozim, ya‘ni ular bilan suhbatlashishni taqiqlash kerak. Ammo o‘g‘ri va qaroqchilarni daf qilish qudrat ahli zimmasiga qo‘yilgan shart bo‘lib, bundan musulmonlarga foyda bo‘ladi. fosiqlarga jazo berish kerak, hamisha ularni siyosat bilan ushlab turish, badkirdor va fasodkorlarni xor va zabun qilish, o‘g‘ri va qaroqchilar zararini viloyat hududi va yo‘ldagi guzarlar boshidan yo‘qotish, toki musofirlar omon bo‘lgaylar, savdogarlar turli tarafdin shaharga kelgaylar va borgaylar, toki mamlakatning har xil ro‘zg‘or buyumlari va matolar, turli taomlar ularning kelishidan paydo bo‘lib, xaloyiq bundan foyda ko‘radi”³.

Asaslar esa tungi qorovullar, qidiruv ishlari boshliqlari bo‘lib, o‘z xodimlari – posbonlar bilan ma‘lum hududlarga biriktirilib, fuqarolarning tinchligini ta‘minlash va jinoyat ishlarini ochishda muhim o‘rin tutganlar.

¹ Хусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б. 179.

² Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 138.

³ Хусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи муҳсиний. – Т.: Ўзбекистон. – Б. 212.

Shariat asosida ijtimoiy tartibni nazorat qilish va ma'naviy xatolarning oldini olishga mas'ul shaxslar **muhtasib** deb atalib, ular bozorlardagi toshu tarozilardan urish hamda mayda huquqbuzarliklarni oldini olganlar va o'z vakolatidan kelib chiqib, jazo tayinlaganlar.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, “soqchi”, “qorovul”, “chokar”, “shihna”, “yasovul”, “ko'kaldosh”, “muhtasib”, “posbonboshi”, “sarboz”, “mirshabboshi” va “mirshab”lar hukmdor qarorgohi, qal'alar va boshqa inshootlarni qo'riqlash, qishloq va shaharlarda jamoat tartibi va osoyishtalikni, aholi xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, aybdorlarni jazolash kabi vazifalarini bajargan.

Amir Temur davrida ichki ishlar idoralari mansabdorlari **yasog'liq** deb atalgan, ular davlat va jamiyatning tinchligini saqlashga mas'ul bo'lib, jinoyatlarni ochishda muhim rol o'ynaganlar. Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi amaldorlardan biri **shihnal** harbiy ma'murlar bo'lib, shaharlardagi xavfsizlikni saqlashga mas'ul sanalgan.

Amir Temur davrida **qo'rchi** davlatning qurol-yarog'larini avaylab-asragan, ularning qayerga va nima uchun ishlatilayotganligini nazorat qilgan va podshoh saroyini qo'riqlaganlar. Ushbu tarixiy mansabdorlik vazifalarini respublikamizda hozirda bu borada olib borilayotgan keng ko'lamdagi faoliyatiga qiyoslash mumkin.

Demak, jinoyatga jazo berishda tuhmat, g'iybatlarga ishonib qolmaslik uchun u obdon o'rganilgan va to'g'riso'z, halol to'rt kishining guvohligiga tayanilgan. “Tuzuklar”da ma'muriy tizimga oid juda ko'p qoidalar uchraydi. Jumladan, Sohibqiron hokimlarga kimningdir tuhmat gaplariga kirib aholiga jarima solishni taqiqlaydi.

SH.O'ljayevaning ta'kidlashicha, Amir Temur mansabparast va molparast amaldorlarning o'z maqsadlariga yetishish uchun har qanday yo'lga kirishi, buning oqibatida korrupsiyaga yo'l qo'yilishi mumkinligini yaxshi tushungan va shunga yarasha chora-tadbirlarni qo'llagan¹.

Amir Temur davlatining majburlov kuchini saqlab turishda sudlar katta ahamiyat kasb etgan. Ular davlat, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan jinoyatlarning oldini olishda, shuningdek, nizolarning adolatli yechimini topishda katta rol o'ynagan. Jinoyatlarning qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilishiga qarab jazolar belgilangan.

¹ Ўлжаева Ш. Амир Темур давлат бошқаруви. Монография. – Т.: Академнашр, 2018. – Б. 25.

Xavfsizlikni ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilishda sudlarning ixtisoslashtirilgani o'sha davr nuqtai nazardan quyidagi uch yo'nalishda ish olib borgani sud amaliyotini takomillashganidan dalolat beradi: **Birinchisi** – lashkar qozisi bo'lib, harbiy maslalarga oid jinoyat va nizoli ishlarni ko'rgan. **Ikkinchisi** – shariat qozisi hisoblanib, ahkom (hukm)lari bilan bog'liq jinoyat va nizolarni ko'rib chiqqan. **Uchinchisi** – dunyoviy-fuqarolik va davlatga tegishli masalalarni, masalan, o'g'irlik, moliyaviy va ma'muriy sohalarga oid ishlarni ko'rgan. Saltanatda faoliyat yuritgan sudlarning vazifa va vakolatlari aniq belgilab qo'yilgan bo'lib, ko'rilgan ishlar bo'yicha aniq ma'lumot va hisobotlar devonga, shaxsan Amir Temurga uzluksiz yetkazib turilgan.

“Bu davrda ham jinoyat va jazo ishlari shariat qonunlari asosida hal etilgan bo'lib, aholining tinchligi va osoyishtaligi uchun mirshabboshilar mas'ul hisoblangan. Mirshablar shaharlar va qishloqlarda kechayu-kunduz soqchilik qilishgan, jamoat joylari, bozorlar va ko'chalarda tartib-osoyshtalikni ta'minlagan. Shuningdek, qozilar tomonidan jinoyat uchun tayinlangan jazoni ijro etish ham ularning zimmasiga yuklangan”¹.

Yuqoridagilardan ko'rish mumkinki, Amir Temur saltanatida jinoyatchilikka qarshi kurashishda huquqiy asos – qonunlar to'plami yaso, to'ra, tuzuk, Qur'oni karim, hadis, fiqh kitoblari mavjud bo'lib, shuningdek, mahalliy hokimlar hududdagi tartib-osoyshtalikka ham mas'ul bo'lgan.

Amir Temur davri sud-huquq tizimi qonuniylik va adolat tamoyiliga asoslangan. Sohibqiron nabirasi amirzoda Umar (1383 yilda tug'ilgan) nomiga bitilgan farmonida ham unga in'om etilgan mamlakatlarda adolat va qonunga so'zsiz amal qilishi shartligi alohida ta'kidlangan, “Toki mazkur mamlakatning podshohlari, hokimlari, voliylari, amirlari, ayon, ashrof va taniqli kishilari nomi yuqorida eslatilgan eng aziz farzandni ul joylar saltanat taxti va viloyatlarning egasi, nufuzli hokimi hamda arzigulik hukmdor deb bilib, muhim ishlarda va yurtning barcha zaruratlarida to'la-to'kis unga va uning noiblariga murojaat qilsinlar; uning mamlakat obodonchiligining asl nizomi va ular osoyishtaligining mazmun-

¹ Мирзозов Д.М. Амир Темур давлатида жамоат хавфсизлигини таъминлаш масалалари // “Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда “Темур тузуклари”нинг ўрни ва аҳамияти” мавзусидаги илмий-амалий конференция тўплами. –Тошкент. Ҳарбий-техник институти нашриёти, 2019. – Б. 15-17.

mohiyatidan iborat bo‘lmish farmon va buyrug‘idan bosh tortmoqni lozim topmasinlar”¹.

Shuningdek, farmonda qonunga qat’iy amal qilishi ko‘rsatib o‘tilgan: “Farzand ushbu ulug‘ ishni shu yo‘sinda olib borsinki, toki u adolat, haqiqat, hukmdorlik zaruriyatlari va raiyatparvarlik uchun kafolat bo‘lolsin hamda uning qoidalariga shunday bir tarzda amal qilsinki, toki u olamning obodligi va insonning tinch-totuvligi bilan yakun topsin; solih kishilar ahli taqvo va irshod as’hobi sidq va xalqparvarlarni qo‘llab-quvvatlash va e‘zozlashda, masjid va madrasalarni ta‘mirlashda va xayrli dargohlarni ko‘paytirishda, tirishqoqlik namoyish etib, jinoyatchilar va qaroqchilarni hamda shariatga xilof ishlarning ko‘payishini va nodonlik qonun-qoidalarini tag-tugi bilan yo‘qotishni zarur va lozim deb bilsin. Shundagina mamlakat ishlari bir tekis boradi, saltanat mavqei va to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq barqaror bo‘ladi. Bundan murod shuki, har kim nimaki bilsa, bexavotir bizning arz izzatgohimizga yetkazsin, har narsaki, mamlakat islohi unga aloqador va mazlumlar boshidan zararni daf etish unga bog‘liq bo‘lsa, u haqda bizga yetkazishga beparvolik qilmasin, e‘timod va to‘la ishonch bilan ochiq ko‘ratsin”².

Bundan ko‘rinadiki, Amir Temur huquq-tartibot sohasida adolat va qonun ustuvorligi, sodir etilgan jinoyatga jazoning muqarrarligi tamoyiliga amal qilgan. Mazkur qoidalar nafaqat mamlakatda, balki xalqaro munosabatlarda ham bosh mezon bo‘lganidan manbalar shohidlik beradi.

Bu haqda Sharafiddin Ali Yazdiy shunday ma‘lumot keltirgan: “Sohibqirondin avval holdakim, olamdagi viloyatlarning har birida bir podshoh bor erdi va alarning muxolifat va munozi‘atlari jihatidin musulmonlar ichida ko‘p tashvish bor erdi. Va hech yerda amin va amonlik qolmaydur erdi. Va yo‘llar o‘g‘ri va qaroqchi jihatidin bog‘lanib erdi. Va hech musulmon hech sori borolmas erdi. Viloyatlarni zolimlarning eliklaridin qutqarib, adlu ehson bila orasta qildi. Va aning adlidan andoq bo‘ldikim, agar birov bir tabaq oltin yo kumush boshig‘a qo‘yub yolg‘uz sahroda Boxtardin Xovargacha borg‘ay, hech kishi anga tik boqa olmas erdi. Ammo ul holda ko‘b yerlarni talab asiru toroj qildi zururat jihatidinkim, agar andoq qilmasa erdi, olam nizom topmas erdi”³.

¹ Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б.385.

² Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 370-371.

³ Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 292.

Shu o'rinda Yazdiyning yana bir ma'lumotiga murojaat etmoqchimiz: "Muhammad Muzaffarning avlodi muddati erdikim, bu viloyatlarda podshohlik qilur va har biri bir shaharda hokim erdilar. Va xutbani o'z otlarig'a o'qur erdilar. Va har biriga da'vo ul erdikim, "Viloyatlar barcha menga taalluq bo'lg'ay". Va bovujud ulkim, bir-biriga qarindosh erdilar, doim bir-biriga qasd etib, dushman erdilar. Va agar birikim, birovning elikiga tushsa erdi, ani yo o'ldurub, yo ko'r qilur erdilar; ato o'g'ul va o'g'ul ato bilan o'shal tariq edilar va alarning jihatidin ra'iyat zahmatda erdi. Bu mahaldakim, viloyat Sohibqiron tasarrufida bo'ldi, barcha viloyatlarning sodot va qazot va arboblari kelib, bu voqealarni arz qildi va dedilarkim: "Umidimiz sizdan ultururkim, bu viloyatlarda yana Oli Muzaffarni qo'ymag'aysiz. Va agar yana bularg'a bu viloyatlarda daxl bersangiz, viloyat buzulur va faqiru miskin xarob bo'lur". Bu jihatdin Sohibqiron dinparvardin dushanba kuni, jumad al-oxir oyining yigirma uchida (1393 yil 6 mart) hukm bo'ldikim, "Oli Muzaffarni tutib berkitsunlar!¹".

Amir Temur davlatida o'g'rilik, zo'ravonlik, sharob ichish, zino va boshqa jinoyatlar uchun eng og'ir jazolar tayinlangan. Akademik I.Mo'minov bu haqda: "Sohibqiron yozishmalaridan anglanishicha, saltanatda vaqti-vaqti bilan so'roq va taftishlar o'tkazib turilgan. O'z amalini suiiste'mol qilish, poraxo'rlik, ichkilikbozlik, maishiy buzuqlik og'ir gunoh hisoblanib, bunga yo'l qo'ygan kishilar qattiq jazolangan"².

"Tuzuklar"dan anglashiladiki, shariatga bog'liq bo'lmagan jinoyatlarga "Yasoq" qonunlari bo'yicha jazo berilgan³. O'rta asr an'analariga xos bo'lgan barmoq, qo'l, burun, quloq kesish, ko'zga mil tortib ko'r qilish, darra va qamchi bilan urish, sazoyi qilish kabi jazo turlari qo'llanilgan.

Ingliz olimasi Hilda Hukhem "Yasoq" qonunlariga binoan jinoyatlarga qattiq jazolar qo'llangani, masalan, ot o'g'irlagan kimsa jazodan qutulish uchun yana to'qqizta ot berishi shart bo'lgan, aks holda u qatl etilgani haqida ma'lumotlarni keltirgan⁴.

Sohibqiron karvon yo'llaridagi xavfsizlikni ta'minlash maqsadida turli qoidalarni joriy etgan bo'lib, yo'llarda kimga hujum qilinib, uning

¹ Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Шарк, 1997. – Б. 154.

² Мўминов И.М. Асарлар. Уч жилдлик. – Т.: Фан, 1969. 1 жилд. – Б.434-435.

³ Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.80.

⁴ Хукхэм Х. Етти иклим султони / Рус тилидан Х.Тўрабеков ва Ш.Сокин таржимаси. – Т.: Адолат, 1999. – Б. 165.

moli tortib olinsa, o'sha yerning hokimi mol egasiga yo'qotilgan molning ikki barobari miqdorida jarima to'lagan, bu holatni nazorat qila olmagan tufayli Amir Temur xazinasiga besh barobar miqdorda jarima to'lagan¹.

Toshu tarozilar, ma'naviy gunohlar uchun jazoni ijro etuvchi kishilar **ihtisob ahli** deb yuritilib, ularga muhtasib boshchilik qilgan. Muhtasib beradigan jazo chorasi sifatida darra urilgan. Darra urilayotgan paytda aybdor kechirim so'rashi, qilgan gunohi uchun tavba qilishi jazo chorasini yengillashtirishga xizmat qilgan. Tavba va minnatdorchilik muhim shartlardan bo'lib, ado qilinmagan taqdirda jazoni davom ettirish mumkin bo'lgan².

Amir Temur adolatsizliklar, odamlarning noroziligi xavfsizlikka real tahdid bo'lishini anglagan holda adolat va insof bilan fuqarolarni rozi qiladigan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqaradigan, zolimlardan mazlumlarning haqqini olib beradigan, zolim yetkazgan moddiy va jismoniy zararlarni isbotlaganidan keyin, uni qonun-qoidalarga muvofiq ikkisi o'rtasida muhokama qiladigan va bir gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm yetkazmaydigan tizim yaratgani hamda xalqqa jabr-zulm yetkazgan amaldorga nisbatan darhol chora ko'rgani fikrimizning isbotidir.

Shu o'rinda aytish kerakki, respublikamizda so'nggi yillarda jinoyat sodir etgan shaxslarni afv etish bo'yicha 8 ta farmon qabul qilinib, 4 mingdan ziyod shaxs jazoni o'tash joylaridan ozod qilindi. Ana shu ishlarning mantiqiy davomi sifatida jinoiy qilmishiga chin dildan pushaymon bo'lib, tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan 92 nafar mahkum afv etilib, ular erkin hayotga qaytarildi³.

Amir Temur davrida mansabdorlar tomonidan sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlarga jazo tayinlash tartibi alohida nazorat qilingan. Mansabdorlar tomonidan sodir etilgan qilmish turiga – ehtiyotsizlik yoki qasddan qilinganiga ahamiyat berilgan va shunga yarasha jazo tayinlangan. Agarda qishloq oqsoqoli va shahar ulug'lari kichikroq darajadagi odamga zulm qilsalar, o'sha zulmga yarasha, har

¹ Хукхэм Х. Етти иклим султони / Рус тилидан Х.Тўрабеков ва Ш.Сокин таржимаси. – Т.: Адолат, 1999. – Б. 123.

² Хусайн Байқаро. Рисола / Нашрга тайёрловчилар Алибек Рустам ва Каримбек Ҳасан. – Т.: Шарқ, 1991. – Б. 35.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 27 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги “Конституция ва қонун устуворлиги – ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг энг муҳим мезонидир” номли маърузаси. Халқ сўзи, 2019 йил 9 декабрь.

kimning sharoitiga ko'ra jarima solingan, ya'ni fuqarolarning ijtimoiy turmush tarzi e'tibordan chetda qolmagan.

Mabodo dorug'a va shahar hokimi xalqqa jabr-zulm qilsa, ularni xonavayron etsa, qilmishiga yarasha ayovsiz jazolangan. Bu oddiy jarimadan tortib o'lim jazosigacha borib yetgan. Davlat amaldorlarining qo'poruvchiligi, poraxo'rliigi va boshqa jinoyatlar ham eng xavfli hisoblangan. Ular bugungi kundagi korrupsiya va qo'poruvchilik jinoyatiga to'g'ri keladi. Davlatning majburlov funksiyasi ularni tag-tomiri bilan yo'qotish mamlakatdagi barqarorlikni muvofiqlashtirishga qaratilgan edi.

Amir Temur va Temuriylar davridagi majburlov apparatining tarbiyaviy kuchi shundaki, jazolar xalqdan yashirincha emas, ochiqchasiga bozor va xalq gavjum bo'lgan maydonlar ijro etilgan.

“Sohibqiron komkor shahzoda Shohruh mirzoni Samarqandda yibardikim, anda borib zabtig'a mashg'ul bo'lg'ay va dod adli bila mashg'ul bo'lib, ra'oyo, fuqaro va masokin avlodlaridin g'ofil bo'lmag'ay deb shahzodagi ko'p pand so'zlar va nasihatlar qildi. Va avval nasihat so'zi bu erdim, “Anda borsang, o'zingdan g'ofil bo'lmag'il va ra'iyat ahvolidin xabardor bo'lg'il. Ikkinchi ulkim, toat va ibodatda komilik qilg'aysen. Har viloyatdakim, devon va zobit va dorug'a qo'ysang, mo'min va musulmon kishini qo'yg'il va andek kishini qo'ymag'ilkim, musulmonlarga zulm qilg'ay”¹.

Xirojni raiyatdan kaltaklash va savalash yo'li bilan emas, balki ogohlantirish yo'li bilan undirish kerakligi uqtirilgan. Qaysi hokim hukmining ta'siri kaltaklash ta'siridan kamroq ekan, unday hokim hukumat yurgizishga yaroqsiz deb bilingan².

Amir Temur: “Adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o'zimdanda rozi etdim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, hoqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Fuqaro va qo'l ostimdagilarga rahmdillik qildim, sipohiylarga in'omlar ulashdim. Zolimga qarshi mazlum dodiga yetdim. Vazirlardan qaysi biri agar saltanat ishlarida xiyonat etsalar va saltanatni ag'darishga jazm qilgan bo'lsalar ham ularni o'ldirishda shoshilmasinlar. Avvalambor ularni ayblovchi va xabar yetkazuvchilarning kimligini tekshirib ko'rsinlar. Qoralovchilar

¹ Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Шарк, 1997. – Б. 172.

² Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 74.

da'volarining rost-yolg'onligini sinchkovlik bilan sinab ko'rsinlar. Chunki ko'p hollarda hasadchilar bilan g'iybatchilar yo ko'rolmay yoki ta'magirlik bilan yolg'on to'qib, uni chinday qilib ko'rsatadilar va (chirkin) maqsadlariga yetishadilar. Talaygina pastkash, razil odamlar borki, davlat dushmanlarini yaxshilab, uning jonfidoiylarini haylagarlik va makkorlik bilan xarob qiladilar, makru sotqinlik bilan saltanat qo'rg'oniga putur yetkazmoq payida bo'ladilar"¹.

Amir Temur fuqarolarni qo'rqinch va umid orasida saqlagan, buni zaruriyat deb bilgan edi. Bu esa, bizningcha, fuqarolarning jamiyat va qonun oldidagi huquq va burchlari, majburiyatlari, imkoniyatlari chegaralari, ularni himoya qiladigan, jazolaydigan kuchli davlat turganligini har lahza eslatib turgan, mas'uliyat, javobgarlik hissiyotlarini uyg'otgan. Bundan anglashiladiki, Amir Temur qonunlar va uning amaldagi ijrosi ta'minlanishini davlatning qudratli bo'lishiga xizmat qiladi, deb hisoblagan.

O'ratilgan qoidalarga, avvalo, Amir Temurning o'zi amal qilar, oila a'zolaridan ham shuni talab etar edi. Mironshohning o'g'li Xalil Sulton botir, jasur, mas'uliyatli va tadbirkor amirzoda bo'lib, kelajakda ulug' davlat hukmdoriga aylanishi mumkin edi. Ammo uning bir noqonuniy harakati barcha rejalarini chippakka chiqardi. Xalil Sulton amir Sayfiddinning kanizagi bo'lmish Shodmulk og'oga noshar'iy uylanib olishi tufayli og'ir jazoga buyuriladi. Keyinchalik u afv etildi, biroq uning adolatli ish yuritishiga ishonch qolmagan edi. Shu tufayli hokimiyatni boshqarishdan mahrum etildi. Tarixdan bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Fransuz olimi Lyusen Keren ma'lumotlariga ko'ra, "Sohibqiron Amir Temur yurishdan qaytganidan so'ng ertasi kundan boshlab saltanat yumushlariga sho'ng'ib ketdi: uning qahri qattiqligini bilgan amaldorlar va sipohiyalar qaltirab turishardi. O'zi uzoq vaqt bu yerda bo'lib o'tgan voqealar bayonini diqqat bilan tinglagach, narx-navoning haddan tashqari oshib ketishiga yo'l qo'ygan savdogarlar va aybdorlarni dorga ostirdi. Beva-bechoralarga kiyim-kechak va oziq-ovqat ulashildi, fuqarolar esa uch yil davomida barcha soliqlardan ozod qilindilar"².

¹ Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 104.

² Керен Л. Амир Темур салтанати. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 80.

L.Keren uning jinoyatlarga jazo berishi haqidagi ma'lumotlarni Rui Gonsales de Klavixo kundaliklariga tayanib Konigilda ro'y bergan voqeani shunday sharhlaydi: "Jarchilar Amir Temur adolat o'rnatishini ma'lum qilganlarida olomonning quvonchiga quvonch qo'shildi. Nihoyat, kulgilar to'xtadi. Chodirlar orlig'idagi bo'shliqlarga jallodlar bir necha dor tikkan edilar. Amir Temur o'qigan hukmlar vazifasini sovuqqonlik bilan ado etgani uchun shu zahotiyoc dorga osildi. Davlat mablag'ini va otlarini talon-taroj qilgan qator yuksak martabali amaldorlarning ham qismati shunday bo'ldi; o'g'irlangan mablag'lar qayerga yashirilganini aytmaganliklari uchun ularning ayrimlari oldin qiynovlarga olinib, keyin osildilar. Shundan so'ng do'konlarda mollarining narhlarini haddan tashqari ko'tarib yuborgan savdogarlar va tijoratchilarga navbat keldi, ba'zilarining boshlari tanasidan judo etildi, ba'zilarining mol-mulklari musodara etildi"¹.

Demak, bunday temir qoidalar, jazo usullari davlat apparati va jamiyat o'rtasidagi mutanosiblikni, ayniqsa, hukmdorning farmon va qarorlari ijrosini so'zsiz ta'minlanishiga xizmat qilgan bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi dalillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, Amir Temur davrida jazo usullarini qo'llashda adolat bosh mezon bo'lgan. Jinoyat va jazo tizimini o'rgangan olim H.Vamberi bu haqda shunday xulosaga kelgan: "Temurni Chingiz ila bir safga qo'yub, uni vahshiy, zolim, qaroqchi deb atagan kishilarning fikrlari ikki marotaba xatodir. U, avvalo, Osiyo sarkardasi edi. O'zining g'olib askarlari va quollaridan o'z zamonasining taomilicha foydalangan. Uning faoliyati, xususan, dushmanlari tomonidan gunoh hisoblangan ishlari va urushlari, teranroq qaralsa, jinoyatga jazo tarzida qo'llanilgan. To'g'ri, jazo qattiq, lekin adolatli bo'lgan"².

Xavfsizlikni saqlashga nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar yoki davlat lavozimidagilar, balki hamma fuqarolar mas'ul bo'lgan. Hatto rasmiy yoxud boshqa marosimlar saroy, o'rda va boshqa yerlarda barchaning sergak, ogoh yurishini talab etgan³.

¹ Ўша асар. – Б. 151-152.

² Вамбери Х. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Т.: Ғофур Ғулом, 1990. – Б. 18

³ Ўлжаева Ш. Амир Темур давлатида бошқарув. Ташқи сиёсат. Дипломатия. – Т.: Академнашр, 2017. – Б. 131.

Xavfsizlikni ta'minlash maqsadida sipohiylar, amirlar, mingboshi, yuzboshi va o'nboshilar devonxonaga, bazmu majlislarga kuloh, etik, kovush, bo'rk yoqalik chakmon, xanjar, qilich bilan kirishi lozim bo'lgan¹.

Mintaqada urush xavfini bartaraf etish maqsadida Amir Temur, birinchi navbatda, saroy va devonni qo'riqlash masalasini muhim deb bilgan. Urush paytida o'n ikki amirdan har biri, mingboshilar, yuzboshilar, o'nboshilar o'n ikki ming qurollangan otliq sipohiy bilan birga birgalikda bir kecha-kunduz davomida o'z hukmdorini qo'riqlash uchun hozir bo'lganlar. Bu o'n ikki ming otliq lashkar to'rt qismga bo'lingan va bir qismi barong'orga (o'ng qanot), bir qismi javong'orga (so'l qanot), bir qismi o'rduning oldiga, to'rtinchisi o'rduning orqasiga joylashtirilgan. Ushbu to'rt qism navbatma-navbat o'rdudan yarim farsang uzoqlashib soqchilik qilgan. To'rt sipohiy favj o'zlari uchun hirovul belgilangan. Hirovuldan qorovullar tayinlangan. Ular ehtiyotkorlik va hushyorlik bilan o'rduga xabar yetkazib turishgan². Bu omillar saltanatda xavfsizlik xizmati ixtisoslashgan degan xulosaga kelishimizga asos bo'ladi.

Amir Temur qo'shin va o'rduning himoyasini yanada kuchaytirish maqsadida qo'shin orqasidan to'rt favj (qism) chopqunchilar tayyorlashni buyurgan. Ular to'rt farsang masofada lashkar yonida yurib, ularni qo'riqlab borgan. Bordiyu chopqunchi lashkardan biron kishi o'ldirilganini yoki yaralanganini ko'rsa, uning ishini o'z zimmasiga olgan. Xavfsizlik xizmati uchun belgilangan to'rt favj chopqunchi lashkarning uchdan bir qismi chegaralarni qo'riqlash ishiga tayinlangan. Qo'shinning uchdan ikki qismi esa doimo saltanat ishiga shay turgan.

Amir Temur saltanatida ichki xavfsizlik va jinoyatchilikka qarshi kurashish masalasi davlat e'tiborida bo'lgan. Bu davrda tinchlik va osoyishtalik uchun mirshablar, ya'ni harbiy amaldor mas'ul hisoblangan. Ular shahar va qishloqlarda kecha-kunduz soqchilik qilib, jamoat joylari, bozor va ko'chalarda tartib-osoyishtalikni ta'minlagan, qozilar tomonidan jinoyat uchun tayinlangan jazoni ijro etish ham ularning zimmasiga yuklangan.

Ma'lumki, o'zbek xalqida qadimdan o'zgalar moliga ko'z olaytirish, o'g'irlik qilish qattiq qoralangan. Kamdan-kam uchrab turadigan tarozidan urish, o'g'irlik, zino va boshqa shu kabi jinoyatlarda aybdor aniqlansa, u

¹ Temur tuзуклари.. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.121.

² Temur tuзуклари.. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 122.

aholi o'rtasida namoyishkorona jazolangan. Bu ham o'ziga xos profilaktika vazifasini o'tab, jinoyatchilikning kamayishiga sabab bo'lgan¹.

Demak, saltanatda maxsus tayyorgarliklan o'tgan minglab kishilar davlat bosh ma'muriy binosi, o'rdu, chegaralar, umuman, saltanatni qo'riqlagan. Shuningdek, mamlakat uchun katta xavf tug'ilganida armiyani safarbar etish qoidalari ham ishlab chiqilgan. Xavf-xatarlarga boy o'rta asrlarda mamlakat mudofaasini takomillashtirish orqali Amir Temur davlatdagi tinchlik va barqarorlikni saqlashga erishganligini anglash mumkin. Sohibqiron saltanatida jamoat xavfsizligining ta'minlanishida adolat va qonun ustuvorligi katta turtki bergan, - deyish mumkin.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA HOMIYLIK AN'ANASI

*D.N.Abdullayev,
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent, Toshkent davlat
pedagogika universiteti*

Tarixga chuqurroq nazar tashlasak, o'tmishda xayrli ishlar bilan ko'plab davlat arboblari, yirik mulk egalari, ilm-fan vakillari, tijoratchilar, din va tasavvufning yetakchi vakillari ham shug'ullanganligining guvohi bo'lamiz. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Shohruh, Husayn Boyqaro, Xo'ja Ahror, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi tarixiy shaxslarning nafaqat madaniyat va ilm-fan homiylari bo'lganliklari, balki bog'-rog'lar, imoratlar, madaniy obidalar qurganligi, suv inshootlari, kanal va ariqlar o'tkazganligi, maktab, madrasa, masjid, shifoxona, hammom, rabot va karvonsaroylar barpo etishda homiylik qilganliklari uchun ham katta shuhratga ega bo'lganlar.

Xususan, Sohibqiron Amir Temur davrida fan, madaniyat, san'at va adabiyot yuksalishi bilan birgalikda yirik qurilish va bunyodkorlik ishlari

¹ Миразов Д.М. Амир Темур давлатида жамоат хавфсизлигини таъминлаш масалалари // “Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда “Темур тузуклари”нинг ўрни ва аҳамияти” мавзусидаги илмий-амалий конференция тўплами. –Тошкент. Ҳарбий-техник институти нашриёти, 2019. – Б. 15-17.

amalga oshirilgan. Mamlakatda kasalxonalar, dorixonalar, kutubxonalar barpo etilgan. Sohibqiron Amir Temur davrida Jahonni hozir ham lol qoldirayotgan me'moriy obidalar barpo etilgan. Amir Temurning sa'y-harakatlari bilan madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, saroylar, bozorlar, rabot-u karvonsaroylar, ko'priklar, suv havzalari va boshqa inshootlar bunyod etilgan. Amir Temur tomonidan barpo etilgan davlat boshqaruvi faoliyati insonparvarlik va mehr-shafqat tamoyillari asosida ish ko'rgan. U o'z davlatida aholining nochor qatlamlariga g'amxo'rlik munosabatida bo'lganligini kuzatamiz. Masalan, Temuriylar davrida qashshoqlikni tugatish maqsadida boshpanalar tashkil qilinib, kambag'allar ulardan nafaqalar olib turganlar [13, B.23-24]. Bundan tashqari Amir Temurning soliqlar haqidagi qoidalarida ham "Soliqlar yig'ishda xalqni og'ir ahvolga solishdan, yoki o'lkani qashshoqlikka tushirib qo'yishdan ehtiyot bo'lish zarur. Negaki, xalqni xonavayron qilish davlat xazinasining bequvvatligi harbiy kuchlarning tarqoqlanishiga, bu esa, o'z navbatida hokimiyatning kuchsizlanishiga sabab bo'lishi..." takidlab o'tilgan [12, B.12]. Amir Temur o'z davrida aholining ijtimoiy ahvoli haqida qayg'urgan va o'z aholisi orasida nochorlar sonining ortib ketmasligi choralarini ko'rgan. U nochorlar orasida nogironlar va zaiflar haqida ham alohida g'amxo'rlik qilgan. Bu haqida Temur tuzuklarida shunday ta'kidlangan: "Amr etdimki... faqiru miskin, biron kasb qilishga ojiz shol ko'rlarga nafaqa belgilansin... Yana buyurdimki, har bir mamlakat fath etilgach, u yerning gadolarini to'plab, kundalik yemish, ichishlarini berib, ularga biron vazifa belgilansin. Hamda barcha tamg'alansinlar, toki boshqa gadolik qilmasinlar. Yana amr etdimki, katta-yu – kichik har bir shahar, har bir qishloqqa masjid, madrasa va honaqoxlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxonalar, yo'lovchilar qo'nib o'tadigan joy g'aribxona, keksalar uchun shifoxona qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlansinlar" [10, B.67]. Shuningdek, xalqning sog'ligini saqlash, bemorlarni davolash, yetim-yesirlar haqida g'amxo'rlik qilish borasida muhim ishlar amalga oshirilgan.

Shuningdek, Amir Temur xoh Samarqandda bo'lsin, xoh safarda biror joyda ozgina to'xtab qolsa, albatta bir xayrli ishni amalga oshirishni rejalashtiradi, deb yozgan edi, tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiy [15,

B.194]. Sohibqironning xayriya bobida qilgan ishlaridan biri sifatida 1381 yil Xurosonga yurishi chogʻida Murgʻob vodiysida toʻxtab, u yerda koʻplab ariqlar chiqarishni buyurgan [2, B.132]. Shuningdek, Amir Temur 1403 yili Qorabogʻda qishlab qolgan vaqtida Baykalon shahrini [4, B.132] qayta tiklashga buyruq bergan. Sohibqironning bunday xayrli ishlariga yana koʻplab misollar keltirish mumkin. Jumladan, “Biz hazrati Temurni buyuk bunyodkor deb boshimizga koʻtaramiz. Roʻyi zaminning sayqali boʻlmish Samarqandda, Shahrisabz, Buxoro, Toshkent va sohibqiron barpo etgan bepoyon saltanatning boshqa hududlarida bunyod etilgan nodir meʼmoriy obidalar, tengsiz bogʻu rogʻlar Temurbek bobomizga xos amaliy shijoat samarasidir” [6, B.167] – deb bejiz aytilmagan edi.

Bunday yuksalish, ayniqsa, Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulugʻbek (Muhammad Taragʻay Koʻragoniy) zamonasida ham davom etgan. Mirzo Ulugʻbek saltanat hukmdori va mashhur astronom boʻlishi bilan bir qatorda mamlakatda adolat oʻrnatishga, ilm-fan rivojini taʼminlashga homiylik qilgan. Uning davrida bugun jahonga dongʻi ketgan Samarqand rasadxonasi qad koʻtardi, qator masjid, madrasalarni qurish nihoyasiga yetkazildi, uning atrofida jam boʻlgan ilm ahliga, madrasalar talabalariga yetarli sharoit yaratib berishga harakat qilindi, hukmdorlar oʻrtasidagi urush-nizolarni bartaraf etishga alohida eʼtibor qaratib kelindi, xalq farovonligi va yurt obodonchiligini amalga oshirishni oʻzining oliy maqsadi deb bildi. Ulugʻbek Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda oʻnlab masjidlar, hammomlar, karvonsaroylar, yoʻllar, shifoxonalar qurdirdi. Bular ichida eng mashhuri 1414-1428 yillari Samarqand yaqinidagi Obi-Rahmat yoqasida qurilgan rasadxonadir. Odamlarga mehribonlik qilish, qiyin sharoitlarda ularga hamdard boʻlish har bir kishining Alloh oldidagi muqaddas burchi ekanligini eʼtirof etib, Mirzo Ulugʻbek koʻp jabr va ortiqcha zulm oʻtkazgan Ashraf ibn Temirtosh, ibn Choʻpon Sulduz kabi xonlarni qoralagan. Ulugʻbek bandalarining kattasi hamda kichigining ham boshini marhamat qoʻli bilan siylagan Toʻqta Boyxon va Tarmashirxon ibn Duvo Chechxon kabi hukmdorlarning nomlarini hurmat bilan tilga oladi [7, B.231, 249-250].

Zamonasining yetuk olimi Abdurahmon Jomiy saxiylik deganda, evaziga biror narsa talab qilmaydigan, beminnat va xolis yordamni

tushungan. “Sahovat, - deb ta’kidlaydi Jomiy, - biror narsaga qarab yoki evaziga biror narsa talab bo’lsa, hatto talab etilgan narsa maqtoov va minnatdorchilik bo’lgani taqdirda ham, u sahovat emas” [1, B.14].

“XV-XVI asr Samarqand hujralari” nomi bilan O.D.Chexovich tomonidan nashrga tayyorlangan vaqf hujjatlari to’g’risidagi kitobda Xoja Ahror Valiyning Temuriylar saroyidagi baland martabasi, uning O’rta Osiyo va Afg’onistondagi ulkan boyliklari, son-sanoqsiz mulklari haqida guvohlik berilgan [5, B.12]. Naqshbandiya tariqatining nazariy, amaliy jihatlari boyitib, bu ta’limotning mashhur bo’lishiga hissa qo’shgan Hazrat Hoja Ubaydulloh Ahror o’z xo’jalik faoliyatidan olgan daromadning ko’pgina qismini, shaxsiy mablag’larini madrasa, xonaqoh va masjidlar qurish, mudarris va talabalar, xonaqoh qo’noqlari, masjid xizmatchilarini moddiy ta’minlash ba’zan esa bir shahar aholisi boshiga tushgan og’ir soliqlarni to’lash, muhtojlarga doimiy tarzda xayr-ehson qilish kabi ishlarga sarf qilgan. Jumladan, Muhammad Qozining “Silsilat ul-orifiyn” asarida bayon qilinishicha, umrining oxirlarida Toshkentga borganida qahatchilik va vabo tufayli Turkistondan ko’chib kelganlarga har kuni qo’y, mol so’yib, non yoptirib, beg’araz yordam ko’rsatganlar [8, B.87-88]. Shuningdek, Umarshayx Mirzo Toshkent aholisidan 250 000 dinor hajmida soliq talab qilganida Xoja Ahror bu mablag’ning hammasini o’zi to’lab, yana 70000 dinorni ham soliq yig’uvchilarga topshirgan. Shuningdek, Xoja Ahror tomonidan Samarqandda, Toshkentda va Qobulda ham madrasalar qurdirilganligi haqida manbalarda uchraydi [9, B.11].

O’zbek adabiy tilining asoschisi, Temuriylar davri ilm-fan homiysi, mutafakkir, davlat arbobi Alisher Navoiy ijodida mehr va muruvvat, xayru-ehson, xayru saxovat, saxiylik g’oyalari o’ziga singdirgan ahloqiy tarbiya masalalari katta o’rin tutadi. “Hayrat ul-abror” asarining beshinchi maqolasida Navoiy xayru ehson (karam) masalasiga to’xtaladi. Bu bobda ham shoir o’z fikrlarini chiroyli, silliq bayon etishga harakat qiladi. Uning mulohazalariga ko’ra, xayr saxovat shunday ulug’ narsaki, uni davlatmand odamning boshidagi toj (afsar)ga o’xshatish mumkin. Shu tojga qadalgan qimmatbaho gavharni esa karam deb tasavvur etsa arziydi. Navoiy fikricha, xayru saxovat ko’rsatishga qodir odam hech mahal baxillik (buxl)

yo'lini tutmasligi, boylik darajasiga erishganidan xursand bo'lib, Oллоh taologa shukrlar qilib yashashi zarur. Alisher Navoiy butun umri davomida xalqparvarlik va vatanparvarlik g'oyalari yuksak badiiy mahorat bilan umrboqiy asarlarida ifodalash bilan cheklanib qolmay, amaliy faoliyatida millat va davlat ravnaqi yo'lida tinimsiz faoliyat olib borgan. Alisher Navoiy xayriya va homiylikka oid fikrlarni bildirish bilan birga, uni amalga oshirishga ham harakat qilgan. U butun umrini, butun kuchini, butun mablag'ini mamlakatni obod qilish, ilm va ma'rifatni rivojlantirish yo'lida sarflagan. Navoiy xalq foydasi uchun ulkan va mahobatli madrasalar, kutubxonalar, kasalxonalar, hammomlar, rabotlar, hovuz, ko'prik va boshqa binolar qurdirgan. Tarixchi Xondamir Alisher Navoiy qurdirgan imoratlar orasida 52 ta rabot, 19 ta hovuz, 16 ta ko'prik, 8 ta hammom, ko'plab masjid, 12 ta madrasa, 5 ta maqbara, kutubxona, shifoxona va boshqa binolar borligini birma-bir ko'rsatib o'tadi [1, B.23].

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra Xurosonda, xususan, Hirot va uning atroflarida Navoiy va uning safdoshlarining tashabbusi bilan 300 dan ortiq jamoat binolari, shuningdek, istirohat bog'lari, sug'orish inshootlari, hovuz, ariq, ko'prik, suv omborlari, to'g'onlar qurilgan. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy qurdirgan binolar, sug'orish inshootlaridan xalq ommasi keng ko'lamda foydalanganlar. Alisher Navoiy yangi binolar qurish bilan birga eski binolarni ta'mirlashga ham e'tibor berdi. Jumladan, u ta'mir ettirib, zeb berdirgan Jome' masjidi hovlisining uzunligi 114 metr, eni 84 metr bo'lib, uning 6 ta darvozasi bo'lgan. Bu Jome' masjidi hozir ham Hirotning eng go'zal me'moriy obidalaridan biri hisoblanadi [9, B.13]. Navoiy Hirotida Injil daryosining yoqasida Ihlosiya, Qudsiya, Safoiya, Shifoiya va Unsiya nomli mahobatli binolar barpo qildirgan. Unsiyada o'zi yashab mukammal kutubxonaga asos solgan. Ushbu kutubxonadan o'z zamonasining barcha ilm va san'at arboblari foydalangan. Xuroson va Astrobod yo'lida Raboti Ishq, Tus va Hirot yo'llarida Raboti Sangbast, Nishopur yonida Dirobod singari karvonsaroylar soldirgan. O'z mablag'lari hisobidan Tus viloyatining yuqori tomonida bo'lgan Chashmai Guliston bulog'idan Mashhadga suv keltirish uchun o'nta tosh keladigan yergacha ariq qazish ishini amalga oshirgan. "Badoe' ul vaqoe'" ("Nodir voqealar") asarining muallifi Vosifiy o'z asarida bir kun Alisher

zamonining, atoqli artisti, hajvchisi Abdulvosiyning ijodini taqdirlab uni o'ng ming tanga pul, ziynatli egar anjomi bilan bir ot, eng yaxshi movutdan tikilgan chakmon bilan mukofotlaganini so'zlaydi. Alisher Navoiy hatto umrining so'nggi yillarida ham xayrli ishlarni mutassil davom ettirgan. Misol uchun, 1500 yilda Hirot shahri va uning atrofidagi aholidan 100 ming kebekiy [14, B.218] soliq to'lash talab etilganda va 50 ming kebekiyni Hirot ahlidan undirib olishga buyruq berilganda Navoiy hozirgi fursatda xalqqa o'rinsiz soliq solish Sulton Husain Boyqaro davlatiga munosib bo'lmas, elda norozilik uyg'otar, deb shuncha pulni o'zi to'lab yuborgan. Alisher Navoiyning butun yer-suvi, mol-mulkidan har kuni 18 ming shohruhiy dinor miqdorida daromad kelishiga qaramay, bu pullar yuqoridagi kabi xayrli ishlarga sarf etilgan [3, B.54]. Alisher Navoiyning g'amxo'rliigi va homiyliigi ostida bu davrda Xondamir, Mirxond, Davlatshoh kabi yetuk tarixchilar, Behzod, Shoh Muzaffar kabi iste'dodli rassomlar, usta Muhammad Sabziy, usta Kavomiddin kabi kuchli arxitektorlar, Sulton Ali kabi mashhur hattotlar, Husayn Udiy, Qulmuhammad nayi kabi buyuk musiqashunoslar yashab ijod etganlar. Navoiy g'amxo'rliigi va rahbarligida olimlar tomonidan yigirmaga yaqin tarixiy, ilmiy asarlar yaratilgan [11, B.14-16].

Xulosa o'rnida, shuni aytish joizki, xalqimiz ulug' fazilatlari xayriya va homiylik faoliyatining natijasi eng avvalo, jamiyatda bunyodkorlik ishlarining amalga oshganligida, jamiyat aholisining moddiy-ma'naviy yuksalishida ko'rinadi. O'zbekiston tarixining turli davrlarida jumladan, Temuriylar davrida hukmdor, davlat arboblari, olim va mutaffakirlar tomonidan shaxsga, xalqga, vatanga bo'lgan e'tibor o'z ijod va ijtimoiy faoliyatlari mag'zida ifodalangan. Tarixiy shaxslar o'z zamonasidagi xalqlarni ulug'lab, umuminsoniy fazilatlarni targ'ib etish orqali ularni baxtiyor qilish yo'lida xizmat qilganlar. Ular amalga oshirgan xayrli ishlar bugungi kunda yodga olinib, hamon e'zozlanib, qadrlanib kelinadi. Vatanimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan olimlar va shaxslarning homiylik bobida olib borgan mislsiz faoliyatlari zamondoshlarimizni, birinchi galda, yosh avlodni vatanga sodiq farzand ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliqulov X. va boshqalar. Homiylik va sahovat – eng oliy qadriyat. Toshkent: I.M.Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti, 2006. - B. 14.
2. Amir Temur saboqlari. (Ikkinchi qism) 1998 yil Toshkentda “Amir Temur ilm-fan va madaniyat homiysi” mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa’nat nashriyoti, 1999. – B. 132.
3. Aziz Qayumov. Alisher Navoiy. Toshkent, 1976 y. – B. 54.
4. Baykalon shahri - Araks va Qua daryolari birlashadigan mavze yaqinidagi o‘rta asr shahri; 1221 yili mo‘g‘ullar istilosi davrida vayron qilingan va 1403 yil Amir Temur farmoni asosida bir oyda qayta tiklangan. Amir Temur saboqlari. (Ikkinchi qism) 1998 yil Toshkentda “Amir Temur ilm-fan va madaniyat homiysi” mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari.– Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa’nat nashriyoti, 1999. – B. 132.
5. Boltaboyev S.D. Turkistondagi vaqf mulklari tarixi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Namangan, 2005. – B. 12.
6. Karimov I.A. Xalqimiz bor ekan, Amir Temur nomi barhayotdir. “Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi”. 5-tom. Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – B. 167.
7. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. B.Axmedovning tahriri ostida. Toshkent: CHo‘lpon, 1994. – B. 231, 249-250.
8. Rahmatova X.H. Xoja Ahror Valiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari. Monografiya. – Buxoro, 2014. – B. 87-88.
9. Saxovatli insonlar va salomatlik posbonlari: Metod.- bibliogr.qo‘ll. - Toshkent: Alisher Navoiy nom. O‘zbekiston Milliy k-nasi nashriyoti.- 2006. - B. 13.
10. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘.G‘ulom nashriyoti, 1991. – B. 67.
11. Uyg‘un. Alisher Navoiy. Oybek muxarrirligi ostida: Toshkent: O‘zSSR “Fan”, 1942. – B. 14-16.
12. Xayrullayev M.M. Ma’naviyat yulduzlari. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. – B. 12.

13. Xoliqulova H. O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan shahslarni himoya qilish siyosati (1991-2014 yy). PhD diss. – Toshkent, 2018. – B. 24-25.

14. Chig‘atoy ulusi xoni Kebekxon tomonidan 1321 yilda pul islohoti o‘tkazilgan. Xulagiylar va Oltin O‘rda tangalariga taqlidan ikki xil: Og‘irligi 1.4. grammga teng kumush tanga – dinor va mayda kumush tanga – dirham zarb ettirishni yo‘lga qo‘ygan. Kebekxon tomonidan yagona umudavlat pullari muomilaga kiritilib, ular Kebekxon nomidan (kepakiy) asosan Buxoro, Samarqand va O‘ror zarbxonalarida zarb qilinib, uning qiymati 6 ta (bir kumush tanga 6 ta kumush dirhamga to‘g‘ri kelgan) kichik dirhamga teng edi. Qarang: Eshov B. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi. Toshkent, 2012. – B. 218.

15. Sharafuddin Ali Yazdiy. “Zafarnoma”. A.O‘rinboyev tahrirligi ostida. Toshkent: Sharq, 1997. - B. 194.

SOHIBQIRON QO‘SHINIDAGI JANGOVAR BOSHQARUV

A.Sh.Xudayarov,

Taktika, umumqo‘shin tayyorgarligi va gumanitar fanlar kafedrasi o‘qtuvchisi, podpolkovnik

F.M.Saydjanov,

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti kafedrasi siki boshlig‘i, podpolkovnik

Sohibqiron qo‘shinidagi jangchilarga doimiy maoshlar to‘langan. Maoshning hajmi xizmatni qanday olib borilishiga bog‘liq bo‘lgan. Oddiy askar 2 tadan 4 tagacha otning bahosiga teng bo‘lgan maosh, o‘n begi – o‘z o‘nligining maoshiga teng miqdordagi maoshni olgan (shuning uchun u o‘z jangchilarining yuqori maoshga erishishlaridan manfaatdor bo‘lgan); yuz begiga oltita o‘nlikning maoshiga teng miqdordagi maosh to‘langan va hokazo. Intizomiy jazolarning turlaridan biri maoshning o‘ndan bir qismini ushlab qolish bo‘lgan.

Qo‘shindagi yengil piyodalar ham bo‘lib, ular safarda otlarda harakatlanganlar, jang olib borishda esa, kamondan nishonni bexato urish

uchun arablarga o'xshab otlardan tushib piyoda holda jang qilganlar. Piyoda jangchi qilich, 30 ta o'qqa ega bo'lgan kamon bilan qurollangan. Yengil piyodalar baland pastliklarda harakatlanish va shaharlarni qamal qilish uchun qo'llanilgan. Bundan tashqari, Amir Temur tog'larda harakatlanish uchun maxsus otryadni (tog' piyodalarini) tashkil etgan. [1]

Armiya qat'iy tashkiliy tizimga va aniq saflanish tartibiga ega bo'lgan. Har bir jangchi o'z o'nligidagi joyini bilishi, har bir o'nlik yuzlikdagi joyini bilishi kerak bo'lgan va hokazo. Harbiy qismlar saflarda yaxshi harakatlana olgan va anjomlari, kiyim-boshlari va bayroqlarining rangi bilan bir-birlaridan ajralib turgan.

Ba'zi otryadlar otlarining rangi bilan ham farq qilgan. Amir Temur davrida harbiy yurishdan oldin ko'riklar o'tkazish to'g'risidagi qonun og'ishmasdan bajarilgan. Jang uchun katta va tekis maydon tanlangan, bunda suv va otlar uchun yem-xashakning yaqin bo'lishiga, quyoshning o'z jangchilarining ko'ziga tushmasligiga katta e'tibor berilgan. Jangovar tartib front, ayniqsa chuqurlik bo'ylab yoyilgan. Markazni kuchsizlantirishda dushmanni qurshab olish vositasi hisoblangan qanotlar kuchaytirilgan. Hal qiluvchi zarbani berish uchun Amir Temur kuchli zaxira yaratgan.[2]

Yirik janglar davrida rang-barang jangovar bayroqlar bilan bezatilgan Bosh Qo'mondon chodiri (*bargoh, saroparda*) jangni boshqarish oson bo'lishi uchun balandlikda o'rnatilgan. Odatda, Bosh Qo'mondonning chodiri oldida harbiy orkestr uzluksiz nog'ora chalib, askarlarning jangovar ruhlarini ko'targan.


Amir Temur qo'shini to'g'ri safga va bir nechta jangovar chiziqqa ega bo'lib, ular birin-ketin jangga kiritilgan va oxirida ketma-ket hujumlar bilan dushman holsizlantirilib, kuchsizlantirilganidan keyin eng yaxshi jangchilardan tashkil topgan, doimo g'alabani ta'minlovchi qudratli zaxira jangga kiritilgan.

Qo'shinda chekinib, mustahkamlangan inshootlarda yashiringan g'anim qamal qilingan. Qal'alarining qalin devorlari oldida devor buzuvchi (*manjaniq*) va tosh uloqtiruvchi (*arroda*) to'plar o'rnatilgan. To'plar (ra'd) harakatga keltirilgan. Devor va minoralarining ostidan yerto'lalar kovlangan. Devorlarda bo'shliqlar hosil qilingan. Shu bo'shliqlardan

jangchilar quyundek qal'a ichiga bostirib kirganlar. Shturm davrida himoya qalqonlari (to'ra), shotilar, halqalar, arqon va boshqalardan foydalanilgan.[3]

Jadval 1

Amir Temur qo'shini jangovar tartibining tuzilish chizmasi




Amir Temur qo'shini to'g'ri safga va bir nechta jangovar chiziqqa ega bo'lib, ular birin-ketin jangga kiritilgan va oxirida ketma-ket hujumlar bilan dushman holsizlantirilib, kuchsizlantirilganidan keyin eng yaxshi jangchilardan tashkil topgan, doimo g'alabani ta'minlovchi qudratli zaxira jangga kiritilgan.

Chekinib, mustahkamlangan inshootlarda yashiringan g'anim qamal qilingan. Qal'alarning qalin devorlari oldida devor buzuvchi (*manjaniq*) va tosh uloqtiruvchi (*arroda*) to'plar o'rnatilgan. To'plar (ra'd) harakatga keltirilgan. Devor va minoralarning ostidan yerto'lalar kovlangan. Devorlarda bo'shliqlar hosil qilingan. Shu bo'shliqlardan jangchilar quyundek qal'a ichiga bostirib kirganlar. Shturm davrida himoya qalqonlari (to'ra), shotilar, halqalar, arqon va boshqalardan foydalanilgan.[3]

Amir Temur armiyasida kavaleriya hujumining tashkil etilishi, uning strategiya va taktikasi o'zining takomillashgan darajasiga yetdi. Amir

Temur armiyasida muhandislik qismlari va bo‘linmalarining birinchi namunalari bo‘lib, ularga katapultalar, neftdan tayyorlangan yonuvchi moddani uloqtiradigan va qal’a devorlarini portlatuvchi moslamalar kirgan. Uning armiyasida o‘sha vaqtning eng zamonaviy texnikalari – qamal qilish texnikasi, yonib turgan neft to‘ldirilgan xurmachalarni uloqtiruvchi ballistalar qo‘llanilgan. Amir Temur qo‘shinida daryolardan kechib o‘tishni ta’minlovchi mutaxassislar – pontonchilar ham bo‘lgan. Fan va texnikaning yutuqlari, ayniqsa, Xitoy texnikasining yutuqlari keng foydalanilgan.

Jadval: 2




Sohibqironning qoidasiga ko‘ra, yaxshi boshliq g‘anim otryadining sonini bilgach, unga qarshi o‘z otryadlarini qarshi qo‘ya olishi, dushman harakatlarini kuzatishi, uning o‘qchilari, nayzachilari, qilichbozlarining holati qanaqa ekanligini, ular tezkorlik bilan yoki sust hujum qilyaptimi, hammasi birgalikda hujumga o‘tdimi yoki qismlarga bo‘linibmi, bularning hammasini bilishi kerak, jang maydoniga hujum uchun kirish yo‘llarini,

kerak bo'lganda chekinish yo'llarini bilishi, dushmanning maqsadini anglab yetishi va uning jangovar tartibiga yorib kirishga harakat qilishi kerak. Bundan tashqari u pistirmaga tushib qolmaslik uchun ehtiyotkorlik bilan harakat qilishi, jangning butun mohiyatini tushunishi, dushmanning niyatini anglashi va uning rejalarini buzib tashlash uchun hamma vositalarni ishga solishi kerak.[4]

«Sardor qirq ming chavandozlarni o'n to'rtta qismlarga quyidagi tartibda tuzishi kerak bo'lgan: u o'z jangovar chizig'ini tuzadi va uni markaz deb nomlaydi. Uch qism arergardni tashkil etadi (yoki o'ng qanot korpusi). Uchta qismdan biri ilg'or nomini oladi (mana shu arergardning ilg'ori). Chap qanotni tashkil etgan uch qismning biri uning uchun ilg'or bo'lib hisoblanadi. Xuddi shunday uchta boshqa qismlar o'ng qanot arergardining oldida joylashgan bo'lib, uning fronti bo'ladi, bu uchta otryadlardan biri chap qanot fronti uchun avangard bo'lib xizmat qiladi. Chap qanot ham xuddi shunday sondagi qo'shından iborat bo'ladi va ular uning frontini tashkil etadi.


Jadval: 3



Bitta qism, oldingiga o'xshab chap qanot avangardi bo'lib xizmat qiladi. Keyin u asosiy otryadini markaz qo'shinlari oldida saflagan. Avangardning safiga: kamonchilar, qilichlar bilan qurollangan jangchilar, nayzachilar, dushman avangardiga tartibsizliklarni keltirib chiqarish uchun baland ovozda baqirib jang qiladigan jasur va tajribali jangchilar kiritilishi kerak», deb yozilgan.

«Tuzuklar»da – «Bosh qo'mondonning e'tiboridan dushmanning hech bir harakati chetda qolmasligi kerak, o'ziga bino qo'ygan harbiy boshliq buyruqsiz oldinga harakat qilishni boshlasa jazolanishi kerak», deb ta'kidlangan. Avval jangga avangard kirgan, keyin o'ng va chap qanot avangardlari, undan keyin o'ng va chap qanotda turgan otliq bo'linmalar kirgan, ularning ortidan o'ng qanotning ikkinchi otryadi va chap qanotning birinchi otryadi harakatlangan. Agar jang olib borayotgan jangovar chiziqni ikkinchi chiziq qismlari bilan to'ldirish yetarli bo'lmasa va o'n uchta hujum jangning oqibatini hal qilmasa, unda bosh qo'mondon ikkilanmasdan jangga saralangan jangchilardan tashkil topgan o'z zaxiralarini kiritishi kerak bo'lgan. Agar shunda ham g'alabaga erishilmasa, bosh qo'mondon o'zi dadillik bilan jangga kirishi va shaxsiy namuna ko'rsatib jangchilarning ruhlarini ko'tarishi kerak edi. Bosh bayroq nazardan chetda qolmasligi kerak bo'lgan.[2]

Jadval: 4



40 bo'linmadan iborat qo'shinning saflanish tartibi.

Agar g'animning armiyasi qirq ming kishidan oshsa, unga qarshi Amir

Temurning o'zi qo'shinni boshlagan. Bu vaqtda uning qo'shini jangni olib borish uchun quyidagi tartibda bo'lingan: qirqta otryaddan tashkil topgan armiya ichidan o'n ikkita otryadni tanlagan va ularga ajralib turuvchi belgi (*tamg'a*) bergan; ular qirqta *aymoqlarga* bo'lingan. Ulardan eng saralangan o'n ikkitasi birinchi jangovar chiziqni, qolgan yigirma sakkiztasi esa – ikkinchi va uchinchi chiziqni tashkil etgan. O'g'illari va nabiralari qo'mondonligidagi qo'shinlar o'ng qanotning oldiga, qarindoshlari va ittifoqchilari boshchiligidagi qo'shinlar – chap qanotning oldiga saflangan. Bu qo'shinlar zaxirani tashkil etgan va qaerga yordam kerak bo'lsa, o'sha yerga yetib kelgan.

Oltita aymoq o'ng qanotning asosini yoki ikkinchi chizig'ini va bittasi – uning avangardini tashkil etgan, shuncha aymoqlar, xuddi shu tartibda chap qanotning asosini tashkil etgan; ikkinchi chiziqning ikkala qanotlari oldida birinchi, shu tartibda va shuncha sondagi aymoqlar birinchi chiziqning fronti ortida shuncha aymoqlardan iborat, tajribali qo'mondonlar va jasur jangchilardan iborat katta avangard qo'yilgan; bu avangardning oldida, o'zining shaxsiy avangardi hisoblangan yana bitta aymoq, dozor va raz'ezdlar sifatida ikkita yengil qo'shin otryadi joylashgan, ular armiyani to'satdan beriladigan zarbalardan himoya qilgan va dushmanni kuzatgan.[3]

Yengil qo'shinlar va ilg'or avangard jangni boshlagan; bosh avangardning boshlig'i ularni kuchaytirgan va o'z qo'shinlarini jangga kiritgan, agar yordam kerak bo'lsa, birin-ketin jangga birinchi, keyin ikkinchi chiziqni kiritib hujumni kuchaytirgan. Agar bu yordam ham yetarli bo'lmasa, unda o'ng va chap qanot zaxiralari, ya'ni Amir Temurning o'g'illari, nabiralari, qarindoshlari va ittifoqchilari boshliq qo'shin jangga kirgan.

TEMURIYLAR DAVRINING JANGCHILARI XV–ASR (BEHZOD MINATYURASIDAN)



Qo'shinni yig'ish va ta'minlash. Qo'shinni boshqarish. Amir Temur qo'shinida to'xtovsiz takomillashib borayotgan muntazam

armiyaning ko'pgina xususiyatlari mujassamdir: qo'shinning aniq soni, jangovar tartibi (yosol) belgilangan.

Kavaleriya qismlari ko'p hollarda bir-birlaridan nafaqat kiyim-boshlari, bayroqlari va anjomlarining ranglari, balki otlarining rangi bilan ham farq qilgan. Bunday farq jang paytida qo'shinni boshqarishda katta rol o'ynagan. Dushmanga nisbatan ustunlik otliqlarning yuqori harakatchanligi va Amir Temur tomonidan ularni mohir manyovr qilinishi bilan ta'minlandi.

Turli usullar bilan dushmanning mudofaa tizimini yakson etish, g'animning yirik va yaxshi mustahkamlangan ob'ektlariga to'satdan hujum qilish, dushman tomonining hukmdorlari va taniqli harbiy boshliqlarini asirga olish, qurshab olingan shahar-qal'alarni uzoq vaqt qamal qilish, birma-bir qishloqlar, tumanlar, shaharlar va viloyatlarni zabt etish, dushmanni to'liq tor-mor etilgunigacha ta'qib etish, zabt etilgan hududlarni boshqarish uchun o'zining sodiq kishilarini tayinlashdek strategik maqsadlarni ketma-ket amalga oshirilishi Amir Temurga ko'plab g'alabalar olib keldi.[3]

Uning harbiy ishni rivojlantirishga qo'shgan katta hissasi butkul yangi ko'rinishdagi kavaleriya qismlarini (*kunbul, kumbul*) joriy etganidan iborat bo'lib, u nafaqat o'z qanotlarini himoya qilish uchun, balki dushman qanotlarini aylanib o'tish va front ortiga zarba berish uchun ham mo'ljallangan.

Otliq qo'shin armiyaning zarbdor qismini tashkil etib, yengil hamda og'ir otliqlarga bo'lingan. Yoylar, o'qdonlar, qilichlar bilan qurollangan yengil otliqlar razvedka bilan shug'ullangan, qo'riqlash xizmatini olib borgan va kerak bo'lgan hollarda dushmanning ilg'or otryadlariga qarshi jangga kirgan.

Saralangan jangchilar va zodagonlardan tuzilgan og'ir otliqlar dushmanning asosiy zarbdor kuchlariga qarshi jang olib borgan bo'lsa, chavandozlar nayza, dubulg'a, zirh, qilich, yoy, o'qlar solingan sadoq bilan qurollangan.

Harbiy yurishdan oldin Amir Temur odatda harbiy kengash (*mashvarat*) chaqirgan, unda harbiy boshliqlar, beklar va amirlar ishtirok etgan. Davlatning turli qismlaridan, Oliy Bosh Qo'mondonning adyutanti

(*tavochi*) yetkazgan maxsus buyruqqa (*muchalkaga*) binoan qo‘shin yig‘ilgan. Jangchilarni yig‘ishdan tashqari tavochilarning majuriyatlariga qo‘shinni joylashtirilishi, uning harakatlanishi va jangovar tartibini nazorat qilish ham kirgan.

Amir Temur o‘z qo‘shinini jangga olib borishda uning hamma kerakli narsalar bilan ta‘minlanishiga, lagerlarda joylashishiga alohida e‘tibor bergan.

Sohibqironning buyrug‘iga binoan viloyatlar hukmdorlari, tumanlar va shaharlar beklari, qal‘alar boshliqlari (*dorug‘a*) ro‘yxat bo‘yicha ko‘rsatilgan muddatda o‘z qo‘shinlari, anjomlari, oziq-ovqatlari bilan oldindan ko‘rsatilgan yerga (*miod yeri*) yetib kelgan.

Amir Temur To‘xtamishga qarshi Dashti Qipchoqqa harbiy yurishni uyushtirishdan oldin (1390–1391) o‘zining o‘rinbosarlariga qo‘shinni uzoq davrga yetadigan oziq-ovqat, qurol-yarog‘ va boshqa kerakli narsalar bilan ta‘minlashga buyruq bergan. Har bir jangchi bitta yoyga, o‘ttizta o‘qqa, bitta kamondonga, bitta qalqon va bitta zaxira otga ega bo‘lgan. Safar chog‘ida har o‘nta jangchiga bitta chodir, ikkita belkurak, kirka, o‘roq, arra, bolta va yuzta igna berilgan.[2]

Bundan tashqari, har bir jangchi o‘zi bilan arqon, teri va qozon olib yurgan. Oddiy jangchilar safar chog‘ida o‘n sakkiz kishiga bitta chodir olib yurgan. Ularning har biri yonida ikkita otni yetaklab yurgan, o‘zi bilan yoy, zirh, qilich, o‘qdon, qop, o‘nta igna, bolta, arra va teridan tikilgan qop olib yurishi kerak bo‘lgan.

Jangchilar chodirlarda beshtadan bo‘lib joylashgan. Ko‘zda tutilgan ta‘minot bo‘yicha ularning har biri dubulg‘a, zirh, qilich, yoy, o‘qdon va ot bilan ta‘minlangan. O‘n begi alohida chodirga joylashgan. U zirh, qilich, yoy, kamondon bilan qurollangan. U o‘zi bilan beshta qo‘shimcha otni olib yurish huquqiga ega bo‘lgan.

Yuz begiga ham alohida chodir berilgan. Uning qurol-yarog‘larini qilich, yoy, zirh, o‘qdon, gurzi, to‘qmoq va kolchugalar (simdan tayyorlangan halqachalarni bir biriga o‘tkazib to‘qilgan ko‘ylak) tashkil etgan. Yuz begiga qo‘shimcha o‘nta ot berilgan.

Ming begi chodirdan tashqari soyabonga ega bo‘lib, qurol-yarog‘lari nayza, qilich, o‘q-yoy, dubulg‘a, zirh (*chax, oroyna*), kolchugalardan iborat bo‘lgan.

Piyodalar harbiy yurishlar paytida qilich, yoy va kerakli sondagi yoyning o‘qlari bilan qurollanib harakatlangan.

Qo‘shin bilan birgalikda bir joydan ikkinchi joyga qassoblar, oshpazlar, qovurilgan va qaynatilgan go‘sht sotuvchilar, nonvoylar, arpa, meva sotuvchilar ko‘chib yurgan. Jangchilarga ko‘chma hammomlar xizmat ko‘rsatgan. Yurishlarda nafaqat jangchilar, balki qo‘shinga xizmat qiluvchi ko‘p sonli ma‘muriyat ham ishtirok etgan. Bu yerda temirchilar, qurolsozlar, duradgorlar, teriga ishlov beruvchilar, yer qazuvchilar, xo‘jalik ishlarini bajaruvchilar va boshqalar bo‘lgan. Amir Temur qo‘shini safarlarida harakatlanayotgan jangovar qo‘shin korpusi ortidan yirik qurolsiz omma harakat qilgan.

Qo‘shinni yig‘ish to‘g‘risidagi qaror chiqqanidan keyin, jangchilar o‘z oilalari, anjomlari, oziq-ovqatlari bilan birgalikda belgilangan joyga yetib kelgan. Lagerning (*o‘rdagohning*) markazida Oliy Bosh Qo‘mondonning qarorgohi, shuningdek, turli-tuman qismlar va oddiy jangchilarning chodirlaridan tortib yirik harbiy boshliqning chodirigacha bo‘lgan birlashmalarning chodirlari joylashgan, har bir kishi o‘zining joylashgan o‘rnini juda yaxshi bilgan.

Lagerda Oliy Bosh Qo‘mondonning rang-barang bayroqlar bilan bezatilgan chodiri (*bargoh*) o‘rnatilgan. Ko‘rsatilgan vaqtda (*miod vaqti*) lagerga yetib kelgan jangchilar, joriy etilgan tartibga ko‘ra o‘z joylarini egallagan va qo‘shin ko‘rigiga tayyorgarlik ko‘rgan.

Kerakli sondagi jangchilar yig‘ilganidan keyin, harbiy lagerda kamonchilar, arbaletchilar, tosh uloqtiruvchilar, nayzachilar, to‘pchilar va boshqalardan tashkil topgan ulkan qo‘shinning ko‘rigi bo‘lgan. Qo‘shinda yonuvchi aralashma (*naft*) solingan xurmachalarni uloqtirish uchun maxsus askarlar bo‘lib, ular o‘t otuvchi qurollarning to‘xtovsiz ishlashlarini ta‘minlaganlar.[1]

Oliy Bosh Qo‘mondonning buyrug‘iga ko‘ra, jangchilar himoya sovutlarida, to‘liq qurol-yarog‘lari bilan saflanganlar. Ko‘rik o‘tkaziladigan maydonda turli qismlarga tegishli bo‘lgan yashil, qizil,

sariq, binafsha, qora, ko‘k bayroqlar hilpirab turgan. Harbiy orkestr sadosi ostida Amir Temur navbatma-navbat jangchilar sherengalari oldidan o‘tgan. Jangchilar nayzalarini baland ko‘tarib, bo‘lajak jangga tayyor ekanliklarini namoyon etib baland ovozda na’ra (*suron*) tortganlar.

Jangchilarning jangovar ruhi va tayyorgarligini aniqlash uchun yurishlar va janglardan oldin harbiy ko‘rikning o‘tkazilishi Temuriylar davrida ham an’ana bo‘lib qoldi. Ko‘rikda nafaqat qo‘shin birlashmalari, balki asosiy kuchlarning ortidan harakatlanadigan ta’minot aravalari ham ishtirok etgan.

Lagerning atrofi chuqur xandaqlar bilan o‘ralgan va qo‘riqlash zastavalari va postlari bilan puxta qo‘riqlangan. Lagerda o‘rnashgan vaqtlarda qo‘shin qo‘riqlash xizmatini olib borgan. Qo‘riqlash qismlari lagerdan 5–6 km oldinga chiqqan, undan postlar, postlardan soqchilar ajratilgan va oldinga yuborilgan.

Ta’kidlash kerakki, Amir Temur qo‘shinni boshqarishga katta ahamiyat bergan.

Sohibqironning buyrug‘i bo‘yicha dongdor komandirlardan to‘rttasi birinchi darajali qo‘mondon – *beklarbegi* lavozimiga tayinlangan. Bitta harbiy boshliq bosh qo‘mondon *amir-ul-ulamo* vazifasiga tayinlanib, u bevosita Oliy Bosh Qo‘mondonga bo‘ysungan.

Harbiy qismlarni boshqarish uchun yana o‘n ikkita harbiy boshliqlar tayinlangan. Birinchi bek mingta chavandozlardan tashkil topgan birinchi guruhga, ikkinchi bek – ikki ming kavaleriyachilardan iborat ikkinchi guruhga qo‘mondonlik qilgan, uchinchi bek uch minglik kavaleriyachilarga boshchilik qilgan. Xuddi shu tartibda o‘n ikkinchi bek o‘n ikki minglik otryadning tepasida turgan.

Quyida toifadagi harbiy boshliq, toifasi bo‘yicha yuqori bo‘lgan harbiy boshliqqa so‘zsiz bo‘ysungan.

Amir Temur qo‘shinining turli qismlari va bo‘linmalariga uch yuz o‘n uchta beklar qo‘mondonlik qilgan, ulardan yuztasi – o‘nbegilar, yuztasi – yuzbegilar va yuztasi – mingbegilarni tashkil etgan. Yirik qo‘shin birlashmalari Amir Temurning o‘g‘illari, nabiralari va Shayx Nuriddin, Xo‘ja Sayfuddin, Shohmalik, Ollohdod, Jahonshohdek mashhur sarkardalar tomonidan boshqarilgan.

Ragʻbatlantirishda maqtoʻv, maoshga qoʻshimchalar, sovgʻalar, lavozimlar, unvonlar (botir, bahodir va boshqalar), qismlar uchun bayroqlardan keng foydalanildi.

Uddaburonliklari va jasoratlari bilan oʻzlarini koʻrsatgan, saralangan jangchilar munosib taqdirlangan va oʻnbeigi darajasiga koʻtarilgan, keyingi jasoratlari uchun yuzbeigi, undan keyin esa mingbeigi lavozimini egallagan.

Jasur jangchilar va bahodirlar jangda koʻrsatgan jasoratlari uchun yuqori lavozimlarni egallagan va jamiyatning eʻtiborli kishilari toifasiga kirgan. Ular gurzi, chodir, maxsus belbogʻ, qilich va jangovar nayzalar bilan taqdirlangan.

Gʻanimning otryadini qirib tashlagan mingbeigi I-darajali amir unvoniga, dushmanning yirik otryadini magʻlub etgan I-darajali amir II-darajali amir unvoniga sazovor boʻlgan. Jang maydonida mardlik va jasorat namunalarini koʻrsatgan oddiy jangchining oylik maoshi oshirilgan. Jang maydonidan qochgan jangchilar oʻljani taqsimlash marosimiga qatnashish huquqidan mahrum etilgan, janglarda koʻp marta yarador boʻlgan jangchilarga gʻamxoʻrlik va katta ehtirom koʻrsatilgan.

Biror bir davlatni zabt etgan yoki dushman qoʻshinini tor-mor etgan harbiy boshliq bahodir faxriy unvoniga sazovor boʻlib, unga burgʻu va nogʻora berilgan. Biror bir gʻanim shahzodasining yirik qoʻshini ustidan qozongan gʻalabasi uchun beklar ham xuddi shunday hurmat-eʻtiborga sazovor boʻlgan.[4]

Dushman qoʻshinini qochishga majbur etgan oʻnbeigi shahar garnizonining boshligʻi (*dorugʻa*) etib tayinlangan, xuddi shunday qahramonligi uchun yuzbeigi – viloyat hokimi, mingbeigi – viloyat amiri (*vali*) lavozimiga ega boʻlgan.

U yoki bu davlatni zabt etgan amirga ushbu davlatning yeri imtiyozli asosda boshqarish uchun *suyurgʻol* (*sovgʻa*) sifatida berilgan. Amir Temur va Temuriylar davrida *suyurgʻol* yerni boshqarishning ommabop usuli boʻlib, avloddan-avlodga oʻtib kelgan.

Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan 12 amir nogʻora va jangovar bayroq olgan. Bosh Qoʻmondon nogʻora va jangovar bayroqdan tashqari, *burgʻu* va ikkita shtandartga (*tumantugʻga*, *chortugʻga*) ega boʻlgan.

Mingbegiga bayroq va karnay (*ko'raga*), yuzbegi va o'nbegiga nog'ora berilgan. Qo'shin qo'mondonining bayrog'i, nog'orasi va burg'usi bo'lgan. Kastiliya qirolligining elchisi – Klavixoning guvohlik berishicha, harbiy boshliq tinchlik davrida ko'k rangdagi, zardan tikilgan ko'ylak kiyib yurgan. Ular boshlariga telpak (*burk*) kiyib yurganlar. Bosh kiyimlarining ostidan uch qator kokillari ko'rinib turgan bo'lib, bu belgi Amir Temur armiyasining jangchilari ekanliklarini bildirib turgan.

Dushmanning harbiy kuchlari va uning mudofaa inshootlari to'g'risida, g'anim davlatining ichki ahvoli haqida aniq ma'lumotlarni olish uchun Amir Temur o'zining eng yaxshi razvedkachilarini (*josuslarni*) jo'natgan. Faqatgina kerakli ma'lumotlarni olgandan keyingina qo'shin harbiy yurishni boshlagan. U mahalliy aholi vakillaridan yo'l boshchilarni (*kajarchi, kacharchi*) tanlashga ham jiddiy e'tibor bergan.[3]

Amir Temur o'zining to'satdan beradigan zarbalari bilan mashhur bo'lgan. Dushman qo'shinining soni ma'lum bo'lganidan keyin uning armiyasi tun qorong'usida dushmanning lageriga yashirincha yaqinlashib, tongda hujumga tashlangan. Uning qo'shini qattiq intizomi, yuqori harakatchanligi, chidamliligi va janglarda jasorati bilan ajralib turgan.

Jang arafasida shakllanadigan jangovar tartibga katta ahamiyat berilgan. Qo'shin hech tomonga burilmasdan va ko'rsatilgan yo'ldan og'ishmasdan olg'a harakatlangan.

Tinchlik davrida ov (*charg'a*) asosiy mashg'ulotlardan biri bo'lgan, ovga urushga tayyorlovchi maktab singari ahamiyat berilgan va ularni ko'p uyushtirishga harakat qilingan. Amir Temurning qo'shini nafaqat tekisliklarda jang olib borish san'atiga ega bo'lgan, balki tog'larda ham mohirlik bilan harakatlangan.

Sohibqironning qo'shini harbiy yurishlarni bahor, yoz va kuzda amalga oshirgan. Qishni o'z o'tovlarida o'tkazishni afzal ko'rganlar. Harbiy yurishga o'tlanish muddati yaqinlashuvi bilan jangchilar hamma kerakli qurol-yarog'lari va anjomlarini tartibga keltirgan. Belgilangan vaqtda qo'shin saf tortib yo'lga tushgan. Uning ortidan hamma kerakli narsalar ortilgan aravalar (*ug'ruq*) harakatlangan.

Sharafiddin Ali Yazdiyning ma'lumot berishicha, belgilangan safar tartibida (*murchil*) har bir o'nbegi, yuzbegi, mingbegi va tumanbegi (*10 minglik qo'shin qo'mondoni*) o'z mavqei va darajasiga ko'ra, intizomga qattiq rioya qilgan holda harakatlangan. Tartibni buzganlar qattiq jazolangan, ularga hatto o'lim jazosi ham berilgan.

Dam olish uchun to'xtalganda, odatda, qo'shin zanjirlar va arqonlar bilan bog'langan aravalar bilan o'rab olingan. Handaqlar qazilib, ularlarning oldida to'siqlar o'rnatilgan. G'anim qo'shinining paydo bo'lishi bilan jangchilar o'z pozitsiyalaridan chiqib, jangovar tartibga yoyilib dushmanga qarshi harakatlangan.

Amir Temur qo'shini safar paytida quyidagi tartibda harakatlangan: bosh kuchlardan ancha oldinda Ularning ortidan kerakli narsalar ortilgan aravalar harakatlangan.

Asosiy joylarning birida suvdan kechib o'tish uchun joy hozirlangan. Kechuv qo'riqlash postlari bilan qo'riqlangan. Qo'shin daryodan qismlar va bo'linmalar tarkibida kechib o'tgan. Kechuv paytida jangchilar qayiqlardan, meshlardan foydalangan yoki ponton ko'priklari yasagan.

Amir Temur armiyasida o'ljani taqsimlash davrida mabodo kimdir o'zboshimchalik qilsa, hatto u Sohibqironning yaqin kishisi bo'lsa ham, qattiq jazolangan. Uning butun mol-mulki musodara qilinib, o'zi esa qatl etilgan. Faqat ruxsat berilganidan keyingina yurishning har bir ishtirokchisi, uning toifasi va darajasiga qaramasdan, o'ljaning teng taqsimlangan qismini olish huquqiga ega bo'lgan.[4]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Amir Temur – nasha gordost. Doklad na mejdunarodnoy nauchnoy konferentsii, posvyashennoy 660-letnemu yubileyu Amira Temura, 24 oktabrya 1996 g. // Karimov I.A. Mislit i rabotat po novomu – trebovanie vremeni. T.5. – Tashkent: Uzbekiston, 1997. – s. 175 – 185.

2. Karimov I.A. Obitel vechnogo velichiY. Rech na tseremonii otkritiya pamyatnika Amiru Temuru v g. Samarkande, 18 oktabrya 1996 g. // Karimov I.A. Mislit i rabotat po novomu – trebovanie vremeni. T.5. – Tashkent: Uzbekiston, 1997. – s. 165 – 168.

3. Amir Temur v mirovoy istorii. - Tashkent: Shark, 2001. - 304 s.

4. Karimov I.A. Poka narod jiv, imya Amira Temura vechno. Rech na tseremonii otkritiya Gosudarstvennogo muzeya istorii Temuridov, 18 oktabrya 1996 g. // Karimov I.A. Mislit i rabotat po novomu – trebovanie vremeni. T.5. – Tashkent: Uzbekiston, 1997. – s. 160 - 164.

AMIR TEMUR SALTANATIDA OLIY MAJLIS, YA’NI PARLAMENT FAOLIYATI

J. Rahimov,

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
professori, p.f.n., dotsent*

Mustaqillikning qo‘lga kiritilishi ko‘plab voqea va hodisalarni adolat va haqiqat tamoyili asosida o‘rganish hamda tadqiq etish imkonini berdi. Tarix haqiqati asosida o‘tmishimizga, milliy qadriyatlarimizga yangicha qarash, xolisona yondoshuv asosida baho berish ham shular jumlasidandir.

SHo‘ro mustabid tuzumi davrida milliy manfaatlariga bepisandlarcha yondoshib barcha tarixiy hodisalarni mustabid tuzum mafkurasiga moslab, shu tuzum tantanasi yo‘lida milliy-ma’naviyat bilan bog‘liq asriy shakllangan an‘analarga sinfiylik nuqtai nazaridan yondashib so‘ngra ularning bahridan o‘tish siyosatiga zo‘r berildi. Ularni sotsializm qurishda to‘siq, reaksiyon hodisot va aqidalar sifatida rad etiladi.

Aslida jamiyatni adolat bilan boshqarish, uni taraqqiyotning baland mavqelariga olib chiqishda ilm-ma’rifatning birinchilik o‘rnidan tortib, boshqaruvda demokratik tamoyillarning o‘rni, davlat, jamiyat va xalq o‘rtasidagi munosabatlarning xolislik asoslarda yechimini topishi, ularning nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘un tarzda hal etish sharq allomalarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Bularni ijobiy hal etish uchun ilk universitetlar vazifasini bajaruvchi oliy madrasalardan tortib yirik tadqiqot markazlari bo‘lmish Akademiya – Donishmandlar uyi, ya’ni “(Baytul hikma)” lar ochilib, ularda ham tabiiy fanlar, ham falsafiy, ahloqiy huquqiy sohalarda mislsiz kashfiyotlar qilingan. Bular keyinchalik dunyo tamadduniga fan, ma’rifiy poydevor vazifasini o‘tagan edi. G‘arb dunyosi

sharqning bu sohadagi tarixiy xizmatlarni asta-sekin unutib, jahon taraqqiyotidagi barcha yutuqlar egasi g'arb olamiga dahldor tarzidagi fikrlarga zo'r berishga kirishdilar. Bu aslida g'arb dunyosining sharq ustidan mustabid tuzum hukumronligiga erishuvining oqibati bo'lib, tarixni zo'ravonlar yaratadi va yozadilar shiorining mujassami, shuningdek hayotdagi ifodasi edi. Natijada Konstitutsiya va hatto Parlamentning ham mualliflariyu, ularning ijodkorlari siyosiy, huquqiy va tarix fanlari tizimlarida g'arb dunyosiga dahldor kashfiyot tarzida jahon xalqlari ong shuuriga singdirildi. Holbuki tarixiy adolat va asl manbalar tilga kiritiladigan bo'linsa, bu huquqiy-siyosiy, ijtimoiy institutlarning paydo bo'lish hududiy makoni sharq, unga yanada aniqlik kiritadigan bo'lsak Vatanimiz, ya'ni Amir Temur Saltanati poytaxti Samarqandda asos solingan bo'lib chiqadi. Dastavval Oliy Kengash ya'ni Parlamentning ibtidoiy ildizi va ilk kurtagi ham qadimda miloddan avvalgi davrda "Avesto" yaratilgan makon ham Xorazm ekanligiga amin bo'lamiz. Rad qilib bo'lmas tarixiy manbalar moziy nomidan tilga kiradi. Oilalar birlashmasi – "nmana", katta oila jamoasi – "napa-ti", urug' jamoasi boshlig'i – "vis", katta qishloq oqsoqoli – "vispa"ti, qabila boshlig'i – "zantupati", viloyat Hokimi – "daxiyupati", bir necha viloyatlar hukumdori va qabilalar Harbiy boshlig'i – "daxiyu sastar"lardan iborat vakillar Qabilalar Ittifoqiga birlashgan. Bulardan tashkil topgan Oliy Kengash – varzanapati deya nom ostida "Xalq Majlisi"¹¹ vyaxa qonun chiqaruvchi vakolat huquqiga ega bo'lgan. Oliy Hokimiyat va Oliy Sudya vazifasi ma'suliyati "Xalq Majlisi" tomonidan Oliy Qohin zimmasiga yuklangan. Bu ilk Parlamentning aynan tamal toshi Bizning Vatanimizga bundan ikki ming yetti yuz ilgari qo'yilganligining mutlaq dalili edi.

"Xalq Majlisi" qabul qilingan qonunlarni ijroga kiritish nazorati mo'tabar ulamo Qohin tomonidan amalga oshirilgan. Shundan "Avesto" ning ma'nosi – "Qat'iy qonunlar" nomini bildirganki, bu Konstitutsiyaning jahonda ilk ibtidosi demak edi.

Xalq Majlisi yohud Oqsoqollar qo'lida diniy mafkura va dunyoviy hokimiyat birlashgan. Ular jamiyatning, ijtimoiy, iqtisodiy masalalarini hal etishgan. Xalq Majlisida ijtimoiy siyosiy va huquqiy barcha masalalar

¹ Вамбери X. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Тошкент: Адабиёт ва Санъат. 1990. 35-бет.

ko‘rilgan “Dahiyu sastar”lar bir necha qabilalar yashaydigan ma‘muriy hududni, viloyatlar va yirik o‘lkani boshqarish hamda harbiy qo‘mondonlik boshqaruvi vazifasini bo‘jargan. Ular tomonidan chiqarilgan har qanday nizomlar va buyruq, farmoyishlar barcha jamoa a‘zolari uchun muqaddas qonun vazifasini bajargan. “Avesto” qonunlari bo‘yicha jamiyatda adolat va insoniy saodat ustavorligi hukm surishi belgilab qo‘yilgan. Bunday adolat asosiga qurilgan jamiyat “Avesto” qonunlarining qabilalar ittifoqi hududlarida amal qilinganligi nazarda tutilsa, qolgan dunyo mamlakatlarining barcha hududlarida shafqatsiz quldorlik tuzumi hukmsurgan. Holbuki o‘sha paytda “Avesto” axloqi, mafkurasi amalda bo‘lgan jamiyat hayotining asosi ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal insoniy munosabatlarda turmush tarz uchun andaza hisoblangan.

Shuningdek, Axuramazda – ezgulik, adolat va haqiqat ramzi hisoblanib, u doimo yomonlik, yovuzlik ramzi, Axrimanga qarshi ayovsiz kurashda “Avesto” ta‘limoti – mafkurasining tayanchi hisoblangan. Siyosiy hokimiyat to‘g‘risidagi ezgu g‘oyalar ham shu ta‘limotdan oziqlangan. Unda ”Ezgulik bilan yovuzlik o‘rtasida adolat uchun tinimsiz kurash davom etadi. Oxir oqibat yolg‘on va adolatsizliklar ustidan haqiqat g‘olib chiqib yovuzlik qayerdan paydo bo‘lgan bo‘lsa, o‘sha yo‘qlik makonida abadiy intiho topadi. Nihoyat aql-idrok va adolat tantana qiladi. Yaxshilik ta‘limini va sadoqatini amalga oshirib.. yaxshi, adolatli hokim, hukmdorlar hukm yuritaversinlar, ular adolatli qonunlarni amalga oshirsinlar”². (“Yasna”, 48), deyiladi.

“Avesto” ta‘limotida adolatsizlik odamlar o‘rtasida yolg‘on so‘z o‘zaro munosabatlarda aralasha boshlashidan hayotda haqiqatning ustidan oqibat g‘olib chiqib bu jamiyatning inqiroziga olib kelishidan ogoh qiladi. Odamlar inqiroz sari emas farovon, osoyishta jamiyatni mustahkamlash uchun bor aqli, tafakkuri va jismoniy kuchini safarbar etishga ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amali bilan harakat qilishga intilishlari zarur. Demak, “Avesto”da hayotning izdan chiqishi, jamiyatning tanazzuli yolg‘on va adolatsizlik ildiz otishi bilan bog‘lanadi. Shuning uchun jamiyatda, oilada va davlat hayotida yolg‘on va adolatsizlikka aslo yo‘l bermaslik, uning biror-bir tirqish topib hayotda yashab qolishiga o‘rin bermaslik maqsadida qat’iy qonunlar bilan mustahkamlanganligi quyidagilarda namoyon

bo'ladi. Zardo'shtiylik ta'limotiga ko'ra, yolg'on gapirib guvohlik berish, birovni aldash og'ir gunoh hisoblanib, unga qattiq jazo belgilangan: "Zabardast va tushunarli bo'lish uchun hamisha haqiqat va rostlikka amal qilsang, qudratli bo'lgaysan.

Haq so'zdan o'zga hech narsani o'ylama, haq so'zdan o'zga hech narsa to'g'risida suhbatlashma, haqqoniy amaldan o'zga hech narsa bilan shug'ullanma.

Dunyoni taraqqiyot va kamolot sari yo'naltiruvchi kishilar bo'lmog'i lozim.

Ey Ahura-Mazda, har kimki ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal bilan nohaqlik va uning tarafdorlariga qarshi kurashsa va odamlarni rostlik va haqqoniyat yo'liga hidoyat etsa, o'zining pok muhabbatidan senga eng yaxshi tuhfa keltirgan bo'ladi.

Haqgo'ylik va rostgo'ylik tangri oynasi va porsolik qonunidir.

Yolg'on gapirib tirik qolgandan ko'ra, rost gapirib o'lgan afzal.

O'z nafsini yengib, jilovlab ola olmagan kishi, hech narsa ustidan g'olib chiqolmaydi".

Yuqoridigilardan ko'rinadiki, zardo'shtiylik ta'limotida rostlik va haqiqat uchta ma'naviy ildiz, ya'ni ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amaldan oziqlanadi. Avvalo ezgu fikr qalb tozaligidan bahramand bo'lib u so'ngra, tafakkur, ya'ni aqliy sohilga ko'chib undan tilga ko'chib o'tadi. Ezgu so'z bilan jilolanib ikkinchi shaxs yoxud ahli jamoa bilan munosabatga kirishiladi. Agar inson qalbi yovuzlik bilan ihotalangan bo'lsa so'z ham, fikr ham yovuzlik, shafqatsizlik bilan qurollanib u insonni yomonlik va yovuzlik yo'nalishlariga burib yuboradi. YA'ni avvalo har bir ishda niyat, fikr holis bo'lishi lozim. Undan yaxshilik va ezgulikka yo'naltirilgan say'-harakat hosil bo'ladi. Yomonlikni niyat qilgan yomonlik. Yaxshilik, ezgulikni niyat qilganga ezgulik yo'ldoshi bo'ladi.

Zardo'shtiylik ta'limotiga ko'ra uchta ezgulik uchligiga amal qilgan kishi yolg'on va haqsizlik (jaholat va adolatsiz lashkarining peshvosi Axriman oqibat natijada mag'lub bo'lishiga imon keltirib, qalbi behad pokiza bo'lg'ay, deya uqtirdi: "Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman" ("Yasna", 14).

Aslida “Yaxshi fikr” deganda ilohiy qonun ruhidagi yaqin kishisi bo‘lsin insoniy fazilatlarni namoyon qilgan holda munosabatda bo‘lish, muhtojlarga, yetim-yesimlarga ko‘maklashish va yovuzlikning har qanday ko‘rinishlariga qarshi kurashishiga tayyor turish, kishilarning baxt-saodati uchun harakat qilish, ahillik, do‘stlik, jamiyatda insonlar totuvlikda yashashga doimo intilish ruhidagi niyatlar va fikrlar musaffoligi tushunilgan.

Insonlar qalbida hasad, o‘zgalarning ezgu ishlariga g‘araz ko‘z bilan qaramaslik, xayrli va savob ishlarni imkoni darajasida qo‘llab-quvvatlash insoniylikdandir. Yaxshi niyatli kishi jaholatga berilmaydi, darg‘azablik hissiyotidan chetda bo‘ladi. Chunki qora niyatli johil inson adolatni unitadi va nojo‘ya harakatlarga moyil bo‘ladi, uni sodir etadi. O‘ziga ham, jamiyatga ham zarar keltiradi.

“Avesto”da qayd etilgan eng muhim ijtimoiy-siyosiy va huquqiy g‘oyalardan biri-yovuzlikka qarshi adolat uchun kurash masalasidir. Adolat homiysi Xvarna shunday ta’riflanadi: ”Ey osmon kabi bexato Xvarna. Sen jahonda tenglik, davlatu amniyat (tinchlik) xosilasisan, sen tufayli, adolat tirildi, nozu-ne’mat ko‘paydi, farovonlik qaror topdi. Kimda kim yomonlikni yod etsa, hargiz yaxshilik topmagay va kamolatga yetmagay. Sen bor ekansan, zamona badbinlari (yomonlik va yovuzlik tarafdorlari) omonlik topmagay”. (“Yasna”, 19).

“Avesto” ta’limotining asosiy g‘oyasi Axuramazda tinchlik va adolat hukm surgan o‘lkalarning asoschisi Adolat va Ezgulik timsoli, Axriman jaholat, yovuzlik va barcha yomonliklar urug‘ini sochuvchi ramz sifatida talqin etilib, ular o‘rtasida kurash to mahshargacha davom etadi. Bu kurash haqiqat va adolat timsoli Axuramazdaning g‘alabasi bilan yakun topadi.

Adolat va haqiqat homiysi Axuramazda yovuz kuchlarga ko‘maklashganlar bilan ayovsiz kurashadi, o‘lkalarning gullab-yashnashiga halal beruvchi xiyonatkorlik, buzuqchilik, tajavuzkorlik va yolg‘onchilik bilan shug‘illanuvchilarga nisbatan juda ham shafqatsiz munosabatda bo‘ladi. “Kimki, - deydi Axuramazda, - bizga sodiq bo‘lmasa, yo‘limizga g‘ov bo‘lib ezgu ishlarimiz amalga oshuviga to‘siqlik qilsa, undaylarga yomon jazo nasib etur” (“Yasna”, 46).

Agar kishilar Ahuramazda yaratgan adolatli qonunlarga qat'iy amal qilsalar, haqiqat (adolat) va ezgulik yovuzlik ustidan tantana qilib boraveradi, deyiladi, buning uchun yovuzlikni daf qilishga chog'lanayotganda har kimda poklanish, imon va e'tiqodni saqlab qolish uchun muqaddas qonunlarga astoydil rioya etish talab etiladi:

Biz Mitraga topinamiz,
Uso'zida sobitlarni,
Lafzi xalol kimsalarni
Falokatdan saqlagaydir.
Gar kimda – kim yolg'onchidir,
Subitsizdir, tangri Mitra
Shafqat qilmas undaylarga.

Demak, Quyosh tangrisi Mitra mamlakat havfsizligini saqlash uchun Ahuramazda qonunlariga sadoqatli, adolatli, ezgu kalom sohibi bo'lgan pokdomonlarga, xushxulq rostgo'ylarga homiylik qilib, yovuzlik, o'g'rilik, hasadgo'ylik kabi g'ayriinsoniy hatti-harakatlari bilan kishilar diliga ozor beruvchilarni turli falokatlarga va Oliy Tangri qahriga giriftor bo'lishdan ogohlantiradi: “Men Mazda yasna qonunlariga asoslangan adolat va haqiqat tartibotlarini ulug'layman. Mening nomim haqgo'ylik erur. Mening nomim Asraguvchi, yomonlarga qaqshatgich, ostin-ustun qilguvchi ham men. Yana bir nomimdir Ezgu farog'at..” (“Ard-Yasht”, 17-bob).

“Avesto” ta'limotida yuksak ahloqiy g'oyalar o'z mujassamini topgan. Jumladan insonlararo munosabatlar uchun eng zarur ijobiy sifatlar ulug'lanadi va salbiy say-harakatlar esa qattiq qoralanadi va rad etiladi. Xalol va xolis insonlar muomala va munosabatlarda lafzdan aslo qaytmaslik, berilgan va'dani so'zsiz bajarish va unga og'ishmay amal qilishi, majburiyat va qasamga sodiq qolish, savdo-sotiq ishlarida majburiyat va shrtnomalarga qat'iy amal qilish, omonatga xiyonat qilmaslik, qarz olinsa uni egasiga aytilgan muddatda qaytarish kabi imon va diyonatlilikka rioya qilishlari lozimligi ta'kidlanadi.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid ilk manba sifatida “Avesto” yuqorida ta'kidlangan ezgu insoniy munosabatlarning hayotda amalga oshuvini ta'minlash va yovuz harakatlarga qarshi kurashish uchun va

ilohiy qonunlarning ijrosini ta'minlash "Xalq majlisi" (Ilk parlament) zimmasida bo'lgan.

"Avesto" ta'limoti bilan Amir Temur "Tuzuk"lari o'rtasida qanday bog'liqlik yoki umumiylik bor qabilida kitobxonlarimizda gumonsirash bo'lmasligi uchun Sohibqironning quyidagi fikrlarini esga olishni joiz deb bilamiz: "Tangri taoloning g'azabiga duchor bo'lmayin va ishimni buzib, holimni tang aylamasin deb Odam Atodan boshlab to Xotamgacha va Xotamdan to hozirgi kungacha o'tgan Sultonlarning qonunlarini va turish-turmushlarini donalardan so'rab-surishtirdim. Har qaysilarining yo'l-yo'riqlarini, turish-turmushlari, qilish-qilmishlari, aytgan gaplarini xotiramda saqladim va yaxshi ahloqlari, ma'qul sifatlaridan o'rnak olib, ularga amal qildim".

Shunday ekan, insoniyat tarixida insonlar, jamiyat va davlat hayoti uchun rioya qilinishi suv va havodekzarur bo'lgan adolat va haqiqat tantanasi uchun izchil kurashga chorlovchi g'oya "Avesto" ta'limotida bosh mavzu bo'lib o'tadiki, uning shu xususdagi ezgulikka yo'naltirilgan ta'limotning asosiy mazmunidan keyingi yaratilgan yoxud vujudga kelgan dinlar uchun tayanch bo'lib, ayniqsa adolat va haqiqat tamoyillari islom dinida yanada mukammallashib, islom ahloqida bu tushunchalar imon butunligi, e'tiqod ustivorligi bilan yanada yuqori pog'onaga ko'tarildi. Sohibqiron Amir Temur o'z faoliyatida bashariyat tarixida yaratilgan jamiki ezgulikka, adolatga va haqiqatga xizmat qiladigan, Vatan qudratini oshiradigan, xalqini farovonlikka eltadigan donish hikmatlardan foydalanib dunyo siyosati, iqtisodi va fan madaniyatini ravnaqqa boshlaydigan tajribalardan unumli foydalandi. O'tmishda bashariyat erishgan yutuqlar sir-sinoatlariga kalit topib ulardan saboq olib, ularni o'zining zamon talablariga bo'lgan zaruriy extiyojlari bilan boyitib va o'z salohiyati va iste'dodi bilan o'tmish zarvaraqlardan olgan bilim ko'nikma-yu tajribalarini uyg'unlashtirib jahon kashfiyotlariga erisha oldi.

"Avesto"da qayd etilgan va moziyning kurtak Parlamenti – "Xalq majlisi" miloddan yetti asr ilgari, ya'ni bundan salkam uch ming yil avval vujudga kelgan bo'lsa, Amir Temur uni yanada takomil bosqichga ko'tarib G'arb olami davlatlaridan besh-olti asr avval ikki palatali Parlament, ya'ni Oliy Majlisga asos soldi. To'g'ri, Parlament Angliyada 1265 yilda o'z

faoliyatini boshladi qabilada ma'lumotlar jahon tarixidan o'rin olgan. Ushbu parlament faoliyati moziy ilmida qanday yaratilishiga kitobxonlar diqqatini qaratib, so'ngra Amir Temurning Oliy Majlisi - Katta Oliy Kengash va Kichik Oliy Kengash yoki Oliy Majlisi bilan (bu hozirgi zamon ilmiy muomalasida Ikki Palatali Parlament deganidir). (Muallif J.R. izohi). Angliya Parlamentining tuzulishi, ish faoliyatidagi katta farq va ular o'rtasidagi tafovutlarni qiyosiy tahlil qilamizki, unda Sohibqiron Amir Temur Oliy Majlisi – Parlamenti tubdan g'arb Parlamentidan har tamonlama yuqori mavqeda ekanligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Jahon tarixida Angliya Parlamenti haqida ma'lumotlar berilishi quydagichadir: "...Feodallarning qirolga qarshi kurashining ikkinchi davrida 1265 yil birinchi marta keng toifadagi Parlament chaqirildi. Aslida, parlament (Fransuzcha "parle" , ya'ni gapirmoq so'zidan olingan)ni Vilgelm istilosi davrida o'ziga yaqin feodallar Kengashi sifatida XI asrning oxiridayoq chaqirib turardi. (Agar bizning Vatanimiz hududida "Xalq Majlisi" Oliy Kengash Angliya Parlamentidan bir ming yetti yuz yil, ya'ni ulardan XVII asr avval paydo bo'lganini esga olsak, Parlament jahonda ilk faoliyatini boshlagan yurt ham bizning Vatanimiz ekani yaqqol ma'lum bo'ladi.

"Amir Temur davri qurultoyi (parlamenti) o'sha davrda G'arb davlatlarida mavjud bo'lgan parlamentlarning huquqiy maqomidan va davlatchilikdagi o'rni jihatidan ustunlik qilgan. Masalan, Angliyadagi lodlar palatasi va umum palatadagi deputatlarning bergan ovozi farq bo'lmas, har bir zodogonning ovozi teng edi"⁴.

Ushbu izohdan keyin yana Angliya Parlamentining tashkil topishi va faoliyatiga doir manbalarni tilga kiritilsa, tubandagi manzara o'zini namoyon etadi.

Angliya Parlamenti XIV asrdan boshlab ikki majlisga: Yuqori, ya'ni lordlar va quyi-umum palataga bo'lindi. Lordlar palatasida yepiskoplar, yirik yer egalari, qirol tomonidan maxsus taklif qilinganlar qatnashish huquqiga ega edi. Umum Palatasida har bir graflikdan chaqirilgan ikki ritsar va yirik shaharlardan ikkitadan vakillari ishtirok etardilar. Quyi palata dastlabki kezlarda faqat moliya masalalarini hal qilishda qatnashar edilar. Parlament qonun chiqarishda ishtirok qilmas edi. Faqat XVII asrdan

keyin (ingliz burjua inqilobidan soʻnggina Parlamentga qonun chiqarishda ishtirok etish huquqi berilgan edi. Biroq shuni taʼkidlash lozimki, Qirol hohishiga koʻra Parlament chaqirilishi va hohlamasa umuman chaqirilmasligi ham mumkin edi. Bunday paytdlarda Parlament mavjudligi unitilgan paytlar ham boʻlardiki, uni Angliya tarixida uzab ketgan Parlament nomi bilan tilga olinardi.

Endi Sohibqiron Amir Temurning barpo etgan Parlamentining (Oliy Majlisi) gʻarb dunyosi Parlamentlaridan har tomonlama, yaʼni demokratik tamoyillari va siyosiy ahamiyatining yuqoriligi, umuman halqchilik xususiyatlariga koʻra mukammalligi, ayniqsa davlatchilik faoliyatidagi ahamiyatiga koʻra ustunligi yaqqol koʻzga tashlanib turadi. Agar gʻarb olami parlamentarizmi faoliyatida Qirollar Hokimiyatining manfatlari ustunlik qilsa, Amir Temur saltanatida Oliy Majlis (Parlament) faoliyati saltanatining ichki va tashqi havfsizligini taʼminlash va shu orqali halq, el yurt farovonligini taʼminlash, mamlakatning barcha sohalarini barq urib oʻstirish, Vatanni dunyoning eng qudratli hududiga aylantirib, uning jahonda birinchilik mavqei ustuvor ahamiyat kasb etgan.

Taʼkidlaganimizdek Amir Temur Oliy Majlisi (Parlament)ning siyosiy negizi mutlaq xalqchilik ildizidan oziqlanganligini, unda doimo Vatan, Xalq manfaati asosiy oʻrinda turganligiga kitobxonlarimiz diqqatini qaratamiz. Agar Angliya Parlamentidagi ishtirok etuvchi vakillar tor doiradaligi va faqat Qirolning oʻzigagina tegishli vakillardan tashkil topganligi hamda davtal va jamiyat, ayniqsa xalq taqdiri bilan bogʻliq masalalar ancha cheklanganligini nazarda tutilsa, Amir Temur Parlamentidan ancha orqada ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Angliya Parlamentining bunday holatini unda ishtirok etuvchi tabaqa vakillarining ishtirok etishdan yaqqol xulosa chiqarish mumkin. Unda ishtirok etuvchi vakillarning aksariyat koʻpchiligini qirol saroyidagilar, xristian dini oliy vakillari, ikki nafar ritsar bilan kifoyalangan boʻlsa, Sohibqiron Amir Temur (Parlament) Oliy Majlisi Xalqning, jamiyatning barcha ijtimoiy guruh, tabaqalari, yaʼni saltanatning siyosiy iqtisodiy harbiy, madaniy-maʼrifiy, diniy olimu ulamolar, yaʼni oʻn ikki tabaqaning xalq orasida

mashhur vakillar ishtirok etganligi o‘sha davr tarixchilari, qolaversa Amir Temurning “Tuzuklar”i¹ asarida ham qayd etiladi.

Amir Temur (Parlamenti) Qurultoyning xalqchilik g‘oyasi va demokratik tamoyillar asosida faoliyat yuritilganligi shuningdek, bu davlatchilikning xalq irodasini ifodalanganligi yana boshqa g‘arb davlatlaridan biri, Fransiyada faoliyat yuritgan General shtatlar bilan taqqoslaganimizda o‘zini yaqqol namoyon etadi.

General shtatlar deya nom berilishi va unda ko‘riladigan masalalar ahamiyati va uning natijalari “Tuzuklar”ning hayotga tadbiquidan ancha orqada bo‘lib, uning tomonidan chiqarilgan qarorlar kuchi mamlakat hayotida umuman sezilmas edi. Qirol huzurida chiqarilgan General shtatlar nomi ulug‘ ediyu, ammo Fransiya miqyosida obro‘si yo‘q darajada edi. Vakillar ko‘p tortishardilaru natijada iqtisodiy na siyosiy siljishlarni sodir etish, jamityaning qaysidir sohasini rivojlantirish uning o‘rni ko‘zga tashlanmasdi. Uning minbari vakillar o‘rtasidagi dahanaki olishuv, tortishuvlardan nariga o‘tmasdi². Shuning uchun ko‘p hollarda Qirol General shtatlarni chaqirishdan ko‘ra chaqirmaslikni afzal ko‘rardi.

Amir Temur Oliy Majlis (Parlamenti) Saltanat taqdirida uning nufuzi shunday mavqeda ediki, chiqarilgan qarorlar kuchi, ijrosi shunday beqiyos ediki, mamlakat butunlay yangilanish, o‘sish va taraqqiyotning yangi pog‘onasiga ko‘tarilardi³.

Natijada mo‘g‘ullar bir yarim asr vayronalikdan boyqushlar makoniga aylantirgan iqtisodiy hayot inqirozi kun-bakun, oyma-oy chekinib, Vatan hayratomuz o‘zgarishlar, farovonlik, tinchlik osoyishtalik domida yashar. Dunyo ahli hoh sayyoh, hoh elchilar bo‘lsin ham ajablanish, qaysilaridir hasad bilan, yana birlari esa haqiqat oldida lol qolib, bu ishlar Amir Temur siyosati, daho tafakkuri xosilasi ekanligiga tasannolar aytib qo‘liga qalam olib, bu yutuqlardan dunyoni habardor qilmoq uchun umrida bir parcha sahifa bitmaganlar ham, Sohibqiron saltanati va uning poytaxtiga borish va qaytish kundaliklari-yu xotiralar daftarini dunyo ahli hech qachon ko‘rmagan, bilmagan olamjahon voqea, hodisalar bilan tshldirardilar. Bu kundaliklar Amir Temurning buyukligi va jahon tarixida tutgan uning

¹ Рахимов Жумабой. Адолат ва Кудрат тимсоли. “Ўқитувчи” НМИУ. Тошкент. 2020.

² Рахимов Ж. Адолат ва кудрат тимсоли. –Т.: Ўқитувчи. 2020. 308 б.

³ Уша жой.

oʻrnidan tortib dunyoning sayqaliga aylangan Samarqand mahobatigacha, yurtdagi hayotning jannatmonand farovonligigacha mavzularni yoritishdan iborat boʻlardi. Ular dunyoning turli tillariga tarjima qilinib, tarixchilar tadqiqotiga manba boʻlib xizmat qilardi.

Ibn Arabshoh va Kastiliya qiroli de Klavixo asar va kundaliklari bunga chinakam dalildir.

Ana shularni hisobga olib buyuk ajdodimiz Sohibqiron Amir Temurning “Tuzuklar”i va uning tashkil etgan Parlament faoliyati bir tarafdin jahonning ilk Konstitusiyasi va uning tashkil qilgan (Parlament) Oliy Majlis dunyoning siyosiy taraqqiyotiga qoʻshgan hissasi boʻlsa, ikkinchi tarafdin, oʻzbek davlatchiligimizni jahoniy darajaga koʻtargan tarixiy jahonshumul xizmati boʻldi.

Amir Temur oʻz Oliy Kengashini vujudga keltirishgacha boʻlgan davr va masofa oraligʻida oʻz aqliy idroki hamda tajribasi orqali uni doimo boyitib bordi va mukammallashtirdi. Shu tufayli oʻsha iqtidor va salohiyat egasining dunyoqarashi va isteʼdodi yanada yuksalgan hamda donolar fikrlari bilan boyib, koʻplab jiddiy hayotiy muammolarga ijobiy yechim topadigan mavqega koʻtariladi.

Shundan kelib chiqib Amir Temur dunyo koʻrgan, hayotning jamiki achchiq-chuchugini boshidan kechirgan va musofirlik azoblarin totib koʻrgan hamda turish-turmushning murakkab sinovlaridan chora, tadbir qoʻllab, yana hayot yoʻlini davom qildirgan temir irodali insonlardan tortib ilm-fanda mashhur olimu-fozillarni oʻz saroyiga toʻplashga jazm qildi. Chunki koʻpchilik aql egalaridan koʻplab dono fikrlar chiqadi.

“Har bir ishninig tadbirini donolaru hayot tajribasi maktabini oʻtagan keksalar, dunyo koʻrgan kishilar bilan hal qilish kerak” degan fikr Amir Temurning davlat boshqaruvi, jumladan Oliy Majlis faoliyati uchun ustuvor dastur vazifasini oʻtadi. Endi Amir Temurning “Tuzuk”larida koʻp bora Muhammad paygʻambar (s.a.v.)ga hadislariga murojat qilishiga sababchi boʻlgan omil boisiga nazarimizni qaratsak koʻp narsaga jumladan Oliy Majlisni tashkil qilishda ham unga rahnamo boʻlganligini koʻramiz. Parvardigor Elchisiga boʻlgan Sohibqironidagi mehr cheksiz ediki, har qanday muammolarning yechimi hech bir xatosiz ul hazrati insonga ilohdan moʻjizaviy tarzda kelardi. YAʼni, dunyo kishilari voqifdirlarki,

odamlar zotidan biror kishi hazrati Payg‘ambar (s.a.v.) dan donoroq bo‘lmagan. U ilohiy ilmlar bilan qurollangan bo‘lib, ro‘y beruvchi voqea va hodisalarni ham ko‘z oldida bo‘layotgandeg ko‘ra olgan, koinot-u yer, arshu-farsh, lavhu qalam, jannat-u-do‘zox undan maxfiy qolmagan. Jabroil alayhissalom ham har zamon vahiy olib kelib, borliqlar-u yo‘qliklardan unga habar bergan. Shunday ilohiy mo‘jizalarni bilganida ham Alloh taolo o‘z elchisiga buyurganki, “YO Muhammad biron ishni qilmoqchi bo‘lsang yo muhim biror hayotiy muammo yoki zarurat chiqib qolsa, o‘z yoru-do‘st birodarlaring bilan mashvarat qilgin”. Sohibqiron Amir Temurga Muhammad Payg‘ambar (s.a.v.) hayoti o‘z diniy va dunyoviy faoliyati uchun asosiy yo‘riq vazifasini o‘tagan Allohning ko‘rsatmasiga amal qilganlikniqat’iy joylar ekan, diniy va dunyoviy masalalarda shu yo‘riqni o‘ziga dasturilamal deya hech monesiz qabul qildi. Bunga “Tuzuk”larida yuzlab daliliy misollar mavjud. Saltanatning biror muammosi yo‘qki Amir Temur uni Mashvirat, Oliy Majlis va Qurultoylar chaqirib hal qilmagan bo‘lsin.

Sohibqiron Payg‘ambardek Alloh elchisiga Mashvarat va Kengash qilishga ehtiyoj Parvardigor tomonidan buyurilgan ekan, men uchun bunga amal qilib Mashvarat o‘tkazish, Saltanat Oliy Kengashini chaqirish undan o‘n karra ortiq darajadagi zaruratdir degan fikrda ish yuritdi. Bu xususda Amir Temur qat’iy xulosaga kelib bo‘lgan edi. Agar hukmdor saltanatga doir biror bir muhim ishni amalga oshirmoqchi ulamolar bilan Kengashishi, ular fikrlarini sabr-qanoat bilan eshitib, har tomonlama o‘ylab, o‘rtada ko‘pchilikka ma’qul bo‘lgan eng to‘g‘ri fikrni tanlash ham podshoh ma’suliyatida qolishini doim o‘z diqqat markazida tutishi lozim.

Hukmdorning manmanlikka berilib dono va aql egalari bilan hisoblashmay qo‘yishi oxir oqibat inqirozga yo‘llaydi. Bu hukmdorning zaifligidan darak beradi. Mashvarat va Kengashsiz amalga oshirilgan ishning nitijasi albatta yaxshilik bilan tugamaydi. Shunga Ko‘ra Amir Temur saltanatning siyosiy, iqtisodiy, harbiy va ma’naviy hayotiga doir barcha muammolarini mashvarat va qurultoylar chaqirib, uning qarorlarini shundan keyin jadallik bilan hayotda amalga oshirishga kirishar edi. Uni amalga oshirishda fidoyilik ko‘rsatganlar rag‘batlantirilar, unga kim bo‘lmasin zid ish qilsa, jazoga tortilar edi.

Amir Temurning tashkilotchiligi, iste'dodi va qobiliyati qonunchilik va huquqiy qarashlarida ham o'zini namoyon etadi. Uning tashabbusi bilan chaqirilgan Qurultoy, Kengash va Mashvaratlar obro'si unda ishtirok etuvchi xalq orasida eng taniqli mashhur olimlar, ulamolar har qanday muammolarni tadbir bilan hal qiladigan dono insonlar, bohodirlar, suyurg'ol va tarxon egalari sarkardalar, raislar ishtiroki va ular ilgari surgan tashabbuslar bois yechimini ijobiy topadigan qarorlar va uning hayotda qat'iy amalga oshirilishi bilan belgilanar edi. Xalq orasidan ishtirok etuvchi bunday vakillar Saltanat miqiyosidagi turli sohadagi yetilgan va yechimini kutayotgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va shu kabi muammolarni juda yaxshi bilar, ularni hal qilishga doir ijobiy takliflar Oliy Majlis minbaridan turib erkin bayon etar, ammo ularning fikrini hech kim bo'lmas edi. Shunga ko'ra qabul qilingan qarorlar saltanat miqiyosida tez o'zining hayotiy natijalarini berardi. Kun-bakun, oyma-oymamlakat yuksalishida davom etardi.

Kengashlar Katta va Kichik Kengash (bu aslida ikki palatadan iborat Parlamentning o'zginasi demak edi) lardan iborat bo'lardi. Katta Oliy Kengashda yoki Qurultoy ko'rinishidagi yig'inlarda halqning orasidan talangan taniqli vakillar ya'ni ijtimoiy tabaqa, guruhlardan o'n ikki (hozirgi tilda deputat tarzida nomlanuvchi) ishtirokchilar har bir viloyat yoki o'lkalardan qatnashardilar. Ular Saltanatning yetilgan turli sohalar muammolarini erkin bahs munozaralari orqali ochib, so'ngra yechimi o'rta tashlanar edi. Eng so'nggi nutq irod etuvchi vakil o'zining fikrini ifoda qilib bo'lgach, so'ngra Oliy Majlis vakillari qaror chiqarishga o'tardi. Amir Temur uni Saltanat bo'ylab ijroga kiritish farmonini muhrlab, Bosh vazir yoki Devonbegiga topshirar, bu mas'ul amaldor farmonni turli viloyat, shahar va qal'alar hokimu raislarga chaparlar orqali tezlik bilan yetkazish choralarini ko'rar edi. Farmon hokimu va tuman beklari qo'lga yetkazilgach, u jamoat joylari, bozorlar masjid va madrasa oldi maydonlarida jarchilar tomonidan e'lon qilinardi. Natijada bu farmonni bajarish uchun turli tabaqalar o'z mahorat, ilmu-hunarlarini va iste'dodlarini ishga solib, xalq harakatga kelar, shu bois uning ijobiy jihatlari tez hayotda aks-sado berardi.

Kichik Kengashda esa Amir Temurning o'g'illari, nabiralari, qarindosh va saroy amaldorlari ham hukmdorning yaqinlari qatnashib, oilaviy quda-andachilik, voris shahzodalarga dahldor bo'lgan merosiy-mulkiy masalalar, vaqf va soliq, xirojga oid masalalar muhokama qilinar, shuningdek Saltanat havfsizliga – ichki ishlarga tegishli nozik ishlar ahamiyat darajasiga qarab yopiq ham o'tkazilardi.

Qurultoy maqomidagi tadbirlar Saltanatning tashqi va ichki siyosatiga dahldor yirik masalalarni juda keng tarzda muhokamaga qo'ygan holda o'tkazilardi.

Saltanat boshqaruvida Oliy Majlisning tutadigan mavqeini Amir Temurning ushbu fikri orqali ham yaqqol bilsa bo'ladi: "Saltanat ishlarining to'qqiz ulushi Mashvarat Kengashi va tadbir (siyosat), qolgan bir ulushini esa qilichga qoldirdim". YA'ni Amir Temur Saltanatiga ashaddiy g'animlik jabhasini egallagan To'xtamishxon, mo'g'ullar, Boyazid Sulton, Shom va Bog'dod hukmdorlari hamda gurjilar knyazi kabilarga esa qilich siyosatini amalga oshirilishi orqali hal etdi. Albatta bu tadbir so'ngi chora sifatida qo'llanar edi.

Amir Temur Kengash va Mashvaratlar o'tkazishidan oldin shu xususda olimu fozil, ulamo-yu pirlari bilan suhbatlar o'tkazib ularning fikri, maslahatlariga alohida e'tibor qaratardi. "Tuzuk"larda uni shunday keltiradi: "Donishmandlar dono fikrlari orqali o'z o'rnida qilingan tadbir bilan sanoqsiz lashkar qilichi ojizlik qilgan har qanday mamlakat darvozasini ochib, behisob lashkarni yengib bo'lur". Bu harbiy kengashlarga dahldor, ya'ni murosamadora siyosati va dipolomatiyasi ish bermaganda so'ngi chorani qilichga qoldirilishidan dalolat beradi.

Amir Temur o'zining Oliy Kengash va Mashvaratiga to'plangan vakillari qanday insonlar bo'lganligini quyidagicha baho berishda yaqqol ko'rish mumkin: "Tajribamda ko'rilgankim, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tashabbuskor, tadbirkor va xushyor bir kishi, ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir. Chunki tajribali bir kishi ming kishiga ish buyuradi".

Amir Temur har bir ishining muvafaqiyatini ta'minlashda to'g'ri chiqarilgan qaror va to'g'ri amalga oshiriladigan tadbirga bor diqqatini qaratganligini shunday bayon etadi: "Ishlarimning barini Kengash bilan

yurgizib, uni bitirishda to'g'ri tadbir qo'llar edim. Bir ishga kirishmay turib, avvalo, undan qutulib chiqish yo'llarini mo'ljallab qo'yar edim. Uni to'g'ri tadbir, qat'iy jazm, chinlik, chidamlilik ko'rsatib, ehtiyotkorlik bilan uzoqni ko'rib, orqa-oldini o'ylagan holda oxiriga yetkazardim.

Yana tajribamdan o'tkazdimki, Kengash ishtirokchilari birlik, ittifoqlik, hamjihatlik (bu yerda Oliy Majlis vakillari yoxud Parlament Temur jahon xalqlariga mutlaq isbotlab bera oldi. Adolat va haqiqat jamiyatning barcha sohalarda hayotning tub-tubiga qadar yetib bordi, tantana qildi. Adolat tantana qilgan jamiyat nimalarga qodirligini ham aynan Sohibqiron "Kuch adolatda" shiorini davlat boshqaruvi amaliyotiga tadbiriq qilib amalda uni jahonga ko'rsata oldi.

Uyg'onish jarayonini Yevropa uning Sardori Sohibqiron Amir Temurdan qabul qildi. Unda faqat Yevropa, balki butun dunyodagi aksariyat mamlakatlar tamaddun eshiklarini lang ochib berganligi uchun minnatdor jahon ahli buyuk davlat arbobi, ulug' sarkarda va fan-madaniyat homiysi va bunyodkor tarixiy shaxs Amir Temurning hurmat- izzatini xotirlab YUNESKO qarorgohi Parijda tavallud sanasining 660 yilligini jahoniy miqyosda zo'r tantanalar bilan nishonlandi. Bunday e'tibor va hurmat boshqa biron davlat arbobi va tarixiy shaxsga ko'rsatilmaganligi e'tiborga olinsa, buyuk ajdodimiz Sohibqiron bobokolonimizning jahon xalqlariga qilgan buyuk xizmatlari naqadar beqiyosligidan darak beradi. Bir vaqtda esa yurtimiz shon-shuhratini, dovrug'ini olamga tanitdi.

Agar xalqimiz Sohibqiron Amir Temur davridagidek birlashib aqliy, ma'naviy, jismoniy-ruhiy kuchlarini hamjihatlik bilan yagona oqim tarzida mujassamlashtirib, Yangi O'zbekiston, ya'ni dunyoga Sohibqiron Amir Temurning haqiqiy vorislari ekanligini isbotlay olsa, uchinchi tamaddun kashshoflari, bunyodkorlari sharafligini maqomiga ega bo'lishimiz muqarardir. Buning uchun quyidagi to'siqlar hali ham mavjud: Mustabid tuzum davridagi hadiksirash, ikkilanish, ikki yuzlamachilik, shiddatli tashabbus yetishmovchiligi, jur'atsizlik ko'p hollarda har bir ishga aqlu-idrok tadbiri bilan yondashmaslik, ko'r-ko'rona itoat, hudbinlik, millatdoshlik tuyg'usini his qilmaslik, manmanlik, boylikka haddan tashqari hirs qo'yish oqibatida Vatan, Xalq manfaatidan uzoqlashish, ma'naviyati taqchil ayrim turli darajadagi kibor, shuningdek ayrim rahbar

va amaldorlardagi egoizm yoxud o'ziga bino qo'yish, oila muqaddasligininig unutilishi oqibatida tarbiyadagi nuqsonlar, ya'ni ajralishlar miqdorining ko'payib, tirik yetimlarning ko'payishi, jamiyatda ildiz otgan poraho'rlik, ishsizlik, ilmu-fanga buyuk ajdodlarimiz e'tiqod qo'ygandek xalollik holatini unutish, o'tmishda san'at darajasiga ko'tarilgan hunarmandlik sirlaridan uzoqlashuv, ilmu-hunar sohasidagi ustoz-shogird an'analaridagi uzilishlar shular jumlasidandir. Ana shu salbiy qusur va xatolardan qanchalik tezroq qutilib, jamiyatimiz sofligi-yu adolat hukumronligiga to'laqonli erisha olganimizda aslimiz va o'zligimizga qayta olganimizda milliy uyg'onishdan milliy taraqqiyotning huquqiy, ishonchli yo'lga tushgan bo'lamiz. Respublika Prezidanti Shavkat Mirziyoyev aynan shu qusurlardan qutilishga xalqimizni da'vat etayotganligi shundandir. Chunki bu vaqtda ong va tafakkurimizda, amaliy hayotimizda ishimizni orqaga tortadigan salbiy omillardan xoli bo'lgan, qutulgan bo'lamiz. Bizni orqaga tortuvchi yuqorida qayd etilgan qusurlardan qancha tez qutilsak olg'a qarab yurishimiz shuncha tezlashadi. YA'ni jamiyatda "Tuzuklar"da qayd etilganidek, Xalq va boshqaruv tashkilotlaridagi o'zaro munosabatlarda mustahkam ko'prik hosil bo'lib, jamiyat va davlat o'rtasidagi muvozanat to'laqonli tarzda tiklanadi. Xalq Parlamentda o'zining haqiqiy vakillari faoliyatini to'laqonli his qiladi. Ularning nomlari deputatlikka saylanish paytida qanday jaranglab turgan bo'lsalar o'shandek holatda saqlanib qoladi. Xalqimiz fidoiy insonlarni xotiridan chiqarmaydi, e'zozlaydi.

Amir Temur "Tuzuklari" aqlu-donolik bilan jamiyat va davlatni idora qilish Qomusi bo'lib, unda muammolarni yechish va g'alabalarni qo'lga kiritishning falsafiy-diniy yo'llari ham ikki karra ikki to'rt arifmetik raqamidek o'zini yaqqol ko'rsatib turgandir.

"Tuzuklar" bu qomusiy boshqaruv ilmi sifatida hozirgi kunning barcha rahbariy tizimidagi amaldorlarga kundalik faoliyatida qo'llanma, har bir mansabdorlarga ustoz, beminnat nasihatgo'y, boshi berk ko'chaga kiray deganlarga samimiy va beg'araz o'git qiluvchi aqlu-dono do'st o'rnida xizmat qiluvchi Qobusnoma vazifasini ishonch bilan bajara oluvchi asrlar osha xizmat qiluvchi asar maqomidadir.

Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q deyishida xalqimiz. Garchi Amir Temur “Tuzuklari” jahon siyosiy va harbiy boshliqlaridan tortib ulardagi o‘rta bo‘g‘indagi rahbarlar uchun ham amaliy faoliyatlarida asosiy dasturilamal missiyasini bajarib, ularning zafarlarga erishuvida misilsiz xizmat qilgan bo‘lsa, biroq hali bizning xalqimiz orasidagi turli tashkilot rahbarlaridan tortib yuqori doira rahbarlarigacha bu xazinadan o‘z hissalarini olgan emas, agar har birlari o‘z faoliyatlarida boshqaruv Akademiyasi bo‘lmish “Tuzuklar”dan o‘zlariga zarur darajadagi saboqlarni o‘zlashtirsalar unda bu nodir asar ularning muvaffaqiyatiga yangi muvaffaqiyatlar shodasini taqdim etib, el ichra obro‘-e‘tiborlari yanada yuqori mavqega ko‘tarilgan bo‘lur edi. Gap faqat “Tuzuklardan” har bir rahbar va tadbirkorning to‘g‘ri va unumli foydalanishida qolgan xolos. Bu noyob asar barcha insonlarning har qanday muammoni aql va tadbir bilan ijobiy yechimini topishiga ishonchli omil bo‘la oladi.

“Tuzuklar”dagi aqlu donolik falsafiy o‘gitlarni agar quyi tabaqa oddiy insonlardan tortib yuqori doiradagi mansab egalariga qadar barcha har kim o‘ziga zarur darajada uning ma‘rifati, ishga tadbir qo‘llash san‘atini egallaganida bormi, o‘n yillarda bosib o‘tayotgan yo‘lini ikki-uch yilda bosib o‘tgan bo‘lur edi. Ana shu paytda Amir Temur davridagi xalqimizda haqiqiy va shiddatkor turkiy o‘zbek gupurlab ufura boshlagan, ularga haqiqiy monand avlod merosho‘rlar darajasiga ko‘tarilgan mavqeda bo‘lur edik. Aslida buyuk ajdodlar amalga oshirilgan ulug‘ ishlar bilan faxrlanish bilangina aslo ish bitmaydi. Balki ularga chinakam munosib bo‘lish uchun ular amalga oshirgan buyuk ishlarga shu kabi zalvorli, katta zafarli ishlarni amalga oshirish bilan javob bera olishimiz zarur. Buning uchun ularning boy merosini egallab, intellektual aqliy, jismoniy, ma‘naviy-ruhiy kuchlarimizni tinimsiz oshirib, mustahkamlab temir irodani ishga solib, zafarlardan zafarlar sari shiddat bilan olg‘a yurishimiz talab etiladi. Jahon xalqlariga shu tariqa kimlarning vorisi ekanligimizni isbotlay olishimiz talab etiladi. Aks holda iqtisodiy zo‘ravon, siyosiy shafqatsiz davlatlar geosiyosiy doiradagi qaltis usullarini qo‘llovchilar tomonidan zamonaviylashgan sirtmoqlariga tushirilmasligimizga hech kim kafolat berolmaydi. Avvalldan zamona zo‘rniki shiori urushlar orqali hal etilib, dunyo siyosati qaram va g‘oliblar munosabatlaridan borat bo‘lsa, hozirgi

davrda bomba, o‘q, zarba beruvchi qurollarsiz mafkuraviy, tahdid, iqtisodiy qarzga botirish va yana shunga o‘xshash o‘nlab xil tuzoq yo‘llari borki, qaramlikning domiga o‘z ixtiyoringiz bilan majburiy tarzdagi taslimlik, noteng sulh va kamsitilish kabi hujjatlariga imzo chekishdan o‘zga iloj qoldirmaydi. Ana shularni nazarda tutgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xalqimizni, harbiylarimizni yoshlarimizni Sulton Jaloliddin Manguberdi, Sohibqiron Amir Temur va Zahriddin Muhammad Bobur va qolaversa Vatan, Xalq manfaati deya o‘limdan qo‘rqmagan jadidlarning jasoratga, mardlikka limmo-lim to‘la shon-sharafli hayot yo‘lini, asarlari-yu merosini chuqur egallab, huddi ular kabi jismu-jonini Vatanga bag‘ishlaydigan vatanparvar, Vatanga sadoqatli bo‘lishga undayotganligi bejiz emas. Negaki har bir avlod o‘zidan keyingi vorislarga ajdodlardan Muqaddas meros bo‘lib o‘tayotgan Vatanni bekamu-ko‘st ardoqlab topshirishlari ma’naviy burch hisoblanadi. Vatanga g‘anim havf-hatar tug‘diradigan bo‘lsa, unda hech ikkilanmay jonni fido qilishga shay turmog‘imiz farzandlik burchimiz hisoblanadi. Buyuk ajdodlarimiz ruhlari shundagina bizdan rozi-rizo bo‘ladilar. Mahsharda ular bilan bo‘ladingan uchrashuvda ham yuzimiz yorug‘ bo‘lib, abadiyat dunyomiz ham obodlikda, ya’ni Parvardigorning: “Sizlar bizlardansizlar” olqishiga sazovor bo‘lamiz. Zero Vatan uchun, uning mustaqilligi, erki uchun borliqni bag‘ishlash insoniylik va vatanparvarlik burchimizdir. Buyuk ajdodlarimizga haqiqiy munosib bo‘lib yashash biz uchun ham qarz ham farzdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – Toshkent: Adabiyot va San’at. 1990. 35-bet.
2. Halim Boboyev, Solijon Xasanov. “Avesto” – ma’naviyatimiz sarchashmasi. 52-bet. Toshkent “Adolat”-2001.
3. Temur tuzuklari. “Shodlik” nashriyoti. 72-bet. Toshkent, 2018.
4. O‘ljayeva Shohistaxon. Amir Temur davlat boshqaruvi. 90-bet. Toshkent “Akadem nashr”. 2017.
5. Raximov Jumaboy. Adolat va Qudrat va Qudrat timsoli. “O‘qituvchi” NMIU. Toshkent – 2017.

AMIR TEMUR TUZUKLARIDA HARBIY MASALALARNING YORITILISHI

*I.Y.Inoyatov,
O‘zbekiston Respublikasi
Milliy gvardiyasi Toshkent
“Temurbeklar maktabi” metodisti, t.f.n.*

Buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat tuzilishida uning armiyasi hamda harbiy san’ati alohida rol o‘ynagan. Uning tuzuklarida Amir Temur harbiy tashkilotchi hamda atoqli sarkarda sifatida namoyon bo‘ladi. Rus armiyasi general leytenanti M.I.Ivaninning “Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur” kitobida ko‘rsatilganidek Amir Temur barpo etgan armiyaning ichki tuzilishi Chingizxon tuzgan qo‘shin tizimi va tuzilishiga ma’lum darajada yaqin bo‘lsa-da, biroq quyidagi jihatlari bilan farqlangan:

Birinchi, Amir Temur qo‘shini umumxalq xarakteridagi lashkardan iborat emasligi;

Ikkinchi, qo‘shinga chorvadorlardan, kosiblardan, hunarmandlardan, dehqonlardan va o‘troq aholidan askar olinganligi;

Uchinchi, qo‘shinida otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalardan tuzilgan qismlar ham mavjud bo‘lganligi;

To‘rtinchi, Amir Temur Sharqda birinchilardan bo‘lib o‘z qo‘shiniga o‘t irg‘ituvchi qurol – ra’d andoz olib kirganligi;

Beshinchi, qo‘shinda tog‘li hududlarda jang harakatlari olib borish uchun piyodalar tarkibidan iborat tarzda tuzilgan maxsus qismlarni mavjudligi;

Oltinchi, jahon harbiy san’ati tarixida Amir Temur tomonidan birinchi bo‘lib qo‘shinni jang maydonida etti qo‘lga bo‘lib joylashtirish tartibini joriy etilganligi;

Ettinchi, qo‘shin qanotlarini jang chog‘ida dushman hujumidan muhofaza qilish va aksincha g‘anim kuchlarini yon tomonidan aylanib o‘tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism – kunbulning joriy etilishidir.

Amir Temur sipohni tuzishda, asosan o'z zamonasida mashhur bo'lgan o'nliklar, yuzliklar, mingliklar tartibiga amal qiladi. Uning lashkarlarining eng quyi bo'g'ini o'nliklardan tashkil toptan bo'lsa, eng yuqorigi bo'g'iniga esa amirul umaro rahbarlik qilgan. Ularning ustidan yakka o'zi cheksiz huquqqa ega bo'lgan holda qo'mondonlik qilgan. Eng muhimi shundaki, sipoh tashkil etishda Amir Temur ularga o'nboshi, yuzboshi, mingboshi va amirlar tanlashda bevosita jang maydonida o'zining mahoratini ko'rsatgan shaxslarni tanlaydi. Bu haqida u shunday deydi: «Amr qildimki, qachonki asl sipohlardan ish ko'rgan, jang-jadalda suyagi qotgan o'n kishi yig'lsa, bulardan qaysi birining shijoati, botirligi ortiqroq bo'lsa, qolgan to'qqiztasining roziligi va ma'qullashi bilan, uni o'zlariga boshchi saylab, otini o'nboshi deb atasinlar».¹ Yoki «o'n nafar o'nboshi jam bo'lsa, o'z ichlaridan eng ish ko'rgan, jang maydonlarida toblanib tajriba orttirgan, bahodirlikda nomi chiqqan birovini amir qilib, uni yuzboshi deb nomlasinlar»². Ana shu tartibda mingboshi (amiri xazora) va boshqa qo'mondonlarni tayinlashni joriy qiladi.

Amir Temur qo'shishning jangovar tartibini doimo takomillashtirib turishga alohida e'tibor qaratgan. U qo'shin markazi – qo'lni ilg'or qism – xirovul hamda madadkor qism – chindovul bilan mustahkamladi va uni faqat oliy bosh qo'mondon oldida mas'ul qilib qo'ydi.

Qo'shin safar paytida quyidagi jangovar tartibda harakat qilgan. Bosh kuchlardan ancha ilgarida qorovul – avanpost, undan mangliy xirovul – avangard, barong'or, javongor, qo'l, chindovul – arergard yurgan.

Taktik jihatidan Amir Temur qo'shini o'ziga xos xususiyatlari shundaki, u etti taktik qism – kuchlarga bo'lingan, razvedka a'lo darajada yo'lga qo'yilgan, qismlarning jang maydonida talab darajasida harakat qilishi uchun zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilgan, ularni jang chog'ida boshqarishga alohida e'tibor qaratilgan, qismlararo aloqaning yuqori saviyada bo'lishi, harbiy boshliqlarning to'g'ri tanlanganligi jangovar harakatlarni natijasiga salmoqli ta'sir ko'rsatgan.

Amir Temur butun faoliyati davomida harbiy tashkilotchi va buyuk sarkarda sifatida qo'shinni takomillashtirishga e'tibor qaratishi bilan birga

¹ Темур тузуклари. - Тошкент.: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991, - Б. 69.

² Темур тузуклари. - Тошкент.: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991, - Б. 69.

bu qo'shinni boshqarishda intizom masalalariga ham alohida e'tibor qaratdi. U intizomli qo'shin tuzishga, uni mohir qo'mondonlar bilan ta'minlashga, jang chog'ida qismlarni san'atkorona boshqarishga, jang taqdirini hal etuvchi nuqtalarga yordamchi kuchlarni o'z vaqtida yo'llashga, har qanday to'siq va g'ovlardan tadbirkorlik bilan o'tishga erishgan. Shuningdek, dushman mudofaasini turli usullar bilan yakson qilish, g'anim mamlakatlarining markaziy va yirik shaharlariga qo'qqisdan kuchli zarba berish, mustahkam inshootlarga ega bo'lgan qal'a, qo'rg'on va hisorlarni uzoq muddat qamal qilish, yov kuchlarini iloji boricha keng ko'lamda qurshovga olish, raqibni taqib qilish kabi strategik rejalarni ko'zlab ish yuritish Amir Temurga 27 mamlakatni birlashtirgan buyuk imperiyani tuzish imkoniyatini berdi.

Amir Temur faqat o'z sipohini tashkil etish yoki uning jangovarligini oshirish ishlari bilangina emas, balki sipohning ichki masalalari, xususan, sipohga ulufa, ya'ni oziq-ovqat, maosh, turli moddiy in'omlar qilish, shuningdek, tanho taqsimlash, ya'ni ayrim amirlarga, mingboshi, yuzboshilarga ko'rsatgan qahramonliklari uchun boylik, er-suv, amirlik mansabini berish, sipohiylarni eng quyi darajadan oliy martabagacha tayinlash qoidalarini, tuzuklarini ishlab chiqadi.

Sipohga belgilangan maosh masalasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, u Amir Temurning amriga binoan quyidagicha tashkil qilingan, ya'ni oddiy sipoh o'z vazifasini qoyilmaqom qilib bajarganda, unga mingan otining bahosi berilgan. Bahodirlarning maoshi ikki ot bahosidan to'rt ot bahosigacha qilib belgilangan. O'nboshilar maoshi qo'l ostidagi oddiy sipohiydan o'n barobar ortiq bo'lgan.

Yuzboshilarniki esa o'nboshilarnikidan ikki barobar yuqori, mingboshilarniki esa yuzboshinikidan uch barobar ziyoda bo'lgan. Sipohiylarga maosh belgilashda Amir Temur moddiy rag'batlantirish qoidasiga qat'iy amal qilgan.

Sipohiylarning maoshi bir xil bo'lmagan. Amir Temur ularning ko'rsatgan xizmatlariga qarab maosh tayin qilgan. Shuningdek, u alohida qahramonlik ko'rsatganlar uchun ulufa, tanho kabi rag'batlantirishlarni ham joriy qilgan. Amir Temur yozadi: «Amr qildimki, amirul umaroning maoshi o'z qo'l ostidagilardan o'n barobar ortiq bo'lsin. Shunga o'xshash,

devonbegi va vazirlarning maoshlari esa amirlar maoshidan o‘n barobar ko‘p bo‘lsin.

Yasovullar (xonlarning kichik xizmatchisi), qalaqchilar (hosilga qarab xiroj miqdorini belgilab beruvchi mansabdor) maoshlari o‘z xizmatlariga yarasha, mingdan o‘n ming (tanga)gacha bo‘lsin»¹

Harbiy harakatlar davrida armiya ta‘minoti masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Amir Temur o‘z jangchilarini zarur ot-ulovi, qurol-yarog‘, oziq-ovqat, em-xashak bilan ta‘minlashini viloyat hokimlari, tuman yoki shahar beklari, qal‘a, qo‘rg‘on dorug‘alari zimmasiga yuklagan. Shu bilan birga har bir suvoriyga bitta yoy, 30 ta o‘q, bir sadoq, bir qalqon va bitta qo‘shimcha ot ajratilgan. Yurish vaqtida har o‘n jangchi bo‘z chodir, ikki belkurak, bir kerki, bir o‘roq, bir arra, bir tesha, bir bolta, 100 dona nina olishi belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, yarim man arkon, bir dona pishiq teri va bitta qozon olib kelishi shart bo‘lgan.

Amir Temur sipohning tuzilishi, uning ta‘minoti, maoshlari bilan bir vaqtda sipohlarning o‘z beklariga va aksincha beklarning o‘z sipohlariga bo‘lgan munosabatining huquqiy va axloqiy jihatlarni ham tartibga soladi. U sipohlarning to‘g‘ri va adolatli bo‘lishlarini talab qilgan. Sipohlar o‘zlarini doimo beklarining xizmatlarida deb bilib, ularga ixlos qo‘yib xizmat qilganlar, aks holda ularning omadlari kelmay, tushkunlikka uchrashlari mumkin bo‘lgan. Amir Temur o‘z begiga ixlos qo‘ygan va sidqidildan xizmat qilgan navkarning boyligi, davlati, noz-ne‘mati kundankun ortib boradi, deb hisoblaydi. U bu haqida shunday yozadi: «...qaysi navkar o‘z xizmati, haq-burchini unutib, ish vaqtida (mehnatdan) yuz o‘girar ekan, unday navkardan yuz o‘girmoq kerak. Qaysi navkar ish vaqtida bahona izlab, jangu-jadal paytida ijozat so‘rab, qochishni mo‘ljallasa, bugungi ishni ergaga qoldirsa, bunga o‘xshash navkarlar nomlarini ham tilga olishga munosib emasdir. Bunday kishilarni parvardigori olamga topshirish zarur».² Ikkinchi tomondan amirupodsholarga qarata Amir Temur ular o‘z navkarlarini ulug‘lab ko‘targan bo‘lsalar, ularni xo‘rlamasinlar, bilgan, taniganlarini unutmasinlar. Agarda ahyon-ahyonda navkarning izzat-nafsigaga tegib, uni xo‘rlagan bo‘lsalar,

¹ Temur tuзуклари. - Тошкент.: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991,- Б. 70.

² Temur tuзуклари. - Тошкент.: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. - Б. 87-88.

keyinchalik uni ikki xissa izzatini oshirsinlarki, toki u ganasini ko‘nglida saqlamasdan chiqarib yuborsin, deb uqtiradi. Agarda navkar begidan ajrab ketib, yana qaytib kelsa, uning aybini kechirish lozimligini ham ta’kidlaydi. Amir Temurning ko‘rsatishicha, g‘anim tomonidan navkar o‘z begini himoya qilib, bizga nisbatan qilich ko‘tarib, jang

qilgan bo‘lsa va keyinchalik bizning xizmatimizga kelsa, bunday navkarlarni qabul qilish va uni hurmatlar va ko‘p iltifotlar ko‘rsatish kerak, deb hisoblaydi.

Shunday qilib Amir Temur tomonidan tashkil etilgan armiya o‘z davrining eng qudratli armiyalaridan bo‘lib u tuzilishi, boshqaruvi, ta’minoti va intizomi bilan boshqalardan ajralib turgan. Bu tajriba keyingi davrlarda qator davlatlarda harbiy amaliyotda keng qo‘llanilganligi bilan e’tiborga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Temur tuzuklari. - Toshkent.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.

2. M.Ivanin. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur” T.: “Xazina”, 1994.

AMIR TEMUR TUG‘ILGAN JOY VA U YERDAGI “POLVON TOSH” XUSUSIDA

A.Zamonov,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

“Tarix” kafedrasi mudiri, t.f.f.d., dotsent

Amir Temurning tug‘ilishi, manzi, bolalik va o‘smirlik yillari haqida tarixiy manbalarda ma’lumotlar nihoyatda kam. Buning eng asosiy sababi, u o‘z avlodlari kabi hukmdorning o‘g‘li bo‘lmay, Kesh viloyatining kichik beklaridan birining farzandi bo‘lgan. Shu tufayli ham asosan, saroyda faoliyat ko‘rsatadigan muarrixlar uning yoshlik chog‘lari bilan deyarli tanish bo‘lmagan. Shunga qaramay, ayrim manbalarga qaraganda, u yoshligida xat-savod chiqarib, o‘z davrining tibbiyot, riyoziyot, falakiyot,

me'morchilik va tarix ilmlarini o'rgangan. Amir Temur bilan suhbatlashish sharafiga muyassar bo'lgan buyuk arab faylasufi Ibn Xaldun jahongir turk, arab, fors xalqlari tarixini, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning murakkab jihatlarigacha yaxshi o'zlashtirganini ta'kidlaydi [6, 41-46].

Amir Temur tug'ilgan joy Amir Temur ibn Amir Tarag'ay milodiy 1336 yil 8 apreldan 9 aprelga o'tar kechasi Kesh (Shahrisabzga qarashli) yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ildi. Tarixiy adabiyotlarda Amir Temurning Yakkabog' emas, «Shahrisabzga qarashli Xo'ja Ilg'or qishlog'i»da tug'ilgani haqidagi ma'lumotlar keltirilishini qisqacha sharhlaymiz. Amir Temurning Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilganligi haqidagi ilk ma'lumotlar arab muarrixii Ibn Arabshoh (1389–1450 yillarda yashagan, 12 yoshligida Amir Temur farmoniga binoan Damashqdan qarindoshlari bilan birga Samarqandga olib kelingan)ning Amir Temur haqidagi «Amir Temur tarixida taqdir ajoyibotlari» asarida uchraydi (Muiniddin Natanzii esa o'zining 1414 yil yozilgan «Muntaxab ut-tavorixi Muiniy» asarida Amir Temurni Niyozii qishlog'ida tug'ilganligini aytadi [3, 85]. Lekin bu qishloqning o'rni hanuz munozarali). Jumladan, unda «Temur ibn Tarag'ay ... tug'ilgan joyi Xo'ja Ilg'or deb ataladigan qishloq, Xo'ja Ilg'or Keshga qarashli joylardan... Kesh Movarounnahr shaharlaridan, Samarqanddan taxminan 13 farsax (1 farsax 6–8 km. – A.Z.)», deb yozilgan ma'lumot mavjud [2, 68]. Xo'ja Ilg'or qishlog'i Sohibqiron tug'ilgan maskan sifatida tanilgani sababli doimo tarixchilar va keng jamoatchilik e'tiborini o'ziga tortib kelgan.

Xo'ja Ilg'or qishlog'i bugungi kunda Yakkabog' tumanida. Xo'sh, nega unda tarixiy adabiyotlarda mazkur qishloq «Shahrisabz yaqinida», «Keshga qarashli», «Shahrisabzga qarashli» deb yozib kelingan? Bugungi kundagi Yakkabog' va Shahrisabz tumanlari o'rta asrlarda Kesh vohasi doirasida bitta hududiy birlik sifatida tilga olib kelingan. Yakkabog'ning Shahrisabzdan alohida ma'muriy hudud sifatida ajralib chiqishi va tarixiy shakllanishi to'g'risida ba'zi tadqiqotchilar yozgan bo'lsa-da, uzoq vaqtlardan beri bu tarixiy jarayon mavhumligicha qolib kelayotgandi. Yakkabog' viloyati (bekligi)ning paydo bo'lishi ashtarxoniyalar davriga (1601–1756), XVII–XVIII asr boshlariga to'g'ri keladi. Kenagas va

mangʻitlar Shahrisabz bekligiga kelib oʻrnashgan paytlarida beklkning Taka, Yakkabogʻ, Surxob mintaqalari boshqaruvini oʻzbeklarning avaqli urugʻi vakillari qoʻlga kiritdi [4, 99-101]. Shu vaqtga qadar alohida maʼmuriy birlik sifatida mavjud boʻlmagan Yakkabogʻ bekligining tarixiy shakllanishi mazkur urugʻ vakillaridan boʻlgan Qosimbekning faoliyati bilan bogʻliq. Buxoro amirligining asoschisi Muhammad Rahimbiy (1756–1758) Shahrisabzni boʻysundirgan paytlarda Qosimbek avaqli Yakkabogʻ bekligining hokimi boʻlgani haqidagi maʼlumotlar manbalarda saqlanib qolgan. Shu vaqtlardan boshlab Yakkabogʻ Qosimbek avaqli va uning avlodlari tepasida turgan maʼmuriy boshqaruv tizimiga ega viloyat (beklik)ga aylandi (Yakkabogʻliklar orasida mashhur boʻlgan Yodgorbek vallamiy mazkur beklkning yettinchi hokimi boʻlgan. – A.Z.) [1, 20]. Shunday boʻlsa-da, Yakkabogʻ qisqa muddatlarda Shahrisabz bilan goh siyosiy ittifoqda, goh uning taʼsirida, goh tarkibida boʻlgan maʼlum davrlar ham mavjud. Hatto 1920- yillarda ham Yakkabogʻdagi Xoʻja Ilgʻor qishlogʻi Shahrisabz viloyatining Moʻminobod amloki (amlok – kichik maʼmuriy hudud)ga qarashli boʻlgan [1, 94]. Xullas, Amir Temur tavallud topgan davrlarda (XIV asr) Yakkabogʻ deb nom olgan alohida maʼmuriy birlik mavjud emas edi. XVIII asrda shakllangan Yakkabogʻ bekligi esa Kesh (Shahrisabz) viloyatiga qarashli hudud boʻlgan. Shu jihatdan qaraganda, koʻplab tarixiy manbalar va adabiyotlarda Amir Temur tavallud topgan joy – bugungi Yakkabogʻ tumanidagi Xoʻja Ilgʻor qishlogʻi Shahrisabz va Kesh nomlari bilan yonma-yon keladi.

Sohibqiron Amir Temir tavallud topgan Xoʻjailgʻor qishlogʻi hozirgi kunda Yakkabogʻ tumani hududidadir. U tuman markazidan 4 km uzoqlikda joylashgan. Xoʻjailgʻor qishlogʻi haqida “Qashqadaryo qishloqnomasi” kitobida: *“Xoʻjailgʻor” – Yakkabogʻ tumanidagi qishloq. Tarkibi: hoʻja+ilgʻor. Xoʻja-sigʻinadigan (joy); muqaddas, moʻtabar; qadamjo. Adabiy tildagi ilgʻor(qoʻshinning oldingi qismi; peshqadam; yangilikka boshlovchi) soʻzining nom tarkibidagi ilgʻor soʻziga daxli yoʻq. Nom tarkibidagi ilgʻor soʻzining tovush tarkibi oʻzgargan. Ilgʻor soʻzining tarkibi: ilgʻor. Eroniy tillarda gʻar/gʻor-togʻ. Togʻsimon balandlik, tosh. Il soʻzining maʼnosi va qadimiy shakli noaniq. Nomning shakllanishida*

g'ar/g'or so'zining tosh ma'nosi asos bo'lganligi taxmin qilinadi: ilg'or-tosh qo'rg'on" [5,280] deyiladi.

Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanida joylashgan, Sohibqiron Amir Temur tavallud topgan Xo'ja Ilg'or qishlog'ida buyuk bobokalonimiz hayot yo'liga bag'ishlangan madaniy yodgorlik deyarli saqlanmagan. Qishloqda milodiy 711 yilda vafot etgan va xalq o'rtasida Xo'ja Ilg'or ota nomi bilan tanilgan Xo'ja Muhammad ibn al-Qosimning ham maqbarasi joylashgan bo'lib, Xo'ja Ilg'or qishlog'i bugungi kundagidan shimoli-sharqqa qarab kengaygan hududda bo'lgan. Amir Temur bilan bir davrda yashagan tarixchi Ibn Arabshohning ta'kidlashicha, Sohibqiron Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan va shu makonda ulg'aygan.

Rivoyatlarga ko'ra, mazkur qishloqdagi «Xo'ja Ilg'or ota» qabristonida bo'lgan, og'irligi 100 kilogrammga yaqin tosh Amir Temur yoshligida ko'tarib, mashq qilib chiniqqan «polvon tosh» ekan. Lekin, so'nggi paytlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, bu toshning «polvon tosh» emas, balki, qabr toshi ekanligini isbotladi. Chunki, Movarounnahrda Temur va temuriylar davriga qadar qabrlar uchun qayroq toshlar qo'yilgan bo'lsa, XIV asrdan marmar toshdan qabr toshi qo'yish urfga kirgan. «Xo'ja Ilg'or ota» qabristonidagi «polvon tosh»ning shakli beshiksimon bo'lib, bu arablar istilosidan keyin paydo bo'lgan shakl hisoblanadi. Temur va temuriylar davridagi qabrlardagi toshlar, xususan, Samarqanddagi Shohi Zinda ansamblidagi temuriy shahzoda, malika va amirlarga tegishli ko'plab qabr toshlarining shakli aynan, «Xo'ja Ilg'or ota» qabristonidagi «polvon tosh»ning shaklini eslatadi. Xo'sh, bu tosh qabr toshi bo'lsa, nega unda yozuvlar mavjud emas?! Tarixchi va epigraf olim Bobur Aminovning izlanishi natijalariga ko'ra, o'rta asr qabr toshlarining hammasida ham yozuvlar mavjud emas. Tarixiy manbalar tahlili asosida, buni quyidagicha izohlash mumkin: 1) bunday toshlar asosan, yuqori tabaqa vakillariga qo'yilgan bo'lib, tug'ilgan bola go'dakligidayoq vafot etsa, unga qo'yilgan tosh yozuvsiz bo'lgan; 2) musulmon jamiyatlarida ko'p hollarda ayollarga qo'yilgan qabr toshlariga yozilmagan; 3) ayrim hollarda bek va amirlar o'zlariga tirikligidayoq qabr tosh yasatishgan, vafot etgandan keyin unga avlodlari yozdirishlari lozim

boʻlgan. Vaziyat oʻzgarib, tosh sohibining boshqa joyda vafot etib, dafn etilishi natijasida toshlar egasiz qolib ketgan (buni eski qabristonlar omborlaridan topilgan yozuvsiz toshlar tasdiqlaydi). Xullas, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu tosh «polvon tosh» sifatida qarala boshlangan. Ungacha boʻlgan davrdagi manbalarda «polvon tosh»lar xususidagi maʼlumot uchramaydi. Shuningdek, Amir Temur hukmdor yoki mamlakatning yuqori darajali shaxsining farzandi boʻlmaganligi uchun, uning bolalik davri zamondosh tarixchilar tomonidan yoritilmagan. Shuning uchun, uning bolaligi va oʻsmirlik davri haqida faktlar emas, asosan, afsona va rivoyatlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumanazar A., Toʻxliyev J. Yakkabogʻ – Sohibqiron kamol topgan yurt. – T.: Akademiya nashriyoti, 2018.
2. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-Maqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari) / Soʻzboshi, arab tilidan tarjima va izohlarni U.Uvatov tayyorlagan. 1- jild. – T.: Mehnat, 1992.
3. Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut-tavorixi Muiniy. / Fors tilidan tarjima, soʻzboshi va izohlar muallifi Gʻulom Karimiy. – T.: Oʻzbekiston, 2011.
4. Muʼin va uning «Zikri teʼdodi podshohoni oʻzbek» asari // Oʻzbekiston tarixi. XrestomatiY. XVI–XIX asrlar / Nashrga tayyorlovchi: N. Habibullayev. Toshkent, 2014.
5. Nafasov. T. Qashqadaryo qishloqnomasi. T.: Muharrir nashriyoti, 2009.
6. Habibullayev A. Ibn Haldun “Tarjimai hol”dan. / Amir Temur va Ulugʻbek zamondoshlari xotirasida. T.: Oʻqituvchi, 1996.

AMIR TEMUR DAVRIDA QO‘SHINLARNI BOSHQARISH

Sh.X.Eshquvvatov,

O‘zbekiston Respublikasi

Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Yurishga jo‘nashdan oldin Temurbek arkoni davlat, vazirlar, sarkardalar, beklar, amirlarni harbiy kengash – mashvaratga chorlagan. Ayni chog‘da ulusning turli viloyat va tumanlaridan, shuningdek tobe yurtlardan qo‘shin to‘plash uchun maxsus bo‘yruq – tunqal e‘lon qilingan. Farmon kerakli joylarga yuqori mansab egasi, bosh qo‘mondonning adyutanti– tavachi tomonidan tezlik bilan yetkazilgan.

Tavachining zimmasiga askar jamlashdan tashqari qo‘shin qismlarining qarorgoh yoki safardagi o‘rni, jangovar tartib – yasoli hamda bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishni nazorat qilish ham yuklatilgan edi.

Odatga binoan g‘alaba haqidagi fathnomalar mamlakatning har-bir chekkasi tomon choparlar orqali yetkazilgan. Bu xumoyun fath ovozi ro‘yi-maskanning barcha o‘lkayu viloyatlariga tarqalgan.

Mo‘g‘ullar foydalanib kelgan “otli estafeta” usuli Amir Temur davriga kelib ancha takomillashtirilib, maxsus bo‘limlar ochilgan, ularga o‘z yo‘nalishlari belgilab berilgan, yo‘nalishlar ustida har manzilga rabotlar (karvon to‘xtash joyi) qurilgan. Bunday “otli estafeta” yordamida aloqa tezligi sutkasiga 600 kilometrgacha yetkazilgan. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, bu estafetalarda, mahalliy sharoitdan kelib chiqib, zarur hududlarda tuyalar ham ishlatilgan. Manbaalardan yana shu narsa ma’lumki, choparlarda “shartlashilgan maxfiy so‘z” ham keng qo‘llanilgan.

Estafetalar yordamida Sohibqironning bo‘yruq va farmonlari qo‘shinlarga yetkazilgan, qo‘shin sarkardalaridan esa Sohibqiron qarorgohiga hisobotlar yetkazib berilgan. Xabarlarning maxfiyligini ta’minlash maqsadida, maxsus bo‘lim xodimlari maxsus muhr-tamg‘alar bilan ta’minlangan, yozma jo‘natmalar muhrlar bilan muhrlangan. shuningdek, muhr-tamg‘a egalari rabotlarda otlarni yoki choparlarni almashtirishda ustunlikka ega bo‘lgan, ularning talablari rabotlarda zudlik

bilan ijro etilgan. Xabarlarni yetkazishda jarchilardan ham keng qoʻllanilgan.

Jarchilar ovozli kommunikatsiyaning yagona turi boʻlmagan. Bevosita jangdagi shovqin paytida, yaʼni lashkarlar baqiruvi, otlar kishnashi va boshqa shov-shuvlarda jarchining ovozi eshitilmay qolishi yoki uzoqqa yetmasligi mumkin. Shu sababli jang paytida Amir Temur koʻproq nogʻopa va karnaychilarni ishga solgan. «Shu holatda Sohibqironning lashkarlari kurko, karnay va burgʻo chalib, zoʻr haybat va buyuk shavkat bilan yetib keldilar. karnay, surnay ovozidan olam shov-shuvga toʻldiyu, jahon uru gʻavgʻoga qoldi. Shu miyonada ustuy oʻz qoʻshini bilan qoʻl qismi orqasidan kelib qoʻshildi, ikki tomondan shu qadar koʻpchilik va shavkat bilan jang boshladilar». (Nizomiddin Shomiy «3AFARNOMA»).

Amir Temur tovushli kommunikatsiyadan nafaqat ommaga maʼlum bir axborotni yetkazish, balki jang paytida lashkarlar ruhini koʻtarish, gʻalabaga boʻlgan ishonchni kuchaytirish uchun ham keng foydalangan. Shuningdek, harbiy kommunikatsiyada uning yozma shakllari ham tarqalgan edi. Qoʻmondonlarni va qoʻshinlarni boshqarishning muhim turi Sohibqironning shaxsiy farmonlari edi.

Amir Temurning harbiy sanʼatida farmon jang ketayotgan maydonda hal etuvchi vositalardan biri hisoblanib, jang olib borishning turli xil shakllarini keltirib chiqaruvchi, askarlarni ruhiy oziqlantiruvchi, yovga kutilmagan tomondan zarba beruvchi bir zumda paydo boʻladigan tezkor kommunikatsiyaning bir turi sifatida koʻzga tashlanadi. Jang paytida Sohibqironidan bevosita farmon kelishi oddiy lashkarlar uchun katta voqea boʻlgan va ularning kuchlariga kuch qoʻshgan. «Amirlar mening yorligʻim yetib bormaguncha jangga kirmasinlar va navbat yetmaguncha joylaridan jilmasinlar» («3AFARNOMA»). Ommaviy kommunikatsiyaning yana bir turi bu xabar edi. Choparning (xabarchining) tezkorligini talab qiladigan omil shuki, u Amir Temurga har qanday sharoitda ham harbiy axborot yetkaza olishi kerak edi. Sohibqironning harbiy tajribasi koʻrsatganidek, turli holatdagi xabar yetkazish shakllari borki, bundan tadbirkorona foydalanmagan kishi jangda gʻalaba qozona olmaydi. Shunday ekan, xabar egasiga zumda yetishi va shu bilan birga oʻz mazmunini yoʻlda yoʻqotmasligi shart edi.

Shovqin-suron dushman askarlariga salbiy ruhiy ta'sir ko'rsatishini Amir Temur yaxshi anglab olgan va bu usuldan mohirona foydalangan. «Uzoqdan g'olib lashkarlarning shukuhini ko'rib, nog'orayu-karnaylarning ovozi eshitgach, g'animlarning vujudlari titrab larzaga tushdi, qarshi turishga toqat va chidamlari qolmay, qochish yulini tutdilar» («3AFARNOMA»). Har yerda, viloyatu shahar va o'rduda kundalik voqealarni yozuvchilari (“xabarnavis”) tayin qilsinlarki, hokimlar, raiyat, sipoh, o'z lashkari va yot-lashkarning hatti-harakati haqida meni xabardor qilsin. Atrofdan kirgan-chiqqan mol-mulk, chetdan kirgan va chetga chiqqan yot kishilar, har mamlakatdan kelgan karvonlar va hukmdorlik haqidagi xabarlar, qo'shni podshohlar, ularning gap-so'zlari, ishlari va uzoq o'lkalardan bo'lib, mening dargohimga yuzlangan ulamo, fuzalo haqidagi so'zlarni to'g'rilik bilan menga yozib tursinlar.

Amr qildimki, mingta tezyurar tuya mingan, mingta ot mingan yelib-yuguruvchi kishini chopqunchi, ming nafar tezyurar piyodani (chopar) etib tayinlasinlarki, turli mamlakatlar, sarhadlarning xabarlarini, qo'shni hukmdorlarning maqsadlari va niyatlarini bilib, huzurimga kelib, xabar qilsinlar, toki biron voqea, kor-hol yuz bermasidan burun chora va ilojini qilaylik.” (“Mulku mamlakat, sipohu-ra'iyat ahvolidan xabardor va ogoh bo'lib turish tuzugi”dan).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Amir Temur davrida kommunikatsiya harbiy axborot almashinuv, davlatni saqlash, kuchaytirish hamda kengaytirishning muhim vositasi bo'lgan. O'z-o'zidan tushunarliki, xarbiy kommunikatsiyaning barcha turlaridan mahorat bilan foydalanish davlat arboblari faqat foyda keltirgan.

Usha yili Amir Temur Xorazmga qo'shin tortib keladi. Urganchga borish uchun Kiyot shahri orqali o'tish kerak edi, bu shaxar bir oz qarshilik ko'rsatgandan keyin Temur qo'shini tomonidan ishg'ol qilinadi.

Kiyotning qo'ldan ketishi Xusayn Sufiga kuchli ta'sir kursatadi. U Amir Temur bilan yarashishga, uning talablarini bajarishga rozi bo'ladi. Lekin ayrim xokimlar Amir Temurning tez baland martabaga erishishini ko'rolmay Xusaynni unga qarshi gij-gijlay boshladilar. Xusayn ularning yordamiga ishonib Amir Temurga qarshi chiqadi, ammo uning tomonidan

tor-mor etiladi. Soʻng Xusayn Urganch qalʼasiga berkinadi va tezda vafot etadi.

Uning oʻrniga akasi Yusuf Sufi (1372) xokimiyatga keladi va Amir Temur bilan yarash shartnomasi tuzadi. Lekin u yarash shartlarini xiyonatkorona buzib, Amir Temur qaytib ketgandan keyin Kiyot shahrini bosib oladi va unga qarshi ochiqdan-ochiq dushmanlik harakatlariga oʻtadi. Shundan soʻng Amir Temur Xorazmga ikkinchi marotaba yurish qilishga majbur boʻladi (1373-1374 yy.). Ammo bu harbiy tuqnashuv gacha bormaydi, chunki Yusuf Amir Temurga tavba qilib yarash shartlarini soʻzsiz bajarishga vaʼda beradi. Bu ikkinchi yurish natijasida Janubiy Xorazm Amir Temur davlati tarkibiga kiradi.

1374 yildan keyin Amir Temur Xorazmga uch marotaba yurish qildi. Buning sababi Oltin Oʻrda xoni Toʻxtamishning Xorazmga daʼvosi edi.

1387-1388 yillarda Toʻxtamish Amir Temurning Movarounnahrda yoʻqligidan foydalanib, Xorazmga xujum qildi. Xorazm xokimi boʻlgan Sulaymon Sufini Amir Temurga qarshi qoʻzgon koʻtarishga undadi. Sulaymon Sufi bunga rozi boʻldi. Bu voqealar Amir Temurni 1388 yili Xorazmga yana yurishga majbur etdi. Temur Urganchni ishgʻol qildi sufiylar sulolasini tugatdi.

Shu vaqtdan buyon Xorazm Amir Temur davlati tarkibiga, keyin esa Temuriylar davlati tarkibiga kirgan. Shunday qilib, Yettisuvdagi va Sirdaryo etaklaridagi yerlardan tashqari Turkiston yerlarining hammasi Amir Temur qoʻliga oʻtdi.

Amir Temurning harbiy yurishlari tarixda «uch yillik» (1386-1388) «besh yillik» (1392-1396) «yetti yillik» (1399-1405) urushlar deb nom olgan.

Temur 1381 yilda Xirotda yurish qiladi. Bu davrda Xirotni kurdlar sulolasi boshqarar edi. Ularning xukmdori Riyosiddin Pir Ali Temurga qattiq qarshilik koʻrsatmadi. Lekin 1383 yilda Xirotda qoʻzgon koʻtarildi. Qoʻzgon bostirildi va kurdlar sulolasi qulashi bilan sarbadorlarning soʻnggi xokimi boʻlgan Ali Muayyod ixtiyoriy suratda oʻz yerlari va xokimiyatini Temurga topshirdi.

XIV asrning 80-yillari oʻrtasiga kelib butun Xuroson Amir Temur ixtiyoriga oʻtdi.

«Uch yillik» urush davrida Amir Temur Ozarbayjon, Tabriz, Mozandaron, Gilonni bo‘ysundiradi. Shundan keyin u Kavkazga yurish boshlab, Tiflis, Arzirum va Van kal’asini egalladi. Shunday qulay payt kelganidan, ya’ni Amir Temurning Erondaligidan foydalangan To‘xtamish Movarounnahrqa Qamariddin yetakchiligida qo‘shin yubordi.

Amir Temur 35 yil davomida harbiy yurishlar qiladi. Bu yurishlar natijasida u buyuk davlat tashkil qilishga erishdi. Uning tarkibiga Movarounnahr, Xorazm, Kaspiy atrofidagi viloyatlar, xozirgi Afgoniston, Eron, Turkiya, Xindiston, Iroq, Janubiy Rossiya, Kavkaz va G`arbiy Osiyoning bir qator mamlakatlari kiradi.

Amir Temurning muvaffaqiyatiga avvalo uning nodir harbiy iste’dodi sabab bo‘ldi. Amir Temur qo‘shinida qat’iy tartib va intizom o`rnatilgan edi. Xar bir jang rejasini va barcha qismlar uchun yo`l-yo`riqlarni o`zi ishlab chiqardi.

Uning harbiy iste’dodi Ankara yaqinida Sulton Boyazidga qarshi jangda ayniqsa yorokin namoyon bo‘ldi. Armiyaning yuragini va qo`mondonlik o`zagini Barlos upug`i vakillari tashkil etardi.

Shu davr voqealarining shoxidi bo‘lganlarning guvoxlik berishicha barloslar harbiy qo‘nimsizlikka nixoyatda chidamli, yoydan o`q uzishga juda usta, o`z xukmdorlariga sodiq va sabr-toqatli bo‘lganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H.Sodiqov, B.Yuldoshov, I.Inoyatov O‘zbekiston qurolli kuchlari (o‘tmishda va hozirda). –T.: Tafakkur qanoti., 2014. 37-38-b.
2. O‘sha adabiyot. 41-42-b.
3. H.Sodiqov va mualliflar jamoasi. O‘zbekiston qurolli kuchlari (o‘tmishda va hozirda) –T.: Tafakkur qanoti., 2014. 39-b.
4. O‘sha adabiyot. 40-41-b.
5. H.Sodiqov va mualliflar jamoasi. O‘zbekiston qurolli kuchlari (o‘tmishda va hozirda) –T.: Tafakkur qanoti., 2014. 41-b.
6. H. Karamatov va mualliflar jamoasi. Amir Temur jahon tarixida. – T.: Sharq. 2000. -134 b.
7. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat. 2008. 44-b.

8. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T: O‘zbekiston, 1998.

9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T: Ma’naviyat.2008.

AMIR TEMUR VA YILDIRIM BOYAZID MUHORABASINING XALQARO AHAMIYATI

U.A.Abdullayev,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti,

tarix fanlari nomzodi

Amir Temurning 1399-1404-yillarda olib borgan harbiy yurishlari natijasida Shomning Halab (Aleppo), Xums, Baalbek (Ba’albak), Dimishq (Damashq) kabi yirik shaharlari va Iroqi Arabning Ubuliston o‘lkasi (qad. Kappadokiya) bilan Bag‘dod, shuningdek Turkiyaning katta qismi zabt etiladi. Anqara jangida Amir Temur jahonning buyuk sarkardalaridan biri Boyazid Yildirim ustidan g‘alaba qozondi.

Kichik Osiyoda bu davrda Yildirim Boyazid Oydin, Mentеше, Garmiyan, Qaramon, Jondor o‘g‘illari bekliklarini o‘ziga bo‘ysundirgan, Qozi Burhoniddinning o‘limidan keyin esa uning yerlarini ham bosib olib, Malatiyagacha kelgan edi. Usmonli turk imperiyasining me‘mori sifatida tarix sahnasiga chiqqan Boyazid G‘arbda – Bolqonda ham muvaffaqiyatli harbiy harakatlar olib borgan ma’lum¹. U mamluklar sultoni Barquq o‘limidan (1399) so‘ng sultonlikning Kichik Osiyo ichidagi joylarini ham siyosiy sarhadlariga qo‘shib olib, o‘z davlati chegaralarini Arzinjon va Firotda qadar kengaytirgan edi². Amir Temur siyosiy jihatdan ilk bor o‘ziga teng raqibga duch keladi. Usmonli davlatiga majburan bo‘ysundirilgan hududlarda hali turklarning mavqei mustahkam emasdi. Sobiq hukmdorlar Boyazidga nomigagina bo‘ysunib, uning siyosiy tuzumini tan olmaslik yo‘lini tutgan va Sharqdagi qudratli homiy vositasida avvalgi mavqelarini tiklashdan umidvor edilar. Ular Amir

¹ Турк буюклари ва турк қахрамонлари. – Истанбул, 1967. – Б. 56-58.

² Исмоил Ака. Ўша асар. – Б. 27-28.

Temurning yurishlariga pinxona madad berishdan manfaatdor edilar. Yildirim Boyazid Usmonli taxtiga o'tirgan 1389 yildan e'tiboran g'arb masalalariga o'ta sezgirlik bilan qaray boshlagandi. Ammo sharqdagi siyosiy almashuv va o'zgarishlarga kelganda ana shu hushyorlikni yo'qotgandi. Uning 1396 yilda salibchilar bilan bo'lgan jangdagi porloq g'alabasi Sulton Yildirim Boyazidning Islom dunyosidagi ta'sir va shuhratini eng yuksak nuqtaga chiqargan edi. Ammo u Amir Temur saltanatining rivojlanishini xuddi bir tomoshabin kabi kuzatishdan nariga o'ta olmadi. Davlatining chegaralari Arzinjon va Firotda yetgandan keyin u sharqdan yaqinlashgan tahlika bilan yuzma-yuz keldi. Umumiy tarixlarda hamda diplomatik yozishmalar to'plangan bir qator majmualardan joy olgan hujjat nusxalarida 1399 yilgacha ikki taraf orasida kuchli ziddiyatlar bo'lmaganligini ko'ramiz. Ammo shunga qaramay, taraflar orasida sovuq urush havosi hukm surar edi.

Mana shu umumiy vaziyat ichida 1399 yilgacha Sharq masalasiga loqayd qaragan Yildirim Boyazidning Amir Temur Kichik Osiyoga juda yaqin joyda turgan chog'ida Arzinjon amiri Mutahhartan yerlariga bostirib kirishi, o'ta qaltis harakat bo'lgan edi. Ustiga-ustak, bu harakat Amir Temurga o'z rejalarini amalga oshirish uchun bir bahona bo'ldi. Zero, Sohibqiron bunday harakatni o'z hukmronligiga qarshi qaratilgan tajovuz sifatida baholaydi. Maktublarda bu haqda batafsil yozilgan¹.

Yildirim Boyazidning Amir Temurga sadoqat bilan xizmat etgan Arzinjon amiri Mutahhartanga, Sohibqiron Bingul (Ming ko'l) yaylovida bo'lgan chog'ida elchi yuborishi aqlga sig'adigan tadbir emasdi. Har holda Amir Temur vujudga kelgan qulay imkoniyatdan mohirona foydalanadi.

Boyazid bilan munosabatda Amir Temur o'zining yorqin harbiy va diplomatik salohiyatini namoyish etdi. «Amir Temurning strategiyasi eng avvalo o'z qo'shinining yuksak harakatchanligiga va qarorlarining o'ta maxfiyligiga asoslanganligi tufayli g'animlarini doimo dog'da qodirardi», - deb yozadi L. Keren bu haqda².

Boyazidga qarshi harakat boshlashdan oldin uning barcha ittifoqchilarini birma-bir bartaraf etish lozim edi. To'xtamish mag'lub

¹ Фуломов С. Юқоридаги мақола // «Шарқшунослик» тўплами. – Б. 74-83.

² Кэрэн Л. Ўша асар. – Б. 99.

etilgan, ammo Misr mamluklari hamon mintaqada kuchli hukmdor hisoblanar va Sohibqironning ashaddiy raqiblari bo'lgan Qora Yusuf turkman va Ahmad jaloyirni qo'llab-quvvatlab, unga qarshi har doim gij-gijlab turar edi. Bu kuchlar birlashib, orqadan zarba berishini nazarda tutgan Amir Temur dastlab sulton Boyazid bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'ladi. Unga yozgan maktublarida u g'ayridinlar bilan jangni davom ettirishi lozimligini ta'kidlaydi, o'ziga tobe hukmdorlarni bezovta qilmaslikka chorlab, sulton huzurida boshpana topgan ashaddiy raqiblarini qaytarishni talab etadi¹.

Ayni zamonda Sohibqiron turk sultoni bilan hamkorlikda va do'stona munosabatlarda bo'lishni astoydil xohlagani ham ma'lum. Ammo g'arbdagi g'alabalaridan mast bo'lgan Yildirim Boyazid Amir Temur qo'shinining qudrati va imkoniyatlarini to'g'ri anglab yetolmaydi. Maktublar mazmuniga va ayonlariga aytgan so'zlariga qaraganda, u haqiqiy ahvoldan ancha bexabar edi. Ibn Arabshoh bu xususda juda ibratli misol keltiradi: «Boyazid Temur maktubidan voqif bo'lib, uning xitobli mazmunini anglagach, u o'rnidan sapchib turib ketdi: uning g'azabi qaynab, kuyib-yondi. Go'yo nasha ivitmasi ichgan kishidek goh tovushini ko'tarib, goh pasaytirib (shunday) dedi:

- Bu uydirmalar bilan meni qo'rqitmoqchimi? Yoki bu yolg'on-yashiqalar bilan menga nisbatan fitna chiqarmoqchimi? Yoki bo'lmasa, meni Ajam podshohlari misoli hisobladimi? Yoki gapini anglab bo'lmaydigan Dasht totorlari kabi sanadimi? Yoki qo'shin yig'ishda hindlar lashkarlari kabi ko'rdimi? Yoki mening askarlarimni tarqoqlikda Iroq to'dalari kabi deb hisobladimi? Yoki mendagi islom (yo'lidagi) g'azotchilarini Shom askarlariga o'xshatdimi? Yoki o'zining qurigan to'dasini mening askarlarimdek bildimi? Yoki uning haqidagi (barcha) xabarlarini menga ma'lum (ekanli)gini bilmaydimi?...»²

Boyazid ortiqcha takabburlikka berilib, haqoratomuz so'zlarni bemalol ishlatayotgani diqqatga sazovor. Ammo u Amir Temur qanchadan-qancha janglarda g'olib chiqqanligini bilsa-da, ulardan zarur xulosa va saboqlar chiqara olmagan, hatto puxta razvedka tizimiga ega

¹ Нагель Т. Ўша асар. – Б. 457-461; Исмоил Ака. Ўша асар. – Б. 28.

² Ибн Арабшоҳ. Ўша асар. – Б. 256.

emasligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Shuning uchun ham Ibn Arabshoh uni: «Ibn Usmon (Boyazid) shoshqaloq va shijoatli kishi bo‘lib, odil podshohlardan bo‘lishiga qaramasdan, unda zarracha ham sabr-toqat yo‘q edi», - deb ta‘riflaydi¹. Ayni zamonda, arab muarrixii Amir Temurning og‘ir va vazmin, bosiq tabiatini ham qayd etadi: «Qachonki, Temur uning iztirobli javobidan voqif bo‘lgach, «Ibn Usmon majnun va ahmoq», - dedi². Voqealar jarayoni Amir Temur turk sultoni tabiatiga to‘g‘ri baho berganini isbotlab berdi. Zero, ana shu davrda quruqlikda Sohibqiron qo‘shinlariga teng keladigan armiya Sharqda ham, G‘arbda ham yo‘q edi. Bu haqda suriyalik zamonaviy olim Akram Hasan al-A‘labiy to‘g‘ri xulosalar bergani diqqatga sazovor. U Amir Temurning o‘z raqiblari ustidan erishgan zafarlarini tahlil qilib, uning ustunligi sabablarini quyidagicha izohlagan:

- qo‘shinning soni jihatidan ko‘pligi;
- raqiblar haqida to‘liq ma‘lumotga egaligi (razvedka);
- janglar hujumkorlik ruhida olib borilgani;
- qo‘shinda ma‘naviy ruh juda kuchli bo‘lganligi;
- tashviqot-targ‘ibot ishlariga katta ahamiyat berilganligi;
- boshqaruv (rahbarlik) siyosatidagi o‘ta kuchli salohiyati³.

Mana shu sifatlar Amir Temur qo‘shini janglarda yengilmasligida asosiy omil edi. Buni to‘g‘ri anlab yetmagan hukmdorlar, xususan Yildirim Boyazid mag‘lubiyatga uchradi.

Xullas, Usmonli hukmdori Yildirim Boyazid Amir Temur tarafidan qilingan do‘stona takliflarni pisand etmasdan, qattiq javob qaytarganligi ma‘lum. Javob xatida Usmonli hukmdori Sohibqiron bilan urushishni anchadan beri o‘ylab yurganligini, endi buni amalga oshirishga qaror berganini, agar u jang maydoniga kelmasa, unga qarshi o‘zi Tabriz va Sultoniya ustiga yurishini bildirgan edi⁴.

Amir Temur arab o‘lkalaridagi haqiqiy ahvolni ham puxta o‘rgangan. Sulton Barquqning o‘limidan keyin o‘rtaga chiqqan buhronli davrda Suriyaning Mamluklar sultonligidan ajralish xavfi paydo bo‘ldi. Bu

¹ Шу асар. – Б. 256.

² Шу ерда. – Б. 259.

³ Уватов У. Кўрсатилган асар. – Б. 123.

⁴ Кэрэн Л. Ўша асар. – Б. 98; Нагель Т. Ўша асар. – Б. 458, 459. Мактублардан намуналар «Ўзбек дипломатияси тарихидан» китобида ҳам келтирилган. – Б. 247-283.

muammoni hal etish uchun Suriyaga kelgan sulton Faraj, tinchlik va osoyishtalik oʻrnatishga muvaffaq boʻldi. Markazga qarshi harakatga oʻtgan Suriyadagi ayrim muxolifchi rahbarlar boʻysundiriladi. Sulton Faraj Suriyadan Usmoniylar hukmdori Yildirim Boyazidga elchi yubordi va undan bosib olgan yerlarni qaytarib berishini talab qildi. Aks holda ikki davlat orasida urush chiqishi mumkinligidan ogohlantirdi. Lekin uning elchisi kutilgan javobni ololmasdan Qohiraga quruq qaytdi.

Oʻsha davrda Amir Temur mukammal razvedka tizimiga ega edi. U maxfiylardan bu xabarni olgach, darhol yoʻnalishini oʻzgartiradi. Ayni shu vaqtda Yildirim Boyazid Konstantinopolni qamal qilayotgan hamda Sivasda harbiy taraddudlar koʻrayotgan edi. Fursatdan foydalangan Sohibqiron janubga harakat qilishga qaror qiladi. Mamluklar sultonligi ixtiyoridagi yerlar qoʻl ostiga oʻtsa, Amir Temurga katta moddiy foyda keltirardi.

Ayni zamonda, bu harakat zamirida ulkan strategik reja yashirin edi. U hozir Turkiya ichkarisiga kirsas, Bagʻdod sultoni, Misr va Suriya sultoni hamda Qoraqoʻyunli turkmanlar orqadan zarba berishini yaxshi bilardi. Ittifoqchilarni yakkama-yakka majaqlab tashlash uning sinalgan usuli boʻlib, buning uchun lozim boʻlsa jangga kirar, lozim boʻlsa diplomatiyani ishga solar edi. Shuningdek, shu kezlarda Konstantinopol qamali bilan band boʻlgan Yildirim Boyazid ittifoqchilariga yordamga kela olmasligi ham unga ayon edi¹.

Gruziya masalasi mana shu tarzda ijobiy hal etilgach, Amir Temur qishlash uchun Qoraboqqa oʻtadi. Endi 1402 yilgi yoz mavsumida Kichik Osiyoga qarshi harakatni boshlashi mumkin edi. Shunday qilib Amir Temur barcha raqiblarini magʻlubiyatga uchratgandan keyingina butun kuchlarini turk sultoni Boyazidga qarshi qaratadi. Harbiy harakatlardan oldin ikki hukmdor bir-biriga elchilar yuborib, oʻzaro maktublar yozishgani maʼlum. Yozishmalarning tashabbuskori Amir Temur edi. Bu maktublarda jangga chorlov ruhi hukmron. Boyazid bosqini tufayli taxtidan ajralgan va Sohibqiron huzuridan boshpana topgan kichik osiyolik hukmdorlar tinimsiz uni Usmonlilar hududiga bostirib kirishga daʼvat etishardi. Urush boʻlishi muqarrar edi.

¹ Кэрэн Л. Ўша асар. – Б. 99.

Usmonlilar bilan muzokaralardan keyin Amir Temur bilan Fransiya va Kastiliya qiroli hamda Vizantiya imperatori o'rtasida ham bir necha bor maktub almashinadi. Mazkur maktublardan namunalar «O'zbek diplomatiyasi tarixidan» kitobida (247-266-betlar) hamda L. Keren va A. Saidovlarning «Amir Temur va Fransiya» (T., 1996. – B. 72-82) risolasida ham keltiriladi. Ular Amir Temurning diplomatik aloqalari va tashqi siyosatining mohiyatini ochib berishi jihatidan ahamiyatlidir. Amir Temur bilan Boyazid o'rtasida muhoraba tarixini o'rganishda mazkur maktublar hamda Sharq katolik cherkovi arxiyepiskopi Ioanning xotiralari, shuningdek, Klavixoning sayohat kundaliklari qimmatbaho manba hisoblanadi. Yevropalik savodxon bu ikki kishi Amir Temur bilan Boyazid jangining chinakam shohidlari edilar. Shuni ham aytib o'tish kerakki, Amir Temurning G'arbiy Yevropa hukmdorlari bilan rasmiy yozishmalari va Ioanning xotiralari yaqin kunlargacha keng tarixchilar ommasiga uchun noma'lum edi. Ularni taniqli olim, sharqshunos professor I.I.Umnyakov tadqiq etib, e'lon qildi¹. Arxiyepiskop Ioanning xotiralari yaqinda o'zbek tilida ham chop etildi².

Sivasda Amir Temur huzuriga Boyaziddan yana elchilar keladi. Sultonning javob maktubi Sohibqironni nihoyatda g'azablantiradi, chunki Boyazid takabburlik bilan Amir Temurni o'z huzuriga shaxsan kelishini talab etgan va agar sultonning bu amri bajarilmasa, xotinlari uch taloq bo'lsin deb katta ketgan edi³. Amir Temur g'azabini ichiga yutadi. Boyazidga yo'llagan javob maktubida esa, u o'g'illaridan birini huzuriga yuborishini va Arzinjondan turk qo'shinlarini olib ketishni talab qiladi⁴. Ammo endi urushni to'xtatib bo'lmasdi. Sohibqiron elchilarni omonlik bilan jo'natib, Sivasdan janubga – Qaysariga, u yerdan esa shimoliy g'arbdagi Qirshaharga va nihoyat Anqaraga qarab yurish boshlaydi⁵.

¹ Умняков И.И. Внешнеполитические связи Самарканда с государствами Западной Европы. «История Самарканда». Т.1. – Т., 1969. – С.173-195; Люсен Кэрэн. Amir Temur saltanati. – Б. 64-75; Владимир Череванский. Amir Temur. – Т., 1993. – Б. 109-157.

² Иоанн. Amir Temur va uning saroyi. Француз тилидан Баходир Эрматов таржимаси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 2005. – 13 май; Amir Temur Европа элчилари нигоҳида. У.Жўраев, Б.Эрматов таржимаси. Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Т., 2007. Б. 3-207.

³ Ибн Арабшоҳ. Ўша асар. – Б. 258-259.

⁴ Ибн Арабшоҳ. Ўша асар. – Б.255-271; Маннонов Б. // «Шарқшунослик» тўплами. – Б. 28; Amir Temur жаҳон тарихида. – Б. 109.

⁵ Yaşar Yücel. Ўша асар. Б. 122-138.

Ikki mashhur sarkarda qo‘shinlarining ulkan to‘qnashuvi Anqara yaqinidagi Chibukobod tekisligida hijriy 804 yil 19 zulxijjada (milodiy 1402 yil 20 iyul) ro‘y beradi.

Turk olimi Erol Gungur asarida bu jang tafsilotlari bir qadar aniq keltirilgan. Uning yozishicha, Chubuk vodiysida ikki taraf saf tortadi. Yildirimning yonida vaziri a‘zam Ali posho, o‘g‘illari Mustafo, Isa va Muso markazda turadi. O‘rdu (qo‘shin)ning o‘ng qanotiga Anatoliya beglarbegi Temirtosh posho, chap (so‘l) qanotini esa katta o‘g‘li amir Sulaymon boshqaradi. Yigirma ming saralangan serb askarlari zahiraga qo‘yiladi.

Bu jang Amir Temurning porloq g‘alabasi va o‘sha zamonda G‘arbiy Yevropani zir titratib turgan takabbur turk sultonini taxtdan tushirish bilan yakunlanadi. Boyazid qo‘shini batamom mag‘lub bo‘lishdan tashqari sultonning o‘zi asir olinib, buyuk hukmdor huzuriga keltirila

Amir Temur bilan Boyazid to‘qnashuviga yuqorida ko‘rsatilganidan tashqari yana boshqa muhim sabablar ham bor edi. Bu Vizantiya, Italiya, Fransiya, Angliya va boshqa G‘arbiy Yevropa davlatlari boshliqlarining Boyazidga qarshi kurashda yordam so‘rab Amir Temurga murojaat qilishidir. Shu yillarda Boyazidning Yevropadagi muzaffar yurishlarini to‘xtatish G‘arbiy Yevropa davlatlari uchun hayot va mamot masalasiga aylangandi. Amir Temur birinchi darajali quruqlik qo‘shinlariga ega bo‘lib, strategiya va taktika jihatidan boy harbiy tajriba orttirgandi. Turkiyada esa yaxshi quruqlik armiyasidan tashqari, harbiy-dengiz kuchlari ham mavjud edi. Shuning uchun ham Amir Temurning o‘g‘li Mironshoh “Qirollar, hukmdorlar, farang va xristian jamoalari boshliqlari”ga murojaat qilgandi¹. Shu davrda birinchi darajali dengiz davlatlari bo‘lgan Genuya va Venetsiyaga sovg‘alar va maktublar bilan elchilar jo‘natilgandi. Konstantinopol va Trabzonga ham dengizdan turib madad berishni so‘rab da‘vatnomalar yuborilgandi. Amir Temurning Ioann Paleologga yozgan maktubidan bilamizki, Trabzon (u bu mamlakat imperatori Manuildan barcha hududlari va harbiy dengiz kuchlarini o‘z ixtiyoriga berishini talab qilgan edi) va Konstantinopol Turkiya qirg‘oqlariga hujum qilish uchun yigirmatadan kema yuborishi zarur edi.

¹ Умняков И.И. Ўша асар. – Б. 184-185; Ўзбек дипломатияси тарихи. – Б. 258-261.

Buni tasdiqlaydigan dalillar Klavixo asarida mavjud. U Konstantinopol imperatori va Perilik genuezlar Amir Temurga xizmat qilib, odamlar va kemalar bilan yordam berish majburiyatini olgani haqida yozadi. Shu o‘rinda genuezlar tabiatini ko‘rsatuvchi boshqa muhim dalil mavjud. Vizantiyaning mag‘lubiyatini ellik yil orqaga surib yuborgan Anqara jangidan keyin genuezlar ma‘lum mukofot evaziga mag‘lub turklarni Osiyodan Yevropaga o‘z flotlarida o‘tkazib qo‘yishga rozi bo‘lganlar. Hatto ayrim kemachilar ko‘proq pul ishlab qolish umidida qochoqlarni qirg‘oq yaqinida dengizga ag‘darib, orqaga qaytgani haqida ma‘lumotlar bor.¹

Aynan 1402 yilgi Anqara jangi arafasida Amir Temur bilan G‘arbiy Yevropa davlatlari orasida elchilarning borib-kelishi kuchaygan edi. Sohibqironning farang qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan keyingi yozishmalarida Sharq bilan G‘arb orasida savdo sotiq va elchilik aloqalarini o‘rnatish taklifi ilgari surilgani muhim ahamiyatga ega².

Amir Temur farang qiroli Karl VI ga fors tilida yo‘llagan maktubida (hijriy 805 yil muharram oyining 1 kuni (milodiy 1402 yil 1 avgust): “O‘z savdogarlaringizni bu (bizning) mamlakatimiz tomonlarga yuborsangiz ma‘qul bo‘lardi. Biz ularga yetarlicha hurmat va e‘tibor ko‘rsatamiz. Shuningdek, bizning savdogarlarimiz (sizning) o‘lkalaringizga yo‘llanmog‘i va ularga ham shunday hurmat-e‘tibor ko‘rsatilmog‘i (lozim). Ularga hech kim zo‘ravonlik ko‘rsatmaydi va ortiqcha talablar qo‘ymaydi. Zero, jahon savdogarlar tufayli oboddir” – deb ta‘kidlaydi³. Shunisi ajablanarliki, Sohibqiron va Karl VI ning birdek dushmani bo‘lgan Boyazid ustidan qozonilgan g‘alaba haqida maktubda biron og‘iz so‘z yo‘q. I.I.Umnyakov buni maktub Anqara jangidan oldin yozilgan, ammo bu hodisadan keyin sana qo‘yilib, jo‘natilgan bo‘lsa kerak, deb izohlaydi.

Amir Temur lotin tilida Karl VI ga yozgan boshqa bir maktubida o‘z g‘alabasi haqida xabar beradi. Har ikki maktubga ham bir xil sana – 1402 yilning 1 avgusti qo‘yilgan. Mazkur maktubda, jumladan, Boyazid shariat va imon bo‘yicha “men bilan birga bo‘lishi kerak edi, ammo u men va do‘stlarimga bergan ahdiga rioya qilmadi, shuning uchun tilga olingan

¹ Клавиho. Кўрсатилган асар. – С. 69, Кэрэн Л. Ўша асар. – Б.134-135.

² Умняков И.И. Ўша асар. – С.180; Кэрэн Л. Ўша асар. – Б. 205-222.

³ Умняков И.И. Ўша асар. – Б. 180.

monaxlarning da'vati va sizlarga tobe fuqarolarning¹ va'dalaridan madad olib, bizning va sizning dushmanimizga qarshi kurashmoq uchun Turkiya hududiga kirdik, xudo yor bo'lib, qisqa fursat ichida Boyazid bilan ham, uning yurti bilan ham hisob-kitob qildik" – deb ta'kidlaydi². Mana shu maktubida Amir Temur o'zaro savdogarlar yuborib turish lozimligini, savdo aloqalari har ikki tomonga ham katta foyda yetkazishini qayd etadi. Ko'ramizki. Sohibqironning turk sultoni ustidan qozongan porloq g'alabasi Yaqin Sharq bilan G'arbiy Yevropa o'rtasida bevosita diplomatik aloqalar va savdo sotiq munosabatlari o'rnatilishiga ham katta yo'l ochib berdi.

Amir Temurning Yaqin va O'rta Sharq hududlariga qilgan ko'p yillik yurishlari mintaqa tarixida muhim harbiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'ldi. Eng avvalo, puxta ishlangan harbiy-strategik reja to'la amalga oshirildi va bu hududlardagi mayda tarqoq feodal hukmdorlar kuchli markazlashgan davlatga birlashtirildi. Natijada o'zaro nizolar va behuda qon to'kishlarga barham berildi. Bu hududlardagi aholining xavfsizligi va nisbiy osoyishtaligi ta'minlandi. Ayniqsa, Xuroson, Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom (Suriya), Kichik Osiyoda ko'pdan beri davom etib kelayotgan qonli to'qnashuvlar va talovchiliklar tugatildi. Shu yerda yana bir muhim nuqtaga ahamiyat berish zarur. Amir Temur haqida yozilgan ko'p tadqiqotlarda, jumladan, sovet tarxichiligida Sohibqironning yurishlari bosqinchilik, zo'ravonlik va talovchilik tarzida baholandi. (Bu xususda ishimiz davomida bir qadar to'xtaldik). Voqealar jarayoniga xolislik bilan nazar solsak, Amir Temur o'z faoliyatida istilo qilingan yurtlarni o'z mamlakati tasarrufiga kiritishga intilmaganini ko'ramiz (Xuroson va Eron bundan mustasno). Masalan, Oltin O'rdaga yoki Mo'g'ulistonga qilingan bir qancha yurishlarda To'xtamish va Qamariddin kabi kuchli raqiblar to'la mag'lubiyatga uchraganiga qaramay, bu davlatlar Movarounnahr hududlariga qo'shib olingani yo'q. Sohibqiron u yerlarga o'ziga sadoqatli hukmdorlar qo'yish bilan cheklandi. Shu yo'l bilan o'zining yangi davlatiga Shimol va Sharqdan keladigan xavf-xatar yo'lini to'sdi. Keyinchalik zabt etilgan Shom hududlari, Usmonli imperiyasiga

¹ Гап Перидаги генуяликлар хақида кетяпти. Улар Франция фуқаролари ҳисобланарди. Қаранг: Клавихо. Ўша асар. – Б.145.

² Кэрэн Л. Ўша асар. – Б. 135.

munosabatda ham shunday holatni ko‘ramiz. Sohibqiron o‘ziga tobelik izhor qilgan Mamluk sultonining vorisi sulton Farajning yerlarini dahlsiz qoldirdi. Og‘ir jangda mag‘lub bo‘lgan Yildirim Boyazidga shohona iltifotlar ko‘rsatilgani va Sohibqiron Samarqandga qaytayotganida Usmonli taxtini Boyazidning o‘g‘li Mahmud Chalabiyga topshirgani ham yuqoridagi fikrimizni isbotlaydi. Bularning hammasi, Amir Temur har bir mamlakatning tinchligi, osoyishtaligini ta‘minlash, fuqarolarga ziyon-zahmat yetkazmaslik shioriga, ya‘ni adolat ustuvorligiga qat‘iy amal qilganini ko‘rsatadi.

Sohibqiron O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlari sari otlar ekan, islom ahkomlarini mustahkamlashga va muqaddas Haj safariga chiquvchilarning xavfsizligini, savdo yo‘llari, karvonlarning bexatar borib-kelishlarini ta‘minlashni, yo‘llardagi qaroqchilikni to‘xtatishni ham maqsad qilib olganini yuqorida ko‘rib o‘tdik. Ko‘p yillik sayi-harakatlardan so‘ng bu ezgu niyat ham to‘la amalga oshirildi. Qora Yusuf turkman kabi talovchilik, yo‘lto‘sarlikni kasb qilib olgan hukmdorlarning faoliyatiga chek qo‘yildi. Amir Temur farang qiroli Karl VI ga yozgan maktubida, avvalroq Sulton Barquqqa hamda Farajga yozilgan maktublarida ham mamlakatlar orasidagi do‘stona munosabatlar va savdo-sotiq aloqalarini kuchaytirish lozimligiga qayta-qayta urg‘u bergan edi. Bu niyat ham zafarli yurishlar so‘ngida hayotga tatbiq etildi. Sharq va G‘arbni bog‘lab turgan qadimiy savdo-karvon yo‘llari, ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘li qayta tiklandi. Sohibqiron, albatta, savdo-karvon yo‘llari Movarounnahr hududidan, poytaxt Samarqanddan o‘tishidan manfaatdor edi. Mamlakatning iqtisodiy qudratini yuksaltiradigan va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladigan bu muhim tadbir ham avvaldan rejalashtirilganiga shubha yo‘q. Mazkur dono tadbir tufayli Samarqand “Yer yuzining sayqali” sifatida jahonda shuhrat topdi.

Amir Temurning Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlaridagi siyosati katta xalqaro ahamiyat kasb etadi. Sohibqiron Oltin O‘rda va Usmonli turklarning ulug‘ davlatchilik siyosatiga zarba berish orqali Yevropa, Osiyo va Afrika xalqlarini ulkan qirg‘inlar va asoratdan saqlab qoldi. Tarqoq rus knyazlari hamda Kavkaz xalqlarining mo‘g‘ul asoratidan

qutulishi, Yevropaliklar va Misrliklarning usmonlilar tajovuzidan omon qolishi Amir Temurning juda katta xalqaro xizmatidir.

Mazkur dalillar sovet tarixchilari va Sohibqironning raqiblari Amir Temur faoliyatiga g‘arazgo‘ylik bilan bir yoqlama yondashganlarini, ma’lum siyosiy manfaatlarni ko‘zlab, tarixni soxtalashtirganini ko‘rsatadi. Keyingi yangi tadqiqotlar va mustaqillik sharofati tufayli tug‘ilgan tarixni haqqoniy baholash tamoyillari Amir Temurning siyosiy-ijtimoiy-iqtisodiy qarashlarini tubdan qayta o‘rganish lozimligini taqozo etadi.

Tarixni to‘g‘ri yoritmasdan, tarixiy shaxslarning xizmatlarini haqqoniy baholamasdan turib, kelajakning chinakam maqsadlarini to‘la anglab bo‘lmaydi. Shu ma’noda mamlakatimizni bir necha asr hukm surgan mo‘g‘ul asoratidan xalos qilib, mustaqil mamlakat qurgan va uni jahonning kuchli, yetakchi davlatlaridan biriga aylantira olgan Amir Temurning hayoti va faoliyatini o‘rganish O‘zbekistonning kelajagi bo‘lgan yosh avlod ma’naviyatini, milliy g‘ururini yuksaltirishda, ularni Vatanga cheksiz muhabbat ruhida tarbiyalashda nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turk buyuklari va turk qahramonlari. – Istanbul, 1967.
2. G‘ulomov S. Yuqoridagi maqola // «Sharqshunoslik» to‘plami.
3. Umnyakov I.I. Vneshnepoliticheskiye svyazi Samarkanda s gosudarstvami Zapadnoy Yevropi. “Istoriya Samarkanda”. T.1. – T., 1969
4. Lyusen Keren. Amir Temur saltanati.
5. Vladimir Cherevanskiy. Amir Temur. – T., 1993. – B. 109-157.
6. Ioann. Amir Temur va uning saroyi. Fransuz tilidan Bahodir Ermatov tarjimasi // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2005. – 13 may;
7. Amir Temur Yevropa elchilari nigohida. U.Jo‘rayev, B.Ermatov tarjimasi. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T., 2007. B. 3-207.
8. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi.
9. Mannonov B. Amir Temur jahon tarixida. // «Sharqshunoslik» to‘plami.
10. O‘zbek diplomatiyasi tarixi. – B. 258-261.

11. Rui Gonsales de Klavixo. Dnevnik puteshestviya v Samarkand ko dvoru Timura (1403-1406 gg.) / per. so staroispr., predisl. i komment. I.S. Mirokovoy. M., "Nauka" 1990, S. 212.

ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧАЩИХСЯ ВОЕННО-АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЕВ НА ПРИМЕРЕ ЖИЗНИ, ПОЛКОВОДСКОЙ И ГОСУДАРСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АМИРА ТЕМУРА

О.Н.Строкова,

*Преподаватель высшей категории
Ташкентского военно-академического лицея
«Темурбеклар мактаби»*

Великий полководец, мыслитель, государственный деятель, гениальная личность, Амир Темур внёс огромный вклад не только в развитие государственности Узбекистана, а также в распространение науки и образования. Он считал, что ум, знания и духовно-нравственное развитие человека должны преобладать в управлении государством и направлять социальную жизнь в правильное русло. Осознав роль науки и образования, великий полководец уделял огромное значение умственным и творческим способностям человека. «Я оказывал почтение... учёным, богословам, философам... Я тщательно избегал причинять им малейшую печаль и ни в чём им не отказывал...»-писал Амир Темур в «Уложении».

В современном независимом Узбекистане так же, как и в государстве Амира Темура, огромная роль отводится нравственному и духовному воспитанию молодёжи. Личность великого полководца, обладающая исключительными способностями, мудростью, обширными знаниями, неиссякаемой энергией и в то же время скромностью и уважением к любому человеку, занимает значительное место в духовно-нравственном воспитании учащихся военно-академических лицеев. «Судьба у меня в руках и счастье

всегда со мной...» -эти слова Амира Темура могут стать девизом каждого молодого человека, вступающего во взрослую жизнь.

Родившийся в образованной семье и получивший хорошее воспитание и образование, Амир Темур продолжал работать над совершенствованием своих знаний: много читал, выучил наизусть Коран, тюркский и таджикский языки, изучал государственное устройство многих стран мира, создал методы реализации собственных интересов и замыслов. В эпоху Темура возводились дворцы, мечети, мавзолеи, загородные сады, мастерские, городские укрепления, прокладывались дороги. Именно эти качества и деятельность великого государственного деятеля становятся примером для учащихся военно-академических лицеев при глубоком изучении жизни, полководческой и государственной деятельности величайшего гения Амира Темура. Он создал «Уложение», в котором обобщает собственный опыт государственной деятельности, формулирует правила, которыми руководствовался в своей жизни и которые рекомендовал соблюдать своим потомкам.

Величайший полководец обладал редким необыкновенным интеллектом. «Глубоко нравственная и рассудительная личность», - писал об Амуре Темуре Ибн Арабшах. Современная молодёжь должна знать, что развитие умственных способностей и особое внимание к ним – это значит найти путь, который сделает человека, умеющего преодолеть любые жизненные препятствия и трудности, достигнуть поставленных целей и стать обладателем добрых и лидерских качеств.

По мнению Амира Темура, человек играет огромную роль при управлении государством, а народ обеспечивает благосостояние общества, поэтому девятую часть государственных дел решал при помощи совета, осознавая роль науки и образования, интеллекта и мудрости в решении государственных вопросов. «Советы с мудрыми людьми, предусмотрительность, бдительность и деятельность помогли мне побеждать войска врагов и завоевывать области. В управлении я руководствовался кротостью, человеколюбием и терпением; я наблюдал за всеми, прикрываясь личиной бездействия,

был одинаково благосклонен как к врагам, так и к друзьям»,- эти слова великого гения, показывающие его ум и мудрость, обращены к потомкам.

Современная молодёжь на примере жизни и деятельности Амира Темура должна осознавать, что именно ей в будущем будет отведена роль управления государством. «Строго соблюдая эти правила, они могут упрочить за собою то счастье, которого я достиг столькими беспокойствами, трудами и опасностями, которое дано мне небом, благотворным влиянием религии Магомета (да даст ему Бог мир) и могущественным ходатайством потомков и сподвижников его. Пусть эти правила послужат им руководством как в их поведении, так и в управлении государством, дабы они могли сохранить то государство, которое я им оставляю,- эти слова великого Амира Темура обращены к молодым людям, живущим в современном независимом Узбекистане.

Амир Темура ценил в людях ум, образованность, мудрость, умение быстро решать поставленные задачи, достигать своих целей. При помощи своих умственных способностей и узнав мнение каждого из своих советников, великий полководец мог предсказать, предвидеть победу или поражение в битве как дело судьбы, которое предвидел при помощи умственных способностей человека. «Победа не в силе, а в уме»,- эти слова Амира Темура говорят о том, что он ставил выше всех разумного, мудрого человека, обладающего глубокими знаниями. Придавая огромное значение качеству образования, Амир Темура требовал глубокого разьяснения смысла Корана, законов государства, морали и шариата, считая, что только хорошее образование может сделать человека высокообразованным и духовным. «Амир Темура наряду с обучением молодёжи религиозным предметам уделял большое внимание обучению и другим наукам, как писал академик И. Муминов,- математике, геометрии, архитектуре, астрономии, литературе, истории и музыке. А также Амир Темура считал, что географические знания, изучение жизни и культуры народов и стран будут способствовать поднятию качества образования и духовного развития молодого поколения.

Полководец на своих совещаниях и встречах обменивался с учёными не только мнениями о внутреннем и внешнем состоянии государства, а также о духовно-образовательных задачах, поведении и морали молодёжи.

Амир Темур хорошо осознавал значение наставничества учёных для развития государства и воспитания молодого поколения. Он создавал все возможности для преподавания местных и иностранных педагогов, приказывал давать работу в государственных учреждениях учёным и ремесленникам. Ибн Арабшах так писал: «Видя достоинства даже в простом ремесле, он высоко одобрял его».

Амир Темур выбирал для службы мудрых, глубоко знающих своё дело, увидевших мир людей. Он очень уважал людей находчивых и умных в каждом аспекте жизни. Величайший полководец и государственный деятель считал образование и духовное воспитание одним из наиболее приоритетных направлений в развитии страны. Великая личность Амира Темура, его жизнь, полководческая и государственная деятельность поднимают у современной молодёжи патриотизм и гордость за свою Родину, своих предков. Эти чувства помогают стать настоящим патриотом и гражданином, любящим свою страну, свой дом, свои корни.

Заключение:

Личность Амира Темура, его жизнь, полководческая и государственная деятельность являются примером для подражания, способствуют поднятию качества и уровня образования, патриотизма молодого поколения независимого Узбекистана.

1. Наследие Амира Темура необходимо широко изучать в учебном процессе военно-академических лицеев для

- воспитания молодёжи в духе патриотизма;
- уважению к историческому наследию и его изучению;
- уважению творческих людей, посвятивших себя развитию науки.

2. Включить в учебные программы по всем предметам изучение наследия Амира Темура. В каждом предмете есть касающиеся его наставления из наследия Амира Темура.

Использованная литература:

1. Ахмедов Б.А., Мукминова Р.Г., Пугаченкова Г.А. Амир Темура. 1999.
2. Дададжонова М. Амир Темура - основатель великого государства. Т., 2003.
3. Дехконова М. А. Роль наследия Темура и современность. Т., 2018.
4. Мухамедов М.М., Асланова Д. Х. Экономическая политика Амира Тимура и развитие производительных сил Узбекистана в эпоху развития Тимуридов. Т., 2020.
5. <https://www.livelib.ru/book/> Муминов И. Роль и место Амира Тимура в Средней Азии. Т., 2000.
6. Амир Темура. «Уложение». Т.: 2000.
7. https://www.vostlit.info/Texts/rus17/Ibn_Arabshah Ибн Арабшах. Чудеса судьбы. Истории Тимура.

SOHIBQIRONNING HARBIY SAN'AT MAHORATI

A.Sh.Xudayarov,

Taktika, umumqo'shin tayyorgarligi va gumanitar fanlar kafedrasi o'qtuvchisi, podpolkovnik

F.M.Saydjanov,

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti kafedrasi siki boshlig'i, podpolkovnik

Sohibqiron qo'shinidagi jangchilarga doimiy maoshlar to'langan. Maoshning hajmi xizmatni qanday olib borilishiga bog'liq bo'lgan. Oddiy askar 2 tadan 4 tagacha otning bahosiga teng bo'lgan maosh, o'nbegi – o'z o'nligining maoshiga teng miqdordagi maoshni olgan (shuning uchun u

o‘z jangchilarining yuqori maoshga erishishlaridan manfaatdor bo‘lgan); yuzbegiga oltita o‘nlikning maoshiga teng miqdordagi maosh to‘langan va hokazo. Intizomiy jazolarning turlaridan biri maoshning o‘ndan bir qismini ushlab qolish bo‘lgan.

Qo‘shindagi yengil piyodalar ham bo‘lib, ular safarda otlarda harakatlanganlar, jang olib borishda esa, kamondan nishonni bexato urish uchun arablarga o‘xshab otlardan tushib piyoda holda jang qilganlar. Piyoda jangchi qilich, 30 ta o‘qqa ega bo‘lgan kamon bilan qurollangan. Yengil piyodalar baland pastliklarda harakatlanish va shaharlarni qamal qilish uchun qo‘llanilgan. Bundan tashqari, Amir Temur tog‘larda harakatlanish uchun maxsus otryadni (tog‘ piyodalarini) tashkil etgan. [1]

Armiya qat’iy tashkiliy tizimga va aniq saflanish tartibiga ega bo‘lgan. Har bir jangchi o‘z o‘nligidagi joyini bilishi, har bir o‘nlik yuzlikdagi joyini bilishi kerak bo‘lgan va hokazo. Harbiy qismlar saflarda yaxshi harakatlana olgan va anjomlari, kiyim-boshlari va bayroqlarining rangi bilan bir-birlaridan ajralib turgan.

Ba’zi otryadlar otlarining rangi bilan ham farq qilgan. Amir Temur davrida harbiy yurishdan oldin ko‘riklar o‘tkazish to‘g‘risidagi qonun og‘ishmasdan bajarilgan. Jang uchun katta va tekis maydon tanlangan, bunda suv va otlar uchun yem-xashakning yaqin bo‘lishiga, quyoshning o‘z jangchilarining ko‘ziga tushmasligiga katta e’tibor berilgan. Jangovar tartib front, ayniqsa chuqurlik bo‘ylab yoyilgan. Markazni kuchsizlantirishda dushmanni qurshab olish vositasi hisoblangan qanotlar kuchaytirilgan. Hal qiluvchi zarbani berish uchun Amir Temur kuchli zaxira yaratgan.[2]

Yirik janglar davrida rang-barang jangovar bayroqlar bilan bezatilgan Bosh Qo‘mondon chodiri (*bargoh, saroparda*) jangni boshqarish oson bo‘lishi uchun balandlikda o‘rnatilgan. Odatda, Bosh Qo‘mondonning chodiri oldida harbiy orkestr uzluksiz nog‘ora chalib, askarlarning jangovar ruhlarini ko‘targan.

Amir Temur qo‘shini to‘g‘ri safga va bir nechta jangovar chiziqqa ega bo‘lib, ular birin-ketin jangga kiritilgan va oxirida ketma-ket hujumlar bilan dushman holsizlantirilib, kuchsizlantirilganidan keyin eng yaxshi

jangchilardan tashkil topgan, doimo g'alabani ta'minlovchi qudratli zaxira jangga kiritilgan.

Qo'shinda chekinib, mustahkamlangan inshootlarda yashiringan g'anim qamal qilingan. Qal'alarning qalin devorlari oldida devor buzuvchi (*manjaniq*) va tosh uloqtiruvchi (*arroda*) to'plar o'rnatilgan. To'plar (ra'd) harakatga keltirilgan. Devor va minoralarning ostidan yerto'lalar kovlangan. Devorlarda bo'shliqlar hosil qilingan. Shu bo'shliqlardan jangchilar quyundek qal'a ichiga bostirib kirganlar. Shturm davrida himoya qalqonlari (to'ra), shotilar, halqalar, arqon va boshqalardan foydalanilgan.[3]

Amir Temur armiyasida kavaleriya hujumining tashkil etilishi, uning strategiya va taktikasi o'zining takomillashgan darajasiga yetdi. Amir Temur armiyasida muhandislik qismlari va bo'linmalarining birinchi namunalari bo'lib, ularga katapultalar, neftdan tayyorlangan yonuvchi moddani uloqtiradigan va qal'a devorlarini portlatuvchi moslamalar kirgan. Uning armiyasida o'sha vaqtning eng zamonaviy texnikalari – qamal qilish texnikasi, yonib turgan neft to'ldirilgan xurmachalarni uloqtiruvchi ballistalar qo'llanilgan. Amir Temur qo'shinida daryolardan kechib o'tishni ta'minlovchi mutaxassislar – pontonchilar ham bo'lgan. Fan va texnikaning yutuqlari, ayniqsa, Xitoy texnikasining yutuqlari keng foydalanilgan.

Amir Temurning qo'shini yetib kelgunga qadar To'xtamish Terekdan o'tib, mudofaa inshootlarini qurishga va daryoning chap qirg'og'ini aravalar, daraxtlar va to'siqlar bilan mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi. Lekin bunga qaramasdan, Amir Temur dushmanning avangardini tormor etishga va Sunjidan kechib o'tishga muvaffaq bo'ldi.

Endi Amir Temur qo'shini Terek daryosini kechib o'tishi kerak edi. Uning qo'shini janubiy (o'ng) qirg'oqdan, To'xtamishning qo'shini esa shimoliy (chap) qirg'oqdan harakatlandi. Amir Temur qo'shinini uzluksiz kuzatish uchun To'xtamish qo'riqlash (qorovul) bo'linmalarini ajratdi. Ikkala tomon ham uch kun mobaynida daryo bo'ylab harakatda davom etdi. Uchinchi kuni Amir Temur qo'shin bilan kelayotgan hamma xotin-qizlarga dubulg'alar va sovutlarni kiyishga hamda jangchilardek sohta harakatlarni amalga oshirishga, jangchilarga esa har biri ikkitadan ot

olishga va jadal harakat qilib, tezkorlik bilan kechuv joyiga yetib borishga buyruq berdi. Amir Temur jangchilari kechuv joyiga yetguncha yana uch kun yo‘l bosdi va qaramaqarshilikning to‘qqizinchi kunida Terekdan kechib o‘tdilar.

1395 yil 15 aprelda Terek daryosi bo‘yida (hozirgi Checheniston Respublikasining Shedrinskiy va Shyolkovski qishloqlari o‘rtasida) Amir Temur va To‘xtamishning armiyalari o‘rtasida jang bo‘lib o‘tdi. Jangdan oldin jangga tayyorlanish qoidalariga binoan, Amir Temur lagerni mustahkamlash va qo‘riqlashga, g‘animning tungi hujumlarini qaytarish uchun tayyor turishga buyruq berdi. Lagerning atrofiga xandaqlar qazildi, yerga odam o‘tib bo‘lmaydigan qilib xodalar ko‘mildi (*mandu*), to‘siqlar o‘rnatildi. Asosiy xandaqlar oldinda qazilgan xandaqlar bilan to‘sib qo‘yildi. Lagerning ichida behuda harakatlanish ta‘qiqlandi.

Bu gal ham Amir Temur o‘z qo‘shinini yetti qismga bo‘ldi. Markazda qo‘l (qo‘shinning markazi) joylashdi, qo‘lning oldida asosiy avangard (xiravul), ortida chag‘davul (arergard) saflandi. Qo‘shinning qanotlarida barang‘or va javang‘orning avangardlari joylashdi. Asosiy avangard qanotdagi avangardlarga nisbatan oldinroqda joylashgan va dushmanning jangovar tartibini yorib o‘tish vazifasini o‘tagan bo‘lsa, chag‘davul (arergard) zaxira rolini bajardi va stavkani qo‘riqlash uchun qo‘llanildi. Shunday qilib, Amir Temur qo‘shini jangovar tartibi uchta chiziqdan iborat bo‘ldi: birinchisi – avangard, ikkinchisi – asosiy kuchlar va uchinchisi – zaxira.

Birinchi chiziqni yengil qurollangan jangchilar tashkil etib, ular jangni boshlab, dushmanning jangovar tartibini tarqatib yuborgan va uning safida parokandalikni keltirib chiqargan. Ikkinchi chiziq qo‘shinlari og‘ir qurollar bilan qurollangan va ular dushmanning hujumini qaytarishlari kerak edi. Markazda saflangan qo‘l qo‘shinning asosini tashkil etib, ko‘p hollarda jangning taqdirini hal qilgan. Yengil piyoda bo‘linmalari asosiy avangard, markaz, chap va o‘ng qanotlardan oldinda joylashgan. O‘ng va chap qanot avangardlari hamda arergard faqat otliq qo‘shinlardan iborat bo‘lgan.

Bu qismlarning hammasi mustaqil ravishda harakatlanib, faqat Oliy Bosh qo‘mondonga bo‘ysungan.

Qo‘shinni bunday saflash quyidagi imkoniyatlarni yaratgan:

1. Dushmanga otliq va piyoda qismlar bilan uzluksiz, yoppasiga hujum qilingan;

2. Qo‘shinning asosiy qismi qaravul va arergardning (chag‘davul) himoyasi ostida bo‘lganligi, o‘z navbatida, mudofaaning barqarorligini oshirgan hamda dushman tomonidan qanotlar va front ortini qamrab olinishiga to‘sqinlik qilgan.

To‘xtamish 1391 yilgi jang tajribalariga asoslanib, Amir Temur qo‘shini jangovar tartibining ustunligiga ishonch hosil qildi va o‘z qo‘shinini Sohibqiron qo‘shinining jangovar tartibi kabi tartibda safladi.

Chap qanotda yuzaga kelgan murakkab vaziyatni hisobga olib, Amir Temur o‘sha tomonga o‘z zaxirasidan madad kuchlarini jo‘natdi. Yetib kelgan jangchilar dushan hamlasini qaytardi va o‘zlari uni ta‘qib etishni boshladi. Muvaffaqiyatga berilib ketgan alohida bo‘linmalar asosiy kuchlardan ajralib ancha uzoqlashib ketdi.

Dushmanning taktik jihatdan yo‘l qo‘ygan xatosidan foydalangan To‘xtamish o‘z qo‘shini jangovar tartibini tikladi va ta‘qib qilib kelayotganlar safini to‘zg‘itib yubordi. Kutilmaganda bevosita Sohibqiron qo‘l ostida bo‘lgan qo‘shin dushmanning qurshoviga tushib qoldi. Shiddat bilan bostirib kelayotgan dushman to‘dalari amir Shayx Nuriddinning qismlari tomonidan to‘xtatib qolindi, ular o‘z otlaridan tushib g‘animni kamonlardan shijoat bilan o‘qqa tutdi. Amir Temurning atrofida aravalardan *quran* barpo etildi (nemischada *vagenburg* – aravalarni bir-biriga bog‘lab yaratilgan to‘siq). Amir Temur yoppasiga mudofaani yaratdi. Sohibqiron qo‘shini markazining jangga kiritilishi vaziyatni mo‘tadillashtirdi. Jangning ikkinchi kuni yana To‘xtamishning hujumi bilan boshlandi. U hujumga o‘z javang‘orini kiritdi. To‘xtamishning qo‘shini Amir Temur qo‘shini avangardini ag‘darib tashlab, barang‘orga hujum qildi. Sohibqironning barang‘oridagi qo‘shinning bir qismi tarqalib ketdi, ikkinchi qismi otlardan tushib dushmanga kamonlardan o‘q yomg‘irini yog‘dirishda davom etdi. Qo‘shinning ushbu qismi Sohibqironning boshqa qismlari tomonidan qo‘llabquvvatlandi. Jangning ikkinchi kuni ham tomonlarning hech biriga g‘alaba keltirmadi.

To‘qnashuvning oxirgi – uchinchi kunida jang yana oltino‘rdaliklarning hammlari bilan boshlandi. Markaz va qanotlarni

kuchaytirgan To‘xtamish frontal hujumga o‘tdi. To‘xtamishning javang‘ori ham jangga kiritildi. To‘xtamish qo‘shini ushbu qismining kuchsizlanib qolganini sezgan Amir Temur asosiy zarbani dushmanning javang‘origa berdi. To‘xtamishning javang‘ori to‘lig‘icha tormor etildi.

Xulosa. Amir Temur tuzgan qo‘shin o‘zining tashkiliy-shtat tizimi bo‘yicha Chingizxonning qo‘shini tizimiga yaqin bo‘lsada, quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turgan:

Amir Temur armiyasi xalq lashkarlari hisoblansa ham, Chingizxon davrida bo‘lgani kabi umumiy xarakterga ega bo‘lmagan.

Chingizxon davrida qo‘shinning asosini ko‘chmanchilar tashkil etgan. Amir Temur davrida ko‘chmanchilar otliqlar va kamonchilarni yetkazib bergan. Lekin shu bilan birga o‘troq aholi ham qo‘shinning katta qismini tashkil etgan. Shunday qilib, harbiy xizmatga chorvadorlar bilan birga, urushlarning tez-tez bo‘lib turishi va ko‘lamining oshganligi munosabati bilan dehqonlar, hunarmandlar va o‘troq aholining boshqa toifalari ham chaqirilgan.

Amir Temur qo‘shinida armiyaning asosini tashkil etgan otliqlar bilan birga piyodalar ham katta rol o‘ynagan. Chingizxon davrida to‘laqonli piyodalar bo‘lmagan.

Amir Temur armiyasi safiga Movarounnahrдан, Dashti Qipchoq, Xuroson, Eron, Badaxshon, Mo‘g‘uliston, Mozandaron va Jetedan olib kelingan jangchilar kirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Amir Temur – nasha gordost. Doklad na mejdunarodnoy nauchnoy konferentsii, posvyashennoy 660-letnemu yubileyu Amira Temura, 24 oktabrya 1996 g. // Karimov I.A. Mislit i rabotat po novomu – trebovanie vremeni. T.5. – Tashkent: Uzbekiston, 1997. – s. 175 – 185.

2. Karimov I.A. Obitel vechnogo velichiY. Rech na tseremonii otkritiya pamyatnika Amiru Temuru v g. Samarkande, 18 oktabrya 1996 g. // Karimov I.A. Mislit i rabotat po novomu – trebovanie vremeni. T.5. – Tashkent: Uzbekiston, 1997. – s. 165 – 168.

3. Amir Temur v mirovoy istorii. - Tashkent: Shark, 2001. - 304 s.

4. Karimov I.A. Poka narod jiv, imya Amira Temura vechno. Rech na tseremonii otkritiya Gosudarstvennogo muzeya istorii Temuridov, 18 oktabrya 1996 g. // Karimov I.A. Mislit i rabotat po novomu – trebovanie vremeni. T.5. – Tashkent: Uzbekiston, 1997. – s. 160 - 164.

AMIR TEMURNING HARBIY DAHOSI VA SARKARDALIK MAHORATI

Z.A.IIhomov,

t.f.n., professor, Nizomiy nomidagi TDPU

Z.Z.Adxamova,

Qibray tumani 40-maktab o'qituvchisi

Amir Temur o'zbek xalqi va o'zbek davlatchiligi tarixida, uning taraqqiy etishi va markazlashgan yirik saltanat darajasiga ko'tarilishida, ma'naviy hayot, bunyodkorlik va ilmiy sohaning yuksalishida beqiyos xizmat ko'rsatgan shaxs. Amir Temur jahon xalqlari tarixida buyuk davlat arbobi, mashhur sarkarda sifatida e'tirof topgan yorqin siymodir.

Amir Temur o'z davri va zamonasiga ko'ra markazlashgan yirik davlatga asos soldi va bu bilan xalqiga, yurtiga beqiyos xizmat qildi [1.5]. Darhaqiqat, taniqli tarixchi olim B.Ahmedovning Amir Temur faoliyatiga bergan qisqagina bu ta'rifida katta ma'no yotadi. Amir Temur Movarounnahrni ozod qilgach, bu yerda istiqomat etuvchi ko'pchilik aholi turkiy xalqlar tiliga rivoj berishga harakat qiladi. Bu hol uning siyosiy va harbiy tayanchi bo'lgan turkiy qabilalarning bir maqsad yo'lida jipslashuviga sharoit yaratadi [2.7]. Temuriylar salatanatining tashkil topishining asosiy omillaridan biri Amir Temur bayrog'i ostida birlashgan O'rta sharqning barcha turkiy tilli xalqlarining birgalikdagi harbiy muvaffaqiyatlariga ham bog'liq bo'lgan. Amir Temur davlati garchi qisqa vaqt mavjud bo'lib, uning vorislari davrida saltanat tanazzulga yuz tutgan bo'lsa ham, Amir Temur va temuriylar davridagi harbiy sohaning erishgan yuqori darajasi, otliq qo'shinlarning jang olib borish taktikalari, qurollanish kabi jihatlari keyingi davrlarda hukm surgan davlatlar harbiy sohasida o'z ahamiyatini zarracha ham yo'qotmadi [3.106-168].

Amir Temurning harbiy siyosati va sarkardalik mahorati, harbiy boshqaruvni tashkil qilish tajribasi, har bir to'qnashuvda jang olib borishning alohida o'ziga xos taktikasi kabilarni mohirlik bilan amalga oshira olganligi va yirik natijalarga erisha olganligi ko'pgina tarixchilar tomonidan alohida urg'u berib ta'kidlab o'tilgan. Bir qator manbalarda, jumladan, Ibn Xaldun xotiralarida Amir Temurga nisbatan biron marta ham salbiy o'xshatishlar ishlatmay, uni hurmat bilan tilga olganligi, uning arab tarixchilari orasida Amir Temur shaxsiyatiga juda to'g'ri baho bergan allomalardan bo'lganligi, Amir Temur uning tasavvurida nafaqat "yirik sarkarda va davlat arbobi, balki o'ta bilimdon, o'qimishli, o'z davrining ma'rifatli kishilaridan biri" bo'lganligi akademik A.Asqarov tomonidan ko'rsatib o'tilgan [4.7]. Mazkur olimning tadqiqotlarida AQSH lik olim Richard Nelsonning "Temur harbiy strateg va ulkan siyosatdon sifatida hozirgi davr talqini" nomli ma'ruzasida Amir Temur siymosida uning daholigini namoyon etuvchi jihatlarini ko'ra bilgan G'arbning yetuk tarixchilaridan biri sifatida e'tirof etilib, Amir Temurning bir qancha harbiy sarkardalik jihatlarini ko'rsatib o'tadi va quyidagilarga alohida e'tibor qaratadi, xususan, Amir Temur tarixda o'tgan barcha davr buyuk harbiy ko'mondonlari orasida alohida o'rin egallashi, uning shaxsiy jasorati ham afsonaviyligi va uning kuch-qudrati va chidamliligi ham kishini lol qoldirishi, Amir Temurning harbiy san'at ustasi bo'lganligi, buyuk sarkarda sifatida o'z jangchilarini doimo kurashchan vaziyatda tutganligi va dushmani qattiq ta'qib qilishi, jangga uzoq tayyorlanish orqali tez va shiddatli hujum uyushtirishni afzal bilganligi kabilar ko'rsatib o'tiladi. Richard Nelson - "Amir Temur jang maydonini tanlay bilgan buyuk sarkardadir" degan xulosaga kelganligi ta'kidlanadi [4.8].

Sohibqiron Amir Temurning jahonshumul obro'-e'tibor va shonshuhrat qozonishidagi bosh omillar - sarkardalik dahosi, harbiy iste'dod va uniig mahorati hamda o'sha davrdagi mamlakat iqtisodiyotini chuqur bilganligidir [5.48].

Sohibqiron mukammal harbiy-siyosiy tizimni yaratdi va bu tizim keyinchalik yirik davlatlar boshliqlari, sarkardalariga muhim dastur vazifasini o'tadi. U lashkariy qismlarni Chingizxon davridagidan ham mukammalroq qayta tashkil qildi va harbiy san'ati orqali mamlakatda

kuchli mudofaa tizimini yaratdi. Amir Temur harbiy ilmu salohiyati orqali davlatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bilan birga dunyo geosiyosiy maydonida yetakchi mavqeni egalladi [6.83].

El-yurtni boshqarishda harbiy kuchning ahamiyatini yaxshi tushungan Amir Temur qo'shinning tuzilishiga katta ahamiyat berdi. U «amir» va «amir ul-umaro» kabi yuqori darajali harbiy unvonlar joriy qildi. Qo'shinni harbiy jihatdan isloh qilar ekan, u ayniqsa lashkarboshilarni tanlash va ularni tarbiyalash, harbiy qismlar va ularning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda intizom masalalariga nihoyatda e'tibor beradi/ Amir Temurning harbiy sohaga munosabati, uning takomillashtirilishi va alohida e'tibor qaratishi. Ayniqsa otliq qo'shinlar, xattoki otlarning o'ziga ham alohida e'tibor qaratilganligi haqida mualliflarda biri shunday yozadi: -“Amir Temur lashkarining asosiy harakat vositasi bo'lmish otlarga katta ahamiyat berar va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilar edi. Shuning uchun ham otlar ustiga yo'lbars terisidan qoplama tiktirilgan va ko'krak qismida temirdan qalqon yasashga buyruq berilgandi” [7.87].

“O'zbekistonda harbiy ish tarixidan” monografiyasining mualliflari yozishicha, Amir Temur tuzgan harbiy qo'shinda muntazam armiyaga xos bo'lgan ko'pgina belgilar namoyon bo'lib, ularni qo'shinning tshkil etilishi va tuzilishi, jangovor tarkibining yurishlar davomida o'zgartirib turilishi, qurollanishi va kiyimlari, bayroq va tug'larining mavjudligi va alohidaligi kabi jihatlarida ko'rish mumkin edi. Qo'shinning asosini otliq qo'shinlar tashkil qilgan [8.91].

Amir Temurning 1399-1404 yillarda olib borgan harbiy yurishlari natijasida Shomning Halab (Aleppo), Xums, Baalbek (Ba'albak), Dimishq (Damashq) kabi yirik shaharlari va Iroqi Arabning Ubuliston o'lkasi (qad. Kappadokiya) bilan Bag'dod, shuningdek Turkiyaning katta qismi zabt etiladi. Anqara jangida Amir Temur jahonning buyuk sarkardalaridan biri Boyazid Yildirim ustidan g'alaba qozondi. Turkiya sultoni asirga olindi. U bilan birga xotini serb malikasi Olivera, o'g'illari Muso va Iso Chalabiylar ham asirga tushdilar. So'ng, Amir Temur Anadolu yarim orolini egallab, O'rta dengizning sharqiy sohilida joylashgan Izmir shahrini zabt etdi va salibchilarning Yaqin Sharkdagi oxirgi qarorgohiga barham berdi.

Soʻngra, Egey dengizida joylashgan Xios va Lesbos orollaridagi Genuya mulklarining hukmdorlari unga taslim boʻldilar, Misr ham oʻz itoatkorligini izhor etdi [9.425].

Amir Temurning yetti yillik harbiy yurishlari xijriy 807 yilning muxarram oyida (1404 yilning iyun oyida) Suriyaning hamda Turkiyaning katta qismining ishgʻol etilishi bilan yakunlandi. Bu yurishda Amir Temur harbiy qudratining namoyon qilib bergan yurish shubhasiz hijriy 804 yil zul-xijja oyining 19-kunida (1402 yil 20 iyul) Anqara yaqinidagi Chibukobod tekisligida Turk sultoni Boyazid Yildirim I [10] (1389-1403) bilan boʻlib oʻtgan jangi edi [11.49-50].

Harbiy yurishlardan eng yirigi va umuman harbiy ishlar tarixidagi eng salmoqli janglardan biri Kichik Osiyoga, Turk sultoni Boyazid Yildirimga qarshi amalga oshirilgan Anqara jangi (1402 yil 28 iyul) edi.

Tarixchi B.Axmedovning yozishicha, Anqara jangida har ikki tarafdan 200 mingdan ortiq askar qatnashgan. Yaqin Sharqda usmonli turklar, shuningdek Misr sultoni al-Faraj (1399-1405) ning, shuningdek, jaloiriyalar (1336-1432) va qoraquyunlilar (1380—1468) ning siyosiy va harbiy qudrati oshib, Temur imperiyasining janubi-gʻarbiy viloyatlariga xavf tugʻdirganligi bu urushning ochilishiga asosiy sabab boʻldi. Amir Temur bu urushga qariyb ikki yildan ortiq tayyorgarlik koʻrdi. Boyazid qoʻshinining asosini piyoda qoʻshinlar tashkil etsa, Amir Temur qoʻshinlarida otliq boʻlinmalardan iborat edi. Amir Temurning harbiy qarorgohi kichik daryocha boʻyida joylashgan boʻlib, u Temur qoʻshinlarining orqa tomonidan oqib kelardi. Qarorgoh atrofi chuqur xandaqlar bilan oʻrab olindi. Shu turiqa Sulton Boyazid oʻzi uchun juda noqulay boʻlgan sharoitda hujumga kirishga majbur qilindi. Har ikki tomon uchun toʻqnashuv qanchalik ustunlik bermasin, jangning natijasini Amir Temur tomonidan amalga oshirilgan chalgʻituvchi harbiy usul hal qildi. Amir Temurning harbiy jang sanʼatida yashin tezligida qarorlar chiqarish muhim oʻrin tutgan. U harbiy yurishlar va harakatlarning beqiyos va mohir bilimdoni boʻlib, bular uni bir necha marta magʻlubiyatdan saqlab qolgan va gʻalabaga erishishida asosiy omil boʻlgan edi. Amir Temur jang maydonida ustunlikni qoʻlga kiritish uchun koʻp hollarda qoʻshinni turli holatlarda harakatlantirar edi. Jang davomida sarkarda eng

zarur vaqtda va eng zarur joyda iqtidorini ko‘p hollarda namoyon qilib, qarorlar qabul qilardi va ularning bajarilishini ham shaxsan o‘zi nazorat qilardi. Jang qizg‘in pallaga kirib, kun yarmida Sohibqiron tomonidan Muhammad sulton qo‘mondonligidagi saralangan otliq qo‘shin Chibukobod markazida Boyazidning piyoda qo‘shinlari egallab turgan tepalik tomon yuborildi. Muhammad Sulton qo‘shinlari Boyazidning piyoda qo‘shinlarini mag‘lubiyatga uchratib, ularni chekinishga majbur qildi va ayni vaqtda katta harbiy taktik ustunlik Amir Temur qo‘shinlari tomonga o‘tdi. Xavotirga tushgan Boyazid strategik jihatdan o‘ta muhim bo‘lgan bu tepalikni qaytarib olish maqsadida o‘zining markazdagi asosiy qo‘shinlarini to‘lalagicha Muhamma Sulton qo‘shinlariga tomon harakatlantirdi. Muhammad Sulton avvaldan ishlab chiqilgan taktik reja asosida unga jiddiy qarshilik ko‘rsatmagan bo‘lsada, asosiy maqsadga erishildi, Boyazid qo‘shinlarining qanotlari markazdagi asosiy tayanch kuchlardan ajratib qo‘yildi. Vaziyatdan to‘g‘ri foydalangan Amir Temur Boyazid qo‘shinlarining har ikki qanotini qurshab oldi. Mironshoh hamda Shohruxlar qo‘mondonligidagi qo‘shinlar raqib qo‘shinlarini juda tezlik bilan mag‘lubiyatga uchratdilar va markazdagi Muhammad Sulton qo‘shinlariga yordamga yetib bordilar. Boyazid qattiq qarshilik ko‘rsatishiga qarmasdan natijaga erisha olmadi, ayni vaqtda kunning botishi ham uni chekinishga majbur qildi. Chekinish jarayonida Boyazid qo‘shinlari har tomondan o‘qqa tutildi va juda ko‘p askarlarni yo‘qotdi [12.49-50].

Jang tafsilotlari haqida “Temur tuzuklari”da shunday ma’lumotlar keltirilgan: Chunonchi, Qaysar [13] bilan bo‘lgan jangda shunday qildim: amirzoda Mironshoh o‘ng qanotning sardori edi. Unga Qaysar chap qanoti ro‘barusi va yonidan jangga kirishni buyurdim. Chap qanotning amirlari: amirzoda sulton Mahmudxon va amir Sulaymonga esa yorlig‘ yuborib, Qaysarning o‘ng qanotiga hujum qilishni buyurdim. O‘ng qanotimning tarhi bo‘lgan amirzoda Abubakrga esa tepalik ustida turgan Yildirim Qaysarning qo‘l favjiga turktoz qilishni buyurdim. O‘zim esa qo‘l favjlari va ulus, aymoq lashkarlari bilan Qaysar tomonga yurish qildim. Qaysarning sipohiy favjlari birinchi hamlamdanoq yengildi. Sulton

Mahmudxon [qochayotgan] Qaysarning ketidan quvib, uni qo‘lga tushirdi va mening dargohimga keltirdi” [14.106].

Jang so‘nggida Boyazid asir olinib, Amir Temur huzuriga keltirildi, Sohibqiron unga iltifotli munosabatda bo‘ldi, unga ko‘p hadyalar berib ozod qildi va hurmat bilan kuzatib qo‘ydi [12.49-50]. Yana bir manbada ko‘rsatilishicha, qochayotgan sulton Boyazidni chig‘atoy xoni Sulton Mahmudxon quvib yetadi va bandi qiladi. Namozni xufton payti Amir Temur huzuriga olib keladi. Sultonning qo‘l-oyoqlari yechilib, unga hurmat bilan muomala qiladilar. Amir Temur sulton Boyazid bilan ancha suhbat quradi. Suhbat asnosida sulton tavba-tazarru qilib, afv so‘raydi va umr bo‘yi farzandlari bilan birga Sohibqiron xizmatiga tayyorligini aytadi. Suhbat oxirida Amir Temur unga shohona to‘n kiydiradi. Sulton Sohibqironning lutfu karamiga duolar aytib, o‘g‘illari Muso bilan Mustafoning hayot yo o‘likligi haqida xabar berishlarini so‘raydi. Sohibqiron ularni topishga va‘da berib, sultonni muhofaza qilish uchun atoqli begini maxsus qo‘yadi. Shundan so‘ng Amir Temur har kuni sultonni o‘z huzuriga keltirib, u bilan suhbat quradi va ko‘nglini ko‘taradi. Anqara yaqinidagi g‘alabadan so‘ng Amir Temur lashkarini kichik guruhlarga bo‘lib, har tarafga, to O‘rta, Egey, Marmar dengizlarigacha yuboradi. O‘zi Kutahiyada turadi. U yerdan ikki guruh elchilarni: birini Istanbulga Vizantiya imperatori huzuriga mol va boj uchun, ikkinchisini Frakiyaga, sultonning qochqin o‘g‘li Musulmon Chalabiy huzuriga taslim bo‘lishini talab qilib yuboradi [15.80].

Turk sultonligining harbiy yurishlaridan xavfsirab turgan Yevropa Amir Temurning 1402 yilda Anqara jangida turk sultoni Boyazid Yildirimni mag‘lubiyatga uchratganidan so‘ng yengil nafas oldi. Amir Temur mavjud boshqaruv tizimini o‘zgartirib, mustaqil Anatoliya amirlariga Boyazid tomonidan tortib olingan mulklarini qaytarib berdi. Bunga javoban amirlardan biri Musa bey o‘z birodari bilan birgalikda 1402-1403 yil qishida Amir Temurni minnatdorchilik yuzasidan Tir shahriga chorlab, qabul marosimi o‘tkazdi. Amir Temur va uning harbiy qudratining dovrug‘i butun Yevropaga tarqaldi [16.3-4].

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Istanbuldan (Konstantinopoldan) tashqari Vizantiya imperatoriga (Takurga) tegishli bo‘lgan Egey

dengizidagi orollar, Bolqondagi Moreya va Bolqonning usmonlilarga qaram bo'lgan qismlari hamda Frakiya ikki yarim yilga, ya'ni to Temur vafotigacha unga tobe' bo'lgan yerlar deb karalmog'i kerak. Shuni aytish kerakki, Amir Temur ana shu yurish asnosida 1402 yil 2 dekabrda Egey dengizi bo'yidagi Izmir qal'asini ham oldi. Turklar bu mustahkam qal'ani o'n yil qamal qilib, ololmagan edilar. O'sha yil dekabrda sulton Boyazidning o'g'li Musulmon Chalabiydan Shayx Ramazon hadyalar bilan yana elchi bo'lib keladi va Musulmon Chalabiy taslim bo'lganini izhor etadi [15.81]. Boyazid Yildirim I shu voqeadan sakkiz oy o'tib, hijriy 805 yil sha'bon oyining 14 kunida (1403 yil 9 mart) Oqsaroyda vafot etdi [12.49-50].

Amir Temur Boyazidning vafotidan xabar topishi xamono ta'ziya bildirish uchun Oq shaxarga bordi. Hazrat soxibkiron ta'ziyadan keyin uning farzandlari va karindoshlariga alohida hurmat-ehtimom ko'rsatib, ularga qimmatbaho hadyalar ulashdi. Temur ayniqsa, Boyazid Yildirimning o'g'illaridan Musoni maxsus sovg'a-salomlar bilan siyladi va Turkiya saltanatini uning qo'liga topshirdi. O'shanda Amir Temurning taklifi bilan Boyazid Yildirimning xoki Oq shaxardagi shayx Maxmud Xayron qabristonidan Bursa shaxriga, sulton tirikligida o'zi uchun bino qildirgan maqbaraga ko'chirildi [17.35]. Boyazid ustidan qozonilgan bu g'alaba bilan Amir Temurni Fransiya qiroli Karl VI (1380-1422), Angliya qiroli Genrix IV (1399-1407) tabriklab, unga maxsus maktub yubordilar. Chunki Amir Temur endigina uyg'onayotgan Yevropaga ulkan xavf solib turgan Usmonli turklar davlatiga zarba berib, butun Yevropaning haloskoriga aylangan edi [9.425].

Bu g'alabadan so'ng Ozarbayjon, Rum (Kichik Osiyo), Istanbulgacha, Suriya, Misr, Iroq va Fors Amir Temur saltanatining tarkibiga kirishi bilan birgalikda g'arbiy Yevropaning Angliya, Fransiya, Ispaniya singari nufuzli davlatlari va ularning hukmdorlari Amir Temur davlati bilan yaqindan aloqa bog'lash, hamkorlik qilish, ayniqsa savdo-sotiq munosabatlarini o'rnatishga intila boshladilar. Markazi Samarqand shahri bo'lgan Amir Temur davlati dunyoning eng qudratli saltanatiga aylandi.

Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, XIV asr 60-yillari – XVI asr boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan Amir Temur va

temuriylar hukmronligi va boshqaruvi davri o‘zbek davlatchiligi tarixida alohida bosqich sanalib, bu davr *siyosiy jihatdan* Amir Temur tomonidan Movarounnaxrda marakazlashgan davlatning tashkil etilishi va ayni vaqtda Markaziy Osiyo, Old Osiyo va Yaqin Sharq, Kichik Osiyo va Yevropaning bir qismini o‘z ichiga olgan buyuk salatanatga asos solinishi, davlatchilik an‘analarining isloh kilinishi va takomillashtirilishi natijasida o‘zbek davlatchiligi taraqqiyotida yangi bosqichga ko‘tarilishi bilan xususiyatlanadi. Bu davrda islom mafkurasi hukmron mafkura sifatidagi mavqeini tikladi. XV asr boshiga kelib Movarounnahrda yuzaga kelgan siyosiy tarqoqlik XVI asr boshlariga kelib temuriylar davlatining inqirozi bilan yakun topadi.

Iqtisodiy jihatdan mazkur davr yer va yerga egalik munosabatlarining takomillashtirilishi, sug‘orish tarmoqlarining tiklanishi va barpo etilishi, yangi yerlarning o‘zlashtirilishi va dexqonchilik maydonlarining kengaytirilishi, iqtisodiy sohadagi davlat siyosatining izga solinishi, soliqlarning takomillashtirilishi, hunarmandchilik va me‘morchilikning taraqqiy etishi, Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab Xitoy, Hindiston, Mo‘g‘uliston, Sibir xalqlari, Volgabo‘yi xalqlari, Sharqiy Yevropa, Markaziy Yevropa, Bolqon mamlakatlari, Kichik Osiyo, Old Osiyo, Yaqin Sharq, Afg‘oniston, Eron, Kavkaz xalqlari bilan savdo aloqalarining kengayib borishi kabilar bilan xususiyatlanadi [18.38-46].

Bu esa Amir Temurning nafaqat harbiy dahosi va sarkardalik mahorati, balki kuchli boshqaruvga ega bo‘lgan, mukammal iqtisodiy va ijtimoiy siyosat yurita olgan davlat arbobi bo‘lganligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov B. Amir Temurni yod etib. T.: “O‘zbekiston”. 1996.
2. B.Mannonov, G.Ostonova, SH.Kamoliddin. Amir Temurning turkiy yorlig‘i. Toshkent, Temuriylar tarixi davlat muzeyi. 2005. 7- bet.
3. Bobrov L.A., Xudyakov Y.S. Zashitnoye voorujeniye sredneaziatskogo voina epoxi pozdnego srednevekovya // Voyennoye delo nomadov Severnoy i Sentralnoy Azii. Novosibirsk: Novosibirskiy Gosudarstvenniy universitet, 2002 . S. 106 – 168.

4. Asqarov A.A. Amir Temurning tarixdagi roli va uning dahosi. «Sohibqiron Amir Temurning jahon tarixidagi o`rni» mavzusidagi respublika miqyosidagi masofaviy konferensiya materiallari. (2020-yil 9-aprel) – Toshkent: TDPU, 2020. 7-b

5. Zaynitdinov S.M., Haqliyev V.B. Bobokalonimiz Amir Temur davridagi soliq siyosati. «Sohibqiron Amir Temurning jahon tarixidagi o`rni» mavzusidagi respublika miqyosidagi masofaviy konferensiya materiallari. 2020-yil. – Toshkent: TDPU, 2020. 48-b

6. Mirzayev G.R. Sohibqiron amir temurning harbiy san'ati va strategiyasi. «Sohibqiron Amir Temurning jahon tarixidagi o`rni» mavzusidagi respublika miqyosidagi masofaviy konferensiya materiallari. (2020-yil 9-aprel) – Toshkent: TDPU, 2020. 83-b

7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 1-t. 423-bet.

8. Azimov E. Amir Temur saltanati. T.: G.G'ulom nom.adab. va san'at nashr. 1996. 87-b.

9. O'zbekistonda harbiy ish tarixidan (qadimgi davrdan hozirgacha). / O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi; mas'ul muxarrir: D.X.Ziyayeva / -T.: "Sharq", 2012. 91-bet.

10. Boyazid Yildirim (Yıldırım Bayezid 1360, Edirne – 8 mart 1403, Akşehir) – Usmoniylar sulolasiga mansub Turkiya sultoni, sulton Murodxon I (1359-1389) ning to'ng'ich o'g'li, sulton O'rxon (1326-1359) ning nabirasi. Otasi Kosovo jangida halok bo'lgach, 30 yoshida taxtga o'tirgan. 1395-1396 y.larda Bolgariya, Makedoniya, Fessaliyani fath etdi, Moreya va Vengriyaga tahdid sola boshladi. Shunda Bogemiya va Vengriya qiroligini Sigismund I (1368-1437) turli mamlakatlardan katta qo'shin to'plab Boyazidga qarshi yurish qildi, ammo 1396 yil 28 sentabrda Nikopol shahri yonida (Dunay bo'yida)gi jangda tor-mor keltirildi. Boyazid bu yirik g'alaba tufayli Bosniya, Vengriyani ham qo'lga kiritib, Bolqon yarim orolida o'z mavqeini mustahkamlab oldi. Biroq, Boyazid Anqara jangida Amir Temur tomonidan butunlay tor-mor etilib, o'zi asir olindi va ko'p o'tmay (1403 yil 8 mart) vafot etdi.

11. Axmedov B.A., Mukminova R.G., Pugachenkova G.A. Amir Temur. Jizn i obshestvenno-politicheskaya deyatelnost.T.: «Universitet», 1999. S.49-50.
12. Amir Temur. Jizn i obshestvenno-politicheskaya deyatelnost.T.: «Universitet», 1999. S.49-50.
13. Turk sultoni Boyazid Yildirim I (1359-1403).
14. Temur tuzuklari //Forschadan| A. Soguniy va H. Karomatov tarj; B. Ahmedov tahrir. ostida/.— T.: Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. 106-bet.
15. Amir Temur jaxon tarixida / Mas’ul muxarrir: X.Karomatov. To‘ldirnlgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri. -T.: “Sharq”. 2001. 80-bet.
16. Askarov SH. Amir Temur i Filippo Brunelleski. / "San’at", 2004. № 3-4.
17. Axmedov B. Sohibqiron Temur: (hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati), T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1996. 35-bet.
18. Ilhomov Z. O‘zbek davlatchiligi taraqqiyoti bosqichlari. O‘zbek davlatchiligi taraqqiyoti bosqichlari, tarixi va tarixshunoslik masalalari. Toshkent. 2021.

AMIR TEMUR HARBIY MAHORATI VA FAOLIYATI FRANSUZ TARIXCHILIGI NIGOHIDA

A.Sattorov,

Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti

Amir Temur jahon tarixida qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatidagina mavqe tutmaydi.

Sohibqiron o‘z poytaxti bo‘lmish Samarqandni yer yuzining madaniy-me’moriy va ilmiy-ma’naviy markazlaridan biriga aylantirgan.

Buyuk ajdodimizning eng muhim fazilatlaridan biri shuki, u zot bundan olti asr avval davlatlararo manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, uzoq va yaqin xalqlar o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlik rishtalarini mustahkamlash o‘z saltanati yorqin istiqbolini ta’minlashning muhim

omili ekani teran anglagan. Shu bois, Yevropa va Osiyoni bog‘lashga xizmat qilgan ulkan ishlarni amalga oshirgan. Bir tomondan – Xitoy, Hindiston, ikkinchi tomondan – Fransiya, Ispaniya, Angliya va boshqa davlatlar bilan aloqa o‘rnatgan va shu munosabatlarni mustahkamlashga intilgan.

Mamlakatimiz olimlari va xorijlik mutaxassislar tomonidan ilmiy asosda e‘tirof etilganidek, Amir Temur tarixda o‘z davrining eng mohir diplomati sifatida ham chuqur iz qoldirgan. Sohibqiron buyuk davlat arbobi sifatida o‘z maqsadlariga erishishda diplomatiyaning tinch yo‘li va harbiy tadbirlarni mohirona qo‘shib olib borgan.

Amir Temur barpo etgan buyuk saltanat o‘sha davrdan boshlab nafaqat qo‘shni mamlakatlar va ularning podsholarini, balki uzoq yurtlar hukmdorlarini ham o‘ziga jalb etib kelgan. Tarixiy hujjatlar dalolat berishicha, XIV asrning 70-yillaridanoq Yevropa davlatlari vakillari Movarounnahrda kelib, bu yerdagi yangi, mustaqil davlatning qudrati va salohiyati bilan jiddiy qiziqqanlar.

Sohibqiron ham, o‘z navbatida, ayniqsa, qudratli saltanat shakllangach, o‘sha davrning deyarli barcha yirik davlatlari va ularning hukmdorlari bilan faol diplomatik aloqa o‘rnatgan. Turli davlatlarga o‘z elchilarini yuborgan, shuningdek, uning huzuriga yo‘llangan xorij elchilarini qabul qilgan.

Amir Temur Kastiliya va Leon qiroli Don Enrike III (ayrim manbalarda – Ispaniya qiroli Genrix III), Fransiya hukmdori Sharl VI (ayrim manbalarda – Karl VI), Angliya qiroli Genrix IV saroyiga elchilar yuborgani, o‘z navbatida, ispaniyalik, fransiyalik, angliyalik, xitoylik va boshqa bir qator – jami 20 dan ortiq xorijiy davlat elchilarini o‘z poytaxti Samarqandda qabul qilgani haqida atroflicha bayon etilgan ko‘plab tarixiy va ilmiy asarlar bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi[1].

Amir Temur diplomatiyasining o‘ziga xos tomonlaridan biri – u o‘zining barcha murojaatlarida, hatto qat‘iy talab shaklida yozilgan nomalarida ham Sharq diplomatiyasi etiketlariga rioya qilgan. Ayrim yurtlar hukmdorlarining qo‘pol shaklda, ba‘zi hollarda jahl va jaholat bilan yozilgan nomalariga ham Sohibqiron hamma vaqt o‘z fikrini aniq bayon qilgan holda madaniyat va odob bilan javob qilganini o‘sha davrlardan

meros bo‘lib qolgan tarixiy xatlar orqali bilib olish qiyin emas. Amir Temurning Fransiya qiroli Charl VI ga yo‘llagan maktubida “Salom va tinchlik e‘lon qilaman!”, degan so‘zlar bitilgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Shu o‘rinda Fransiyada Amir Temur shaxsiga bo‘lgan katta qiziqish haqida to‘xtalib o‘tsak. Fransuz sharqshunoslari Sohibqiron va u asos solgan buyuk sulola tarixini yoritishda faqat harbiy yurishlar va amalga oshirilgai ishlar solnomasini tuzish bilan cheklanmasdan, o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy-mafkuraviy muhitini hamda Amir Temurga va uning avlodlariga xos sof insoniy fazilatlarni, ularning davlat, jamiyat, din va ilm-fanga bo‘lgan munosabatini ham atroflicha tadqiq qilishga alohida e‘tibor beradilar[2.203].

Fransuz sharqshunoslarining Amir Temur va Temuriylar davri tarixini o‘rganish miqyosi keng bo‘lib, ular o‘sha davr boshqaruv va harbiy tizimini, madaniyati, dini, falsafasi va ilmiy tafakkurini atroflicha yoritadi. San‘at va me‘morchilik fransuz olimlari uchun alohida va doimiy qiziqish mavusidir. Temuriylar Uyg‘onish davriga bag‘ishlab ular yozgan asarlar, o‘tkazgan ilmiy anjumanlar va ko‘rgazmalar shundan dalolat beradi.

Sobiy ittifoq davrida Amir Temur to‘g‘risida iliq so‘z aytish ayb, hatto jinoyat hisoblangan bir paytda, ya‘ni 1987 yil 22 martda Parijda “Temuriylar davri tarixi va san‘atini o‘rganish va fransuz-o‘zbek madaniy hamkorligi” uyushmasi tuzilgan. Uyushma Amir Temur va temuriylar davri tarixi va madaniyatini targ‘ib qilish borasida dunyoda birinchi tuzilgan tashkilotdir. Uning asosiy maqsadi Amir Temur va temuriylar madaniyati, san‘ati, shuningdek, Buyuk ipak yo‘lining muhim qismi, Sharq va G‘arb madaniyatlarining chorrahasi bo‘lmish Markaziy Osiyo tarixi va uning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan ulkan hissasi bilan keng fransuz ommasini tanishtirishdan iborat. Buning yaqqol dalili sifatida ular Samarqandu Shahrizabz, Buxoro-yu Hirot, Balxu Shimoliy Hindistondagi tengsiz Sharq me‘morchilik durdonalarini misol qilib ko‘rsatadilar. Shu maqsadda uyushma turli temurxonlik kechalari, ilmiy anjumanlar, ko‘rgazmalar o‘tkazib turadi. Temuriylarning xaqiqiy ixlosmandi bo‘lmish uyushma a‘zolari fransuzlarni mashhur tarixiy «Samarqand yo‘li»dan borishga, Amir Temur saltanati poytaxti moviy gumbazlariga mahliyo

bo'lishga, Sharq uyg'onish davri madaniyati va san'atidan zavqlanishga chorlaydi.

O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi ilmiy-madaniy hamkorlik rivojida uyushmaning munosib o'rni bor.

Shuni ham qayd etish kerakki, fransuz temurshunoslari yaratgan asarlar qatorida professor Lyusen Kerennng kitob va maqolalari alohida o'rin tutadi. 1961 yilda O'zbekistonga qilingan safar professorning hayotida burilish yasaydi. Shu paytdan boshlab u o'z hayotini Amir Temur shaxsi va temuriylar sulolasi tarixini o'rganishga bag'ishlagan.

Professor L.Keren o'z asarlarini yozishdan avval Amir Temur to'g'risida yozilgan Sharq va G'arb manbalarini chuqur tanqidiy nuqtai nazardan o'rganib chiqqan. Sharafiddin Ali Yazdiy va Ibn Arabshohning solnomalari, Rui Gonsales de Klavixo "Kundaliklar"i, mavjud tarixiy arxiv hujjatlari va yozma manbalar hamda taniqli fransuz sharqshunoslarining asarlari shular jumlasidandir.

Olim Sohibqiron haqida ulkan arxiv, tarixiy, ashyoviy va hayotiy ma'lumotlar to'plagan. Ana shu manba va asarlarni muqoyasa kilib, taqqoslab, ulardan har birining tarixiy dalillar nuqtai nazaridan ishonchli va xolis ekaniga baho bergan. Natijada Amir Temurning mukammal tarjimai holi va obrazini yaratishga muvaffaq bo'lgan, Sohibqiron faoliyatini teran va xolis baholagan[1].

Lyusen Keren Amir Temur shaxsiga xolis va mafkuraviy aqidalarsiz yondashadi. Ilmiy va tarixiy dalillar asosida mulohaza yuritadi va xulosalar chiqaradi. Olim Sohibqiron shaxsini tahlil qilar ekan, uning faqat harbiy iste'dodiga emas, balki maqsadini aniqlab, unga erishish borasidagi siyosiy zakovatiga, diplomatik mahoratiga va bunyodkorligiga ham tan beradi.

Professor L.Keren Amir Temur va uning Yevropa bilan aloqalariga bag'ishlangan bir qator asar va maqolalar muallifidir. Uning eng asosiy kitoblaridan biri "Temur yoxud Sohibqiron saltanati" ilk bor 1978 yilda bosilib chiqqan. Uning yirik asarlaridan yana biri "Temur davrida Samarqand yo'li" (Parij, 1990) kitobi YUNESKOning "Ipak yo'li – muloqotlar yo'li" dasturi doirasida tayyorlangan.

Lyusen Kerening bu kitoblari uni dong‘i ketgan temurshunos olimlar qatoriga qo‘shgani bejiz emas. Ayniqsa, Sohibqironning Yevropadagi o‘rni va xizmatiga oid fikrlari diqqatni jalb etadi. Olim Amir Temur Yevropa andozasidagi buyuk davlat boshlig‘i va muzaffar sarkarda, mohir diplomat va ilm-fan homiysi ekanini alohida qayd etgan.

Lyusen Keren “Amir Temur” nomli ikki qism, olti pardali pesa ham yaratgan. Qariyb o‘ttiz besh yil davomida Amir Temur to‘g‘risida olib borgan tadqiqotlari xulosasi sifatida shunday deb yozadi: “Bir tomonda kattiqqo‘l Temur tursa, ikkinchi tomonda ilm ahlini qutlab, himoyasiga oladigan Temur turadi; bir tomonda butun-butun shaharlarni zabt qiluvchi Temur bo‘lsa, ikkinchi tomonda obidalar, madrasalar, anhorlar qurdiruvchi va bog‘lar barpo ettiruvchi Temur turadi. Bu murakkab shaxs muarrixlar uchun ham jumboq bo‘lib qolmoqda”[2.211].

O‘zbekiston yer yuzidagi ko‘plab mamlakatlar bilan turli sohalarda o‘zaro manfaatli aloqalarni keng yo‘lga qo‘ymoqda, xalqaro xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, hamkorlikning barcha shakllarini rivojlantirish yo‘lida izchillik va qat‘iyat bilan odimlamoqda. Bu yo‘lda bizga buyuk ajdodlar, ayniqsa, Amir Temur merosi doim hamrohdur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidov A.X. Amir Temurning huquqiy qarashlari va amaliy faoliyati har doim adolat va insof meyorlari bilan hamohang kelgan. Dunyo.info/cyrl/site/inner/akademik_akmal_saidov_amir_temurning_%D2%B3uquqiy_qarashlari_va_amaliy_faoliyati

2. Karamatov H. va boshqalar Amir Temur jahon tarixida. – T.: Adolat. 1996.

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ВОЕННОГО ИСКУССТВА АМИРА ТЕМУРА

С.М.Атаджанова,

*доцент, к.и.н., Национальный университет
Узбекистана*

После создания сильного централизованного государства Амир Темур в первую очередь придал большое значение укреплению его военного потенциала. Сахибкиран, решил реорганизовать отряд армии Чингисхана. Формирование армии, ее состав, ее тактические приемы были реформированы и введены новшества. Впервые на мусульманском Востоке он использовал в своей армии огнестрельное оружие. Он также сформировал специальный пехотный отряд, который вел боевые действия в горах. Следует отметить, что он первым в истории мировых боевых искусств установил систему деления армии на поле боя на семь корпусов. Русский военный историк XIX века М. И. Иванин писал по этому поводу: «Гамерлан, который еще не умел правильно выстроить народное войско, без хаотичного и тактического движения, но в то же время сражаясь со своей меркой мужества. У него была сильная армия», — говорил он. Шарофиддин Али Язди также отметил в своей книге «Зафарнома», что «Сахибкиран изобрел и использовал стиль, который никто другой не изобретал».

В армии Амира Темура наблюдалась и другая ситуация, не характерная для того периода. Его армия состояла из женщин, которые вместе с мужчинами сражались в 154 битвах. Это было еще в новинку для средневекового мусульманского Востока. Армия, сформированная Амиром Темуром, имела многие черты регулярной армии. В частности, армия была хорошо организована, ее боевой порядок совершенствовался от боя к бою, армия была вооружена самым передовым для своего времени вооружением и техникой, оснащена однотипным вооружением, доспехами и оборудованием, также отличающееся флагом или знаменем, которое оно держит. Это

разделение значительно облегчило командование армией во время войны. Такие нововведения, как деление армии на полки и введение для каждого из них определенного типа военной формы, позже были восприняты европейскими народами. В отличие от монголов, Амир Темур снабжал пехоту лошадьми во время длительных переходов. Следует отметить, что при необходимости, чтобы выстрелить в конкретную цель кавалерия спускалась с лошадей и передвигалась по земле, кавалерия, играющая ключевую роль в армии, представляла собой быстроходную отобилизованную легкую кавалерию и тяжелую кавалерию. Задача тяжеловооруженной конницы заключалась в нанесении противнику решающего удара. Если монголы использовали тяжелую кавалерию для защиты, то Сахибкиран увеличил её роль в битве.

Большую часть тяжеловооруженной кавалерии составляли кавалеристы. Помимо основных боевых частей имелись и вспомогательные части: - артиллерия, состоящая из осадных, камнеметных машин, стрелков «греческого пламени», стенобойных средств; - специальная бригада мастеров для строительства мостов, кораблестроения, судостроения и других работ, которая должна была постоянно находиться под рукой; - отряд для управления бронетехникой и животными (слоны, верблюды, быки), используемыми в бою. Специальные пехотные подразделения, способные проходить овраги и штурмовать высокие скалы для боевых действий в горах. При этом Амир Темур обогатил, оснастил армию, расширил ее и приспособил для борьбы в любой обстановке и условиях. Перед военным походом, оглашался особый приказ-«Тункал» правителя. Тункал — особый приказ по мобилизации войск.

Приказ- «Тункал» быстро доставлялся в соответствующие места адъютантом главнокомандующего —«тавочи».

Помимо мобилизации войск, «тавочи» было поручено наблюдение за передвижением или расположением войск, а также за перемещением войск из одного места в другое. Согласно списку, составленному Амиром Темуром, наместники провинций, беки

соответствующих территорий, крепостей обязались вовремя прибыть в указанный пункт назначения со своими воинами, необходимым огнестрельным оружием, продовольствием и фуражом. Изначально Ставка Верховного Главнокомандующего возводилась на специально выбранном участке, который был украшен флагами и флажками различных цветов. Прибыв в назначенное время, солдаты соблюдая строгую дисциплину занимали свои позиции и готовились к положенному военному осмотру перед военным походом. Во время военной кампании Амир Темур выразил большое доверие опытным воинам, что также нашло свое отражение в «Уложении». Они внесены в книгу доходов, а также в список получателей государственной заработной платы, продовольствия и фуража. С провозглашением приказа о сборе войск прибывали воины с семьями, детьми, имуществом и оружием. От рядового солдата до великого полководца каждый знал свое место. Следует отметить, что процесс мобилизации проходил без лишнего шума.

В данном случае боевые действия происходили следующим образом.

Армия была разделена на 14 частей, одна из которых составляла не менее 1/3 от общего числа корпусов, и находилась в резерве под командованием командира, правому и левому крылу была отведена одна треть, они составляли вторую линию. Одна из этих частей отделялась, и они шли в авангарде, а другие образовывали правую и левую стороны каждого крыла; Правый и левый фланги образовывали первый фронт перед авангардом, часть которого выделялась из состава батальона в качестве авангарда, к которому прикреплялись хорошо вооруженные и опытные бойцы. Им предстояло поднимать шум, панику в бою и заманить в ловушку вражеский авангард. Если вражеское войско насчитывало более 40 000 человек, то сам Амир Темур возглавлял его. Под непосредственным командованием Амира Темура находилось 40 воинских частей, из которых 12 отобранных частей составляли первую линию, а остальные 28 - вторую и третью линии. Войска под командованием его сыновей и опытных эмиров составляли правое

крыло этих сорока дивизий и находились под командованием его родственников и союзников. Все эти подразделения находились в резерве и направлялись туда, если требовалась помощь. Согласно источникам, кавалерия считалась батальоном армии Амира Темура и делилась на кавалерийские группы, вооруженные тяжелым и легким вооружением. В годы войны Амир Темура большое внимание уделял управлению. Он лично руководил подбором десятков, сотен, тысяч, десятков тысяч командиров. Правильный подбор и расстановка 157 военачальников в командовании оказывали существенное влияние на успешный исход войны в большинстве случаев. Еще одним большим вкладом Амира Темура в развитие военного искусства является защита флангов армии от нападения противника в военное время и, наоборот, обход вражеских сил сбоку и нанесение им удара сзади. Такой совершенно новой воинской части (отделения) никогда не было в армии ни одного из известных полководцев (Александра Македонского, Фридриха Великого, Чингисхана и других). Следует отметить, что армия Наполеона имела подобную воинскую часть, обеспечивающую защиту флангов армии. Согласно исследованиям военных экспертов, Наполеон методично изучал структуру армии Амира Темура, методы ведения войны, и в свое время освоил тактику Сахибкирана. Амир Темура также славился своим умением нанести сокрушающий удар по врагу. Когда местоположение (лагерь) врага определялось, Амир Темура подходил к нему ночью, и на рассвете, неожиданно атаковал врага.

В средние века, где царили раздоры и хаос, Амир Темура смог построить сильную и хорошо организованную армию в 200 000 человек, вооруженную на высоком уровне.

Амир Темура возвел военную систему государства на уровень искусства и снискал большую славу. В отличие от других полководцев, Сахибкиран подавал пример своей армии. Он брал на себя инициативу в самых сложных ситуациях и ободрял армию. В своих усилиях ему были свойственны быстрота, конфиденциальность, точная и объективная оценка ситуации, а

также умение ее контролировать и умение принимать правильные решения.

Литература:

1. Nelson R. Timur is military strategist and geopolitical. It modern interpretation in world history — Т., 1996, Р. 17-19.
2. Темур тузуклари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
3. Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги(1403-1406 йиллар) - Тошкент:Ўзбекистон НМИУ, 2010.
4. Ўзбекистонда ҳарбий иш ва санъат тарихи. – Тошкент, 2012.
5. Тамерлан. Эпоха, личность, деяния. Москва: «ГУРАШ» 1992 // https://www.ziyouz.com/books/uzbeklib_ru/
6. Дадабоев Н. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати. – Тошкент, 1996.
7. Иванин.М. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур. – Тошкент: Хазина, 1994.
8. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи.Ўчилд – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014.

YOSHLAR ONGIDA VATANPARVARLIK RUHINI SINGDIRISHDA “TEMUR TUZUKLARI”NING O‘RNI

Sh.N.Xotamov,

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida
katta o‘qituvchisi, dotsent*

Bugungi kunning o‘tkir va dolzarb muammolari bizdan zamonaviy taraqqiyotning asosiy tamoyillarini har tomonlama chuqur tahlil etish bilan birga, insoniyatning yaqin-olis tarixidagi boy tajribasini ham teran idrok etishni, shu asosda amaliy xulosalar chiqarishni taqozo etmoqda, ya’ni tarix tajribasi odamzod uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hech bir mubolag‘asiz aytish mumkinki, o‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixi ham

ana shunday buyuk tajribalar manbaidir. Bu tarixning eng yorqin va shonli sahifalarini tashkil etadigan ulug‘ ajdodlarimiz haqida so‘z borganda, buyuk davlat arbobi va sarkarda, sohibqiron Amir Temur bobomizning o‘lmas nomini birinchilar qatori tilga olishimiz tabiiy, albatta. Mana, qariyb yetti asrdiki, bu ulug‘ zotning shon-u shuhrati, hayoti va faoliyatiga bo‘lgan qiziqish jahonning turli mamlakatlarida tobora ortib bormoqda.

Muqaddas yurtimiz zaminida yashab o‘tgan ko‘plab ulug‘ siymolar qatori Amir Temur bobomizning nomi, sha’nu shavkati va merosi ham qayta tiklanib, bu buyuk zot haqidagi asl haqiqat xolis va haqqoniy yoritilmoqda, tadqiqotlar olib borilmoqda, kitoblar yozilmoqda. Zero, Amir Temur shaxsini idrok etish–tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash–o‘zligimizni anglash demakdir. Amir Temurni ulug‘lash–tarix qa’riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizni, ishonchimizni mustahkamlash demakdir. Bu haqda gapirganda, Amir Temurning davlatchilik va diplomatiya, harbiy mahorat, bunyodkorlik salohiyati, ilmu fan, san’at va me’morchilikka oid qarashlari, hayotning ma’no-mazmuni, insonni ulug‘laydigan ezgu ishlar haqida bildirgan fikrlari, dinu diyonat va adolatni joyiga qo‘yish, saltanat ishlarini kengash va tadbir asosida amalga oshirish, har bir masalada uzoqni ko‘zlab, el manfaatini o‘ylab ish tutish bilan bog‘liq ibratli fazilatlarini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Aynan mana shunday masalalar Sohibqiron tafakkurining mahsuli bo‘lgan “Temur tuzuklari” asarida har tomonlama aniq, ishonarli va ta’sirchan tarzda yoritilgan, desak, haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Shuning uchun ham o‘zining beqiyos azmu shijoati, mardlik va jasorati bilan Movarounnahr zaminida mo‘g‘ul zulmiga barham berib, xalqimizni qaramlik iskanjasidan xalos etgan, tarqoq va parokanda el-ulusni birlashtirib, mustaqil va qudratli davlatga asos solgan bu ulug‘ siymoning mazkur kitobda ifoda etilgan g‘oya va qarashlari nafaqat o‘z davri, balki bugungi va kelgusi avlodlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etishi bejiz emas.

Shu o‘rinda, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning “Temur tuzuklari” asari uchun yozilgan so‘zboshida keltirilgan ushbu mulohazalari

yuqorgi fikrlarimiz dalili bo‘la oladi: “Shaxsan men Sohibqiron bobomiz bizga meros qilib qoldirgan “Tuzuklar”ni o‘qisam, xuddiki o‘zimga qandaydir katta ruhiy kuch-quvvat topgandek bo‘laman. Har bir satri bir umr el-yurt, saltanat tashvishi bilan yashagan fidoyi inson, ulkan davlat arbobining keng miqyosdagi o‘y-fikrlari, hayot va kurash tajribasi, mushohadasi, ba‘zan esa dardli va iztirobli kechinmalari bilan sug‘orilgan bu asarda qanday teran ma’no mujassam ekanini ma’rifatli, zukko kitobxon yaxshi angelaydi, albatta. Men o‘z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan hayot hikmatlarining qanchalik to‘g‘ri ekaniga ko‘p bor ishonch hosil qilganman. Masalan, “Tajribamda ko‘rilgankim, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir”, degan fikrlar bugungi kunda ham naqadar dolzarb ekani barchamizga ayon. Yoki u zotning: “Saltanat ishlarining to‘qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirish zarur”, degan ko‘rsatmalarida hozirgi notinch zamon uchun, XXI asr siyosatdonlari uchun ham har jihatdan ibratli fikrlar borligini ta’kidlash joiz”.¹

Amir Temur bobomizning bunday chuqur ma’noli so‘zlari, ayniqsa, “Bilagi zo‘r birni, bilimi zo‘r mingni yiqar” degan hikmati insonni doimo aql-idrok, ilmu ma’rifat asosida yashashga da’vat etishi bilan e’tiborlidir. Ulug‘ ajdodimiz, garchi buyuk bunyodkor va jahongir bo‘lsada, kuch-qudrat zo‘rlilik va zo‘ravonlikda emas, aksincha, adolatda, hamjihatlik va hamkorlikda ekanini nihoyatda chuqur anglagan. Manbalardan ma’lumki, Amir Temur davlatni boshqarishda, avvalo, mamlakatning osoyishtaligi, ra’iyatning ijtimoiy ahvoli, shuning barobarida saltanatning sobitligi uni boshqaruvchilar donoligiga bog‘liqligini yaxshi anglagan. Uning davlatni oqilona boshqarish, o‘ta mushkul va imkonsiz vaziyatda ham to‘g‘ri yo‘l, tadbir topa olish qobiliyati, noyob aql-zakovati har qanday odamni hayratga soladi.

Manbalarda aytilishicha, Amir Temur o‘z saltanatini asosiy to‘rt vazir va sarhadlarda ushbu vazifalarni bajarish uchun tayinlangan uch vazir, jami yetti vazir orqali boshqargan. Har bir vazirning vazifasi aniq ko‘rsatib

¹Темур тузуклари 3-5-б.

berilgan. Vazirlar tizimining o‘ziga xos tomonlaridan biri shu ediki, vazirlardan ikkitasiga o‘ta mas’uliyatli vazifalar yuklatilgan bo‘lib, ular har qanday sharoitda ham Sohibqironning xatti-harakatlarini kuzatib borishi, uni doim to‘g‘rilikka da’vat etishi, har qanday sharoitda ham adolat mezonlaridan chetga chiqishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim edi. Ular Amir Temur faoliyatini muttasil ravishda sinchkovlik bilan kuzatib, unga haq gapni aytishdan also cho‘chimas edilar. Chunki Amir Temur dono vazirlarni eng to‘g‘ri chora-tadbirlar qo‘llab, davlatni tartib-intizomga keltiruvchi shaxs sifatida qadrlardi.¹

Sohibqiron faoliyatiga nazar tashlarkansiz, u ko‘z oldingizda yetuk davlat arbobi, mohir sarkarda, olim-u fuzalolar homiysi, bunyodkor, adolat va tinchlik tarafdori, dunyo tamadduni rivojiga ulkan hissa qo‘shgan yirik shaxs sifatida gavdalanadi.

Amir Temurdek buyuk va betakror siymoni har tomonlama tushunish, u barpo etgan qudratli saltanatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-mafkuraviy asoslarini, Sohibqironning davlat boshqaruvi borasidagi ulkan salohiyati, mahorati, bilim va tajribalarini o‘rganishda, umuman aytganda, hayot sirlarini anglab yetishda, ayniqsa, “Temur tuzuklari” bebaho qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Bu so‘zlardan ulug‘ Sohibqironning naqadar kuchli shaxs, donishmand, oqil sarkarda, yetuk davlat arbobi ekanini anglash qiyin emas. Ayniqsa, bugungi murakkab davrda bu kitobni qayta-qayta mutolaa qilish, uning mag‘zini chaqish birinchi galda rahbar, yetakchi bo‘lishdek mas’uliyatli vazifani o‘z zimmasiga olgan odamlar uchun, qolaversa, har qaysi ziyoli inson uchun bag‘oyat foydali.

Yoshlarimiz bu kitobni mehr qo‘yib, tushunib, chuqur anglab o‘qisa, ularning qalbida milliy g‘urur tuyg‘usi yuksaladi, o‘zining qanday buyuk zotlarning avlodi ekanini yanada chuqurroq his etib, hayotning har qanday sinov va qiyinchiliklarini yengishga qodir insonlar bo‘lib voyaga yetadi. Qadimiy va boy, shavkatli tariximiz, betakror merosimiz, azaliy qadriyatlarimizni mohiyatini anglashda ulkan ma’naviy meros bo‘lib qoladi va buni o‘rganish, mazmunini anglash orqali haqiqiy vatanparvarlik hissini o‘z ruhimizga singdira olamiz.

¹ Шомий. Зафарнома, 1-жилд, 84, 104-105-бб.

O'zbek xalqining ulug' va shonli tarixi haqida gap ketar ekan uni avvalambor, Amur Temur xotirasi, mardonaligi, islohotlari va asarlari bilan boyitilishi barchamizga ma'lumdir. Xususan birinchi prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat--yengilmas kuch" asarida shunday deb yozadi -- " Tengsiz azm-u shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilm-u fan, madaniyat, bunyotkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi."

Bundan ko'rinib turibdiki, Amur Temur nafaqat jang sohasida shuningdek ilm fan, din sohalorida ham yetakchi bo'lib, ushbu sohalarning taraqqiy topishiga ham o'z hissasini qo'shgan. Bu ulug' ajdodimizning vafotidan keyingi yillar juda uzoq muddatni o'z ichiga olishiga qaramay bugungi kunda uning qilgan amallari, yozgan asarlari biz yoshlarga ham bilim ham o'nak bo'layapti desam yanglishmayman. Bundan tashqari, Amur Temurning harbiy san'ati bugungi kunda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Jumladan bobomizning "Kuch --adolatdadir" degan hikmatli so'zi orqali uning naqadar adolatparvar shaxs bo'lganligini bilish va har qanday qilinishi kerak bo'lgan ishni va qarorni har doim adolat yuzasidan amalga oshirish kerakligini o'rganish mumkin. Shuningdek, Amur Temurning "Temur tuzuklari" asari haqida gap ketar ekan uning qanchalik ahamiyatli ekanligi to'g'risida I.Karimov "Yuksak ma'naviyat--yengilmas kuch" asarida shunday deydi-- " Shaxsan men "Temur tuzuklari"ni har gal o'qir ekanman, xuddi o'zimga qandaydir ruhiy kuch-quvvat topgandek bo'laman.O'z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan, inson ma'naviyati uchun bugun ham oziq bo'ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekaniga ko'p bor ishonch hosil qilganman". Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu asar nafaqat harbiy xizmatchilarga ruhiy kuch-quvvat balki bugungi kunda barcha yoshlar uchun ham ma'naviy ozuqa bo'la oladi. "Temur tuzuklari" asari Amur Temur hayoti davomida aytgan hikmatli so'zlari, qilgan kengash va tadbirlari shuningdek turli sohalardagi tuzuklardan tashkil topgan bo'lib, asar orqali bobokalonimiz--Amur Temurning saltanat va harb ishlaridagi qilgan amallarini naqadar adolatli va mukammal ekanligini bilishimiz

mumkin. Jumladan "Do'st-u dushmanga qanday muomala qilish tuzuki" da keltirilgan dushmanlariga qilgan yaxshiliklari va zarb etgan yerlardagi aholiga ulamo va ahli bilimga qilgan ehtiromlari ham ta'limiy jihatdan ham tarbiyaviy jihatdan e'tiborga molikdir. Amur Temurning "Temur tuzuklari" asari har bir harbiy xizmatchiga harbiy va siyosiy bilim berishi bilan birga ularga vatanga bo'lgan muhabbatni ya'ni vatanparvarlik ruhini qanchalik ulug' ekanligini, ona vatanning bir qarichi ham vatan ekanligini va muqaddasligini his qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'ylaymanki, bugungi kunda har bir yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Amur Temurning hayoti va ijodi xususan "Temur tuzuklari" asari muhim dasturi amal hisoblanadi. Uni chuqur va mukammal o'rganish, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, ibrat olish albatta yoshlarning ma'naviy dunyosini kengaytirishda, komil inson bo'lib shakllanishida muhim o'ringa ega. Shuni aytish joizki, Amur Temurning hayoti va ijodi nafaqat Osiyoda balki Yevropa mamlakatlarida ham qiziqish bilan o'rganiladi. Masalan, Fransiyalik olim Lyus'en Keren bobomizning 670 yillik tavalludi arafasida Parijda fransuz tilida nashr qilingan "Samarqandga, Amur Temur davriga sayohat" nomli fundamental tadqiqoti, Amur Temur haqida ingliz dramaturgi K. Marlou tarixiy pesa, nemis kompozitori G.Gendel opera, amerikalik adib E.Po she'riy poema yaratganligi biz o'zbek yoshlarida o'zgacha faxr, g'urur va iftihor uyg'otadi. Shundek ekan, ul zotni chuqurroq anglash, Amur Temur va uning asarlarini kelajak avlodlarga ham o'rgatish barchamizning burchimiz va biz uchun sharafdir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan maqullangan Amur Temur tug'ilgan Xoja Ilg'or qishlog'ini turistlar manzilgohiga aylantirish va yanada obodonlashtirish borasida qilinayotgan ishlar ham nafaqat o'zbek xalqida tarixiy bilim balki, chet davlat vakillarida ham tariximiz, bobokalonimiz haqida ajoyib taassurotga ega bo'lishga, vatanimiz tarixini yanada ochib berishda yordan beradi.

Mazkur 2019-yil Amur Temur bobomizning 687 yillik tavallud ayyomini nishonlar ekanmiz, har bir avlodlar ham ushbu ulug' zot kabi vatanparvar, fidoyi inson bo'lishga, uni xotirasini yorug' qilishga sidqi dildan harakat qilishi, uning bunyodkorligini va kuch - qudratini ifodasi

bo‘lgan tarixiy obidalarni qadrlash zarur bo‘lib, shaxsning kamol topishi va vatan ravnaqi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Temur Tuzuklari. Xalqaro Amir Temur jamg‘armasi. “Sharq” NMAK. T.: 2005 yil. B-92.
2. Marsel Brion. Men kim, Sohibqiron-Jahongir Temur – T., “Yangi asr avlodi”. 2014. – B. 21-22.
3. Bobir Berdiyev. “Temur tuzuklari”da jamiyat ijtimoiy qatlamlarining aks etishi. Ijtimoiy fikr-inson huquqlari. 2013 yil № 3. B-115.
4. Hamdam Sodiqov. Amir Temur salnatanida xavfsizlik xizmati. T.: “ARTFLEX”. -2010yil. B-9.
5. H.Sodiqov va mualliflar jamoasi. O‘zbekiston qurolli kuchlari (o‘tmishda va hozirda) –T.: Tafakkur qanoti., 2014. 41-b.
6. H. Karamatov va mualliflar jamoasi. Amir Temur jahon tarixida. – T.: Sharq. 2000. -134 b.
7. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat. 2008. 44-b.
8. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. –T: O‘zbekiston 1998.
9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T: Ma’naviyat.2008.

AMIR TEMURNING MARKAZLASHGAN DAVLAT TUZISHI

*F.A.Musayev,
f.f.d., O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi
universiteti “Gumanitar va ijtimoiy fanlar”
kafedراسi professori*

XIV asr o‘rtalarida Chingizxon egallab olgan yerlar uning merosxo‘rlari qo‘l ostida bo‘lsa ham, bu yerlar mayda bo‘laklarga bo‘linib ketib, ularda toju taxt, hokimiyat uchun o‘zaro nizolar kuchayib ketgan edi. 1348 yilga kelib Sharqiy Turkiston yerlarida Mo‘g‘uliston feodal

davlati tashkil topdi, uning xoni etib Chig'atoy avlodidan Tug'luq Temur ko'tarildi. Tug'luq Temur dastlabki davrlardanoq o'z yerlarini kengaytirish maqsadida Movarounnahr yerlariga bir necha harbiy harakatlar uyushtirdi. Mana shunday ichki o'zaro urushlar avj olib, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy inqiroz kuchayib borgan davrda tarix maydoniga mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda nom chiqargan buyuk sohibqiron, mohir sarkarda Amir Temur kirib keldi.

Amir Temur Shahrisabz yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida Barlos beklaridan Muhammad Tarag'ay oilasida 1336 yil 9 aprelda dunyoga kelgan. Uning amakisi Hoji Barlos Kesh shahrining hokimi edi. Temur yoshligidanoq harbiy mahoratga ega shaxs bo'lib, u o'z atrofiga barlos urug'idan chiqqan yosh jangchilarni to'plagan edi. 1360-1361 yillarda Tug'luq Temur hech qanday qarshiliksiz Movarounnahr yerlariga bostirib kirganida Hoji Barlos Xurosonga qochadi. Vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor hissiyoti kuchli bo'lgan yosh Temur esa amakisi hokimlik qilib turgan yerlarini dushman qo'lga bermaslik uchun Tug'luq Temur xizmatiga kiradi va tez orada uning ishonchini oqlab, Kesh viloyati yerlariga hokimlik qilish uchun yorliq oladi.

Amir Temurning bu ishi Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik, o'zaro kurashlar va boshboshdoqlik hukm surgan davrdagi birdan-bir to'g'ri yo'l edi. Chunki Movarounnahr amirlarining Tug'luq Temurga qarshi bosh ko'tarib chiqishi mo'g'ul bosqinchilarining Movarounnahr yerlarini yana bir bor vayron etishiga olib kelishi muqarrar edi.

Tug'luq Temur 1361 yilda Movarounnahr yerlarini boshqarishni tajribasiz o'g'li Ilyosxo'jaga topshiradi. Lekin Temur Ilyosxo'jaga xizmat qilishdan bosh tortib, o'sha vaqtda Balx hokimi bo'lib turgan Amir Qozog'onning nabirasi Amir Husayn bilan ittifoq tuzadi. Temur o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida mo'g'ullarga qarshi kurash boshlaydi. Mahalliy hokimiyat uchun bo'lgan janglarning birida, aniqrog'i Seyistonda turkmanlarga qarshi bo'lgan janglarda o'ng qo'li va o'ng oyog'idan yaralanib bir umrga oqsoq bo'lib qoladi.

1363 yilda Tug'luq Temurning vafoti Movarounnahr uchun bo'lgan kurashlarni kuchaytirib yuboradi. Lekin mo'g'ul bosqinchilari osonlikcha Movarounnahr yerlarini bermasliklari ma'lum edi. Shu munosabat bilan

Amir Temur va Tug‘luq Temur vafotidan so‘ng Movarounnahrda haydalgan Amir Husaynning birlashgan qo‘shinlari 1365 yilda Ilyosxo‘ja qo‘shinlariga qarshi ittifoqlikda kurash boshlaydilar. Toshkent va Chinoz oralig‘ida bo‘lgan mashhur «loy jangi» ittifoqchilar o‘rtasidagi kelishmovchilik tufayli mag‘lubiyat bilan tugaydi. Ushbu voqealardan so‘ng Amir Husayn va Amir Temur o‘rtasida dastlabki ixtilof boshlanadi. «Loy jangi»da g‘alabaga erishgan Ilyosxo‘ja uchun Movarounnahrda keng yo‘l ochilgan edi.

U katta qo‘shinlar bilan Samarqandga yurish boshlaydi. Bu paytda Samarqanddagi Mavlonzoda va Abu Bakr Qalaviy boshliq sarbadorlar Ilyosxo‘jaga qarshi chiqadilar. Mahalliy aholining vatanparvarlik namunalarini ko‘rsatib qarshilik qilganliklari tufayli Samarqandni bir oz qamal qilib turgan mo‘g‘ul qo‘shinlari Movarounnahrni butunlay tark etishga majbur bo‘ladilar.

Movarounnahrda mo‘g‘ullar ustidan qozonilgan g‘alaba haqida xabar eshitgach, Amir Temur va Amir Husayn Movarounnahrda yo‘l olib Samarqand yaqinidagi Konigil degan joyda sarbadorlarning rahbarlari bilan uchrashadilar. Bu uchrashuvda o‘zaro kelishmovchilik kelib chiqib, sarbadorlarning rahbarlari hiyla yo‘li bilan o‘ldiriladi. Movarounnahrda Samarqand taxtini Amir Husayn egallab, uning hukmronligi tiklanadi. Shu vaqtdan boshlab Amir Husayn va Amir Temur o‘rtasidagi munosabatlar yanada keskinlashib ketadi.

Bu vaqtga kelib butun Movarounnahr yerlarida o‘zaro urushlardan so‘ng ijtimoiy-iqtisodiy ahvol og‘irlashib ketgan edi. Mana shunday bir vaqtda, mamlakatda o‘zaro urushlarga barham beradigan markazlashgan davlat tizimini barpo etish nihoyatda zarur edi. Buni birinchi bo‘lib anglagan Amir Temur Amir Husaynga qarshi zimdan kurash olib borib 1370 yilda Movarounnahr taxtini egallashga muvaffaq bo‘ladi.

Vatan haqida qayg‘urish, Vatan mustaqilligini tiklash haqidagi fikrlar shu yil-lar yuzaga chiqib, Amir Temur Balx shahrida chaqirilgan qurultoyda Movarounnahrning amiri deb e‘lon qilinadi. Temur o‘z tasarrufida markazlashgan davlatni yuzaga keltirish maqsadida Kesh shahridan Samarqandga ko‘chib o‘tib, uni Movarounnahrning poytaxtiga aylantiradi. Sohibqiron aniq mulohazalari bilan xalqni zulmdan ozod qilish

va uzoq yillik boshboshdoqlik hukmron bo'lgan yerda mar-kazlashgan davlat tuzish mushkulligini sezganligi sababli dastlab mamlakatni tashqi xavfdan saqlash maqsadida asosini barlos urug'lari tashkil etgan yengilmas va jangovor milliy qo'shin tuzadi, ularga katta imtiyozlar beradi.

Temur davlat boshqaruvida, ichki va tashqi siyosatda asosan o'z qo'shinlariga suyanganligi sababli harbiy islohotga, ya'ni qo'shin boshliqlarini tanlash, lashkar qismlar, ularning joylashishi, askarlarning qurollanishi va harbiy intizom masalalariga keng e'tibor bergan. U qo'shinlarini o'nlik, yuzlik, minglik kabi askariy birikmalarga bo'lgan. Uning uchun har bir askar jang qilish uslublarini yaxshi bilishi farz hisoblagan. Amir Temur lashkarlarga ham katta e'tibor berib, ular nizomni qat'iy bajarishi, jangda ayovsiz va dovyurak bo'lishi, dushmanga yumshoq muo-malali va adolatli bo'lishi lozim deb hisoblardi. Ibn Arabshohning yozishicha, Temur askarlari ichida taqvodor, saxovatli, xudojo'y kishilar ko'p bo'lgan. Ular bechoralarga xayru ehson ko'rsatish, boshga og'ir kunlar tushganda yordam qo'lini cho'zish, asirlarga yumshoq muomalada bo'lish va ularni ozod etishga odatlanganlar. Amir Temur doim jangda jasorat ko'rsatgan amirlar va askarlarga alohida e'tibor bilan qaradi. Natijada Sohibqiron uyushqoqlik hukm surgan yuz minglik qo'shinlari ichida intizomni mustahkamlash bilan o'z davlatining poydevori bo'lgan qo'shin tuzishga muvaffaq bo'ldi.

Temur Movarounnahr taxtini egallagan vaqtdan boshlab, o'z davlati chegaralarini mumkin qadar kengaytirishga kirishadi. Shu maqsadda u Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni o'z tasarrufiga oladi. Xorazmga besh marotaba yurish qilib, 1388 yilda uni butunlay bo'ysundiradi, bu yerda hukmronlik qilayotgan so'fiylar sulolasini tugatadi. Temur o'zining uch yillik (1386-1388), besh yillik (1392-1398), yetti yillik (1399-1405) yurishlari davomida Ozarbayjonda jaloyirlar, Sabzavorda sarbadorlar davlatini, Hirotda kurdlar davlatini tugatib, Eron va Xurosonni o'z tasarrufiga oladi. 1394-1395 yillarda Oltin O'rda xoni To'xtamishga qarshi yurish qilib, uning ko'p sonli qo'shinini mag'lubiyatga uchratadi va Oltin O'rda hududini egallaydi. Temurning bu g'alabasi Oltin O'rdaga juda katta zarba berish bilan birga Temur qo'shinlarining Volga daryosi bo'ylarida bemaolol yurishlariga ham keng

yo‘l ochdi. Ta’kidlash joizki, Temurning bu g‘alabalari tarix sahnasida ulkan ahamiyat kasb etdi. Amir Temur 1398 yilda Hindistonga qilgan yurishida Dehli shahrini, 1400 yilda Suriyaga qilgan yurishida Halab va Bayrut shaharlarini, 1401 yilda Damashq shahrini egallaydi.

1402 yilda usmoniylar imperiyasining sultoni Yildirim Boyazidga qarshi yurishida uni mag‘lubiyatga uchratdi. Bu g‘alaba bilan Temur Yevropaning usmoniylar asoratiga tushishini bir necha o‘n yillar orqaga surib yubordi. Temur 1404 yilda Kichik Osiyodan Samarqandga keladi va Xitoyga yurish uchun harbiy taraddud ko‘radi. Shubhasiz, Temur bu yurish uchun uzoq yillar tayyorlanib, jang uchun kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni yillar davomida to‘plagan edi. 1404 yilda Temur 200 minglik qo‘shin bilan Xitoy safariga otladi. Ammo Temurning qattiq betoblighi tufayli uning qo‘shinlari 1405 yilning yanvar oyida Xitoyga yaqin bo‘lgan chegara shahar O‘tror shahrida to‘xtaydilar va shu yerda 1405 yilning 18 fevralida buyuk sohibqiron Amir Temur vafot etadi.

Temur o‘zining hayoti davomida harbiy iste’dodi, mohir sarkardaligi, diplomat-liligi va yetuk davlat arbobi bo‘lganligi tufayli milliy yuksalish va insonparvar-lik ruhi bilan sug‘orilgan ulkan markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo‘ldi. Sohibqiron turk-mo‘g‘ul an‘analariga amal qilgan holda o‘z davlati hududlarini suyurg‘ol (ulus) tariqasida in‘om qilish yo‘li bilan boshqargan. Temur Movarounnahrda tashqaridagi yerlarini to‘rt ulusga bo‘lib, farzandlariga in‘om etdi. Bu masalaning e’tiborli tomoni shundaki, garchi sohibqiron tomonidan bo‘lib berilgan yerlar ichki mustaqillikka ega bo‘lsalar-da, lekin amalda batamom markaziy hokimiyatga bo‘ysundilar. Temurning o‘ta darajadagi zukkoligini shundan bilsa bo‘ladiki, u uluslar o‘rtasida o‘zaro nizolar kelib chiqmasligi uchun ularning fao-liyatini doimo o‘zi nazorat qilib turadi.

Temur davlatining eng ko‘zga ko‘ringan va muammoli tomoni shundaki, sohibqiron kichik bir viloyat doirasida tarbiya topgan bo‘lsa-da, davlat mafkurasining boshqaruv tayanchi kuchli hokimiyat ekanligini tushundi va davlat, saltanat ishlarini yuzaga chiqarishda kamchilikka yo‘l qo‘ymaydigan vazirlarni tanlashga harakat qildi. Amir Temur vazir to‘rtta sifatga ega bo‘lishi lozim deb hisoblagan: birinchisi-asllik, toza nasllilik,

ikkinchisi-aql-farosatlilik, uchinchisi sipohu raiyat ahlidan xabardorlik, to'rtinchisi-sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

Amir Temur hukmronlik qilgan davlarda davlatning markaziy ma'muriyati boshida devonbegi, arkbegi va to'rt vazir turgan. Vazirlar soliqlar yig'ish, meros ishlari, askarlar maoshi va ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash, saroy xarajatlari bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarganlar. Bu davrlarda yerga egalikning ba'zi turlari mavjud bo'lib, ular suyurg'ol yerlar, vaqf yerlar, jamoa yerlari edi. Xususiy yer egalari tarxon unvonini olganlar, davlatga soliq to'lashda ba'zi imkoniyatlarga ega bo'lganlar, vaqf yerlar masjid va madrasalarga qarashli yerlar bo'lib, ular soliq to'lashdan ozod qilganlar.

Amir Temur davrida asosiy soliq daromad solig'i-xiroj bo'lib, u olinadigan daromadning uchdan bir qismiga teng bo'lgan. Temur tuzuklarida yozilishicha, kimki biron sahroni obod qilsa, yoki yer osti suvlarini tortib oladigan inshoot qursa, yo, biron bog' ko'kartirsa, yoxud biron tashlandiq yerni obod qilsa, faqat yerni o'zlashtirganining uchinchi yili (birinchi, ikkinchi yil umuman to'lamagan) qonun doirasida xiroj solig'i olingan. Undan tashqari ushr, mol, suvloq kabi soliq turlari mavjud bo'lib, ular yillar davomida amal qilingan tartib-qoidalarga binoan to'plangan. Soliq to'plovchi soliq yig'ish jarayonida soliqni yaxshi so'zlar bilan to'plashi, aholini kal-taklash hollari, zanjirband etish hollari kelib chiqmasligini nazorat qilishi shart edi.

Amir Temur davlatni mustahkamlashda qonun-qoidalarning tutgan o'rniga keng e'tibor berdi. Fransuz olimi Alfons de Lamartin Amir Temur davlati haqida shunday degan edi: «Yevropa na Iskandarda, na Atillada va na Moskoviya zafarini quchgan yangi foh Napoleonda adolatli qonunlar asosiga qurilgan bunday boshqaruvni bunyod etgan emas». «Davlat ishlarini, — deb yozgan edi Amir Temur, — saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To'ra va tuzukka tayanib saltanatda o'z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim».

Sohibqiron mamlakat obodonchiligiga ham juda katta e'tibor berdi. Dastlab, Samarqandni poytaxt qilib olgach, u juda katta imtiyozlarga ega bo'lgan shaharga aylanadi. Sohibqiron harakati bilan Samarqandda dunyoning yirik shaharlaridan keltirilgan binokorlar, me'morlar tomonidan

masjidlar, madrasalar, maqbaralar bino etildi. Hatto gʻariblarga oziq-ovqat beradigan gʻaribxonalar, yoʻlovchilar qoʻnib oʻtadigan maxsus joylar ham qurilgan. Shahar atrofi mustahkam devorlar bilan oʻralib, Ohanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, Soʻzangaron va Feruza kabi nomlar bilan darvozalar quriladi. Temurning qarorgohi sifatida noyob maʼmuriy bino Koʻksaroy va Boʻstonsaroylar ham aynan shu yerda quriladi. Temur noyob qurilishlardan tashqari Samarqand atrofida oʻzining xeshu aqrabolariga atab turli goʻzal bogʻlar qurdirardi.

Temur ulkan sohibqiron sifatida oʻzining ona yurti Keshga katta diqqat-eʼtibor bilan qaradi. Yozma manbalardagi maʼlumotlariga qaraganda, Amir Temur Shahrisabzda Oqsaroy, jomeʼ masjid, madrasalar barpo ettiradi. Sohibqironning ulugʻ bunedkorlikning yana bir tomoni shunda ediki, u bepoyon dashtlar bilan qamrab olingan Turkiston shahrini ham obodonchiligiga keng eʼtibor berdi. Jumladan, Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasini qurish bilan bu yerda nafaqat obodonchilik, balki koʻchmanchi va oʻtroq aholi orasidagi munosabatni yaxshi yoʻlga qoʻyish, urugʻlar oʻrtasida tinchlik saqlash maqsadi yotgani maʼlum.

Amir Temur davrida yangi shaharlar, savdo va hunarmandchilik keng rivojlanganligini aytib oʻtmoq lozim. Temurning say-harakatlari bilan Buxoro, Shahrisabz, Toshkent kabi shaharlar savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida rivojlanib bordi. Ayniqsa, bu davrlarda hunarmandchilikning keng rivojlanishi shaharlarda hunarmandchilik mahallalari, savdo rastalari soni ortib borishida katta ahamiyatga ega boʻldi. Sohibqiron savdo yoʻllari rivojiga, uning tinchligiga va savdo karvonlarining xavfsiz xarakatlarini taʼminlashga keng eʼtibor berib bordi. Bu ishlarni shaxsan oʻzining muntazam nazorati ostiga oldi. Amir Temur davlatining mafkurasi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni izga solib yoʻnaltirishdan tashqari siyosiy hayotda ham kuchli va baravar yoʻlga qoʻydi.

Sohibqiron chet davlatlar bilan aloqani keng yoʻlga kuyish barobarida, davr shart-sharoitlariga koʻra tashqi siyosatda qatʼiy, faol harakat qilib, oʻz saltanati dovrugʻini jahon miqyosida yuksak makomga chiqara oldi. Sohibqironning Yildirim Boyazid ustidan boʻlgan gʻalabalaridan soʻng Fransiya, Angliya, Genuya va Vizantiya erkin aloqalarni, savdogarlar va

mol almashishni taklif etgan. Shunday qilib u Yevropa davlatlari bilan yaqin qo‘shnichilik qilish, savdo karvon yo‘llarini rivojlantirish niyati borligini ko‘rsatib o‘z davlati shuhratini Yevropaga kursata oldi. Uning saltanatini dovrug‘i bu mamlakatlarga yetib borishi bilan Fransiya, Angliya, Genuya, Vizantiya, Ispaniya, kabi davlatlarning qirollari va Vatikanda joylashgan xristian olami Papasi sohibqiron bilan siyosiy, iqtisodiy, savdo aloqalari o‘rnatishga intilganlar. Shu bois ular sohibqiron huzuriga muntazam elchilar yuborib, u bilan dunening ziddiyatli mummolarini maslaxatlashib turganlar. Temurning chet davlatlar bilan olib borgan diplomatik aloqalarida uning o‘g‘li Mironshoh ko‘p yordam berganligi kulezmalardan bizga ma’lumdir.

Amir Temur davrida diniy ilmlar va dunyoviy fanlar barqaror bo‘lgan. Sohibqiron o‘z davrining fan va madaniyati jonkuyari sifatida shuhrat qozondi. Temur taqvodor ruhoniylarga chuqur hurmat bilan qaradi. Ularning duolarini oldi, doimo kamsitilgan mazhab tarafdorlarini o‘z himoyasiga oldi. Darvesh, faqir va miskinlarni o‘ziga yaqin tutib, ularni ranjitmaslik uchun barcha talablarini bajardi.

O‘rta Osiyo xalqlarining ma’naviy taraqqiyotida Temurning diniy va dunyoviy bilimlariga e’tibor berishi katta ahamiyatga ega edi. Sohibqiron doimo ilm ahli va ulamo bilan suhbatda bo‘lib, qalbi toza kishilarga talpingan. Temur davridagi ilm-fan, me’morchilik, san’at sohalari o‘z davriga nisbatan o‘ta darajada rivojlanib, yuksak ma’naviy boylik darajasiga ko‘tarildi. Shu davrning nodir qo‘lyozmalari tarixning mo‘jizasiga aylanib qoldi va albatta bu kulezmalar kuplab olimlarning diqqatini uziga tortishi sir emasdir.

Din jamiyatda mafkuraning ustunlaridan biri bo‘lganligi sababli sohibqiron dinga keng e’tibor berdi. U nafaqat askarlarini, balki barcha fuqarolarini musulmonchilik ruhida tarbiyalashga harakat qilgan. Uning doimo amal qilib kelgan «Kuch adolatdadir» degan so‘zlari uning davlatni boshqarishdagi yuksak qobiliyatidan dalolat beradi.

Mashhur muarrixlardan biri Nizomiddin Shomiy o‘zining «Zafarnoma» asarida shunday yozadi: «... uning adolatiyu siyosati o‘rnatilgan kunlarda Movarounnahrning eng chekka joylaridagina emas, balki Xo‘tan chegarasidan Dehli va Kanboyit atrofigacha, Bobil Abvobdan

to Misr va Rum hududigacha bo'lgan yerlardan savdogarlar u yerda tursin, bolalaru, beva xotinlar ham ipakli matolar, oltin-kumush va eng zarur tijorat mollari keltirardilar va olib ketardilar. Hech bir kimsa ularning bir doniga ham ko'z olaytira olmaydi va bir dirhamiga ham ziyon yetkazmaydi. Bu cheksiz ne'mat va poyonsiz marhamatlar Amir sohibqironning siyosati va adolati natijasidandir».

Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, Temurning hayoti katta jangnoma, u ko'plab mamlakatlarni o'z tasarrufiga oldi. Lekin bu yerdagi asosiy masala-Temur shaxsining ustunligini va idora qilish qudratining sirlarini, mohir sarkarda va tinchlik posboni, fuqaro farovonligi rahnamosi sifatidagi shaxs ekanligi, uning yuksak me'moriy inshootlar qurishdagi o'rnini izohlash, uning yechimini topishdir.

Amir Temur va temuriylar davrida yozilgan tarixiy asarlar anchagina bo'lib, ular orasida «Temur tuzuklari» buyuk jahongir hayotiga va faoliyatiga bag'ishlangan asarlar ichida shubhasiz alohida ahamiyat kasb etadi. «Temur tuzuklari» jahonning mashhur kutubxonalaridan joy olgan qimmatli asardir.

«Temur tuzuklari» ikki qism, 56 ta banddan iborat tarixiy va huquqiy asar bo'lib, unda sohibqironning davlat tuzilish va mamlakatlarni boshqarish xususidagi nuqtai nazari bayon qilinadi. Bu asardan ko'plab sharq hukmdorlari o'zlarining faoliyatlari davomida foydalanganlar va unga yuqori baho berganlar. Jumladan, Shoh Jahon (1628-1657), Qo'qon xoni Muhammad Alixon (1821-1842), Buxoro amiri Abdullahaxon (1885-1910) «Tuzukot» dan parchalar ko'chirtirib, ulardan o'z faoliyatlarida foydalanganlar.

«Tuzuklar» ning birinchi qismida Amir Temurning yetti yoshidan to vafotiga qadar (1342-1405 yil 18 fevral) kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritishi, ijtimoiy tarqoqlikka barham berishi va markazlashgan davlat tuzishi, qo'shni yurt va mamlakatlarni, masalan Eron va Afg'onistonni o'z tasarrufiga kiritishi, Oltin O'rda xoni To'xtamishxon ustidan, nihoyat, buyuk jahongirning Ozarbayjon, Turkiya va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan.

Ikkinchi qismi Sohibqironning nomidan aytilgan va uning toju taxt vorislariga atalgan o‘ziga xos vasiyat va pandu nasihatlaridan iboratdir. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toju-taxt egalarining burchi va vazifalari, vazir va qo‘shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko‘rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va hokozolar xususida gap boradi.

Amir Temur o‘z oldiga ulug‘ davlatning ichki siyosati va ishchan davlat tizimini qadimiy tajribalardan ijodiy foydalangan holda tuzish, harbiy siyosatni zamon talabi asosida tobora takomillashtirib, mo‘g‘ul istilosi asoratlarini tezroq bartaraf etib, mamlakat xo‘jaligini oyoqqa turg‘izish, savdo-sotiq, hunarmandchilikni bir meyorga tushirish va rivojlantirish, aholi manfaatlarini himoya qilish, islom diniga kuch-kuvvat berish, ilm-fan, madaniyat, me‘morchilikni tubdan rivojlantirish, obodonlashtirish ishlarini keng ko‘lamda jadallashtirish kabi dolzarb vazifalarni qo‘ygan edi. Uning bunday say-harakatlari katta kuch-g‘ayrat, mablag‘, bilim va oqilona tadbirlarni talab etar edi. Temur yetuk siyosatdon va mohir davlat arbobi bo‘lib, u o‘zidan avval o‘tgan hukmdorlardan farqli ravishda, davlat va mamlakatni boshqarishda bir yoki ikki tabaqaga emas, balki aholining barcha tabaqalariga suyangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, «biz Amir Temur davri davlat boshqaruvi, konunchiligi, xarbiy san’at masalalariga oid muloxazalarni bildirdik. Mazkur soxalarda olib borilgan xarakterlar bir maksadga, davlatni qudratli va jamiyatni iktidorli etishga karatilganini yedda tutish biz uchun goyat muximdir»¹.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Tashkent, “Sharq” 1998

2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi // Xalq so‘zi. – 2016. – 14 dek

¹ Азамат Зиё “Ўзбек Давлатчилиги тарихи” Тошкент 2001, “Шарқ” 456.

3. Azamat Ziyo “O‘zbek Davlatchiligi tarixi, Toshkent, “Sharq” 2001, 366 b.

4. F.A.Musayev Demokratik davlat qurishning falsafiy-xuquqiy asoslari. Toshkent, O‘zbekiston, 2007.

TEMURIYLARNING YEVROPA DAVLATLARI BILAN XALQARO HAMKORLIGINING AYRIM JIHATLARI

*F. Ismatullayev,
t.f.n. dotsent, Nizomiy nomidagi TDPU*

Qadim O‘zbekistonning bundan qariyb ikki yarim ming yil avval shakllangan o‘zaro diplomatik aloqalari XXI asrda ham keng formatlarda rivojlanmoqda. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan munosabatlar o‘zining keng qamrovligi bilan ajralib turadi. Mavjud manbalar guvohlik berishicha ikki mintaqa o‘rtasida savdo-madaniy aloqalar Amir Temur va Temuriylar davrida o‘zining yuksalish bosqichiga ko‘tarilgan[1].

Bugungi kundagi xalqaro vaziyatga baho berar ekan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyev o‘tmishdagi tarixiy holatga baho berib: “Sohibqiron bobomizning Fransiya, Angliya, Ispaniya, Vizantiya, Misr, Xitoy, Hindiston, Usmoniylar imperiyasi kabi ko‘plab davlatlarning hukmdorlari bilan olib borgan diplomatik aloqalari va yozishmalari buni yaqqol tasdiqlaydi[2]”, - deya ta’kidlaydi.

Bevosita Amir Temur hukmronligi davrida Yevropaning yirik davlatlaridan o‘nlab elchilar kelgan[3]. Temurning bag‘rikenglik va diniy e‘tiqod borasidagi erkinligi davlat hududida yashagan xristian hamda yahudiylarining o‘z dinlariga bemalol amal qilish imkoniyatini yaratgan[4]. Amir Temur tomonidan boshqa davlatlarga yuborilgan elchilar xalqaro va diplomatiya huquqi mezonlariga qat’iy amal qilganlar[5]. Amir Temur diplomatiyasi mardlik, jasurlik, tashabbuskorlik va jamiyki insoniy fazilatlarga yo‘g‘rilganligi, hatto u yengilgan raqibiga katta hurmat va jumardlik ko‘rsatgan[6]. Temurning Yevropaga jumladan, Fransiya bilan hamkorlik aloqasiga jiddiy e‘tibor qaratganligini, va o‘z navbatida

Fransiya qiroli Karl VI ham bunga munosib javob qaytarganligini, yozilgan maktublari orqali bilib olish mumkin[7].

Fransiya O‘zbekiston rahbari 2018 yil oktyar oyidagi rasmiy tashrif bilan kelgan Yevropadagi birinchi mamlakat ekanini qayd etib, o‘n beshinchi asr boshida buyuk sohibqiron Amir Temur va Fransiya qiroli Karl VI davridan buyon davom etib kelayotgan do‘stlik, o‘zaro hurmat va ishonch mamlakatlarimizni bog‘lab turishiga e‘tibor qaratdi[8]. Hamda bugungi kun va o‘tmishni qiyoslagan holda Prezident SH. Mirziyoyev “...biz mamlakatimizga chet el investitsiyalarini jalb qilishda elchilarimiz va diplomatlarimizning ishtirokini kuchaytirish haqida so‘z yuritdik. Bu masala Amir Temur zamonida ham kun tartibiga dolzarb vazifa sifatida qo‘yilganligini ko‘rishimiz mumkin[9]” – deya ta’kidlaydi.

Ilmiy aloqalar tarixi e‘tibor qaratar ekanmiz, ilm-fan sohasidagi kashfiyotlar va xalqaro aloqalar mintaqada birinchi[10] va ikkinchi Renessans[11] davrlarida, ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar davrida rivojlanib, o‘zining takomil bosqichiga ko‘tarilgan[12]. Aynan Sohibqiron Amir Temur ilm–fanni rivojlantirish hamda ilmiy maktablarni yaratish uchun ko‘pgina mamlakatlardan yetakchi olim, musavvir va musiqchilarni Samarqandga taklif etgan. Bu esa Movarunahrni dunyo ilm-fani markazlaridan biriga aylanishida muxim omil bo‘ldi.

Shu bilan birga Yevropada Amir Temur va Temuriylar davri tarixi, madaniyati va jahon tamadduniga qo‘shgan hissasini o‘rganish o‘rta asrlar davridayoq boshlangan. Ayniqsa, bu masalada Ispaniya qirolligi elchisi bo‘lgan Rui Gonzales de Klavixoning xizmatlari kattadir. Rui Gonzales de Klavixo o‘zining elchiligi davrda ko‘rgan va tanishgan hamda o‘qigan manbalariga tayanib, “Buyuk Temur tarixi”, “Temur qarorgohi”, “Samarqandga sayohat kundaligi” nomli kitoblarni yozdi va nashr qildirdi. Demak, Yevropa xalqlari XVI asrdayoq buyuk Amir Temur va temuriylar davlati hamda uning dovrug‘i haqida ma’lum darajada ma’lumotlarga ega bo‘lishgan. Temuriylar davri va umuman Sharq o‘rta asrlar davri tarixi hamma davrlarda ham g‘arb tarixchilarini diqqat markazida turgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ayniqsa XX asrda ham Yevropalik olimlar tomonidan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Bunda ayniqsa Fransiyada 1988 yilda tashkil etilgan “Temuriylar uyushmasi” tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar tahsinga sazovordir. Uyushma asosan Temuriylar davri san’ati va tarixini ilmiy o‘rganish va targ‘ib etish faoliyatini yuritmoqda.

1996 yil sentabrda “Fransiya – O‘zbekiston” jamiyati va O‘rta Osiyoni o‘rganish fanlar instituti tomonidan “Temur merosi va uning jahonga yoyilishi” Dehlidan Istambulgacha va boshqa mavzularda kollokvium o‘tkazdi. O‘tgan kollokviumda 10 dan ortiq mamalakat olimlari ishtirok etdilar. Unda Temur faoliyatiga boho berilar ekan, uning nafaqat jahon islom madaniyati rivojlaninishiga balki Temur davri madaniyatini yaratilishida tutgan o‘rni ta’kidlab o‘tildi.

Bundan tashqari 2004 yildan jahon tibbiyotiga munosib hissa qo‘shgan O‘rta Osiyolik alloma Abu Ali ibn Sino ilmiy merosini o‘rganish va uning targ‘iboti bilan shug‘ullanadigan “Avitsenna-Fransiya” assosiatsiyasi foliyat olib bormoqda[13]. Bularning barchasi Fransiyada Markaziy Osiyo tarixiga qiziqishlari naqadar ulkanligidan dalolatdir.

Temuriylar davri tarixi va madaniyatini o‘rganish fransuz assotsiatsiyasi bosh kotibi Frederik Bressan xonim 1997 yilda o‘zining “Samarqandning moviy oltini” deb nomlangan ajoyib suratlar bilan bezatilgan albomining keng jamoatchilikka xavola etgan. Nashr taqdimotida olima “dunyoda ikkita nurafshon va olamga mashhur bo‘lsa bularning biri – Parij, ikkinchisi – Samarqand” degan edi. 2003 yilda uning “Maxobatli Samarqand” deb nomlangan kitobi ikkinchi marta bosmadan chiqdi.

Toshkentda 2002 yil 24 may kuni Fanlar akademiyasi ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o‘quv yurtlari yosh tadqiqotchilarining fransuz tarixchisi Fransua Eno bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi[14]. Fanlar akademiyasi Tarix instituti, Yosh olimlar milliy jamiyati hamda Markaziy Osiyoni o‘rganish Fransiya ilmiy-tadqiqot instituti tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur uchrashuv Parijda chop etilgan uch jildlik “O‘rta asrlarda (X-XV) musulmon olami” kitobining taqdimotiga big‘ishlandi. Fransua Eno yig‘ilganlarga ushbu kitob haqida ma’lumot berar ekan, unda X-XV asrlarda musulmon dunyosining

davlatchilik asoslari va ijtimoiy-madaniy hayotidagi o‘ziga xos rivojlanish tamoyillariga alohida e’tibor qaratilganini ta’kidladi.

Ancha yillardan buyon ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotgan Fransua Eno ayni paytda Xorazmning XVIII-XIX asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o‘rganish bilan shug‘ullanmoqda.

Hukumatimiz horijda yurtimiz tarixi va madaniyati bilan shug‘ullanib kelayotgan ko‘plab olim va adbiyotchilarni davlatimizning nufuzli mukofotlari bilan taqdirlab kelmoqda. Uning mantiqiy davomini 2018 yil 9 oktabrda O‘zbekiston tarixi va madaniyatini o‘rganishga munosib hissa qo‘shgan Fransiyaning taniqli adabiyot va ilm-fan namoyondalari – yozuvchi Amin Maaluf, olimlar Frederik Bopertyui - Bressand xonim va Frans Grenelarga Samarqand shahri faxriy fuqarosi unvonini topshirilganligida ko‘rish mumkin[15].

Ulardan biri Amin Maaluf o‘zining “Samarqand” romani bilan o‘zbek kitobxonlariga yaxshi tanish bo‘lib, uning romani o‘zbek tilida 2003 yil “Jahon adabiyoti” jurnalining 6-7, 2005 yilning 7-8 sonlarida chop etilgan. Romanda shoir va faylasuf Umar Xayyomning Samarqanddagi hayoti, XI asrdagi ijtimoiy – siyosiy hayot talqini aks etgan[16]. Bu albatta bir tomondan Fransiyada Sharq tarixga qiziqish juda katta ekanligidan dalolat bersa, ikkinchidan ularning O‘zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoyev tomonidan rag‘batlantirilishi xorij olimlarini yanada katta qiziqish bilan vatanimiz tarixi va madaniyatini o‘rganishga hamda xalqaro hamjamiyatga yanada kengroq targ‘ib etishda katta turtki bo‘lishi, shubhasiz.

O‘rta asr Sharq allomalari ilmiy merosi va faoliyatiga e’tibor Boltiqbo‘yi davlatlarida ham kuchayib bormoqda. Buning isbotini O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2004 yil Latviyaga tashrifi asnosida Riganing eng so‘lim go‘shalaridan biri – Kronvolda bog‘ida buyuk alloma va davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek haykali ochilganligida ko‘rishimiz mumkin. Latviya zaminida qad rostlagan Mirzo Ulug‘bek haykali, 2006 yilning noyabrida esa Sharqda “Shayx ur-ra’is”, Yevropada “Avitsenna” nomlari bilan mashhur bo‘lgan mutafakkir bu Ali Ibn Sino xotirasi uchun o‘rnatilgan yodgorlik xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi mustahkam do‘stlikning yorqin timsolidir. Yana bir quvonarli holat shuki, 2023 yilda Mirzo Ulug‘bek xaykali Fransiyaning Tuluza

shaxrida ham o‘rnatildi. Demak, Temuriylar davrida o‘zbek davlatchiligi hamda diplomatiyasi xalqaro miqyosda e‘tirof etildi. Shunga bo‘lsa kerak, Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida ushbu davr tarixi, san‘ati va madaniyatini o‘rganishga qiziqish hozirgi davrimizda ham kuchayib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda Amir Temur va uning avlodlari Yevropa mamlakatlar bilan madaniy, ilmiy va iqtisodiy sohalarda keng ko‘lamli hamkorlik aloqalarini olib borgan. Ayniqsa, savdoni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash hamda ekin maydonlarini kengaytirish yo‘li bilan o‘z saltanati farovonligi va qudratini mustahkamlagan. Sharq va G‘arbni bog‘lovchi barcha yo‘llar davlat tomonidan qattiq nazorat qilingan va ularning xavfsizligi to‘la ta‘minlangan. Oradan olti asr o‘tgach yana hamkorlik aloqalari yangi formatlarda qayta tiklanib, rivojlanish pallasiga ko‘tarilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Rui Gonzales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). Tarj. O. Tog‘ayev. – T.: O‘zbekiston, 2010. – B. 6-7.

2. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T. 2. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – B. 282.

3. MID RUz // Sel i zadachi vneshnepoliticheskogo kursa Uzbekistana. <http://www.mfa.uz>. Data obrasheniya: 13.11.22.

4. Lyusen Karen: “Men o‘z umrimni Temuriylar merosini o‘rganishga bag‘ishladim” // Xalq so‘zi. – 2007. – 10 aprel.

5. Ermatov B. G‘arbiy Yevropa mamlakatlari adabiyotlarida Amir Temur siymosi: sarchashmalar va tasavvurlar // Fuqorolik jamiyati. 2019. №1. – B. 32-36.

6. Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent.: Sharq nashriyoti. 1997. – B. 261.

7. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. T. 3. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – B. 248.

8. Uzoq muddatli hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash yoʻlida // Xalq soʻzi. – 2018. – 10 oktabr.

9. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T. 2. – Toshkent: “Oʻzbekiston” NMIU, 2018. – B. 288.

10. Muxammadjonov A. Oʻzbekiston tarixi. Sharq nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent. 2009. – B.71; Lisitsiskaya O.Pronikoveniye katolichestva v Sentralnuyu Aziyu v protsesse rasprostraneniya xristianstva v sredniye veka. // 2003., № 3, - S. 17.

11. Karen L., Saidov A. “Amir Temur va Fransiya”. – T.: “Adolat”, 2016. – 560 b.

12. Lyusen Karen: “Men oʻz umrimni Temuriylar merosini oʻrganishga bagʻishladim” // Xalq soʻzi. – 2007. – 10 aprel; Ulugʻ sohibqironga ehtirom // Xalq soʻzi. – 2017. – 7 yanvar.

13. Oʻzbekiston – Fransiya: Hamkorlikning strategik istiqbollari // Xalq soʻzi. – 2018. – 11 oktabr.

14. Fransuz olimi bilan uchrashuv. // Oʻzbekiston ovozi. – 2002. – 25 may.

15. Oʻzbekiston – Fransiya: uzoq muddatli hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash yoʻlida // Xalq soʻzi. – 2018. – 10 oktabr.

16. Samarqandga oʻzgacha mehr qoʻygan fransuz yozuchisi // Xalq soʻzi. – 2018. – 11 oktabr.

AMIR TEMUR AND HIS MARCHES

O.A.Mamaraufov,

*Colonel ,head of the department of the Military Institute
of information communication technologies and signals,
ion communication technologies and signals*

A.A.Beknazarov,

Professor, a doctor, professor of Psychological sciences

S.S.Temirov ,

*Associate professor of the Military Institute
of information communication technologies and signals*

INTRODUCTION. Amir Temur, Kesh, Takina khotun, Sharafuddin Ali Yazdi, Sheikh Kulol, Amir Taragai, Abbas Bahadur, Jahanshabek, Qimori inoq, Sulaymanshohbek, Idiku Temur, Sayfuddinbek, Hindushoh, Qarqara Amir Temur's family was the mother Takina Khanum of Amir Temur. And his father, Amir Taragai, was counted among the elders of the Turkic Barlos, as well as among the notable princes of the Chigatoy Ulus. His ancestors served as governors of Kesh province. Therefore, Amir Taragai, the father of Amir Temur, was also invited once a year to a Congress of El-yurt Beks called by Khan on the banks of the Ili River, and he was constantly attending such gatherings. At the same time, he, according to Sharafuddin Yazdi's assertion, "turned hard and kind to Ulama and sulaho and muttaqiyalarga and went to the assembly of these...". Taragayjan Saint Shamsuddin Kulol was particularly deeply venerated. Later Sheikh Kulal was also the piri of Amir Temur. Taragaybek died in 1405. Amir Temur had an older sister, Qutlugh Turkon Ogo, and a younger sister, Shirin Beka Ogo. They died before Temur and were buried in mausoleums in the complex of King Zinda in Samarkand. "According to Muyizz al-Ansab, Temur had three other siblings: a Duke, a scholar Sheikh, and a Suyurghatmish. Timur had one uncle, named ax. Amir Temur's youth was spent in Kesh, the youth of Amir Temur. When he was seven years old, his father gave him to study.

As a youth, Amir Temur trained in riding, hunting, archery to target, various other exercises and military games under the supervision of special trainers. It was during this period that Amir Temur was brought up as a skilled rider and brave leader who could sort out the vultures. Emir Temur was by nature a heavy man, strong, thoughtful and perceptive, and extremely elegant, capable and virtuous in men, especially with a quick understanding of sincerity. Thanks to this, as early as adolescence, he was able to attract loyal friends from among his peers around him. His childhood friends and schoolmates (Abbas bahodur, Jahanshabbek, Qimori inoq, Sulaymanshohbek, Idiku Temur, Saifuddinbek, Hindushoh, Qarqara, etc.) gathered around him, trained together, participated in competitions, became *astasekin navkar* and joined a military group and began to form as a military unit. They later rose to the rank of Army leader in the army of Amir Temur.

Amir Temur began his early military career serving some provincial Emirs with his subordinate soldiers; participating in their struggle, he showed courage, was sincere in battles, honed his military skills. The grain is spread throughout the crustal Oasis. Amir Temur's intelligence, efforts and fame brought him closer to Amir Khizr Yasovuri and Amir Qazagan, the influential emirs of Movarounnahr. KhondAmir writes that his father Amir Taragoy would marry Amir Temur first (1355) to Nurmushk Ogo, daughter of Amir Joku Barlos, and then in the same year (1355) to Öljoy Turcon Ogo, grandson of Qazagan and sister of Amir Husayn.

LITERATURE ANALYSES. Due to the subsequent marriage, an alliance between Amir Temur and Emir Husayn, the governor of Balkh, arises, and together they fight against the Mongols. Amir Temur's movement towards the unification of Movarounnahr began in the early 60s of the 14th century. At the end of the 50s of the 14th century, the mutual struggle of the emirs in Movarounnahr intensified, and Amir Qazagan was killed. The country was at the height of political parochialism, and there was a severe strain. In contrast to the references in KhondAmir's "Habib Ussiyar", ulus split into about ten independent principalities. In Samarkand region, Emir Bayan Sulduz, Emir Haji Barlos in Kesh, Emir Boyazid jaloir in Khojand, Uljoy Buqa sulduz in Balkh, Muhammad I Khoja Aperdi

nayman in Shibirgan, Emir Sellilmish, King of Badakhshan in Khuttalon, Kaykhusrav in Khuttalon, Amir Husayn and Amir Khizr Yasovuri in Hisori Shodman area declare themselves as absolute governors. During this period, the eastern part of the Chigatoy Ulus — the Mongol Khans ruling in Yettisuv and Eastern Turkestan — take advantage of the harsh political situation in Movarounnahr to try to establish their authority here. Tughluq Temur and his successor Ilyaskhoja of the Jeta Khans invaded Movarounnahr several times between 1360 and 61 and 1365. The Karshi people's movement begins on the boskincian campaigns and oppression of the Mongol Khans. However, the emirs of Movarounnahr are head of the people and cannot bring themselves to fight against the Mongol invaders. Part of them will go to the side of the enemy, and the second part will leave el-yurt and seek shelter from other countries. Emir Temur's uncle, Emir Haji Barlos, the ruler of Kesh province, flees to Khurosong. In such a heavy circuit, the field of politics includes Amir Temur. Considering the unequal ratio of forces to resist the Mongols, the 24-year-old emir Temur arrives with the Beks sent to Kesh by Tughluq Temur in early 1360.

METHODOLOGY. By the presumption of circumstances, Khan is transferred to his service and appointed by his label as dorugasn of his province. Obviously, this was a political and strategic step taken by the desperation, by which Amir Temur received the Ode of the next invasion of the Mongols, saving the country and the people from disaster. However, with Ilyaskhoja, who was appointed ruler of Movarounnakhr, and his warlord Amir Bekkichik, Amir Temur's compromise remains irreconcilable. For this reason, he would be forced to leave the country in late 1361. South of Khiva, in the Urganch steppe, Amir Temur meets another rival of Tughluq Temur, his brother — in-law Amir Husayn. Amir Temur joins with him in an attempt to fight the Mongols, and the two set out to gather strength. At first they fight Khiva dorughasi Toqol (Taqqal), who, by decree of Tughluq Temur Khan, sets out to pursue Amir Temur. Then in the autumn of 1362, in a conflict with the mekronians in Seistan, standing on the side of the provincial ruler Malik Qutbiddin, Amir Temur was injured in the right kifti and right leg. Amir Temur and Amir Husayn would fight the Chief Jeta lashkari of Ilyaskhoja several times over the

next two years. Finally, in late 1364, they manage to drive the Mongol forces out of the Movarounnahr area. However, unwilling to withdraw Movarounnahr, Ilyaskhoja again draws an army over Turkestan in the spring of 1365. The battle, which took place between Tashkent and Chinoz in the middle of two, will find fame in history under the name "mud battle". In the battle, they were defeated in the aftermath of Amir Husayn's treachery and retreated with their troops to the heights of Amudarya and settled in Balkh province. Elijah walks over Samarkand, taking Khojand, Jizzakh and several other towns and villages without any resistance. Samarkand could not resist a large army at that time. The city had neither a wall nor strong fortifications, nor an armed Gypsy. Beck and the emirs had left the city, but a people would rise up against the Mongols, with the sarbadars taking over the city's defenses.

DISCUSSION. The city's defenders are led by the Samarqandi of Mavlonozoda from the madrasa Taliban ilms, Abu Bakr Kuluyi (Kalavi) Naddaf, an elder of the Jun (cotton) tithingid Mahalla, and the Bukharis of mavlono Khurdaki. The sarbadars inflict a crushing blow on the Mongols in the city of Samarkand. Elijah is forced to leave Samarkand first and then the entire Movarounnahr. News of the Sarbadors ' victory over the Mongols also reached Amir Temur with Amir Husayn. Amir Temur spent the winter against Husayn at Amudarya and set out for Samarkand in the spring of 1366.

They report that Konigita stops and is pleased with the sarbadores ' victories over the enemy and that they intend to meet them. However, when the Chiefs of the sarbadors came to the emirs, on the orders of Amir Husayn, Abu Bakr Kuluyi (Kalaviy) Naddaf with mavlono Khurdak Bukharians were pulled to Dor. Mavlonozodani is Amir Temur. waiting to be brought to his own defense. Thus the sarbadars were left without a chief and Emir Husayn's rule was established in Movarounnahr, but shortly thereafter the relationship between Husayn and Amir Temur escalated into an open conflict. Threatened by the increasing prestige of Amir Temur, Emir Husayn returns to Balkh and sets about strengthening its fortress walls and fortifications. A large number of armies also gather from Balkh, Beaver and Badakhshan. Amir Temur, who heads the Kesh and Qarshi

provinces, also makes his presence in a decisive battle against Amir Husayn. There were several conflicts between 1366 and 70. His election as the " grand Amir " is said to support the activities of Sayyid Baraka Amir Temur, giving him a yalov-flag puller with a large nogora — table symbol of supreme power. Undoubtedly, this event had great political significance. Because it was a symbol of royalty. Amir Temur understood this well. Therefore, before reaching Balkh in the mausoleum of O'rpuz, he holds a council with the emir and his nobles. By the Will and will of many, according to the laws of the time, a noble son of Genghis descent was placed on the throne of the Kingdom of Movarounnahr. Before the Emir Temur army reached to Balkh, new forces arrived and joined him en route. During this time, Emir Hussein was abandoned by most of his emirs. In the battle, Amir Husayn's forces were defeated, after a two-day siege, on 10 apr 1370.da Balkh sh. Amir surrendered to Temur. Amir Husayn was captured and executed. After this victory, Amir Temur takes lady Saroymulk, daughter of the genghisid ruler of Movarounnahr, Kazan, into his marriage. On the occasion of Khan's marriage to his daughter, Amir Temur received the title of "Crown Prince", i.e. "son-in-law of Khan". On April 11, 1370, at a Congress in the presence of all the Princes, emirs of the Chigatoy Ulus, Dorugas of the provinces and districts, and Sayyids (goddesses) of Termiz, as well as the comrades-in-arms of Amir Temur, who were together from a young age, and piri Sayyid Baraka, according to tradition, Suyurgathmishkhan from the Genghis declared ruler of the country, in practice Central Power was administered by Amir Temur himself, through his sons, grandchildren and close Samarkand Amir was turned into the capital of the state of Temur, in the summer of the same year the city wall and Fortress were restored, and palaces and mansions were built. The strengthening of the Temur state and the dependent lands strengthened the political and economic position of the country, ending the long-standing internal dissolution, and deciding peace and tranquility, Amir Temur (in June 1370) called a great congress in Samarkand. It discussed the formation of a central state system and the formation of an army. Emir Temur, who was well aware of the importance of military power in the administration of El-yurt, attached great importance to the

structure of the army. He introduced high-ranking military titles such as "Amir "and" Amir ul-Umaro".

CONCLUSION. While reforming the army militarily, he especially pays extreme attention to the choice of warlords and their upbringing, the order of military units and their location, the armament of the navars and sarboz, and the issues of discipline (EQ. Timurid military art). When Emir Timur came to power, he regulated the tax system above all in order to eliminate the severe economic strain that had occurred in the country as early as the beginning. In collecting state taxes, the amines called on the kalontars and tax collectors to be dishonest and fair to the RA'at, not to act illegally, since the stability of the Kingdom largely depends on the holahwali of the RA'at, his loyalty to the head of state and the head of state. The protection of the RA'at was enshrined in the law, the law was equal to all. Amir Timur not only protected his people, but also the inhabitants of the conquered countries as much as possible under the protection of the law. He kept them from captivity and plunder.

References:

1. Temur tuzuklari, forschadan Alixon Sog'uniy va Habibullo Karomatov tarjimasi, T., 1991;
2. Ibn Arabshoh, Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari), T, 1992;
3. Nizomiddin Shomiy, Zafarnoma, T, 1996;
4. Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, T., 1997;
5. Muhammadjonov A., Temur va temuriylar saltanati (Tarixiy ocherk), T., 1994;
6. Ahmedov B., Sohibqiron Temur (Hayoti va ijtimoiysiyosiy faoliyati), T., 1996.

AMIR TEMUR OBRAZINING TURLI XALQLAR ADABIYOTIDAGI TALQINI MASALASI

R.Xomitov,

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy
Universiteti dotsenti v.b.,f.f.d.*

Jahonning zabardast davlat arboblardan biri, buyuk sarkarda va zeharli tashkilotchi bo‘lmish Amir Temur shaxsi badiiy adabiyot sohasida ham hamisha qiziqish uyg‘otib kelgan.

Xususan, Amir Temur shaxsi, uning faoliyati, davlat arbobi va sarkardalik maqomi qator o‘rta asr sharq miniatyuralarida o‘z aksini topgan bo‘lib, uni “Amir Temur huzuridagi qabul”, “Temur Samarqand yonidagi qarorgohdagi bazmda”, “Seyistonning Amir Temur qo‘shini tomonidan bo‘ysundirilishi”, “Temur qo‘shini tomonidan To‘xtamish qo‘shinining mag‘lub etilishi”, “Sulton Boyazidni Amir Temur tomonidan asir olinishi” va boshqalarda aks etgan tasvirlarda ko‘rish mumkin. Bunday miniatyura tasvirlari qator asarlar jumladan, Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida ham o‘z ifodasini topgan.

Mazkur miniatyuralar Amir Temurni turli vaziyatlarda aks ettirib, u ko‘p holda yorqin bo‘yoqlarda, yuqori tasvir darajada ko‘rsatilgan. O‘z vaqtida Temuriylar davri zamondoshi, buyuk mutaffakir va davlat arbobi Alisher Navoiy Sohibqironning ilm-fan va madaniyat ahliga ko‘rsatgan g‘amxo‘rligi va homiyligini yuqori baholab, o‘z asarlaridan birida quyidagilarni yozgan edi: “Amir Temur qayerda fan, madaniyat va san‘at ahlini uchratsa, ularni o‘z homiyligiga olar, ularga izzat-ikrom ko‘rsatar, ularning tarbiyasiga ahamiyat berar, hamda bu zotlardan o‘z oliy majlisida nadim (maslahatchi) sifatida va boshqa lavozimlarda foydalanardi”.

Shu jumladan, g‘arbda Amir Temur haqidagi badiiy asar ilk bora XV asrda yozilgan bo‘lib, hali u haqidagi xotira va esdaliklar hali yangi edi. Mazkur asar “Damashq vayronalari” deb atalib, uning muallifi italiyalik Bertrando Mingnanelli (1370-1455) bo‘lgan.

Kuchli markazlashgan hokimiyat barpo etish, turli nizo va parokandalikka chek qo'yish masalasi qator o'rta asr yevropalik mutaffakirlarni ham o'ziga jalb etgan.

XV asr Italiyasining ko'zga ko'ringan gumanist yozuvchisi Jan Franchesko Brachholini (1380-1459) va frantsuz mutaffakiri Kiri Jak Bolden (1530-1596) asarlarida aynan ayirmachi kuchlar, nizo va parokandalikka qarshi kurashda, kuchli konstitutsion monarxiya tartibini o'rtanish masalasida Amir Temur faoliyatiga yuqori baho berilgan.

Mazkur masala o'rta asr Yevropasining P.Mexia va P.Perandinus singari mualliflari qarashlarida ham o'z aksini topgan. Ingliz qirolchasi Yelizaveta saroyida faoliyat yuritgan mashhur ingliz shoiri va dramaturgi Kristofer Marlou (1564-1593) o'z ijodida e'tiborni Amir Temur shaxsiga ham qaratgan. U Amir Temur shaxsiga bag'ishlab o'zining "Ulug' Temurlang" nomli tragedik asarini 1587-1588 yillarda yozib, mazkur tarixiy pesa matnini 1590 yil chop etdi. Asar dramatik usulda, erkin tarzda yozilgan Sohibqironning tarjimai holi bo'lib, muallif uni xudo izmi bilan haqiqat uchun kurashuvchi shaxs sifatida talqin etadi. Marlou tasavvurida Amir Temur beqiyos jismoniy kuchga ega bo'lmish afsonaviy qahramon, bukilmas iroda egasi, "oddiy yigitlardan" tashkil topgan ko'p sonli janglarning dohiysi hisoblanadi. Bu bilan Marlou turk sultoni Boyazidni mag'lub etgan Amir Temurga hayrohoh bo'lgani, usmoniylar istibdodini 50 yil orqaga surganligining kayfiyati Yevropada yuqori darajada bo'lganligini nuqtai-nazardan kelib chiqqan holda yondashuvni amalga oshirgan edi.

Ikkinchi tomondan esa muallif Angliyada kuchli va markazlashgan davlat yuzaga kelayotgan, u dunyoga hukmronlik qilish rejasini oldinga sura boshlagan paytda Amir Temur obrazi, ya'ni jahonning katta qismini qo'lga olgan, iroda va qat'iyatda, azmu shijoatda tengi yo'q shaxsga murojaat etishi ham bejiz emas edi.

Shuningdek, fikrimizni davom ettirsak, Rossiyada XVII asrda podsho Aleksey Mixaylovich teatrida "Temurlang va Boyazid haqida" nomli pesa sahnaga qo'yilgan edi.

1724 yili nemis kompozitori Georg Fridrix Gendel "Temurlang" nomli tarixiy mavzusidagi operani yaratdi. Amir Temur obrazi shuningdeq

mashhur nemis adibi Gyote (1749-1832) ning she'riyatida ham o'z aksini topdi. AQShning Boston shahridan bo'lgan, o'ziga "Bostonlik" deya avval boshida taxallus olgan Edgar Allan Po 1827 yili Amir Temurga atab she'riy poema yaratdi.

1908 yili toshkentlik adib, shoir va tarixchi Mulla Salohiddin Toshkandiy o'zining badiiy asar darajasidagi "Amir Temur ko'ragon jangnomasi" ("Temurnoma") nomli asar yozib, unda buyuk Sohibqironning hayot faoliyati, harbiy yurishlari xususida ancha batafsil ma'lumotlar beradi. Asar o'zbek tilida yozilgan bo'lib, uzoq yillar mobaynida keng kitobxonlar ommasidan bahramand bo'lmaganlar. U faqatgina 1991 yilga kelib kitob holida nashr etildi. Salohiddin Toshkandiy "Temurnoma" asarini yaratishda ko'pgina tarixiy, badiiy va diniy asarlardan foydalangan. Asarning asosiy qismi 47 ta dostonidan iborat. "Temurnoma"da bitilgan she'rlar muallifining yaxshigina shoir bo'lganligidan ham darak beradi. Asarda berilgan 1030 misra she'rning asosiy qismi Salohiddin Toshkandiyga tegishlidir.

Shuningdek u ko'plab taniqli shoirlar, tarixchilar asarlaridan she'riy parchalar ham keltirgan. XX asr sovet davri adabiyotida yozuvchi S.P.Borodinning "Samarqand osmonida yulduzlar" va "Shiddatli Boyazid" nomli asarlari alohida ajralib turgan.

S.P.Borodin o'z asarlarida Amir Temur vafotidan besh yil oldin, ya'ni 1399-1400 yillardan boshlagan jarayonlarga asosiy e'tiborini qaratdi. O'z vaqtida S.P.Borodin asari keng kitobxonlar orasida tarqalib, tarixchilar e'tiborini ham o'ziga jalb etdi. Muallif o'z asarida tarixiy manbalar, arxeologik va numizmatik materiallardan foydalangan, mavzu yuzasidan arxiv va muzeylarda ishlagan, chet ellarda sayohatda ham bo'lgan edi. S.P.Borodin romanlarida o'zi e'tirof aytganidek, voqelikni tarixiy faktlarga mumkin fadar yaqinlashtirishga harakat qilgan. Yozuvchi o'z asarida Amir Temurdek buyuk shaxsning ko'p qirrali faoliyatini adabiy talqinda berishga harakat qilgan. Shubhasiz, S.P.Borodin o'z davri farzandi sifatida Amir Temur shaxsi mazmun-mohiyatini to'laqonli ochib berishga muvaffaq bo'lolmagan. Chunki, asardagi tarixiy voqelikka nisbatan "sinfiy qarash" uslubi shu davrdagi ko'plab asarlar singari bu asarning ham g'oyaviy o'zagi bo'lib xizmat qildi. Bu esa o'z navbatida Amir Temurning

O'rtasiyo va jahon tarixida tutgan o'rni va roli, uning serqirra faoliyatini har tomonlama ochib berishga to'sqinlik qilardi.

Ta'kidlash joizki, yurtimizda Amir Temur shaxsini badiiy adabiyotlarda namoyon bo'lishi faqat istiqlol yillaridagina amalga oshirildi. To'g'ri, jadidchilik harakati namoyondasi Abdurauf Fitrat (1886-1938) o'z vaqtida Amir Temurga atab pesa yozgan edi. Lekin, bu istisno tarzidagi bir misol edi, xolos. Mustaqillik yillarida K.Marlou asari A.Samad tarjimasi va qayta ishlovi, K.Yo'ldoshev, S.Umarovlar rejissyorligi ostida Milliy teatr sahnasida qo'yildi. Keyinchalik sahna yuzini bu mavzudagi boshqa asarlar ham ko'rdi. Alisher Navoiy nomidagi Katta davlat akademik teatrida G.Gendelning operasi va Sohibqiron faoliyatiga bag'ishlangan A.Ikromov asari qo'yildi. 1995 yili taniqli olim, akademik B.Ahmedovning Amir Temur faoliyatiga bag'ishlangan tarixiy-badiiy romani chop etildi, A.Oripov, M.Ali, T.Qahhor, T.Hayit va boshqa qator o'zbek yozuvchi va shoirlarning asarlari nashr etildi.

Vaqt, davr o'tishi bilan barcha ulug' siyomolar singari Amir Temur haqida ham ko'plab qissa, rivoyat, dostonlar paydo bo'la boshladi. Mazkur holatda faqat masalaning ma'lum jihatlariga to'xtalish maqsadga muvofiq bo'lur edi. Amir Temur shaxsi ko'plab sharq, xususan turkiy xalqlar epos, doston, rivoyatlarida bosh qahramon sifatida uchraydi (Temurshoh, Sa-Temur, Shoh-Temur, Temur Qo'rag'on va hokazo).

Masalan, "Idigey va To'xtamish haqidagi doston" qozoqlar, qaraqalpoqlar, ko'chmanchi o'zbeklar, no'g'oylar, turkmanlar, Qrim va janubiy Sibir turkiy aholisi ichida keng yoyilgan edi. Mazkur she'riy dostonda Amir Temur va To'xtamishning yakkama-yakka kurashiga tegishli bo'lgan real voqelik o'z aksini topgan. Bu asar o'z navbatida mazkur tarixiy shaxslar hali hayot bo'lgan vaqtlaridayoq yuzaga kelgan edi.

Mirza Rumuzning 1712 yil yozib tamomlagan "Temur haqida kitob" (boshqa nomi "Baxt-soadat egasi Amir Temur ko'ragonning tarixi") o'ziga xos asarlardan biri bo'lib, unda folklor xarakteriga ega bo'lgan ko'plab afsonaviy hamda tekshirilmagan ma'lumotlar jam etilgan. Shunday kitoblardan yana biri XVIII asr boshlarida Abdurahmon Sirat tomonidan yozilib, o'z ichiga Amir Temur tarixini jam etgan "Eng ulug' xazinalar"

asari hisoblanadi. Unda tarixiy manbalar bilan bir qatorda xalq ogʻzaki ijodi, afsonalar ham oʻrin olgan. Baʼzi hollarda bu afsonalarda mutlaqo tarixiy jihatdan bogʻlanmagan voqealar ham qayd etiladi (masalan, Amir Temurning XI asr sayyohi Nosir Xisrov bilan uchrashuvi, Rus yerlarining kelishuv boʻyicha uzoq yillar boj toʻlab turishi va hokazo). XVIII asrga oid Volgaboʻyidan topilgan “Hikoya” nomli qoʻlyozma matnida Amir Temurning Vladimir shahriga yurishi, bulgʻorlar yerlarining istilo etilishi masalalari oʻrin olgan.

Nasriy usulda eski oʻzbek tilida nomaʼlum muallif tomonidan yozilgan, XIX asr qoʻlyozmalari roʻyxatda “Amir Temur haqidagi hikoyatdan koʻchirma” deb nomlangan asar asosida ham Amir Temur haqidagi xalq rivoyatlari va qissalari yotadi. Arablarning “Sirat Abi Zayda” nomli dostonida ham Amir Temur maʼlum bir arab qabilasi tomonidan olib borilgan afsonaviy fantastik jangning ishtirokchisi sifatida tasvirlangan. Baʼzi hollarda Amir Temur ertak va xayolot dunyosidagi hikoyalarning ishtirokchisi sifatida ham namoyon buladi. Masalan, arab mumtoz adabiyotining taniqli namoyandasi, Misr yozuvchisi Mahmud Teymur oʻzining 1946 yil yozgan xayoliy satirasida Amir Temurni urushga qarshi boʻlgan tarixiy shaxsar qatorida tasvirlaydi. Amir Temur tomonidan qurilgan hashamatli binolar, qurilishlar asrlar davomida xalq orasida turli rivoyat va afsonalar tugʻilishiga sabab boʻlib, odamlar orasida uning nomini yanada uzoq saqlanishiga olib kelgan.

XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida Markaziy Osiyo hududlari boʻyicha sayohat uyushtirgan Ye.Markovning mulohazalari ham bu borada eʼtiborga sazovordir. U qaysi yerga bormasin, har qanaqa meʼmoriy obidani koʻrmasin, mahalliy aholi ularning hammasini Amir Temurning budyondkorlik quruvchilik faoliyati bilan bogʻlagan. Ye.Markovning oʻzi Amir Temurga “Markaziy Osiyo xalqlari tassavuridagi sevimli qahramon va ulugʻ podshoh”, deya taʼrif bergan edi.

Ye.Markov Olatov dasarida “Temur darvoza”sini borib koʻradi. Bu yerdagi qoya suratlarini tomosha qilib, "Temur darvoza"si paydo boʻlishiga sabab – xalq orasidagi rivoyatni keltiradi. Yaʼni, Amir Temur “qoyalarni bir-biridan surib” darvoza barpo etgan degan rivoyat shu jumlasidandir. Ye.Markov hamrohlari hududdagi sardoba, suv quduqlari

barpo etilishini ham Amir Temur nomi bilan bog'laydi. Shuningdeq shu kunga qadar Amir Temurning Samarqanddagi boy kutubxonasi taqdiri xususida ham rivoyatlar majmuasi yuzaga kelgan. Kutubxona hukmdor amri bilan tashkil etilgan bo'lib, unda qator sharq o'lkalaridan olib kelingan "yunon, rim, suriya, armanlarning" noyob va qimmatbaho qo'lyozmalari jam qilingan bo'lgan. Bu borada A.Vamberi, A.L.Kun va boshqa sharqshunoslarning izlanishlarga ham natija bermagan. Amir Temur vatani Shahrisabz (Kesh) va umuman Qashqadaryo vohasida Sohibqiron o'tgan yo'llari, faoliyat ko'rsatgan joylari bo'yicha ko'plab rivoyat, afsonalar ham hanuz xalq orasida yashab kelmoqda.

Shuningdeq yana bir voqea XX asr Amir Temur haqida ko'plab rivoyat va hikoyatlarning paydo bo'lishiga ham sabab bo'ldi. 1941 yil iyun oyida sovet hukumati topshirig'i bilan "ilmiy maqsadlarda" degan bahona ostida hech bir zaruriyatsiz Go'ri Amir maqbarasidagi qabrlar, jumladan Amir Temur qabri ham ochilgan edi. O'sha yili 22 iyunda fashistlar Germaniyasi SSSRga hujum qilib urush boshlandi. Xalq ommasi orasida o'sha davrda ham, undan keyin ham qabrlarni ochish xosiyatsiz ekanligi, Sohibqiron ruhini bezovta qilinganligi urush boshlanishiga sabab bo'lganligi, maqbaradan urush ruhi tashqariga chiqib ketdi degan fikr-mulohazalar keng tarqaldi. Qabrlar ochilishining ishtirokchisi, shu voqealarning bevosita guvohi bo'lgan kinooperator Malik Qayumov bu haqda televideniye va matbuotda qator chiqishlar ham qilgan edi.

Xulosa qilib aytganda doimo A.Temur shaxsini badiiy gavdalantirish ijodkorlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A.Odilov Amir Temur tuzuklari – davlat boshqaruvi asosiyu T., 2016
2. O'ljayeva Sh. Amir Temur va temuriylar davrida milliy davlatchilikning rivojlanishi. – Toshkent: Fan, 2005.
3. Muhammadjonov A. Amir Temur va Temuriylar davri. -Toshkent: Fan, 1996.
4. Temur tuzuklari. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.

5. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar) - Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2010.

6. Eshov B.J., Odilov A.A. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR – SOHIBQIRON AMIR TEMUR JANG SAN’ATINING DAVOMCHISI SIFATIDA (PANIPAT JANGI MISOLIDA)

A.A.Sharipov,

*O‘zRFA Temuriylar tarixi davlat muzeyi “Ma’naviyat
va ma’rifat” bo‘limi boshlig‘i*

XV asrning ikkinchi yarmi – XVI asr boshlarida Dehli sultonligi kuchli siyosiy-iqtisodiy inqiroz davrini boshidan kechirayotgan edi. Bu davrda Shimoliy Hindistonning ma’muriy-siyosiy xaritasi bir nechta mayda viloyatlarga bo‘linib ketgan edi. Dekan, Malvo, Gujarot, Jo‘npur, Bangola hududlari yirik amaldorlar qo‘lida mustaqil boshqarilardi. Dehli sultoniga faqatgina Panjob¹, Miyoni-Duob² viloyatlari va Dehli atroflarigina bo‘ysunar edi. Lo‘diy afg‘on sulolalari hukmronligi (1451–1526 yy.) davrida sultonlikning sarhadlari bir muncha kengaydi. Saltanatning siyosiy hayotida afg‘onlarning mavqe’i oshib, ular yirik yer egalari – *zamindorlarga* aylanadilar.

Ibrohim Lo‘diy (1517–1526) saltanatni qattiqqo‘llik bilan idora qilib, otasi davrida katta imtiyozlarga ega va mustaqil siyosat olib borayotgan afg‘on harbiy zodagonlarini markaziy hokimiyatga bo‘ysindirishga intiladi. Sulton Ibrohim, hattoki o‘z qarindoshlariga nisbatan ham qatag‘on siyosat olib borib, itoatsizlikning barcha ko‘rinishlarini shafqatsizlarcha bostirishga harakat qilardi. Oqibatda bir qism amaldorlar Olamxonning katta o‘g‘li Jalolxon Lo‘diy atrofida birlashib, uni Kalpiy viloyatida mustaqil sulton qilib ko‘tarishadi. 1524 yilda, bularga qarshi Ibrohim

¹ **Панжоб** (форс. Бешта дарё, “*бешсу*”) Покистон ва Ҳиндистоннинг Желам, Чиноб, Равий, Биэх ва Сатлаж дарёлари оралиғида жойлашган тарихий вилоят, ўлка.

² Ганга ва Жамна дарёлари оралиғидаги ерлар шундай аталган.

Lo‘diy qo‘shin tortib Kalpiy va Jo‘npurni egallab oladi. Sultonni amakisi bo‘lmish Olamxon Lo‘diy Kobulga, Bobur podshoh saroyiga kelib, undan panoh va yordam so‘rashga majbur bo‘ladi.

Garchi, Panipat jangi arafasida, Sulton Ibrohim Lo‘diy davlatiga Bhiradan¹ Bihargacha² (Bengaliyaga chegaradosh) bo‘lgan ulkan hududlar qaram bo‘lgan bo‘lsada, lekin saltanatning asosi yemirilib bo‘lingan edi. Sultonning ba‘zi amirlari (Dilovarxon) va xatto qarindoshlari (amakisi Olamxon) ham qochib, Bobur saroyidan panoh izlay boshlaydilar, Ismoil Jilvoni singari qolgan amir va beklar ham vaziyatga qarab, Bobur tomonga o‘tishga tayyor edilar.

Dehli sultonining nazaridan qolgan amirlardan biri Panjob hukmdori Davlatxon edi. U, Bobur bilan ittifoqchilik aloqalarini o‘rnatadi. Biroq, keyinchalik, bu aloqalar Davlatxonning hiyonati tufayli, adovatga aylangan edi. Hususan, Qandahor va Badaxshondagi vaziyat murakkablashib qolganligi sababli Bobur Panjobni tark etib, Kobulga qaytib ketganida, Davlatxon, Boburning bu yerdagi noiblariga qarshi qo‘shin tortib, Sultonpur, Dibalpur, Sialkot va Kalanjar qo‘rg‘onlarini qayta egallab oladi.

1525 yil oxiriga kelib, Boburning qo‘l ostida faqatgina Lohur viloyati qolgan edi. Panjobning qolgan hududlari Davlatxon va uning to‘ng‘ich o‘g‘li G‘ozixonga o‘tib ketgandi....

Ma‘lumki, Hindistonning Panjob o‘lkasi 1398 yilda Amir Temur tomonidan ishg‘ol qilinib, uning davlati tarkibiga kiritilgan edi. Dehli sultonlarining bu yerdagi sobiq mulklarini boshqarish huquqi Sohibqiron tomonidan Sayid Xizr xonga³ topshirilgandi. Keyinchalik, uning o‘g‘li Muborakshoh (1421–1434) hukmronligi davrida ham bu yerlardan tushgan daromadlarning bir qismi soliq sifatida temuriylarga to‘lab borilar edi. Shu asosda “Temur zabt etgan o‘lkalarning qonuniy vorisi” sifatida, Bobur bu viloyatlarni “yo kuch bilan yo sulh bilan” temuriylar tasarrufi ostiga qayta kiritish va idora etishni maqsad qilgandi: *“Chun hamisha Hinduston*

¹ **Бхира** – Желам дарёсининг чап соҳилида жойлашган шаҳар ва туман.

² **Бихар** – Ҳиндистондаги тарихий вилоят. Бенгалия билан чегарadosh. Ганг дарёси қуйи оқимининг ўнг соҳилида жойлашган.

³ **Сайид Хизрхон ибн Малик Сулаймон** (ваф.1421) – Деҳли султонлигининг 1414–1421 йиллардаги ҳукмдори. Шимолий Ҳиндистондаги Сайидлар сулоласининг асосчиси. Темур даврида Мўлтон вилоятининг ҳокими эди. Ҳиндистон юришида фаол қатнашганлиги учун унга Соҳибқирон томонидан Панжоб ўлкаси берилган эди.

olmoq xotirda edi, bu bir necha viloyatlarkim, Bhira va Xushob va Chanob va Chanut bo'lg'ay, necha mahal turk tasarrufida edi, bularni xud mulkimizdek tasavvur qilur yeduk. Zo'r bila yo sulh bila o'zimizning mutasarrif bo'lurimizg'a mutayaqqin yeduk"¹. Shu sabab, Bobur bu yerdagi mahalliy aholini tinchlantirish va ko'nglini hotirjam qilish maqsadida, o'z askarlarini bu hududni talon-taroj qilish va aholisiga zarar keltirishni qat'iy taqiqlaydi: *"Farmon bo'ldikim, hech kim bularning gala-qoralari'g'a, balki ip uchi, igna sinurlariga atrof va navohida zarar va nuqson yetkurmasun"*. Ushbu maqsadlarni ko'zlab, Bhira viloyatiga Boburning vakili Abdurahimbek yuboriladi. Natijada Bhira hukmdori Alixon (Lahor hukmdori Davlatxonning o'g'li) Boburga shaharni qarshiliksiz topshiradi.

Ayni vaqtda, Bobur Temur avlodlariga tegishli bo'lgan barcha yerlarni, ya'ni Bhira va unga tutash bo'lgan Panjob viloyatlarini qaytarib berishni talab qilib, Mavlono Murshidni Dehliga, Sulton Ibrohim huzuriga elchi qilib jo'natadi. Biroq, Davlatxon Ibrohimning bu talablarga rozi bo'lib, Bobur bilan do'stlashib, ittifoqlikda unga qarshi Panjobda urush boshlashidan havotirda edi. Shu sabab, Boburning mazkur elchisini Lahorda, turli bahonalar bilan ushlab turadi.

1525 yilning noyabrida Bobur Panjob hamda Hindistonning qat'iy ravishda fath etish maqsadida Kobuldan yo'lga chiqadi. Bu Boburning Hindistonga qilgan beshinchi va so'nggi, hal qiluvchi yurishi edi. Ushbu harbiy yurish bilan bog'liq voqealar "Boburnoma"da batafsil bayon etilgan². 4 noyabrda Bobur Sind (Hind) daryosidan o'tib, "Hindustonning darvozalari" bo'lmish Bhira va Sialkot tomon harakatlanadi. Zero, Bobur dastavval Panjobni butunlay bo'ysindirish va uning hokimi Davlatxon masalasini hal qilishi lozim edi.

Dekabr oylarida Bobur qo'shiniga Badaxshondan o'g'li Humoyun mirzo, G'azna viloyatidan esa, tajribali amirlaridan biri Xoja Kalon ham

¹ Бобур, Захириддин Мухаммад. Бобурнома / Тахрир хайъати: А.Абдурашидов, Б.Алимов ва бошқ.;П. Шамсиев, С. Мирзаев ва Эйжи Мано (Япония) нашрлари асосида қайта нашрга тайёрл.: С. Ҳасанов; Масъул муҳаррир В.Раҳмонов. – Тошкент: Шарқ, 2002. 224а варақ; Кейинги ўринларда, ушбу мақолада учрайдиган "Бобурнома"дан олинган иқтибослар мазкур нашрда қайд қилинган бетларга эмас, балки шартли равишда қўлёзма варақларига ҳавола қилишни лозим топдик.

² Ҳиндистоннинг фатҳ этилиши, хусусан Панипат жанги тафсилотлари билан боғлиқ маълумотлар "Бобурноманинг " хижрий 932 (1525–1526) йил воқеалари баёнида, қўлёзманинг 250-300 варақларида келтирилган. Қуйида келтирилган иқтибослар, мазкур варақлардан сайланма тарзда олинди.

kelib qo‘shiladi¹. Badaxshon va G‘azna qo‘shinlarining qo‘shilishi bilan Bobur qo‘shinlari soni nisbatan ortadi. Yozma manbalarda Bobur qo‘shining umumiy soni bo‘yicha qarama-qarshi ma‘lumotlar uchraydi. “Boburnoma” ma‘lumotiga ko‘ra, qo‘shin soni 12 ming², “Tarixi Rashidiy”³ va “Tarixi Farishta”⁴ asarlarida esa 10 mingdan ko‘p emasligi yozilgan.

Davlatxon, harbiy salohiyatda tajribali bo‘lgan Bobur bilan yuzmayuz to‘qnash kelishidan qo‘rqardi. Bobur bilan Davlatxon o‘rtasida umumiy jang sodir bo‘lmaydi. Uning Bobur qo‘shinidan to‘rt barobar katta bo‘lgan qo‘shini, ittifoqchilari o‘rtasidagi kelishmovchiliklar sabab, o‘z-o‘zidan tarqalib ketadi. Davlatxon o‘z qarorgohi Milvat (Malo‘t)ga⁵, G‘ozixon esa tog‘larga chekinadi.

Bobur Davlatxon ustiga yurishni davom ettirib, uning qarorgohi bo‘lmish Milvat qo‘rg‘onini halqadek mahkam qo‘rshab oladi, shuningdek, yaqin atrofdagi ikkita yirik qo‘rg‘on – Kutil (Kotla) va Gangutani ham egallab oladi. Davlatxon najot umididan voz kechib, Boburga taslim bo‘lishdan boshqa iloj topolmaydi. G‘ozixonni tiriklayin tutib keltirish uchun maxsus kuchlar ilg‘or qilinadi, biroq u qochib ketishga muvaffaq bo‘ladi. Bobur va‘da qilganidek, Davlatxon va uning ahli oilasi hayotini saqlab qoladi, lekin uning xazinasi va mol-mulkini davlat foydasiga musodara qiladi.

Shunday qilib, 1526 yil 19 fevralda Hindistonning Panjob viloyati Bobur davlati tarkibiga kiritiladi. Biroq, Bobur Panjob bilan cheklanib qolmadi. Chunki oldinda xali katta raqib – Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diy turar edi. Muhammad Ali Jang-Jangni vaqtinchalik Milvatga hokim etib tayinlab, o‘zi esa Dehli tomon yurishga hozirlik ko‘radi: *“G‘ozixonning ustiga ilg‘or ayirg‘ondin so‘ng himmat rikobig‘a oyoq qo‘yub, tavakkul inonig‘a ilik urub, Sulton Ibrohim binni Sulton Iskandar binni Sulton Bahlul Lo‘diy afg‘onning ustig‘akim, ul tarixda Dehli poytaxti va*

¹ Бобурнома, 252а варақ.

² Бобурнома, 254а варақ.

³ Қаранг: Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А.Урунбаева, Р. Джалиловой, Л.Епифановой. – Ташкент: Фан, 1996. – С. 455.

⁴ Фарисhta. Тарихи Фарисhta. ЎЗР ФА Шарқшунослик институти қўлёзмаси. Инв. № 826. 143, 144, 233 варақлар.

⁵ **Милват** (Малўт) – Покистоннинг Панжоб вилоятида, Кохан (Желам дарёсининг ирмоғи) дарёсининг ўнг соҳилида жойлашган ҳозирги Малот шаҳри.

Hinduston mamoliki aning taxt tasarrufida edi, hozir cherigini bir lak¹ derlar edi, o'zida va beklarida mingga yovuq fil chenarlar edi, mutavajjih bo'lduk"².

Panipat jangi arafasida Bobur allaqachon katta harbiy bilimga va yetarli jangovar tajribaga ega edi. Zero, u o'sha davrning Shayboniyxon, Shoh Ismoil Safaviy, Sulton Husayn mirzo singari yirik hukmdorlarning harbiy mahorati – taktika va strategiyasini yaxshi o'zlashtirgan edi. Bobur qo'shinida o'z davrining ilg'or harbiy qurollari – miltiq va to'fanglar bilan qurollangan askarlar hamda zambaraklardan foydalana oladigan Rumlik (Turkiyalik) mutaxassis – artileriyachilari ham bor edi.

Ibrohim Lo'diyning qo'shini Jamna daryosining o'ng qirg'og'i bo'ylab, Bobur tomon harakatlanayotgan edi. Bundan tashqari, Dehli sultoniga yordam tariqasida Hisori-Firuzadan³ vazir Hamidxon boshchiligida qo'shimcha ko'mak kuchlari ham yo'lga chiqqan edi.

Boburga Hamidxonning Sulton qo'shini bilan birlashayotgani xabari yetib kelgach, o'g'li Humoyun mirzoni ilg'or jo'natib, Hisori Feruza qo'rg'onidan kelayotgan qo'shinni qanday yo'l bilan bo'lsa ham to'xtatib qolishga, agar uddalay olsa mazkur qo'shinni mag'lub etishga buyuradi. Boburning o'n sakkiz yoshli o'g'li bu vazifani a'lo darajada bajaradi. Humoyun nafaqat bu qo'shinni yengishga, balki uning qarorgohi Hisori Feruzani ham egallab olishga muvaffaq bo'ladi. 1526 yil 26 fevraldagi bo'lgan bu kichik jangning muvaffaqiyatli yakuni Boburni juda xursand qiladi. "Bu Humoyunning birinchi ajoyib ishi va birinchi yurishi edi; kelajak uchun ajoyib bashorat edi", - deb yozadi u o'z xotiralarida⁴.

1526 yilning Aprel oyi boshlarida Bobur va dushman qo'shinlari Panipat maydoniga yaqinlashib, saf torta boshladilar: *"Bu qaror bila ko'chub, ora qo'nub, panjshanba kuni, jumodiuloxir oyining salxi Panipat kelduk. O'ng qo'l shahr va mahallot bo'ldi"*. Bobur Ibrohim Lo'diydek kuchli va son jihatidan katta ustunlikka ega bo'lgan raqibga bas kelish uchun, O'rta Sharqning turli mamlakatlaridagi jangovar tajribani hisobga olgan holda, o'z qo'shinini murakkab bir tarzda yasol – jangovar tartibga

¹ **Лак** – санок ва ўлчов бирлиги. 1 лак = 100 минг (10⁵).

² Бобурнома, 261а варақ.

³ Ҳисори-Фируза – Деҳлидан 160 км шимоли-ғарбда жойлашган ҳозирги Ҳисор шаҳри.

⁴ Бобурнома, 263а варақ.

soladi. U, jang oldidan harbiy kengash tuzib, dushman bilan qachon, qaysi maydonda va qay tarzda jangga kirishish bo'yicha puxta reja (taktika va strategiya) ishlab chiqishga kirishadi. Jangdan oldin o'z qo'shinini, dushman hech bir tomondan zarba bera olmaydigan darajada joylashtirishga intiladi.

Temuriylar qo'shining kayfiyatida ham g'alabaga bo'lgan ishonch umidlari sezilarli darajada past, ba'zi askarlar ruhiy havotirda edilar. Zero, Vatanlaridan ancha uzoqda, begona xalq va begona yurtda, qolaversa, qarshilarida hali yaxshi o'rganilmagan, jang uslubi noma'lum bo'lgan qudratli raqib turar edi. Bobur o'z lashkarboshi va qism boshliqlarining mas'uliyatini oshirib, ularga tayin vazifalar yuklaydi hamda jang vaqtida qanday harakatlanish lozimligini qat'iy belgilab beradi. Askarlarni jangovar ruhiy tayyorgarligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar ham ko'riladi. *“Cherik eli ba'zi xeyli mutaraddid (qo'rquv) va mutavahhim (xavotir) edilar. Taraddud va tavahhum betaqribdur. Nekim azalda Tengri taqdir qilibtur, andin o'zga bo'lmas. Agarchi alarni ham ayb qilib bo'lmas, haq alar jonibi edi. Ne uchunkim, Vatandin ikki-uch oychiliq yo'l kelilib edi. G'arib qavme bila elning ishi tushub edi. Ne biz alarning tillarini bilur yeduk, ne alar bizning tilimizni”*¹, - deb yozadi Bobur.

Harbiy kengash qaroriga ko'ra, hal qiluvchi jang maydoni sifatida Dehlidan 90 km shimolda joylashgan Panipat shahri atroflari tanlab olinadi. Zero, ushbu shahar atrofi asosan tekis maydondan iborat edi, o'ng tomonda shahar qo'rg'oni, chap tomonda esa Jamna daryosi oqib o'tardi. Bunday geografik sharoit qo'shinning erkin harakatlanishi uchun, shuningdek, og'ir to'p aravalarning harakatlanishi va joylashuviga ham qulay tabiiy muhit sifatida qaralargan edi².

Bobur qo'shinning o'ng qanotini Panipat shahri qo'rg'oni bilan imkon qadar yaqinroq joylashtirishga, uning devorlari bilan tutashtirishga qaror qiladi. Zero, shaharning mahalla va imoratlari qo'shinning o'ng qanotga berishishi mumkin bo'lgan zarbalarga o'ziga xos to'siq sifatida xizmat qilardi. Bobur qo'shinining eng zaif tomoni esa, to'pchi-zambaraklar

¹ Бобурнома, 264б варақ.

² Бобурнома, 264а варақ.

joylashgan markaz hamda qo‘shinning chap qanoti edi. Zero, zarur paytda chekinish uchun og‘ir zambaraklarning harakatlanishi nihoyatda sekin, chap qanotdagi qo‘shinlarga esa, to‘lib toshib oqayotgan Jamna daryosi to‘sqinlik qilishi shubhasiz edi. Shu sababli ushbu taraflardan kelinadigan havf xatarlarni bartaraf etish uchun bir qator qurilish-muxandislik ishlari olib boriladi. Jumladan, markazdagi to‘pchilar himoyasi uchun aravalardan tashkil topgan o‘ziga xos mudofaa chizig‘i (istehkom) barpo etiladi. Merganlarga ana shu aravalar va to‘siqlar ortidan dushmanni tinimsiz o‘qqa tutish vazifasi qo‘yiladi: *“farmon bo‘ldikim, jami’ cherik eli faroxo‘ri holig‘a aroba kelturgaylar. Yetti yuz aroba bo‘ldi. Ustod Aliqulig‘a farmon bo‘ldikim, Rum dasturi bila arobalarning orasida zanjir o‘rnig‘a o‘yning xomidin arg‘amchilar yeshib, bir-birig‘a bog‘lag‘aylar. Har ikki aroba orasida olti-yetti to‘ra bo‘lg‘ay. Tufangandozlar bu aroba va to‘ralarning keynida turub, tufang otqaylar”*. So‘l qanotning yonlari bo‘ylab hamda aravalar bilan to‘silgan joylarda xandaklar qaziladi, shuningdek, daraxt shohlari, to‘nka va g‘o‘lalar, tikanli butalar yordamida turli sun‘iy to‘siqlar hosil qilinadi.

“Boburnoma” ma’lumotlariga ko‘ra, Bobur qo‘shinining yasoli, ya’ni jangovar tartibi quyidagicha edi (1-rasm):

Markaz (g‘ul, qalb)da shaxsan Boburning o‘zi, oliy jangovar bayrog‘i bilan qo‘mondonlik qilardi. Markazning o‘zi ham o‘ng va chap “qo‘l”lar bilan mustahkamlanadi. Har bir qo‘lda 7 ta bo‘linmadan iborat maxsus qism tashkil etiladi va ularga tajribalari amirlar tayinlanadi. Jumladan, **G‘ulning o‘ng qo‘lida** – Chin Temur Sulton, Sulaymon mirzo, Muhammadiy ko‘kaldosh, Shoh Mansur barlos, Yunus Ali, Darvesh Muhammad sorbon va Abdullo kitobdor; **G‘ulning so‘l qo‘lida** – Xoja Xalifa, Xoja Mirmiron, Ahmadiy parvonachi, Turdibek, Qo‘chbek, Muhib Ali Xalifa va Mirzobek tarxonlar joy oladi.

O‘ng qanot (barong‘or)da – Boburning o‘g‘li Humoyun mirzo, Xoja Kalon, Sulton Muhammad do‘ldoy, Hindubek, Vali xazinachi va Pirquli Siystoniy boshchilik qilardi.

Chap qanot (javong‘or)da – Muhammad Sulton mirzo, Mahdiy Xoja, Odil Sulton, Shoh Mir Xusayi, Sulton Junayd barlos, Qutluqqadam, Jonibek, Muhammad baxshi va Shoh Husayn Yorakiy mo‘g‘ul tayinlanadi.

To'lg'ama manevrini amalga oshirish uchun, har ikki qanotning chetida mo'g'ullardan iborat yengil qurollangan maxsus otliq bo'linmalar – *qunbul* (Bobur, bu qismlarga “burong'or va javong'orning uchi” atamasini beradi) tashkil etiladi. Uning vasifasiga “*g'anim kishisi yovuq kelgach, bu ikki bo'lak to'lg'ama o'ng qo'ldin, so'l qo'ldin g'animning orqasig'a yevrulgaylar*” (266b), ya'ni dushman paydo bo'lgach, uni o'ng va chap tomondan chetlab o'tib, orqa tomondan kuchli zarbalar berib, dushmanni markazga siqib borishi lozim edi. Shunga ko'ra, **o'ng qanotning qunbulida** – Vali Qizil, Malik Qosim va Bobo Qashqa tayinlanadi.

Chan qanotning qunbuli (javong'orning uchi)da – Qaroko'zi, Abulmuhammad nayzaboz, Shayx Jamol barin, Mahdiy va Tengriquli Pishag'iy mo'g'ul boshchilik qiladilar.

Irovul (avangard)da – Xisrav ko'kaldosh va Muhammad Ali jang-janglar qo'shinining oldingi safidan joy oladilar.

Tarh (rezerv qo'shinlari)da – Abdulaziz miroxo'r boshchiligidagi zahira qo'shinlari zarur holatlarda har ikkala qanotga ko'mak berishga tayyor edi. Bu qo'shinlarni Bobur o'ng qanotga yordamga jo'natganini eslatadi: “*G'animning qorasi ko'runganda, burong'or sari mayli ko'prak edi, bu jihattin Abdulaziznikim, tarhqa muayyan edi, barong'org'a ko'mak yiborildi*”.

Mudofaa chizig'i. Qo'shinining old qismini himoya qilish maqsadida, butun qanotlar bo'ylar 700 ta (aroba) aravalardan iborat o'ziga xos mudofaa chizig'i, himoya istehkomi tashkil etiladi. Aravalarning old tomoni, fil va otliqlarga qarshi qo'yilgan uzun nayza va tikanli shox va yog'ochlar bilan himoyalanaadi.

Har ikki aravalardan keyin 6-7 ta yog'och to'ralar ya'ni to'siq (shit) va temir qalqonlar o'rnatiladi, ular bir birlari bilan mol terisidan to'qilgan arqonlar bilan bog'lanib mustahkamlanadi. Zero, bu arqonlar birinchidan, bostirib kelayotgan jangovar fillar hujumini mumkin qadar to'xtatib qo'yishga, ikkinchidan esa, orqadagi asosiy qo'shinni safni buzmasdan, jang maydonida tartibli harakatlanishini ta'minlab berardi.

Mudofaa istehkomining ba'zi joylarida, orqadagi qanot qo'shinlar harakati uchun 100–150 otliq o'ta oladigan darajada bo'sh maydonlar

qoldirilgan: “*Har bir o‘q otimi yerda yuz-yuz ellik otliq chiqqudek yerlar qo‘yuldi*”. Arava va qalqonlar ortida o‘qotor askarlar – **kamonchi (tirkash), miltiqchi, ra‘dandoz** va **to‘fangdozlar** guruhi joylashtirilib, dushmani usluksiz o‘qqa tutishdan iborat bo‘lgan.

To‘pchi-farangilar (artileriya) bo‘linmasiga Rumlik (ya‘ni turkiyalik) mutaxassislar Ustod Aliquli va Mustafo Rumiylar boshchiligidagi to‘pchilar (“farangi zarbzantliq arobalarini qurib”) mudofaa chizig‘i (aravalar) ortida joylashtiriladi. Ular ayni vaqtda, miltiqchi va to‘fangdozlar guruhiga ham umumiy rahbarlik qilgan. Mazkur to‘pchilarga “Rum dasturi” (ya‘ni turklar usuli) asosida artileriyani joylashtirish va jang mobaynida raqibga muntazam to‘p otib, dushman safini buzish orqali lashkarlarni tuzg‘itib yuborish vazifasi qo‘yiladi.

Aytish mumkinki, Boburning bunday jangovar yasoli, ayni vaqtda, dushmani zarur paytda qurshab olishga, uni qopqonga tushirib, pistirmadan turib yakson qilishga qaratilgan puxta rejasi ham edi.

Dehli Sultoni Ibrohim Lo‘diy qo‘shinining jangovar tartibi tarixchilar tomonidan ta‘riflanmagan bo‘lsa-da, ammo ularning yakdil fikriga ko‘ra, uning qo‘shini 1 lak, ya‘ni 100 mingga yaqin askar va 2 mingga yaqin jangovar fillarga ega bo‘lgan (2-rasm). Mirzo Muhammad Haydar Hindiston qo‘shinining soni bir lakdan ziyod ekanligi yozilgan¹, Boburning qizi Gulbadanbegim esa hindlarning 180 ming otliq hamda 1500 ta jangovar fillar bilan jangga kirganini ta‘kidlaydi². Bobur esa, yuqorida aytib o‘tilganidek, 10–12 minggacha askarga ega edi, xolos.

Hindiston qo‘shinining tuzilishi, an‘anaviy tarzda – avangard, o‘ng va chap qanotlar hamda markaz qo‘shinlaridan iborat bo‘lgan. Sultonning eng asosiy quroli uning **jangovar fillardan** tashkil topgan qismlari hisoblanardi. Shuning uchun, Ibrohim Lo‘diy bu jangovar fillarni qo‘shinning eng oldingi safiga – avangardga joylashtiradi.

Fillardan iborat avangard ortidan piyoda askarlar, undan keyin suvoriylar joylashgan. Qo‘shinning ikki chetida, qoida tariqasida, o‘ng va

¹ Қаранг: Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А.Урунбаева, Р. Джалиловой, Л.Епифановой. – Ташкент: Фан, 1996. – С. 455.

² Gulbadanbegim. Захириддин Мухаммад кизи. Хумоюннома / Форс тилидан А.Куронбеков таржимаси. – Тошкент, 2015. – Б.12.

chap qanot qo‘shinlari o‘rin oladi. Markazda esa, Sulton Ibrohimning o‘zi xos lashkarlari bilan qo‘mondonlik qilar edi.

Jangning boshlanishi. 1526 yilning 12 aprelda Bobur qarorgohida barcha harbiy tayyorgarlik ishlari yakunlanadi, biroq Bobur nazdida, Sulton Ibrohim o‘rdasida ikkilanish, urushga xozirlik ishlari sust kechayotgandek tuyuladi. Dushmani faol harbiy harakatlarga undash maqsadida, Bobur, bek va amirlarining maslahatiga ko‘ra, vaqti-vaqti bilan uning pozitsiyalariga kichik-kichik guruhlarini jo‘natib, hujum qilib ko‘radi. Bu kamonchi guruhlar tunda ham faollik ko‘rsatib, kutilmaganda dushman qarorgohida sarosima va vahima uyg‘otishga harakat qiladi¹.

1526 yil 21 aprelda, erta tongdan har ikkala tomon qo‘shinlari Panipat maydonida jangga tayyor holatda saf tortib turardi. Ushbu tarixiy jang, karnay va burg‘ular sadosi ostida, Bobur istaganidek, Sulton Ibrohim qo‘shinining harakati bilan boshlanadi. Son jihatidan Bobur qo‘shinidan 10 barobarlik ustunga ega bo‘lgan hind qo‘shinining eng oldingi saflarida jangovar fillar (“*fil chenarlar*”) markazga qarab harakatlanib kela boshlaydilar, uning ortidan esa, sultonning asosiy kuchlari Bobur qo‘shinining markaziy qismiga zarba berishni boshlaydilar. Biroq, Boburning mudofaa chizig‘iga yaqinlashganda, Sulton qo‘shini kutilmaganda, to‘xtab qoladi. Bobur vaqtni boy bermay, qo‘shin sardorlariga dushmanga qarata baravariga to‘p va zambaraklardan, kamon va miltiqlardan shiddatli ravishda o‘q uzishni buyuradi. Zambarak to‘plarining portlashlari butun jang maydonini olov va chang-to‘zonga aylantirib yuboradi. Kamonchilarni olovli o‘qlari ham dushman ustiga yomg‘irdek yog‘ila boshlaydi. Bostirib kelayotgan fillar, saflarini buzib, o‘z askarlarini toptagan holda, tartibsiz ravishda ortga chekina boshlaydi. Sultonning o‘ng va chap qanotlari harakatga kelib, hujumga o‘tadi. Asosiy zarbalar Boburning o‘ng qanotiga tushadi. Barong‘orni mustahkamlash maqsadida, Bobur Abdulaziz mirohur boshchiligidagi zahira (tarh) qo‘shinlarini safarbar qilishga majbur bo‘ladi: “*Abdulaziznikim, tarhqa muayyan edi, burong‘org‘a ko‘mak yiborildi*”. Chap qanotlarda ham vaziyat yaxshi emas edi, uni ham ortida turgan markazning chap “qo‘li” yordamida mustahkamlashga to‘g‘ri keladi.

¹ Бобурнома, 2656 варақ.

Shu tariqa, Bobur Sulton Ibrohim hujumini qaytariga muvaffaq bo'ladi va endilikda tashabbusni o'z qo'liga olib, o'zi ham tezkor qarshi hujumga o'tishni boshlaydi. To'lg'ama (o'rab olish amaliyoti)ga mas'ul bo'lgan har ikki qanotning qunbuli tezlikda dushmanni orqa tomoniga o'tib, o'rab oladilar va kuchli zarbalar bilan dushmanni markazga, ya'ni zambaraklar va miltiqchilar ta'sir doirasi tomon siqib kela boshlaydilar.

Boburning o'ng va chap qanotlari – barong'or va javong'or qo'shinlari ham dushman qanotlariga zarba bera boshlaydilar.

Chin Temur Sulton va Xoja Xalifa boshchiligidagi markazning o'ng va chap "qo'l"lari esa qanotlarga ko'mak berib, dushmanning markaziy qismiga hujum qiladilar¹.

Jang vaqtida, Bobur o'z lashkarboshilariga aniq va tezkor buyruqlar berar, uning o'ziga ham ayni vaqtda, markaziy safda turib jang qilar edi. Temuriylar qo'shinining zahiradan tortib barcha qismlari urush maydonida dushman qarshiligini sindirishga, matonat va jasorat bilan jangga kirishgan edilar. Qamalda qolib ketgan hind qo'shini esa, na olg'a siljib, qarshisidagi raqibni yengishga va na jang maydonidan qochishga imkon topa olardi².

Sulton Ibroximning qo'shinlarni boshqarish borasidagi tajribasizligi tufayli, uning o'ng va chap qanotlari asosiy markaz qo'shinlari bilan aralashib ketadi. Jangchilarning tartibsiz harakatini jang maydonida tizimli boshqarish butkul izdan chiqqan edi. *"G'animning o'ng qo'li va so'l qo'li bori bir yerda yig'ilib, andoq tiqilish bo'ldikim, ne ilgari kela oldilar, ne qochg'ali yo'l topa oldilar"*, - deb eslaydi Bobur.

Darhaqiqat, Boburning o'ng qanot, chap qanot, markaz va to'lg'ama qismlari dushmanni har tomondan o'rab olib, borgan sari markazga siqqib borar, to'pchi va miltiqchilar guruhi esa ular ustiga tinimsiz tosh, olov va o'qlar yog'dirardi. Shu tariqa jang taqdiri temuriylar foydasiga hal qilingan edi. Tongda boshlangan urush tushgacha davom etadi va oxir-oqibat Boburning yaqqol g'alabasi bilan yakun topadi.

Panipat maydonida Boburning taxminicha, dushmanning 10-15 ming qo'shini o'ladi, biroq, keyinroq ma'lum bo'ladiki, 40-50 ming qo'shin nobud bo'lgandi, omon qolganlari esa tevarak atroflarga qochib ketishga

¹ Бобурнома, 2666 варақ.

² Ўша жойда.

erishadilar. Bu urushda Sulton Ibrohimning o‘zi ham halok bo‘lgan edi. Uning jasadi sultonning 5-6 minglik xos navkarlari orasidan topiladi. *“Oftob bir nayza bo‘yi chiqib edikim, urush angizi bo‘ldi. Kun tushgacha zarb urush edi. Kun tush bo‘la a‘do mag‘lub va maqhur va ahibbo mubtahij va masrur bo‘ldilar. **Tengri taolo fazl va karami bila mundoq dushvor ishni bizga oson qildi va andoq qalin cherikni yarim kunda andoq yer bila yakson qildi. Besh-olti ming kishi Ibrohimning yaqinida bir yerda-o‘q qatlg‘a yetibturlar. O‘zga har yerda o‘lganlarni bu ma‘rakada o‘n besh-o‘n olti ming taxmin qilur yeduk. So‘ngra Agraga kelganda, Hinduston eli takriridin andoq ma‘lum bo‘ldikim, qirq-ellik ming kishi bu ma‘rakada o‘lgan ekandur**”*, - deb eslaydi Bobur.

“Tarixi salotini afg‘oniy” asarining muallifi Ahmad Yodgorning xabar berishicha, Bobur Sulton Ibrohimning o‘limidan xabar topib, uning jasadi yotgan joyga borib, boshini egib: “Jasoringizga shon-sharaf bo‘lsin, Ey Ibrohim!”, - deb kuyungani, so‘ngra uni podshohona sharaf bilan dafn qilishga buyurganini eslatadi¹.

Panipat jangidan so‘ng, sultonlik g‘aznasidagi xazinalarning talon-toroj qilinishini oldini olish maqsadida, tezlikda Dehli va Agra ham egallanadi. Ayni shu davrda Gvalior hokimi mashhur “ko‘hinur” olmosini Humoyunga taqdim etadi. 1526 yil 24 aprelda Boburning zafarli qo‘shinlari poytaxt Dehli darvozasidan tantanali kirib keladi. Bu yerda u Shayx Nizom avliyo va Xoja Qutbiddin mozorlarini ham ziyorat qiladi. 27 aprelda esa, shaharning jome‘ masjidlarida ustozlari bo‘lmish Mavloni Mahmud va Shayx Zayn tomonidan Bobur nomiga xutba o‘qilib, shukronalik namozi ado etiladi, mahalliy aholiga turli ehsonlar ulashiladi. Shuningdek, Bobur bu yerda o‘z nomidan *“Al-Sulton al-a‘zam val hoqon ul-mukarram Zahiriddin Muhammad Bobur podshohi Sulton g‘oziy, holadollohu mulkahu va saltanahu”* yozuvlari bilan tushirilgan tangalar ham zarb etadi. Bu Hindistonning fath etilishi va endilikda uning saltanati tarkibiga kiritilganligidan dalolat berardi².

¹ Қаранг: Ahmad Yadgar. Tarikh-I Salatin-I Afaghana. – Б. 23.

² Sharipov A.A. On Coins Minted in the Kingdom of Zahir al-Din Babur // “New Perspectives for the Study of Islamic Culture, History and Art in Uzbekistan (IRCICA)” Proceeding of the International Dedicated to the Memory of Academician Ubaydulla Karimov (May 2021.Tashkent) – Istanbul, 2021. – pp. 309–314.

Boburning Sulton Ibrohim ustidan ishonchli g'alaba qozonishining sabablari nimada edi? Manba va tadqiqotlarda Dehli sultoni qo'shinlarining mag'lubiyatiga sabab bo'lgan omillarning xolisona tahlili yo'q. Bir qator tadqiqotchilar Panipat jangi natijalarini umumlashtirish bilan cheklanib, Ibrohimshoh mag'lubiyatini uning harbiy iste'dod darajasining pastligi bilan izohlaydilar. Shubhasiz, jang natijasi, asosan, Boburning harbiy san'ati, uning to'g'ri tanlangan taktika va strateriyasi, jumladan, qo'shinlarning istehkomlar zanjiri ortida mohirona joylashishi, tezkor qanot zarbalari (to'lg'ama) hamda o'z davrining ilg'or zamonaviy o'qotar qurollaridan unumli foydalanganligi bilan bog'liq. Hind qo'shinining tartib-intizom borasidagi jangovar fazilatlar bo'yicha, Bobur qo'shinidan yaqqol pastligi ham sabab bo'lgan edi. Ibrohimshohning o'z kuchiga xaddan tashqiri ishonishi, manmanlik va tug'yon botqog'iga tushishi natijasida, raqibi bo'lmish Boburning kuch-qudratiga yetarli baho berolmay qoldi. Lekin asosiy sabab, shubhasiz, Dehli sultonligida yuzaga kelgan siyosiy inqiroz, oliy hukmdor hokimiyatining zaiflashishi ham o'z ta'siri ko'rsatmay qolmadi, albatta. Shunday bo'lsa ham Bobur, hind armiyasiga, hususan Sulton shaxsiyatiga baho berar ekan, agar xohlasa, Sulton Ibrohim yanada ham ko'proq askar yollashi mumkinligi, ammo ziqnaligi va molu-davlatga berilganligi tufayli, hal qiluvchi jang oldidan o'z qo'shinini ko'paytirishga, unga kerakli mablag'lar ajratishga rozi bo'lmagani ta'kidlaydi: *“G'animning hozir cherikini bir lak chenarlar edi. O'zining va umarosining ming-ikki mingga yovuq fili bor derlar edi. Ikki otasidin qolg'on xazina xud naqd iligida edi, Hindustonda bir rasme bordurkim, mundoq ish tushganlarda yarmoq berib, miyod bila navkar tutarlar. Bu elni «badhandiy» derlar. Agar mundoq xayol qilsa edi, bir lak, ikki lak ham navkar tuta olur edi. Tengri taolo rost kelturdi, ne yigitini rozi qila oldi, ne xazinasini ulasha oldi. Qandin yigitini rizo qila olurkim, tabiatig'a imsok ko'p g'olib edi. O'zi yarmoq yig'ishturmoqqa behad tolib, betajriba yigit edi. Ne kelishi saranjomliq edi, ne turushi, ne yurushi ehtimomliq edi, ne urushi”*¹. Aftidan, temuriylar qo'shinining kamligi sabab, shundoq ham ko'p sonli

¹ Бобурнома, 265а варақ.

qo‘shinni yollanma askarlar – “badhandiy”lar hisobiga yanada to‘ldirishga, Sultonda zarurat tug‘ilmagan ko‘rinadi.

Boburning o‘zi ham mazkur g‘alabasini iste’dodi, shaxsiy mahorati va tajribasidan emas, balki kamtarona tarzda, “taqdirning unga ko‘rsatgan inoyatidan” deb biladi: *“Bu hol va bu quvvat bila tavakkul qilib, Sulton Ibrohimdek qalin cheriklik va vase’ mulkluk podshoh bila ro‘baro’ bo‘lduk. Tavakkulimizga yarasha Tengri taolo ranj va mashaqqatimizni zoyi’ qilmay, mundoq zo‘r g‘animni mag‘lub qilib, Hindustondek keng mamlakatni maftuh ayladi. Bu davlatni o‘zumizning zo‘r va quvvatidin ko‘rmasbiz, balki Tengrining mahzi lutf va shafqatidindur va bu saodatni o‘zumizning say va himmatidin bilmasbiz, balki Tengrining ayni karam va inoyatidindur”*¹.

Garchi Sulton Ibrohimning armiyasi son jihatdan ko‘p va qudratli bo‘lgan bo‘lsada, biroq uning siyosatidan norozi bo‘lgan lashkarboshilar ko‘p edi, ular tez-tez itoatsizlik ko‘rsatib, markaziy hokimiyatga bo‘ysinishni istashmas edi. Tinimsiz urushlar oddiy xalq turmush hayotini yanada og‘irlashtirib, ularning hukumatga qarshi norozilik qo‘zg‘olonlariga ham sabab bo‘lar edi. Bularning bari, ohir oqibat, saltanatning yemirilishiga, uning harbiy qudratiga putur yetkazmay qo‘ymadi. Bu vaziyatda Boburning Panipatdagi g‘alabasi Shimoliy Hindistonda, Dehli sultonligining salkam 300 yillik tarixiga yakun yasab, Lo‘diylar sulolasi hukmronligiga chek qo‘ygan so‘nggi zarba bo‘ldi.

Haqiqatdan ham, Panipat jangi nafaqat Hindiston tarixida, balki Boburiylar hayotida ham o‘ta muhim voqea bo‘lgan edi. Ushbu jang Boburning buyuk sarkarda sifatidagi iqtidorini yaqqol namoyon etdi va unga katta shuhrat keltirdi. Uning son jihatdan juda katta dushman qo‘shinini oz sonli lashkar bilan tor-mor qilgani jahon harbiy san’at tarixidan o‘rin olgan. Bu jangda o‘z davrining zamonaviy qurol-aslahalaridan, hususan, yangi o‘tochar qurollar, artileriya va harbiy taktika san’atidan unumli foydalanilgan. Ushbu jang tufayli Amir Temur va Temuriylarning jang san’atini yana birbor Bobur misolida, butun dunyoga namoyon etishga xizmat qildi.

¹ Бобурнома, 269а варақ.


Boburning ushbu g'alabalari natijasida, butun Shimoliy Hindiston ustidan Temuriylar sulolasining nazorati o'rnatiladi, bu yerda uzil-kesil yangi hokimiyat o'rnatiladi va Amir Temur asos solgan Temuriylar davlatining davomchisi sifatida, yangi buyuk imperiyaga – Boburiylar saltanatiga (1526–1857) asos soladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullah. Tarihi Dovudi (Davut'un tarihi). Aligarh, 1954 (Farsça).
2. Ahmad Yadgar. Tarikh-i Salatin-i Afaghana. – Sayfa, 23.
3. Ferishta. Tarihi Ferishta. Özbekistan Bilimler Akademisi'ne bağlı Şarkiyat Araştırmaları Enstitüsü'nün el yazması. Env. 826. Yapraklar 143, 144, 233.
4. Nizamiddin Ahmed bin Muhammed Mukim Heravi. Tabaqati Akbari. Özbekistan Bilimler Akademisi'ne bağlı Şarkiyat Araştırmaları Enstitüsü Vakfi'nın el yazması. Env. 3341. Sayfa 138b.
5. Azimdjanova S.A. Gosudarstvo Babura v Kabule i v Indii / Otv.red. K.Z. Ashrafyan. – M.: Nauka, 1977. – 176 s.
6. Ashrafyan K.Z. Deliyskiy sultanat: K istorii ekonomicheskogo stroya i obshestvennix otnosheniy (XIII-XIV vv.). – M., 1960.
7. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma / Tahrir hay'ati: A.Abdurashidov, B.Alimov va boshq.; P. Shamsiyev, S. Mirzayev va Eyji Mano (Yaponiya) nashrlari asosida qayta nashrga tayyorl.: S. Hasanov; Mas'ul muharrir V.Rahmonov. – Toshkent: Sharq, 2002. – 336 b.
8. Gulbadanbegim. Zahiriddin Muhammad qizi. Humoyunnoma / Fors tilidan A.Quronbekov tarjiması. – Toshkent, 2015.
9. Mirza Muxammad Xaydar. Tarix-i Rashidi / Vvedeniye, perevod s persidskogo A.Urunbayeva, R. Djalilovoy, L.Yepifanovoy. – Tashkent: Fan, 1996. – 727 s.
10. Sharipov A.A. On Coins Minted in the Kingdom of Zahir al-Din Babur // “New Perspectives for the Study of Islamic Culture, History and Art in Uzbekistan (IRCICA)” Proceeding of the International Dedicated to the Memory of Academician Ubaydulla Karimov (May 2021.Tashkent) – Istanbul, 2021. – pp. 309–314.


Ilovalar: 1-rasm

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR QO'SHINING YASOLI (JANGOVAR TARTIBI)




2-rasm

DEHLI SULTONI IBROHIM LO'DIY QO'SHINING YASOLI (JANGOVAR TARTIBI)



3-rasm

PANIPAT JANGI 21 aprel 1526 yil



TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOIIY-SIYOSIY VAZIYAT

*R.R.Rashidov ,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti “Jamoat xavfsizligini ta’minlash
kafedrası” professori s.b.f.d. (PhD), dotsent*

Amir Temur davlatining parchalanishi, Xuroson va Movarounnahrda Temuriy shahzodalarning hukmronligi, Shohrux Mirzo, Ulug‘bek Mirzo, Sulton Abu Said, Sulton Husayn Boyqaro va boshqa temuriylar o‘rtasidagi taxt talashishlari, temuriylar davrida siyosiy boshqaruv tizimi, ijtimoiy tizim, soliq siyosati, madaniy hayot va ilm-fan taraqqiyoti haqida talabalarga batafsil ma’lumot berish, tarixiy davr to‘g‘risida umumiy tushunchalar va ko‘nikmalar hosil qilish.

Tashqi qiyofasi kuchli ko‘ringan, nihoyatda katta hududlarni egallagan Amir Temur davlati siyosiy jihatdan mustahkam emas edi. Mamlakatda o‘rnatilgan suyurg‘ol tartibi Amir Temur davlatining ko‘p vaqt o‘tmay parchalanib ketishiga sabab bo‘ladi. Amir Temur vafotidan so‘ng vorislar o‘rtasida toju-taxt uchun kurashlar boshlanib ketadi. U o‘ziga taxt vorisi qilib nabirasi, o‘sha vaqtlarda Hindiston va Kobul viloyatlarining hukmdori Pirmuhammadni tayinlagan edi. Biroq Mironshohning o‘g‘li Xalil Sulton Mirzo 1405 yilning 18-mart kuni Samarqandni egallab, o‘zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e‘lon qiladi. Ammo ko‘p vaqt o‘tmay u Amir Temurning sadoqatli amirlari, viloyat noiblari va shahzodalarning kuchli naroziligi va isyoniga duch keladi. Turkiston hamda Farg‘onaning hokimi amir Xudaydod bilan Shayx Nuriddin Xalil Sultonga qarshi isyon ko‘taradilar. Uning ukasi Mirzo Sulton Husayn Amudaryoning chap sohili viloyatlarida o‘z hokimiyatini o‘rnatish maqsadida akasiga qarshi bosh ko‘taradi. Amir Temurning valiahdi Pirmuhammad Amudaryodan kechib o‘tib Xalil Sultonga qarshi Nasafga tomon qo‘shin tortadi. Oqibatda bu davrda Xurosonda Shohruh, Balh, G‘azna va Qandahorda Pirmuhammad, G‘arbiy Eron va Ozarbayjonda Mironshohning o‘g‘illari Umarshayx Mirzo bilan Abubakr Mirzolar hokimi mutloq bo‘lib oladilar. Sirdaryodan shimolda

joylashgan viloyatlar: Turkiston, Sabron, O‘ror, Sayram amir Berdibekning tasarrufida qoladi. O‘ratepa bilan Farg‘onani Amir Xudaydod Husayniy egallab oladi. Xorazmni esa Oltin O‘rdaning nufuzli amirlaridan Idiku o‘zbek bosib oladi. Shunday qilib, Temur mamlakati kurashlar girdobiga tushib qoladi. Bu davrda Amir Temurning valiahdi Pirmuhammad va o‘rtancha o‘g‘li Mironshoh bunday g‘alayon va fitnalarning qurboni bo‘lishadi. Pirmuhammad 1407 yil 22 fevralda vaziri Pir Ali Toz boshliq fitnachilar qo‘lida shahid bo‘ladi. 1408 yil 22 aprel kuni Qoraqyunli turkmanlarining qabila boshlig‘i Qorayusuf bilan bo‘lgan jangda Mironshoh halok bo‘ladi. Ozarbayjon va Iroq viloyatlari temuriylar qo‘lidan ketadi. Shohruh Mirzo 1409 yil 25 aprelda Amudaryodan o‘tib, Samarqandni egallaydi. Shohruh XV asrning 20-yillariga kelib Amir Temur merosining Suriya va Arabistondan tashqari asosiy qismini o‘z tasarrufiga kiritadi. Shohruh humronligi davrida Amir Temur saltanatining asosiy qismi uning qo‘li ostida saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ammo bu ulkan mamlakat ikki davlatga bo‘lingan edi. Ulardan biri markazi Samarqand bo‘lgan Movarounnahr, ikkinchisi markazi Hirot bo‘lgan Xuroson edi.

1409 yilda Shohruh Movarounnahrda Ulug‘bek Mirzoni hokim qilib tayinlaydi. Ulug‘bekning hokimiyati dastlab faqat Samarqand, Buxoro va Nasaf viloyatlari bilan cheklangan edi. Keyinchalik Ulug‘bek davlati janubda Amudaryo, g‘arbda Buxoro vohasiga tutashib ketgan Urganjiy dashtining sharqiy hududlari, shimolda Sirdaryoning quyi oqimidagi Sig‘noq va O‘ror shaharlari, sharq va shimoli-sharqda Sharqiy Turkiston bilan chegaralanardi.

Mamlakatda ma‘lum darajada mustahkamlanib olgan Ulug‘bek 1414-1415 yillarda Farg‘onaga yurish qilib, uni egallaydi. U 1425 yil bahorda Mo‘g‘ulistonga yurish boshlaydi va Issiqko‘l yaqinidagi jangda g‘alabani qo‘lga kiritib katta o‘lja bilan Samarqandga qaytadi. Mo‘g‘ullar ustidan qozonilgan g‘alaba sharafiga Ulug‘bek Jizzax yaqinida Ilono‘tti darasidagi (1428 yilda) qoyatoshga “zafarnoma” yozdiradi.

Ulug‘bek Sirdaryo bo‘yidagi O‘ror, Sabron va Sig‘noq shaharlariga da‘vogar bo‘lib chiqqan Baroq O‘g‘longa qarshi 1427 yilda qo‘shin tortadi. Ammo bu yurish unga omad keltirmaydi. Bu mag‘lubiyatdan yuzi shuvut bo‘lgan Ulug‘bek umrining oxirlarigacha o‘zga yurtlarga urush qilishga

jur'at qilmaydi. U faqatgina XV asrning 30-yillarida mamlakat chegaralarini Abulxayrxon hujumidan himoya qilish maqsadida qo'shin tortgan edi.

Shohruh 1447 yil 12 mart kuni nevarasi Sulton Muhammad isyonini bostirish vaqtida Ray viloyatida olamdan o'tadi. Uning vafotidan so'ng Xuroson va Movarounnahrda temuriy shahzodalar o'rtasida toj-taxt uchun kurash yana avj oladi. Odatga ko'ra taxtga Shohruxning to'ng'ich o'g'li Ulug'bek o'tirishi kerak edi. Ammo Boysunqurning o'g'illari Alouddavla bilan Abulqosim Bobur Ulug'bekka qarshi harakat boshlaydilar. Ammo keyingi siyosiy voqealar Ulug'bek va uning to'ng'ich o'g'li Abdullatif o'rtasida ziddiyatning kelib chiqishi bilan xarakterlanadi. Bu voqealar Ulug'bekning fojeali o'limi bilan yakunlanadi. Fitna qurboni bo'lgan Mirzo Ulug'bek 1449 yil 27 oktabrda Samarqand yaqinida fojiali holatda shahid bo'ladi.

Shunday qilib, Ulug'bek Movarounnahrdagi qirq yillik hokimligi davrida shiddatli harbiy yurishlar uyushtirib, qo'shni mamlakatlarni bosib olishga intilmadi. Va aksincha, u o'z davlatini mustahkamlashga va madaniy hayotni ko'tarishga harakat qildi.

Shohrux mirzo va Mirzo Ulug'bek o'limidan keyin temuriylar sulolasining inqirozi kuchaydi, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat bekarorlashdi. Otasi o'limining aybdori padarkush Abdullatif ham, «Al qasosu minalhaq» deyilganidek, ko'p o'tmay Ulug'bek Mirzoning mulozimi Bobo Husayn tomonidan o'ldirildi. Bu voqea 1450 yilning 9 mayida sodir bo'ldi.

Shundan so'ng Samarqand taxtini temuriy Ibrohim Sultonning o'g'li Abdullo egalladi. Bunga javoban Buxoro ayonlari Mironshoh nabirasi Abu Said Mirzoni podshoh etib ko'tardilar. Bunday muxolifatchilik okibatida Movarounnahrdagi siyosiy vaziyat keskinlashib, hokimiyat uchun kurash yangi pallaga kirdi. Abu Said o'z maqsadiga erishish yo'lida Dashti Qipchoqdagi o'zbeklar davlati hukmdori Abulxayrxondan ham foydalandi. U 1451 yilda Mirzo Abdullo qo'shinini engib (Abdullo bu jangda halok bo'ladi), Movarounnahr hukmronligini qo'lga kiritdi. 1457 yilda Xuroson xukmdori Abulqosim Bobir vafot etgach, Sulton Abu Said Mirzo Hirot taxtini ham egallaydi. Garchi temuriylar saltanatining har ikkala qismi birlashtirilgan bo'lsa-da, uning tag zamiri nihoyatda zaif, omonat edi. Abu

Saidning ko‘p vaqti g‘arbiy o‘lkalarni egallash maqsadida urush harakatlarida o‘tgani sababli mamlakat jilovi mahalliy bek, amirlar va shahzodalar qo‘lida bo‘ldi, ular o‘z mavqelarini mustahkamlash, xalqni talash, soliq majburiyatlarni ko‘paytirish bilan band edilar. Bu esa ichki nizolarning avj olishiga sabab bo‘lmoqsa edi.

1469 yilda G‘arbiy Eronda oqquyunli turkmanlari bilan bo‘lgan jangda Abu Said o‘ldiriddi. Xurosonda Sulton Husayn Boyqaro hokimiyati qaror topdi. Movarounnahrda Abu Saidning o‘g‘illari Sulton Ahmad, Umarshayx Mirzo va Sulton Mahmud hokimiyat tepasiga keldi. Umarshayx Farg‘ona mulki hukmdori bo‘lsa, Samarqandda hokimiyat Sulton Ahmad (1469—1493) va Sulton Mahmud (1493—1494) va undan so‘ng Sulton Ali (Mahmudning o‘g‘li, 1494—1501) qo‘lida bo‘ldi.

Ana shu tariqa, mamlakat parchalanish sari yo‘l tutdi. Xususan, Movarounnahr hukmdori Sulton Ahmadning uquvsizligi, sustkashligi va savodsizligi tufayli feodal tarqoqlik avjiga chiqdi. Bundan foydalangan dasht o‘zbek qavmlari uyushtirgan yurishlar Movarounnahrni yanada tang ahvolga soldi.

XV asrning 90-yillarida Farg‘onaning yosh hukmdori, Umarshayx Mirzoning o‘g‘li Zahiriddin Muhammad Bobur (1483—1530) temuriylar hukmronligini qaytadan mustahkamlash yo‘lida necha bor qat’iy harakat qildi. Biroq uning bu urinishlari ham kutilgan natijaga olib kelmadi.

Siyosiy tizim. Amir Temur o‘z davlatini barpo qilishda mavjud siyosiy boshqaruv tajribalaridan keng foydalandi. Mazkur davlat o‘z tarkibiy tuzilishiga ko‘ra ko‘shimcha harbiy – siyosiy tartiblarga asoslangan edi. Qudratli hukmdor tarix faniga ixlos qo‘yganidan bo‘lsa kerak, qadimgi va o‘rta asr Sharq mamlakatlaridagi turli davlatlar va ularning siyosiy hamda ma‘muriy idora usuli, boshqaruv tizimlari haqida keng tasavvurga ega edi. Biroq uning davlat boshqaruv tizimi qo‘l ostidagi butun hududda yagona markazlashgan siyosiy-tartib asosiga qurilgan bo‘lib, bu sohadagi tajribalar o‘rta asrlardagi O‘rta Osiyo davlatlarida keng qo‘llanilgan idora usullari tajribasi bilan boyitilgan edi. Amir Temurning Nizomulmulk tomonidan yaratilgan "Siyosatnoma" asaridan davlat ishlarida keng ko‘llanma sifatida foydalanishi, "Temur tuzuklari"da "Siyosatnoma"dan fikrlar keltirilishi bunga yorqin misoldir.

Amir Temur o'ziga qadar mavjud bo'lgan davlatchilikning sakkizta asosiga amal kildi:

-davlat siyosiy jihatdan mustaqil bo'lishi;

-davlat va jamiyatning siyosiy yaxlitligi buzilmasligi;

-davlat va jamiyat muayyan qonunlar, tartiblar, mafkura asosida boshqarilmog'i.

-boshqaruv tizimini muvofiqlashtirib turuvchi qoidalar shakllangan bo'lishi;

-jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ahvoli davlat e'tiborida bo'lishi;

-fan va madaniyat ravnaqi to'g'risida doimiy qayg'urish;

-har bir davr shart-sharoiti, tartiblariga ko'ra davlat jamiyat ichki taraqqiyoti masalalarini tashqi dunyodagi mavjud omillardan foydalangan holda olib borishi;

-davlat tepasidagi kuchlar o'tmish, zamona va kelajakni teran tafakkur, mustahkam iymon, g'oyat yuksak ma'naviyat va millatparvarlik ila anglamog'i.

Amir Temur davlatchilikning bu asoslariga to'qqizinchisini, jamiyat rivoji va barcha ijtimoiy tabaqalar, manfaatlarini ta'minlashni qo'shdi.

Boshqaruv ikki idoradan: dargoh va vazirlik (devon) dan iborat bo'lgan. Dargohni Oliy hukmdor boshqargan. Dargoh faoliyatini boshqarish, uning devonlar, mahalliy hokimiyat idoralari bilan bog'lanib turish ishlari Oliy devon zimmasida bo'lgan.

Oliy devonda - ijroiya hokimiyatda bosh vazir, harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri turgan. Sarhadlar va tobe' mamlakatlarning boshqaruvi bilan shug'ullanuvchi yana uch vazir bo'lgan va devonbegiga hisobot berib turgan. Markaziy hokimiyat tizimida shayxulislom, qozikalon, qoziyi axdos (odat buyicha hukm chiqaruvchi qozi), qozi askar, sadri a'zam (vaqf erlari, mulklari mutasaddisi), dodxoh (shikoyatlarni ko'ruvchi), eshikog'a, saroy vaziri, yasovul (hukmdorning shaxsiy buyrug'ini bajaruvchi), qalaqchi (xiroj miqdorini aniqlovchi), muhassil (soliq undiruvchi), tavochi (asosiy ko'shinlarni to'plash ishiga mutasaddi amaldor), qorovulbegi, qutvol (kal'abon), muxtasib (shariat qoidalari ijrosini, bozor tartiblarini nazorat qiluvchi) va boshqalar bo'lgan.

Shuningdek dargoxda bosh hojib, hojiblar, xazinabon, xonsolor jibachi, qushchi, bakovul, kotiblar, bitikchilar, tabiblar, sozandalar, dorixonachilar bo'lgan.

Ijtimoiy tuzum. Amir Temur davrida Movarounnahrda aholining yashash darajasi va sharoiti yaxshilangan. Yagona markazlashgan davlatning shakllanishi va rivoj topishi bilan oddiy aholining tinch va osuda yashab, mehnat qilishiga shart-sharoitlar yaratildi.

Mo'g'ullar istilosi davrida va undan keyin Amir Temurning markazlashgan davlat barpo etguniga qadar O'rta Osiyo va unga qo'shni hududlarning xalq ommasi nihoyatda og'ir azob-uqubatlar, qiyinchiliklar bilan hayot kechirayotgan edi. Mo'g'ullarning vayronagarchilik va buzg'unchilik ishlari tufayli mehnatkash aholining yashash sharoiti quyi darajaga tushib qoldi. Xo'jalikni qayta tiklash ishlariga e'tiborsiz bo'lgan ko'chmanchi mo'g'ullar xalq boshiga turli soliqlarni soldilar, ular orasidan ba'zilarini qullarga aylantirdilar.

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach, u mamlakatda qayta tiklash ishlari, obodonchilik, sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash ishlariga katta e'tibor qaratdi. Turli toifaga mansub mulk sohiblarini bir qo'l ostida birlashtirdi. Qattiq intizom har qanday zodagonni o'z hukmdori oldida bosh egishga majbur qilar edi. Mehnatkash xalq jumladan, hunarmand qatlamiga mansub kishilarning yashash darajasi ancha yaxshilandi. Shaharlarda, madaniyat markazlarida yaratuvchilik, obodonchilik ishlari nixoyatda kuchayib ketdi.

Amir Temur davlatining sarhadlari keng edi. U nafaqat hozirgi O'rta Osiyo balki, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Kavkaz, Qozog'iston, Iroq singari mamlakat va hududlarni o'z tarkibiga olgan edi. Ijtimoiy tuzum masalasida to'xtalganimizda, aynan shu joylardagi aholining turli qatlamlari, ularning o'zaro nisbati, bir-biriga aloqadorligini nazarda tutishimiz kerak.

"Temur tuzuklari"da Amir Temur o'z mamlakatini boshqarishda aholini ma'lum ijtimoiy qatlamlarga bo'lganligi qayd etilgan. Ular asosan o'n ikkita guruhga bo'lingan holda o'sha davrdagi omma va xossaning bir-biriga nisbatan yaqqol ko'rsatadi. Bular quyidagi ijtimoiy toifalar:

- sayyidlar, olimlar va shayxlar;
- katta tajribaga ega ilmli kishilar;
- duo kiluvchi taqvodorlar;

- lashkarning sipohlari, sarkarda va amirlari;
- askarlar va xalq ommasi;
- davlat boshqaruv ishlarini ipidan-ignasigacha biladigan maslahatgo'y dono va aqlli kishilar;
- vazirlar, kotiblar, devon boshlig'i;
- tibbiyot ahli, munajjim va muhandislar;
- muhaddislar va muarrixlar;
- tasavvuf vakillari va oriflar;
- hunarmandlar va san'atkorlar;
- ajnabiy sayyohlar va savdogarlar.

Yukoridagi ijtimoiy qatlamlar Amir Temur davlatini ma'muriy-boshqaruv tizimidagi tartiblar bilan aloqador holda uning harbiy-siyosiy xarakterda bo'lganligini ham ko'rsatib turibdi.

Soliq tizimi. Amir Temur va Temuriylar davri tarixiga oid asarlarda soliq tizimining ma'lum meyorga tushirilganligi bayon qilingan. Bu davrda asosiy soliq turi er solig'i – xiroj bo'lgan. Bundan tashqari, tanobona, jon solig'i, ulog', begor amalda bo'lgan. Do'kondor hunarmandlardan tamg'a solig'i olingan. Mahalliy savdogarlar tagjoy, to'laganlar. Zarur holatlarda aholi hasharlarga jalb qilingan.

Er egaligining suyurg'ol – xususiy mulk turi keng tarqalgan.

XV asrda ziroatchilar qanday er mulklarida yashab, ekin ekishlariga qarab xiroj to'laganlar. Ular asosan to'rt turga –

- a) davlat erlarida yashovchi ziroatchilar;
- b) xususiy mulk erlarida yashaydiganlar;
- v) o'z erida yashovchilar;
- g) vaqf erlarida yashovchilarga ajralganlar.

Ilm-fan ravnaqi. Temuriylar davri ma'naviy madaniy hayoti to'g'risida gap borganda, dastavval, ona yurtimizda uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi bo'lgan bu oltin asrda ilm-fanning nechog'lik ravnaq topganligi haqida uning jahon ilmu urfoni taraqqiyotiga qo'shgan bebaho hissasi haqida har qancha g'ururlansak arziydi.

Temur va temuriylar davrida shaharsozlik sohasida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Dabdabali saroylar, hashamatli maqbaralar, masjid va xonaqohlar qurildi.

Temuriylar davri madaniy hayotida Ulukbek davri alohida diqqatga sazovordir. Uning davrida Registon maydonida ulug‘vor madrasa va xonaqo barpo qilindi. Ulug‘bek davrida ilmi nujum (astronomiya, ilmi riyoziyot (matematika), tarix, kimyo va boshqa fanlar rivojlandi. Ulug‘bek madrasasi va rasadxonasi ilmiy hayotda katta rol o‘ynadi. Uning matematika va astronomiya sohasidagi yutuqlari o‘z zamonasi ilmi hayotida yuksak baholangan.

Temuriylar davri tarix sohasida ham yirik asarlar yaratildi. Nizomiddin Shomiy va Sharofiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”lari yozildi. Mirxondning “Ravzat us-safo” (“Jannat bog‘i”), Xondamirning “Habib us-siyar” (“Olijanob xislatlar kitobi”) kabi tarixiy asarlar dunyo yuzini ko‘rdi.

Temuriylar davri madaniy hayotning ko‘tarinkiligi bilan boshqa davrlardan ajralib turadi. Bu davr adabiy hayotida Qutb, Xorazmiy, Sayfi Saroiy, Haydar Xorazmiy, Durbek, Amiriy, Yaqiniy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur kabi shoirlarning o‘rnini alohida qayd etish joizdir.

Temuriylar davri juda ko‘p san‘at turlarining rivojlanishiga keng yo‘l ochib berdi. Jumladan, kitobat va hattotlik san‘ati keng rivojlandi. Miniatyura san‘ati ravnaqini alohida ta‘kidlash mumkin. Taskiralarda musiqa va turli tomosha san‘at turlari haqida ma‘lumotlar bor.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Temur va temuriylar davri ijtimoiy-siyosiy hayotda yuksalish ko‘zga tashlanadi. Bu taraqqiyot Amir Temurning o‘zaro nizolar va porakandalikni tugatib, markazlashgan davlatni barpo qilganligi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Temur Tuzuklari. Xalqaro Amir Temur jamg‘armasi. “Sharq” NMAK. T.: 2005 yil. B-92.
2. Marsel Brion. Men kim, Sohibqiron-Jahongir Temur – T., “Yangi asr avlodi”. 2014. – B. 21-22.
3. Bobir Berdiyev. “Temur tuzuklari”da jamiyat ijtimoiy qatlamlarining aks etishi. Ijtimoiy fikr-inson huquqlari. 2013 yil № 3. B-115.
4. Hamdam Sodiqov. Amir Temur salnatanida xavfsizlik xizmati. T.: “ARTFLEX”. -2010yil. B-9.

TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR SHAXSIYATI VA DAVLAT BOSHQARUVI

T.X.Jumaev,

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti “Ijtimoiy-
gumanitar fanlar” kafedrası mudiri, siyosiy fanlar
boyicha falsafa doktori (PhD)*

Amir Temur o‘zbek davlatchilik tarixida yangi boshqaruv tizimini joriy etib, uni hayotga tadbiq etish orqali mustahkam va kuchli davlatni barpo etdi. Bu nafaqat davlat boshqaruvi jarayonini mustahkamlashda balki, o‘z mamlakatining boshqa davlatlar bilan bo‘lgan turli sohalardagi munosabatida ham yuqori natijalarga erishgani bilan ham izohlash mumkin. Buni biz Amir Temur davrida yashagan tarixchi va shoirlarning yozib qoldirgan asarlari orqali yoki bo‘lmasa, Temur davlati bilan olib borilgan elchilik munosabatlari natijasida elchilar tomonidan yozib qoldirilgan esdalik hujjat va yozishmalarida A. Temur davlati boshqaruvi uning ichki va tashqi siyosat yuritish ishlari shuningdek, mamlakatda olib borilgan ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda amalga oshirgan tadbirlari xususida o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgan yo bo‘lmasa bevosita o‘zlari ishtirok etgan tadbirlardagi real voqea va jaryonlarni qog‘ozga tushirib, ko‘pgina ma'lumotlarni hujjatlarda qayd etishib borishganliklari qayd borganlar. Bu esa bizda A. Temur bobomiz qurgan saltanat va uning boshqaruvi to‘g‘risida yanada xolis va ishonarli manbalarga ega bo‘libgina qolmasdan balki, uni tahlil etish borasida yuqori ilmiy natijalarga erishishda tarixchi olimlarimizga keng yo‘l ochdi. Amir Temur bobomizning shaxsiy hislatlari uning davlat boshqaruvidagi adolatli siyosat yuritishi timsolida ham nomoyon bo‘ldi.

Amir Temur insonni qadrlay oladigan va uni farqlay oladigan ulkan arbob edi. Musulmonchilikda, «eng yaxshi kishining ikki qo‘li ham to‘g‘ri bo‘ladi, u bir qo‘li bilangina emas, ikki qo‘li bilan ham yaxshilik qiladi», degan hikmatli ibora bor. Amir Temur do‘stiga ham, dushmaniga ham ana shunday ikki qo‘li bilan yaxshilik qildi. Qolganlarni ham shunga undadi. «Tuzukot» da ham, tarixiy asarlarning mualliflari ibn Arabshoh,

Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Davlatshoh Samarqandiy asalarida ham, de Klavixo kundaligida ham buni yaqqol ko‘rish mumkin. Fransiya, Angliya, Genuya, Vizantiya, Ispaniya kabi davlatlarning qirollari sohibqiron bilan siyosiy, iqtisodiy, savdo aloqalari o‘rnatishga intilganlar. Shu bois ular sohibqiron huzuriga muntazam elchilar yuborib turganlar. O‘sha davr elchilari tomonidan yozib qoldirilgan esdalik va yozishmalar ham Amir Temur saltanatining ichki va tashqi siyosatini real faktlar asosida ochib berishda muhim manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Amir Temur davlat qudratini mustahkamlash, mamlakatni yuksaltirish borasida boshqa hukmdorlardan farqli o‘laroq, ortirilgan ne‘matlarni jamiyat rivojiga, ma‘naviy yuksak va qudratli davlatni bunyod etish ishlariga sarflaydi. Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»sida keltirilishicha, Amir Temurning olimlar va fuzalolar oldida qilgan nutqida shunday deyiladi: - «Mening maqsadim mamlakatda adolat o‘rnatish, tartib va tinchlikni mustaqkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishga menga o‘z maslahatingiz bilan ko‘maklashishingiz kerak. Mamlakatning ahvoli, oddiy odamlarning joylardagi hokimlar tomonidan bosim ostiga olinishi kabi hollar hammadan ko‘ra sizlarga ayondir. Shular haqida ma'lumot bersangizlar, bu kabi adolatsiz ishlarni bartaraf etuvchi hamda shariat va qonunlarga muvofiq chora-tadbirlarni aytsangizlar yaxshi bo‘lar edi deb ta’kidlagan. Agar oldin bizning diqqat e’tiborimizda o‘zga mamlakatlarni ishg‘ol qilish uchun bo‘lgan harbiy yurishlar turgan bo‘lsa, endilikda mamlakatda xotirjamlik o‘rnatishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bosh vazifamizdir» [1, 53-b] , — deydi. Ushbu fikrlardan xulosa qilish mumkinki, Amir Temur mamlakatda adolat o‘rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqarolarning turmush va farovonligini oshirish, yurtda obodonchilikni kuchaytirishda olimu fuzalolarning, ziyolilarning bilim va tajribalariga asoslangan. U jamiyatning eng ziyoli va hunarmand qatlamini mamlakatni yuksaltirish ishiga safarbar qilishga erishadi. Mashhur muarrixlardan biri Nizomiddin Shomiy o‘zining «Zafarnoma» asarida Amir Temur shaxsiyati xususida shunday yozadi: «... uning adolatiyu

siyosati oʻrnatilgan kunlarda Movarounnahrning eng chekka joylaridagina emas, balki Xoʻtan chegarasidan Dehli va Kanboyit atrofigacha, Bobil Abvobdan to Misr va Rum hududigacha boʻlgan yerlardan savdogarlar u yerda tursin, bolalaru, beva xotinlar ham ipakli matolar, oltin-kumush va eng zarur tijorat mollari keltirardilar va olib ketardilar. Hech bir kimsa ularning bir doniga ham koʻz olaytira olmaydi va bir dirhamiga ham ziyon yetkazmaydi. Bu cheksiz neʼmat va poyonsiz marhamatlar Amir sohibqironning siyosati va adolati natijasidandir»[2, 78-b].

Amir Temurning iqtisodiyot, ayniqsa moliya masalalari bilan chuqur shugʻullanganligi Yevropada arab Monteskesi nomini olgan mashhur iqtisodchi olim Ibn Xaldun tomonidan keng eʼtirof etilgan. Amir Temurning Ibn Xaldunga bergan savollari uning iqtisodiyot ilmi doirasida yuksak teranlik va boy tajribaga ega ekanligini koʻrsatgan.

Amir Temur shaxsiyati va Temur tarixini tanqidiy nuqtai nazardan yoritgan sobiq ittifoq tarixchisi H.Vamberi «Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi» asarida muhim maʼlumotlarni keltiradi. Chunonchi, «Temur saroyi ajnabiy ulamolar va hunarmandlar bilan toʻla boʻlsa-da, mamlakatning rasmiy tili har vaqt turkcha boʻlganligini, hatto moʻgʻul, uygʻur yozuvchi - nasroniylik, buddaviylik, majusiylik davri oʻlaroq - mutaassib musulmonlar tarafidan juda yomon koʻringani holda, muhofaza etildi. Temurning oʻzi tiniq va ochiq turk shevasida yozar edi. Bu yerda zikr qilingan «Tuzukot» fikrimizni isbot etadir. Shundogʻ boʻlsa-da, u oʻz zamonidagi rasmiy muharrirlar va shoirlar bilan uchrashganda, ularning taklif va soʻzlariga qatʼiy quloq solardi...» [3, 56-b] . M.Veber yana shunday taʼriflagan: «Temur qahr-gʻazabi bilan dahshatli edi, shunday boʻlsa-da, u ham odam sifatida, ham hokim sifatida Boyaziddan ustun turardi. Boyazid faqat bosqinchilik haqida oʻylar, boshqa har qanday ishni nazar-pisand qilmas, davlatni boshqarishni oʻzining ochkoʻz hamda buzuqligi bilan mashhur boʻlgan bosh vaziri Ali Poshshoga topshirib qoʻygan, viloyatlarni esa, gʻarazgoʻy, sotqin qozi va hokimlarga berib qoʻygan edi». Temur haqida berilgan bu taʼriflar tanqidiy boʻlsada uning insoniy va boshqaruv hislatalari naqadar yuksak jihatlarga ega ekanligini bilishimiz mumkin.

Yevropalik olim L. Kerenning ta'riflashicha: «Yozganlarimizning hammasi Ulug' amir o'z fuqarolariga ko'rsatgan, aql bovar qilmaydigan ta'sirni izohlash uchun kamlik qiladi; sodda qilib aytganda, u o'z fuqarolarining xo'jasi edi, zero, unda rahbar bo'lishdek tug'ma, ammo aqlga sig'maydigan tabiiy va sinoatli xislat sohibi edi»[4, 170-b] . Degan iboralari naqadar haq ekanligini tarixiy manbalar ham tasdiqlamoqda.

Amir Temur bobomizning saltanat boshqaruvi xususida ko'plab ma'lumotlarni o'zida jamlagan “Temur tuzuklari”ni o'rgangan olimlar uning davlat siyosiy tizimining adolatga asoslangan mohiyatini tarixiy manbalar asosida u yoki bu tarzda yoritib berishga harakat qilganlar. Ayniqsa, mustaqillik yillarida Amir Temur faoliyati va milliy davlatchiligimiz taraqqiyoti bilan bog'liq ko'plab asarlar yaratildi. Shu jihatdan mavjud manbalar ulkan saltanatni boshqarish mahorati va uslublari to'g'risida tegishli xulosalar chiqarish imkonini ham beradi. Ko'plab manbalar qatorida “Temur tuzuklari”da Amir Temur faoliyati va davlat boshqaruvining siyosiy tamoyillari yuksak axloqiy qoidalarga asoslanganligiga guvoh bo'lamiz. Bu borada ibn Arabshohning fikrlari muhim manba sifatida e'tiborlidir. U shunday deydi: “Temur tamg'asining naqshi “rosti-rusti” bo'lib, bu “haqgo'y bo'lsang, najot topasan” demakdir. Uning otlaridagi tamg'a, tangayu tillolariga zarb beriladigan belgi ham, mana shunday uch xalqadan iborat edi. Ko'pincha uning majlisida uyatsiz so'zlar, qon to'kish, asir olish, naqbu g'orat qilish va harom haqorat gaplar bo'lmasdi. Temur qo'rqmas, shijoatli, botir kishilarni itoat qildiruvchan bo'lib, jasoratli kishilarni, dovyurak va mardlarni yoqtirar eli. Ular yordamida daxshatli joylar kulflarini fath etib, odamlar sherlarini o'lja qilar, zarbalari bilan baland tog'lar cho'qqilarini zabt etardi. U bexato (nishonga uruvchi) fikrli, ajoyib farosatli, mislsiz (darajada) baxtli, ulug'vorligi (o'ziga) muvofiq qat'iy jazm etib so'zlovchi, (boshiga) kulfat tushganda ham haqgo'y (kishi) edi” »[5, 123-b]. Agar Ibn Arabshoh aytganlarini tizimlashtiradigan bo'lsak, Sohibqirona hukmdorga xos bo'lgan barcha siyosiy va axloqiy fazilatlarning mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Zamonamizning yirik olimlaridan biri T.Alimardonov o'zining ilmiy izlanishlari doirasida A.Temur bobomiz davlat boshqaruvidagi axloqiy

munosabatlar hamda o'sha davr boshqaruv tizimida siyosiy axloq jarayonlarini o'zining ilmiy izlanishlarida keng va mukammal tarzda ochib berish orqali quyidagi ilmiy asoslarga ega fikrlarni bayon etgan: "Amir Temur davlati rivojiga asos bo'lib xizmat qilgan axloqiy qadriyatlarning boshqaruv tizimiga joriy etilishi va uning samarali yuqori natijalarga olib kelgan siyosiy xususiyatlari nimalardan iborat bo'lganligini anglashga qaratgan jumladan, ulkan saltanatni boshqarishda faqat uning adolatli bo'lganligi kifoya qilganmikan? Agar shunday bo'lsa, adolatni qaror toptirishda u qo'llagan siyosiy vositalarning mohiyati va tashkiliy-tarkibiy xususiyatlari qanday belgilangan? Jamiyatning turli guruhlari, aniqrog'i, hukmron tabaqa manfaatlarini qanday uyg'unlashtira olgan? Xalqning ishonch va e'tiqodini birlashtirgan g'oyaning ma'naviy ta'siri va omillari nimada? Ulkan saltanatni yaratgan qudratli kuchniig salohiyatini bugun biz to'liq yoki yaxlit holda tasavvur eta olyapmizmi?" Ushbu fikrlari orqali Temur bobomizning davlat boshqaruvi borasidagi siyosiy axloq normalarining naqadar o'z davrida katta yutuqlarga olib kelganligini balki, bugungi davr uchun ham dasturul amal bo'lishini ilmiy asarlarida bayon etganlar. Tarixiy manbalardan ma'lumki, Sohibqironning hayotligidayoq u amalga oshirgan siyosiy boshqaruv amallarini ko'plab davlatlar o'rganishga va o'zlashtirishga intilganlar. Amir Temur haqida rivoyatlar, qasidalar, operalar, asarlar yaratilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, manbalar va yozib qoldirilgan tarixiy hujjatlardagi tavsiflar shundan dalolat beradiki, Amir Temur nafaqat hukmdor va sarkarda balki u davlat arbobi, kuchli diplomat hamda diniy va dunyoviy ilmlarga ega bo'lgan shaxs ham bo'lgan. Bobomiz Amir Temur siyosatining insonparvarlik g'oyalari fuqarolarning moddiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish asnosida ma'naviy komilligini yuksaltirishga, vatan, el taqdiri oldidagi mas'ulliklarini o'stirishda, sadoqat, fidoyilik tuyg'ularini uyg'unlashtirishda, eng muhimi yurtga egalik hissini shakllantirishda katta ahamiyatga ega vatanimizning har bir fuqarosi aqlan his qilib yashamog'imiz darkor. Zero, inson hayoti davomida tarixiy xotira va o'tmishdan xulosa chiqarib yashasagina u inson vatanparvar hamda e'tiqodli kishiga aylanadi bu esa kishini u o'z yurtining bunyodkoriga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharafiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma». T.: «Sharq» nash. 1997y. 53 b.
2. Sharafiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma». O‘sha asar 78 b.
3. Vamberi Q. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T.: «G‘ofur Gulom nomidagi Adabiyot va san’at» nashr, 1990y. - 56 b.
4. Keren L. Amir Temur saltanati. T.: «Ma’naviyat», 1999y., - 170 b.
5. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Toshkent. O‘zbekiston, 1996 ., - 123 b.
6. Alimardonov. Amir Temur davlat boshqaruvining siyosiy - axloqiy asoslari.T.:UFMJ.2007. 38 b.

AMIR TEMUR SIYOSATIDA DINIY VA MILLIY BAG‘RIKENGLIK

U.R.Xalmuminov,

Toshkent Kimyo halqaro universiteti “Tarix” kafedrasida

dotsent v.b., PhD

A.I.Ismoilov,

Toshkent Kimyo halqaro universiteti “Tarix”

kafedrasida o‘qituvchisi

O‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixida alohida o‘rin tutgan Amir Temur ma’naviyati va u bunyod etgan qudratli saltanatning salohiyati ko‘p asrlardan beri ibrat namunasi bo‘lib kelmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2018 yil 28 dekabrda parlamentga yo‘llagan Murojaatnomasida «Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak» deb ta’kidlagandi[14]. Darhaqiqat, Amir Temur bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarni tahlil qilar ekanmiz bunga yana bir karra iqror bo‘lamiz.

XIII asrg boshdan to XV boshgacha Markaziy Osiyoda yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy jarayonlar mintaqaning etnik va diniy muhitiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Chingizxonning 1219-1224 yillardagi harbiy yurishlari natijasida zamonasining qudratli davlatlaridan sanalgan xorazmshohlar davlati quladi. Bir paytlar gullab yashnagan mamlakat vayronaga aylandi. Bundan tashqari, istilo natijasida huvullab qolgan hududlarga mo'g'ullar safida bo'lgan ko'plab ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvador qabila va urug'lar kelib joylashdi. Ayrim shaharlar (xususan, Samarqand) aholisi to'rtidan birga qisqarib ketdi [11, 383-b]. Buxoro umuman yetti yil (1273-1280) huvvulab qoldi. Bu holat shu davrgacha shakllangan etnik vaziyatga ham o'zgartirib yubordi. Ayniqsa, 1224 yilda tashkil topgan Chig'atoy ulusidagi siyosiy jarayonlarsilsilasida mintaqaga kirib kelgan turkiy qabilardan tashqari kirib kelgan etnik guruhlar, xususan, mo'g'ul qabilalarining bir qismi turkiylashib, asta-sekin islomdini qila boshladi. Bunda chig'atoyzodalardan bo'lgan Baroqxon (islomiy Sulton G'iyosiddin)ning (1266–1271) ulus poytaxtini Samarqandga ko'chirishi [7, 325-326-b] va Buxoroda islom dinini qabul qilishi [1, 53-b; 2, 201-b], Duvoxon (1274-1306), Kepekxon (1309/1318-1326) va Tarmashirin (islomiy Alouddin) (1326-1334) kabilar olib borgan siyosat [5, 369-375-b]. Movarounnahrda islom dini mavqeini tiklanishga harakatlar edi. Natijada Movarounnahr va Yettisuvning turkiy bo'lmagan ko'chmanchi aholi turkiy tilga o'tib, islom dinini qabul qila boshladi. Bundan tashqari, Movarounnahrda kirib kelgan jaloyir, barlos, qavchin va arlotlarning aksariyati turkiy bo'lib, ularda islomlashish jarayoni yuz berdi. Keyinchalik til jihatdan turkiy bo'lgan barcha qavm, umumiy nom bilan "qoraunos" [9], deb yuritildi.

XIV asr 40-yillaridagi o'zaro kurashlar, Qozonxonning (1343–1346) qatliom siyosati Movarounnahrda etnik va diniy vaziyatga ta'sir etdi. Oqibatda Movarounnahr tub aholisining qo'llab-quvvatlashi bilan viloyatlarning hokimiyatlari turkiy amirlar qo'lga o'ta boshladi. Qoraunos guruhiga mansub amir Qazag'on (1346–1358-yy) Qozonxonni tor-mor etib, hokimiyatga keldi. An'anaga ko'ra, mo'g'ullardan bo'lgan Donishmandcha xon (1346-1348) va Bayonqulixon (1348-1358) xon etib

ko‘tarildi [8, 44-45; 92-b]. Bu ham etnik, ham diniy murosa yo‘li bo‘lib, keyingi turkiy hukmdorlarga tajriba bo‘ldi.

1358 yilda Amir Qazag‘on xalok bo‘lgach, Movarounnahr o‘nga yaqin mustaqil bekliklarga bo‘linib ketdi. Bundan foydalangan Amir Qazag‘onning nabirasi – Amir Qaylonning o‘g‘li amir Xusayn o‘z bobosi hokimiyatini tiklashga kirishdi[8, 51-52-b]. Bu orada Movarounnahrdagi nufuzli barlos amirlaridan bo‘lgan amir Temur hokimiyat ishlariga bosh qo‘sha boshlagan edi. Amir Husayn yuritgan noto‘g‘ri siyosat va hokimiyat boshqaruvidagi xatolar amir Temurni Movarounnahr boshqaruvini o‘z qo‘liga olishga majbur etdi. O‘zaro kurashlardan so‘ng, 1370-yilning 11 aprelida Sayyid Baraka ishtirokidagi qurultoyda amir Temur, Movarounnahr Amiri sifatida rasmiy hokimiyatga keldi. An‘anaga ko‘ra, chig‘atoyzodalardan Suyurg‘otmish o‘g‘lon (1370 –1388) va Mahmud Sulton (1388-1398) va Sotuqxon (1398-1405) xon etib ko‘tarildi[8, 325-326; 7, 51-52; 108-b]. Bu esa Movarounnahrdagi hokimiyatni legitimlashtirish tadbiri edi.

Amir Temur o‘z boshqaruvi jarayonidamintaqa hamda o‘z tasarrufiga olgan hududlardagi diniy va etnik vaziyatni to‘g‘ri baholay oldi. U har bir qabila va elatning, har bir mazhab va din vakilining mavqeiga qarab munosabatda bo‘ldi. Avvaliga o‘z qaramog‘ida bo‘lgan har bir qirq aymoq amirlarini muayyan uluslarga amir etib tayinladi[10, 86-87-b]. Ularning darajasi, nufuzi va xizmatlariga qarab adolatli taqsimot qildi.

Bundan tashqari, Amir Temur o‘z harbiy harakatlari natijasida Movarounnahrga turli yurtlardan ayrim toifa va tabaqa vakillarini ko‘chirib keltirdi. Xususan, 1379 yilda Xorazmdan donishmand, hunarmand va hofoz kishilar Keshga,[8, 130-131-b] 1382-1384 yilda Xurosonning Kalot shahri ahli va maligi G‘iyosiddin farzandlari[13, 100-101-b] hamda 1383-1384 yilda Seyiston maligi Qutbiddin o‘z yaqinlari bilan Samarqandga olib kelindi. Diniy ulamo va solihlari esa Faroh hisoriga joylashtirildi[13, 100-101-b].

Amir Temur uch yillik (1386-1388), besh yillik (1392-1396), Hindistonga qilgan 11 oylik (1398 (may) -1399 (mart)) va yetti yillik (1399-1404) yurishlari natijasida ham Movarounnahrga ba‘zi etnik va diniy guruh vakillari ko‘chirib keltirildi.

1404-yilda esa Iroqdan qoraquyinli turkmanlarning bir qismi Samarqandga ko‘chirildi. Ayrimlari keyinchalik o‘z yurtlariga qaytarildi. Xususan, Samarqandga garov sifatida keltirilgan Luriston maligining birodarlari Afrosiyob va Mas‘udshoh hamda 1388-yilda shu viloyat maligi Izziddinning o‘g‘li Sayyidiy Ahmad ham uch yillik tutqinlikdan so‘ng o‘z yurtiga qaytarildi[8, 179-180; 209-b]. Bu Amir Temur har bir millat va din vakilining manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘yganligini ko‘rsatadi.

Amir Temurning bag‘rikenglik siyosati Kastiliya va Leon qiroli Don Enriko III ning Samarqandaga yuborilgan elchisi Rui Gonsales de Klavixo “Kundaligi”da ham yoritilgan. Unga ko‘ra, Amir Temur Erzinjon hokimi Zaratanning jiyani Shevalini, 1400-1401-yillarda Damashq va uning atrofidagi hunarmand ustalarni, oqquyinli turkmanlarini[14], nasroniy armanilarni Samarqandga keltirgan. Ayrim oqquyinlilar Tehron va Mashhad oralig‘idagi Domg‘onga[4, 97, 124; 136-142-b], qoraquyinlilar esa chorvador bo‘lgani uchun o‘z chorvasi bilan Kichik Osiyodan Yettisuvga ko‘chirilgan[3, 41-b].

Amir Temur islom dinining barcha mazhablari vakillariga alohida hurmat ko‘rsatgan. Samarqandga keltirilgan yirik arboblardan, olimlardan va ulamolardan zzzatda bo‘lgan. Xususan, Sayyid Sharif Jurjoniya (1330-1414) 1387-1405/06 yillarda Samarqanddagi dorush-shifo ochib, unda faoliyat yuritishga imkoniyat yaratib bergan. Amir Temur u bilan suhbatlar qurib, maktublar yozishib turgan. Bundan tashqari, Amir Temur farmoni bilan Mozandaron sayyidlariga Xorazm, Toshkentdan joy qilib berilgan[13, 229; 10, 58-59-b].

Ammo bu davrda Movarounnahrda, nafaqat olim va hunar egalari, balki insonparvarlik nuqtai nazaridan Eron va Xurosonning nochor qismi ham keltirilgan. Klavixoning yozishicha, mo‘g‘ul istilosi davrida xuvullab -qolgan Samarqandga jami ikki yuz ming turli tabaqa vakillari kelib o‘rnashgan. Klavixoning yozishicha, turk, arab, fors, ozori, kurd, armani, yunonlardan iborat qavmlar Samarqand va uning atrofiga joylashgan edi. Bu ,albatta, shaharning etnik qiyofasiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan. Klavixo ma‘lumotiga ko‘ra, Movarounnahr aholisi chig‘atoy turkiysi va forsiyda so‘zlashgan. Chig‘atoylar mashhur bo‘lgani bois, Movarounnahrda

chigʻatoyi boʻlmagan turkiy aholi ham oʻzlarini “chigʻatoyi” deb ataganligini Klavixo alohida qayd etgan[19, 136-137, 142-143, 152-b] .

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur yuritgan etnik va diniy bagʻrikenglik siyosati uning davlatidagi har bir insonning millati va dinidan qatʻiy nazar emin-erkin yashashi uchun gʻamxoʻrlik qilishdan iborat boʻlgan. Bu esa mintaqada milliy va diniy mojarolar kelib chiqishini oldini olgan. Amir Temur yuritgan toʻgʻri siyosat natijasida barcha elat va din vakillari: turku tojik, ajamu arab bir yoqadan bosh chiqarib, yurt iqtisodini tiklash, shahar va qishloqlarni obod qilish uchun xizmatga jalb etilgan. Shu asosda saltanatning, xususan, Movarounnahrning nufuzi va iqtisodini yuksaltirish ishiga hissa qoʻshishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayoziy, Mirzo Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy. Nashrga tayyorlovchi, soʻz boshi, tadbil, izohlar va koʻrsatkichlar muallifi O.H. Jalilov. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2011. – 53-b.

2. Abulgʻozi Bahodirxon. Shajarayi turk. – Toshkent: CHOʻlpon, 1990. – 94-b; Vohidov SH., Qodirov A. Sharqning mashhur sulolalari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 201-b.

3. Boʻriyev O. Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sida Markaziy Osiyo aholisining etnik-hududiy holati haqida maʼlumotlar // OʻzMU xabarlari. 2013. – B. 41; A. Asqarov. Oʻzbek xalqining kelib chiqish tarixi. – T.: Oʻzbekiston, – 472-b.

4. Gonsales, Rui de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406)// masʼul muharrir Muhammad Ali. Coʻzboshi va izohlar muallifi M. Safarov; tarj. O. Togʻayev. – Toshkent: Oʻzbekiston. – 97-, 124- va 136-142-b. (136-137-, 142-143-, 152-b.)

5. Ibn Battuta. Sayohatnoma – “Tuhfat an-nuzzor fi gʻaroib al-amsor va ajoib asfor / Tarj. N. Ibrohimov va b. – Toshkent: Sharq, 2012. – 369-375-b.

6. Klavixo keltirgan oq totorlar (oqquyunli turkmanlar)ning koʻchirilishi tarixiy haqiqatga toʻgʻri kelmaydi. Chunki ular Boyazid Yildirimga qarshi kurashida Amir Temurga ittifoqchi boʻlishgan.

7. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi (“Tarix-i arba’ ulus”). – Toshkent: CHO‘lpon, 1994. –307-312-b. (– 325-326-b)

8. Natanziy, Muiniddin. Muntaxab ut-tavorixi Muiniy (Muiniyning tarixlari tanlanmasi)/ fors tilidan tarj., so‘z boshi va izohlar muallifi G‘. Karimiy; mas‘ul muharrir A. O‘rinboyev. – T.: O‘zbekiston, 2011. – 44-45- va 92-b. B. 51-52. (130-131.) (179-180- va 209-b.)

9. Turk xoqonligi davridagi “qora budun” – “katta xalq” atamasi kabi, “qoraunos”ni – katta sonli aholisi deb talqin qilish mumkin. Chunki bu ittifoq tarkibiga mintaqadagi barcha turkiy qabillar kirgan edi.

10. Temur tuzuklari / forschadan Alixon Sog‘uniy va Habibullo Karomatov tarjimasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. – 86-87-b.

11. Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: Sharq, 2001. – 383- b.

12. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma // So‘z boshi, tadbil, izohlar va ko‘rsatkichlar muallifi va nashrga tayyorlovchilar: A. Ahmad, H. Bobobekov. – Toshkent: Sharq, 1997. –. 87-b. (100-101-b.)

13. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma (fotofaksimil nashr) // Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izoh A. O‘rinboyevniki. – Toshkent, 1972. – 229-b.; Temur tuzuklari / forschadan Alixon Sog‘uniy va Habibullo Karomatov tarjimasi. – 58-59-b.

14. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-oliasy-28-12-2018>

YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA AMIR TEMUR ILMIY VA MA'NAVIY MEROSINING O'RNI

K.T.Islamova,

*Toshkent "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik
litseyi geografiya fani bosh o'qituvchisi*

**“Amir Temir bobomiz bilan hammamiz
faxrlanamiz,
bu ajdodlarimizning g'alabalari, strategiya va
taktikalarini dunyodagi ko'plab harbiy maktab va
akademiyalarda bugun ham ko'plab o'rganishadi”.**

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev.

Amir Temur O'rta, Janubiy va G'arbiy Osiyo, shuningdek, Kavkaz, Povoljya va Rus tarixida muhim o'rin tutgan O'rta Osiyolik turkiy hukmdor, sarkarda va zobit. Sarkarda, poytaxti Samarqand bo'lgan Temuriylar saltanati (1370 yil) asoschisi.

Amir Temur 1336 yil 9 aprel kuni Kesh (Shahrisabz) yaqinidagi Xo'ja Ilg'or (Yakkabog') qishlog'ida tug'ilgan. Rivoyatlarga ko'ra, u qo'lida qip-qizil qon bo'lagi bilan, sochlari esa mo'ysafid kabi oppoq holatda tug'ilgan, bunday holat Chingizxon haqida ham gapirilgan. Uning otasi amir Muhammad Tarag'ay turk avlodining barloslaridan bo'lib, Movarounnahrda o'ziga yarasha obro'-e'tiborga ega, nufuzli ziyolilardan bo'lgan. Uning ota-bobosi afsonaviy turkiy Alan quva shajarasidan kelib chiqqan bo'lib, Chig'atoy ulusining saroydagi obro'-e'tiborli kishilari qatoridan joy olgan. Kesh va Nefes atrofidagi yerlar ularga qarashli mulk hisoblangan.

Temurning otasi Tarag'ay doimiy ravishda xon ulusi bo'lmish II daryosi qirg'og'iga chaqiriluvchi chig'atoy beklari qurultoylarida ishtirok etgan. 1355-yil u Turmush og'a barlosi amir Jakuning qiziga uylanadi.

Movaraunnahrning bosh amiri Qozag'on Amir Temurning qobiliyatlariga ishonch hosil qilib, shu yiliyoq unga nevarasi Uljay Turkan og'ani nikohlab beradi. Ushbu nikoh sharofati bilan Qazog'onning nevarasi amir Husayn va Amir Temurlar ittifoqi vujudga keladi. Bu ittifoq mo'g'ullarga qarshi kurashda juda qo'l keladi. 1356 yil Amir Temurning 2 o'g'li dunyoga keladi — Jahongir va Umar Shayh.

XIII asr boshi XIV asr oxirlariga kelib Movaraunnahrning iqtisodiy ahvoli kundan-kunga yomonlashib boradi. Bundan Mo'g'uliston xoni Tug'luq Temur foydalanib qoladi va hech qanday qarshiliksiz Qashqadaryogacha yetib boradi. Amir Temur unga xizmat qilishni boshlaydi. Biroq, Tug'luq Temur Movaraunnahr hukmdori etib o'zining o'g'li Ilyos Xodjani tayinlaydi va Amir Temur shahzodaga xizmat qilishdan bosh tortib, Balx hukmdori amir Husayn bilan birlashib olib, mo'g'ullar bilan qat'iy jangga kirishadi.

Bu vaqtda Samarqandda sarbadorlar - “dorga osiluvchilar”, shuningdek, mo'g'ullarga qarshi kurashuvchilar hukmron surgan. Mazkur xalq harakatining “Yoki ozodlik uchun kurash, yoki dorga osilgan kalla” shiori ham uning ishtirokchilari tomonidan yaratilgan. 1370 yil Amir Temur Balxda bo'lib o'tgan qurultoyda Turonning bosh amiri etib e'lon qilinadi.

Chingizning qizi Saroy Mulk Xonim bilan nikohi esa Amir Temurga “gurgan”, ya'ni “xonning kuyovi” faxriy unvonini berdi.

Amir Temurning asosiy vazifasi parchalangan davlatga bardosh berish va alohida yerlarni bir davlatga birlashtirishdan iborat bo'lgan. Mazkur davlatning poytaxti etib u Samarqandni tayinlab, tezkorlik ila shaharning himoya devorlarini, qo'rg'onlar va saroylarni barpo etishni boshlaydi.

Amir Temur Amudaryo va Sirdaryo orasidagi yerlarni, shuningdek, Farg'ona va Shosh viloyatlarini o'ziga bo'ysundirib, birlashtiradi, so'ngra bosqinchilik yurishlarini boshlaydi.

Amir Temur hukmronligi 35 yil davom etgan (1370-1405). U Ind va Gangdan Sirdaryo va Zarafshongacha, Tyan Shandan Bosforgacha bo'lgan katta saltanatni yaratgan. Hayotining katta qismini yurishlarda o'tkazgan.

Amir Temur 1405 yil Xitoyga yurishi vaqtida O'tror shahrida vafot etgan.

Amir Temurning hayotlik vaqtida davlat boshqaruvi haqida soʻzlovchi “Temur tuziklari” nomli maxsus asar yozilgan. Asar ikki qismdan iborat boʻlib, Oʻrta asrning bebaho tarixiy manbasi hisoblanadi. Unda Temurning hayotiy voqealari bilan bogʻliq tarjimai xoli, atoqli davlat arbobi va sarkardaning harbiy sanʼatga boʻlgan nuqtai nazari, davlat tuzilishi va boshqaruvi kabilar bayon qilingan. Amir Temur tomonidan yaratilgan markazlashgan, kuchli boshqaruvga ega davlat ushbu bebaho qoidalar majmuasi hisoblanmish kitob asosida yaratilgan.

Yirik davlatni yaratib, Amir Temur mamlakatning iqtisodiy va madaniy rivoji uchun sharoitlarni tayyorlagan. Oʻtgan davrlarning qadimiy anʼanalari yangi tarixiy koʻrinishda qayta tiklanadi. Yaqin va Oʻrta sharq boʻylab Movaraunnahr savdo-sotiq, iqtisod va madaniyat markaziga aylanishi zamirida, Samarqand, Kesh, Buxoro, Termiz, Toshkent, Marv va boshqa qadimiy shaharlar obodonlasha boshlagan.

Masjid, madrasa, maqbara, karvon-saroy va hammomlarning katta binolari qad rostlay boshlagan. Har qanday gʻalaba meʼmorchilikda abadiylashishi odatiy holatga aylanib qolgan. Quruvchilik faoliyatida Amir Temur maʼlum bir siyosiy maqsadlarga amal qilgan - u qurdirgan inshootlar saltanatining kuch-qudratini koʻrsatib bera olishi kerak boʻlgan.

Boshqaruv yillari davomida Amir Temur feodal tarqoqlikka barham beradi, Fransiya, Angliya, Kastiliya kabi yirik Ovrupa qirolliklari bilan savdo-diplomatik aloqalarni yoʻlga qoʻyadi. Afsuski, Amir Temurning vafotidan soʻng Gʻarbiy Ovrupa bilan savdo-diplomatik aloqalar nihoyasiga yetadi.

Amir Temur tarix sahifalarida Aleksandr Makedonskiy, Dariy Perviy, Yuliy Sezar kabi yirik sarkardalar bilan bir qatorda turadi.

Amir Temur — insoniyat tarixidagi eng qatʼiyatli shaxslardan biridir. Turli manbalarga tayangan holda, u haqidagi bilimlarimizda ham hukmdor, zobit, sarkarda, ham jangchi sifatida gavdalanadi.

Amir Temur buyuk davlat arbobi va yuksak maʼnaviyatga ega boʻlgan dono hukmdor boʻlib, ham siyosiy, ham maʼnaviy jihatdan juda katta tarixiy ahamiyatga egadir. Zero:

1. Amir Temur XIV asrdayoq mamlakat va mintaqalararo munosabatlarni chuqurlashtirib, yagona iqtisodiy makonga birlashtirishga

harakat qildi. Integratsiyani ishlab chiqib, Buyuk Ipak yo'li o'tgan mamlakatlar o'rtasida madaniyatlar muloqotini boshlab berdi.

2. Amir Temur davlat tizimi va boshqaruvni tashkil etishda o'ziga xos maktab yaratdi, adolatli jamiyat qaror toptirishda qonun ustuvorligiga rioya qilindi.

3. Amir Temur davlatchilik tamoyillarini rivojlantirdi, uni aql-idrok salohiyatiga tayanib, taktik va strategik asosda shakllantirdi;

4. Amir Temur saltanati ma'naviyat va oliy darajadagi madaniyatga yo'g'rilgan saltanat edi.

Amir Temur - buyuk shaxs, kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, talantli me'mor, notiq, ruhshunos, shu bilan birga el-yurtini, xalqini sevgan va uni mashhuri jahon qilgan inson.

Amir Temur zamonida yozilgan asarlarni qunt bilan o'qisak, o'rgansak, uning ko'p yaxshi xislatlari: to'g'rilik, muruvvatlilik, el-yurtga mehr-muhabbat va boshqalarni bilib olishimiz mumkin. Amir Temurning «Temur tuzuklari», Nizomiddin Shomiy, Sharofiddin Ali Yazdiylarning «Zafarnoma»lari, Ibn Arabshohning «Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari» va boshqa asarlarda keltirilgan sohibqironning ibratli ishlari, pand-nasihatlari va o'gitlaridan ham uning kimligini bilib olsa bo'ladi. Bular el-yurt va fuqarolarning tashvishi, raiyatparvarlik, mehr-muruvvat, qo'shnichilikka rioya qilish va nihoyat, mardlik va qahramonlik haqidagi o'gitlardir.

Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyos. Amir Temur va uning avlodlari sa'yi-harakatlari bilan qurilgan madrasalar, masjidlar, xanoqohlar, saroylar, bozorlar, qal'alar, kanallar va boshqa inshootlarning son-sanog'i yo'q. Amir Temurning bevosita rahnamoligida bunyod etilgan Bibixonim jome masjidi, Go'ri Amir, Ahmad Yassaviy, Zangi Ota maqbaralari, Oqsaroy va Shohi Zinda me'moriy mo'jizalari, Bog'i Chinor, Bog'i Dilkusho, Bog'i Behisht, Bog'i Baland singari o'nlab go'zal saroy-bog'lar va shu kabi boshqa inshootlar shular jumlasiga kiradi.

Tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiyning guvohlik berishicha, Amir Temur «Obodonlikka yaraydigan biror qarich yerning ham zoye bo'lishini ravo ko'rmasdi».

Temurning quyidagi soʻzlari asrlar osha xalqimizning asl farzandlarini el-yurt, Vatan haqida qaygʻurishga chorlab keldi:

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri ilm-fan, maʼrifat, maʼnaviyat va madaniyati jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa boʻlib qoʻshildi. Bunda ulugʻ bobomiz, davlat arbobi, sarkarda sohibqiron Amir Temurning xizmatlari beqiyos va benazirdir. Buni hammamiz toʻgʻri anglamogʻingiz lozim, ul ulugʻ zot ila faxrlanishimiz barchamizning burchimiz.

Temurning quyidagi soʻzlari asrlar osha xalqimizning asl farzandlarini el-yurt, Vatan haqida qaygʻurishga chorlab keldi;

«Millatning dardlariga darmon boʻlmoq vazifangizdir. Zaiflarni koʻring, yoʻqsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz boʻlsin». Bu jummalarda Amir Temur maʼnaviyati jamul-jam boʻlgan boʻlsa ne ajab.

Bugun jahonning ellikdan ortiq mamlakatlarida temurshunos olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Temur va Temuriylar davriga bagʻishlangan koʻplab kitoblar chop etilmoqda. Oʻtgan olti yuz mobaynida Yevropa tillarida Amir Temirga bagʻishlab yozilgan salmoqli asarlarning soni 500 ta, sharq tillarida esa 900 dan oshdi.

Sohibqiron Amir Temirning boy ilmiy va maʼnaviy merosi yosh avlodni tarbiyalashda yana uzoq yillar dastiril amal boʻlib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nizomiddin Shomiy, “Zafarnoma”:, Toshkent 1996.
2. Muhammadjonov A., “Temur va Temuriylar saltanati” (Tarixiy ocherk), Toshkent 1994.
3. Axmedov B. “Sohibqiron Temur” (Hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati), Toshkent 1996.

AMIR TEMUR ZAMONAVIY SOLIQ TAMOYILLARI ASOSCHISI

*A.X.Xudayorov,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti "Ijtimoiy-
gumanitar fanlar kafedrası" dotsenti, tarix fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Mustaqillik tufayli milliy davlatchilik tarixi asoslarining o'rganilishiga keng imkoniyatlari yaratildiki, bu bugungi rivojlanish istiqbol maqsadlarimizni yanada oydinlashtirishga xizmat qilmoqda.

Xususan, muhtaram Prezidentimizning adolatparvar demokratik jamiyat qurish to'g'risidagi g'oyalari sharq madaniy merosi bilan hamohang keladi. Adolat barcha ijtimoiy munosabatlarimizning asosini tashkil etmoqda. Shu ma'noda ulkan va qudratli davlat bunyod etgan Amir Temur bobomizning merosi bugunda ham muhim ahamiyat kasb etishini e'tirof etmoq joizdir.

Ayniqsa, davlatchilikning asoslaridan biri bo'lgan soliq yig'implari Yevropada paydo bo'lishidan ancha ilgari - buyuk Amir Temur davrlarida joriy qilingan edi.

XVIII asrda yashab, ijod etgan ingliz iqtisodchisi Adam Smitning asarida keltirilgan 41 ta tamoyilning uch-to'rt asr avval Amir Temur tomonidan bashorat qilinganini isbotlaydigan manbalar va dalillar bor.

Birinchi tamoyil - soliq solish va undirishda adolatparvarlik tamoyilidir. Bu tamoyil soliqqa tortishning ommaviy bo'lishini, soliqlarning fuqaro daromadlariga qarab taqsimlanishini ifoda etadi.

Ikkinchi tamoyil - aniqlik tamoyili. Unga binoan soliq to'lovchiga uning hisoblash usuli, to'lash vaqti oldindan ma'lum bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi.

Uchinchi tamoyil - soliq va soliqqa jalb qilish manfaatlarining aholiga qulayligi, soliq fuqarolar uchun qulay vaqt va usulda undirilishi kerakligi haqidadir.

Toʻrtinchi tamoyil - soliqlarni muttasil takomillashtirib, uning tizimiga oʻzgartirishlar kiritilishi va soliq toʻplash xarajatlari mut-tasil kamayib borishi zarurligi belgilangan.

Bugungi kunda jahon davlatlari soliq tizi-mining nazariy asosiga aylangan ushbu tamoyillar Amir Temur davlat soliq siyosatining tarkibiy qismi hisoblangan [1, 53 b].

Amir Temur davlat boshqaruvida soliq va moliya tizimi oʻzining muhimligi bilan boshqa muammolardan ajralib turar edi. Moliya davlat pul resurslarining markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan fondlarini vujudga keltirish, taqsimlash va qayta taqsimlash, ulardan foydalanishdagi iqtisodiy munosabatlarni ifoda qiladi. Bu davrda pul munosabatlari yetarli rivojlanmaganligi sababli natura holdagi davlat resurslarining harakati ham Temurning diqqat markazida boʻlgan.

Amir Temur avvalo, davlat moliyasining moʻgʻul va boshqa bosqinchilarga qaramligini uzil kesil tugatdi. Ulkan davlatning mustaqil davlat moliyasini yaratdi va uni muttasil takomillashtirib bordi.

Markazlashtirilgan davlat tarkibiga kirgan barcha mamlakatlar moliyasini bir tizimga birlashtirdi va ularni maʼmuriy boshqarish talablari asosida idora qilish usullarini joriy etdi.

Shu bilan birga soliq tizimida ham bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Bunda har bir mamlakat va aholining xususiyatlarini eʼtiborga olib, qator imtiyozlar joriy qildi. Davlat xazinasini resurslari va mahalliy ulus hamda tumanlar ixtiyoridagi mablagʻlar tarkibiga aniqlik kiritdi, ularning markaz bilan moliyaviy munosabatlarini takomillashtirdi.

«Temur tuzuklari»da har qanday jamiyat uchun iqtisodiyot ustuvorligi ifodalaniib, quyidagi xulosa berilgan. «...davlatu saltanat uch narsa bilan: mulk, xazina va lashkar bilan tirikdir. Dono vazir bularning har uchalasini yaxshi ahvolda saranjom tutadi» [2, 256 b]. Bu xulosa koʻproq xazinaga taalluqlidir, chunki oʻzbek davlatchiligining Amir Temurgacha boʻlgan tarixida qadim zamonlardan beri xazinani idora qilishda Saljuqiylar sulolasining mashhur vaziri Nizomilmulkning «Siyosatnoma»sida tushuntirib berilgan tartibot saqlanar edi[3, 57 b].

Amir Temur soliqlarni davlat xazinasini kerakli moddiy resurslar bilan taʼminlovchi asosiy vosita sifatida qarash bilan birga soliqlarni davlat

boshqaruvini amalga oshiruvchi va iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida ham koʻrgan edi hamda bu borada bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Soliq sohadagi islohatlarni umumiy tarzda quyidagicha ifodalash mumkin.

Birinchi, Amir Temur jahon tarixida birinchilardan boʻlib davlat, xalq va sipoh oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni hamda munosabatni toʻgʻri anglab yetgan. Buni biz uning quyidagi fikrlardan bilshimiz mumkin. «...raiyatdan mol-xiroj yigʻishda ularni ogʻir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qoʻyishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish davlat xazinasining kambagʻallashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa, sipoxning kamayib ketishiga sabab boʻladi. Sipoxning tarqoqligi, oʻz navbatida saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi»[4, 122 b].

Ikkinchi, Amir Temur davrida soliqlarni tartibga soluvchi qonun-qoidalari yaxlit holga keltiriladi. Bu tartib qoidalar «Temur tuzuklari» asosida kafolatlab qoʻyilgan.

Uchinchi, soliqlardan faqatgina davlat xazinasini boyitish emas, balki davlat boshqaruvi va xalq manfaati uchun ham keng foydalanila boshlaydi.

Toʻrtinchi, soliqqa tortishda soliqlarning ragʻbatlantiruvchi funksiyasidan foydalangan holda bir qator soliq imtiyozlari joriy etiladi.

Beshinchi, soliq yigʻuvchilarning oʻzboshimchaligiga chek qoʻyishga imkon qadar harakat qilinadi.

Bu xususiyatlar esa oʻrta asr hukmdorlarining oʻzboshimchalik bilan davlat xazinasini oʻzlashtirish va oʻz manfaati yoʻlida turli ishlarni amalga oshirayotgan bir davrda soliqlarga nisbatan butunlay yangicha qarash edi.

Amir Temur soliq aparatini tashkil etishga ham eʼtibor berdi. Okruglar, viloyatlar va mamlakatning bir qismi ularning ilgarigi sohiblariga yohud oʻzining amirlari, oʻgʻil va nabiralariga suyurgʻol qilib, yaʼni axolisidan davlat soliqlari va oʻlponlarini undirish huquqi bilan umrbod egalik qilish va boshqarish huquqi berildi. Soliq yigʻimlarini butunlay yoki qisman suyurgʻol egalari amalga oshirishgan. Bu bir tomondan soliq yigʻimini samarali tarzda amalga oshirish uchun imkon yaratgan boʻlsa, ikkinchi tomondan Amir Temur tomonidan barpo etilgan

ulkan markazlashgan mamlakatda soliq yig'imlarini amalga oshirish nihoyatda qiyin kechganligi va ayniqsa, bunda "Temur tuzuklari"da bayon etilgan tartib qoidalarga asosan olib borish murakkabligidan kelib chiqqan edi.

Shuning uchun ham Sohibqiron tomonidan har bir ulusga soliq va boj to'lovlarini nazorat qilib boruvchi vazir lavozimi taynlaydi. Bu boradagi adolatsizlik uchun suyurg'ol egasi va vazir lavozimidagi shaxs javobgar qilib belgilangan[5, 125 b].

O'z faoliyatining so'ngi yillarida Amir Temur butun mamlakat bo'yicha yagona soliq tizimi bo'lishi mumkin emas degan xulosaga keladi. Albatta, islom diniga katta e'tiqod qo'ygani uchun u shariyat tavsiyalari tarafdori edi.

Movarounnaxrda soliq tizimi Temur tomonidan belgilangan qonunlar bo'yicha shakllandi. Biroq, soliqqa tortishning tarixan shakllangan tizimlariga ega bo'lgan mamlakatlarda Temur avval hukm surgan soliqlarni qoldirishga harakat qildi. Shuning uchun ham biror hududni o'z davlatiga qushib olganda yangidan-yangi soliq turlarini joriy qilmaydi. «Agar,- deb yozgan edi,- tuzuklarda,- yerlik fuqaro azaldan berib kelgan xiroj miqdoriga rozi bo'lsa, ularning roziligi bilan ish ko'rsinlar, aks holda (xirojni) tuzuklarga muvofiq yig'sinlar». Bu o'z navbatida bir tomondan, usha hududni boshqarishga yengillik yaratsa, ikkinchi tomondan bu borada oldindan mavjud bo'lgan kamchilikni bartaraf etishga ko'mak bergan. Shuningdek, bu tadbir tuzuklardagi soliq to'lovchilar soliqni «yaxshi so'z bilan olsinlar, kaltak, arqon ishlatib, ishni urush va so'kishgacha olib bormasinlar, ularni bandi etib, zanjir bilan bog'lamasinlar»[6, 124 b] - deb ko'rsatilgan holatning oldini olishga xizmat qilgan.

Sohibqironning fikricha, qonunni ishlab chiqishda, – avvalo xalqning manfaatlarini hisobga olish, uning to'lovga qobilligidan kelib chiqish zarur, asos qilib har bir alohida xo'jalikda boy-badavlatlikning erishilgan natijasi olinishi kerak.

Amir Temurgacha soliq yig'uvchilarning ish haqi soliq to'lovchilar hisobiga bo'lib, ular qonunda ko'zda tutilmagan soliqlarni undirishga ham harakat qilar edilar. Temur soliq to'lovchilar, yasaulboshilarga xalqning ustiga yuk bo'lib yashashlariga yo'l qo'ymasdan, ularga maosh tayinlash

bilan birga bu borada qonuniy cheklovlarni ham oʻrnatadi. Bu haqda tuzuklarda shunday deyiladi –«Yana buyurdimki, agar (har yer va aholining) amaldorlari va kalontarlari oddiy fuqaroga jabr-zulm qilsa va shu yoʻl orqali bechoraga zarar yetkizgan boʻlsa, (bunday vaqtlarda) yetkazilgan zararni kalontardan oʻndirib, jabr koʻrganga bersinlar, toki ular yana oʻz hollariga kelsinlar» [7, 124 b] bu esa anʻanaviy tarzda davom etib kelayotgan soliq sohasidagi oʻzboshimchalikka chak qoʻyishga xizmat qilgan.

Temur davrida asosiy soliqlar yer soligʻi (xiroj, mol deyilgan), juzya, miniladigan hayvonlar yetkazib berish (uloq), tamgʻa (xunarmandlardan va savdogarlardan olingan) va baʻzi boshqa favqulotda soliqlar (avarizod) edi.

Xullas, Amir Temur oʻzbek davlatchiligida soliq tizimi sohasida ilgʻor yoʻnalishlar va usullarni joriy qildi. Temurning soliq siyosati iqtisodiy strategiyaning tarkibiy qismi sifatida markazlashgan yirik saltanatni barpo qilish va mustahkamlashda ahamiyatga ega boʻldi. Shu bilan birga soliq va boj sohasida bir qancha sifat oʻzgarishlari sodir boʻldi.

Bular mamlakatning iqtisodiy va madaniy jihatdan mustahkamlanishiga, uning xalqaro mavqeining oshishiga faol taʻsir koʻrsatdi.

Amir Temurning iqtisodiyot, ayniqsa moliya masalalari bilan chuqur shugʻullanganligi Yevropada arab Monteskesi nomini olgan mashhur iqtisodchi olim Ibn Xaldun tomonidan keng eʼtirof etilgan. Amir Temurning Ibn Xaldunga bergan savollari uning iqtisodiyot ilmi doirasida yuksak teranlik va boy tajribaga ega ekanligini koʻrsatgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Amir Temur tomonidan olib borilgan adolatli soliq siyosati xalq turmushining ogʻirlashishiga qaratilmagan boʻlib aksincha, bu siyosat aksincha mamlakat rivojiga katta taʻsir koʻrsatgan. Ikkinchi tomondan esa boj siyosati va tashqi savdoga boʻlgan eʼtibor tufayli har tomonlama xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar kuchayib karvonlar qatnovi yoʻlga qoʻyilgan hamda mamlakatda xorijiy savdogarlarning xavfsizligini taʻminlash natijasida xorijdan keltiriladigan maxsulotlarning tan narxining arzonlashishini taʻminlagan. Bu esa oʻz navbatida xalq farovonligi va turmush tarzining yaxshilanishiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.Alimardonov. Amir Temur davlat boshqaruvining siyosiy-ahloqiy asoslari. T : “O‘zbekiston Faylasuvlar milliy jamiyati ” 2007y. 53 b
2. Temur tuzuklari. G‘afur G‘ulom T:1996 y. 120 b
3. Nizomulmulk. Siyosatnoma (Siyar-ul-muluk). -T.: Yangi asr avlodi”, 2008. 57 b
4. Temur tuzuklari. G‘afur G‘ulom T:1996 y. 122 b.
5. Temur tuzuklari. G‘afur G‘ulom T:1996 y. 100 b.. 125 b.
6. Temur tuzuklari. G‘afur G‘ulom T:1996 y. 124 b.
7. Temur tuzuklari. G‘afur G‘ulom T:1996 y. 100 b. 124 b.

AMIR TEMUR VA YOSHLAR TARBIYASI

M.E.Xujamov,

Nizomiy nomidagi TDPU dotsent v.b.

O‘zbekistonning uzoq-yaqin o‘zoq-yaqin o‘tmishiga nazar soladigan bo‘lsak, ko‘plab buyuk siymolar – allomalar, davlat arboblari, qahramonlar yetishib chiqqanligiga, ularning shon-shuhrati va dovrug‘i dunyo bo‘ylab keng yoyilganligiga iqror bo‘lamiz. Quvonarlisi shuki, shu singari yashab o‘tgan ulug‘larimiz tarixi dunyoning ko‘plab xalqlari tomonidan o‘rganib boriladi.

Masalan, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Muso al Xorazmiy, Imom Al Buxoriy, Moturidiy, Zamahshariy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi kabi ko‘plab ulug‘ zotlar o‘zlarining olib borgan qahramonona hayot tarzi, ilmiy-ijodiy faoliyatlari bilan dunyo ahlini lol qoldirgan bo‘lib, shu bois ham ularning tarixini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bomoqda.

Ularning qatorida Sohibqiron Amir Temur ham o‘zining sermahsul hayotiy faoliyati bilan ajralib turadi. Ayniqsa, uning davlatchilikni tashkil etishdagi faoliyati va qarashlari, olib borgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-bunyodkorlik ishlari, avlodlarga qoldirgan pandu-o‘gitlari asrlar

osha o‘z ahamiyatini yo‘qotmay, tadqiqotchilar va o‘quvchilar tomonidan keng o‘rganib kelinmoqda. Bularning barchasi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Sohibqiron Amir Temurning hayoti va faoliyatidagi o‘ziga xos muhim qirralar asrlar davomida avlodlar uchun ibrat maktabi bo‘lib qolgani bois u haqidagi bor haqiqatlarni muntazam o‘rganib borishni davrning o‘zi taqozo etmoqda.

1996 yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan bu masalaga alohida tayyorgarlik ishlari mamlakatimizda keng yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlab o‘tganlaridek, "... bizning tariximizda Amir Temurdek ulug‘ siymo bor ekan, uning qoldirgan merosi, pandu o‘g‘itlari bugungi hayotimizga hamohang ekan, oldimzda turgan bugungi muammolarni yechishda bizga qo‘l kelayotgan ekan, bizning bu merosni o‘rganmasdan, ta’riflamasdan, targ‘ibot qilmasdan haqqimiz yo‘q".¹ Yana: "Amir Temur – xalqimiz dahosining timsoli, ma’naviy qudratimiz ramzidir".²

O‘zbekiston mustaqilligi yillarida Amir Temur tarixini atroflicha o‘rganishga kirishilib, bu borada davlatimiz va xalqaro miqyosda ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Xalqimizga, ayniqsa, yoshlarimizni Temur va Temuriylar davri ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti bilan tanishtirishga muhim e’tibor qaratildi.

Bunga misol keltiradigant bo‘lsak, Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 29 dekabrda "Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to‘g‘risida"gi qarori, 1995 yil 26 dekabrda esa O‘zbekiston Birinchi Prezidentining 1996 yilni "Amir Temur yili deb e’lon qilish to‘g‘risida" farmoni qabul qilindi. 1996 yil martida "Temuriylar tarixi" davlat muzeyini tashkil qilish xususida, "Amir Temur" ordenini ta’sis etish to‘g‘risida farmon chiqdi.

Xalqaro YunESKO tashkiloti qarori asosida Amir Temur tavalludining 660 yilligi butun dunyoda keng nishonlandi. 1996 yil aprel oyida shu tashkilotning Parijdagi bosh qarorgohida "Temuriylar davrida

¹ Karimov I.A., Amir Temur haqida so‘z, Toshkent, "O‘zbekiston", 1996 y. 60-b.

² O‘sha manba, 25-b.

fan, madaniyat va ta'lim ravnaqi" mavzuida ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi. Bularing barchasi Sohibqiron tarixini kengroq o'rganish sari qo'yilgan katta qadamlar bo'ldi.

Amir Temurning bolalik davriga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, Temurbek (to'liq ismi Amir Temur ibn Tarag'ay ibn Amir Barqul) 1336 yil 9 aprelda Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahri yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tavallud topdi. Yoshlik chog'idanoq maxsus murabbiylar nazoratida chavondozlik, ovchilik, kamondan nishonga o'q uzish, harbiy mashq va o'yinlar bilan mashg'ul bo'lgan.¹

Tarixiy manbalarda keltirilishicha Amir Temurning ilk o'qituvchisi Mulla Alibek bo'lgan, keyin esa unga Shayx Shamsuddin ismli olim ustozlik qilgan.² Uning xotirasi kuchli bo'lib, "fors, arab, turk tillarini o'zlashtirgan"i, "Qur'oni Karimni yod olganligi"³ ham uning zakovati yuqori bo'lganidan dalolat berar edi.

Temurbekdagi rostgo'ylik va qat'iylik, shijoat va ishonch, tadbirkorlik va oqibatlilik, uzoqni ko'ra olish kabi yorqin fazilatlar birin-ketin ko'plab sadoqatli do'stlar va safdoshlarni orttirishga, pirovard natijada esa o'z oldiga qo'ygan ulug' maqsadlarni amalga oshirishda asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Sohibqiron Amir Temurning hayoti shonli g'alaba, zafarlarga boy bo'lgan. Temurbekning Movarounnahr taxtini egallashidan avvalroq, hali 30 yoshlardayoq (1366 yil) Qarshi qal'asini olish uchun 243 nafar botir yigitlari bilan 12000 nafar Amir Muso boshliq qo'shinga qarshi o'ta puxta o'ylab amalga oshirgan harbiy taktikasi uni raqib ustidan tengsiz g'alaba qozonishga muyassar etganligi manbalarda qayd etilgan.⁴

Amir Temur 1370 yili hokimiyat tepasiga kelgach, atrof-hududlarni yagona markazga birlashtirishga kirishdi va qo'shni davlatlar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni bartaraf etish zarur ekanligini anglagan holda siyosat olib bordi. Chunki u o'zi orzu qilganidek mustahkam, kuchli davlatni barpo etish, ya'ni, iqtisodiy hayotni, ilm-fan, madaniyat, shaharsozlikni yuqori darajada rivoj toptirishning asosiy sharti

¹ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 1-qism, T., "O'zbekiston ME", T., 2000 y. 274-b.

² Juzjoniy A.Sh. Amir Temur davlatida qonun ustuvorligi. Amir Temur saboqlari, №3, T., "Sharq", 2001 y. 16-b.

³ Abdullo A. Amir Temur va islom. "Amir Temur va uning jahon tarixida tutgan o'rni" mavzusidagi xalqaro konferensiya tezislari, T., "O'zbekiston", 1996 y. 63-b.

⁴ Yazdiy Sh. "Zafarnoma", T., 1997 y. 48-b.; "Temur tuzuklari", T., 2005 y. 41-b.

- hududdagi tinchlik va barqarorlik bilan bog‘liq ekanligini anglab yetar edi.

Amir Temurning 1391, 1395 yillarda To‘xtamishxonga qarshi, 1402 yil Turkiya sultoni Boyazid Yeldiringa qarshi g‘alaba bilan yakun topgan harbiy yurishlari ko‘pgina Yevropa davlatlari, shuningdek Rossiya taqdirida muhim rol o‘ynadi.¹

Dunyoning ko‘pgina tadqiqotchilari qatorida fransuz olimlari Jerar Volter va Marsel Brionlar Amir Temurni “XV asrning taqdirini hal qilgan buyuk inson”, - deya e‘tirof etganlar.²

Amir Temurning dunyo bo‘yicha yashab o‘tgan ko‘pgina mashhur hukmdorlardan farqli jihatlaridan biri nafaqat Movarounnahrda, balki tuzgan buyuk saltanat tasarrufiga kirgan keng hududlarda ham tartib-intizom o‘rnatib, obodonchilik, bunyodkorlik ishlariga ahamiyat qaratganligidir. Bunga misol tariqsida qayd etadigan bo‘lsak, 1381 yili Xurosondagi Murg‘ob daryosidan sug‘orish kanali qazdirdi va Marv vohasini obodonlashtirish to‘g‘risida farmon e‘lon qilgan. 1401 yilda esa Kavkazning Baylakon degan joyida Araks daryosidan chiquvuchi mashhur Barlos kanalini qurdiradi. Shuningdek, Mashhad, Qobul, Hirot kabi boshqa shahar, vohalarda ham shu singari yirik ishlari amalga oshirdi.

Sohibqiron uzoq-yaqin davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatishga katta e‘tibor qaratgan. Bu borada tajribasi ham kuchli edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev bu haqda to‘xtalar ekanlar, quyidagilarni qayd etgan edilar: “... Amir Temur bobomiz va temuriylar saltanatini oladigan bo‘lsak, ushbu sulola hukmronlik qilgan yillarda o‘lkamizda diplomatik munosabatlar naqadar yuksak darajaga ko‘tarilganligiga guvoh bo‘lamiz”.³

Amir Temur ayniqsa, Movarounnahrni har tomonlama yuksaltitishga katta e‘tiborini qaratdi. Me‘morchilik, san‘at sohalarida amalga oshirgan ko‘pgina ishlari unga katta shon-shuhrat keltirdi. Masalan, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Samarqanddagi Go‘ri Amir maqbarasi, Bibixonim Jom‘e masjid, Shohizinda majmuasi kabi me‘moriy yodgorliklar insoniyat

¹ Ahmedov B. Amir Temurni yod etib, T., "Fan", 1996 y. 87-b.

² Ibrohimov H. Sohibqironni anglash. T., "Fan va texnologiya", 2014 y. 4-b.

³ Mirziyoev Shavkat, Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-kitob, T., "O‘zbekiston", 2018 y. 282-b.

tafakkuri va san'atining noyob durdonalari sifatida YunESKO ro'yxatiga kiritilgan.

Oqsaroyning peshtoqiga Sohibqiron tomonidan: "Agar bizning kuch-qudratimizga shubha qilsangiz qurdirgan binolarimizga boqing!" kabi so'zlar yozdirilgan bo'lib, u Sohibqiron bunyodkorlik faoliyatining mohiyatini o'zida ifodalaydi. Uning yuksak mahobati, peshtoqining o'lkanligini ko'rib, Zahiriddin Muhammad Bobur Oqsaroyga shunday ta'rif bergandi: "Muncha oliy toq jahonda kam nishon berur. Derlarkim, Kasro toqidin bu buyukroqdir."¹

Amir Temur hukmronligi davrida azim Samarqand "Er yuzining sayqali" ga aylandi. Shu singari obodonchilik, bunyodkorlik ishlari saltanatning boshqa hududlarida ham davom ettirildi.

Qisqacha xulosa qilganimizda, Amir Temur tarixini, uning hayoti va olib borgan bunyodkorlik, davlatchilik faoliyati bilan bog'liq tafsilotlarni tobora kengroq tarzda o'rganib borish maqsadga muvofiq. Chunki Yangi O'zbekistonni barpo etish barobarida, 3-Renessansni qurishda asosiy tayanch kuch bo'ladigan yosh avlodda vatanparvarlik, xalqqa muhabbat, kelajagi buyuk yurtimizning istiqboliga ishonch va bunda o'z mas'ulligini anglash bilan bog'liq tushuncha va tuyg'ularni shakllantirishda, ularni komil inson qilib tarbiyalashda Amir Temur va uning bunyodkorlik faoliyati tarixini keng o'rganish, tadqiq va targ'ib etish bilan ham uzviy bog'liq ekanligi bachamiz uchun e'tiroflidir.

¹ Amir Temur jahon tarixida, T., "Sharq", 2001 yil, 148-b

MILLIY GVARDIYA HARBIY XIZMATCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA AMIR TEMUR HARBIY SAN'ATINING O'RNI

*A.U.Haydarov,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida
katta o'qituvchisi*

Yurtimizda mustaqillikka erishish tufayli juda ko'plab imkoniyatlar eshiklari ochilishi bilan birga haqqoniy o'tmishimizni, vatanimiz sarhadida mavjud bo'lgan qudratli davlatlar tarixini aniq birlamchi manbalar orqali o'rganish va tahlil qilish imkoni yuzaga keldi. Bu haqiqatni ochib berishda ijtimoiy fanlarning ahamiyati yildan yilga oshib bormoqda. Bugungi kunda Amir Temur shaxsi va Temuriylar davlatchiligini o'rganish eng muhim ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Harbiy bilim yurtlarida bu jarayonni aniq va holis o'rganish, Amir Temur harbiy san'ati haqida tula-tukis ma'lumotlarga ega bo'lish har bir harbiy xizmatchi uchun sharaflil vazifasi hisoblanadi.

Yurtimizda harbiy san'at tarixi deyarli ikki yarim ming yillik tarixga ega. Bu tarixni o'rganish va tadqiq etish bugungi kun tarixchilari va shuningdek, harbiy bilim yurti pedagogik jamoasining ham muhim vazifalaridan sanaladi. Harbiy san'at tarixini o'rganish va bilish bo'lajak harbiy xizmatchilarda vatanparvarlik va vatan tuyg'usiga hurmat shukuhini oshirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda buyuk sarkarda, takrorlanmas harbiy iste'dod sohibi sohibquron Amir Temur shaxsini va harbiy san'atini o'rganish, hamda tahlil etish bugungi kun harbiy xizmatchisining eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Milliy gvardiya tizimida xizmat qilayotgan har bir harbiy xizmatchi o'z tasavvurida Amir Temurdek buyuk siymoning vorisi ekanligi his etib xizmat qilmog'i va Sohibqiron milliy merosini chuqur o'rganishi muhim jihat hisoblanadi. Mamlakatimiz Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo'mrondoni, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019 yil 14 yanvar kuni Vatan himoyachilari kuni va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil

etilganligining 27 yilligi munosabati bilan bir guruh harbiy xizmatchilar, huquqni muhofaza qilish organlari hodimlarini harbiy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlash marosimidagi ma'ruzasida "Har bir askar va serjantda, ofitser va generallarda, butun shaxsiy tarkibda milliy ruh va g'urur kuchli bo'lishi kerak. Milliy ruh, bu – yengilmas kuch. Milliy ruh kuchli bo'lsa, iroda, jangovor salohiyat ham yuqori bo'ladi. Kelajakda harbiy bo'lishni orzu qiladigan botir farzandlarimiz milliy ruhni, muqaddas Vatan taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usini qayerdan oladi? Vatanimiz boy tarixidan, Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimiz jasoratidan oladi. O'z oilasi, mehribon ota-onasi hamda el-yurtimizning ishonchi, g'amxurligi va e'tiboridan oladi" deb ta'kidlagan edi.

Harb ilmining dahosi Amir Temur janglari va uning sarkardalik san'ati haqida Sharofiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh, Hondamir va ingliz tarixchisi Eduard Gibbon, Rossiya imperiyasi bosh shtabi general-leytenant M.Ivanin kabilar qator asarlar yaratishgan. Sohibqironning harbiy san'ati haqida M.Ivaninning tadqiqoti bu jihatdan ayniqsa, diqqatga sazovordir. General Ivanin "Ikki buyuk sarkarda – Chingizxon va Amir Temur" asarida sohibqironning sarkardalik faoliyati haqida atroflicha fikr yuritadi.

Amir Temur taktikasi va qo'shnlarning tuzilishi jihatdan o'sha davrning eng mukammal armiyasini yig'a olgan edi. Bu boradagi ilmiy tajribalar ham yetishib chiqayotgan Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari faoliyati uchun eng muhim omil hisoblanadi.

Amir Temur qo'shnlari piyoda va otliq askarlardan tashkil topgan edi. Lekin piyoda qo'shin ham uzoq cho'l safarlarida otlar bilan taminlanar, otliq askarlarning katta qismi esa kerak bo'lganda piyoda tarkibida jang qilishga ham o'rgatilgan edi. Ular faqat kamondan zarb bilan bexato otish lozim bo'lgandagina otdan tushib, piyoda jangchiga aylanar edi.

Otliq askarlar oddiy va saralangan jangchilarga bo'linib, yengil va og'ir otliq qo'shinni tashkil etar edi. Bundan tashqari, Amir Temur gvardiya singari o'zining xos navkarlariga ham ega edi. Maxsus qo'shin turi mavjud bo'lib, zahira qismi ham bo'lgan. Bunday qushin turi "izofa" deb nomlangan[2].

Amir Temur lashkarida bu qo‘shin turlaridan tashqari yana quydagilar mavjud edi: 1) pontonchilar (ko‘chma ko‘priklar qurish ishlari bilan shug‘illanuvchilar) va kemachilar; 2) naftandozlar (Grigorian yoki yunon olovini otuvchilar); 3) qamal qilish mashinalari va tosh otuvchi quollar, palaxmon uchun ishlashni biladigan jangchilar; 4) tog‘larda olib boriladigan janglar uchun Amir Temur tik qiyaliklarga chiqa oladigan, tog‘lik yerlarda bo‘ladigan janglarga ko‘nikkan, tog‘ aholisidan tashkil topgan maxsus piyoda qismga ega edi.

Amir Temur harbiy san‘ati va harbiy mahorati haqida ko‘p va ho‘p gapirish mumkin. Bu harbiy sarchashmani tulaqonli o‘rganish va kerak bo‘lsa undan foydalanish har bir harbiy xizmatchining muqaddas burchi hisoblanadi.

Sharofiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Amir Temur qo‘shinlari harakatlari aniqlik bilan olib borilar, Boyazid bilan bo‘ladigan jangdan avval Samarqanddan kelgan har bir qism jangchilari maxsus rangli kiyim-bosh kiygan edilar. Masalan, qizil bayroqqa ega qismlar shu rangdagi qalqon, egar jabduq, o‘qdon, kamar, nayza, gurzi va boshqa aslahalarga ega bo‘lsalar, sariq, oq va hakazo rangda kiyingan qismlar jangchilari shu rangdagi qurol-yaroq va boshqa aslahalar bilan jihozlangan edilar. Qismlar quollarining xillari bilan ajralib turardilar.

Agar dushman qo‘shini soni 12000 dan oshmasa, Amir Temur ularga qarshi tegishli o‘nliklar, yuzliklar va mingliklarga ega bo‘lgan 12000 dan otliq askar yuborar edi[3]. Bu askarlarga boshchilik qilayotgan amir (amir ul-umaro) dushman turgan yerga bir manzil qolganda Amir Temurga bu haqda xabar berishi lozim edi. Amir Temurning talabi bo‘yicha ushbu lashkar quydagi 9 qism (favj)ga bo‘linishi kerak edi. Asosiy korpus yoki rezerv (qo‘l) bir qismni, o‘ng qanot (barong‘or) uch qismni, so‘l qanot (javong‘or) uch qismni, ilg‘or favj (avong‘or) bir qismni, oldingi postlar (qorovul) bir qismni tashkil etardi. O‘ng va so‘l qanotlarning har biri uch qismdan iborat bo‘lib, ilg‘or qismlar, o‘ng va chap yoki birinchi va ikkinchi bo‘linmalarga (avong‘or, chopovul va shig‘ovulga) bo‘linar edi[4].

Bunday tajriba har bir harbiy urushda qo‘l kelib g‘alabalarni ta‘minlashga xizmat qilgan. Xozirgi kundagi zamonaviy armiyalarda ham bu kabi harbiy xulosalar muvaffaqiyatlar uchun xizmat qilishi mumkin.

Tajribali va mohir sarkarda jang oldidan jang maydonini sinchiklab ko‘zdan kechirishi, dushman xususiyatlarini, uning qaysi tarafdan ustun ekanligini o‘rganishi, o‘z nuqsonlarini tez orada yo‘qota olishi, dushman alohida ajratilgan qismlar bilan hujumga o‘tayotgani yoki bor qo‘shinlarini birvarakayiga jangga kiritganligini kuzatishi, unga qarshi ishonch bilan harakat qilishi, muvaffaqiyatga erishish uchun uning maxfiy rejalari bor-yo‘qligini bilishi kerak edi. Amir Temurning aytishicha, dushman hujum qilishi yoki chekinmoqchi ekanligini, hujumni takrorlamoqchiligi yoki birinchi hujum bilan qanoatlanayotganligini kuzatish va tezda uqib olish katta san‘at hisoblanadi. Bunday yuksak harbiy san‘atga buyuk Sohibqiron ega edi. Shu fazilatlarni o‘zlashtirish va bu boradagi mashg‘ulotlar, izlanishlar Amir Temur faoliyatida doimo davom etgan.

Amir Temur qoidalariga ko‘ra lashkarboshi dushman qo‘shini sonini bilib olgach, unga qarshi o‘z qo‘shinlarini to‘g‘ri qo‘ya bilishi, dushman nima qilayotganini kuzatishi, jang maydonidagi hujum va chekinish uchun mumkin bo‘lgan kirish va chiqish joylarini belgilashi, dushmanning jang qilish tartibi va ko‘zlagan maqsadini fahmlay olishi kerak edi. U dushman ayyorliklariga uchib, qurshovga tushib qolmaslik uchun ehtiyotkor bo‘lishi lozim edi[5].

Dushman qo‘shini soni 40000 dan ko‘proq bo‘lganida unga qarshi Amir Temurning o‘zi borardi. Bunday paytda uning qo‘shinlari jangga qo‘ydagi tartibda bo‘linardilar: 40 ta bo‘linma (polkka teng) bevosita Amir Temur ixtiyorida bo‘lardi. Ulardan eng saralangan 12 ta bo‘linma birinchi qatorni, qolgan 28 tasi ikkinchi va uchunchi qatorlarni tashkil etar edi[6].

Jangni yengil qurollangan jangchilar (qorovullar) va avong‘orning avong‘ori boshlab berardi. Katta avong‘or amiri ularga yordamga kelib, o‘z lashkarlarini jangga kiritardi. Shu tariqa jang qilayotganlarga yordam sifatida asta-sekin birinchi, keyinroq ikkinchi qatorlar jangga kirardi. Agar bu yordamlar ham kamlik qilsa, rezerv (tarx)ning so‘l va o‘ng qanotlari, ya‘ni Amir Temurning ug‘illari va nabiralari, qarindoshlari va ittifoqchilari

jangga kirishardi. Ularning asosiy vazifasi – dushman bosh qo‘mondoniga hamla qilib, uni asirga olish va uning bayrog‘ini qo‘lga kiritishdan iborat yedi. Agar bu harakatlar ham g‘alabaga olib kelmasa, unda butun qolgan rezerv qismlar (qo‘l) ishga tushib, qat‘iylik bilan hujum olib borardi. Bunday jang uslubi XIV asr uchun yuksak yangilik hisoblanib, Sharofiddin Ali Yazdiy yozishicha jang san‘ati tarixida ilk bora Amir Temur tomonidan qo‘llanilgan va muhim g‘alabalarni qo‘lga kiritish uchun muhim omil bo‘lgan. Bunday harbiy usul va yuksak ilm sohibi bo‘lgan ajdodimizning faoliyati har bir harbiy xizmatchida yuksak g‘urur tuyg‘usini uyg‘otadi va Milliy gvardiya tizimida xizmat qilayotgan har bir harbiy xizmatchining bu jihatlarni bilishi va o‘z faoliyatida qaysidir jabhasidan foydalana olishi vatanparvarlik va yuksak g‘urur tuyg‘ularini shakillantirishga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda buyuk bobokalonlariimizning ma’naviy olami xususida fikr yuritganda, Sohibqiron Amir Temur haqida alohida to‘xtalishimiz tabiiydir. Chunki tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo‘lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o‘zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilm-u fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma’naviyat rivojiga keng yo‘l ochdi[7]. Yurtimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov Amir Temurning yuksak ma’naviy merosi “Temur tuzuklari” haqida fikr yuritar ekan, “Shaxsan men “Temur tuzuklari” ni har gal o‘qir ekanman, xuddiki o‘zimga qandaydir ruhiy kuch-quvvat topgandek bo‘laman. O‘z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan, inson ma’naviyati uchun bugun ham oziq bo‘ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekaniga ko‘p bor ishonch hosil qilganman.” degan o‘ta ta’sirli so‘zlarni keltirib o‘tadi. Bugun biz o‘rgatayotgan O‘zbekiston tarixi, Ma’naviyat va Dinshunoslik asoslari, Harbiy san‘at tarixi kabi fanlarda buyuk Sohibquronning ma’naviy olami va qadrli o‘gitlarini harbiy xizmatchilarga o‘qitib borish bugungi kun ta’lim tizimida eng dolzarb vazifa ekanligini bilmog‘imiz zarur. Sohibqiron o‘gitlari haqida so‘zlar ekanmiz Prezidentimizning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida keltirilgan quydagi iboralarini keltirish joiz deb o‘ylayman. “Masalan, “Tajribamda ko‘rilgankim, azmi qat‘iy, tadbirkor, hushyor,

mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir”, degan soʻzlar bugungi kunda ham maʼnaviy va tarbiyaviy jihatdan naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekani barchamizga ayon”[8]. Bu fikrlar Amir Temur tomonidan bundan deyarli yetti yuz yil ilgari aytilgan boʻlsada, buginga kelib ham yanada dolzarb boʻlgan boʻlishi mumkin-u, lekin hech ahamiyatini yuqotmagan. Shunday ekan, har bir Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi oʻz xizmat faoliyati va shaxsiy hayotida Amir Temur harbiy mahorati va shaxsiy fazilatlarini oʻzlashtirar ekan unda vatanparvarlik xissi yurtga vafodorlik tuygʻulari yanada mustahkamlanib boraveradi.

Bundan tashqari, Temurning soliqlar haqidagi qoidasi juda muhim ahamiyatga egadir. Temur yozadi:

«Soliq yigʻishda xalqni ogʻir ahvolga solishdan yoki ulkani qashshoqlikka tushurib quyishdan ehtiyot boʻlish zarur. Negaki, xalqni xonavayron qilish davlat xazinasining kambagʻallashiga olib keladi, xazinaning bequvvatligi harbiy kuchlarning tarqoqlanishiga, bu esa, oʻz navbatida, hokimiyatnin gkuchsizlanishiga sabab boʻladi.

Har bir oʻlkada uchtdan vazir (ministr) tayinlanardi. Birinchisi xalq uchun edi. U fuqaro toʻlaydigan soliqlar boʻyicha aniq va toʻgʻri hisob olib berishi kerak edi vayigʻilgan soliqlarning summasi, qaysi yoʻl va qoidaga asosan toʻplanganligini Temurga yetkazib turishi lozim edi. Ikkinchi vaziraskarlar uchun edi. U askarlar olgan va olishi kerak boʻlgan moyananing hisob-kitobini qilardi. Uchinchi vazir safarga ketgan kishilarning mol-mulkiga, egasiz yotgan yerlarga nazorat qilar edi. Qozining va diniy nazorat vakilining roziligi bilan aqldan ozganlar, nomaʼlum vorislar, jinoyatchilar, qonun boʻyicha huquqdan mahrum boʻlganlarning mol-mulklari bu vazir ixtiyoriga oʻtkazilardi. Vafot etganlarning mol-mulki ularning qonuniy vorislariga oʻtardi; agar vorislar boʻlmasa, bu mol-mulk machit, madrasa, mozorlarga berilar yoki Makkaga yuborilar edi (76-80).

Maʼlumki, Temurning asosiy va sodiq tayanchi uning qoʻshinlari edi. Temur qoʻshinlari oʻz davrida butun Osiyoda eng qudratli armiya hisoblanardi.

Harbiy tarix Temurni oʻrta asr Osiyoda eng yirik lashkarboshlaridan deb hisoblaydi. Uning harbiy mahorati ikki yoʻnalishda, askariy qismlarni qayta tashkil etishda, lashkarboshi - qoʻmondonlikda namoyon boʻldi.

Temurning armiyasi oʻnlik, yuzlik, minlik boʻlinmalaridan iborat boʻlib, ularning har qaysisiga muvofiq harbiy rahbarlik qilardi. Odatda harbiy boshliqlar rahbarlik qilayotgan boʻlinmalar soniga qarab bir-birlariga - kichigi katta qismiga boʻysunar edilar. Armiya - boʻlinma - birlashmalari qoʻshin-armiya deb atalardi; qoʻshinot - armiyalarni oʻz ichiga olardi. Bu qismlarning har biri sharoitiga qarab lashkar qalbini - oʻng qoʻl - bronjar, soʻng qul - juvongar, manglay - avangard vazifasini oʻtardi. Qoʻshin turlari ichida hammadan koʻra otliq askarlar, piyodalar, shuningdek Temur borgohida - ilgʻor-razvedka boʻlinmasi yuqori baholanardi.

Shuni ham qayd etish kerakki, Temur davlatini tuzish uchun olib borilgan katta janglarda Temurning oʻgʻllari - Amirzoda Muhammad Jahongir, Umar Shayx, Mironshoh, Shoxruh, nevaralari Amirzoda Muhammad Sulton, Amirzoda Pirmuhammadlar ham amir qoʻshinlariiga boshchilik qilardilar. Jahongiirning oʻgʻli Muhammad Sulton Amir Temurning eng sevimli nevarasi boʻlib, otasi Jahongir vafotidan keyin Temurning merosxoʻri qilib belgilangan edi.

Amir Temur oʻzini diplomat sifatidan ham namoyon qilgan: Temur Vizantiya, Venetsiya, Genuya, Ispaniya, Fransiya, Angliya bilan iqtisodiy aloqalar oʻrnatish va ularni mustahkamlash sohasidagi faoliyatni avj oldirgan edi. Til, din, millatlarning har-xilligi Temurning Yevropa mamlakatlari bilan diplomatik, savdo-sotiq munosabatlari oʻrnatish va mustahkamlash yoʻlidagi gʻoyat muhim harakatlarni birinchi boʻlib bogʻlashga halaqit bermadi. Syosatchi hamda diplomat boʻlgan Temur islomga tayanib, musulmon dinning nufuzidan foydalanadi va oʻz davlatini mustahkamlash maqsadida boshqa dinlardan ham foydalanishga intildi.

Oʻrta Osiyo tarixining bilimdoni, sharqshunos olim, akademik Bartold V; «Temur goʻyo Samarqanddan boshqa hamma yerda vayrongarchilik bilan shugʻullangan, degan fikr mubolagʻali, u Qobul vodiysi va Moʻgʻan choʻli kabi Samarqanddan uzoq boʻlgan joylarda ulkan sugʻorish ishlari

olib bordi», (ssch. 2t.ch.1), degan tarixiy jihatda g'oyat qimmatli fikrni aytgan edi.

Bu haqda Yazdiyning yozganlari ham diqqatga sazovor. Masalan:

Bir yil mobaynida, - deb yozadi Yazdiy, - Bag'dod shahrini tiklash haqida buyruq berildi, toki shahar yana o'z qiyofasini olsin, unda hunarmandchilik rivojlansin, dehqonchilik o'ssin, savdo-sotiq va madaniy hayot keng tarmoq yoysin, islom bilimi ilgariday yoyilsin. Bu vazifa Amirzoda Abu Bakrga topshirildi.

Bu va boshqa tarixiy ma'lumot va faktlar Temur «o'zidan vayrona va qo'ldan boshqa hech narsa qoldirmadi» deb hisoblovchi ayrim tarixchilarning da'volar bir yoqlama ekanligini ko'rsatadi.

Amir Temurning nomi bilan bog'liq uning siyosiy qarashlari «Temur tuzuklari» «Tuzuki Temur» kabi nomlar bilan Sharq va G'arbda mashhur bo'lgan. Juda ko'p xorijiy tillarga tarjima qilingan. Bu kitobning mashhurligi va dunyoga yoyilishining boisi shundaki. Unda davlatni idora qilish asoslari, usullari, ayniqsa, qo'shinning tashkil etish va janglarda g'olib chiqishga doir qimmatli fikrlar bayon qilingan. Bu asar o'sha davrda ko'plab shoh va shahzodalar uchun zarur bo'lgan. Uni ko'plab mashhur hukmdorlar o'z kutubxonalarida asrab, undan davlatni idora qilish san'atini o'rganganlar.

«Temur tuzuklari» Temur kodeksi, ya'ni Amir Temurning davlati va uni idora qilish meyorlari. qoidalarining to'plamidir. Kitob asosan ikki qismdan iborat. Uning birinchi qismida Sohibqiron Temurning yetti yoshdan to uning so'nggi kunigacha bo'lgan hayoti, siyosiy faolyati tasvirlanadi. Ikkinchi qism esa Temur nomidan shahzodalarga aytilgan vasiyatlar, pand nasihatlaridir. Unda jahongir o'z vorslariga qarata davlatni idora qilish san'atining nozik sirlari, qoidalari haqida, amir. Vazirlar va beklarni tanlash, ularni joy-joyiga qo'yish, qo'shni boshliqlari, ularning xizmat

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 14 yanvar kuni Vatan himoyachilari kuni va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 27 yilligi munosabati bilan bir guruh

harbiy xizmatchilar, huquqni muhofaza qilish organlari hodimlarini harbiy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlash marosimidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2019 yil 15 yanvar. 2-bet

2. H.Sodiqov va mualliflar jamoasi. O'zbekiston qurolli kuchlari (o'tmishda va hozirda) –T.: Tafakkur qanoti., 2014. 35-b.

3. H.Sodiqov va mualliflar jamoasi. O'zbekiston qurolli kuchlari –T.: Tafakkur qanoti., 2014. 39-b.

4. O'sha adabiyot. 40-41-b.

5. H.Sodiqov va mualliflar jamoasi. O'zbekiston qurolli kuchlari (o'tmishda va hozirda) –T.: Tafakkur qanoti., 2014. 41-b.

6. H.Karamatov va mualliflar jamoasi. Amir Temur jahon tarixida.

7. –T.: Sharq. 2000. -134 b.

8. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat. 2008. 44-b.

9. O'sha adabiyot. 45-bet

MUSLIM RENAISSANCE UNDER THE TIMURIANS

Temirov S.Sh.,

*Associate professor of the Military Institute of information
communication technologies and signals*

Saydjanov F.M.,

*Lieutenant colonel of the Military Institute of information
communication technologies and signals*

In history, the concept of the " Muslim renaissance " was introduced by the prominent Austrian Orientalist Adam Mes (1876-1946) in the early 20th century, more specifically, in 1909. The scientist used the term " East " in historical context, in which he envisaged lands from the Mediterranean Sea to the European continent (up to the subcontinent), and in these regions, in the 9th-12th centuries, culture rose to heights. These lands are the cradle of ancient civilization. In the former Soviet period, history and educational literature only referred to the Western Renaissance. And about the awakening process in the East, anything could

not be said. Because in the science of history, the idea of eurocentrism was the dominant, Western progressive, Eastern backward Creed was the priority. However, the Austrian scientist of that time A.Mes, Russian scientist N.Conrad expressed prejudice about the Eastern Renaissance. From Uzbek scholars I.Mo‘minov, M.Khairullaev, F.Suleymanova, B.Kasimov, T.Shirinov also expounded the thoughtful thoughts about the Eastern renaissance in his significant works. The Timurid Renaissance-the Muslim renaissance is considered one of the jewels in the eastern beginning crown, and some studies have been created dedicated to its study. In this sense, it is no coincidence that our President Shavkat Mirziyoyev, in his speech at the 72nd session of the UN General Assembly on September 19, 2017, for the first time in history, noted: "I want to separately note the invaluable contribution of many bright manifestations of the Central Asian Renaissance to Islam and world civilization."

The Central Asian region, in particular the territory of today's Uzbekistan, has existed in history as an ancient cradle of science, culture and art. This is also reported in pre-Islamic sources. Among other things, the "Avesto" promoted progressive ideas for its time in relation to the spiritual environment, science and education. The territories of Uzbekistan are historically located at the intersection of the center of the Great Silk Road and its various branches. Therefore, people who want to receive religious and secular knowledge from different countries of the East and the world have always sought out such cultural centers as Samarkand, Bukhara, Khorezm, Nasaf (Karshi), Kesh (Shahrisabz), Tashkent, Fergana. The first Eastern Renaissance is the "Muslim renaissance" that took place in our region in the 9th — 12th centuries. During the Eastern Renaissance, great scientists, people of comprehensive knowledge, famous thinkers grew up. In the field of Exact Sciences, Muhammad Khwarazmi, Abu Bakr Rozi, Abu Rayhan Beruniy, Ahmad Farghani, Umar Hayyom, Mirzo Ulugbek, Abu Nasr Farabi in philosophy, Ibn Rushd, Muhammad Ghazzali, Aziziddin Nasafi, Abu Ali ibn Sino in medicine, Mahmud Zamakhshari in linguistics, Abu Abdullo Rudakiy in poetry, Abulqosim Firdawsi, Hafiz Sherozi, Nizami Ganjavi, Abdurahman Jomiy, Alisher Navoi, in painting, Kamoliddin Behzod was a blessed creator. Their

scientific and creative discoveries made an unparalleled contribution to the development of universal development.

The second Eastern Renaissance is the second "Timurid renaissance «of the 14th and 16th centuries. The place and importance of great kingdom, built by Amir Temur, is invaluable in this. At present, the kingdom founded by the world "founder of the still-existent Central Asian civilization", the great statesman who left an indelible mark on history, Muzaffar leader, a skillful diplomat, a patron of passionate science, our great-grandfather Amir Temur, has a special place of great importance. "The great symbol, who determined the fate of the 15th century" — Sahibqiran and his successors established a Turkic state with centralized potential, ruling for about a century and a half in Turkestan, Khorasan, Persia, Azerbaijan and the Arab world. Amir Temur founded beginning the "Golden Age" of Turonian history of the XIV–XVI centuries – a separate stage of the Renaissance "Muslim – renaissance" (A.Mes)," Morning Awakening " (N.I.Conrad), now known by the names of the " Timurid Renaissance", was recognized in the world and forever sealed in history. As noted by the famous French scientist Lucien Keren, "European creators value Amir Temur as the builder of the Eastern Renaissance" .

In the 15th century, the magnificent kingdom, founded today by our great-grandfather Sahibqiron Amir Temur and continued by his worthy descendants, ushered in the second renaissance in our country, that is, the Second Renaissance. During this period, classical poets and thinkers such as Rumi, Mirzo Ulugbek, Ghiyosiddin Koshiy, Ali Qushchi, scholars, Lutfiy, Sakkokiy, Hafiz Khwarazmiy, Abdurahman Jami, Alisher Navoi, Babur Mirzo took to the square. The fame of such historians as Sharafiddin Ali Yazdi, Mirkhand, Khondamir, musicians like Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod, many calligraphers and musicians, musicologists and architects spread throughout the world. During this period, areas such as urban planning, architecture, fine and applied art, embroidery, sericulture, metalworking, calligraphy, science and education, artistic creativity, book art and librarianship, musicology were extremely developed. The influence of Renaissance had its impact on Khorasan and

India, and even European countries. European peoples have analyzed the Timurid Renaissance.

Amir Temur provided ample opportunities for the prosperity of Science and culture, taking special care of religious leaders, scientists, art historians, writers, poets. As a result of this noble policy, the foundation of the second stage of the Eastern Renaissance was laid. The huge and bright leader-Amir Temur of the 14th century, having built a powerful and prosperous state in world history and became one of the original cultural and spiritual centers of the medieval world, a unique creation of human intelligence and talent, an outstanding leader and statesman who, even today, is recognized as the polished face of the earth with his unparalleled architectural monuments According to many historical scholars, the East, in particular the Central Asian region, was considered the source of two powerful scientific and cultural upheavals that erupted in the 9th-12th and 14th-16th centuries, as well as a positive influence on Renaissance processes in other regions of the world.

The eastern renaissance as an Eastern Renaissance is rightfully recognized by the scientific community of the world. Famous French researcher L.As Keren noted: "Amir Temur made a tremendous contribution to the development of mankind with his glorious time, which allowed the creation of magnificent miniatures, unmatched glazed pottery, philosophical works full of poetry and inspiration. Our grandfather Sahibqiran laid the foundation for the so-called" Timurid Renaissance", a prolific cultural heritage".

References:

1. Mirziyoev Sh.M. We will build our great future together with our brave and noble people. - Tashkent: Uzbekistan, 2017.
2. Mes A. Muslim Renaissance. – M., 1973.
3. 3 September 2020 issue of the people's word newspaper.

SAHIBQIRAN AMIR TEMUR – SYMBOL OF PERSEVERANCE

Temirov S.Sh.,

*Associate professor of the Military Institute of information
communication technologies and signals*

Beknazarov A.A.,

*Professor of the Military Institute of information
communication technologies and signals*

In the history of our homeland and statehood, the great Sahibqiran Amir Temur stands out. In his address to the Supreme Assembly on December 28, 2018, the head of our state Shavkat Mirziyoyev noted that "we should pay special attention to the strengthening of national pride and pride in them, the invaluable heritage of our great saints, the invincible commander and the courage of our figures." It was not said for nothing, of course. After all, the more our people, especially young people who are the future of the nation, learn the history of great ancestors, live with a lesson and lessons from their life and activities, the more national feelings of pride and pride in their hearts, the more their love for motherland increases. In carrying out these good deeds, the study of the value of Sahibqiran Amir Temur, among the many great face that have passed in the history of our people, is also of significant socio-political and spiritual importance. As Amir Temur built a huge and powerful kingdom, he paid special attention to the rise, flourishing and building of spiritual culture. Naturally, in the historiography of the years of independence, the development of the science of the era of Amir Temur and the Timurids was studied directly with the Timurids. Because, having well understood that the prosperity of science serves the development of society and the state, Sahibqiran paid special attention to the protection of those who have unique talents and abilities, creating conditions for their creativity. That is why he included intelligent men and council Masters in the second of the twelve categories and classes recorded in his "circles", and considered them to be considerate persons [2,76]. As a result of this, in the Timurid era, science prospered, as our Countryman said: "in the fifteenth century,

the magnificent kingdom, founded by our grandfather, Sahibqiran Amir Temur, and continued by his worthy descendants, ushered in the second renaissance in our country, that is, the Second Renaissance. The fact that our wise people are among the most progressive, Progressive Peoples of the world in both Renaissance periods gives us all immense pride and pride". Both his contemporaries and later scholars and politicians expressed their views on what personality and statesman Amir Temur was, as well as his socio-political views, his reforms towards dynastic progress. As Emir Temur showed attention, kindness to the people of science, spirituality, and sought to use them in the cultural life of Society, historian Ibn Arabshah wrote, "Temur was kind to scholars, keeping scientists close to him. He paid tribute to scholars and saw them all before any man. Putting each of them in their rank, Attitude would express to him". At the court of Amir Temur, many scientists of learning-Mavlono Abdujabbor Khwarazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshiy, Mavlono Abdullo Lyson, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono Nu'moniddin Khwarazmiy, Khoja Afzal, Mavlono Alouddin Koshiy, Jalal Hokiyy-enjoyed the blessings of Sahibiron and entered his service. Amir Temur paid great attention to the prosperity of such fields of science as mathematics, geometry, architecture, space, literature, history, music, and about his conversations with the master craftsmen, the French scientist Lyangle writes: "Temur was a promotor to scientists. In addition to his erudition, he expressed confidence in those who saw his purity. He would often fall from the throne and come to them to talk to historians, philosophers, as well as all those who were talented in science, office and other affairs. Because Timur was the primary focus of caring for these areas ". According to the Hofizi Abru, Scientists, engineers and artists from all over the world flowed here and began to live and create"[3,59]. It should be noted that from time immemorial Scientists and artisan people (creative and creative people) lived in this direction, where there were favorable conditions for creativity. "Amir Temur was well aware of the progress of society and the state, that the future could not be imagined without the prosperity of Science and culture. That is why he also correctly realized the need for talent owners to need and deserve special and constant attention, to protect those with

unique abilities, to create conditions for their creativity, to ensure their marriage”[4,197]. The French scholar Lyangle also says of how respectfully Amir Temur treated the scientists of learning, the master craftsmen: "Temur was a provider to scholars. In addition to his erudition, he expressed confidence in those who saw his purity. He would often fall from the throne and come to them to talk to historians, philosophers, as well as all those who were talented in science, office and other affairs. Because Timur was the main focus of caring for these areas". In addition, Sahibqiran carried out his activities in the management of the state and society, relying on the spiritual support of the people of science. He expressed high confidence in the scholars and scholars, noting their incomparable role in building a powerful state. Whichever country the Emir Temur's Highness conquered, he sought out the people of the creator and supported them both materially and spiritually. His self-esteem is in his place. The "Temür Tuzuks" says in this regard: "I have replaced the Sayyids, the Ulama, the writer, wise men, the scientist, and the historiographers as the attentive... I was in a conversation with scientists and lived to people with pure intentions, pure hearts." Indeed, it is true that the ground on which we lived, both during the reign of Emir Temur and today, is the air of many. The main thing is that the so-called raiyat people agreed. Therefore, during the reign of Emir Temur, the people lived a peaceful, peaceful and prosperous life. This is a sign that the Lord has always been aware of the state of raiyat, activity in the people's grief, in the interests of him. According to the "Temur tuzuks": "I was alarmed by the plight of Raiyat. I saw the great in the father's line, the little ones in the place of a child. I was proud of the nature of every place, the painting habits and temperament of every country and city. I have made friends with the exalted of every land and town. I have appointed to them those whom they wish, who have their temperament and nature." It is known that generosity, kindness, awareness of the marriage and state of affairs of a citizen is a virtue inherent only to great statesmen. This quality, inherent in the Highness of Amir Temur, is reflected in the politics carried out by President Shavkat Mirziyoyev in our country today. In fact, the head of our country has attached special importance to the issues of comprehensive

support for people in need of help and support, ignoring anyone, kindness, generosity and mutual assistance in social life. Of course, the ultimate goal of these noble deeds being carried out is to please the people, to relieve its burden. This can also be understood from the following words: "the people who raised, brought up all of us – the same people. This is the people who gave us all salt. This is the same people who expressed confidence in us, elected as leaders. So, who should we communicate with in the first place, with our people? With whom we have to deal Well, first of all with our people. Then our people will agree with us. When the people agree, there will be blessing in our work. When the people agree with us, the creator agrees with us". In conclusion, Sahibqiran Amir Temur will remain in the history of our national statehood not only as the Sultan of the seven climates, but also as a great statesman who has mobilized all his strength for the cause of land prosperity and people's welfare. Greatness about the breeds, the great works created by the great man, the great legacy he left to us forever will continue to serve to realize ourselves, when we read and learn our great ancestors, they will give us such pure spiritual support, high spirituality. The unique and unique scientific and spiritual heritage of our great ancestors should become a vital program for us in constant movement. "When we realize our identity and explain our great history to young people, and develop science, we will never be lacking. The fact that our young people are rightfully able to take responsibility for the future of our homeland, becoming the decisive force of today and tomorrow, gives us all pride and pride".

Reference:

1. Mirziyoyev Sh.M. Continuing our path to national development with determination, we will take it to a new level. Volume 1-T.: "Uzbekistan", 2017.
2. Temur tuzuks/Persian A.Sogunius and H.Translation by Karomatov. The foreword and editor in charge is Mohammad Ali. - T.: East, 2005.
3. Orolov A, Khojikhonov M. Timurid spirituality and culture. - Samarkand: Sogdiana, 1996.

LEGAL PSYCHOLOGICAL ANALYSIS OF THE SYSTEM OF SOCIO-POLITICAL PRINCIPLES OF AMIR TEMUR IN PUBLIC ADMINISTRATION

Temirov S.Sh.,

*Ministry of Defence of the Republic of Uzbekistan,
Military institute of Information Communication
Technologies and Signals.*

A.A.Beknazarov,

*a doctor, professor of Psychological sciences, an academic
of the Academy of the sciences of «Turan»
of information communication technologies and signals*

The statehood, spirituality of Amir Temur and the Timurid period occupies a special place in the history of our people with its potential, content, educational power and influence. When Uzbekistan achieved its state independence, wide opportunities were created to study its socio-political history for several thousand years on an all-round basis. In particular, the issues of the centralized Amir Temur Dynasty, its role in the development of Uzbek statehood and culture were clarified, and our historian, Orientalist scholars translated and published many works of first-source significance into Uzbek. Based on the policy of our state and the will of our people, decrees of the Cabinet of Ministers "on the celebration of the 660th anniversary of the birth of Amir Temur" were adopted on December 29, 1994, and on December 26, 1995, decrees of our president "on the declaration of 1996 as the Year of Amir Temur". In March 1996, on the establishment of the State Museum "History of the Temurians", decrees were issued on the establishment of the Order of Amir Temur. On the basis of the decision of UNESCO, the 660th anniversary of the birth of Amir Temur was widely celebrated all over the world. In April 1996, at the headquarters of the same organization in Paris, a scientific conference was held on the topic "the prosperity of science, culture and education in the Timurid era", and the place of the great statesman in history was highly appreciated. "Amir Temur does not

occupy a position in world history only as a great commander and statesman who built a powerful and prosperous state. He made his capital, Samarkand, one of the truly cultural and scientific centers of the Earth. The antique, whose jewels of architecture and folk art were built by this great, are still standing today, adding splendor to the splendor of our cities and villages. Sahibqiran was also famous as an excellent diplomat of modern times, a supporter of the establishment of friendly relations between states and the development of economic relations. He issued works, the great patron of scholars and governors, architects and poets". The people of our people, who are building a democratic legal state today, want to know in the history of our Motherland the issues of the emergence and development of ideas and views on the legal state, its legal sources, secular law and legislation, of course. From this point of view, the historical and legal research of Timur formations is of particular relevance. After all, our past heritage, its rich statesmanship and legal foundations, in particular, the just principles applied to the state and law under Amir Temur, today also serve our independence and contribute to the formation of a high political, moral and legal culture of the individual. The main historical sources covering the life and work of Amir Temur are numerous and diverse, which indicates that its name, its role in world history is incomparable and is incredibly popular. Amir Temur, the Timurid state, dedicated to the issues of its founding, scientific analysis of research carried out abroad and in our Republic is also covered in the books of a number of our scientists. It is precisely true that we are open and clear to all our countries that we have found evidence that the " Temur tuzuks " have been of interest to the scientific community for 600 years.

It is known to us from our history that in the 20s of the 13th century, the rocks of our science and culture, restored by the intelligence of the likes of Abu Nasr Farabi, Moses Khwarazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruni, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshgari, turned to nurash, as a result of the beginning of the ownership of Central Asia by the Mongol rulers, Islam, considered the ruling ideology, also lost its status. Because, having taken possession of Movarounnahr as his greatness, Chikhatoykhan was a fierce enemy of the Islamic religion," the Movarounnahr people,

who remained at the complication of Yav, looked for a spiritual foundation that would turn the idea of a cherished independence in his chest into a powerful force and movement, as he dealt with the freedom struggle. The husband, who raised the Will and desire of the Turonian for man, became, first, the patriotism of famous ancestors, and then the religion of Islam, and the four great sects who came to the world in this land.

On the eve of the Mongol invasion, under the influence of the figures of the Futuvvat (javnōmardism, jōmardism), Yassaviya, Khojagon (later Naqshbandi) and Kubravian sects, who were at the stage of formation, purified their folk faith and achieved a spiritual victory over an enemy that was spiritually deep in itself. Further elaborating the system of socio-political principles of Timur, the following picture is formed: 1. Amir Temur understood the economy as the foundation of any kingdom. "The state and the kingdom – states that Timur, in his "Tuzuks", – with three things – is alive with property, treasure and army". With this, Timur emphasizes the need for the state to have, first of all, economic opportunities for its survival and social development. 2. According to the views of Amir Temur, each country, based on its different economic capabilities, should be "fully informed and take into account their economic characteristics" of all regions. 3. Amir Temur paid great attention to the ownership of land, which was the main means of production, and kept the procedures of State, Foundation, private land ownership in the administration of each province, and tried to change the amount of land area, ownership of it, with the view of the public interest. 4. Timur, referring to the creative activity of Labor, understood it as a social value. 5. Amir Temur paid great attention to financial issues in the system of economic principles. Because Finance was considered the economic backbone of the state in the eyes of Timur. Timur's political-legal views are justified by his moral views and built on religious ethics. Therefore, in the eyes of Timur, the success of any policy is in the King's compassion, generosity towards his subjects.

According to the Kur'an, "Taxlaku bi-Morali Allah", Temur writes, "If the King forgives the sin of any sinner, he will have mercy on his citizen by doing so. In all my affairs, such Kings became an example to me." 2.

Timur also acted in his politics, relying on Justice, truthfulness, righteousness. Because in his politics he chose the right path. Timur could not pursue any other policy. Whatever he did, within the framework of Sharia, he relied on the rules of Muslim history and acted with Islamic power in general. This led to Timur's own teacher Abu Bakr Toyibadi's "rosti-rasti", the wisdom that "if you are right, you will be saved", which Ibn Arabshah wrote, Timur had established as a seal on his stamp. Thus, Timur also outlined his views on justice on religious principles. In the annals and historical sources that have survived, Timur's attitude to religion has become evident. In particular, the fact that he developed the principle of attitude towards the religion of Islam serves as a program for all Timurids. Because Timur relied heavily on Islam not for its lack of a political principle that governs the state, but for its proximity and approval of the people as well as its humanistic character. At the center of Timur's political principle is man. Timur was the head of state in his time who was able to subordinate the interests of the kingdom to the interests of the people. Another important aspect of the Timur system of political views was that he consulted and then decided with knowledgeable people, scholars of the same field before settling each political issue. His advice with scientists would be of different shapes and sizes.

It should also be mentioned that the thinkers of the XIV-XV centuries made in their creations and ideological views the highest quality of a just and enlightened King, while one showed justice, the other showed reason, and the third - moral qualities. It is interesting to note that if they theoretically defined their ideological fantasy called the "Ideal state", by the 14th century, Amir Timur was able to put it into practice and took the field as a just ruler who embodied clothes and characteristics in himself. Timur, who built the politics of his kingdom on the basis of mysticism, raised the flag of Justice high and called on the people to obey human discipline, and not dry law. Because Timur considers human discipline to be sacred, giving it a divine touch, and therefore it is necessary to obey any king and governor who curses those who aim for evil and supports those who smoke pain in the way of good.

Amir Temur conquered a large part of the world, was content with a modest Amirate level for the rest of his life. Many examples can be given from the "tuzuks": in their eyes, not the wealth of the world, but the value of man prevailed. However, there is also evidence that Temur Sufism's devotion to the Yassavian sect was high. The reason is on the one hand"... While the Yassavian doctrine, with its solid discipline, pure Islamic-sectarian, Iranian-Sufi ideas, has "brought up the Turkestan peoples in a state of anti-Mongol oppression and oppression," on the second hand, Amir Temur Koragon, Khoja Ahmad Yassavi (died 1166-1167) brought spiritual, spiritual food, strength from his noble rank. It should be said that some scholars rightfully believe that the rule of the Great Timur Kingdom – Empire was based on the ideas of the Naqshbandi sect. It is shown that the formation of Timur formations came to the field as a product of strong ideological theory and rich practical experiments. "In this way, the ideas of the Naqshbandi sect became a strong social ideology in Movarounnahr and other regions of the kingdom under Amir Temur," writes The Philosopher N.G'oyibov. The results were that Amir Temur not only struggled with the goal of transforming the society in which he lived into the most mature social system, building a prosperous life, but also believed that these ideas would be honored all over the world. Only for this purpose did he wear a military uniform. Every head of state who is angry for such purposes, basically, exclaims that four things must be kept in his memory: firstly, to act with the Right event and council, whichever country he wants to conquer; secondly, to think a lot of each thing, to be vigilant and careful, so as not to make mistakes; thirdly, to gather and unite In the program and political and legal views of Amir Temur, it is more evident to carry it out and take on its responsibility than to dream of a perfect society. Therefore, the peculiarity of Amir Temur as a statesman, a commander and a thinker is that he built a perfect society in the image of the kingdom (empire) that he ruled and tried to strengthen it in every possible way. An important aspect of the political doctrine of Amir Temur is the priority of law, the issue of legislation in the management of society. The main condition for the rule of the Temur dynasty was to recognize the superiority of the law over all nobles and to create its basic provisions. In Temur's conclusion

that the principle of the rule of law is a necessary condition, the rule of law is very teran: this idea was formed as a result of hearing Imam Ismail Bukhari, Imam Abu Isa at-Termiziy, Farabi, Taftazani legal teachings, Burhonidin Marghinani's "Hidoya", his "Mukhtar" in school and madrasa, in his meetings with scientists, and therefore allocated a wide place in society in the issue of the rule of law. That is, "our great-great-grandfather Amir Temur had written with honor on the pages of history, saying that" wherever the law rules, there will be freedom". Ibn Arabshah, one of the classical historians of the Timur period, commented on the virtues of Amir Temur: "Temur is a man of unrivaled character, with deep contemplation, and there is no floor of the sea of thought, and a path is found under his interpretation, neither flatness nor humility."

A great number of authors have expressed their opinions about what kind of person and statesman Amir Temur was, as well as his qualities. But it is precisely the memories of Ibn Khaldun, don Claviho, and Timur's advisor and, especially, of John Francis, the Christian ambassador sent to Western countries, now sacking at the Bibliothèque Nationale de Paris, that are particularly valuable, convincing evidence. "Amir Temur speaks Persian, Arabic and Turkish. Such a powerful scientist in the science of the Qur'an and Islamic jurisprudence that no Muslim scientist is able to debate with him, he shows great respect for scientists and poets. This is because he himself is a scientist and wise man."

In place of the conclusion, it should be said that the reforms carried out by the great commander-in-chief Amir Temur in the field of state management, as well as in domestic and foreign policy, during his time led to a more solid state of his kingdom. The large-scale reforms carried out in the currently flourishing independent Republic of Uzbekistan are also evidence of the fact that in the field of state management, the experience of the great statesman Amir Temur is being studied in depth and the experience of our great-grandfathers is being used effectively. This is the fruit of efforts to create a fair lifestyle for the future of our people.

References

1. Adornment Increases. History of Uzbek statehood.- Tashkent: East, -2000.p365
2. Temur tuzuks. Ahmedov B. Ed.- Tashkent: Ghafoor Ghulam, - 1991.-144 b.
3. Ahmedov B. Lessons from history.- Tashkent: Teacher, 1994.-432 b.
4. Muiniddin Natanzi. Muntahab at-tavorix. - Tashkent, 1991.-260 b.

AMIR TEMUR DAVRIDA IJTIMOY-SIYOSIY VAZIYAT

G.S.Saydullayeva,

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi Akademik litseyi o'qituvchisi

Shoxrux mirzo va Mirzo Ulug'bek o'limidan keyin temuriylar sulolasining inqirozi kuchaydi, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat beqarorlashdi. Otasi o'limining aybdori padarkush Abdullatif ham «Al qasosu minalhaq» deyilganidek, ko'p o'tmay Ulug'bek Mirzoning mulozimi Bobo Husayn tomonidan o'ddirildi. Bu voqea 1450 yilning 9 mayida sodir bo'ldi.

Shundan so'ng Samarqand taxtini temuriy Ibrohim Sultonning o'g'li Abdullo egalladi. Bunga javoban Buxoro ayonlari Mironshoh nabirasi Abu Said Mirzoni podshoh etib ko'tardilar.

Bunday muxolifatchilik oqibatida Movarounnahrdagi siyosiy vaziyat keskinlashib, hokimiyat uchun kurash yangi pallaga kirdi.

Abu Said o'z maqsadiga erishish yo'lida Dashti Qipchoqdagi o'zbeklar davlati hukmdori Abulxayrxondan ham foydalandi. U 1451 yilda Mirzo Abdullo qo'shinini yengib (Abdullo bu jangda halok bo'ladi), Movarounnaxr hukmronligini qo'lga kiritdi.

1457 yilda Xuroson xukmdori Abulqosim Bobir vafot etgach, Sulton Abu Said Mirzo Hirot taxtini ham egallaydi.

Garchi temuriylar saltanatining har ikkala qismi birlashtirilgan bo'lsa-da, uning tag zamiri nihoyatda zaif, omonat edi. Abu Saidning ko'p vaqti g'arbiy

o'lkalarni egallash maqsadida urush harakatlarida o'tgani sababli mamlakat jilovi mahalliy bek, amirlar va shahzodalar qo'lida bo'ldi, ular o'z mavqelarini mustahkamlash, xalqni talash, soliq majburiyatlarni ko'paytirish bilan band edilar. Bu esa ichki nizolarning avj olishiga sabab bo'lmoqsa edi.

1469 yilda G'arbiy Eronda oqquyunli turkmanlari bilan bo'lgan jangda Abu Said o'ldiriddi.

Xurosonda Sulton Husayn Boyqaro hokimiyati qaror topdi. Movarounnahrda Abu Saidning o'g'illari Sulton Ahmad, Umarshayx Mirzo va Sulton Mahmud hokimiyat tepasiga keldi.

Umarshayx Farg'ona mulki hukmdori bo'lsa, Samarqandda hokimiyat Sulton Ahmad (1469-1493) va Sulton Mahmud (1493-1494) va undan so'ng Sulton Ali (Mahmudning o'g'li, 1494-1501) qo'lida bo'ldi.

Ana shu tariqa, mamlakat parchalanish sari yo'l tutdi. Xususan, Movarounnahr hukmdori Sulton Ahmadning uquvsizligi, sustkashligi va savodsizligi tufayli feodal tarqoqlik avjiga chiqdi. Bundan foydalangan o'zbek qavmlari uyushtirgan yurishlar Movarounnahrni yanada tang ahvolga maxkum etdi.

XV asrning 90-yillarida Farg'onaning yosh hukmdori, Umarshayx Mirzoning o'g'li Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) temuriylar hukmronligini qaytadan mustahkamlash yo'lida necha bor qat'iy harakat qildi. Biroq uning bu urinishlari ham kutilgan natijaga olib kelmadi.

Xuroson davlati. Sulton Abu Said Mirzoning o'limi Temuriylar davlatining yana ikkiga, ya'ni Movarounnaxr va Xurosonga bo'linib ketishiga olib keldi.

Xurosonda hokimiyatni qo'lga kiritish uchun ko'pdan buyon asosiy da'vogarlik qilib kelgan, Amir Temur avlodidan (uning chevarasi) bo'lgan Sulton Husayn tez orada butun Xurosonni o'z hukmiga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. Bunga qadar u Xorazm, Astrobod, Marv yerlarini o'z ta'sirida tutib kelgan edi.

O'zaro nizolar, temuriy shahzodalar o'rtasidagi shiddatli kurashlar silsilasida toblangan, tajriba orttirgan, dovyurak sarkarda, yetuk iste'dod sohibi (taniqli shoir) Husayn Boyqaro (1438-1506) Xurosonda hokimiyatni egallagach, mamlakatda tinchlik, osoyishtalikni qaror toptirish, ichki hududiy

nizolar, ziddiyatlarni bartaraf etish va markaziy hokimiyatni mustahkamlashga asosiy e'tiborni qaratdi.

U o'lkada madaniy-ma'rifiy va obodonchilik ishlarini rivojlantirishga alohida rag'bat ko'rsatdi. Bu katta, keng ko'lamli ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda Sulton Husaynning eng yaqin maktabdosh do'sti, sodiq safdoshi birmuncha muddat vaziri a'zam (birinchi vazir) lavozimida faoliyat ko'rsatgan, o'zbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiyning say-harakati benihoya salmoqli bo'ldi.

«Dastur ul-amal» nomli qo'lyozma asarda yozilishicha, Husayn Boyqaro juda oqil va dono, shariatga qat'iy amal qilgan shoh bo'lgan.

Sulton Husaynning qariyb 40 yillik (1469-1506) podsholik davrida Xurosonda nisbatan tinchlik, barqarorlik hukm surdi, savdo-sotiq, hunarmandchilik, ziroatchilik ancha rivojlandi. Hirot, Mashhad, Marv, Nishopur singari shaharlarda ko'plab noyob me'moriy obidalar barpo etildi.

Poytaxt Hirot Sharqning yirik ma'rifat va madaniy markaziga aylandi. Shahar baland devorlar bilan o'ralgan bo'lib, unda 149 ta katta-kichik minoralar qad rostlagan. Shaharning asosiy ko'chalari kesishgan nuqtada mahobatli yopiq bozor binosi qurilgan.

Hirotida alohida hunarmandlar mahallalari bo'lib, ularda temirchilar, zargarlar, kosiblar, kulollar istiqomat qilganlar. Mahalliy ustalar, hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar Xurosonning tashqarisida ham mashhur bo'lgan.

Ayni zamonda Hirot mamlakatining madaniy markazi sifatida o'sha zamonning mashhur hunarmandu san'at ustalari, olimu fuzalolar, taniqli musavvirlaru mashshoklar, shoiru adiblarni ham o'zida mujassam etgan.

Siyosiy tizim. Amir Temur o'z davlatini barpo qilishda mavjud siyosiy boshqaruv tajribalaridan keng foydalandi. Mazkur davlat o'z tarkibiy tuzilishiga ko'ra qo'shimcha harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan edi.

Qudratli xukmdor tarix faniga ixlos quyganidan bo'lsa kerak qadimgi va o'rta asr Sharqmamlakatlaridagi turli davlatlar va ularning siyosiy hamda ma'muriy idora usuli, boshqaruv tizimlari xaqida keng tasavvurga ega edi. Biroq uning davlat boshqaruv tizimi qo'l ostidagi butun xududda yagona markazlashgan siyosiy-tartib asosiga qurilgan bo'lib, bu soxadagi tajribalar

o`rta asrlardagi O`rta Osiyo davlatlarida keng qollanilgan idora usullari tajribasi bilan boyitilgan edi.

Amir Temurning Nizomulmulk tomonidan yaratilgan "Siyosatnoma" asaridan davlat ishlarida keng qo`llanma sifatida foydalanishi, "Temur to`zuklari"da "Siyosatnoma"dan fikrlar keltirishi bunga yorqin misoldir.

Amir Temur o`ziga qadar mavjud bo`lgan davlatchilikning sakkizta asosiga amal qildi:

-davlat siyosiy jixatdan mustaqil bo`lishi;

-davlat va jamiyatning siyosiy yaxlitligi bo`zilmasligi;

-davlat va jamiyat muayyan qonunlar, tartiblar, mafkura asosida boshqarilmog`i.

-boshqaruv tizimini muvofiqlashtirib turuvchi qoidalar shakllangan bo`lishi;

-jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ahvoli davlat e`tiborida bo`lishi;

-fan va madaniyat ravnaqi to`grisida doimiy qaygurish;

-xar bir davr shart-sharoiti, tartiblariga ko`ra davlat jamiyat ichki taraqqiyoti masalalarini tashqi dunyodagi mavjud omillardan foydalangan xolda olib borishi;

-davlat tepasidagi kuchlar o`tmish, zamona va kelajakni teran tafakkur, mustaxkam iymon, g`oyat yuksak ma`naviyat va millatparvarlik ila anglamoqda.

Amir Temur davlatchilikning bu asoslariga to`qqizinchisini - jamiyat rivoji va barcha ijtimoiy tabaqalar manfaatlarini ta`minlashni qo`shdi.

Boshqaruv ikki idoradan: dargox va vazirlik (devon) dan iborat bo`lgan.

Dargoxni Oliy xukmdor boshqargan. Dargox faoliyatini boshqarish, uning devonlar, maxalliy xokimiyat idoralari bilan bog`lanib turish ishlari Oliy devon zimmasida bo`lgan.

Oliy devonda - ijroiya xokimiyatda bosh vazir, xarbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri turgan.

Sarxadlar va tobe` mamlakatlarning boshqaruvi bilan shug`ullanuvchi yana uch vazir bo`lgan va devonbegiga xisobot berib turgan.

Markaziy xokimiyat tizimida shayxulislom, qozikalon, qoziyi axdos (odat buyicha xukm chiqaruvchi qozi), qozi askar, sadri a`zam (vaqf yerlari,

mulklari mutasaddisi), dodxox (shikoyatlarni ko'ruvchi), eshikoga, saroy vaziri, yasovul (xukmdorning shaxsiy buyrugini bajaruvchi), kalakchi (xiroj mikaorini aniklovchi), muxassil (solik undiruvchi), tavochi (asosiy ko'shinlarni ishiga mutasaddi amaldor), korovulbegi, kutvol (kal'abon), muxtasib (shariat koidalari ijrosini, bozor tartiblarini nazorat kiluvchi) va boshkalar bo'lgan.

Shuningdek dargoxda bosh xojib, xojiblar, xazinabon, xonsolar jibachi, kushchi, bakovul, kotiblar, bitikchilar, tabiblar, sozandalar, dorixonachilar bo'lgan.

Ijtimoiy tuzum. Amir Temur davrida Movarounnaxrda axolining yashash darajasi va sharoiti yaxshilangan. Yagona markazlashgan davlatning shakllanishi va rivoj topishi bilan oddiy axolining tinch va osuda yashab, mexnat qilishiga shart-sharoitlar yaratildi.

Mo'gullar istilosi davrida va undan keyin Amir Temurning markazlashgan davlat barpo etguniga qadar O'rta Osiyo va o'nta qo'shni xududlarning xalq ommasi nihoyatda og'ir azob-uqubatlar, qiyinchiliklar bilan hayot kechirayotgan edi. Mo'gullarning vayronagarchilik va bo'zgunchilik ishlari tufayli mexnatkash axolining yashash sharoiti quyi darajaga tushib koldi. Xo'jalikni kayta tiklash ishlariga e'tiborsiz bo'lgan ko'chmanchi mo'gullar xalk boshiga turli soliklarni soldilar, ular orasidan ba'zilarini kullarga aylantirdilar.

Amir Temur xokimiyat tepasiga kelgach, u mamlakatda qayta tiklash ishlari, obodonchilik, sugorish tarmoqlarini ta'mirlash ishlariga katta e'tibor qaratdi. Turli toifaga mansub mulk soxiblarini bir qo'l ostida birlashtirdi. Qattiq intizom xar qanday zodagonni o'z xukmdori oldida bosh egishga majbur qilar edi. Mexnatkash xalq jumladan, xunarmand qatlamiga mansub kishilarning yashash darajasi ayniqsa yaxshilandi. Shaxarlarda, madaniyat markazlarida yaratuvchilik, obodonchilik ishlari nixoyatda kuchayib ketdi.

Amir Temur davlatining sarxadlari keng edi. U nafaqat xozirgi O'rta Osiyo balki, Eron, Afgoniston, Xindiston, Kavkaz, Kozogaston, Irok singari mamlakat va xududlarni o'z tarkibiga olgan edi. Ijtimoiy tuzum masalasida to'xtalganimizda, aynan shu joylardagi axolining turli qatlamlari, ularning o'zaro nisbati, bir-biriga aloqadorligini nazarda tutishimiz kerak.

"Temur tuzuklari"da Amir Temur o'z mamlakatini boshqarishda aholini ma'lum ijtimoiy qatlamlarga bo'lganligi qayd etilgan. Ular asosan o'n ikkita guruhga bo'lingan xolda o'sha davrdagi omma va xossaning bir-biriga nisbatan yaqqol ko'rsatadi. Bular quyidagi ijtimoiy toifalar:

- sayyidlar, olimlar va shayxlar;
- katta tajribaga ega ilmi kishilar;
- duo qiluvchi taqvodorlar;
- lashkarning sipoxlari, sarkarda va amirlari;
- askarlar va xalq ommasi;
- davlat boshqaruv ishlarini ipidan-ignasigacha biladigan maslaxatguy dono va aqlli kishilar;
- vazirlar, kotiblar, devon boshlig'i;
- tibbiyot axli, munajjim va muxandislar;
- muxaddislar va muarrixlar;
- tasavvuf vakillari va oriflar;
- xunarmandlar va san'atkorlar;
- ajnabiy sayyoxlar va savdogarlar.

Yuqoridagi ijtimoiy qatlamlar Amir Temur davlatini ma'muriy-boshqaruv tizimidagi tartiblar bilan aloqador xolda uning harbiy-siyosiy xarakterda bo'lganligini xam ko'rsatib turibdi.

Ilm-fan ravnaqi.

Temuriylar ma'naviy madaniyati tug'risida gap borganda, dastavval, ona yurtimiz UYGONISH davrining ikkinchi bosqichi bo'lgan bu oltin asrda ilm - fanning nechog'lik ravnaq topganligi xaqida uning jaxon ilmu urfoni taraqqiyotiga qo'shgan bebaho hissasi xaqida har qancha g'ururlansak arziydi.

Ulug'bek davrining taniqli tarixchisi va adibi Davlatshox Samarqandiyning mana bu so'zlari xam xarakterlidir: «Olim, odil, g'olib va himmatli podshox Ulug'bek Kuragon yulduzlar ilmida osmon qadar yuksalib bordi, Maoniy ilmida qilni qirq yordi. Uning davrida olimu fozillar martabasi nihoyat choqq'isiga ko'tarildi ...»

Ulug'bek ilmiy maktabining eng katta yutug'i, avvalo, astronomiya va matematika fanlari sohasida yaratilgan muhim kashfiyotlardir. Masalan, Ulug'bek qalamiga mansub «Ziji jadidi Kuragoniy» asari uzining beqiyos

tug`ri ilmiy yechimlari, xulosalari bilan xozirga qadar ham olimlar e'tiborini qozonib kelmoqda.

Asarda 1018 yulduzning o`rni va holati aniqlab berilgan. Shuningdek bu ilmiy maktab olimlarining uchinchi darajali algebraik tenglamalarini yechib, bir darajali yoyning sinusini aniqlash borasidagi tadqiqotlari ham matematik tafakkurning katta yutug`idir. Ulug`bek davrining fan peshvolaridan Qozizoda Rumiyning «Risola fil xisob» («Xisobga doir risola»), «Sharxi mulaxxas» fil-xay`at (Astronomiya asoslariga sharx), «Risolatul jayb» («Sinus xakida risola»); Riyosid-din Jamshidning komusiy mazmunga molik besh kitobdan iborat yirik matematik asari — «Miftoxil xisob» («Xisob ilmi kaliti»), Ali Kushchining «Risola dar ilmi xisob», «Risola dar xandasa», «Risola dar falokiyot», «Risolai mantik» singari asarlari uz davri ilmiy tafakkurining bebaxo yutugi bulib kolmay, ular ayni chogda ilm-fanning keyingi rivojiga xam samarali ta'sir kursatdi. Bu davrning yana bir muxim yutugi - bu ijtimoiy fanlar, xususan tarixshunoslik soxasida xam katta tadkikotlarning yaratilganligidir. Bu xayrli ishning kushoyish topishida xam Temuriy xukmdorlar tashabbusi va raxnamoligi bekiyos bulgan.

Jumladan, Amir Temurning «Tuzuklari», Mirzo Ulugbekning «Turt ulus tarixi», Bobur Mirzoning «Boburnoma»si ijtimoiy fanlar rivojiga ayricha ta'sir kursatganligi shubxasizdir. Temuriylar davrida salmokli iz koldirgan alloma olimlardan Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Yazdiyning «Zafarnoma», Xofizu Abruning «Zubdat at-ta-vorix», Abdurazzok Samarkandiyning «Matla ul-sa'dain va majma' ul-baxrayn» («Ikki saodatli yulduzning chikishi urni va ikki azim daryoning kuyilish joyi»), Ibn Arabshoxning «Amir Temur tarixi», Mirxondning yetti jildli «Ravzat ul-safo» («Poklik bogi»), Xondamirning «Makorimul axlok» («Yaxshi fazilatlar»), «Xabib us siyar fi axbor afrod ul-bashar» («Xabarlar va bashariyat odamlaridan dilga yakin siyratlari») asarlari ysha zamon tarixshunoslik ilmining yuksaklikdarajasini uzida ifoda etadi. Ularning xar birida nafakat u yoki bu xukmdorlarning davlat siyosati yoxud xarbiy yurishlari yoxud shaxsiyatlariga oid ma'lumotlar aks etib kolmay, balki shu bilan birga tilga olinayotgan davrning barcha murakkab, ziddiyatli jarayonlari, tarixiy vokealar, xodisalar silsilasi xam ishonarli tarzda yoritilganligiga amin bulamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sharofiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma». T. 1999.
2. Saloxiddin Toshkandiy «Temurnoma». T. 1990.
3. Temur tuzuklari . T. 1996.
4. Amir Temur tarixi. Ibn Arabshox. T. 1992.
5. Amir Temur saboqlari. T. 1998.
6. A. Karen va A.Saidov. Amir Temur rva FransiY. T. 1996.
7. L.Koren va A.Saidov. Amir Temur saltanati.T. 1992.
8. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma.T.1996.
9. Zafar yuli.Amir Temur Kuragon.T.1992.
10. Xilda Xukesh. Yeti iklim sultoni. T.1999.
11. Erkin Azimov. Amir Temur saltanati. T. 1996.
12. Xolbekov M. Amir Temurning Yevropa kirolari Bilan yozishmalar. T. 1996.

FACTORS INDICATIVE OF SPIRITUAL VIEWS AMIR TEMUR AND HIS INFLUENCE ON THE LIFE OF SOCIETY

A.A.Beknazarov,

*a doctor, professor of Psychological sciences, an
academic of the Academy of the sciences of «Turan»*

K.Sultanov,

*Researcher of the State Museum
of the History of the Timurids*

As you know, today, in the process of laying the foundations of the third Renaissance in Uzbekistan and lifting the country to a new stage of development, studying the activities of the talented commander and skillful diplomat Sahibkiron Amir Temur has political and great spiritual and educational significance. Because, in the history of the Uzbek national statehood, “the era of Sahibkiron Amir Temur is recognized as the period of laying the foundation of the Second Renaissance, that is, the Second Eastern Renaissance”. [1]

It is known that in the XIV-XV centuries in the countries of the Near and Middle East, especially in ancient Turan, all areas of science, art and culture flourished. This is directly related to the personality of Amir Temur and his activities. Since Amir Temur founded a powerful empire and in a new historical situation created all the conditions for the rise of spiritual culture and the revival of the traditions of the past era. During the reign of Amir Temur and the Timurids, much attention was paid to the development of culture and art. Musical and visual arts were especially strongly developed. According to written sources: "Amir Temur had a deep understanding of music, showed examples of tolerance towards musicians and hafiz (singers), always honored them regardless of their nationality and religious beliefs" .[2] "It was customary for musicians from different countries to perform at public ceremonies, weddings and other solemn ceremonies attended by Amir Temur."[3] Detailed information about this is given in the works "Zafarnome" by Nizamiddin Shami _[4] and Sharafuddin Ali Yazdi.[5]

Representatives of art, who took advantage of the wide opportunities created by Amir Temur, were able to make a great contribution to the development of national culture and art with their high creative activity. For example, "Bukhara Shashmaqom, Khorezm makams, Ferghana-Tashkent makam routes, which have come down to us as an invaluable spiritual heritage, first formed in the palace of Sahibkiran, and then flourished during the reign of the Timurids. I would like to emphasize that the international festival "Sharq taronalari", which has been regularly held in the city of Samarkand since 1997, is a tradition established back in the days of Amir Sahibkiran - "musicians from different countries, with different languages and clothes, artists from every climate" can be appreciated as a continuation and modern form of performance of tunes and sayings in the new conditions.[6]

It should be noted that the creativity and creative activity of Sahibkiran is one of the important factors testifying to the great spirituality of Amir Temur. During his reign, much attention was paid to urban planning and architecture. These industries flourished not only in Samarkand, but in all cities under the rule of Amir Temur. Sahibkiran

Amir Temur personally directed and controlled the construction of grandiose buildings, including mosques, madrasahs, houses, roads and other structures. On this occasion, the Code of Temur says the following: “In each city, I ordered the construction of a mosque, a public school, an almshouse for the poor and the poor and a hospital at which there was a doctor (healer). I demanded (ordered-KS) that also - the buildings of the city duma (the house for the local ruler - K.S) and the court chamber (the office for judges - K.S); I established a special guard for the people behind the sown fields and for the safety of citizens (I appointed armed guards - K.S. to protect the crops and subjects). (at a distance of a one-day transition-K.S). At the caravanserai (Rabat) [7] there were caretakers and road guards. They took care of the safety of travelers (and merchants-K.S) and were responsible for the thefts made from them (in each discount, place several people so that they monitor the condition and safety of the roads; they are also entrusted with the protection of the property of travelers and merchants-K .S)” .[8] These structures, including mosques and madrasahs, built on the orders of Amir Temur, served to raise people's thinking. Amir Temur paid great attention to the construction and landscaping work carried out in Samarkand, and personally took part in many construction works. This indicates that in the time of Amir Temur Samarkand was at the level of a major political and cultural center, with its beauty and strength meeting the needs of the capital. In particular, the streets of the city of Samarkand were expanded, markets and shops were arranged. Under him, a wide path to entrepreneurship was opened, and trade and commerce were also developed. The inner and outer fortresses of the city were rebuilt, and two huge four-story administrative buildings - Kuksaray and Bustonsaray - were built inside the Samarkand arch. In addition, Shahrستان and its six gates, Shahzoda, Okhanin, Feruza, Sozangaron, Korizgokh, Chorsu, were restored and brought to a more prosperous and beautiful state. According to historical information: “The defensive wall built by Amir Temur in the city (Samarkand) was very strong, high and had six gates, and it was so wide and majestic that in some places, for example, from the Feruz gate to the Shahzod gate, through the wall could even be ridden on a horse.”[9]

According to information written by Ibn Arabshah: “Timur built several cities on the outskirts of Samarkand and named them after such the most famous central cities of the world as Egypt, Damascus, Baghdad, Sultaniya, It is known from history that at that time Damascus was the capital of the Ummavi Caliphate, Baghdad was the capital of the Abbasid Caliphate, and Egypt was the capital of the Fatimid Caliphate. There was a certain political meaning in assigning the names of famous cities to villages: just as an ordinary village paled in front of beautiful and large cities, so the above-mentioned cities seemed dull in front of Samarkand. As a result, Samarkand has become a major political and cultural center, which, with its beauty and strength, meets the needs of the capital. Shiraz and others.”[10]

In addition, by decree of Sahibkiran, 12 beautiful gardens and palaces were built in Samarkand. These gardens went down in history under the names Nakshijahan Garden, Behisht Garden, Shahrukh Garden, Dilkusho Garden, Shamal Garden, Davlatabad Garden, Boldu Garden, Maidan Garden, Baland Garden, Chinor Garden, Jahannamo Garden and Nav Garden. According to sources, among these unique grievances (palaces-gardens) during the reign of Amir Temur, the palace garden “Dilkusho” (“Gods of Dilkusho”) was famous for its beauty and beauty. For example, on September 8, 1404, in this palace garden, Amir Temur received the ambassadors of Henry III of Castile, who visited Samarkand. This garden-palace was so large that it was possible to arrange hunting, sports games and large weddings on its territory. “In addition, wrestling (kurash), horse games, as well as games with elephants are shown in special arenas. Spanish Ambassador Ru Gonzalez de Clavijo first encountered the game of elephants in this palace garden (Gods of Dilkusho). At the festive event, which was organized by Sahibkiran, Clavijo saw 14 elephants.[11]

The Hungarian historian Herman Vamberi in his book “History of Bukhara and Movorunnahr” mentions this garden-palace and comments the following: “On the eastern side stands the Dilkusho Palace overlooking the city, the golden inscriptions “Darvozai Feruz” are engraved. The wide, large, star-studded roof of this palace glittered from afar. In the outer

courtyard of the garden, armed warriors stand, and in the inner courtyard, six rows of elephants adorned with flags strike the pilgrims; only in the innermost - the third courtyard - Temur sits on a gold-embroidered throne and receives pilgrims. Outside these courtyards there are ponds surrounded by apple and maple trees, as in modern Iran, with red and yellow apples playing in the fountain of their water.”[12]

It is noteworthy that these gardens were available to ordinary citizens when Sahibkiron was on a trip (on military campaigns - K.S). Residents of the city and the surrounding area, together with relatives and friends, spent their free time in parks, various games and other events were organized for them there. The historian Ibn Arabshah wrote about this: “When Amir Temur left somewhere, Samarkand was free from his troops and assistants, and those gardens were empty, the inhabitants of the city gathered there. For there was no place more suitable and quiet for enjoyment, and for a good and beautiful rest, than these gardens. Sweet and delicious fruits in the orchards were free for all...” .[13] Improvement and creative activity of Amir Temur in Movarounnahr and beyond are described in many historical sources and scientific studies. For example, a lot of information about that period and the activities of Amir Temur can be found in the scientific heritage of the Russian scientist, academician V. V. Bartold. Speaking about the creative activity of Amir Temur, he (Bartold) writes: "Timur built huge irrigation facilities not only in Movarunnahr, where he was born and raised, but also in Khorasan, as well as in remote places, such as the Mogan steppe and the Kabul basin" .[14] It can be seen that the geography of these buildings is not limited to Turkestan, but also to remote cities and villages beyond its borders.

According to Bishop (monk) John Greenlaw, who met face to face with Sahibkiran: “Temurbek built more than two hundred palaces, 18 of them in Samarkand, 20 in Kesh, 15 in Baghdad, 12 in Isfahan, 7 in Shiraz and other cities of the East” .[15]

It should be emphasized that Amir Temur paid special attention to the development of science, culture, art, creativity, as well as the improvement of cities and villages, not only in his homeland, but also in other countries of the world. It is worth noting that he loved the people,

always took care of his subjects, regardless of their nationality and religion. Most importantly, he (Sakhbikiran) was aware of the situation of his subjects. Always and everywhere he tried to improve the life of ordinary people (raiyyat). On this occasion, the Code of Timur says the following: I inquired about the position of the subjects; he revered their leaders as elder brothers, and cherished the younger ones as his children. Also, taking into account the customs and customs of each country and city, he tried to make friends with the people ... Hearing about the oppression of the people by any of the rulers, warriors or subjects, he immediately took measures against them in conscience and justice ".[16] It is known from historical sources that in ancient times, many rulers rebuilt noble palaces, mosques, madrasahs and houses in honor of each victory they achieved, as well as in honor of their parents or the birth of crown princes. It should be said that this tradition in the East was founded by Amir Temur. Here it is necessary to touch briefly on the construction of the Aksaray palace, which was built in Shakhrisabz on the initiative of Amir Temur. This majestic palace was built in memory of the mother of Amir Temur Takinakhotun (Tegina Khotun, Takina begim, Takina Mohbegim (1318. Bukhara -1353. Shakhrisabz)

The palace (Aksaray) intended for holding diplomatic meetings and large conferences consists of two large porches, which are united in the form of a dome after 38 meters. The distance between the two arches was 22.5 meters. Construction of the palace began in 1380 and was completed in 1386, but finishing work continued until 1404. Prominent craftsmen from Khorezm, Iran and other countries took part in the construction of the palace. For example, in the decoration of the vaulted arch, the name of the stone-cutting master Muhammad Yusuf Tabrizi is repeated twice. A unique masterpiece of architecture, built in 20 years and today in a dilapidated state, to this day amazes guests of the city with its majesty and grandeur. Initially, the building had a height of 73 meters. From a small pool located at the top of the palace roof, water flowed through lead pipes through a wooden threshold, forming a waterfall from it. A technical, architectural and artistic solution was successfully developed in the palace, combining water purification, air exchange, illumination of light and

shadow. Golden sand was used as the foundation of the Aksaray Palace. The foundation was located deep from the surface and consisted of several layers that embody complex techniques designed for the strength of the building and moisture permeability. "giri" gave the building a majestic and magical meaning. On the pedestal, decorated with natural patterns in seven different colors, there are inscriptions with the content "Emir - the shadow of Allah on earth." On the front side of the front dome in the form of an elongated hexagon, the inscription in Arabic "Justice is the basis of the state and the motto of the rulers" is repeated six times. Wise sayings such as "If you doubt our greatness, look at the castles we built" and "Reason rests on their actions, and ignorance on their dreams and hope."

As Babur wrote, in the middle of the palace there was a swimming pool, and on the contrary - a domed hall for receiving guests, next to it there was a small room for advisers, luxurious sheds in the courtyard, and inside the palace - a harem and the emir's residence. A lion and the sun were depicted on the entrance arch of the reception hall of the palace. According to the chronicles of that time, Aksaray was one of the most beautiful and majestic buildings, built by order of Shah Rukh. Surahs taken from the Holy Quran are written on both sides by Aksaray. On the high pediment of the castle is written: "If you doubt our strength, look at the buildings we have built." It is known from historical data that the ambassador of the Spanish king at the court of Amir Timur, Ruy Gonzalez de Clavijo, arrived in Shakhrisabz when this palace had not yet been completed. Having fully and perfectly described Aksaray Palace, he considered that "Aksaray Palace is one of the greatest works of art of world culture".[17] Admiring the beauty and grandeur of Aksaray, he writes in his diaries: "Today the building is covered with gilding and luvars, and they showed so many rooms and resting places of the palace that one can talk about them for a long time. The decorations of the palace were wonderfully made of gold and other colors. Even in Paris, which is famous for its skillful craftsmen, this work would be considered very beautiful.[18]"

According to information written by the Turkish scientist A. Shimshirlik: "Thirty thousand workers and twenty thousand craftsmen

worked hard on the construction of Aksaray. Six hundred pots of food were prepared for them.”[19] As is known, the complexes “Dor us-sadot” and “Dor ut-tilovat” were built near the “Aksaray” castle. At the same time, the mosques "Khazrati Malik Azhdar" and "Abdushukur Ogolik" are also located in the city. The complex "Dor us-sadot" was built in connection with the death of Jahangir Mirza, the eldest son of Amir Temur. It contains the tomb of Jahangir Mirza, where Amir Temur's relatives, the Timurids, and the nobles of the unique family of Temur Barlos are buried.[20] One of the main buildings of "Dor us-sadot" is the greenhouse of Amir Temur. Khilkhans were built during the lifetime of the owner, and Amir Temur built hilkhans (sagans) for the burial of himself and his loved ones after his death. The complex "Dar ut-Tilovat" was built in honor and memory of Sheikh Shamsiddin Kulyal (teacher and mentor of Sahibkiran) and father of Amir Temur Muhammad Taragay Bahadur. The tombs of Sheikh Shamsiddin Kulal and Muhammad Taragay were placed side by side in the same mausoleum. In addition, the Blue Dome mosque, built by Amir Temur's favorite grandson Mirzo Ulugbek, is located in the Dor ut-tilovat complex, which is his main and important monument. These structures are placed in such a way that they ensure the beauty and integrity of the city in terms of their geometric shape and geographical position. It can be said that this is the perfect start to the concept of Tavn or City, which can meet the world standards in a modern modern language. It should be emphasized that Amir Temur, through his spiritual and educational activities, raised the culture of the peoples of Central Asia and the Middle East and had a positive impact on the spiritual life of society. In conclusion, I would like to note that the rarest architectural monuments built on the initiative of Amir Temur in Samarkand, Shakhrisabz, Bukhara and Tashkent, with their magnificence and beauty, amazes not only the peoples of Uzbekistan, but foreign tourists who today visit the Republic of Uzbekistan.

Literature

1. Sokhibqiron yulduzi journals. No. 1 (27) 2017. Page- 46

2. Semenov A.A. Central Asian treatise on the music of Dervesh Ali (17th century) - Tashkent. 1946, Page -24
3. O. Ibrokhimov. Amir Temur and the musical culture of the Timurid period. Proceedings of the republic scientific-practical conference. Book 11. T.:- 2021. Page- 184
4. Nizamiddin Shami.Zafarnoma./Persian translator Yunus Khan Khakimjonov.Responsible editor and reworking of the translation A. Orinboev. Compiler of comments and dictionaries H. Karomatov (compiler of geographical names - O. Boriev's) Hafizi Abro's " Zayl" ("Appendix") written in "Zafarnoma" from Persian and compiled by O. Boriev. - Tashkent.: Uzbekistan. 1996 . Page -393
5. Sharafuddin Ali Yazdi. Zafarnama. Translation of Muhammad Ali bin Darvesh Ali al-Bukhari. Foreword, tadbil, comments and indexes, authors and preparers for the publication: A. Ahmad. H. Bobobekov.- Tashkent.: Sharq. 1997. Page -291
6. O.Ibrokhimov. Amir Temur and the musical culture of the Timurid period. Proceedings of the republic scientific-practical conference. Book 11. T.:- 2021. Page -189
7. Rabat - is a special place for vacationing caravans
8. Amir Temur. Rules. In Uzbek, English, French and Russian.: - T.: Extremum-press T.: 2016. Page- 485
9. Timur's rules. T.: G'. Ghulam publishing house, 1991, page 100. See A Page mir Temur's national state policy: history and present. T.: "Science", 2006., Page - 26.
10. U. Uvatov. Sahibqiran in the eyes of Arab historians. Chief editorial office of Sharq publishing-printing concern. T.:-1997. Page -58
- 11.Rui González de Clavijo. Diary of a trip to the palace of Amir Temur in Samarkand." Art" T.:-1990. Page- 23
12. Herman Wambery. History of Bukhara and Movorunnahr. T.: 1990, Page- 54.
13. U. Uvatov. Sahibqiran in the eyes of Arab historians. Chief editorial office of Sharq publishing-printing concern. T.:-1997.Page -58
14. Amir Temur in world history. Responsible editor H. Karomatov. "Sharq" publishing house. 2001. Page - 210

15. It is a medicine for the pain of the nation. A collection of materials of the republican scientific practical conference. Navoi city. 2008. Page - 70

16. Amir Temur. Testaments, advices, reprimands. Zaveshchanie, soveti, nastavleniya. Literary and art publishing house named after G'. 2000. Page-54

17. A genius savior of the homeland. Tashkent 1996. People's heritage publishing house named after Abdulla Qadiri. Page -66.

18. R.G Clavijo. Dnevnik puteshestvia ko dvoru Temura v Samarkand v 1403-1406g. M.: "Nauka", 1966, Page -111.

19. A. Shimshirgil. Amir Temur. http://n.ziyouz.com/images/amir_temur.jp

20. Barlos - barulas, ballos - are one of the tribes that are part of the Uzbek people. Information on the origin (ethnogenesis) of Barlos, one of the largest Uzbek tribes in the past, was provided by historians Rashiddun (1247-1318), Babur (1438-1530), 19th century authors, Russian historians A.D. Grebenkin, A.P. Khoroshkhin and orientalist V. V. Bartold, A.Yu Yakubovsky, ethnographers B.Kh. It is found in the works of Karmisheva, K. Shoniyozov, K. Kubakov, O. Boriev and others. The ethnic history of this people has not yet been deeply ethnologically researched. (O. Boriev. Uzbeks: ethnic history and ethno-cultural processes. Samarkand.: 2008. Page -144-148.

AMIR TEMUR ARMIYASIDA PSIXOLOGIK ISHLAR VA RAG‘BATLANTIRISH MASALALARI

U.A.Bo‘tayev,

*O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan
o‘quv markazi katta o‘qituvchisi, podpolkovnik*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev joriy yilda Vatan himoyachilariga yo‘llagan bayram tabrigida “Shonli tariximiz, buyuk ajdodlarimiz, yengilmas sarkardalarimiz jasorati, ularning **“Bilagi**

zo‘r – birni yengar, ongi va yuragi zo‘r esa – mingni” degan dono o‘g‘itlari bizga aynan mana shunday hayotiy haqiqatni uqtiradi” deb ta’kidlagan edi. [1]

Tarixga nazar solsak, yurtimizda qanchadan qancha buyuk siymolar voyaga yetgan. Ular o‘z zamonining yetugi va o‘z sohasining eng kuchli bilimdoni bo‘lishgan.

Bu olam yaralibdiki ne-ne urushlarni, ne-ne zafarlarni va ne-ne jahongirlarni ko‘rmadi. Ammo jahongirlararo bir ulug‘ zot borki, insoniyat tarixiy taraqqiyotida uning o‘rni bo‘lakcha. Bu buyuklik timsoli Sohibqiron Amir Temurdir.

Amir Temurning davlatchilik va diplomatiya, harbiy mahorat, bunyodkorlik salohiyati, ilm-fan, san‘at va me‘morchilikka oid qarashlari, hayotning ma‘no- mazmuni, insonni ulug‘laydigan ezgu ishlar haqida bildirgan fikrlari, dinu diyonat va adolatlarni joyga qo‘yish, saltanat ishlarini kengash va tadbir asosida amalga oshirish, har bir masalada uzoqni ko‘zlab, el manfaatlarini o‘ylab ish tutishi bilan bog‘liq ibratli fazilatlarni alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Aynan mana shunday masalalar Sohibqiron tafakkurining mahsuli bo‘lgan “Temur tuzuklarida” har tomonlama aniq, ishonarli va ta’sirchan tarzda yoritilgan.

Sohibqiron siymosi o‘rganilganda asosiy ma’lumotlar uchun uning o‘zi tomonidan tuzilgan “Temur tuzuklari”, mashhur Ozar tarixchisi Nizomuddin Shomiyning “Zafarnoma ” kitobi, Tojiddin al-Solmoniyning “Tarixnoma” asari, Mirzo Ulug‘bekning “Tarixi arba’ ulus” asari, Ibn Arabshohning “Ajoyib ul-maqdur fi tarixi Temur” Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma ”si, Rui Gonsales de Klavixonning “Buyuk Amir Temur tarixi”, Sultoniya arxiyepiskopi Ioann qalamiga mansub “Amir Temur va uning saroyi haqida xotiralar” kabi asarlar qimmatli manbalar bo‘lib hisoblanadi. Bugungi kunda esa Amir Temur siymosi jahonning yuzlab olimlari tomonidan o‘rganilmoqda va uning xizmatlari e’tirof etilmoqda.

Bu ulkan qudrat sohibi yurishlarining samaradorligi sabablariga e’tibor qaratsak, uning ta’rifi yo‘q sarkardalik salohiyati, uzoqni ko‘ra olishi, voqealar rivojini ilmiy bashorat qila bilish qobiliyati, adolati, himmati, qahri va rahmi, eng muhim sifati-tezkorlik va qat’iyati ko‘zga

tashlanadi. “Harbiy qo‘mondonga beriladigan eng xolis baho – uning janglarda erishgan g‘alabasidir... Temur barcha davr buyuk harbiy qo‘mondonlari orasida alohida o‘rin egallaydi... Temur ulkan strateg sezgisiga ham ega bo‘lgan, unda jangda eng zarur paytda , kerakli joyda paydo bo‘la olishdek ajoyib xususiyat mavjud edi”. (Richard Nelson, AQSh).

Xususan, buyuk Sohibqiron Amir Temur jangchining axloqiy va ma’naviy xislatlariga katta ahamiyat qaratgan. Sarkarda o‘z “Tuzuklari”da jangchining ma’naviy-jangovar xislatlari namunalarini ifodalab bergan. U jangchining jasurlik, mardlik, keskin vaziyatlarda qaror qabul qila olish va dushmanni kam kuch sarflagan holda yengish mahorati, jang olib borish san’atini egallashi, bo‘linmani o‘z ortidan jangga olib kirish va yuzaga kelgan xavfni qisqa muddatlarda bartaraf eta olish qobiliyatini birinchi o‘ringa qo‘ygan.

Darhaqiqat, Sohibqiron ajabtovur jangovar, psixologik bilim va xususiyatlar egasi ham bo‘lgan.

Ilk bora “psixologik urush” termini britaniyalik tarixchi J.Fuller tomonidan, “psixologik operatsiya” esa 1945 yil amerikalik harbiy mutaxassis, Zaxaris tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lsa-da, (Akademik Grigorevich Karayani) biz uning amaliyotini jahongir Amir Temur jang san’atida ham ko‘ramiz. Buyuk sarkarda Amir Temurning jangovar yurishlari uning naqadar kuchli psixologik bilim egasi ekanligini ko‘rsatadi.

Amir Temur lashkarga psixologik quvvat bag‘ishlovchi juda ko‘p usullar va vositalardan foydalangan. Agar yov bostirib kelib, chopovul, shiqovul, barong‘ir va jang‘ovor qismlarni mahv etib, lashkarning qo‘l qismiga yetib kelar ekan, u chog‘da sulton shijoat oyog‘ini sabr uzangisiga mahkam tirab, dushmanni daf etib yo‘qotish uchun oldinga tashlansin. Chunonchi men Shoh Mansur bilan bo‘lgan jangda shunday qildim. U turgan yerga yetib oldim va u bilan yuzma-yuz to‘qnashdim, toki uni halokat tuprog‘iga qormagunimcha urushdim. [2]

Jangovar vaziyatda dushmanning qo‘li baland kelishi jangchilarga nafaqat moddiy jihatdan, balki ruhiy jihatdan ham kuchli ta’sir etishini

hisobga olgan sarkarda bunday vaziyatlarda sultonning xatti-harakatlari qo‘shinga ruhiy quvvat bag‘ishlashini juda yaxshi bilgan.

Sh.O‘ljayeva bu borada: Amir Temur qo‘shiniga asli toza, aql-farosatli, bahodir, dovyurak, tadbirkor, sergak, ehtiyotkor, oldi-ortini o‘ylab ish tutadigan, jang sir-asrorlarini biladigan **313** amirni rahbar etib tayinlagan bo‘lib, ularning darajasi pastrog‘i yuqorirog‘iga bo‘ysungan. **Uch yuz o‘n uch amirdan yuztasi o‘nboshi, yuztasi yuzboshi, yuztasi mingboshi** bo‘lgan. Shuningdek, tumanboshi o‘n minglik qo‘shinga rahbarlik qilgan. Jang paytida amir ul-umaro amirlarga, amirlar mingboshilarga, mingboshilar yuzboshilarga, yuzboshilar o‘nboshilarga boshliq bo‘lgan va yuqoridan kelgan buyruqlar so‘zsiz bajarilgan. [3]

Janglarda katta matonat ko‘rsatgan askarlarga o‘nboshilik darajasi, agar shu askar jangning muvaffaqiyatli tugashiga ikkinchi marta hissa qo‘shsa, yuzboshilik darajasi, uchinchi marotaba jasorat ko‘rsatsa, unga mingboshilik martabasi berilgan.[4]

Bundan ko‘rinib turibdiki, Amir Temur qo‘shinlarida harbiy daraja va martabaga ega bo‘lish uchun hech qanday muddat belgilanmagan, vaholanki ularning alohida xizmatlariga qarab berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Albatta, martaba darajasi qancha ko‘tarilgani sari, uning maoshi ham shunga yarasha yuqori tayinlangan. Darajasiga qarab, turli imtiyoz va vakolatlar berilganligi, oilasining ijtimoiy muhofazasi to‘liq ta‘minlangani, uy-joy, yer-mulk kabilar in‘om tariqasida tuhfa etilgani, nafaqat, ularning tiriklik vaqtlarida, balki vafotidan so‘ng ham ushbu tartib-qoida amalda bo‘lishiga to‘liq ishongan harbiylarni yanada o‘z ustida ishlashga, sadoqat bilan xizmat qilishga va kerak bo‘lsa jonini fido qilishgan.

Shuningdek, qaysi amir jangda g‘anim podshosi yoki uning o‘g‘lini yengsa, u haqda ovoza tarqatilgan, qo‘shinning faxrli xitobi aytilgan, qimmatbaho sovg‘alar bilan mukofotlangan, uning qaramog‘iga ulus va chegara viloyatlar topshirilgan. Mukofot turlicha bo‘lishi mumkin edi. Bu bajarilgan ishning qanchalik ahamiyatli ekanligiga bog‘liq bo‘lib, ba‘zan amirlarga biror hudud uch yilga yoki boshqa muhlatga in‘om etilgan. [5]

Buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temurning vatanga sadoqat, yurtni ardoqlash, mardlik, fidoyilik va adolatparvarlik kabi yuksak fazilatlari yosh avlod uchun o‘rnak bo‘lib xizmat qilishini

inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan respublikaning barcha harbiy akademik litseylariga “Temurbeklar maktabi” nomi berilishi yoshlarimizni quvontirdi. Bu esa kelajak avlodlarga Amir Temur hazratlarining harbiy, ma’naviy merosini yetkazish orqali ularda milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va iftixorni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur o‘z davlatida mudofaa va xavfsizlik masalalarini samarali ta’minlashda qo‘shinlardagi jangchining axloqiy va ma’naviy xislatlariga katta ahamiyat berganligi, shaxsning individual-psixologik xususiyatlariga alohida e’tibor qaratganligi, askarning eng quyi martabadan oliy martabagacha tarbiyalab ko‘tarish tizimini joriy etganligi, namuna ko‘rsatganlarga nisbatan munosib rag‘batlantirishlar qo‘llanilganligi ham uning armiyasida adolat tamoyiliga qat’iy rioya qilganidan dalolat beradi. Bu esa uning qo‘shinlarida axloqiy-ruhiy holatning ko‘tarilishiga va jangovar ruhning mustahkamlanishiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 13 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi”. -Toshkent: 2023. <https://president.uz/uz/lists/view/5821>. – 4 b.
2. Темур Тузуклари. – Т.: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 1996. – Б.134
3. Ўлжаева Ш. Амир Темур давлат бошқаруви. Ташқи сиёсат. Дипломатия. – Т.: Академнашр, 2017. – Б. 133-135.
4. Жан-Поль Ру. Тамерлан / Пер с. Фр. Е.А.Соколова; Послесл. В.Л.Егорова. – М.: Молодая гвардия, 2004. – С. 241.
5. Темур тузуклари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 104.

AMIR TEMUR FAOLIYATINING XV-XVI ASR YEVROPA MUALLIFLARI ASARLARIDA YORITILISHI

*L.Sh.Elimov,
Sam DU “Jahon tarixi”
kafedراسi o‘qituvchisi*

Amir Temurning Yaqin Sharq va Kichik Osiyodagi zafarli harbiy harakatlar natijasida Yevropa qirollarining unga bo‘lgan qiziqishining ortishiga sabab bo‘lganligini yuqori paragraflarda ko‘rib o‘tgan edi. Amir Temurning usmonli turklar ustidan g‘alaba qozonishi bu qiziqishni yanada kuchayishiga olib kelgan. Natijada Amir Temurning qarorgohiga Yevropa qirollarining elchilari bir necha martadan tashrif buyura boshlagan. Bu elchilik tashriflari Yevropada Sharqning buyuk sarkardasi bo‘lgan Amir Temur to‘g‘risida ma‘lumotlarning shakllanishiga katta turtki bergan.

Dastlab Amir Temur haqida to‘plana borgan bu ma‘lumotlar rasmiy yoki hikoya tarzida bo‘lsa, keyinchalik ilmiy yoki badiiy qiyofa kasb eta boshlagan. Amir Temur haqida Yevropa renessansi davrida unchalik ham ko‘p asarlar yaratilmagan. Bunga sabab sifatida biz so‘z yuritilayotgan XIV asr oxiri XV asarlarda Yevropada tarixnavislik u darajada taraqqiy qilmaganligi va davlatlardagi siyosiy vaziyatni ham misol qilib keltirib o‘tishimiz mumkin. Shunday bo‘lsada Amir Temur haqida XV asrdan boshlab bir qator o‘z davri uchun ancha mashhur bo‘lgan asarlar dunyo yuzini ko‘ra boshladi. Bular qatoriga biz Rui Gonsales de Klavixo kundaligidagi ma‘lumotlarga asoslangan holda yozilgan 1582-yilda Argote de Molina tomonidan nashr etilgan “Xiristoriya del Grand Tamorlan” (“Buyuk Temurlang tarixi”), bavariyalik ritsar Iogann Shiltbergerning sayohati davomida to‘plangan ma‘lumotlari 1475-yilda Maynsda nashr etilgan asar bo‘lsa, uchinchisi Rim papasi Bonifatsiy IX tomonidan 1398 yil 23 avgustda Sultoniya shahrining arxiyepiskopi etib tayinlangan Ioann de Galonifontibusning “Memoires sur Tamerlan et sa cour” larni asosiy asar sifatida keltirib o‘tishimiz mumkin.

Yuqorida nomlari keltirib o‘tilgan asarlardan tashqari yana o‘sha davrga oid bir qancha elchilar va sayyohlarning ma‘lumotlari ham bor,

lekin Amir Temur faoliyatining qamrab olish darajasi bo'yicha bu asarlar yuqorida sanab o'tilgan asarlardan ancha orqada.

Rui Gonsales de Klavixoning Amir Temur davlatiga elchiligi 1403-yilning 22-may sanasidan boshlangan. Klavixo ropa-rosa 15 oy deganda Ispaniyada Samarqandga yetib kelgan. Unga bu safarda diniy ta'limot bo'yicha magistr Alfonso Paes de Santa Mariya va Kastiliya qiroli Genrix III ning maxsus soqchisi Gomes de Salazarlar hamrohlik qilishganlar. Klavixoning Amir Temur saroyiga qilgan elchilik safari juda mashaqqatli kechgan. 1404-yilning 31-avgust sanasida Samarqan shahri yonidagi Misr nomli qishloqqa kelib joylashgan. U shaxsan Amir Temur qabulida bo'lib, shu yilning noyabr oyida o'z yurtiga jo'nab ketgan.

Amir Temur nomining Yevropada keng tarqalishiga Rui Gonsales de Klavixo kundaligidagi ma'lumotlar katta ta'sir ko'rsatgan. U 1403-1404-yillar davomida Amir Temur davlatiga qilgan safari davomida juda qiziqarli va muhim ma'lumotlarni o'z estaliklarida qayd qilib borgan. Uning kundaligidagi ma'lumot nafaqat Amir Temur yoki temuriylar tarixi uchun, balki Yaqin Sharq, Eron, Afgo'niston va boshqa bir qancha davlatlar tarixi uchun ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Uning kundaligida Amir Temur va temuriylarga oid juda muhim ma'lumotlarni ham uchratishimiz mumkin.

Klavixo Samarqandga sayohati davomida juda ko'plab shahrlarda bo'ladi. U har bir shaharga kelganda u yerdagi muhitga alohida diqqat bilan e'tiborini qaratadi. Yo'l davomida Amir Temur haqida bir-biridan qiziqarli bo'lgan ma'lumotlarni eshitib to'plab boradi. Shunday qiziqarli ma'lumotlardan biri Amir Temurning kelib chiqishi bo'lgan. U Amir Temurni kelib chiqishini chig'atoy urug'iga olib borib taqagan. Uning so'zlariga ko'ra Amir Tarag'ay Bahodir badavlat bo'lmagan. Uning uch yoki to'rt otliq xizmatkori bo'lgan. Klavixo yozishicha Tarag'ay Bahodir Kesh yaqinidagi bir qishloqda yashagan. Klavixo Amir Temurni o'rta hol beklardan bo'lganligini, faqat o'zi va to'rt beshta otliqlarini taminlay oladigan daromadi bo'lgan" [1;149-b]. Klavixo bu ma'lumotlarini o'zi eshitganlariga asoslanib yozganligi kundaligida ham qayd etib o'tgan.

Klavixo Amir Temurning dastlabki harakatlarini zo'ravonlik deb baholagan. Uning yozishicha, Amir Temur balog'at yoshiga yetgach o'zi

kabi to‘rt-besh kishi bilan birgalikda zo‘ravonlik ishlarini amalga oshirgan. Bu keltirgan ma‘lumotlarni Klavixo o‘z sayohati davomida eshitgan hikoyalarga asoslanganligi yaqqol ko‘zga tashlangan.

Amir Temurni dastlabki harakatlarini zo‘ravonlikdan tashqari talonchilik bilan ham shug‘ullangan deb keltirgan Klavixoning bu ma‘lumotida ham asosga ega emas. Uning Amir Temurni o‘z odamlari bilan uzoq yerlarga borib savdogarlarni talash bilan shug‘ullangan deb yozgan fikrlariga tanqidiy qarashimiz kerak. Uning bunday deyishiga Amir Temurga salbiy munosabatda bo‘lgan kishilardan eshitgan hikoyalari asos bo‘lishi mumkin. Bu kabi ma‘lumotlariga tanqidiy qarash lozimdir.

Bundan tashqari ispan elchisi Amir Temurning ichki siyosatda yuritgan ishlari va tashqi aloqalariga oid ham juda ko‘p ma‘lumotlarni keltirib o‘tgan. Bunday ma‘lumotlarga misol tariqasida Amir Temur va Boyazid o‘rtasidagi munosabatlarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Klavixo o‘zining eshitganlariga qarab o‘z estaliklarida ikki sarkarda o‘rtasidagi aloqalarga to‘xtalib o‘tgan.

Klavixo ikki mohir sarkarda o‘rtasidagi munosabatlarning qay vaziyatda va nima sababdan yomonlashib borganligini u o‘z estaliklarida yozib qoldiradi. Ikki sarkarda o‘rtasidagi harbiy harakatlar va o‘zaro maktub almashinuviga ham o‘z diqqatini qaratgan.

Rui Gonsales de Klavixo o‘z kundaliklarida Rum qaysari va Turon sultoni o‘rtasidagi munosabatlar haqida shunday xabar beradi: “Temurbek va turk sultoni Boyazidning bir-birlarini yaxshi bilishlari va Temurbekning unga qarshi urush boshlashining sabablari quyidagicha: – deb yozadi u. – Arsinga (Arzinjon) shaharining hokimi Zaratan (ya‘ni Tahurtan, ispan elchisi eshitganiga qarab shunday yozgan) yerlari Turkiya yerlari bilan tutash edi. Tahurtan yerlarini, ayniqsa, Kamox qal‘asini egallashga oshiqqan Boyazid Tahurtandan boj to‘lash va Kamox qal‘asini topshirishni talab qildi. Tahurtan qaysarning hokimiyatini tan olishi va boj to‘lashga tayyorligini aytadi, ammo qal‘ani topshirolmasligini bildiradi. Qaysar unga odam yuborib, qal‘ani albatta topshirishi zarurligi, agar bundan bosh tortsa, butun mulkidan ayrilishini ma‘lum qiladi. Shunda Temurbekning bemisl qudrati haqida eshitgan Tahurtan, o‘sha kunlarda Forsda turgan va jangda Fors hukmdorini mag‘lub etgan Turon sultoniga maktubu sovg‘alar

bilan elchi yuborib, Boyaziddan himoya aylashini, o'zini esa Temurbekka tobe deb bilishini, xuddi unga bir asirday muomala qilishini o'tinib so'raydi."

Amir Temur va Boyazid o'rtasidagi munosabatlarning ziddiyatli tomonga o'zgarishida Klavixo ko'proq turk sultonining aybi bor deb hisoblagan. Bundan tashqari Klavixo Amir Temur va To'xtamish o'rtasidagi aloqalarga ham to'xtalib bir qancha muhim ma'lumotlarni keltirib o'tgan.

Klavixo o'z estaliklarida Amir Temur va temuriylar tarixi, madaniyati va ijtimoiy hayotiga oid juda ko'plab ma'lumotlar keltirib o'tgan. U ma'lumotlarning ko'pchiligini Klavixoning o'z kozi bilan ko'rganlari tashkil qilsa, talayginasini eshitganlari tashkil qilgan. Shunday bo'lsa ham uning asari Amir Temur va temuriylar tarixini o'rganishda asosiy manbalar qatorida bo'lib kelmoqda.

1377-yil 9-martda Rim papasi Gregori XI Dominikanlik Jon de Galonifontibusni Naxichevan yepiskopi etib tayinladi. 1398 yil 26-avgustda Rim papasi Bonifatsi IX Naxichevan yepiskopi Ioanga arxiyepiskop unvonini beradi.

Ioan Amir Temur elchi sifatida Yevropaga yuborganligi to'g'risida bizgacha ma'lumotlar yetib kelgan. U 1402-yilning 28-iyun sanasida Amir Temur nomidan elchi sifatida Yevropaga yuborilgan. 1403-yilda u Venetsiya, Genuyaga tashrif buyuganidan so'ng 15-iyun kuni Parijda qirol Karl VI qabulida bo'ladi.

Sultoniyalik arxeypiskop Ioann de Galonifontibus o'z estaliklarida Amir Temur va temuriylar tarixiga oid anchagina ma'lumotlarni berib o'tadi. Amir Temurning yoshlik yillari to'g'risidagi ma'lumotlar ham Ioan asarida qisqa shaklda bo'lsa-da uchraydi. U Amir Temurning yoshligiga to'xtalib o'tar ekan, uni o'z tengdoshlariga o'xshaga oddiy yigit bo'lganligini, ammo aql-zakovati, zukkoligi bilan ajralib turganligini takidlagan. Bundan tashqari Ioan Amir Temurni bir bechora ayolning bo'lib o'lganligini, kambag'alikdan qiynalgan deb yozgan. Ioan so'zlariga qaraganda Amir Temur har doim nimaga erishgan bo'lsa xudoning marhamati bilan erishganligini, vaqti kelib bularning hammasini xudoga qaytarishini har doim takidlab yurgan" [2;11-p].

Yoxannes (Xans) Shiltberger 1381-yil 9-mayda Germaniyada Bavariyaning Myunxen va Freisz oʻrtasidagi Lollof yaqida joylashgan Xollernda tugʻilgan. U 1030-yildan beri katta obroʻga ega boʻlgan, ayni vaqtda kambagʻallashgan oiladan edi. Uning ota-bobolari uzoq yillardan beri ritsarlik maqomiga ega boʻlib kelar va Vittelsbax hisobiga xizmat qilgan [3;14-b]. Ular Ayxax yaqinidagi Shiltbergda qasriga egalik qilar edi.

Yoxannes Shiltberger ritsar Lynhart Rehartinger bilan birga xizmat qiladi. U Sigizmund boshchiligidagi salibchilar qoʻshini tarkibida turklarga qarshi 1396-yil 28-sentabrda Nikopoldada boʻlgan jangda qatnashadi. Bu jang salibchilar uchun omadsiz boʻladi. Jangda Shiltberger Usmonlilar tomonidan asir olinib qulga aylantiriladi. U harbiy sohada mahoratli boʻlganligi uchun keyinchalik Sulton Boyazid I va uning oʻgʻillarining shaxsiy qoʻshini tarkibiga askarlikka qabul qilindi. Biroz vaqt Shiltberger usmonlilar qoʻshinida xizmat qiladi. 1402-yilda Boyazid qoʻshinlari tarkibida Anqara yonida Amir Temurga qarshi jangda ishtirok etadi. Bu jangda Shiltberger Amir Temurga asirga tushdi. U Amir Temur tomonidan Shohrux xizmatiga berildi. Shunday qilib Shiltberger 30 yildan koʻproq vaqt davomida “oʻzga xalqlar orasida” boʻlib, shu yillar davomida oʻz koʻzi bilan koʻrgan va eshitgan maʼlumotlarini keyinchalik oʻz asarida yozib qoldiradi. U 1427-yilda Mingeley qoʻlidan qochib, yana toʻrtta xiristian bilan birgalikda Trabzondagi fransuzlar kemasiga chiqadi [4;18-c]. Konstantinopol boradi va u yerdan Moldaviya, Vlaxiya yerlari, Lvov, Krakov va Vroklav orqali Germaniyaga qaytib keladi. Oʻzining sayohati davomida u Gretsiya, Kichik Osiyo, Fors, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Oltin Orda, Ural, Sibr, Qrim va Oʻrta Osiyoga sayohat qiladi.

Bavariyaga qaytgach Shiltberger taqvodor gersog Albrext III ning xizmatiga oʻtadi. Taxminlarga koʻra u 1440-yilda vafot etgan. Uning dafn qilingan joyi sifatida taxminan Fauburg (Yuqori Bavariyaning zamonaviy tumani) deb hisoblanadi. Uning avlodlari XIX asrning ikkinchi yarmida “Marshal fon Shiltberg” degan unvonni olishgan [4;19-c].

Shiltberger oʻz vataniga qaytgach koʻp oʻtmay oʻz estaliklarini nemis tilining bavar lahjasida yozishga harakat qiladi. U asosan oʻz xotiralariga tayanib qolmay, asirlik vaqtida yozgan estaliklariga ham eʼtabor qaratgan.

Shiltbergerning asari dastlab 1475-yilda Maynisdan, keyin 1477-yilda Augsburgda bosib chiqiladi [3;16-p]. Uning asaridagi ma'lumotlar sodda va badiiy tilda yozilgan. Ammo turli xil fantastik, marsiyalar va mo'jizalar haqidagi hikoyalar bilan izohlangan tasvirlar ham juda muvaffaqiyatli keltirilgan. XV asrda bosmadan chiqqan bu asardan 4 tasi bizgacha yetib kelgan.

Shiltberger asarini ilmiy o'rganish XIX asrdan boshlangan. 1859-yilda Myunxenda Karl Fridrix Nyuman boshchiligida "Reisen des Johannes Shiltberger aus Munchen Evropa, Osiyo va Afrika 1394 bis 1427" sarlavhasi ostida nashr etildi. 1885-yilda Tubingenda "Shturtgart adabiy uyushmasi kutubxonasi" qatorida nashr etildi.

Shiltberger asarida keltirilgan tarixiy ma'lumotlarning hammasini ham aniq deska xato bo'ladi. Asardagi ma'lumotlarda chalkashliklar, geografik jihatdan beqarorlik, aniq bo'rttirishga moyillik sezilib turadi. Shunday bo'lsa ham uning keltirilgan ma'lumotlari tarixni o'rganishda beqiyos ahamiyatga egadir.

Shiltberger Anqara yonidagi jangda Boyazid qo'shinlari tomonidan ishtirok etadi. Bu jangda Boyazid mag'lubiyatga uchrashi sababli tirik qolgan askarlar safida Shiltberger ham Amir Temur qo'shinlariga taslim bo'ladi.

Shiltberger o'z asarida Amir Temur haqidagi ma'lumotlarni keltirishni Boyazid bilan munosabatlaridan boshlaydi. Sevasiya shahrini egallash borasidagi Amir Temur va Boyazid o'rtasidagi kurashga Shiltberger alohida to'xtaladi. Sevasiya shahrini egallash uchun Boyazid harakatini boshlaydi. Lekin Amir Temur bir million askar (shu yerda Shiltberger tomonida raqamlarni bo'rttirishni kuzatishimiz mumkin) bilan borib 21 kun davomida shaharni qamal qilgandan so'ng egallaydi [5;20-p]. Shu o'rinda Shiltberger Amir Temurning shahrni egallagandan keyin shahar aholisini ma'lum qismini asir qilib olib ketganiga ham to'xtaladi. Uning yozishicha Amir Temur qo'shinlari tomonidan shahardan olib chiqib ketilgan asirlar orasida 9 ming qiz ham bo'lgan. Bu shaharni egallashda Amir Temur 3 mingdan ortiq askarlarini yo'qotganligini ham u asarda to'xtalib o'tadi.

Shiltberger o‘z asarining 13 bandini Kichik Armanistonning Boyazid tomonidan egallanishi deb nomlaydi. Bunda Amir Temur davlati tarkibiga kirgan Kichin Armanistonga Boyazid 300000 kishilik qo‘shin bilan hujum qilganligi va asosiy shahri Erzinjanni qo‘lga kiritganligi yozilgan. Boyazidning bu harakatini eshitgan Temur 1 mln 600 ming (bu ma’lumotda ham bo‘rttirishni ko‘rishimiz mumkin) qo‘shin to‘pladi. Amir Temurning bu ulkan qo‘shiniga Boyazid o‘zining 1 mln 400 ming (bu yerda ham raqamlarda bo‘rttirish kuzatilgan) kishilik qo‘shini bilan qarshi chiqadi [5;21-p]. Bu jang Anqara yaqinida bo‘lib o‘tadi. Shiltbergerning ma’lumoticha urush boshlanish arafasida 30 ming kishilik tatar qo‘shini Amir Temur tarkibidan chiqib Boyazid tomonga o‘tib ketadi. Jang boshlanishiga ham Shiltberger alohida to‘xtalib o‘tadi shunday deydi: “ikki o‘rtada jang boshlangan vaqtda Amir Temur o‘zining Hindistondan olib kelgan jangavor 32 ta filini dastlab janga kiritdi. Jang juda shiddatli davom etdi. Amir Temur jangni Boyazid taslim bo‘lmaguncha tugatmaslikka buyruq berdi”. Bu jang natijasida Boyazid mag‘lubiyatga uchraydi va 8 oy davomida Amir Temur qo‘lida asirlikda kun kechirganligini ham Shiltberger estaliklarida yozib qoldirgan.

Anqara jangi natijasida g‘olib bo‘lgan Amir Temur ega bo‘lgan boylikka ham Shiltberger to‘xtalib o‘tadi. Uning aytichisha qo‘lga kiritilgan oltin-u kumushlarni olib ketish uchun 1000 ta tuya kerak bo‘lgan. Asir tushgan Boyazidni Amir Temur Samarqandga olib ketmoqchi bo‘ladi. Lekin Boyazid 58 yoshida yo‘lda vafot etadi.

Shiltbergerning yuqorida keltirib o‘tgan ma’lumotlari uning Boyazid qo‘shini tarkibida bo‘lgan vaqti sodir bo‘lgan. Bundan keyingi ma’lumotlari bevosita Amir Temur va uning o‘g‘illari qo‘l ostidaligida bo‘lib o‘tadi.

Sharq va g‘arb dunyosida birdek obro‘ga ega bo‘lgan Sohibqironning o‘lim haqida Shiltberger bir qancha ma’lumotlarni yozib qoldirgan. Uning asarida keltirilishicha dafn marosimi juda tantanali bo‘lib o‘tgan. Amir Temur vafotidan keyin turli hududlardan kelgan har xil kasb egalari o‘z yurtlariga qaytib ketish imkoniga ham ega bo‘lishganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham asarda uchraydi.

Asarda nafaqat Amir Temur faoliyat balki uning o'g'illariga ham bir qancha bandlar bag'ishlangan. Xususan, asarning 21 bandini Shiltberger Amir Temur o'g'illari haqida deb nomlaydi. Bu bandeda keltirilishicha Amir Temur o'g'illarining sonini 4 bo'lganligini, shundan ikkitasi hayot ekanligi aytilgan. Mironshoxga Eron va unga yondosh viloyatlar berilganligini, Shoxrux Mirzoga esa Xuroson, Mozondaron va unga yondosh hududlar taqdim qilinganligi asarda uchraydi.

Amir Temur vafotidan keyin Shiltberger Shohrux mirzo xizmatiga o'tadi va u bilan birga Hirotga ketadi. Shiltberger o'z asarida yozishicha Amir Temur vafotidan keyin asosiy dushmanlaridan biri bo'lgan qora qo'yinli turkmanlardan bo'lgan Qora Yusuf Eronda hukumdor bo'lgan Mironshoxga qarshi urush boshlaydi. Mironshox Qora Yusuf bilan jangda mag'lub bo'lib Hirotga ukasi Shohrux mirzo huziriga yordam so'rab boradi. Aka-ukaning birlashgan 80 ming kishilik qo'shini Qora Yusufning 60 ming kishilik qo'shiniga qarshi jang qiladi. Shiddatli jang natijasida Qora Yusuf chekinadi va Mironshox yana o'z mulklarini qaytarib oladi. Shunday bo'lsada qora Yusuf Kichik Armaniston va Kurdistonni o'z qo'lida saqlab qoladi. Shaxrux o'z qo'shini bilan borib bu hududlardan Qora Yusufni haydab chiqaradi va bu yerlarni akasi ixtiyoriga topshirib ortga qaytadi. Shiltbergerning yozishicha aynan uni Shohrux 20 ming qo'shin bilan akasi ixtiyoriga qoldiradi. Shiltbergerning keyingi hayoti va faoliyati bevosita Mironshox qo'shini tarkibida xizmat qilish bilan bog'liq bo'ladi [5;31-p].

Asarning 22 bobini Shiltberger bevosita Mironshoxning Qora Yusuf tomonidan mag'lubiyatga uchratilishi va uning halokatiga bag'ishlaydi. Katta qo'shin to'plagan Qora Yusuf Mironshoxga qarshi urush harakatlarini boshlaydi. Asarda yozilishicha ikki qo'shin o'rtasidagi jang Qorabog' yaqinidagi tekislikda bo'lib o'tadi. Bu yerda ikki kunlik jangda Mironshox boshliq qo'shin mag'lubiyatga uchraydi va uning o'zi yarador holatda asrga olinadi. Asirga tushgan Mironshoxni Qora Yusuf qatl qilishga buyuradi. Shiltbergerning ma'lumoticha Qora Yusuf temuriylardan xun talab qilib yurar edi. Ancha yillar oldin Amir Temurning katta o'g'li Jahongir Qora Yusufning akasini o'ldirgan edi. Shuni uchun Qora Yusuf Mironshoxni tezlikda qatl qilishga buyuradi.

Mironshox boshidan judo qilinadi. Uning boshini Qora Yusufning buyrug'iga ko'ra Tabriz shahri devorlari ostiga nayzaga sanchilgan holda olib boriladi. Tabrizliklar o'z hukumdorining sanchilgan boshini ko'rib dahshatga tushadi va Qora Yusufga taslim bo'lishga majbur bo'ladi [5;33-p].

Yoxannes Shiltberger ham Qora Yusufga taslim bo'ladi. Uning temuriylar bilan bog'liq kechgan hayoti shu tariqa yakun topadi. U yana ko'p yillar Osiyoning ko'plab hududlarida turli xil hukumdorlarga xizmat qilishga majbur bo'ladi. U qayerga borsa shu hudud haqida o'zi ko'rgan va eshitgan ma'lumotlarini keyinchalik yozgan asarida keltirib o'tgan.

Shiltbergerning Amir Temur va temuriylar haqida keltirilgan ma'lumotlarini hech shubhasiz juda katta tarixiy manba sifatida qaraladi. Asarda juda ko'plab voqealar, geografik joylar, raqamlar va boshqa ma'lumotlar keltirilgan. Shu o'rinda bir narsani aytib o'tish kerakki, uning ma'lumotlarida chalkashliklar, geografik joylarning nomlarini notog'ri keltirishlar, raqamlarda juda ham bo'rttirish holatlari juda ko'p uchraydi. Shunday bo'lsa ham bu asar Amir Temur va temuriylar tarixini o'rganishda har qanday tadqiqotchga yoki ixlosmadlarga katta ahamiyatga ega bo'lgan manbalardan biri bo'lib sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406-yillar). Rus tilidan O. Togayev tarjmasi. Ma'sul muharrir Muhammad Ali. Toshkent: "O'zbekiston", 2010.

2. Jean of SultoniY. Memoir sur Tamerlan et sa cour par un Dominicain, et 1403, ed., H. Moranville.-Bibliotheque de l'Ecole des Chartres, Paris:1894.

3. Bruim, P. — Geographische Bemerkungen zu Schiltberger's Reisen, in the Sitmngsberichte der Konig. Bayer. Ahademie. Miinohen, 1870.

4. Xennig Rixard. Priklyucheniya Gansa Shiltbergera vo vremya puteshestviy po Vostoku v kachestve raba // V kn.: Xennig R. Nevedomiye zemli / Per. s nem. A. V. Lisovskoy. Pod red. I. P. Magidovicha. — T. III. — M.: Inostrannaya literatura, 1962.

5. Bondage and Travels of Johann Schiltberger A Native of Bavaria, in Europe, Asia, and Africa, 1396-1427. Cambridge University Press 2010.

“TEMUR TUZUKLARIDA” ADOLAT TAMOYILLARI

U.A.Eshonqulov,

*Jizzax davlat pedagogika universiteti ijtimoiy-gumanitar
fanlarda masofaviy ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*

Amir Temur 35 yil davomida mamlakatni boshqardi. Hindiston va Xitoydan Qora dengizga qadar, Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar bo'lgan g'oyat katta hududni qamrab olgan ulkan saltanatni vujudga keltirdi Amir Temur va Temuriylar haqida 33 mamlakatda 500 dan ziyot chet ellik tadqiqotchilarning asarlari chop etilgan. Buyuk bobokalonimiz Amir Temurning shaxsiyati, tarixi, harbiy salohiyati, xalqlar hamda davlatlar o'rtasida tutgan o'rnini, diplomatik aloqalar, munosabatlarni joriy etishdagi faolligi to'g'risida juda ko'plab tarixiy, badiiy, ilmiy asarlar, risolalar, publitsistik maqolalar yozilgan. Shubhasizki, Temur haqida yozilgan katta asar yoki kichik maqola bo'lsin, har birida dahoning shaxsiyatiga tarixda o'chmas iz qoldirgan yirik davlat arbobi, mohir sarkarda, ilm-fan, madaniyat homiysi sifatida yuqori baho berishadi.

Tadqiqotchilar tomonidan Amir Temur shaxsiyatiga murojat etar ekan, bu buyuk dahoning hali o'rganilmagan yangidan yangi jihatlari ochilib kelaveradi xususan Amir Temur adolatli jamiyat qurishga, inson huquqlari fqih ilmi (musulmon qonunshunosligi) asosida ta'minlashga, mol-mulk daxilsizligiga, zo'rovonlikga qarshi chiqadi ¹Amir Temur uzigi ko'zida yozilgan,, Adolat najot yo'lidir” degan qisqacha iborasi ham uning dunyo qarashi ko'zguasi va amaliy faoliyatning asosiy shiori edi. Amo Temurning barcha xati xarakterlarida uning ta'siri ochiq sezilib turadi. Adolatga ishonish Amir Temur uchun iymon darajasiga ko'tarilgan edi.

Amir Temurning yetti yoshi 1342-yildan to 1405-yil 18-fevralga qadar kechgan hayoti va ishtmoiy siyosiy faoliyati haqida ma'lumot beruvchi Sohibqironing og'zidan yozilgan “Temur tuzuklari” asarida

¹ Amir Temur soboqlar moqolalar toplami 26-bet (Toshkent 1997-yil)

adolatli davlatni boshqarganligi xaqida shunday deydi¹ “Adolat va insof bilan Tangrimning yaratgan bandalarini o‘zimdanda rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlarning ko‘nglidan joy oldim. Siyosat va insof bilan sipohlarimni, raiyatni umid va qo‘rqinch orasida tutib turdim. Fuqaro va qo‘l ostimdagilarga rahmdillik qildim”

Amir Temur adolat bilan davlatni boshqarishda xardoim ustozlari maslaxtiga amal qilar nasixasatlarni tigar edi xar bir ishboshlashdan oldin mashvarat qilar edi bu to‘g‘risida temur tuziklarida shunde deydi²”Pirim menga yozmishlarkim: «Abulmansur Temur, saltanat ishlarida to‘rt narsaga amal qilgin, ya’ni: 1) (o‘zing bilan) kengash; 2) (boshqalar bilan) mashvaratu maslahat ayla; 3) hushyorligu mulohazakorlik bilan qat’iy qaror chiqar; 4) ehtiyotkor bo‘l. Chunki kengash va mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlariyu aytgan gaplari xato bo‘lgan johil kimsaga qiyoslash mumkin; uning so‘zlari va qilmishlari boshga pushaymonlik ila nadomat keltirgay. Shunday ekan, saltanatni boshqarishda mashvaratu maslahat va tadbir bilan ish yuritgin, toki oqibatda nadomat chekib, pushaymon bo‘lmagaysan. Bu maktub menga yo‘l boshlovchi yanglig‘ rahnamolik qildi. U menga saltanat ishlarining to‘qqiz ulushi mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini anglatdi.”

Sohibqiron Amir Temur odiy xalq turmishiga katta e’tibor qaratar oddiy xalqni o‘z oila a’zolaridek ko‘rar edi. shuning uchun xalqning xolidan xabar olib turishga ularning kayfiyatni bilib turishga va xalqning o‘zlari so‘ragan kishinin rahbar qilib tayinlar edi³“Raiyat ahvolidan ogoh bo‘l-dim, ulug‘larini og‘a qatoida, kichiklarini farzand o‘rnida ko‘rdim. Har yerning tabiati, har el va shaharning rasm-u odatlari, mizojidan voqif bo‘lib turdim. Har bir o‘lka va shahar axdining ashrof-ulug‘lari bilan do‘st tutindim. Mizojlariga, tabiatiga to‘g‘ri kelgan, o‘zlari tilagan odamlarni ularga hokim qilib tayinladim. Har bir diyor aholisining ahvolidan ogoh bo‘lib turdim. Har bir mamlakatning ahvolini, sipohu raiyat kayfiyatini,

¹ Temur tuziklari G‘ofur G‘ulom nashryoti 54 bet (Toshkent-1991-yil)

² Temur tuziklari G‘ofur G‘ulom nashryoti 14 bet (Toshkent-1991-yil)

³ Temur tuziklari G‘ofur G‘ulom nashryoti 55 bet (Toshkent-1991-yil)

⁵ Temur tuziklari G‘ofur G‘ulom nashryoti 75 bet (Toshkent-1991-yil)

turish-turmushini, qilish-qilmishlarini, bular o‘rtalaridagi aloqalarni xatga bitib, menga bildirib turishlari uchun diyonatli, to‘g‘ri yozuvchi kishilarni belgiladim. Bordi-yu egri yozganlari menga bildirilsa, ularni jazoladim. Hokimlaru sipohdan qay birining xalqqa jabr-zulm yetkazganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolatu insof yuzasidan chora ko‘rdim”

Yuqorida keltirilgan misralardan ko‘rinib turibdiki Sohibqiron Amir Temur rayat-odiy xalqa nisbat adolatli bo‘lish, holidan xabr olishga, xarakat qilgan va ularga o‘zi kabi adolatli rahbar tayinlash masalasiga aloxida e‘tibor bergan va yangi tayinlanadigan rahbarga nisbatan juda qattiq talpchan bo‘lgan biz bu to‘g‘risida “Temur tuziklariga” murojat etamiz bunda vazir lavozimga ega bo‘lgan inson qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerakligi to‘g‘risida shunday deydi ¹“Amr qildimki, vazirlar ushbu to‘rt sifatga ega kishilardan bo‘lishlari lozim: birinchisi asillik va toza nasllik, ikkinchisi–aql, farosatlilik, uchinchisi–sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalik, to‘rtinchisi–sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Kimki shu to‘rt sifatga ega bo‘lsa, unday odamni vazirlik martabasiga loyiq kishi deb bilsinlar. Uni vazir yoki maslahatchi etib tayinlasinlar. Mamlakat ishlarini, sipoh va raiyat ixtiyorini unga topshirsinlar. Bunday vazirga to‘rt imtiyoz–ishonch, e‘tibor, ixtiyor va qudrat berilsin. Qaysi vazir g‘iybat gaplarni aytsa, uydirma gaplarga quloq solsa, jabr-zulm qilsa, o‘ziga yoqmagan kishilarni yo‘qotish payiga tushsa, uni vazirlikdan tushirish lozim. Nasliyu zoti past, hasadchi, gina-kek saqlovchi, qora ko‘ngilli kishilarga zinhor vazirlik lavozimi berilmasin. Buzuqi, qora ko‘ngilli, zoti past odam vazirlik qilsa, davlatu saltanat tez orada qulaydi.”

Amir Temurnig adolatli foliyati haqida temur tuziklari, arab murihlar va g‘arbiy Yevropa bilan olib borilgan elchlik aloqalari natijasida yurtimizga tashrif buyurgan elchilar estaliklarida qizqarli malumotlar uchratamiz shulardan Kastiliya qirolu Genrix III tomonidan yuborilgan Rui Gansales de Klavixo boshliq elchilari 1404-yilning sentabr noyabr oylarida Samarqandda bo‘ladilar . Klavixoning safar taassurotlari “Buyuk Temur tarixi”, “Temur qarorgohi” va “Samarqandga sayohat kundaligi” nomlari

¹ Temur tuziklari G‘ofur G‘ulom nashryoti 75 bet (Toshkent-1991-yil)

ostida ispan tilida bir necha bor nashr qilinadi bu asarlarda Amir Temur foliyati haqida ajoyib vaqiyalar hikoya qilinadi.

Amir Temur uzoq vaqt davomida xarbiy safarlardan Samarqandga qaytib kelgandan so'ng xalqning xolidan xabar olar edi. Safarda vaqtida davlat boshqaruvga tayinlab ketgan amaldorlar foliyati juda qatiq nazoratga olinar edi bu to'g'risida Rui Gansales de Klavixo "Buyuk Temur tarixi" asarida quydagicha bayon etadi ¹ "Temurbek olti yilu o'n bir oy bo'lmagan vaqtda uni o'z o'rniga hokim tayinlab ketganli. Shu vaqtlar mobaynida bu kishi Temurbekning ishonchidan foydalanib, o'z laozimini suiste'mol qilgan, ko'p xatoliklarga yo'l quygan. Sohibqiron Samarqandga qaytib kelishi bilanoq, bu kishini oldiga chaqirib, molk-mulkini musodara qildi, o'ziga jazo tayinladi. Shunday taniqli kishiga bunday jazoning berilishi hammani hayratga soldi, chunki bu kishiga Sohibqironning o'zi ko'p ishonch bildirgandi. Sobiq hokimning tarafini olib chiqqanlar ham jazolandi.. Shundan keyin Temurbek yana ko'pgina insonlarni jazoladi Bunga misol qilib, bozordagi bir qancha qassoblarni ko'rsatish mumkin. Bu qassoblar Temurbek yo'q bo'lgan vaqtda go'shtlarni o'z narxidan ancha qimmatiga sotganligi uchun jazolandilar Keyinroq bozordagi hunarmandlar, etikdo'zlar o'z mollarini qimmat narxda sotayotganligini bilib, ular- ning ham ortiqcha daromadlarini olib qo'yishni buyurdi."

² Temur yozishmalariga muvofiq vaqti-vaqti bilan so'rovlar o'tkazish, tergov qilish, tekshirish, taftish ishlari amalga oshirilgan. O'z amalini suiste'mol qilish, poraxo'rlik, doimiy ichkilik ichish, maishiy buzuqlik kabilar og'ir gunoh hisoblanib, qattiq jazolangan. Sharafuddin Ali Yazdining yozishicha, sui'stemol qilish Temur avlodlariga ham talluqli bo'lgan ular ham tegishli jazo olganlar. Jumladan, uning o'g'li Mironshoh, nevarasi Amirzoda Pirmuhammadlar xalq oldida qattiq jazoga tortilganliklari to'g'risnda manbalarda yozib qoldirilgan . Amir Temur davlatning obro'si, sharafi, manfaati sohasida g'oyat qattiqqo'l edi. U bunday paytlarda o'zini ham, o'g'il va nevaralarni ham, qarindosh-urug'lar ham, harbiy boshliqlarni ham ayamas edi. U davlat ishlarida g'oyat mustahkam sobit va barqaror turardi.

¹ Amir Temur Yevropa elchilari nigoxida 126-bet (Toshkent 2007-yil)

² Amir Temur jahon tarixida tutgan o'rni FAN nashryoti 1996-yil 14 bet

Xullas, Sohibqiron Amir Temur 35-yilik hukumronlik qilgan davr mobaynida adolat shamshirni mahkam tutib davlatni boshqardi eng ,avvalo, Rayat- oddiy xalq manfaatlarini himoya qilindi. Yo‘qsilar holidan xabar olindi jabir-zulim noxaqlikga murosasiz munosabatda bo‘lindi Sohibqiron Amir Temur amaldorlar o‘rtasida tez-tez taftish o‘tkazilib o‘z ishni tashlab qoygan poraxo‘rlik, ichklikbozlik, mayishi buzuqilikga berilib ishida, suiistemolchiliga yo‘l qoygan amaldorlar, vazirlar, viloyat hokimlari, sarkardalar qatiq jazolandi. Bunda Amir Temur davlat ishlarida g‘oyatda mustahkam sobit turib o‘z yaqinlari qarindosh urug‘lari o‘g‘ilari nabiralarigaxam jazo tayinladi natijada Sohibqiron Amir Temurdan dasturi amal bo‘laoladigan kelajak avlod uchun buyuk ma`naviy meros qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Vatan tarixi Rustam Shamsidinov, Shodi Karimov “ShaRQ” nashryot Toshkent 2010-yil
2. Amir Temur soboqlar moqolalar toplami “ShaRQ” nashryot Toshkent 1997-yil
- 3.Temur tuziklari “G‘ofur G‘ulom nashryoti” Toshkent-1991-yil
4. Amir Temur Yevropa elchilari nigoxida “G‘ofur G‘ulom” nashryoti Rui Gansales de Klavixo Toshkent 2007-yil
- 5.Amir Temur jahon tarixida tutgan o‘rni ” FAN” nashryoti Toshkent 1996-yil

AMIR TEMUR LASHKARLARNING BOSHQARUVIDA RUHIYATNING O‘RNI

*L.E.Xamrayev,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistranti mayor*

Buyuk Amir Temur bobomizning Shaxrisabzdagi Oqsaroy qarorgohi peshtoqiga bitilgan “adolat – davlatning asosi va rahbarlar shioridir” degan hikmatli so‘zlarida juda chuqur ma’no bor. Ma’lumki, ajdodlarimiz

azaldan “Zulm qilma, insofli bo‘l, xalq uchun adolat qo‘rg‘onini bunyod et”[1.14]

Amir Temur so‘zini eshitishimiz bilan ko‘z oldimizga qaxramonlik, sadoqatlik, bahodirlik, yurtga bo‘lgan muhabbat, mardlik va sarkardalik ko‘z oldimizdan o‘ta boshlaydi. O‘zbekiston Respublikasining Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahrini markazida ulug‘ bobokalonimizni haykallari o‘rnatilganligi u zotga bo‘lgan hurmat belgilari hisoblanadi.

Amir Temur - o‘rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli, markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi - 1336 yil 7 aprelda Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahri yaqinidagi Xoja Ilg‘or qishlog‘i (hozirgi Yakkabog‘ tumani)da tug‘ildi. Uning to‘liq ismi Amir Temur ibn Amir Tarag‘oy ibn Amir Barqul.[2.3]

Amir Temur haqida juda ko‘plab kitoblar mavjud bo‘lib, hattoki chet mamlakatlarda ham uning kelib chiqish tarixi, hayoti, oilasi, mardonavor yurishlari, qo‘shinni boshqarishda o‘n ikki tuzukka tayanganiga qiziqib izlanishlar olib borgan olim va tadqiqotchilar uchraydi. Sarkardaning yurishlari to‘g‘risida yozilgan ma‘lumotlarga nazar tashlasak u biror davlatga yurish qilish oldidan qo‘shinlari ruhini ko‘tarish uchun **“Tangri o‘zi madadkaor bo‘lg‘ay”**, **“Bizga xudo yor bo‘lg‘ay”**, degan so‘zlardan foylanganini guvohi bo‘lamiz. Bu so‘zlarda qalbga turtki beradigan, inson ongi bilan bog‘liq tushunchalar yotadi. Bundan tashqari har bir askarining ismi va otasining ismini bilishi, ular bilan suhbatda otasining ismi bilan murojaat qilganligi hammamizga ma‘lum.

Amir Temurni shaxsini idrok etish – tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash – o‘zligimizni anglash demakdir. Amir Temurni ulug‘lash – tarix qa‘riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizga ishonchimizni mustahkamlash demakdir.[3]

Bu so‘zlardan davlatning kuch qudratiga baho berish, shu davlatning shakllanishiga hissa qo‘shgan buyuklarga e‘tibor berilgandir. Yuqorida biz tilga olgan haykallar va Samarqandda qurilgan Registon maqbarasi hamda boshqa maqbaralarning hajmi jihatidan ham oliy mavjudot bo‘lmish inson ruhiyatiga ko‘tarinkilik, g‘urur va qat‘iyatlilikka undaydi.

Xulosa. Armiyamizda xizmat olbi borayotgan barcha harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, Amir Temurni yuqoridagi inson ongining kirib boradigan soʻzlaridan foydalanish, harbiy xizmatchilarga murojaat etishda ularni otalarini ismi bilan chaqirish va ota – onalarining hurmatini yuksak eʼtirof etish, harbiy xizmatchilarni ragʻbatlantirishda ota – onalariga “Rahmat”, “Tashakkur” hamda “Minnatdorchilik” xatlari yuborish va uni oʻqib eshittirish koʻcha hamda mahallada omma oldida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Marsel Brion “MEN KIM, SOHIBQIRON – JAHONGIR TEMUR”.2018y.3bet.
2. <http://ferlibrary.uz/amir-temur>.
3. “Ulugʻ saltanat” Muhammad ali, birinchi kitob.
4. Amir Temur. Tarixiy roman. Yuuns Oʻgʻuz.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRINI OʻRGANILISHIGA OID MANBALAR

*A.M.Ergashev,
Oʻzbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti ofitseri, mustaqil izlanuvchi*

Sohibqiron Amir Temur va uning vorislari tarjimai holining turli jihatlari va ularning tashqi siyosiy faoliyati temuriylar davrida yozilgan tarixiy asarlarda yoritilgan. Rivoyatga asoslangan manbalarining ikki turi mavjud: birinchisi rasmiy, uzrli (har qanday qarashlarni himoya qilish xarakteridagi asarlar) boʻlib, voqealarni Temur va temuriylar foydasiga koʻrsatishga moyilligi bilan ajralib turadi. Nizomiddin Shomiy, Gʻiyosiddin Ali, Sharafiddin Yazdiy, Fosih Xavafiy, Hofiz Abru, Abdurazok Samarqandiy asarlari shular jumlasidandir. Ikkinchi guruhga Ahmad ibn Arabshoh, Ruy Gansales de Klavixo, Tomas Metzopskiy, Iogan Shiltbergerning kitoblari kiradi. Sohobqiron Amir Temur Kichik

Osiyoda boʻlgan davrda Sulton Boyazid bilan nafaqat elchilar almashib balki Gʻarbiy Yevropaning uzoqroqdagi davlatlar hukmdorlari bilan ham diplomatik yozishmalar olib borgan. Valua sulolasidan frantsuz qiroli Karl VI (1380-1422) va ingliz qiroli Genrix IV (1399-1413) bilan hamkorlik qilishga harakat qildi. Amir Temur va Karl VI oʻrtasidagi bu yozishmalarni oʻrganish bilan birinchi marta 19-asr boshida taniqli frantsuz sharqshunosi shugʻullangan. Silvestr de Sasi 1928-yilda Bombeyda eronlik sharqshunos Mirzo Qazviniyning maqolalar toʻplami nashr etilgan boʻlib, ulardan bir maqolasi Temurning Karl VI ga yozgan maktubini koʻrib chiqishga bagʻishlangan. Ushbu maqolaning asosiy afzalligi shundaki, muallif maktubni joylashtirgan boʻlsa, Silvestr de Sasi maktubni lotin tilidagi tarjimasini bilan taʼminlab nashr etgan. Rus va sovet tarixshunosligida birinchi marta akademik V.V.Bartold biroz vaqt oʻtgach esa, Oʻrta Osiyo tarixchilari va sanʼatshunoslaridan biri I.I.Umnyakov bu maktublarning rus tiliga tarjimasini 1969 yilda Samarqand shahri tashkil topganining 2500 yilligi nishonlanishi munosabati bilan nashr etilgan.^[1] Amir Temur 1401-yilda Misr sultoni Faraj ustidan qozonilgan gʻalaba va shu yili Damashqning qulashi ortidan Gʻarbiy Yevropada katta shuhrat qozongani tarixda maʼlum. Temur saroyiga qiziqish, ayniqsa, 1402 yil yozida Usmonlilar sultoni Boyazid I asirga olingan Anqara jangidan keyin kuchaydi. Bu muvaffaqiyatlar hamma joyda Sohibqiron Amir Temur shaxsiga qiziqishni yana ham uygʻotdi. Gʻalaba munosabati bilan oʻtkazilgan bayramda Temur oʻziga yuborilgan koʻplab elchilarni kamtarlik bilan qabul qildi. Ular orasida Ispaniyadan kelgan elchilar ham bor edi. Sohibqiron elchilarni oʻz vataniga qaytarayotganda, ularga boylik berib, Muhammad Qozi ismli elchisini joʻnatdi. Amir Temurning doʻstona munosabati Genrix III dan "ikki hukmdor oʻrtasida paydo boʻlgan doʻstlikni mustahkamlash uchun" javoban elchilar joʻnatdi. Elchilarga Ruy Gonsales de Klavixo rahbarlik qilgan. 1403-yil 21-mayda Ispaniyani tark etgan elchilar 1404-yil sentabr oyining boshida Samarqandga yetib keldi va 8-sentabrda Dilkusho saroy bogʻida Ispaniya elchilari Sohibqiron tomonidan qabul qilindi. Klavixoning "Kundaligi" Temurning 1370-yildan 1404-yilga qadar, Klavixo boshchiligidagi elchilar Samarqandni tark etgan davrlaridagi tashqi siyosatini tushunish uchun eng qimmatli manba

hisoblanadi. Temur va temuriylar tarixiga oid ustuvor ilmiy tadqiqotlar Yevropa tarixchilari va sharqshunoslari, asosan, ruslar tomonidan olib borilgan. Ingliz tarixchisi Edvard Gibbon, nemis tarixchisi Fridrix Shlosser, fransuz tarixchisi Leon Kayon, nemis tarixchisi M.Brandlar Amir Temurning yurishlarni, jumladan, tashqi siyosatini yoritgan.^[2] ohibqiron Amir Temurni “buyuk jangchi”, dunyoning yangi zabt etuvchisi, qonun chiqaruvchi, harbiy-siyosiy strateg, o‘z maqsadiga erishish yo‘lida o‘sha davrning turli siyosiy va ijtimoiy kuchlarini birlashtirishga muvaffaq bo‘lgan taktika bo‘yicha mutaxassis deyishgan. Temur va temuriylar tarixini XIV-XV asrlarda tashqi siyosiy munosabatlarining ayrim jihatlarini rus tarixchisi va sharqshunosi, akademik V.V. Bartold o‘rgangan. Uning asarlarida – “Temur” (Temurlan)^[3], “Yettisuv tarixi ocherki”^[4], “Turkiston tarixi” (ayniqsa, “Temur va temuriylar” VI bo‘limida)^[5], “Tarixi Turkiston madaniy hayoti”^[6], “Ulug‘bek va uning davri”^[7], “Eron. Tarixiy sharh”^[8], “Temur dafn etilishi haqida”^[9] va boshqa ba’zilarida bu davr diplomatik munosabatlarining asosiy bosqichlari Temur istilolari, Shohruhning tashqi siyosatini o‘rganish tavsiflanadi.

A.Y.Yakubovskiyning tadqiqoti ham katta qiziqish uyg‘otadi. U ilk bor Temur davri tarixiga XX asrning 30-yillarida murojaat qilgan. Yakubovskiyning "Temur (qisqacha tavsif tajribasi)" 1946 yilda nashr etilgan^[10]. U Yaqin Sharq haqidagi tarixiy va geografik g‘oyalar, Temur va temuriylar davlati tashqi siyosatining ayrim masalalarini yoritib bergan.^[11] O‘rta asrlar Samarqand shahri tarixiga bag‘ishlangan asarida Amir Temirning asosiy siyosiy va strategik maqsadlarini ochib bergan. B.D.Grekov bilan birgalikda yozilgan boshqa kitobda Temur bilan To‘xtamishxon o‘rtasidagi munosabatlarni, diplomatik yozishmalarni, Oltin O‘rdaga elchilar yuborishni yoritgan. Temur xalqaro munosabatlarining ayrim masalalari 1974-yilda nashr etilgan “O‘zbekiston SSR tarixi” umumlashtiruvchi asarida yoritilgan. “Tojiklar” kitobida B.G.G‘afurov 1402 yil yozidagi Anqara jangini juda qisqacha yoritadi.^[12] Ma’lumki, To‘xtamishxon hokimiyatining yuksalishi va Oltin O‘rda tashqi siyosatining kuchayishi Temur bilan to‘qnashuvga sabab bo‘ldi. Klavixo To‘xtamishxonning elchilari doimiy ravishda Samarqandda Temur

saroyida bo'lganligi haqida xabar beradi. Temur o'z imperiyasining shimoli-sharqiy chegaralarini himoya qilishni o'zining ustuvor vazifasi deb bilgan. 1389 yildan boshlab Temur To'xtamish qo'shinlariga qarshi keng ko'lamlı urush boshladi. Gumilyov Temur va To'xtomish o'rtasidagi siyosiy munosabatlarga alohida urg'u beradi. Bu masalalar ko'plab tarixchilarning tadqiqotlarida keng yoritilgan.^[13] Bertelsning "Ijodiy biografiyaning yangi tajribasi" kitobida Shohruxning tashqi siyosiy aloqalari, Hindiston va Xitoyga elchixonalar yuborishi bilan bog'liq ma'lumotlar mavjud bo'lib, bu nafaqat savdo aloqalarini, balki madaniy aloqalarni ham anglatardi. A.Vorobyovning maqolasida Temurning harbiy yurishlari, uning Oltin O'rda xonlari, Misr mamluklari, Bag'dod sultonlari, Usmonlilar imperiyasi, bir qator Yevropa davlatlari qirollari bilan munosabatlari yoritilgan. Uning ta'kidlashicha, "Temur hamma bilan mohirona muzokaralar olib bordi, raqiblarini yo'ldan ozdirdi, sovg'alardan tortib tahdidlargacha hamma narsani ishlatdi. U barcha raqiblarini birma-bir mag'lub etishga intildi". Belgiyalik olim X.Servus o'zining "Min sulolasi davridagi Xitoy-Mo'g'ul munosabatlari" nomli klassik asarida Xitoyning Amir Temur va temuriylar bilan munosabatlarini yaqindan o'rganadi. Bu turkumda ingliz olimi E.Rossning "1402-yilda Tamerlan va Boyazid" (London, 1940), amerikalik tadqiqotchi F.Mantsning "Temurning yuksalishi va saltanati", ruminiyalik olim Aleksandresku Dergning "Temurning yurishi 1400-yilda Anatoliya" nomli maqolalari, amerikalik olim M.Rassabiy va yapon olimlari Kazzuo Enoki va Xiroshi Vatanabening Temurning Xitoyning Ming bilan diplomatik aloqalari haqidagi asarlari, turk olimi Zeki Validiy To'g'anning Temur haqidagi maqolalari, B.A.Axmedovning tadqiqotlarida Temur davri diplomatiyasining ayrim masalalari va Movaraunnahr va Oq-O'rda (Dashti-Qipchoq ko'chmanchi o'zbeklari) o'rtasidagi siyosiy munosabatlar muammolari yoritilgan. Hidoyatov Temur va To'xtamishxon o'rtasidagi kurash masalalarini ochib beradi, Temurning Oltin O'rda ustidan qozongan g'alabasining Rossiya uchun, Anqaradagi Boyazidga qarshi jangida Yevropa uchun ahamiyatini yoritadi. Asarda Gruziya, Armaniston va Ozarbayjonni Temur tomonidan bosib olinishi, jumladan, tinchlik muzokaralari, Gruziya hukmdorlari – amir Bagrat va Shirvon – amir

Ibrohimning, Qumiq hukmdori – Gobdenning Temurga itoatkorlik bilan kelishi va boshqalar yoritilgan. V.M.Jurminskiyning tadqiqotida XIV asr oxiri – XV asr boshlari, Oltin O‘rdaning siyosiy parchalanishi kuchayishi va Movarounnahrda Temur hokimiyatining o‘rnatilishi bilan bog‘liq tarixiy voqealarni ko‘rsatadi. Temur, To‘xtamish (Oltin O‘rda xoni) va Idige (Oq-O‘rda xoni)ning siyosiy kurash manzarasi yaqqol ochib berilgan. Temur va temuriylar saltanati muammosi tojik olimi N.Tursunovning Eronda fors tilida nashr etilgan “Tarix va farhangi mardumi Xuchand” monografiyasiga ham bag‘ishlangan. E’tiborlisi, muallif yaxshi tarixiy material, qimmatli tarixiy manbalarga asoslanib, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla as-sadayn va majma al-bahrayn”, Muhiddinning “Muntahab at-tavarih Natanziy” va boshqalar, Xo‘jand va uning hududlarida Temur va temuriylar istilosi davriga alohida e’tibor beradi. Ushbu monografiya shahar sivilizatsiyasining qadimdan to hozirgi davrgacha bo‘lgan taraqqiyotini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Dodxudoyevaning “Hirotdagi temuriylar saltanati tarixi haqida: ayrim ijtimoiy jihatlari”, davlat boshqaruvi va Hamza Kamolning “Temurlang” asarida, Temurning Hirotda Kurtlar davlatining qulashi (1381) va Sebzavorda sarbadorlarning egalik qilishi (1386) tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan tashqi siyosati, Nurmuhammad Amirshohiy tadqiqotlarida yoritilgan. Shunday qilib, 14-16-asr boshlarida O‘rta Osiyoda xalqaro munosabatlarning holati va o‘rganilishining qisqacha tarixnavisligi, qariyb uch yuz yil davomida jahon va milliy tarixda Temur va temuriylar davri tarixini yoritish bilan shug‘ullanuvchi, tarixchilar tomonidan Sharqning Uyg‘onish davri deb e’tirof etilgan mustaqil ilmiy bilimlar tarmog‘i shakllanganini yaqqol ko‘rsatadi.

SSSR parchalanib, O‘rta Osiyoda, ayniqsa, suveren O‘zbekistonda mustaqil respublikalar tashkil topgandan so‘ng Temur va temuriylar davri tarixini o‘rganishda sifat jihatidan yangi bosqich boshlandi.

1991 yildan boshlab Amir Temur haqida alohida maqolalar, kitoblar chiqq boshladi. 1996 yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligi YUNESKO shafeligida keng nishonlandi. Ijobiy fakt shundaki, Amir Temur tarixiga oid bir qator qo‘lyozmalar o‘zbek va rus tillariga tarjima

qilingan: “Zafarnoma” (uch xil nomdagi kitoblar, mualliflari Sharafaddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Amir Temir Kuragani) “Ajayib al-maqfur fi tarixi Taymur” (Ibn Arabshoh), “Temurlan: davr, shaxs, amallar” (rus tilidagi maqolalar to‘plami), shu jumladan: “Temurning avtobiografiyasi”, “Kundalik”. Temurning Hindistonga yurishi”, “Buyuk Temur tarixi”, “Temur haqida”, “Temur Oqsoq haqidagi ertak”, “Temur”, “Temur hayoti”, “Temurning o‘ziga xos xususiyatlari”, “Temur davridagi O‘rta Osiyo xalqlari o‘rtasidagi harbiy san’atning ahvoli”, “Temurning Gruziyadagi yurishlari”, “Temur saltanati”, “Temurni dafn etish haqida”, “Temur o‘limi tafsilotlari” va boshqalar. “Amir Temir va uning jahon tarixida tutgan o‘rni” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi va keyinchalik materiallar chop etildi. O‘zbekistonning taniqli olimlari jamoasi B.A.Ahmedov, G.A.Pugachenkova, A.M.Muhammadjonov, R.G.Mukminova va B.V.Lunin monografiyasini nashr etdi, unda Temur va uning davri haqidagi yozma manbalarning xususiyatlari, 14-asrning ikkinchi yarmi 15-asr boshlaridagi siyosiy vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot, xalqaro munosabatlarning ayrim masalalariga bag‘ishlangan bo‘limlar mavjud. Amir Temurning Italiya, Ispaniya, Fransiya, Angliya, Xitoy va boshqalar hukmdorlari bilan yozma yodgorliklari va yozishmalarini tadqiqotchilar tomonidan o‘rganish muammolari B.A.Ahmedovning qo‘shma monografiyasida ko‘tarilgan. R.G.Mukminova, G.A.Pugachenkova XIV-XVI asrlarning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoning tashqi siyosiy aloqalari va diplomatiyasi xorijlik tadqiqotchilar e’tiborini tortdi.^[14]

Darhaqiqat, mamlakatimizda Amir Temur milliy merosini keng miqyosda o‘rganish va tadqiq etish borasida bir qator yirik islohotlar amalga oshirildi. Amir Temurning milliy merosi —Temur tuzuklari o‘zbek tiliga o‘girilib bir necha marotaba chop etildi. 1996 yil 18 oktabrda Prezident farmoni bilan —Amir Temur va temuriylar davlat muzeyi tashkil etildi. Mana shu sanada Amir Temur saltanatining poytaxti Samarqand shahrida va Sohibqiron tug‘ilib o‘sgan Shahrisabz shaharida Amir Temur haykallari qad rostladi. Amir Temurning davlat boshqaruvida odillik va sofdillik bilan siyosat yuritishi u kirib borgan mintaqada adolat siymosi sifatida talqin qilindi. Sohibqiron Amir Temur o‘zining shiori etib

—Kuch adolatdadir deb bejiz belgilamagan edi. Diyorimiz hududida mo‘g‘il istibdodidan so‘ng adolatsizlik va xalqlarning hukmdorlardan norizoligi kuchayib bordi. Amir Temur Movarounnahr hududida mustaqil davlat bunyod etib butun mintaqa uchun adolat qaror toptirishga erishdi. O‘zining tuzuklarida—Hokimlaru sipohdan qay birining xalqqa jabr-zulum yetkazganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolatu insof yuzasidan chora ko‘rdim deb ta’kidlagani bejiz emas edi. Prezidentimiz Amir Temurning odilligi xususida —Buyuk Sohibqiron Amir Temur bobimiz Oqsaroy peshteqiga —Adolat – davlatning asosi va hukmdorlar shioridir, degan hikmatli so‘zlarni yozdirgani bejiz emas, albatta. Ushbu ulug‘vor g‘oya inson qadr-qimmatini oliy darajaga ko‘tarish borasidagi amaliy harakatlarimiz poydevoriga aylandi deb ta’kidlagan edi. Yurtimizning har bir ta’lim maskanida Amir Temur tavallud sanasiga bag‘ishlab ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etish muhim an’anaga aylandi. Qurolli Kuchlar tizimida Sohibqiron ma’naviy merosi sanalgan —Temur tuzuklarini o‘rganish va undan amaliy foydalanish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugun har bir harbiy xizmatchi, kursant va askarlar —Temur tuzuklarini o‘qib o‘zlashtirar ekan, o‘z xizmat faoliyatida kuch-quvvat oladi. Kelajakka ishonchi mustahkamlanib boradi va mard, fidoiy farzandlar bo‘lib ulg‘ayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umnyakov.I.I. 15-asr boshlarida O‘rta Osiyoning xalqaro munosabatlari. Temurning Vizantiya va Frantsiya bilan aloqalari // O‘zbekiston universiteti. – Samarqand, 1956. – Nashr. 61.
2. Gibbon Edvard. Rim imperiyasining tanazzul va qulashi tarixi. Tar ingliz tilidan. V.N. Nevedomskiy. – M., 1885 yil
3. Bartold.V.V. Timur Tamerlan. // Entsiklopedik lug‘at "Brakhaus - Efrot". – T.XXXIII. SPb., 1901 - B. 195-197.
4. Bartold V.V. Semireche tarixi bo‘yicha ocherklar. 1963 yil.
5. Bartold V.V. Turkiston tarixi. 1963 yil.
6. Bartold V.V. Turkiston madaniy hayoti tarixi. 1963 yil.
7. Bartold B.B. Ulug‘bek va uning davri. 1964 yil.
8. Bartold V.V. Eron. Tarixiy sharh. 1971 yil.

9. Bartold V.V. Temur dafn etilganida. 1964 yil.
10. Yakubovskiy A.Y. Temur (Qisqacha tavsif tajribasi) // Tarix savollari. - 1946. - 8-son.
11. Yakubovskiy A.Y. Temur. // Tamerlan: Davr, shaxs, ishlar. 1992 yil.
12. G'ofurov B.G. Tojiklar. Qadimgi, qadimgi va o'rta asrlar tarixi. 1972 yil
13. Klyashtorniy S.G., Sulstonov T.I. Qozog'iston: uch ming yilliklar xronikasi. - Olma-Ota, 1992 yil.
14. Axmedov B.A., Mukminova R.G., Pugachenkova G.A. Amir Temur tarixi. - Toshkent: Fan, 1999 yil.

BUYUK BOBOMIZ HAQIDA XALQ OG'ZAKI IJODI VA TARIXIY MA'LUMOTLAR

*A.K.Paxratdinova,
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi*

Ona yurtimiz azaldan jahon ilm-fan rivojiga munosib hissa qo'shgan tabarruk zamin bo'lgan. Muqaddas diyorumizdan buyuk-buyuk allomalar, donishmandlar, xalq qahramonlari va kuchli jangchilar yetishib chiqqan. Shunday ulug' insonlarning biri Sohibqiron Amir Temur bobomiz hisoblanadi. Joriy yil buyuk bobokalonimiz tavalludiga 687 yil to'ladi. Sana munosabati bilan joylarda Sohibqiron ajdodimizning hayot yo'lini va davlatchilik asosini o'rganish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jami 27 davlatni o'z ichiga birlashtirgan, "Temuriylar davlati"ga asos solgan Amir Temur bobomiz haqida akademik A.Saidov quyidagicha fikr bildiradi: "Amir Temur o'z davlatini har qanday kutilmagan voqealardan saqlashni, himoya qilishni bilgan. Davlatni kuchli va mustahkam, xalqni baxtli yashashi uchun uning maqsadlariga qati'ylik bilan erishgan. Shuning uchun ham u o'sha davrda dunyodagi eng kuchli saltanatga ega bo'lgan"-deya ta'kidlab o'tgan [1:48].

O'z davlatini Sohibqiron bobomiz adolatga asoslanib boshqargan. Chunki, qayerdagi adolat bo'lsa, o'sha joyda gullab-rivojlanish bo'ladi.

“Temur tuzuklari” asarida ham davlatni boshqarishda ham bobomiz adolatga suyanganligini ma’lum qiladi. Tarixiy manbalarda esa: “Amir Temur adolatni nihoyatda yaxshi ko’rardi. Shu sababli ham uning saltanatida birorta inson behuda ranjitilmagan, zulm ko’rmagan. U ilm-fanni ham, ilm ahlini ham hurmat qilar, eng ezgu maqsadi esa butun saltanatida madaniyat va san’atning gullab-yashnashiga erishish edi, alar haqida so’ylab o’tirishning o’rni emasdir.” -degan ma’lumotlar uchrashadi [2:3].

Amir Temur bobomizning mardliklari, urushdagi qahramonliklari haqida ko’plab tarixiy ma’lumotlar uchrashadi. Shu sababdan biz Sohibqiron bobomizning qahramon shaxs siymosini shakllantirishida muhim ahamiyat kasb etgan, xalq og’izaki ijodiga e’tiborimizni qaratmoqchimiz. Afsonalarga ko’ra, Amir Temur bobomizning tug’ilishi haqida munajjimlar bashorat qiladi. Samodagi ikkita katta yulduzlar bir chiziq bo’lib joylashganida tug’ilgan farzandlar ilohiy kuchga ega bo’ladi deb bashorat qilinadi. Xalq og’izaki ijodidagi yana bir afsonada, Temur bobomizning onasi homiladorligida uning kuch-qudrat sohibi bo’ladigan farzandni dunyoga keltirishi haqida bashorat qilinadi. G’animlar Amir Temur bobomizning onasini qahramon farzandning onasi bo’lishini qizg’anib, uni o’ldirish uchun odam qo’shib yuboradi. Yo’lda o’ldiraman deb turgan dushman hudoni hohishi bilan shaqmoq urib dunyodan o’tadi.

Shu bilan birga, Qoraqalpoq xalq dostoni “Edige” qahramonlik dostonida ham Amir Temur bobomiz haqida bayon qilinadi. Otasi inson bolasi, onasi paridan tug’ilgan Edige botir Toxtamishxon va uning xotini yomonligi sababli quvg’inga uchraydi. Yig’lab yo’lda ketayotganda Satemir xonning (Shoxtemir) yurtiga boradi. Satemir xonning yurtida esa xonning qizini Qora tiyin Alp Dev o’g’irlab ketib, musibatga uchrayotgan bo’ladi. Edige botir Satemir xon bilan do’st bo’lib, Devni yengadi. Satemir xonga yordam berganligi uchun Edige botirga yordam qo’lini cho’zib, To’xtamishxonni yengadi [3]. Tarixiy manbalarda esa Amir Temur To’xtamishxonning ustudan g’alaba qozonganligi haqida ma’lumot uchrashadi.

To’xtamishxon Amir Temurni yordami bilan Oltin O’rdada oyoqqa turadi va Temur bobomizga bergan va’dasini buzadi. 1389, 1391, 1395

yillarda ikki davlat o'rtasida urush bo'lib o'tadi. Bu hodisa haqida "Zafarnoma" asarida: "To'xtamishxon bir necha bor do'stlikdan dam urib, sulh bunyodini qurgan, ammo unga vafo qilmaganligi tufayli Amir Sohibqiron uning so'ziga iltifot qilmadi. Behisob lashkar, intiqomga o'ch sipoh, nomdor amirlar, saodatli shahzodalar u mamlakat sari yuzlandilar..."-degan ma'lumot uchrashadi [4:209].

Mustaqillik yillariga kelib, professor K.Allambergenov "Amir Temur va Er Edige" nomli spektaklni sahnalashtirdi. Spektaklni mahoratli aktyorlar maromiga yetkazib ijro qilishdi va xalqimiz tomonidan iliq kutib olindi [5].

Buyuk Sohibqiron bobomiz haqida tarixiy ma'lumotlar ko'plab uchrashadi. Haqiqatdan ham Temur bobomizning qahramonliklarini ta'riflamasdan iloj yo'q. Jahonga mashhur sarkardalar ham bobomiz haqida taqsiqga sazovar fikrlarini bildirgan. Olim Evgeniy Tarlening "Napoleon" nomli 17 to'mdan iborat kitobida quyidagicha ma'lumot uchrashadi: "Bonapart o'z kavaleriyasi marshali Moratga yuzlanib, "Kimki, Amir Temur o'z-o'zicha jang qilgan desa, katta xato qiladi. Jahon tarixida ilk muntazam armiyani, qulay taktika va strategiyani Sohibqiron Amir Temur ishlab chiqqan"-deydi[6.].

Biz ushbu maqolada, Sohibqiron bobomiz hayotiga oid xalq og'izaki ijodi va tarixiy ma'lumotlar haqida fikr yuritdik. Bugungi kun yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda va kamolga keltirishda Amir Temur bobomizning mardligi va uning "Temur tuzuklari" asarining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu asar 12ta tuzukdan iborat bo'lib, donishmandlikdan iborat. Sohibqiron bobomiz ushbu asarni yozishda diniy, tarixiy kitoblarga, tarixiy manbalarga tayangan va ushbu asar bugungi kunda ham o'zining bebaholigini yo'qotmagan. Qurolli Kuchlar sohasida ham kadrlarni tayyorlashda Temur bobomizning "Temur tuzuklari" asariga yuzlanadi va dasturi amal sifatida foydalanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joyizki, kelajak avlodga buyuk tarixiy shaxlarimiz haqida ma'lumotlarni yetkazishda tadqiqotchi olimlardan o'qib izlanish, tarixiy ma'lumotlarni yuzaga chiqarish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov A., Keren L. Amir Temur va FransiY. –T.: Adolat, 2016. B.48.
2. Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. –T.:Sharq, 1997. B.3.
3. Qoraqalpoq xalq dostoni “Yedige”. Qaraqalpaq folklori 100 tomlik. 13-tom.
4. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. –T, 1996, ,bet-209.
5. Allambergenov K. “Amir Temur ham Yer Yedige” spektakli. “Berdaq nomidagi akademik drama teatri”. Nukus, 2018.
6. Tarle E. Napaleon. M.,1943.

AMIR TEMUR DAVRIDA JINOYAT ISHINI RAD ETISH MASALALARI

N.SH.Faxriddinova,

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil
izlanuvchisi*

Mintaqamizning ko‘p yillik tarixidan ma‘lumki biz yashab turgan ushbu muqaddas hududda mavjud bo‘lgan ko‘plab davlatlarda sodir etilgan jinoyatlar va ularga nisbatan qo‘llanilgan jazolar mavjud bo‘lgan. O‘z zamonasining qomusiy manbasi bo‘lgan muqaddas “Avesto” kitobida ham har qanday jinoyatlar javobsiz qolmasligi keng yoritib berilgandir. Uzoq vaqtlar davomida sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan qo‘llanilgan jazolar Zardushtiylik dinining qonunlari asosida belgilab berilgandir.

Amir Temur davrida jinoyat va jazolarni qo‘llashda adolat prinsiplari asosida faoliyatini olib borganligini guvohi bo‘lamiz. Sohibqiron davrida qonunlar barcha uchun barobar ekanligi hatto, uning ba’zi bir o‘g‘illari va nabiralari qonundan tashqari noloyiq ish qilganlarida ularni qattiq jazolanganlar. Amir Temur qattiqqo‘l va shu bilan birga adolatparvar davlat arbobi bo‘lgan. Biroq, Amir Temur davrida jinoyat va jazolarni qo‘llashda insonparvarlik prinsiplari ustun turishi, bugungi kundagi jazolarni liberallashtirish jarayonlarida yangi ilmiy takliflar ishlab chiqish

uchun har qancha tadqiqotlar olib borilmasin, yana o'rganadigan serqirra jihatlariga guvoh bo'lamiz.

Amir Temur Xitoy, Hindiston, Fransiya, Ispaniya, Angliya va boshqa davlatlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatgan. Amir Temur qaysi bir davlat bilan aloqa o'rnatmasin, eng birinchi davlat xavfsizligi va qonun ustivorligining ta'minlanishi muhim ahamiyatga ega hisoblangan.

“Buyuk Sohibqiron Amir Temur bobomizning Shahrizabzdagi Oqsaroy peshtoqiga yozdirib ketgan “Adolat- davlatimizning asosi va hukmdor shioridir”, degan hikmatli so'zlari hammamizga ma'lum. Ularda aks etgan ulug'vor g'oyalar bugungi kunda inson qadr-qimmatini oliy darajaga ko'tarish borasidagi amaliy harakatlarimizning poydevoriga aylanmoqda.”¹

Markaziy Osiyo mintaqasiga arab bosqinchilarining bostirib kirishi, islom dinining hukmron mafkuraga aylanishi har qanday qilingan jinoyatlarga qarshi qo'llanilgan jazolar shariat qonunlari asosida amalga oshirilishi joriy etildi.

Insoniyat tarixida birinchi marta miloddan avval Xomurappi o'z qonunlarini ishlab chiqqanligi va uning hayotga tatbiq etilganligi ma'lum. Uning qonunlari o'ta shavqatsizlikka asoslangan bo'lsada, lekin ular ham tartib intizom bo'lishiga xizmat qilgan.

Mintaqamizda ham jamiyatga qonunlarni jalb etish, qonun ustivorligini ta'minlash o'z tarixiga egadir. G'arb mamlakatlarida “Sharqning Arastusi” nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Nasr Farobiy o'zining mashhur “Fozil odamlar shahri” asarida fiqh ilmi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan buyuk vatandoshimiz “Islom va Shariatning rad etib bo'lmaydigan mutloq isboti” degan faxriy unvoni bo'lgan ulug' fiqhshunos Burxoniddin Marg'iloniyning mashhur “Hidoya” asarida ko'plab foydali fikrlarni ko'rish mumkin. Bunday allomalar tomonidan ilgari surilgan g'oyalarda, bildirilgan fikrlarda adolat, insonparvarlik, kechirimlilik singari qimmatli fikrlarni ko'tarish mumkin. Bunday allomalar tomonidan bildirib o'tilgan va ilgari surilgan g'oyalar inson

¹ Шавкат Мирзиёев. Миллий тарнаққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. Т. “Ўзбекистон” 2018 йил 426-бет.

huquqlari masalasi doimo jamiyat hayotida asosiy maqsadlardan biri bo‘lib kelganligini asoslab beradi.

Jahon tarixida qudratli davlat tuzib uni adolat bilan boshqargan buyuk davlat rahbaridan biri Amir Temurdir. Amir Temur o‘zining butun hayoti davomida har jihatdan qudratli, markazlashgan davlat tuzish bilan birga mintaqamizda ikkinchi uyg‘onish davrining poydevorini ham yaratib berdi.

Amir Temurning dunyodagi obro‘-e‘tiborini oshirib bergan asoslardan biri, o‘zi asos solgan davlatni boshqarishda adolat tamoyillariga amal qilganligidir.

A.Temurning “Agar dushmanning boshini urib panohingda kelsa, rahmat qilib yaxshilik va muruvvat ko‘rsatgil” deb aytgan so‘zlari ham jinoyat qo‘zg‘atishni rad etish va kechirish ma‘nosini bildirganligini ko‘ramiz.

A.Temur o‘z davlatini faqat harbiy kuchga suyanib emas, balki aql-idrok, dinu -diyonat , ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanib idora etgan. Adolat kuchda emas, kuch adolatdadir, degan shior uning saltanatining axloqiy ma‘naviy, huquqiy mezoni bo‘lib xizmat qilgan.¹

Amir Temur har jihatdan qudratli sohibqiron bo‘lsada kuch-qudrat zo‘rluk va zo‘ravonlikda, shavqatsizlikda, to‘plangan boylikda emas, balki adolatda ekanligini chuqur anglab yetdi.

Sohibqiron adolatni kuch bilan, kuchni esa adolat bilan uyg‘unlashtirdi. Amir Temur tamg‘asining naqshi “Rost-rusti” bo‘lib, bu “Haqgo‘y bo‘lsang-najot topasan” demakdir.

Buyuk Sohibqiron “Kuch adolatdadir” degan shiorga qat‘iy amal qilib, davlatni boshqarib, jabr-zulm yo‘llarini berkitgan. Amir Temur hukmronligi davrida o‘sha zamonlarda hech qayerda bo‘lmagan, insoniyat tarixida kamdan-kam uchraydigan lavozim – “Adolat amiri” lavozimini joriy etdi.

Amir Temurga nisbatan beriladigan tarixiy-siyosiy risola, XIV -XV asrlarning tarixiga oid qimmatbaho manba bo‘lgan “Temur tuzuk” larida

¹ X.Бобоев .З.Ғофуров . Ўзбекистонда сиёсий ва маънавий маърифий таълимотлар тараққиёти.Т. “Янги асп авлоди”2001й.248-бет.

farzandlari va nabiraloriga o‘zi amal qilgan o‘g‘itlari va yo‘l-yo‘riqlariga amal qilishlarini vasiyat qilgan.

Buyuk sohibqiron amal qilgan tamoyillardan biri to‘g‘risida tuzuklarda shunday deyiladi. “Adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o‘zimdanda rozi qildim, gunohkorlarga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko‘nglidan joy oldim...Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko‘tarib, ishimga ko‘p ziyon yetkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qiliqlarini xotiramdan o‘chirdim. Martabalarini oshirdim”¹

Amir Temurning o‘z davlatini boshqarishda qo‘llagan avdolat bilan bezatilgan tamoyillarda atrofdagi odamdarga tuhmatu g‘iybat qilgan kishilarga quloq solmaganligini, biron bir ishni qilishga ahd qilgan bo‘lsa, butun zehni, imkoniyatlarini ishga solib uni bitirmagunicha qo‘l tortmaganligini, kishilarga yaxshilik qilib, yomonlarni o‘z yomonliklariga topshirganligini, kim do‘stlik qilgan bo‘lsa, do‘stlik qadrini unutmaganligini takidlaydi.

Sohibqironning adolatparvar, kechirimli, insonparvar bo‘lganligini u hech kimdan o‘ch olish payida bo‘lmaganligi, tuzini tatib yomonlik qilganlarni yaratganning o‘ziga topshirganligi, sofdil kishilarga olim fuzalolarga dargohi doim ochiq bo‘lganligi yomon niyatli kishilarni o‘ziga yaqinlashtirmaganligi singari fazilatlarini doimo barcha kishilarga namuna bo‘lib kelmoqda.

Amir Temurning “har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo‘lini to‘sdim”, “Adovat emas adolat yengadi”, “Ahlu ehson bilan jahon gulshani obod bo‘ladi, “Bir kunlik adolat yuz kunlik toat-ibodatdan afzaldir”, “Hech bir ishda tanglik qilmadim”, “Har bir diyori aholisining ahvolidan ogoh bo‘lib turdim”, “Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa o‘z yomonliklariga topshirdim” , “O‘z saltanatimni shariat bilan bezadim”, Hech kimdan o‘ch olish payida bo‘lmadim”, “Adolat bilan ish yuritib, jabr zulmdan uzoqroq bo‘lishga intildim” singari so‘zlari bu tarixiy shaxsning haqiqatdan ham adolatparvar inson bo‘lganligini, uning hurmat

¹ Temur tuzuklari. T.F. Fulum nashriyati. T. 1991y. 54-55-betlar

e'tiborining ortishi ham adolatparvar siyosat olib borganligini asoslab beradi.

Amir Temurning olib borgan bunday adolatparvarlik siyosatining tarixiy ahamiyati to'g'risida gapirib Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlab o'tadilar. "Adolat xalqimiz uchun azal-azaldan tinch va faravon hayot mezoni, barcha ezguliklar manbai bo'lib kelgan." Sohibqiron Amir Temur bobomiz "Kuch-adolatda" degan hikmatga amal qilib, davlat boshqaruvini tashkil qilish, el-yurt tinchligi va obodligini ta'minlashga erishganligi tarixdan yaxshi ma'lum"¹

Amir Temurning davlat boshqaruvi sohasidagi bunday hayotiy tajribasi o'z davrida u asos solgan qudratli davlatning huquqiy asosini tashkil etish bilan birga bugungi kunda ham ko'plab mamlakatlardan boshqaruv tizimida dasturul amal bilan xizmat qilib kelmoqda.

Amir Temur olib borgan adolatli siyosat, u suyangan adolatparvarlik tamoyillari Sohibqiron asos solgan markazlashgan davlatning huquqiy asosi bo'lganligi Nizomiddin Shomiy, Sharofiddin Ali Yazdiylarning "Zafarnoma" asarlarida olib borilgan bunday oqilona siyosat saltanat sarhadlarida tinchlik, totuvlik va barqarorlikka xizmat qilganligi keng yoritib bera olingan.

Amir Temur davlatini boshqarish usullari va uning huquqiy asoslari to'g'risida qimmatli fikrlar bera oladigan asosiy manbalardan biri "Temur Tuzuklari" bo'lib ikki qismdan iborat bo'lgan bu tarixiy-siyosiy risolaning ikkinchi qismida siyosiy, axloqiy va huquqqa oid qimmatli fikrlar bayon qilingan. Unda do'stlik, vafodorlik, insof, adolat, iymon e'tiqod, kechirimlilik, halollik, yomonliklardan uzoqroq bo'lish, jinoyatdan va haromdan hazar qilish singari ko'plab insoniy fazilatlarga rioya qilish to'g'risida fikr kiritilgan. Risolada ayniqsa fuqarolarning shariatga va qonunlarga so'zsiz bo'ysunishi lozimligi masalasiga katta e'tibor beriladi. Amir Temur hukmronligi davrida har bir viloyatda qozilar qonunlarning to'la amal qilinishi, tinchlik va osoyishtalik hukm surishini qattiq nazorat qilganlar, tartibbuzarlar jazolanganlar.²

¹ Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. Т. "Ўзбекистон" 2018 йил 426-бет.

² Фалсафа қомусий луғат. Т. "Шарқ" 2004й. 396-бет

Qudratli markazlashgan davlatga asos solib, uni uzoq vaqtlar davomida boshqargan boʻlsada kuch qudrat zoʻrlik va zoʻravonlikda emas, aksincha adolatda, adolatli siyosatda ekanligini teran anglab yetdi.

Amir Temurning orzusi va uni amalga oshirgan siyosati uni jahon sahnasiga olib chiqdi. Sohibqironning ilgʻor bunyodkor gʻoyalari, adolatparvar siyosati, insonparvarlik, odillikni taʼminlashga qaratilgan faoliyati Prezidentimiz SH. Mirziyoyev takidlaganlaridek bugungi kunda xalqimizning bunyodkorlik faoliyatiga kuchli taʼsir koʻrsatib kelmoqda.

Yangi Oʻzbekistonni yaratish asosiy maqsad boʻlgan bugungi kunda Amir Temurdek buyuk tarixiy shaxslarning olib borgan adolatparvarlik siyosati orqasidan erishilgan hayotiy tajribalar yangi jamiyatimizning huquqiy asoslarini mustahkamlashga amaliy taʼsir koʻrsatadi.

THE DEVELOPMENT OF TRADE ROUTES DURING AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS PERIOD

N.Tangirova,

Nizomiy nomidagi TDPU 2-kurs magistranti

It is known that Central Asia, especially the territory of Uzbekistan, played an important role in international trade and cultural relations during the period of Amir Temur and the Timurids. After Amir Temur took power in Movarounnahr, he managed to create a centralized authority in the former Chigatoy ulus and fully ensure the safety of international caravan routes. Because of this, since the 14th century, the central branch of the Great Silk Road passing through Movarounnahr began to take a more important place in international economic and cultural relations than the northern route. The revival of the movement of international trade caravans along the Movarounnahr led to the development of cities and the rise of economic and cultural relations. During this period, the roads connecting the country's capital Samarkand with the large cities of Movarounnahr and Khorasan formed the main link of the system of internal trade routes in the region. The activities carried out in the field of ensuring

security on caravan routes, the construction of many roadside structures (caravans, reservoirs, bridges, etc.), the promotion of internal and external trade to the level of state policy were among the main directions of the socio-economic policy of Amir Temur's state. During this period, there were several communication routes connecting the large cities of Movarunnahr with Herat, the capital of the Timurids state in Khorasan. Among them, the roads leading from Herat through Marv to Bukhara and Urganch and through Balkh to Samarkand had a strong place in the internal and external economic, cultural and political life of the region.

The roads connecting the cities of Samarkand and Herat, which became the two capitals of the Timurids state in the 15th century, with the northern parts of the kingdom, in particular, the Khorezm oasis, were also of great importance during this period. From Urganch, the capital of Khorezm, which was considered the main transit area in the relations of the Timurid rulers with the Golden Horde, to Herat was mainly passed through the Murghab oasis. The road that went south from Urganch and other cities of Khorezm joined in the city of Marv. The road from Marv to Herat passed along the left bank of the Murghob River, turned right at the confluence of the Murghob and Kushka Rivers, and continued along the left bank of the Kushka River to Kushka. From here, it went to Herat through Raboti Sangi Poin and Rabat Hill. The first part of the roads leading from Herat to Samarkand passed through the crossings in the middle course of Amudary. In particular, Herat, which was the capital of Khurasan during the Timurids era, was connected with the cities of Movarounnahr through the route Sabzak - Qal'ai-Nov - Murghob - Maymana - Andkhai - Kelif. The road from Herat branched off in Andkhai, and one direction led to Termiz through Shibirgan, Balkh, Khairabad. The road from Kelif and Termez to Samarkand passed through the cities of Kesh (Shahrisabz) or Karshi in the Kashkadarya oasis. Roads from India and Afghanistan through the Kelif pass to the central cities of Movarounnahr passed mainly through Karshi.

Hafizi Abru informs about the location of the city of Nakhlab on the plain, the route from Bukhara to Samarkand passes through this ancient

city¹. In "Boburnoma" it is noted that Karshi is located south of Samarkand and the distance between them is 18 miles². The route from Samarkand through Kesh to the Surkhan oasis and to India was also actively used during this period. In particular, according to Sharafuddin Ali Yazdi, during his campaign from Samarkand to India, Amir Temur built a garden and a palace on a mountain located 7 yards from Samarkand, on the road to Kesh, and named it "Takhti Karacha"³. One direction of the road passing from Kelif and Termez to Samarkand passed through the city of Kesh (Shahrisabz). It is known that the Spanish ambassador Ruy Ganzalis de Clavijo, who came on an official visit to Amir Temur, came to Samarkand from Khurasan via Termiz - Darband - Temir Darvoza - Oqrobot - Kesh. Clavijo gave a high assessment of the position of Samarkand in the state of Amir Temur, and reports about the bazaar and covered stalls built by Sahibqiran⁴. During the period of Amur Timur and the Timurids, international relations were actively established with many countries of Europe and Asia. In particular, economic and cultural relations were conducted along important international caravan routes connecting the capital Samarkand with India, Khurasan, Iran, Iraq, Egypt in the south, the Golden Horde and Russian cities (Novgorod, etc.) in the northwest, East Turkestan and China in the east. During this period, the relations between Central Asia and India continued for many millennia. Ambassadors from India came to Shahrukh's palace in 1411-1416 and 1421, and it is known that in 1422 Abdurazzak Samarkandi went to southwestern India via the sea route of ambassadors, that is, in the direction of Herat-Kirman-Khormuz-Kolikut⁵. The port of Hormuz in the Persian Gulf was of great importance as an important port from which the water route from Amir Temur and the Timurids state to India began⁶.

¹ Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 85.

² Захриддин Мухаммад Бобур. Бобурнома... 47-бет.

³ Шарофуддин Али Йаздий. Зафарнома. – Тошкент, 1997. – Б. 191.

⁴ Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура. 1403- 1407 гг. Перевод со староиспанского, предисловия и комментарий И.С. Мироковой – СПб., 1990. – С. 134; Руи Гонсалес де Клавихо. История Великого Тамерлана // Тамерлан. Эпоха. Личность. Деяния. – М.: Гураш, 1992. – С. 299-301.

⁵ Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II-китоб. 2 ва 3 қисмлар. 1429–1470 йиллар воқеалари / Форс тилидан таржима, ва изоҳлар муаллифи А. Ўринбоев. Географик номлар изоҳли кўрсаткичи муаллифи О. Бўриев – Тошкент: O'zbekistan, 2008. – Б. 112-180; Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар. – Тошкент, 1981. – Б. 162-165.

⁶ [Шильтбергер И.]. Путешествия Иоганна Шильтбергера по Европе, Азии и Африке (с 1394 по 1421 гг.) / Перевел с немецкого и снабдил примечаниями Ф.Брун. – Тошкент: Шарқ, 1997. – С. 57.

In written sources, especially in the works of the Middle Ages, in particular, in the famous work "Baburnoma", information is given about the mountain passes from India to Central Asia through Kabul and Kandahar. According to it, Kashkar, Fergana, Turkestan, Samarkand, Bukhara, Balkh, Hisar and Badakhshan were passed to Kabul through 7 kotal (pass, mountain road) in the Hindikush mountains. There were 4 roads (passes) from India to Kabul through the Khybar Mountains, and there were no mountain passes on the Khurasan road between Kabul and Kandahar¹. During the period of Amir Temur and the Timurids, relations with China did not stop. It is known that in 1368, the Yuan Dynasty of the Mongols ended in China, and the Ming Dynasty came to power. Due to the policy of the Ming Empire (1368-1644) to reliably protect the north of China from the Mongols and to strengthen the borders, the relations between Central Asia and China were disrupted for a certain period of time. After Amir Temur subjugated Mongolia in 1389 and eliminated the threat to Movarounnahr from the Mongolian side, there was an opportunity to ensure the safety of the caravan route passing through Mongolia and Eastern Turkestan, and to restore trade and diplomatic relations with China. In particular, in the years 1389-1398, ambassadors went to China 9 times on behalf of Amir Temur, and in 1395, ambassadors were sent to Samarkand under the leadership of Fu An, indicating that the relations between the two countries continued².

Relations with China continued during Shahrukh Mirza's reign. In the written sources of this period, it is known that Chinese ambassadors came to Herat in 1409 and 1420, and in turn, Timurid rulers also sent their ambassadors to China several times. Trade routes, which are an important branch of the Great Silk Road connecting Central Asia with China, mainly led from the center of Movarunnahr to Eastern Turkestan through Ferghana and Yettisuv, and through the trading cities here to Beijing, the capital of China. The directions of this important trade route were described in detail in the diary written by the member of the embassy mission sent by Shahrukh Mirza to China under the leadership of

¹ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – Б. 117-118.

² Бўриев О., Колганов А. Об одном участке Великого шелкового пути // На Среднеазиатских трассах Великого шелкового пути. – Ташкент: Фан, 1990. – С. 106-116.

Shahidhoja in 1419-1422. According to the information presented in this work, the ambassadors moved along the caravan route connecting Herat with China through Central Asia: Herat - Balkh - Kelif route - Samarkand - Sayram - Ashpara (the fortress of this city was built by Amir Temur) - Mogul Eli (Bilgutu - Konkir Suvi) - Star pasture) - Turfon - Karakhoja - Sufi Ato village - Kumul - Qarovul - Sukju - Qamju - Pinlon - Khanbaliq (Beijing). Among the roads connecting Central Asia with China, the Shosh oasis has an important place, and caravans covered the distance from Shosh to Turfon in 3 months¹. It is known that diplomatic relations have been established during the period of Amir Temur and the Timurids with European countries - France, England, Spain and other countries. In particular, looking at the route of the official visit of the Spanish ambassador Rui Ganzalis de Clavijo, who visited Samarkand in 1402-1404 from the Mediterranean Sea via Iraq-Iran-Khorasan, it is possible to get information about the activity of trade routes that came to Samarkand from Khurasan via Termiz-Darband-Temir Darvoza-Aqrobot-Kesh. During the period of Amir Temur and the Timurids, there were connections with the cities of the Golden Horde, which were in two directions; it was carried out through Khorezm oasis or cities in South Kazakhstan (Turkestan, Sayram). With this, the ancient relations between the peoples of Central Asia and the peoples of Eastern Europe were revived. Russian chronicles of the 14th century contain information about Bukhara and Khorezm merchants living in Nizhny Novgorod², which indicates trade and cultural relations between the two. From the 15th century, when the position of the Moscow principality began to strengthen, we see that the Russian princes began to seek to establish diplomatic relations with the Timurids.

Thus, the advanced Middle Ages, especially the era of Amir Temur and the Timurids, is the last and peak period of the Great Silk Road. During this period, the cities of Movarounnahr and Khorasan were the central routes of the Great Silk Road played a major role in international economic and cultural relations.

¹ Мирза Мухаммад Хайдар. Та'рих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А.Урунбаева, Р.П. Джалиловой, Л.М. Епифановой. Примечание и указатели Р.П. Джалиловой и Л.М. Епифановой. – Ташкент: Фан, 1996. – С. 367.

² Жуковский С.В. Сношение России с Хивой и Бухарой за последней трехсотлетие // Труды общества русских ориенталистов.– СПб, 1915. – № 2. – С. 12.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MA`NAVIY HAYOTINING HOZIRGI YOSHLAR TARBIYASIDAGI O`RNI VA AHAMIYATI

D.G`aniyeva,

University of Science and Technologies

Mustaqillik tufayli xalqimiz o'zligini tanidi, buyuk bobolarimizning tarixdagi o'chmas jasorati va yuksak dahosi haqidagi asl haqiqat ro'yobga chiqdi. Bu ulug'vor ishlarning debochasi sifatida mamlakatimizda Sohibqiron Amir Temur haqidagi adolat qaror topdi.

Birinchi Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch" kitobida xalqimizning toptalib kelgan milliy g'ururini yuksaltirish, Sohibqiron bobomizning muborak nomi, tarixiy siymosi, boy merosi va xotirasini tiklash yo'lida mamlakatimizda qo'yilgan qutlug' qadamlar to'g'risida batafsil hikoya qilingan[1,26-b].

Amir Temurning mardligi va adolatliligi ayni biz yoshlarga o`rnak bo`ladigan jihatidir. Ayni mardlik deganda nimani tushunish kerakligini yoshlarga uqtirishda mardlik bu o'z vazifasini sidqi dildan bajarish, berilgan topshiriqlarni vaqtida nihoyalsh, kattalarga hurmatda bo`lish, kichiklarni izzat qilish kabi odatlarimiz o`zi katta mardlik namunasidir. 1996 yil O'zbekistonda "Amir Temur yili" deb ataldi. Bu xalqimizga unut bo`layotgan bobolarimiz siymosini yana qayta jonlantirish yo`lidagi eng katta qadam bo`ldi. Bu esa Temur bobomiz siymosini o`rganish uchun katta yo`l ochib berdi. YUNESKO qarori bilan Sohibqiron tavalludining 660 yilligi butun dunyo bo`ylab nishonlandi. Bu esa jahon hamjamiyati ham bizning bobolarimiz taqdiriga, ular qoldirgan ma`naviy va moddiy merosga befarq emasliklarini yana bir bor ko`rsatdi.

Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda Amir Temurning muhtasham haykallari o`rnatildi. Bunda qanday hikmat borligini hozirgi kunda deyarli har bir o'zbek farzandi juda yaxshi biladi. Buning negizi Amir Temur Shahrisabzda tug`ilib, voyaga yetgan. Shuning uchun bobomizni osmonga bo`y cho`zib turgan haykallari o`rnatilgan bu yurtga. Samarqandni markazlashgan davlatining poytaxti qilib belgilagan. Shuning uchun taxtga

o`tirgan holdagi haykallari o`rnatilgan. Toshkent esa sohibqiron tomonidan o`z davlati hududiga qaytarilgan hududdir. Shuning uchun otdagi haykallari bunyod etilgan.

Sohibqiron Amir Temur shaxsiyati jahon tarixida juda kam uchraydigan hodisadir. Ho`sh Amir Temur bobomizning qaysi jihatlarini hozirgi yoshlar umuman jamiyatimiz hayotiga o`rnak qila olamiz. Aytaylik butun jamiyat bir oila bo`lsa, bu jamiyat kichik oilalardan tashkil topgan. Qaysidir oilada tarbiyaga, ijtimoiy adolatga asoslangan boshqaruv ustun bo`lsa bu oilada buyuk shaxslar, jamiyatga nafi tegadigan insonlar yetishib chiqadi. Amir Temur bobomiz shunday katta saltanatda kuchli adolatli siyosat yuritgan davlat arbobi sifatida jahon tarixida alohida o`rin egallaydi. Uning davrida davlatning ichki va tashqi holati mustahkam, aholi esa yuritilayotgan siyosatdan mamnun ekanliklari o`sha davr adabiyotlaridan ma`lum[1,4-bet].

“Buyuk shaxslarni millat qayg`usi, xalq dardi yaratadi”, – degan edi Prezidentimiz. Chindan ham, millat qayg`usidan, xalq dardidan yaralgan ulug` bobomizday zotning dunyoga kelishi zamon zarurati va talabiga aylandi, boshqacha aytganda, tarix va zamon o`z qahramonini o`zi jahon maydoniga olib kirdi. Temur bobomiz tarix sahnasiga kelgungacha bo`lgan davr tarixiga bir nazar solish bilan Prezidentimizning yuqoridagi fikrlari naqadar asosli ekanligining guvohi bo`lamiz. Mo`g`ullar zulmi va ozoridan aziyat chekib kelayotgan xalqimiz uchun Amir Temurdek yetuk sarkarda suv va havodek zarur edi. Bunday shaxsni yaratganing o`zi bizni ota bobolarimizga yuborgan desak mubolag`a bo`lmas. Chunki Amir Temurning tug`ilishi ham unig bobosi tushida bayon bo`lgan. Rivoyatlarga qaraganda, kunlardan bir kun Sohibqironning bobosi Qochuvli bahodir tush ko`ribdi, tushida uning qo`ynidan bir yulduz uchib chiqib jamol ko`rgizibdi va shu zahotiyoq so`nibdi, keyin ikkinchisi, uchinchisi, to`rtinchisi yarqirab chiqibdi, bari so`naveribdi. Bu hol yetti marta takrorlanibdi. Biroq sakkizinchi martasida katta porloq yulduz otilib chiqibdi-yu, butun dunyoni yoritib yuboribdi! Mana shu Amir Temur yulduzi deb taxmin qilinadi. Undan yana bir necha kichik yulduzlar paydo bo`libdi, katta porloq yulduz mag`rib chizig`iga bosh qo`yib so`ngandan keyin, kichik yulduzlar porlashda davom etibdilar...

Amir Temur bolaligidanoq tabiatan og‘ir-bosiq, zehni o‘tkir, shoshilmay fikrlaydigan bo‘lgan. Temurbek dastavval maktabda saboq oldi, savodini chiqardi, ustozlar nazoratida kamon dastasini ushlab, o‘q uzish, nayza tutish, otlarni saralay olish, shikorlar uyushtirish, chavandozlik va qilichbozlik sirlarini yaxshilab o‘rgandi. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Temurbek o‘n ikki yoshida tengqurlari bilan "poshsho-vazir" o‘ynashar ekan. Temurbek podsho bo‘lar, qolganlarning har biriga bir "mansab" berilar, "gunohkor" odamni jazolab, "yurt" boshqarar ekan. O‘n ikki yoshligidayoq yurt boshqarish havosini olishga intilish kuchli bo‘lgan, niyatni katta qilgan.

Kichikligidanoq Qur‘oni karimni yod olganini aytishadi, Qur‘on o‘qishda uning ovozi qorilarniki kabi salobatli va yoqimli bo‘lgan. Bu jahatlarini hozirgi yoshlarimiz yanada chuqur o‘rgansalar ustozlarni hurmat qilish, ularning duosini olish kishiga qanday yuksakliklar olib kelishi haqida dunyoqarashlari yana ham ortgan bo‘lardir. Darhaqiqat hozirgi kunda turli ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarni ustozlarga behurmatlik qilayotgani ularga hech tortinmay qo‘pol muomalada bo‘layotgani millatimiz uchun juda ayanchli hodisadir. Diniy ilmni yoshligidanoq puxta o‘zlashtirgan Amir Temur to umrining oxiriga qadar islom dini qoidalari asosida davlatni boshqargani, har doim va hamma joyda islom dinini qo‘llab quvvatlaganliklarini aytganlar. Sohibqiron Amir Temur Markaziy Osiyo hududlarini yagona markazlashgan davlatga birlashtirdi, Hind va Gangadan to Orol dengizigacha, Tyan-Shandan to Bosforgacha ulkan imperiya barpo etdi.

Amir Temur, eng avvalo, mustaqil ulkan Turon davlatini tuzgan vatanparvar, buyuk davlat arbobidir, vatanimizni mo‘g‘ul bosqinchilaridan ozod etgan xalq qahramonidir. U mustabidlarga qarshi kurash va mustaqil davlat bunyod etish o‘zining burchi ekanini chuqur anglab yetdi. Prezident Islom Karimovning: “Amir Temurni anglash – o‘zligimizni anglash demakdir”, – degan so‘zlari zamirida ana shunday teran ma‘no mujassamdir.

“Sohibqiron” so‘zining arabcha “saodatli, zafarli, g‘olib” ma‘nolari bor. Ilmi nujum (astrologiya)da va afsonalarda Zuhra (Venera) – do‘stlik va mehru muhabbat tug‘yonlarini in‘om aylaguvchi, Mushtariy (Yupiter) –

omadu iqbol, muzaffariyat shodiyonalar sayyorasi deb ta'riflanadi. Shu ikki sayyoraning bir burjda uchrashgan vaqti saodatli lahzalardur, uni qiron deydi, shunday vaqtda tug'ilgan bola o'sha qiron sohibi hisoblanadi. Bunday bolaning baxtli, ulug' martabalar egasi bo'lishi oldindan bashorat etiladi. Sharq mamlakatlarida hukmdorlarga beriladigan sharaflı unvon. Amir Temur Ko'ragon ham shu unvonga musharraf bo'lgan.

Amir Temur urushning aytgani-aytgan, degani-degan qattol bir zamonda yashadi, qilichu nayzaga suyangan bu zamonning hech kimga bo'ysunmaydigan o'z qonunlari bor edi. Ularga rioya qilmaslik yoki chetlab o'tish mumkin emasdi. Shuni ta'kidlash joizki, Sohibqiron xudo izmidan chiqmaydigan bandalardan edi, hech qachon birinchi bo'lib urush boshlamasdi, savashishlarni yoqtirmasdi. Uning yurishlari zaruratdan kelib chiqardi. Eng avvalo, u urushning oldini olish chorasini izlardi. Ayrim hollarda, qaysidir mamlakatda zulm ortib ketgan bo'lsa, u joyning ulug'lari sohibqiron Amir Temurga ko'mak so'rab murojaat qilishardi. Amir Temur o'z "Tuzuklar"ida davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash (diplomatiya)ga ajratgani, bir ulushini qilichga qoldirganini yozgan. U umr bo'yi bunga rioya qildi. Muxolif mamlakatga takror-takror elchilar yuborar, quda-andachilikni yo'lga qo'yishga tirishar, qarindoshchilikni rivojlantirish yo'llarini izlardi. Buning yorqin misoli Xorazmning go'zal malikasi Xonzoda xonimning Turon saltanati valiahdi shahzoda Jahongir Mirzoga uzatilishi edi.

Amir Temur uzoqni ko'ra oladigan mohir diplomat sifatida tarixda chuqur iz qoldirdi. O'sha yillarda Ispaniya mamlakati qiroli Enriko III, Fransiya qiroli Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV saroylariga aloqalar bog'lash uchun elchilar yo'lladi, maktublar yozdi, maktublar oldi. O'z navbatida, ispan, fransuz, ingliz, xitoy va boshqa xorijiy mamlakatlar elchilari uning saroyiga tez-tez tashrif buyurib turishar edi. U ulkan davlat arbobi sifatida Yevropa va Osiyo o'rtasida o'zaro aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladigan yagona makon yaratish choralarni qidirdi. Bunda o'zaro savdo-iqtisodiy munosabatlar o'rnatilishiga katta e'tibor berdi. Jahonning nufuzli davlatlari bilan yaxshi aloqalarni yo'lga qo'ydi. Bu ma'noda bir tarafdin – Xitoy, Hindiston, ikkinchi tarafdin –

Fransiya, Angliya, shuningdek, Usmonlilar imperiyasi, Ispaniya, Italiya, Misr va boshqa davlatlarni aytib o‘tish mumkin. Sohibqiron faoliyatining jahonshumulligi ham shunda namoyondir. Bu jihatlaridan bizning bobolarimiz nafaqat o‘z tinchligini balki qo‘shni davlatlarni ham tinchligini o‘ylab ish olib borishganligini ko‘rishimiz mumkin. Xalqimizdagi “Qo‘shning tinch sent inch” gap bekorga aytilmaganligini gugohi bo‘lamiz. O‘z navbatida Amir Temur saltanatini boshqarishda o‘zidan oldin qoldirilgan asarlar va davlat boshqaruvlarini chuqur o‘zlashtirib, ulardan o‘rnak olib boshqargan. Hozirgi kunda bizning davlat rahbarlarimiz “Temur tuzuklari”ga muroojat qilib davlat boshqaruvini olib bormoqdalar. Bu esa davlatimiz ravnaqini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Sharqda "odil podsho" tushunchasi qadim-qadimdan mavjud va xalq ana shunday podshoni hamisha orzu qilib kelgan. Sohibqiron Amir Temur ana shunday podsho bo‘lishga intildi. “Kuch – adolatda” so‘zlari Amir Temur uzugiga o‘yib yozilgan va davlat muhrida ham aks etgan edi. “Mamlakat zulmga chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi”, – deb yozgandi Amir Temur o‘z “Tuzuklar”ida. Bu – saltanat shiori. Sohibqiron bunga qattiq amal qilardi. Adolatning kuchi shunchalar yuksak ediki, agar mamlakatda biror odam bir tovoq oltin yo kumushni boshiga qo‘yib, mag‘ribdan mashriqqacha borsa, hech kim unga qo‘l cho‘zmas, oltin yo kumushdan bittasi ham kamaymasdi. U har qadamda, xoh o‘zining farzandlari bo‘lsin, xoh boshqa fuqaro – barchaga birday adolat ko‘zi bilan qarardi. Safarlardan qaytib kelganda, shaxsan o‘zi bozorni tekshirar, agar qassobu baqqol, novvoylar va hokazolar foyda topaman deb narx-navoni oshirib yuborgan bo‘lsalar, adolat rusumi buzilganini ko‘rsa, el oldida ayovsiz o‘sha gunohkorning jazosini berardi. Yolg‘on gapni yomon ko‘rardi. Adolat tamoyillarini buzgani uchun o‘g‘li amirzoda Mironshoh, nabiralari amirzoda Pirmuhammad, Sulton Husayn Mirzolar jazolanganlari tarix kitoblaridan ma‘lum. Muarrif Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”da Amir Temurning 1366-yilda, hali davlat taxtiga chiqmasdan to‘rt yil avval aytgan shunday so‘zlarini keltiradi: “Qaysi bir podshoh o‘z ishini g‘addorlik va bevafoqlik asosiga qursa, kishilarga ozor berish va halok qilishga oshiqsa, uning davlati chayqalib, qarorsizlikka yuz tutadi... Biz o‘z saltanatimizni odamlarga e‘tibor berish va ularni himoya

qilish asosiga qurayotganligimiz sababli ularni yupantirib, xotirjam qilamiz...”.

“Ilm-fan va madaniyat aksari musulmon olamida yangidan gurkirab rivojlanishi Amir Temur nomi va faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. O‘sha davrda Markaziy Osiyoda ilmiy va adabiy faoliyat uchun qulay sharoit yaratilganligi tufayli ko‘plab olimlar bu yerda xotirjam yashab, barakali ijod qildilar. Amir Temur va Temuriylar davrida ilm-fanga bo‘lgan qiziqishning o‘sishi ma’naviy madaniyatning umumiy yuksalishiga, ishlab chiqarish va hunarmandlikning o‘shiga yordam berdi. Ayni vaqtda irrigatsiya, shaharsozlik, me’morlikning ildam rivojlanishi fandagi turli yo‘nalishlar ning yuksalishiga turtki bo‘ldi. Tarix fani Amir Temur hayotligidayoq ravnaq topdi. Tadqiqotchilarning e’tiroficha, Amir Temur hayoti va faoliyatining o‘zi qahramonlik bilan yo‘g‘rilgan edi” [1, 140-b].

Odamlarga, demak xalqqa e’tibor berish va himoya qilish Sohibqiron adolatining bosh o‘zagini tashkil qilar edi. Hamma joyda amalda bo‘lgan “Kuch – adolatda” shiori butun Turon davlati hududida axloqiy va ma’naviy mezonga aylandi. Amir Temur qurish, yaratish mentaliteti bo‘lgan xalqning farzandi, tabiatan bunyodkor bo‘lib tug‘ilgan o‘xshashi yo‘q zot edi.

“...Amr etdimki, – deb yozadi Amir Temur “Tuzuklar”da, – kattakichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsunlar, faqiru miskinlarga langarxona (musofirxona) solsunlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsunlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasunlar. Har bir shaharda dorul-amorat (hukmdor saroyi) va dorul-adolat (adolat saroyi) qursunlar...”. Ilm fanning rivojlanishi bilan birga bunyodkorlik sohasi ham Sohibqiron davrida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan edi deyish mumkin. Amir Temur faqat o‘z mamlakatidagina emas, balki boshqa yurtlarda ham bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgani buning dalilidir. Dastavval saltanat poytaxti qilib belgilangan Samarqandni dunyoning eng obod shahariga aylantirdi, ulug‘vorligini ko‘rsatish uchun, atrofida Damashq, Bag‘dod, Misr, Sheroz, Sultoniya kabi dunyoning mashhur shaharlari nomlari bilan atalgan, bog‘-rog‘larga ko‘milgan qishloqlar barpo qildirdi. Mamlakatda yo‘llar kengaytirildi, ko‘priklar solindi, rabotlar tiklandi, bozorlar orastalandi, binolar qad ko‘tardi,

xiyobonlar barpo etildi, bog‘lar yashnadi. Bu bog‘lar haqida ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo o‘z kundaliklarida zavq-shavq bilan hikoya qilgan. Ularning ichida Gulbog‘, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Chinor, Bog‘i Nav va boshqa bog‘lar nomi bor. Samarqandda Ko‘ksaroy, Amir Temur jome masjidi, Bibixonim madrasasi, masjidi, Qusam ibn Abbas me‘moriy majmui, Amir Temur maqbarasi, Shahrizabzda Dorut-tilovat majmui, muhtasham Oqsaroy, Turkiston shahridagi Xoja Ahmad Yassaviy xonaqoh-maqbarasi, Toshkent yaqinida Zangiota maqbarasi, Nahri Barlos arig‘i, Kobul atroflari, Farg‘ona vodiysi, Murg‘ob vodiysidagi yerlarga, Ozarbayjondagi Mug‘on cho‘llariga suv chiqarilishi, Shohruhiya, Baylaqon shaharlarining bunyod etilishi, Tabriz, Bag‘dod va Gurganj shaharlarining qayta tiklanishi...

Temur va Temuriylar davrida madrasa oliy ma‘lumot beradigan markaz vazifasini bajargan. Movarounnahr va Xurosonda asosan davlat va davlatmand shaxslarning mablag‘lariga qurilgan. Ko‘plab madrasada eng yetuk mutaxassislar dars berishgan. Ularga alohida ish haqi to‘lanar edi. 1404 yili Amir Temurning xotini Saroymulk xonim eridan ruxsat olib, o‘z otasi — Qazonxondan qolgan mablag‘ga Samarqandda shunday madrasa qurdirgan ediki, u o‘z hashamati bilan o‘sha davrdagi boshqa inshootlardan ajralib turardi. Unda o‘z davrining mashhur olimlari mudarrislik qilganlar. Xondamirning ma‘lumotiga ko‘ra, Xirotda hududining o‘zidagina 36 ta madrasa bo‘lib, bu madrasalarda va u hududda joylashgan xonaqohlarda ta‘lim olish uchun turli mamlakatlardan talabalar kelgan. Hirot tevaragida joylashgan amir Feruzshoh madrasasi va xonaqohi ayniqsa shuhrat qozongan edi. Injil kanali bo‘yida, Dorush-shifo shifoxonasining ro‘parasida joylashgan Ixlosiya madrasasi va Xalosiya xonaqohi Husayn Boyqaro hukmronligi davrida barpo etilgan. Bu madrasada dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan tolibi ilmlar ta‘lim olishar edi. O‘sha davrning yetuk mudarrislari bo‘lgan amir Burhoniddin Atoullah Nishopuriy, qozi Ixtiyoruddin Hasan Jurobiy, Amir Murjoz va Fasihuddin Muhammad Nizomiy shu madrasada o‘qishgan. O‘qitish tanlov asosida olib borilib, har oylik tanlovda bo‘sh talabalar tushirib qoldirilib, o‘qishni faqat kuchlilari davom ettirishgan. Ulug‘bek to‘rt madrasa — Buxoro va G‘ijduvonda bittadan, Samarqandda ikkita madrasa

qurdirgan. O‘sha davrda Samarqandda Ulug‘bek qurdirgan madrasalardan tashqari Xonim, Qutbuddin Sadr va Muhammad Sulton madrasalari ham mavjud edi. Madrasa va xonaqoh tinglovchilari fanning turli sohalaridan ko‘pgina kitoblarni tahlil qilar edilar[2,144-b].

Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Sharafiddin Ali Yazdiyning: “Sohibqiron har yerdakim, imoratqa qobil yer ko‘rsa erdi, ul yerda albatta bir imorat solur erdi...”, – degan so‘zlari zinhor mubolag‘a emas. Amir Temur, ko‘p mashhur muarrixlar ta’kidlaganlaridek, ilmning qadriga yetadigan, uni rivojlantirishga astoydil bel bog‘lagan, dunyoning eng yetuk olimlari, tarixchilari bilan bemalol suhbatlasha oladigan donishmand hukmdor edi. Ilm-fanga qiziqish Amir Temurning xonadonidan boshlangan edi, desak to‘g‘riroq bo‘ladi. Sohibqiron xonadonida farzandlar (shahzodalar, malikalar)ga ilm-fanning turli sohalaridan ko‘p saboqlar berilar, madrasalarda tahsil olishlar davom ettirilardi. Masalan, Mironshoh Mirzo uchun maxsus ibn al-Asirning “Al-komil fi-t-tarix” (Mukammal tarix) kitobi tarjima qilib berilgan edi. Sohibqiron harakatlari tufayli uning avlodlari ichida Muhammad Sulton, Ulug‘bek Mirzo, Ibrohim Sulton, Boysunqur Mirzo, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ko‘chkunchixon, Komron Mirzo, Gulbadanbegim, Zebunniso kabi shoirlar, olimlar, muarrixlar, xattotlar, homiyilar, ma’naviyat va ma’rifat jonkuyarlari bor bo‘lib, ular ilm-fan, ma’naviyatning qadriga yetadigan ajoyib insonlar bo‘lib yetishdi. Ularning say-harakatlari bilan madaniyatimiz yuksak darajalarga erishdi. Misol uchun, Ulug‘bek Mirzoning astronomiya maktabi aynan Samarqandda yaratildi. Zamonaning ilg‘or rasadxonasi barpo etildi. 1018 ta yulduz ta’rifini o‘z ichiga olgan “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” jadvali jahon faniga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi. “To‘rt ulus tarixi” asari esa xalqimiz tarixini anglab yetishda katta ahamiyatga ega.

Sohibqiron Amir Temur davri tarixini to‘liq va ishonarli yoritib bergan Sharafiddin Ali Yazdiyning fundamental “Zafarnoma” (1425) asari Sohibqironning nabirasi, Sheroz hokimi, shoir va xattot Ibrohim Sultonning rahbarligi, fidoyiligi va homiyiligi ostida dunyoga keldi. 1519-yilda Ulug‘bek Mirzoning nabirasi Ko‘chkunchixon topshirig‘iga bilan mazkur “Zafarnoma” va Rashiduddinning “Jome ut-tavorix” asarlari

o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Qolaversa, jahon adabiyotining buyuk namoyandalaridan hisoblangan Alisher Navoiyning ijodi, Lutfiy va Husayn Boyqarolar she‘riyati, allomalar Qozizoda Rumi va Ali Qushchi asarlari, Kamoliddin Behzodning durdona miniatyura rasmlari, Zahiriddin Muhammad Boburning bebaho “Boburnoma”si, go‘zal she‘riyati, ilmiy asarlari, muarrixlar G‘iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Muiniddin Natanziy, Hafizi Abro‘, Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamirlarning solnomalari – barcha-barchasi temuriylar davrining mahsulidir.

Amir Temur bunday kuch qudrat va yetuk ma‘naviyat sohibi bo‘lishida uning yoshlikdanoq mashhur din ulamolari va shayxlarga e‘tiqodi baland bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Buni padari buzrukvor Amir Tarag‘aydan o‘rgangan edi. Sohibqironning bir necha pirlari bo‘lgan, ularni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga ruhoniyatli pirlar, ya‘ni Sohibqiron tug‘ilgunga qadar yashab o‘tishgan tabarruk zotlar – Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixi Xoja Ahmad Yassaviy, Sulton Burhoniddin Qilich, Shayx Nuriddin Basir (Qutbi Chahordahum), Shayx Burhoniddin Sog‘arjiy va Shayx Safiuddin Yoqub Ardabiliylardir. Sohibqironning mazkur zotlar ruhlariga ehtirom ko‘rgizib, har biriga alohida maqbaralar tiklagani, avlodlarini e‘zozlab kelgani ularni o‘ziga pir tutganining isboti bo‘la oladi. Ikkinchi guruhga Sohibqironning zamondoshlari, Ulug‘ amir bevosita e‘tiqod etgan va irodat yo‘lini bergan pirlar – Shayx Shamsiddin Kulol, Shayx Zayniddin Abu Bakr Toybodiy, Mir Sayyid Baraka hisoblanadilar. Shayx Zayniddin Abu Bakr Toybodiy Amir Temurga “Kuch-adolatda” so‘zlari o‘yib yozilgan tillo uzuk, Mir Sayyid Baraka esa birinchi uchrashuvdayoq saltanat timsoli bo‘lgan nog‘ora va bayroq tuhfa qilgan edilar. O‘zining ruhiy madadi, ko‘magi bilan hamisha Sohibqironga kamarbasta bo‘lgan Mir Sayyid Baraka to so‘nggi nafasgacha Sohibqiron Amir Temur bilan birga umrguzaronlik qildi.

Ushbu pirlar haqida tarixiy manbalarda (“Temur tuzuklari”; Nizomiddin Shomiy. “Zafarnoma”; Sharafiddin Ali Yazdiy. “Zafarnoma”; Ibn Arabshoh. “Amir Temur tarixi”; Fasih Havofiy. “Mujmali Fasihiy”; Hafizi Abro‘. “Zubdat ut-tavorix” va hokazo) ma‘lumotlar keltirilgan.

Xulosa o`rnida shuni aytish kerakki, Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davri madaniyati va ma`naviyati nafaqat o`zbek xalqining balki butun dunyo ma`naviyatining ajralmas qismidir. Ko`pincha uning majlisida uyatsiz so`zlar, qon to`kish, asir olish, haram haqiga haqorat gaplar bo`lmasdi. U bexato (nishonga urguvchi) fikrli, ajoyib farosatli, mislsiz darajada baxtli, ulug`vorligi o`ziga muvofiq, qat`iy azm bilan so`zlovchi, boshiga kulfat tushganda ham haqgo`y kishi edi. Yoshlar ongini shunday haqgo`ylik bilan sug`orib voyaga yetkazish har birimizning vazifamizdir. Amir Temur bobomizga munosab avlod bo`lib yetishish har qanday vaziyatda rostso`zlashlik, adolatparvarlik bilan yashash nafaqat o` hayotimiz uchun balki kelajak avlod uchun ham o`rnak bo`la oladi.

Foydalanilagan adabiyotlar

1. Muhammad Ali. Amir Tekmur solnomasi. Toshkent.2008.
2. Amir Temur jahon tarixida “Sharq” Toshkent., 2001.
3. Qodirov P. Amir Temur siymosi. “O`zbekiston” Toshkent., 2007.
4. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 2008.

AMIR TEMUR FAOLIYATI TARIXCHILAR NIGOHIDA

E.H.Bozorboyev,

*O`ZDJTU media va kommunikatsiya fakulteti
siyosatshunoslik yo`nalishi talabasi*

Vatanimiz va davlatchiligimiz tarixida buyuk sohibqiron Amir Temur alohida o`rinda turadi. Ulug` bobomiz shaxsining murakkabligi munozarali muammo emas. Shu boisdan ham Amir Temurga baho berganda uni bir xil andoza va o`lchov bilan baholab bo`lmaydi. Uning to`g`risida keragidan ortiqcha ko`p kitoblar, maqolalar, esdaliklar, sahna asarlari yaratilgan. Ammo ular bir-biriga o`xshamaydi, bir-birini inkor etadi. Bu yozma manbalarning ba`zilarida Temurning ijtimoiy-siyosiy va davlat faoliyati xolisona va ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan bo`lsa, boshqa birovlarida g`arazlik, ochiqdan-ochiq dushmanlik, ko`rolmaslik jarayonida

turib, sub`ektiv fikr va xulosalar ilgari surilgan. Bunday manba asarlarining mualliflari ulug' bobolarimiz Amir Temurni «qonxo`r», «bosqinchi», «kallakesar», «o`g`ri» va hakoza deb tuhmat qiladilar. Masalaning eng ayanchli va mudhish tomoni shundaki, G`arbiy Yevropaning ilg`or mamlakatlari Angliya, Fransiya, Germaniya va boshqalarda ilm-fan va davlat arboblari Temurga ijobiy baho berib, ilmiy, badiiy va sahna asarlari yozganlar, uni e`zozlab o`quv yurtlari dasturlariga kiritganlar va muzeylar tashkil etganlar. Masalan, nemis olimi Dagenxard 1913 yildayoq Yevrupa sharqshunoslarining Amir Temur va temuriylar davriga bag`ishlangan asarlar royxati bibliografiyasini chop etgan edi.

Amir Temur va temuriylar davriga oid arab tilidagi yozma manbalar sirasida arab tarixchisi ibn Arabshohning (1389-1450) «Ajoyib ul maqdur fi tarixi Taymur» («Temur tarixida taqdir ajoyibotlari») nomli asari alohida o`rin tutadi. Asar ko`proq «Temur tarixi» nomi bilan keng tarqalgan. Saroy tarixchilarining ko`pgina asarlaridan farqli bu kitob qudratli, mustaqil, katta saltanat yaratgan Amir Temurning hayotini xolis va bir qadar tanqidiy ravishda yozilgan noyob yodgorlikdir. Ibn Arabshoh uzoq yillar Samarqandda yashagan (1401-1408), shu erda to`laqonli ma`lumot olgan va Amir Temur saroyiga yaqin bo`lgan. Hukmdorlarning unga munosabatini muttasil sezib turgan. Muallifning o`zi ma`lumot berishicha, bu asariga manba bo`lib uning shaxsiy mushohada va xotiralari, Amir Temurning yurishlarida ishtirok etgan arboblarning hikoyalari xizmat qilgan. 1436 yilda yozilgan Ibn Arabshohning bu asari Amir Temur va temuriylar davriga oid frantsuz, lotin, ingliz va g`oyatda qisqartirilgan holda turk tillariga tarjima qilingan. Afsuski ushbu tarjimalarning hammasi tegishli ilmiy izohlarsiz bajarilgani uchun ham ularni ilmiy jihatdan mukammal deb bo`lmaydi. Ibn Arabshohning asari U. Uvatov tomonidan, 1992 yilda Toshkentda 2 jildda keng tarzdagi ilmiy izohlar bilan o`zbek tilida nashr etildi. Ibn Arabshohning bu asari Amir Temurning hayoti va faoliyati haqidagi qimmatbaho ma`lumotlarni qamrabgina qolmay, unda o`sha davr madaniy hayoti to`g`risida ham muhim faktlar keltirilgan. Muallifning o`sha davrda yashab ijod qilgan mashhur olimlar, munajjimlar, muhaddislar, tabiblar, turli kasb va hunarmandlarning mohir ustalari, o`sha zamonda keng ko`lamda

qoʻllanilgan uygʻur yozuvi haqidagi maʼlumotlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ibn Arabshoh asarining maxsus bir boʻlimi amir Temurning yuksak insoniy fazilatlari va alohida xislatlariga, sohibqironning tashqi siymosi va odatlariga bagʻishlangan boʻlib, bu tarzda maʼlumotlar oʻsha davrga oid boshqa manbalarda uchramaydi. Shu bilan birga XV asrda yashagan arab tarixchilarining koʻpgina asarida Amir Temurning faoliyati, uning misr mamlakatlari sultonlari azqZahir Barquq va nosir Faraj, shuningdek ularning Suriyadagi noiblari bilan oʻzaro munosabatlari haqidagi koʻpgina maʼlumotlar keltiriladi. Ushbu asarlarda Amir Temur va turk sultoni Boyazid va Misr sultonlari oʻrtasidagi munosabatlarga doir koʻp maʼlumotlar berilgan. Mana shu asarlar jumlasiga Ibn Xoldun (1372-1449), Badruddin al-Ayniy (1360-1451), Taqiyuddin al-Maqriziy (1364-1442), Shahobiddin al-Qalqashandiy (1355-1418), Ibn Xajar al-Asqaloni (1372-1449), Shamsuddin as-Saxoviy (1427-1497), ibn Tagʻriberdi (1411-1469), Ibn ash-Shihna (1348-1412), Jaloluddin as-Suyutiy (1445-1505), Sarimuddin Ibn Duqmoq (1349-1406), Nosiruddin Ibn al-Furot (1336-1404), Ibn Iyos (1448-1524) va boshqa qator tarixnavislarning asarlarini koʻrsatish mumkin.

Amir Temur hayoti va faoliyati toʻgʻrisida sharq tillarida koʻpgina asarlar yaratilgan. Ushbu qoʻlyozma asarlarning bir qismi Turkiya kutubxonalarida saqlanadi. Masalan, Hofizi Abruning «Zubdat ut-Tavorix» (Tarixlarning qaymogʻi) asarining bir qoʻlyozmasi hozir Istambulning eng yirik kutubxonasi Sulaymoniyada saqlanadi. Inv. № 4371.

Rashididdin Fayzullohning Amir Temur yurishlari toʻgʻrisida hikoya qiluvchi «panjgona» asari Toʻpqapi saroy kutubxonasida saqlanadi. Ushbu qoʻlyozma asar Sulaymoniya kutubxonasining oʻzidagi ahmad Solis fondida inv.№ 2937 «Nasabn6omai muluk» (Podsholar nasabnomasi) nomi bilan mavjuddir.

Olim al-Haj Abdul Gʻofur Kerimiyning «Umdot ut-Tavorix» (tarixlarning tayanchi) kitobi Amir Temurga bagʻishlangan. Ushbu asar yirik olim Najab Osim tomonidan Usmon Tarixi jamiyati toʻplamiga ilova sifatida nashr qilingan (1913y).

Shuningdek Turkiyada birin-ketin nashr etilib, ham G'arbda, ham Sharqda paydo bo'lgan va ilm ma'rifat ahli orasida keng tarqalgan quyidagi kitoblarni ko'rsatish mumkin.

Tarjimon Najoti Luchal tomonidan Turk tiliga o'girilgan Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma» asari. Zakiy Validiy To'raqo'rg'onning «Tahqiq nasab Amir Temur» (Amir Temur shajarasi to'g'risida tadqiqotlar), professor A.A. Semyonovning Temur va temuriylarga bag'ishlangan Go'ri Amir maqbarasi naqshlari to'g'risida «Dahmadagi yozuvlar» bo'lib, uni turk tiliga Abdul Qodir Inon tarjima qilagan. V.V. Bartol'dning 1927 yilda turk tiliga tarjima qilingan va Istambulda chop etilgan «O'rta Osiyo tarixidan saboqlar», Tohir o'g'li Oqdos tomonidan turk tiliga tarjimak etilib, 1930 yilda Istambulda e'lon qilingan. Shuningdek «Ulug'bek va uning zamoni» va boshqa ko'pgina asarlarni ko'rsatish mumkin. Keyinroq, 1965 yilda anqarada F. Talerning Turkiyalik olim Ahmad Otash tarjimasida «Temuriylar davrida tarix fani» chop qilingan.

Amir Temur yurishlarining guvohi-tarixchi olim Toj Salmoniy o'z davrida fors tilida «tarixnoma» kitobini yozgan. Tarixchining ushbu kitobini Izmir shahridagi egey universitetining professori Ismoil Og'a turk tiliga ag'darib 1988 yili Anqarada nashr qilgan.

Uzoq yillardan buyon Temur yurishlari va temuriylar tarixini o'rganish bilan shug'ullanayotgan taniqli tarixchi Ismoil Og'a 1991 yili anqarada Turkiya tarixchilari jammiyatida «Temur va uning davlati» degan ilmiy asarini e'lon qilib, unda Temurning yurishlarini batafsil tasvirlaydi, ulug' sarkarda vafotidan keyin temuriylar orasidagi ichki ziddiyatlarni ochib beradi.

Yirik turk olimi Zaki Validiy To'g'on «Buyuk turk hukmdori Shohrux» kitobini e'lon qilgan. Turk olimi Sulaymon Fohmiy esa, 1843 yilda Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirot ush-Shuaro» kitobini turk tiliga tarjima qilib, Istambulda nashr qiladi.

Yuqorida aytganimizdek, jahon sharqshunosligida 600 yildan beri Amir Temurga bag'ishlangan ko'pdan-ko'p tarixiy ilmiy va badiiy asarlar, risola va maqolalar chop etib kelindi. Avvalambor, bu sohibqiron bilan zamondosh va bevosita muloqotda bo'lgan, uni ko'rgan yoki eshitgan

mualliflarning asarlari, sharqona tarixnavislik an`analariga rioya qilib bitilgan solnomalardir.

Bunday asarlar qatoriga sharqning mashhur olim va adiblaridan Sharofuddin Ali yazdiy va Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma»lari, Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi» Hofiz Abro`ning «Tarix sirasi», G`iyosiddin Alining «Temurning Hindistonga yurish kundaligi», Mirxondning «Sofldik bog`i», Muiniddin Natanziyning «Tarixlar» saylanmasi va asarlar kiradi. Ammo Amir Temur zamondoshlari qalamiga mansub barcha asarlarni birdek ob`ektiv xolis yozilgan deb bo`lmaydi.

Islomiy olimlar asarlarida Amir Temurning bir-biriga qarama-qarshi ikki xil obrazi mavjud. Birinchisi-goyo Amir Temur atrofdagilarga qo`rquv va dahshat soladigan berahm, qattiqqo`l hukmdor va sarkarda. U o`z maqsadiga erishishda har qanday imkoniyatni, bu unga qimmatga tushsa ham, qo`ldan boy bermaydi, o`z qo`li ostidagilar hayotini yaxshilash, mazmunli qiziqarli qilish haqida tashvish chekmaydi, zero, uning tasavvurida hayot bu omad, mehnat va doimiy kurashdir.

Ikkinchisi-aql-farosatli, adolatli hukmdor, u yomonlik va axloqsizlikni ko`rishga ko`zi yo`q, cheksiz harbiy talant sohibi. U harbiy harakatlar olib borish texnikasini bekamu-ko`st biladi. Amir Temur davlatchilik, fan va me`morchilik rivojiga katta hissa qo`shgan insondir.

Birinchi obraz ko`proq arab va forsiy manbalarda keng tarqalgan. Bu narsa ko`proq birinchi navbatda amir Temurning Movarounnahr davlatini birlashtirish uchun olib borgan ko`p sonli yurishlari, so`ng esa, G`arbiy, Shimoli-G`arbiy, Sharqiy Hindistonni zabt etish uchun olib borgan yurishlari oqibatidir. Bu yurishlar Amir Temur faoliyatining katta qismini tashkil etgan va unga sohibqiron o`zi ham alohida ahamiyat bergan. Katta bir buyuk davlatni boshqarish ham o`z navbatida undan katta kuch va doimiy suratda urushga tayyor turishni talab qilgan.

Amir Temurning bunday obrazi yoyilishiga yana bir sabab uni mo`g`ul Chingizxon bosqinchilariga aloqador hisoblashlari va Schingizxon bilan qarindosh deb oylashlaridir. Gap shundaki, mo`g`ullar tomonidan amalga oshirilgan barcha vayrongarchilik va urushlar aybi asossiz ravishda Amir Temurga nisbatan ham berilgan. Holbuki, Amir Temur hech qachon Chingizxon kabi qonxo`r va zolim bo`lgan emas.

Amir Temur haqidagi bunday yanglish tasavvur qisman hozir ham uchrab turadi. Lekin u mamlakatni boshqargan paytda bunyod etilgan va bizgacha etib kelgan me`morchilik obidalari, san`at asarlarini ko`rsak, biz Amir Temurdagi nozik ta`b, yuksak madaniyatni sezamiz va bu obrazning ijobiy fazilatlari ayrim manbalarda xaspo`shlab o`tilganini ko`ramiz. Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixini o`rganish shuni ko`rsatadiki, har bir mustaqil davlat o`zining milliy mafkurasiga ega bo`lishi shart. Busiz tom ma`nodagi milliy davlatning bo`lishi mumkin emas. Shuning uchun milliy istiqloq mafkurasini shakllantirishda amir Temur saltanati va nazariy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyev H.B. Amir Temur va temuriylar saltanati. - Toshkent: Kamalak, 1996.- 124 b.
2. Siyosiy va huquqiy ta`limotlar tarixi / Boboyev H.B., Vohidov H.V., Dadaboyev Y.T., Vohidova D. – Toshkent: TDYUI, 2003. – 205 b.
3. Mamatov X.T. Temur tuzuklarida davlat va huquq masalalari: Yurid. fanlari nomzodi...dis. avtoref. – Toshkent, 2002. – 24 b.
4. Mamatov X.T. Amir Temur tuzuklarida davlat va huquq masalalari. MonografiY. (hammualliflikda). - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. - 118 b.
5. To`laganov A.A. Rol i mesto Amira Temura v razvitii uzbekskoy gosudarstvennosti (na osnove Ulojeniy Temura): Avtoref. diss. kand. yurid. nauk. - Toshkent: 1996. - 24 s.
6. Temur tuzuklari. / B.Ahmedov tahriri ostida. – Toshkent: G`G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti., 1991. - 144 b.

YOSHLAR ONGIGA AMIR TEMUR VA MILLIY ISTIQLOL DAVRI TARIXINI ALOQADORLIK ASOSIDA SINGDIRISH

M.U.Sayitmurodov,

O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

3-bosqich talabasi

Hozirgi kunda jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilishning, milliy-axloqiy qadriyat hamda an’analarning, muqaddas dinimizning o‘rni va ahamiyati katta. Biron-bir xalq o‘z tarixini bilmay, asrlar osha yaratilgan ma’naviy merosga tayanmay va uni yanada rivojlantirmay turib o‘z kelajagini tasavvur eta olmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov bobomiz merosiga shunday:-«Vatanini jonidan aziz ko‘rgan Amir Temur bobomizning bizga qoldirgan nasihatlarini yuragimizga, qon-qonimizga, suyak-suyagimizga mustahkam jo qilishimiz kerak va bolalarimizni ham shu ruhda tarbiyalashimiz darkar»¹-deb ta’kidlagan edi.

Bugun biz mustaqillik mohiyatini, uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni hamda xalq turmushidagi beqiyos ahamiyatini ulug‘ bobokalonimiz sohibqiron Amir Temur orqali yana ham chuqurroq anglamoqdamiz.

Mustaqilligimizning 5 yilligi va Amir Temur tavalludining 660 yillik tantanalari bir-biriga ulanib ketdi. Bu tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishi ajdodlarimizning muqaddas ruhi va bugungi avlod xohish - irodasining mushtarakligidan dalolat beradi. Biroq, bu kunlarga yetib kelish oson bo‘lmadi.

Shunisi quvonchliki, o‘zbek xalqining bag‘riga ozodlik shamoli tekkan ilk yillardanoq, YUNESKO Amir Temurning insoniyat tarixidagi ulkan xizmatlarini jahon ahliga tanitishga O‘zbekiston hukumati bilan birgalikda jonbozlik ko‘rsata boshladi. Bu, birinchidan, ulug‘ bobokalonimizning jahon tarixidagi beqiyos nufuzidan dalolat bersa, ikkinchidan, millat sha’ni, uning tarixiy shavkatini tiklash yo‘lida Prezident Islom Karimov sayi harakatlarining natijasidir².

¹Каримов И.А. Она юртимиз бахту икболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш-энг олий саодатдир. Т., 2005, «Ўзбекистон», 118-б.

²Жўраев Н. Мустақил Ўзбекистон тарихи. Тошкент, 2013. 432-б.

Amir Temurning san'at va madaniyatga homiyligi, mamlakat obodonchiligi uchun g'amxo'rliги, insonni tabiatning gultoji sifatida e'zozlashga intilish singari xususiyatlari bugun ham katta qiymatga ega.

Bu borada Islom Karimov buyuk bobomizning ma'naviy olami xususida fikr yuritib, shunday degan edi. «Shaxsan men «Temur tuzuklari»ni har gal o'qir ekanman, xuddiki o'zimga qandaydir ruhiy kuch-quvvat topgandek bo'laman. O'z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan, inson ma'naviyati uchun bugun ham oziq bo'ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekaniga ko'p bor ishonch hosil qilganman. Masalan, «Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir», degan so'zlar bugungi kunda ham ma'naviy jihatdan naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekani barchamizga ayon»¹.

Amir Temur shaxsiyati jahon davlatchiligi an'analarini yanada boyitish, bu boradagi sharq tajribalaridan unumli foydalangan holda yosh mustaqil davlatimiz tizimini tobora takomillashtirish sabog'ini bermoqda.

Shu o'rinda buyuk bobolarimizning ma'naviy olami xususida fikr yuritganda, Sohibqiron Amir Temur haqida alohida to'xtalishimiz tabiiydir. Chunki tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi². Bugungi kunda hurfikrlik, fuqarolar ongi va tafakkurida bunyodkorlik, ijodkorlik, istiqbol uchun kurashish tuyg'usini shakllantirish insonparvar jamiyatning oliy fazilatidir. Bu borada ham Sohibqironning sayi harakatlari va tadbirlari biz uchun o'rnakdir.

Islohotlar jarayonida - xalqimiz o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritmoqda va halqimizning tarixini chuqur o'rganish, uni rostgo'ylik asosida yoritish va uni yoshlar ongiga singdirish borasida ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda.

¹Каримов И. А. Юсак маънавият енгилмас куч. Т., 2008, «Маънавият», 44-45-б.

²Ўша манба. 44-45-б.

O‘zbekiston tarixi yoshlarda o‘tmishni anglash bilan birga bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshiralayotgan demokratik islohotlarning mohiyati va natijalarini, milliy, huquqiy davlatchilikni barpo etish, demokratik, fuqarolik jamiyat qurish, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonlarini o‘rgatadi va yoshlarda ilmiy dunyoqarashni, siyosiy madaniyatni tarbiyalaydi, jamiyatda o‘z o‘rnini to‘g‘ri belgilashga ko‘maklashadi. Eng muhimi davlatning amalga oshirayotgan barcha sohalardagi islohotlarining mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetishini ta‘minlaydi.

Shuning uchun ham bu masalaga, 2016 yil 7 dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tadbirda so‘zlagan nutqida yoshlar tarbiyasiga alohida to‘htalib, unda «Bolalarimizni birovlarining qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an‘analarimizga, ajdodlarimizning boy tarixiga tayanamiz»¹ va 2016 yil 14 dekabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida ham: «Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qatiyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustivor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatiga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etadi²»- deb, yoshlarga e‘tiborni kuchaytirishga qaratilgan da‘vatlarini alohida ta‘kidlab o‘tishimiz mumkin.

Ta‘lim – tarbiya asosida shaxsning intensiv rivojlanishi, moddiy - ma‘naviy qadriyatlarni o‘zlashtirishi faqat uning shaxsiy faoliyati natijasida amalga oshadi³.

¹ «Ma‘rifat», 2016 йил 8 декабр, № 98.4-бет.

² «Халқ сўзи», 2016 йил 15 декабрь, № 247. 2-бет.

³Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. Тошкент, 2006. 99-б.

Amir Temur va Milliy istiqlol davri tarixini yoshlar ongiga aloqadorlik asosida singdirishning ahamiyati beqiyosdir. Hozirgi kunda milliy istiqlol davrida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan chambarchas bogʻliqlikda oʻrganish maqsadga muvofiqdir.

Bunda maʼlum amalga oshirilayotgan islohot mazmunini Amir Temur yuritgan islohotga aloqadorlikda yoritilib shu davr haqida bogʻlab oʻtilsa yoshlar taʼlim va tarbiyasiga ijobiy taʼsirini koʻrsatadi.

Aloqadorlikni quyidagicha talqin etishimiz mumkin.

Amir Temur davri	Milliy istiqlol davri
Barcha tabaqalarining haq-huquqlari va manfaatlarini inobatga olib, ularning hayoti uchun zarur ijtimoiy zaminni vujudga keltirish	Fuqorolarning huquqlari va erkinliklari
Sohibqironning davlat boshqaruvini tashkil qilishi	Davlat tizimi. Qonun chiqaruvchi, Ijro etuvchi va Sud hokimiyati
Davlatni mustahkamlash, jamiyatni rivojlantirish borasida ijroiya tizim	Mahalliy davlat organlarining tashkil topishi. Kuchli ijtimoiy siyosat
Sud va qonunchilikka munosabati	Oʻzbekiston Respublikasining Qonun chiqaruvchi palata, Sud hokimiyati
Meʼmorchilik sanʼatining gultoji boʻlgan osori atiqalar	Meʼmorchilik, shaharsozlik
Sohibqironning betakror harbiy isteʼdodi va qobiliyati zabardast harbiy islohotchi hamda atoqli sarkardaligi	Mudofaa va xavfsizlik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar

Umuman olganda tarix darslarining yoshlarni milliy gʻoya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi

sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish asosida tashkil etilishi, o'quvchilarda ko'nikma va malaka hosil qilish, tariximizni xolis va haqqoniy o'rgatish, vorisilik va tariximizga bo'lgan hurmat hissini kuchaytirish imkoniyatini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T., 2008, «Ma'naviyat», 44-45-b.
2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir. T., 2005, «O'zbekiston», 118-b.
3. Jo'rayev N. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Toshkent, 2013. 432-b.
4. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent, 2006. 99-b.
5. «Ma'rifat», 2016 yil 8 dekabr, № 98.4-bet.
6. «Xalq so'zi», 2016 yil 15 dekabr, № 247. 2-bet.
7. Zafar yuli. Amir Temur Kuragon. T. 1992
8. Xilda Xukesh. Yeti iklim sultoni. T. 1999
9. Erkin Azimov. Amir Temur saltanati. T. 1996
10. Xolbekov M. Amir Temurning Yevropa kirolari Bilan yozishmalar. T. 1996.

AMIR TEMUR VA UNING SIYOSIY QARASHLARI

U.U.Haydarov,

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti kursanti*

XIV asrning o'rtalariga kelib, dunyoni larzaga solgan mo'g'ullar hukmronligiga qarshi Xurosonda boshlangan ozodlik harakati Movarounahrga yetib keladi.

Mo'g'ullar hukmronligining mag'lubiyatga uchrashiga mahalliy aholining ozodlik uchun olib borgan kurashlari asosiy sabab bo'ldi. Ana shu kurashda o'z xalqining rahnamosi, buyuk sarkarda Amir Temur juda katta xizmat qildi. Uning nomi faqat To'ronga emas, balki butun dunyoga

yoyildi. U o'zbek xalqining buyuk davlat arbobi va sarkardasi sifatida shuhrat qozondi va jahon taraqqiyparvar kuchlari qalbidan mustahkam joy oldi.

Amir Temur tarixda mashhur shaxslardan biridir. Temur O'rta Osiyo (Movorounahr) siyosiy hayotida XVI asr 50-yillarining oxiri va 60-yillarning boshlarida ko'rindi.

O'sha davrda Chig'atoy ulusiga qarashlariga bo'langan bo'lib, Kesh-Shaxrisabz, Buxoro, Termiz, Badaxshon, Xo'jand, Shosh va boshqa viloyatlar hokimlari o'rtasida tinimsiz urush-janjallar davom etib kelardi.

Amir Temur bin Tarog'oy Bahodir hayoti va faoliyatida akademik Ibrohim Mo'minov 2 davrni ajratib ko'rsatadi.

1-davr 1360-1386 yillarni o'z ichiga oladi. Temur bu davrda Movarounaxrda Mo'g'ul xonligidan mustaqil, kuchli markazlashgan davlat tuzish yo'lida kurashdi.

Temur faoliyatining ikkinchi davri asosan 1386 yildan boshlanib, 1402 yilgacha davom etadi. Bu davr Temurning 3 yillik, 5 yillik, 7 yillik deb ataluvchi harbiy hurujlari yoki Sharafuddin Ali yazdiy tabiri bilan aytganda, harbiy yurishlari bilan xarakterlanadi.

Hindiston, Eron, Iroq, Kavkaz oldi, Turkiya, Misr. Rossiyaning janubiy rayonlari territoriyalarini bosib olish uchun Temur qilgan urushlar, shubhasiz, bosqinchilik xarakteriga ega edi. Bu urushlar shafqatsiz ravishda olib borilgan edi. Shu sababli ham Temur xalq xotirasida, ushbu mamlakatlar yilnomalarida zolim, bosqinchi sifatida tasvirlangan.

Sharafuddin Ali Yazdiy o'zining «Zafarnoma» asarida Temur qo'shinlari tomonidan shahar va qishloqlarning vayron qilinganligini, odamlarning qirilganligini batafsil bayon etadi. U Temur qo'shinlarining bosib olingan mamlakatlardagi kirdikorlarinii shu tarzda bayon qiladiki, harbir sog'lom fikrli o'quvchi bu zulumlarni keskin va qat'iy qoralaydi.

K.Marks Temur faoliyati haqida gapirib, Temur o'zi tuzgan yangi podsholikning davlat tuzumini mustahkamlaganligini, tuzuk qonunlar joriy etganligini, bu tadbirlar esa uning ayovsizlik bilan amalga oshirgan bosqinchiliklariga tamoman zid ekanligini qayd etgan edi. (K.Marks xronologicheskiye vipiski Arxiv Marksa ii Engelsa, t. VI str. 184).

Temurga, uning davlatiga va harbiy yurishlariga bag'ishlangan adabiyotlar ko'p. XIV va XV asrlar tarixnomalari orasida Sharafudin Ali Yazdiyning «Zarafnoma» asari alohida o'rin egallaydi. Yazdiy Temur hayotining oxirgi yillarida uning bosh davonida xizmatda bo'lib, Temurning ko'p joylarga, jumladan, Kichik Osiyo mamlakatlariga qilgan harbiy yurishlarida ishtirok etgan. Yazdiyning aytishicha, u o'zining asarini Temurning nabirasi Shoxruh Mirzoning o'g'li - Sulton Ibrohim topshirig'i bilan yozgan.

Qashqadaryo vohasining hokimi Amir Hoji Barlos 1360-1361 yillarda Mo'g'uliston hoqoni To'g'liq Temur qo'shinlarining movarounahrga. Jumladan, Qashqadaryo vohasiga bostirib kirishdan qo'rqib Amudaryoning narigi sohiliga xurosonga qarab qochadi.

Temur ham Amir Xoji Barlosga hamroh bo'lib boradi. Biroq Temur yuz bergan vaziyatni hisobga olib, shu holda qochib ketilaversa o'z vatanining dushman qo'shinlari tomonidan kuz o'ngiga keltiradi. Shu sababli tog'asi Xoji Barlosga, sizning Xurosonga qarab yo'l olishingiz, mening esa viloyatni vayronagarchilikdan qutqazib qolish uchun Shaxrisabzga qaytishim ma'quldir va davlatni va davlatni idora qilishni saqlab qolmoqlik maqsadida mo'g'ul xoni xizmatiga kirganim foydalidir, deydi. Shu o'rinda Yazdiy Temurning so'zlarini keltiradi. Ularning mazmuni: Boshliqsiz mamlakat joni sug'urib olingan tanaga o'xshaydi. Jonsiz tana uning halokati bilan baravardir.

Shunday qilib, o'ziga xos vatanparvarlik hissiyotlari bilan ruhlangan, ijtimoiy-sotsial voqelarni o'zicha tushungan tadbirkor Temur 25 yoshida Shaxrisabz hokimi bo'lishga muyassar bo'ldi. Shu yili uning otasi - Turk zodagonlaridan, oqsuyaklaridan bo'lgan Amir Tarog'oy Bahodir vafot etadi.

Temur o'z faoliyatining birinchi davrida barcha harakatini movarounahrda tushkunlikka va halokatga yuz tutgan Chig'atoy ulusi o'rniga birlashgan, markazlashgan mustaqil davlat tuzishga qaratdi.

Temur Movarounahrda hokimiyati o'z qo'liga olgach, uning dastlabki tadbirlaridan biri planli ravishda qurultoylar o'tkazish bo'ldi («zafarnoma»da bu haqda ma'ulmotlar keltirilgan). Sharafuddin Ali Yazdiy yuqoridja aytilgan asarida Temur tomonidan Qarshida (110-b),

Qorabog‘da (357 b), Samarqandda va boshqa joylarda o‘tkazilgan qurultoylar haqida ma‘lumot berib, ularga barcha joylarda o‘tkazilgan qurultoylar haqida ma‘lumot berib, ularga barcha shaxzodalar, bosh amaldorlar. Ma‘muriy rahbarlar, harbiy boshliqlar va aristokratiya vakillari ishtirok etganligini yozadi.

Shunday qilib, Yazdiyning asarida Temur tomonidan chaqirilgan qurultoylarni turk va boshqa xalqlar feodal oliy tabaqasining kengashi ekanligi ochiq ko‘rsatiladi.

Yazdiyning ma‘lumotiga ko‘ra, bu qurultoylarda mamlakat va davlatning xo‘jalik sohasidagi xamda harbiy ahvol haqidagi eng muhim masalalari muhokama etilar, mamlakat va davlat uchun zaruriy hisoblangan ishlarni bajarishda birlashib harakat qilishga qaratilgan qarorlar qabul qilinadi, tadbirlar belgilanadi. (357 b).

Temurning xislatlaridan biri shu ediki, u biror masalani hal etishdan oldin shu sohaning bilimdon odamlari bilan maslahatlashar, so‘ng aniq qaror qabul qilar edi. Uning olimlar bilan qiladigan maslahatlari har xil darajada va turli shakllarda bo‘lardir.

Shunday ham bo‘lgan: Temur olimlari va ruhoniylarning majlisini chaqirib, unda odatdagidek nutq so‘zlagan, mamlakatni, fuqarolarni boshqarishda, turli xil inshootlar va jamoat binolari qurishda unga olimlar, fuzalolar o‘z maslahatlari bilan ko‘maklashishlarini so‘ragan.

Bu jihatdan yazdiy «Zafarnomasi»ning endigina yangidan bunyod etilgan Boilkan shahrida Temur tomonidan (chaqirilgan) xijriy 806 yilda chaqirilgan olim-fuzalolar kengashi haqidagi ma‘lumoti diqqatga sazovordir. Kengashda Temur nutq so‘zlagan: U o‘z nutqida bunday degan: «Fan va dinning mashhur kishlari o‘z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmayapsizlar. Mening maqsadim mamlakatda adolat o‘rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishga menga o‘z maslahatlaringiz bilan ko‘maklashishingiz kerak. Mamlakatning ahvoli, devonning suiiste‘mol qilinganligi va qilinayotganligi, oddiy odamlarning joylardagi xokimlar tomondan qisib qo‘yilishi kabi hollar hammadan ko‘ra sizga ayyondir. Shular haqida

ma'lumot bersangizlar, bu kabi adolatsiz ishlarni bartaraf etuvchi hamda shariat va qonunlarga muvofiq chora-tadbirlarni aytsangiz yaxshi bo'lar edi. Agar oldin bizning diqqat-e'tiborimizda o'zga mamlakatlarni ishg'ol qilish uchun bo'lgan xarbiy yurishlar turgan bo'lsa, endilikda mamlakatda xotirjamlik o'rnatishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bosh vazifamizdr. Bu olijanob iishda menga yordam berishlaringizni iltimos qilaman».

Temur davrida Samarqand yangicha usulda qayta qurildi. Shungacha Samarqandda mo'g'ullar - ajnabiylar hukmronligi davrida, ya'ni 1120-1360 yillar. Demak, keyingi 140 yil davomida hech qanday katta biron bino qurilmagan edi. Bu tarixiy fakt Yazdiyning asarida ham, Ispaniya-Kastiliyaning Temur saroyidagi mashhur elchisi Ryui Gonzales de Klavixoning kundalik daftarlarida ham ayniqsa yaqqol ifoda etilgan. Klavixo Samarqandda 1403-1406 yillarda bo'lgan. Uning yozishcha, Samarqandda har yili ko'plab turli xil mol-tovarlar sotilgan. Unda barcha narsalarni tartib bilan sotish uchun katta joy bo'lmaganligi sababli podshoh shahar bo'ylab katta ko'cha (rasta) chiqarishni, uning ikki tomonida esa mol sotish uchun do'konlar qurishni buyurdi. Bu ko'cha - rasta shaharning bir chekkasidan boshlanib, butun shaharni kesib o'tishi va uning ikkin chekkasiga chiqishi kerak edi.

Temur Samarqanddagi ahvolni butunlay o'zgartirib yubordi. U Samarqandda Ko'ksaroy, Bibixonim majsidini, Shoxizinda mavzoleyini, Samarqand atrofida Bog'i Chinor, Bog'i Shamol, Bog'i Dilkusho, Bog'i Bexisht, BOg'i Nav kabi bog' va saroylarni qurdiradi. Yo'llar qurib, Ko'xak - Zarafshon daryosi orqali ko'priklar solindi. Keyinchalik Amudaryo va Sirdaryoga ko'prik qurildi, Toshkent atrofiga kanallar, jumladan, Sirdaryodan Oxangaronga ham kanal o'tkazildi. Buxoro, Shaxrisabz, Farg'ona, Turkistonda karovon saroylari va boshqa qurilishlar bilan birga iirrigatsiya inshootlari qad ko'tardi. Shaharlar, qishloqlar, madrasalar, maqbaralar qurilishi o'sha davr uchun misli ko'rilmagan miqyosda oib borildi. Qurilishga mahalliy sohibi hunarmandlardan tashqari Temur zabt etgan mamlakatlarning ko'plab quruvchilari, meymorlari jalb etildi.

Temur nima sababdan o'z hokimiyatining markazi qilib Samarqandni tanladi? Birovlar bunga sabab qilib Temurning birinchi bo'lib egallagan yirik shahri Samaraqand ekanligini ko'rsatsalar, boshqa birovlar buning sababi Samarqand ob-havosining yaxshiligida, tabiatining go'lligida deb tushuntiradilar. Na birovlar esa Samarqandning qadimdan beri butun dunyoga ma'lum bo'lganligi. Mashhur Afrosiyob shu shahardan turib Turon mamlakatini boshqarganligi Temurni ushbu shaharni poytaxt qilib tanlashiga sabab bo'lgan bo'lsa kerak, deb taxmin qiladilar.

Shubxa yo'qki, bu taxminlarning hammasida ham haqiqat mavjuddir. Lekin gap shundaki. Samarqand qulay geografik holatga ega bo'lib, Movorounnahrning o'rtasiga joylashgandir. U sersuv bo'lib, uni uch tomondan tog' o'rab olgan: unda havoning uch oqimi - tog', daryo va keng yaylov, daraxtzor vody-adir qo'shilib xushmanzarali, xushtabiatli, orombaxsh iqlim barqarordir. Samarqand atrofi juda katta qurilish materiallari hamda qimmatbaho rangli va nodir konlarga ega bo'lib, o'sha davrda ham ulardan davlat ishida ma'lum darajada foydalanish mumkin edi. Ana shu omillar Temur tomonidan Samarqandni o'z davlatining poytaxti qilib olinishiga asos bo'lgandir.

Akademik V.V.Bartoldning qayd etishicha, Samarqand, Temurning fikriga ko'ra, dunyoning eng dongdor shahri bo'lishi kerak edi. Samarqand atrofida qator qishloqlar bunyod etilib, musulmon mamlakatlari bosh shaharlari: Bag'dod, Damashq, Misr (Qohira), Sheroz va Sultoniya nomlari berilganligi yuqoridagi fikrning ifodasi edi.

Temur tomonidan tuzilgan davlatni boshqarish sistemasi ham qiziqarlidir. Bosh boshqarma - kanselyariya - Devoni Buzurgdan tashqari, har bir viloyatda devon ataluvchi boshqarma - kanselyariya ham bor edi. Devon barcha davlat ishlari: soliq yig'ish, tartib saqlash, ijtimoiy binolar - bozorlar, yo'llar, irriigatsiya tarmoqlariga qarab turish va aholining hulqiy-ahloqiy harakatlarini nazoart ostiga qarab turish va aholining hulqiy-ahloqiy harakatlarini nazorat ostiga olish kabi ishlar bilan shug'ullanardi. Har bir Devonda kirim va chiqimlarni hisobga olish javtarlari bo'lgan. Daftarga kirim va chiqim qayd etish turk-o'zbek va fors-tojik tillarida olib borilgan.

Yazdiy Temur saroyidagi soʻz ustalari, sharxlovchilar, kotiblar ham turk tilida, ham fors tilida yozganliklarini maʼlum qiladi. (91-b).

Temur yozishmalariga muvofiq, vaqti-vaqti bilan surokpursish, reviziya va tekshirish-taftish, tergov qilish - taxkak oʻtkazib turilgan. Oʻz amalini suiisteʼmol qilish, poraxoʻrlik, doimiy ichkilik, maishiy buzuvlik kabilar ogʻir gunoh hisoblanib, bunday kishilar qattiq jazolangan. Yazdiyning yozishicha, suiisteʼmol qilish Temur avlodlariga taalluqli boʻlgan vaqtda ham, ular tegishli jazolarni olganlar. Chunonchi, uning oʻgʻli Mironshoh, nevarasi Amirzoda Pirmuhammadalra xalq oldida qattiq jazoga tortilganliklari toʻgʻrisida manbalarda yozilgan. Temur davlatning obroʻsi, sharafi, manfaati sohasida gʻoyat qattiqqoʻl edi, u bunday paytlarda oʻzini ham, oʻgʻil, nevaralarini ham, qarindosh-urugʻlarini ham, harbiy boshliqlarni ham ayammasdi. U oʻz davlat ishlarida gʻoyat mustahkam, barqaror turardi.

Temur, tarixchilar tasviricha, oʻrta asrning taniqli davlat va harbiy arboblardan edi. Uning «Tuzuki Temur» asarini oʻqigan kishi bu fikrning haqqoniyligiga qanoat hosil qiladi. Ushbu asarda Temurning doktrinasi izohlangan. Uning jamiyatda, ijtimoiy-siyosiy hayotga qarashi, birlashgan qudratli feodal davlatining siyosiy va ahloqiy prinsiplari ifodalangan.

«Temur tuzuklari»da, masalan, shunday deyilgan: «Menga boʻysungan yangi davlatlarda hurmatga loyiq odamlarga hurmat koʻrsatdim. Men paygʻambar avlodlariga, qonun targʻibotchilariga, olimlar va keksalariga nisbatan ehtirom bilan munosabatda boʻldim; ularga nafaqa belgiladim. Bu mamlakatlarning badavlatkishilari mening oat-inimdek, yetim-yesir va kambagʻallari esa bolalarimdek boʻlib qoldi. Magʻlub boʻlgan mamlakat qoʻshinlari mening qoʻshinlardi. Men bu mamlakatlarda xalq hurmatini qozonishga harakat qildim. Shunga qaramasdan, xalqni umid va qoʻrqinchda orasida saqladim. Yaxshilarga, ular qaysi millatga mansub boʻlishlariga qaramay men ham yaxshilik qildim: gʻarazli kishilar va sotqinlar esa mening davlatimdan quvildi. Qoʻrqoq va pastkash odamlarga oʻzlariga loyiq ishlar topshirdim hamda ularni maʼlum chiziqdan chiqishlariga yoʻl bermadim.

Magʻlub boʻlgan davlat hokimlarini oʻz vazifasida qoldirardim. Unga maqtovlar yogʻdirdim va ularning sodiqligiga toʻla bogʻlardim. Biroq baʼz

qaysarlari shosha-pisha o‘zini-o‘zi to‘rga tushirardi. Bunday hollarda men uning o‘rniga adolatli va uddaburon odamni tayinlardim. Men katta yo‘llardagi yo‘lto‘sar va o‘g‘rilarni «Yassa» (Chingizxon qonuni) asosida jazolash va qo‘zg‘olonchi hamda sotqinlarni mening hokimiyatimdan chiqarib xaydash haqida buyruq berdim.

Temur o‘lkalardagi yo‘llarning xavfli bo‘lishini istamasdi. Shaharlarda va shahar mahallalarida maxsus odamlar qo‘yilardi: ular xalqning va askarlarning xavfsizligi ustida ish olib borardi. O‘sha yerda sodir bo‘lgan o‘g‘irliklar uchun barcha javobgarlik uning bo‘yniga tushar edi.

Shubhali va niyati buzuq kishilarning ayblashlari hamda tuxmatlari bilan fuqarolarga jazo berish qozilarga qat’iyan man etilgan edi. Ammo biror shaxsning gunohi to‘rtta dalil bilan isbot qilinsa, u kishiga, qilmagan aybiga qarab jazo berilar yoki jarima solinar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Temur Tuzuklari. Xalqaro Amir Temur jamg‘armasi. “Sharq” NMAK. T.: 2005 yil. B-92.
2. Marsel Brion. Men kim, Sohibqiron-Jahongir Temur – T., “Yangi asr avlodi”. 2014. – B. 21-22.
3. Bobir Berdiyev. “Temur tuzuklari”da jamiyat ijtimoiy qatlamlarining aks etishi. Ijtimoiy fikr-inson huquqlari. 2013 yil № 3. B-115.
4. Hamdam Sodiqov. Amir Temur salnatanida xavfsizlik xizmati. T.: “ARTFLEX”. -2010yil. B-9.

SOHIBQIRON AMIR TEMUR QADRIYATINI O‘RGANISHNING IJTIMOIY-SIYOSIY VA MA'NAVIY AHAMIYATI

Sh.U.Inogamjonova,

TDTU Muhandislik texnologiyalari fakulteti

153-22KB yōnalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Xoliqova R.E.

Vatan inson uchun qadrli bōlgan maskan, uning kindik qoni tōkilgan uluĝ joydir. Uni sevib ardoqlash tushunchasi esa vatanparvarlikdir. Vatanparvarlik — kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida saqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev shunday dedilar: “Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak”. Zero, xalqimiz, ayniqsa millatning kelajagi bo‘lgan yoshlar buyuk ajdodlar tarixini qanchalar ko‘p o‘rgansa, ularning hayoti va faoliyatidan ibrat va saboq olib yashasa, qalbida milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ulari jo‘sh urib, el-u yurtga bo‘lgan muhabbati yana-da ortadi. Bu ezgu ishlarni amalga oshirishda esa, xalqimiz tarixida o‘tgan ko‘plab buyuk siymolar qatorida, Sohibqiron Amir Temur qadriyatini o‘rganish ham muhim ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy ahamiyatga ega.

Jahon davlatchiligi tarixidan yaxshi bilamizki, bashariyatning kelgusi taraqqiyoti uchun yurtparvarlik, insonparvarlik siyosatini olib borib namuna bo‘lgan hukmdorlar sanoqli. XIV asrning eng yorqin siymosi – Amir Temur ana shunday ulug‘ va mo‘tabar zotlardan biri hisoblanadi.

Amir Temur bobomiz yurtni adolatli boshqarish, hammaga birday munosabatda bōlish, haqoniylik, odillik bilan davlatni boshqargan uluĝ zotdir. Hali hanuzgacha uning davlat boshqaruvi, kuchli olib borgan siyosati haqida oʻrganilib kelinmoqda. Yurtga bōlgan muhabbat, hurmat, vatanparvarlik kabi uluĝ tuyĝularni biz bobomiz bizga qoldirgan noyob meroslardan oʻqib oʻrganishimiz mumkin.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev taʼbiri bilan aytganda: "... xalq armonini royobga chiqarishga boʻlgan intilish Amir Temur ibn Taragʻay Bahodir davrida nafaqat mamlakat mustaqilligini taʼminlash, balki qudratli davlat barpo etish, madaniyat, sanʼat va ilm fan sohalarini rivojlantirishga xizmat qildi". Amir Temur maʼnaviy kamolotiga yoshlik va oʻsmirlik yillaridayoq mustahkam asos qoyilgan edi. Buning natijasi oʻlaroq u mard, dovyurak, oʻtkir zehn va aql-idrok egasi boʻlib kamolga yetdi. "Qurʻoni Karimni yod olib, Hadis ilmi bilan bir qatorda turli dunyoviy ilmlarni ham puxta oʻrgandi. U kuchli aql va saloxiyat egasi bōlgan va bizga boy meros qoldirgan. Uning "Kuch-adolatdadir" degan soʻzlari uning mamlakatni aql-zakovat va adolat bilan boshqarganligidan guvohlik beradi. Sohibqiron Amir Temur mashhur davlat arbobi, mohir sarkarda sifatida Oʻzbekistonda davlatchilikning yuksalishida muhim oʻrin tutadi. Tarixiy manbalarda Amir Temur Sohibqiron nomi bilan bir qator "Sohibi jahon" hamda "Sohibi adl"- "Adolat sohibi" nomlari bilan ulugʻlanadi. Xalqaro YUNESKO tashkilotining tashabbusi bilan 1996-yilda Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda Amir Temur tavalludining 660 yilligi keng miqyosda nishonlandi va shu yil Oʻzbekistonda "Amir Temur" yili deb eʼlon qilindi. Taniqli olim Boʻriboy Ahmedov "Temur tuzuklari" podshohlaming turish-turmush va odob-axloq normalarini belgilab beruvchi, hayot oʻgʻitlarini oʻrgatuvchi, vatanparvarlik ruhini beruvchi risoladir, deb tariflaydi. Haqiqatdan ham "Temur tuzuklari" asari insonga qandaydir kuch beradi, vataniga bōlgan muhabbatini oshiradi, odil va haqqoni bōlishni oʻrgatadi. Bu asarda oʻzbek xalqining boy tarixi, oʻtmishi oʻrganib olamiz, unda davlat boshqaruvi usulari, adolat, vatanparvarlik ruhlari bilan oʻsish keng yoritilgan. Har bir oʻsib kelayotgan yosh avlod albatta Amir Temurning bergan oʻgʻitlarini, qoldirgan maʼnaviy va ilmiy

meroslarini o'qib ko'rish kerak. Chunki, undan biz juda ko'p narsalarni o'rganishimiz mumkin.

Amir Temur shunday degan, "Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o'zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroqda bo'lishga intildim. Do'st-dushmanidan kimki menga iltijo qilib kelgudek bo'lsa, do'stlarga shunday muomala qildimki, do'stligi yanada ortdi, dushmanlarga esa shunday munosabatda bo'ldimki, ularning dushmanligi do'stlikka aylandi." Bu o'git bizga odil bo'lishni o'rgatadi, nafaqat bu o'gitlari, balki ularning boshqa o'gitlari, asarlarini o'qigan inson o'ziga juda ko'p narsalarni oldi.

Sohibqiron bobomiz o'zining hayoti tamoyillari haqida shunday degan:

"Men o'z hayotim mobaynida besh narsaga qa'tiy e'tiqod qoydim va hamishali ularga amal qildim, ular ushbulardir.

Alloh ul har narsaga qodir kuch, sidqidildan sig'insang, istagan murod-u maqsadingga yetkazadi;

Tafakkur- fikrlash va mushohada qobilyati;

Qilich-ul yigitning yo'ldoshi, el-yurt osoyishtaligining posponi, har qanday dushmanning mahy etish quroli, aning qudrati ila dinsizlarni dinga solmoq mumkin;

Imon-ul insonni barcha jonlilardan farqlantirib turuvchi xususiyatdir. Imonli Odam xiyonat qilmaydi, qarindosh-urug'lari, el-yurtning or-nomusini himoya qiladi. Halollik va pokizalikni fazilat biladi;

Kitob (bitik) – barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-zakovatning, ilm-u donishmandlikning asosidir; hayotni o'rgatuvchi murabbiydir."

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Amir Temurning ibratli hayotiy pand- nasixatlari va o'gitlarining har biri ma'no-mazmun kengligi, mantiqning kuchliligi, teranligi, ta'siri umuminsoniy qadriyatlar asosiga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi va ularni bitmas-tuganmas xazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz. Bu o'gitlar sohibqironning juda mashaqqatli va sertashvish, goh muvaffaqiyatli, goh muvaffiqiyatsiz, goh quvonchli, goh anduhli umrining ijodiy mevasi

hamda xalqni bir maqsad yo'lida birlashtirgan, jipslashtirgan sehrli va tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan durdona merosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Temur tuzuklari” [forschadan Alixonto‘ra Sog‘uniy va Habibulla Karomatov tarjimasi], 1991,1996;
2. “Temur tuzuklari” ni O‘zbekistonda o‘rganish muommalari [Temuriylar davri Madaniy yodgorliklari), 2003
3. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” “Davlat ilmiy nashiryoti” Toshkent 2011.

THE IMPORTANCE OF INFORMATION SECURITY IN THE DOMESTIC PUBLIC POLICY OF AMIR TEMUR

*F.A.Baxtiyorov,
Jamoat Xavfsizligi Universiteti 3-bosqich kursanti
Ilmiy rahbar: M.Ahmedova,
Universitet Fuqaroviy huquqiy fanlar kafedrasida
professori*

In gaining a great life experience, in managing the state with justice, in securing simultaneously peace and security throughout the whole empire, finally, in restoring and strengthening economic relations through the Great Silk Road with the countries of East and West, in establishing strongly the diplomatic relations Amir Temur's extremely deep and comprehensive knowledge, ability to think broadly and deeply, his strong logic played a great role.

In insuring the security of Amir Temur's state his internal and external policy played a very big role. The diplomatic relations of Sahibqiron's empire established with other countries, mutually good neighborly relation in the sphere of commerce played an extremely important role in providing the state security.

Since ancient times our ancestors have adhered to laws and rules of international diplomatic relations and developed this area. Since ancient

times our hospitable people have striven to respect other peoples, to establish friendly relations with them. In the diplomacy of Amir Temur, there had always been priority ideas to keep peace, mutual respect, pardoning the rivals and creating good opportunities for them, valuing envoys under any difficult circumstances, observing strictly the diplomatic rules, inviability of man's life and humanism.

As stated by our President Sh. Mirziyoyev: “if we take as an example our grand-grandfather Amir Temur and the Temurids' empire, during the years of ruling by this generation we would witness how great had been the diplomatic relations in our ancient land. At the same time, on the pages of history there are preserved names of such envoys as Muhammad Keshi from Shahrizabz, as well as Mavlono Hofiz, Ghiyosiddin Naqqosh, Abdurazzoq Samarqandiy who represented Amir Temur and the Temurids' empire in the countries of Europe and Asia” [1].

This is vividly proved by the fact that our grand-grandfather Sahibqiron had established diplomatic relations and exchange of messages with the rulers of many states, such as France, England, Spain, Byzantine, Egypt, China, India and with the empire of Osmania. It is well known from history that tens of envoys visited Amir Temur's palace from different countries of the world. The sources of the years between 1389 and 1398 mentioned that on behalf of Amir Temur the envoys had visited China nine times.

For sure, in conducting foreign policy with other countries on the basis of equal rights and in developing diplomatic relations the role of state's envoy is extremely great. It was always required that an envoy had to know his rights and obligations completely well and had to fulfil his functions and tasks with all his heart and might. Regarding this: “while speaking about the duty and tasks of an envoy before his people and Motherland, about his professional skill, spiritual world, there arises a question: first of all, what features and characters must an Uzbek diplomat, ambassador of today possess? It is clearly seen that the word “ambassador” denotes a representative of his country, people, who connects peoples and countries with each other” [2].

The diplomacy of Sahibqiron Amir Temur has developed in harmony with the world community and reflected in itself fully the features of those times. It is necessary to state separately that at those times Central Asia had become the center of the world diplomacy” [3].

At those times among the rulers of Europe, Castilian and Leon’s King Don Enrich III had treated Asia with a special interest. In 1402 as he sent his envoys to the small Asia, he ordered the envoys “to collect information about the traditions, customs, conduct, morals, religions, faith, power and goals to benefit him” [4].

While speaking about the diplomacy of Amir Temur, it is necessary to emphasize the memories of Ruy Gonsalez de Clavijo. Clavijo was Spain’s envoy sent to the palace of Amir Temur by Castilian and Leon’s King Don Enrich III. He had lived in the palace between the years 1403-1406 and had written in his memory diary what he had seen in Temur’s empire. During the period when the emperor of Constantinople had left for Europe to ask assistance, that is, in the summer of 1402 Amir Temur sent the priest Francie with a diplomatic letter of credentials to the deputy of the Emperor. At the same time, in the letter kept in the archive of Venus Amir Temur had written that Sahibqiron received the priest Francie, he had liked the monarch, that he had requested twenty military ships from the emperor of Trapeze for mutual union, as well as he made it known that had sent envoys to Baized in the accompaniment of priest Francie [5].

At that time independent Tarabzun situated on the Southern - Eastern shores of the Black sea used to be an important port of Greek Christian Kingdom, and served as a big mediator on the trade road between South and West where the merchants of Genuya had an upper hand. The fact that this kingdom expressed its subordination to Amir Temur confirms how influential the diplomatic relations of Sahibqiron were at that time.

Thus, if in the foreign policy of the state the more important was the role of envoys, in defining problems among people the more careful was the work of so called arzbegi, an internal informant. The arzbegi had to inform Amir Temur about the internal policy, that is, about the conditions of soldiers, community people as well as received applicants of

complaints, what important works had been fulfilled, and what deeds had to be performed.

As Amir Temur wrote in his “Institutes”, “I ordained that on every frontier, and in every country, and in every city, and in every camp a writer of intelligence should be established; and that each should write to the imperial presence, with truth and perspicuity, full accounts of the conduct and the behavior of the governors, and of the officers; and of the soldiers, and of the subjects; and of the state of my own armies, and of those of foreign powers; and of the bringing in, and the carrying out of all merchandize and commodities; and of the entrance, and the departure of all strangers, and of all Caravans of every country; and of the transactions of the neighboring kingdoms and princes, and of their conduct and behavior; and also of the learned and skillful men of distant countries, who might turn their faces towards my dominions:

And that if the writer of the intelligence was guilty of falsehood, and wrote not the true state of the facts, his fingers should be cut off: and that if he suppressed the laudable actions of the soldier, or wrote an unjust account thereof, he should be deprived of his right hand: and that if he wrote a false account from enmity and from malice, he should be put to death. And I commanded that these accounts should be transmitted unto me day by day, and week by week, and month by month” [6].

And I ordained, that a thousand swift camel-men and a thousand horse-men, and a thousand expeditious footmen should be selected; and that they should inform themselves of the occurrences of the countries, and of the frontiers; and of the intentions and the designs of the neighboring princes; and that they should return unto the presence, and give me information thereof, that I might provide the remedy before the evil arrived” [7]. It would not be mistake if we say that by this Amir Temur stated several centuries ago that the informant should write only the truth in describing the event and delivering to somebody, that the false and slander would cause the violation of human rights. Naturally, we can say today that all these principles have found their reflection in our legislation.

About it Husayin Voiz Koshifi wrote in his work “Akhloqi Muhsini” (“Conduct of Muhsini”): “For Padishahs the center of empire, that is, a

castle is like a courtyard for an ordinary man, the city and deserts are under his protection, there living any poor or needed has a neighboring right, the Padishah should be and must be aware of their state” [8].

As Amir Temur wrote in his “Institutes”, I sent a letter to my friends in the service of Amir Husayin and asked them to warn me of his deceits. Once one of my friends Sher Bahrom warned me of Amir Husayin’s evil intention. Amir Husayin noticed it and had Sher Bahrom murdered, and launched a fight against me with a thousand horse-men.

Amir Temur was well aware that in insuring the security and stability a great role was given to rulers’ alertness, watchfulness and entrepreneurship, in case he is weak, simple and had trust in everything, the insecurity inside the country might cause instability in the state itself. Besides, he considered that breaking laws, not adhering to them would finally cause injustice and instability in the country.

Sh. Uljayeva states that “If we think of the international situation, it should be emphasized separately that Amir Temur’s period was the period of violations, informational struggle. It was required that in order to keep security and stability of his country one should watch political events going on in the neighboring states with alertness” [9].

It was a must that in applying just punishments to crimes the informants had to send notes from the most remote lands of the empire. If an informant hides the service of a soldier or an official or deceits about him or wrote false information, as soon as his deed was proved, his hands were cut off. If he did not write the events intentionally, his fingers were cut off. If the informant wrote false information with slander or with evil intention, he was murdered. The information was delivered to Amir Temur day by day, week by week, month by month. (“Sultans should and must have officials of state bodies and applauders, other civil servants and keens (regions and people, Padishah’s relatives and children – M.A.). Because if one of the Padishahs possessed some of the land property, if all wills of people belong to him, he must be aware of the general and each situation of his country in accordance with laws and alertness, must take care if his people, ministers and those under his rule, he must also know big or small officials of his country. The informants should deliver information

regularly and keep him informed of the situation, if the situation of regions and peoples, surrounding lands and places were hidden from the Padishah, it would cause a very big damage to the country” [10].

Amir Temur understood well that it was more important to prevent the danger than to fight against it, that’s why he considered that the events happening in neighboring states are indivisible with the security of his own state. In order to be aware of the situation in other countries he had sent his spies to these countries under the mask of sheikhs of these lands, merchants, beggars and other masks, consequently he determined his foreign policy in consistent with situation. The information facts received from tourists, merchants, sorceries were considered in the closed door meetings and the threat to endanger the indivisibility of the country was prevented in time [11].

If to sum up, some of the guests who arrived from abroad under the masks of merchants, sheikhs and other names used to visit us with other intentions. Accordingly, Movarounnahr the informants were sent o other states and they used to inform about the evets happening in strange countries. Amir Temur appointed a thousand swift camel-men and a thousand horse-men, and a thousand expeditious footmen as responsible informants on roads and robots to find out the intentions of the people coming abroad. These events served as the guarantee of regional peace during the Temurids’ period.

References:

1. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: O‘zbekiston, 2018. – B. 282.
2. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: O‘zbekiston, 2018. – B. 281.
3. O‘zbek diplomatiyasi tarixidan: Tarixiy ocherklar va lavhalar / Akademik M. Xayrullayev umumiy tahriri ostida. – T.: 2003. – B. 376.
4. Saidov A., Keren L. Amir Temur va FransiY. – T.: Adolat, 2016. – B. 179.
5. Saidov A., Keren L. Amir Temur va FransiY. – T.: Adolat, 2016. – B. 170.

6. Temur tuzuklari. – T.: O‘zbekiston, 2013. – B. 139.
7. Temur tuzuklari. –T.: O‘zbekiston, 2018. – B. 139.
8. Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi muhsiniy. – T.: O‘zbekiston. – B .193
9. O‘ljayeva SH.Amir Temur davlat boshqaruvi. Tashqi siyosat. DiplomatY. – T.: Akademnashr, 2017. – B.130.
- 10.Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi muhsiniy. – T.: O‘zbekiston. – B .235.
- 11.O‘ljayeva SH.Amir Temur davlat boshqaruvi. Tashqi siyosat. DiplomatY. – T.: Akademnashr, 2017. – B. 133-134.

AMIR TEMUR SAVDO VA HAJ YO‘LLARI POSPONI

*Sh.U.Nurkosimov,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti talabasi*

Tarix – haqiqat mezonni, jarchisi. U alday olmaydi, aldanmaydi ham. Qudratli buyuk davlat barpo qilgan Amir Temur bunday davlatning iqtisodiy jihatdan ravnaq topishini g‘alabalariga olib keluvchi harbiy yurushlar bilangina ta‘minlab bo‘lmasligini yaxshi his etard. [1,111-b] Nizomiddin Shomiy “Zafarnomasida” takidlaganidek: “Ojiz kishilaru raiyatlarni, savdogar dehqonlarni muhofaza etishda qonunlarga rioya qilib, adolat rasmini bajo keltiradi. Asrlar moboynda hali boror talabgorning aqdu nikohiga kirmagan ikki boyi yetgan go‘zaldek bo‘lmish Eronu Turon mamlakatlarini (Amir Sohibqiron) to‘la zabt etish va adolatli siyosat yuritish orqali shunday boshqarmoqdaki, u erlarning donishmandlari hayron qolmoqda. Uning adolati siyosati o‘rnatilgan kunlarda Movarounnahrnin eng chekka joylaridagina emas, balki Xitoy va Xo‘tan chegarasidan Dehli va Konboyit atroflarigacha, Bobul-Abvodan to Misr va Rum hududigacha bo‘lgan erlardan savdogarlar u yoqda tursin, bolalaru beva xotinlar ham ipakli matolar, oltin-kumush va eng zarif tijorat mollarini keltiradilar va olib ketadilar. Hech bir kimsa ularning bir diniga ham ko‘z olaytira olmaydi va bir dirhamiga ham ziyon etkazmaydi. Bu

cheksiz ne'mat va poyonsiz marhamatlar Amir Sohibqironning siyosati va adolati natijasidir". [2, 20-b.]

Darhaqiqatdan ham ilm-u fanni, ma'naviyati-yu ma'rifati, dini va e'tiqodi rivojlanmagan mamlakat jahonda obro'-e'tibor qozonaolmasligini chuqur anglagan Amir Temur, o'zi zabt etgan yurtlarda ham adolat o'rnatgan va ayni bir paytda, Samarqandga ko'plab ilm fan namayondalarini, me'morlarni, san'atkorlarni yig'ib olib kelgan va katta ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borgan. Natijada mamlakatda inqilobiy o'zgarishlar bo'ldi: ziroatchilik rivojlandi; Turkiston (Yassi), Sayram, Toshkent, Zangiota, Shohruhiya, Xo'jand, Termiz Qarshi (Nasaf), Buxoro, Xiva, Hirot, Bog'dod, (Iroq) va Baylakon (Ozarbayjon)da shaharlar, madaniy va savdo-sotiq inshootlari bunyod etildi; Buyuk Ipak yo'lining har 30 chaqirim masofasida sardoblar, karvonsaroylar qurildi, ko'priklar solindi. [3, 19-20 betlar.] Buning asil sababi esa Amir Temurning 27 mamlakatdan tashkil topgan buyuk davlati hududida adolat mezonlariga izchilik bilan rioya qilinar va shu yo'sinda buyuk imperiya xavfsizligi ta'min etilardi. [3, 28-b.] Shuning bilan birga sohibqiron Egey va O'rta dengiz sohillaridan to Xitoy chegaralarigacha, Dashti Qipchoqdan Arabiston dengizigacha bo'lgan oraliqda ulkan saltanat barpo etib, Amir Temur, avvalo Buyuk Ipak yo'lining karvon so'qmoqlarini bosqinchilar hujumidan muhofaza qildi. G'arbiy Eron, Iroq, Suriya va Sharqiy Anatóliyada bosqinchilar ayniqsa ko'p edi. Bungacha ana shu mamlakatlardan o'tadigan yo'llar xavfli bo'lganligi uchun nafaqat savdo karvonlari qatnovi, balki musulmonlar uchun farz hisoblangan haj amalini bajarish ham amri mahol bo'lib qolgan edi. [4, 112-b.]

Ma'lumki, Amir Temur davlatida savdo-iqtisodiy aloqalar sohasiga alohida e'tibor berilgan. Bu uning o'z davlati hududida amalga oshirilgan tadbirlari, savdo yo'llariga qilgan ahamiyati va xorij hukumdorlari bilan yozishmalarida savdo munosabatlarini yo'lga qo'yish kabi takliflaridan ko'rinib turadi. S. G'ulomovning ilmiy izlanishlariga ko'ra Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"siga Xofizi Abru qilgan "Ilova" ("Hazrat sohibqironning Ozarbayjon va Iroqi Ajam mamlakatlarini amirzoda Umarga berilganligi bayonida" qismida) Amir Temurning mazkur amirzodaga qilgan davlat boshqaruvida zarur bo'lgan bir qancha xususlar

qatorida quydagi nasihatlarini keltirilgan. "...Yo'llarni qo'riqlashda imkoni boricha harakat qilinsin va ularni muhofaza qilishni mamlakatni idora etmoq shartlaridan biri deb bilsin, Savdogarlar va yo'lovchilarning dillariga ozor etishiga aslo yo'l qo'yilmasin". Ushbu misoldan Amir Temurning o'z mamlakatida tinchlikni ta'minlash savdo elchi karvonlarning tinch va erkin harakatlarini ta'minlash borasidagi o'ylari ko'rinib turadi. [5,36-b.]

Darhaqiqat, sohibqironning harakatlarida asos mavjud edi. Xususan, Afg'oniston, Eron, Iroq, Ozarbayjon hududlaridan o'tadigan savdo karvon yo'llarini o'g'ri, qaroqchi, yo'lto'sarlardan tozalash bo'lsa, ikkinchi tomondan esa muqaddas haj ziyoratiga boradigan hojilarning xavfsizligini taminlashdan iborat bo'lgan. Bu boradagi sohibqironning qilgan ishlarning pirovardida boshqa mamlakatda sodir bo'layotgan ishlarga be'tibor bo'lmagan bu davlat ahamiyatiga molik bo'ladimi yo'qmi birinchi o'rinda oddiy xalq, savdogar, hojilarning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'ygan. Shunday qilib, sohibqiron oddiy aholiga, savdo karvonlariga hujum qilib talagan, zarar yetkazgan podsho yoki qaroqchimi, yo'l to'sar kim bo'lishidan qat'i nazar ayab o'tirmagan. Shu bilan birga Amir Temur ham tashqi boshboshdoqliklarga shu yo'l orqali barham bergan va xalq hayotining farovonligini bir muncha bo'lsa ham yaxshilashga harakat qilgan. Bu yo'lda sohibqironning dastlabki qilgan tadbirlari Xuroson muzofatida amalga oshira boshlagan.

Misol uchun 1381 yili Eronga qarshi yurushi davomida Hirotida Kurdlar sulolasidan bo'lgan G'iyosiddin Pir Ali mamlakat hukumdori edi. U sohibqironga qarshi hujum qilish o'rniga Hirotidagi Ixtiyoriddin qa'lasiga bekinib oladi va Hirot ahli Amir Temurga darvozalarni ochib qoyadi. Shuning bilan Hirotidagi Kurdlar sulolasiga Amir Temur barham beradi. N. Ahmedovning M. Ivanov asarlarini izlanishi chog'ida shunday fikriga keladiki: "Temur Kurdistonni ishg'ol qilgandan so'ng qaroqchilarning shu qadar adabini beradiki, savdogarlar karvonlari qimmatbaho yuklari bilan hamma yo'llarda qo'riqchisiz bemalol yuradigan bo'ladilar". [6, 49-50 betlar] 1386 yil Amir Temur Feruzko'hga etdi. Shu erda Sayyid Kamoliddin va uning o'g'li Sayyid G'iyosiddin sohibqironni munosib darjada kutib oldilar. Sohibqiron ham ularni izzat-

ikrom bilan qarshilab, podshohona marhamatlar ko'rsatdi. Bundan bir necha yil ilgari Hijozga borayotgan karvonlar Kichik Lurdan o'tayotganlarida bu mamalakatning voliyasi Malik Izziddin ularni talon-taroj qilgan edi. Uning bu jirkanch qilmishi haqidagi xabar olamning turli diyorlariga etgan bo'lsa-da, u erlarning podshohlarida bu buzg'unchilarni jazolash uchun na xoxish-istak na kuch-qudrat bor edi. [2, 133-b]

Bu xabar Amir Sohibqironning qulog'iga etganida, fursat topilishi bilan ularning adabini berib, haj amalini bajarish uchun boruvchi hojilarning xafvsizligini taminlash boyicha chora tadbirlarni ko'rishga majbur bo'ladi. Sohibqiron Feruzko'nga keliboq yon atrofdagi voqealardan uni voqif qilib, Kichik Lur va u erliklar tomonidan qilingan va qilinayotan buzg'unchiliklar haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Bunday ishlardan sohibqiron ancha xavotirga tushib qolganligi bejizga bo'lmagan, chunki sohibqiron tashqi siyosatda boshqa mamlakatlar hududida buzg'unchiliklar, yoki hadidan oshgan podshoh yoki amirlarning xalqqa o'tkazgan jabr-zulimiga, jimgina qarab turmagan ularga hayfsan berib kezi kelganda qilich yordamida qonun asosida jazolab turgan. Biroq bunday nomaqbul ishlar musulmon olamiga zarar etsa o'zini islom himoyachisi bilgan sohibqiron hech qanday qaroqchi bo'ladimi jamoa bo'ladimi uni ayab o'tirmagan. Bu xususda Amir Temurning Kichik Lurliklar haqida fikrlaridan ham bilib olsak bo'ladi: "Ularning qilmishlari, musofirlar, ayniqsa, Baytullohga borayotgan hojilarga nisbatan qilgan nomaqbulchiliklari haqida eshitganimga ham ancha vaqt bo'ldi. Raiyat Tangri taoloning bizga topshirgan omonatidir. U bizdan tongla qiyomatda so'raydi-ku! Qanday ravo bo'ladiki, mamlakat o'rtasida shunday buzuq bir jamoa bo'lsa va biz ularni yo'qotish va ildizidan qo'porib tashlashga qodir bo'la turib, bu bobda beparvolik qilsak! Shunday ekan, vaqti kelganda ularning buzuqligini daf qilish, viloyat va mamlakatni u badkirdorlardan tozalash bizning himmatimiz zimmasiga vojib va lozimdir". Sohibqiron yuqorida keltirilgan fikrlarga qattiq amal qilgan holda harakat qilib ayl (o'nlik) har ikki kishini tanlab olib O'rdagohdan ajralib Amir Temur boshchiligida uning buyrug'i bilan o'g'ri va yo'lto'sarlar markazi bo'lgan Luriston markazlari Burjard va Xurramobod ni vayron etib, ularni hammasini qatl etadi. [2, 134-b] Sohibqiron qaroqchi va savdo

karvonlarini talovchi zo‘ravonlarga qarshi kurashda hech qachon to‘xtab qolmagan. Hech qachon sohibqironning huzuridan islom dini peshvolari, savdogarlar, oddiy raiyat, va bir qancha aholining boshqa tabaqalari, xoh boshqa davlat fuqorolari bo‘lishiga qaramasdan ular dargohdan norizo bo‘lib ketishmagan, Amir Temur ham bu tabaqa vakillarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda ish ko‘rgan. Bunga misol, 1393 (hijriy 796) yili Bog‘doda savdogarlar va musofirlar Amir Temurga arz bilan chiqishdi, bu xususda Nizomiddin Shomiy o‘z asarida ularning tilidan ma‘lumot beradi: “Bu tomonda Takrit nomli bir qal’a bor, Mahkamlikda mashhur va mustahkamlikda ma‘rufdir. Unda bir mufsidlar joylashib olgan. Doimo Misr va Damashq savdogarlarining yo‘lini to‘sadilar, musulmonlarning molu manolini talaydilar. To shu damgacha hech kim ularni daf qilishga mashg‘ul bo‘lmadi va ularning ildizini qo‘porib tashlashga himmatini sarf etmadi. Amir Sohibqiron ularga: “Bizning oliy himmatimiz shunday yomon badkirdorlarning daf’iga va mufsidlarni yo‘qotishga sarflanayotganligi tufayli bu ish ham oxirat uchun ajru savob zahirasi hamda dunyoviy fathlarning nodirlaridan bo‘lg‘usidir ”, dedi. [2, 187-b] Haqiqatdan, ham Takrit qalasi juda ham mustahkam qa’la hisoblangan. Huddi O‘rta asrlarda Hashoshiylarning qal’asi Alamutdek, u qal’aning hokimi Hasan ibn Saboh bo‘lganidek, Takrit qal’asining ham hokimi Hasan degan kishi edi. Hasan qilgan qilmishlaridan mulzam bo‘lgani uchun sohibqironning oldiga chiqishga qurbi yetmaydi, uning o‘rniga esa ukasi va onasini yuborib vaqtdan yutushga urunib ko‘radi. Voqealar rivojida esa sohibqiron qal’aning ostida naqib kovlashni buyurdi. Qal’ani har tomonlama sohibqiron askarlari o‘rab olib ilma teshik qildilar, qo‘rg‘onning devorlari tamoman yiqildi. Chunonchi, ular bir necha yillardan beri yo‘l to‘sis va o‘g‘rilik qilish bilan musulmonlarni xonadonini harob qilib kelar edi. Nizomiddin Shomiy mustahkam qal’aning egallanishi haqida o‘zining fikrini bildirar ekan Qur’onni Karimdan misol keltiradi: “Alloh taolo buyurganidek “agar Alloh odamlarning ayrimlarini ayrimlari bilan daf’ qilib turmaganda, yer yuzi buzilib ketgan bo‘lur edi” . Shundan so‘ng sohibqiron qal’adan bir devorni ibrat uchun qoldiradi, toki bundan keyin olam ahliga bu qal’aning qay darajada mahkam mustahkam bo‘lganligi hamda mardlik bilak kuchi

bilan va podshohning istagi tadbiri tufayli uning qay tarzda egallanganligi ma'lum bo'lsin", dedi.[2, 120-122-betlar]

Hindiston safaridan qaytish tarraddudini ko'rayotgan hazrat sohibqiron Sherozga, amirzoda Pirmuhammadga Dehli haqida bir yorliq yo'llagan. Ushbu yorliqda Hindiston sari yurushning sabablari qatorida quydagilar ham keltiriladi:"...Bizning ulug' xotiramizga, etkazilgan xabarlarga qaraganda marhum Feruzshoh haq da'vatiga ijobat etgach, yani vafot topgach, zarxarit qullari Dehli va islom diyoriga taaluqli boshqa joylarni uning farzandlariga bermasdan, g'oratgorlik va talon-tarojni o'zlariga shior qilib tojirlarning (savdogar) kelib-ketishi eshiklarini berkitib, qaroqchilikni chunon avj oldiribdilarki, xarobagarchilik qilish imkoni bo'lgan biror daqiqani bekor o'tkazmas ekanlar". [5, 37-38-betlar]

Amir Temurning Hindiston ustiga yurushi ham bejizga bo'lmagan, bu boradagi dastlabki qilgan ishi Hindistonga olib boruvchi yo'lni afg'onlardan tozalash bo'lgan. Bu yo'lda ular qaroqchilik bilan mashg'ul edilar. Xususan Karkas qabilasining boshlig'i Muso afg'on ham turli qal'alarga hujum uyushtirib kelayotgan edi. Muso afg'on sohibqironning kengashi tufayli o'zining qal'asini topshirishga majbur bo'ladi. Keyinchalik sohibqironni Muso afg'onning sipohi o'ldirmoqchi bo'lganligi tufayli u jazoga tortiladi. Shu asnoda esa sohibqiron Andronovaga o'z lashkari bilan keladi va u erdagi musulmonlar Amir Temurga arz bilan chiqishadi. Ular Qatur qaroqchilarining har dam ulardan soliq o'lpon talab qilishi, agar to'lashmasa xotin-bolalarini asir qilib olib ketishlari haqida aytadilar. Sohibqiron ularga qarshi Rustam mirzo keyinchalik Muhammad Ozodga ko'p qo'shin berib ularni tor mor keltiradi. 1398 yil 4 noyabrda Hindiston daaryolarining eng kattasi bo'lgan Ajudan suvidan o'tib, oyning yigirma to'rtida Xolis kutali qalasiga yetadi va Batnayr qal'asini boysindirishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. [2, 226-229- betlar] Bu qal'aning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning juda ham mustahkamligida va Hind qal'alari ichida mashhurligida edi. Qal'aning hukumdiri Roy Duljin bo'lib, urug'-aymoqlari bilan davlatni boshqarib shu hududlardan boj yig'ib olar va savdogarlar bilan karvonlar uning jabru zulumidan aziyat chekar edi.

U Amir Temurga boysinmagach, O'ng qo'lni amir Sulaymonshoh, Shayx Nuriddin, va Allohodod chap qo'lni Xalil Sulton, Shayx Muhammad Iku Temurga topshirdi bir hamla bilan shahar egallandi. Qiziq jihati shunda ediki Roy Duljin borasida sohibqiron unga podshohona inoyat ko'rsatilib, zarbof to'n, oltin kamar va toj berdilar. Chunku u o'z ixtiyori bilan taslim bo'lgan va Shayx Sa'd Ajudaniyni kafil tariqasida o'zi bilan olib borgan edi. Sohibqiron yo'lda davom etib oyning sakkizinchisida Ahruniy qishlog'idan yo'lga chiqib, Tuhana qishlog'i yalangligida to'xtadilar. Bu yerda ham ashadiy qaroqchilardan bo'lgan Jitton deb ataladigan qavm bo'lib ular, o'rmon va to'qayzorlarga bekinib o'g'rilik va yo'lto'sarlik bilan nom chiqargan edi. Ko'p muddatdan beri ular buzuqchillika qo'l urub, yo'llarda kelib ketguvchilarni va karvonlarning yo'lini to'sar edi. Shunday vaziyatda ular to'qayzorlarga qochdilar. Amir Temur qo'shinga boshchilik qilib qaroqchilarga yetib oldi va ikki ming kishini qilichdan o'tkazib ularni mag'lub etdi. Ulardan o'lja va asirlar bilan Amir Temur Somona yaqinidagi Hatgar suvi yonida asosiy qo'shinga qo'shildi. [2, 243-b]

Xullas, Amir Temur Hindiston yurushidan qaytgach Movarounnahrning boshqa shaharlari va Samarqandda bir necha kun bo'lib o'zining e'tiborini yana Eron va Ozarbayjondagi voqealarga qaratdi. Buning asosiy sababi Eron, Ozarbayjon, ayniqsa Gurjiston bilan Armanistondagi vaziytlar qaltis holatga kelib qolgan edi. Haj yo'llari va hojilarning xavsizligini taminlash borasida bir nech chora tadbirlar ko'rildi. Amir Temur tomonidan Arzirum shahri yaqinidagi Avnik qal'asiga hukumdor etib tayinlangan Otlamish qavchin isimli shaxsni Ozarbayjonda hukumronlik qilayotgan Qoraquyinlilar hukumdori Qora Yusuf (1389-1420) janglarning birida asir olib Misirga jo'natib yuborgan edi. Amir Temur va Misir sultonlari o'rtasidagi munosabatlarning buzulganligi sababi ham shunda edi. Amir Temur yetti yillik yurishi chog'ida Qora Yusuf turkman o'z qo'l ostidagi qoraquyunli qabilasi bilan karvon yo'llarida qaroqchilik bilan shug'ullanib, hatto haj safari bilan Makkaga borayotgan karvonlarni ham talagan. Sohibqiron bu holatdan darg'azab bo'ladi va Qora Yusufni qattiq ta'qib ostiga oladi. Hatto u Rum

podshosi Boyazid himoyasiga qochib ketganida ham uni qaytarishni talab qiladi. [7, 21-22-betlar.]

Shunday vaziyatda Amir Temur davlati va Usmoniylar davlati o'rtasidagi olib borilgan munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Iroqi Arab hokimi Sulton Ahmad jaloir (1382-1410) va Qora Yusuf Temur lashkari bilan bo'lgan jangda yengilgach, qochib borib Usmoniylar saroyidan panoh topgan edi. Amir Temur va Boyazid o'rtasida yozishmalarida, sohibqiron sulton Ahmad jaloir bilan Qora Yusuf ikkisini qaroqchilik va yo'lto'sarlik haj karvonlariga hujum qilishda ayblab, ularni tutub berish yoki mamlakatdan badarg'a etishini Usmoniylar sultonidan talab qilgan. Sulton bu talabni bir kamsituv tariqasida qabul qiladi va Amir Temurga o'ta qo'rs bir ohangda javob yo'llaydi. [7, 35-b.] Bu xususda, yana "Temur tuzuklarida" ham yetarlicha ma'lumotlar uchraydi. Amir Temur Buyuk Ipak yo'lining xavsizligiga ham katta e'tibor qaratgan bu xususda uning Xitoy xoqoni Tayszuga yo'llagan maktubida: "Karvonsaroylararo yo'llar ochildi, yo'llardagi qaroqchillar yo'q qilind, uzoq yurtlarga boruvchilaro'zlarini xotirjam etadigan bo'ldi" deb takidlab o'tilgan. Yo'llarning xavfsizligini taminlash boyicha sohibqqironning alohida e'tibor qaratgan ishi – Karvonsaroylar qurush bo'ldi. Shu bilan birga Amir Temur Vizantiya, Venesiya, Ispaniya, Fransiya, Angilya kabi Yevro'pa mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatdi. [8, 199-b.]

Bu ishlar provardida sohibqironning say-harakatlari bilan savdo-sotiq rivojlandi. Sohibqiron savdo va haj yo'llarning xavfsizligini taminlabgina qolmay bu ishlaribilan davlat xazinasini daromadlini ko'paytirib qanchadan-qancha shahar va davlatlar obod etlidi.

Xulosa o'rnida shuni takdlash joizki, yuqorida keltirilgan misollar sohibqironing karvon va haj yo'llariga nechog'lik ahamiyat berganligi, nafaqat bu borada keng ko'lamlil ishlar, yurushlarni amalga oshirganligini ko'ramiz. Chunki, bu borada Amir Temur savdo karvonlari va haj yo'llarini qo'riqlash, savdo karvonlarini xavfsizligini taminlashni birinchi darajali davlat siyosatiga ko'targan shaxs edi. Misol uchun haj yo'llarida talonchilik bilan shug'ilanib kelayotgan Qora Yusuf bilan sulton Ahmad jaloirni qo'lga tushurish jazolash uchun ularni qo'llab quvvatlagan Misr sultoni bilan munosabatlarda agressiv harekterda bo'lgan. Sulton Boyazid

esa ularni o‘z panohiga olgani uchun ikki davlat o‘rtasida qonli urushga olib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amir Temur jahon tarixida. -Toshkent Sharq nashiryot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriryati 2001. 111-bet.

2. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma-Toshkent O‘zbekiston 1996. 20-bet.

3. Amir Temur saboqlari. 1 “Amir Temur va inson manfaatlari” mavzuida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiya materiallari – Toshkent: “Sharq” nashriyoti- matbaa konserni bosh tahriryati. 1998. 19-20-betlar.

4. Amir Temur jahon tarixida. -Toshkent Sharq nashiryot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriryati 2001. 112-bet.

5. Amir Temur saboqlari. 3 (1999 yil 23 dekabrda o‘tkazilgan “Amir Temur va uning markazlashgan davlat tuzish yo‘lidagi buyuk xizmatlari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari) – Toshkent: “Sharq” nashriyoti- matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriryati. 2001. 36-bet

6. N. Ahmedov. Amir Temur rivoyat va haqiqat. -Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati 49-50-betlar.

7. Amir Temur saboqlari 2 “Amir Temur ilm-fan va madaniyat homiysi” mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari (Toshkent, 1998 y.) -Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashiryoti.1999. 21-22-betlar.

8. A. Xo‘jaev. Buyuk Ipak Yo‘li. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashiryoti – Toshkent: 2007. 199-bet.

AMIR TEMUR DAVLATINING TASHKIL TOPISH ASOSLARI VA HUQUQIY BOSHQARUV TIZIMI

*M.B.To‘xtamurodov,
Jamoat Xavfsizligi Universiteti 3-bosqich kursanti
Ilmiy rahbar: A.A.Sattorov,
Unversitet ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedراسи
dotsenti*

Milliy mustaqillik tufayli O‘zbekistonda Amir Temurni tanish va o‘rganish, xolisona tarixdan ogoh bo‘lish kabi imkoniyatlarga yo‘l ochildi. Ulkan tarixiy siymolarimiz qatoridan munosib o‘rin egallagan Amir Temurga munosabat tubdan o‘zgargani ham fikrimizning isbotidir.

To‘g‘ri, Sho‘ro davri tarixchilarining asarlarida, Amir Temur benihoya johil, zolim va qonxo‘r mustabid tuzum hukmdori sifatida talqin etilgan.

Darhaqiqat, Temur o‘z davlat tuzumini qurishi arafasida Turkistonda mo‘g‘ul iqtidori, idora va boshqaruv usuli, davlatchilik tuzumi har taraflama inqirozga uchragan edi¹.

Muarrir Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida Amir Temur adolatli davlat qurish uchun mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashgan va bahodir safdoshlarini, jasur lashkarboshilarini qadrllovchi, kechirimli, sabr-bardoshli, mulohazali dono rahbar sifatida ta’riflangan.

Amir Temurning 1370 yilda bo‘lib o‘tgan turkiy mo‘g‘ul qavmlari qurultoyida, Balxda “Butun Movarounnahrning Olampanoh amiri” etib e‘lon qilinishi – uning o‘z sulolasiga asos solish va davlat tuzumini o‘rnatishga qaratilgan 15-16 yillik ana shunday og‘ir, murakkab, murosasiz kurashi natijasi hamda harbiy-siyosiy iqtidori, po‘lat irodasi, aql-zakovati mevasi edi².

Bunday katta ulusning iqtisodiy, siyosiy va maishiy hayotini tamomila izdan chiqarib yuborishi oqibatida faqat Movarounnahrning o‘zida bir necha hududlarda turk-mo‘g‘ul amirlari taxt davosida bosh ko‘tarar, o‘zaro

¹ Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Шарк, 1997. – Б.58.

² Хидиров С.М. Амир Темур давлатининг ташкил топиши ва давлат тузуми. Юрид.фан.номзоди... Дисс. – Т.: 2002. – Б. 31.

to'xtovsiz urushlar, jangu jadallar davom etar, mamlakat esa halokat yoqasiga kelib qolgan edi¹.

Amir Temur shaxsiyatining shakllanishi va kamolot darajasiga yetib borishida uning otasi Tarag'ay Bahodir, birinchi ustozlari va ma'naviy murshidlari asosiy rol o'ynaganlar. Manbalarda ta'kidlashicha, uning birinchi o'qituvchisi Mulla Alibek bo'lgan. Undan keyingi ustozlari Shayx Shamsuddin ismli olim bo'lgan. Amir Temur ulardan boshlang'ich ilmlarni, ayni holda harbiy fanlar va taktikalarni o'rganish bilan shug'ullanib o'z oliy iste'dodi bilan o'qituvchilarni hayratda qoldirgan va Qur'oni Karimni hafz etgan².

Amir Temur adolatli, ma'rifatli davlat arbobi bo'lib, avvalgi davlat tuzumlaridan, yaxshi xabardor edi. U Chingizxon yasosini ham, shariat qonunlarini ham, qolaversa, Saljuq sultonlari davlatining ma'rifatli vaziri Nizom ul-Mulkning "Siyosatnoma" asarini ham juda yaxshi bilardi³.

Amir Temur davlat hokimiyatini amalga oshirishda Turkiston, Turon xalqlarining ko'p asrlik davlatchilik an'analariga, qisman Chig'atoy ulusida hukm surgan Chingizxon yasosiga hamda ustozlari, pirlari fatvo bergan islomiy shariat qonun-qoidalariga tayanib ish tutdi.

Bog'dod mamlakati (Iroq) egallangach, "Sohibqiron idora qilmoq va tartibga solmoq ishlariga kirishib, ul joyning muhofizati va hukmdorlariga (sarbador yetakchilaridan) Xoja Mas'ud Sabzavoriyini tayinladi. Haqiqatda ham u zot ko'rkam xulqli, solih va (raiyatga) o'ta xayrixoh erdi"⁴. Shu o'rinda Nizomiddin Shomiy yangi viloyat hokimlarining birinchi galdagi xizmat vazifalari va burchlarini aytib, bunday yozadi: "U (Mas'ud Sabzavoriy) omon qolg'on raiyatlarini o'z himoyasiga olib, tortg'on azob-uqubatlari jarohatini lutfu ehson malhami ila davoladi, ul joyda miskinlarni o'z shafqat va e'tibori qanoti ostinda muhofazot qildi"⁵.

Markaziy hukmdorning viloyat (mamlakatlar)ga munosabati haqida "Temur tuzuklari"da bunday deyiladi: "Har bir mamlakat fath etilg'och,

¹ Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 31-32.

² Жузжоний А.Ш. Амир Темур давлатида конун устуворлиги. Амир Темур сабоқлари // "Амир Темур ва унинг марказлашган давлат тузиш йўлидаги буюк хизматлари" мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари. – Т.: Шарқ, 2001. – Б.16.

³ Хидиров С.М. Амир Темур давлатининг ташкил топиши ва давлат тузуми. Юридик фанлар номзоди... Дисс. – Т.: 2002. – Б.67

⁴ Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б.192.

⁵Ўша жойда.

turfa ko'ngilsiz hodisalardan omma omonlikda bo'lsin, aning hosil va daromadlarini hisobga olib ish tutsinlar". Viloyatlarni boshqarish masalasida: "Har bir yerning tabiati, har el va shaharning rasmi odatlari, mijozidin voqif bo'lib turdim. Har bir o'lka va shahar ulusining ulug'lari va buzruqlari bila oshna tutindim. Alarning mijozlariga, tabiatiga to'g'ri kelg'on, o'zlari tanlag'on odamlarini alarg'a hokim qilib tayinladim"¹.

Ibn Arabshoh "Ajoyib ul-maqdur fi tarixi Temur", Nizomiddin Shomiy esa "Zafarnoma" asarida markaziy hokimiyat viloyat hokimlari, viloyat aholisi, taniqli ulamolar o'rtasida huquqiy munosabatlar o'rnatilganligi haqida ko'plab dalillar keltiradilar.

Amir Temurning o'zga mamlakatlarga yurishlar qilishiga sabab, u yerdagi zulm, zo'ravonlik va adolatsizliklarga barham berish, xalqni ozodligini qaytarish va adolatparvar hukmdorlarni tayinlash, ra'iyat ahvolini yaxshilash, farovonlik va tinchlik o'rnatish uning ezgu va oliy maqsadi bo'lgan. Buning isboti sifatida "Temur tuzuklari"dagi ushbu fikrga yuzlanamiz: "Qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsam, o'sha yerning obro'-e'tiborli kishilarini aziz tutdim; sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixlariga ta'zim bajo keltirdim, ortiq hurmatladim. Ularga suyurg'ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim, o'sha viloyatning ulug'larini og'a-inilarimdek, yoshlari va bolalarini bo'lsa o'z farzandlarimdek ko'rdim. Mazkur mamlakatlarning sipohi uchun dargohimga yo'l berdim. ... O'z erki bilan menga bo'sungan viloyat hokimlariga o'sha yurt hukumatini berdim va ularni in'omu ehson bilan qadrlab, o'zinga tobe' qilib oldim. Odil, oqil va uddaburon kishilarni ularga hokim etib tayinladim"².

Manbalarda hazrat Sohibqiron mamlakat ravnaqi, ra'iyat farovonligi yo'lida ko'p ko'rsatmalar berganligi, xalq sog'ligini saqlash maqsadida shifoxonalar qurdirganligi haqida ham ko'p bor ta'kidlanadi. Amir Temur "Katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona solsinlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar. Har bir shaharda dor ul-amorat va dor ul-adolat qursinlar. Ra'iyatu ziroatni

¹ Temur tuzuklari. – T.: Ўзбекистон, 2018. – Б.55.

² Temur tuzuklari. – T.: Ўзбекистон, 2018. – Б.137-138.

qo‘riqlovchi kurchilar (ham) tayinlasinlar”¹, deb mahalliy hokimlarga ko‘rsatmalar bergan.

Amir Temur vazirlar va amirlar, sipoh tuzgandan keyin o‘z saltanatining chegaralarini kengaytirish maqsadida boshqa davlatlarni zabt etish harakatlarini “yetti yilgacha” cho‘zilgan “yurishlarining” sababini shunday tushuntiradi. “Biron mamlakatda jabr-zulm va fisq-fasod kuchayib ketarkan asl podsholar adolat o‘rnatib, fisq-fasodni, zulmni yo‘qotish niyatida ana shunday mamlakatga hujum boshlashi lozim...”². Demak, Amir Temurning fikriga ko‘ra, agarda biroi-bir mamlakatda shohlar buzilsa, jabr-zulm kuchayib ketgach, odil, ma‘rifatli shohlar bunday mamlakatga bostirib kirib, adolatli tartibni o‘rnatishlari kerak. Movarounnahrni adolat o‘rnatish niyatida zolim elatlardan tortib oldim³, - deb yozadi Amir Temur.

Bizning fikrimizcha, Amir Temur saltanatining dastlabki davrlarida, keyinroq besh yillik, yetti yillik yurishlar zafar bilan tugallangan vaqtlarda qo‘shib olingan viloyatlarga tayinlangan shahzodalar, amirlar, hokimlar bilan huquqiy aloqalar ma‘lum bir tizimga keltirilgan edi. Keyinroq, Sohibqiron saltanati benihoya kengayib ketgach, viloyatlarni boshqarish ancha qiyinlashgan. Buyuk va qudratli davlat rahbari Sohibqiron davlat boshqaruvining barcha ishlarida o‘rtacha yo‘lni tutib, amal qilar edi.

Amir Temur davlatida hokimiyat ishlari quyidagi uch yo‘lda amalga oshirilgan:

Birinchi, an‘ana va urf-odatlar orqali;

Ikkinchi, shariat, qonun-qoidaga amal qilish orqali;

Uchinchi, taklif va tushuntirishlar yo‘li bilan;

To‘rtinchi, xalqning turli tabaqalari istaklari, talablari va irodasini turli kengashlarga havola etish yo‘li bilan, - desak ayni muddao bo‘ladi.

AQSH universitetida tadqiqotchi olim Beatris Forbes Mansning Temuriylar davlati boshqaruvini o‘rganishga qo‘shgan hissasini alohida ta‘kidlash o‘rinli. U Amir Temur davlat tepasiga kelishidan avval Chig‘atoy ulusida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va etnik

¹ Алимова Р. Амир Темур ва маънавий кадриятлар. Амир Темур сабоқлари // халқаро илмий конференция материаллари. – Тошкент. Шарқ, 1997. – Б. 13-16.

² Темур Тузуқлари. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б.137-138.

³ Ўша жойда.

shzgarishlar, Amir Temur davlatining ma'muriy boshqaruvi xususida ayrim fikr-mulohazalarni bildirib o'tgan.

Huquqshunos S.M.Xidirov Amir Temur davlatining boshqaruvini to'rtta yirik bosqich¹ga bo'lib o'rgangan bo'lib ular quyidagilardir:

Birinchi bosqich – 1361-1370 yillar Sohibqiron barcha viloyatlarning amirlari, beklarini birlashtirib, Suyurg'otmishxon rahbarligida yangi davlatni tuzgan vaqtgacha bo'lgan davrni mustaqil davlat uchun kurashning birinchi bosqichi deyish mumkin. Bu bosqich mo'g'ullarning Chig'atoy ulusini yangidan tiklash bilan tugallandi.

Ikkinchi bosqich – 1371-1381 yillar Sohibqiron saltanatining siyosiy, iqtisodiy, harbiy nufuzi yuksalib, sobiq qudratli mo'g'ul imperiyasini zaiflashtirdi. Mo'g'ulistonning istilochilik xurujlarini tiyib qo'yishga muvaffaq bo'ldi.

Uchinchi bosqich – 1381-1395 yillarda Sohibqiron saltanati rejali ravishda Mo'g'ulistonga yetti marta harbiy yurish qilib, uni juda zaiflashtirib qo'ydi, bundan foydalangan, mo'g'ullar mustamlakasi bo'lib turgan sobiq Xitoy saltanati mustaqilligini qayta tikladi. U endi Mo'g'ulistonning xavfli raqibiga aylandi.

To'rtinchi bosqich – 1395-1405 yillarni Amir Temur saltanatining Rum (Turkiya) sultoni Yildirim Boyazidga qarshi kurashga kirishib, uni yenggan vaqtdan keyingi davrini Sohibqiron davlatining siyosiy, iqtisodiy va harbiy jihatdan eng qudratli davlat darajasiga yetgan davridir” – deb tarixiy voqealar va davlat rivojlanishidagi omillarga qarab xulosaga kelgan.

To'g'ri, biz ham bu fikrlarni qo'llab-quvvatlagan holda unga qo'shimcha qilib aytishimiz mumkinki, Amir Temur har bir bosqichda o'zining mustahkam irodasiga, davlat boshqaruvida adolat va qonun ustuvorligini ta'minlanishiga, qolaversa, barcha sohalarning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan.

Akademik A.Saidov: “Amir Temur o'z davlatini har qanday kutilmagan voqealardan saqlashni, himoya qilishni bilgan. Davlatini kuchli va mustahkam, xalqini baxtli va uning hayotini farovon qilishni uddalay

¹ Хидиров С.М. Амир Темур давлатининг ташкил топиши ва давлат тузуми. Юрид. фан. номзоди... Дисс. – Т.: 2002. – Б. 56-66.

olgan. U o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga qat’iylik bilan erishgan. Shuning uchun ham u o‘sha davrda dunyodagi eng kuchli saltanatga ega bo‘lgan”¹, - deya ta’kidlab o‘tgan.

Shunday qilib, Amir Temur “fenomeni”², u qurgan davlat tuzumi, davlatchilik merosi, davlat va jamiyatni idora qilish va boshqarish usuli mustaqil O‘zbekiston Respublikasida qaytadan tiklangan o‘zbek milliy davlatchiligini mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirishning eng asosiy, tarix sinovlaridan o‘tgan va o‘zini oqlagan bebaho tajribadir.

Amir Temur va uning davlat boshqaruvi, davlatchilik qoidalari, idora va boshqarish usullari davlat va huquqiy ta’limotlar rivojida eng noyob tarixiy hodisa, tarixiy tajriba sifatida maxsus tadqiq etishga arziydi. Chunki Amir Temur va bir tomondan Movarounnahrni o‘troq, shahar madaniyati, siyosiy-huquqiy usullari afzalliklarini ko‘chmanchi hayot, dasht madaniyati, bilan uyg‘unlashtirdi³.

Amir Temur elga boshchilik qiluvchi vazirlar bilan hokimlar to‘g‘ri tanlab qo‘yilgandagina elni aqllilik bilan boshqarish haqidagi talablar sifatli amalga oshishini nazarda tutgan. U xalqning ruhiy kayfiyatini, milliy xususiyatini, qadriyatlarini bunga mos keladigan rahbarning xulq - atvorini yaxshi o‘rganib, bir qarorga kelgan. Xalqning tilini, tushunchasini, muddaosini biladigan, elning talablarini sabr-toqat bilan bajarishga harakat etadigan, xalqni tushunish uquvi, xulq-atvori shakllangan odamlarni elga boshchi etib qo‘yish kerak⁴, - deb hisoblagan. Shu maqsadda u elning hokimlarini tayinlaganda, avvalambor, rahbarning jamoat bilan ishlay olish uquviga, xalqning ruhini payqab harakat qilishiga, tashkilotchilik mahoratiga, shu xalqning talab - istagiga, hol-ahvoliga katta e’tibor bergan.

Shunday ekan, Amir Temur davlatni boshqarishda insonlarni tushunish, barchaga barobar bo‘lish va xalq manfaatlarini inobatga olish tarafdori bo‘lgan. Rahbardan o‘zi idora etib turgan jamoaning ruhiy kayfiyatini, ichki kechinmalarini yetuk bilishni

¹ Саидов А., Керен Л. Амир Темур ва Франция. – Т.: Адолат, 2016. – Б.48.

² “Феномен” атамаси “Фавқулодда, нодир ходиса” маъносига эга. Шу жиҳатдан “Темур феномени” ибораси “Инсоният ижтимоий-тарихий ва давтчилиги тараққиётида фавқулодда, нодир тарихий ходиса” маъносини билдиради.

³ Қаранг: Тўлаганов А.А. Амир Темурнинг ўзбек давлатчилигининг ривожланишида тутган ўрни ва мавқеи. (Темур тузуклари асосида). Юрид.фан.номзоди... диссертация автореф. – Т.: 1996. – Б. 16.

⁴ Темурнома: Амир Темур Кўрагон жангномаси. -Т.: Чўлпон,1991.-352 б

talab etgan. Shu sababli, u har bir o'lkaga xalqiga: "Ularning mijozlariga, tabiatiga to'g'ri kelgan, o'zlari tilagan odamlarni ularga hokim qilib tayinladim", - deb yozgan edi. Eldagi ichki tartiblarning saqlanib turishi, xalq va boshchining bir-biriga inoq bo'lishi elning tinchligi va obodonlashishining manbai deb hisoblagan Amir Temurning davlatni boshqarish ishlariga yuqorida aytib o'tganimizdek, inson ruhiyati haqidagi tajribalari katta yordam berdi¹.

Amir Temur mamlakat tinchligi, farovonligi va taraqqiyotida hukmdor katta rol o'ynashini chuqur anglab yetgan davlat arbobi edi. Chunki uning davrida taraqqiyot, tinchlik va farovonlik ko'pincha podshohlarning siyosiy ilmi, aql-zakovati, adolati, hushyorligi va boshqa sifatlariga bog'liq bo'lgan, aks holda, davlat va xalq tanazzulga yuz tutishi mumkin edi.

Birinchidan, Amir Temur o'z iqtidori, davlatini qurish uchun kurash boshlagan XIV asr o'rtalarida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy tarixiy vaziyat o'ta murakkab edi. Bunday murakkab ijtimoiy-siyosiy, tarixiy vaziyatda yangi milliy iqtidor, sulola, davlat qurish deyarli mumkin emas edi.

Ikkinchidan, Movarounnahrda davlat tuzumi, idora va boshqarishi usuli juda murakkab va ko'p pog'onali tarkibga ega bo'lib, bu tizim Turkistondan moddiy boyliklar, yaratilayotgan ne'matlarni mo'g'ullar qo'lga muntazam yetkazib turilishini ta'minlar, zulm va zo'ravonlik behad ortgan edi.

Uchinchidan, bu murakkab harbiy-siyosiy, huquqiy va g'oyaviy kurash sharoitida o'zining ijtimoiy-siyosiy, harbiy va ma'muriy istiqbolining ilk davrida Amir Temur oilasi, otasi Amir Tarag'ay, amakisi Hoji Barlos, boshqa tarafdorlari bilan birgalikda siyosiy qatag'on, ta'qib, quvg'in, zo'ravonliklar tufayli og'ir kurash yo'lini bosib o'tdi va tajribali harbiy-siyosiy yetakchi, rahnamo sifatida shakllandi.

To'rtinchidan, o'z davrini barcha qiyinchiliklarini boshidan kechirgan Amir Temur kelajakda mamlakatni, uning xalqini istilochilar zulmidan ozod etishning birdan-bir yo'li davlat mustaqilligiga erishish va adolat, qonun bilan boshqaruvni o'rnatish ekanligini anglab yetdi va bunga erishdi.

¹ Бобоев Х. Амир Темур ва темурийлар салтанати. - Т.: Камалак, 2006. – Б. 199.

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA AMIR TEMUR ILMIY VA MA'NAVIY MEROSINING O'RNI

M.Q.Tursunova,

TDTU, Muhandislik texnologiyalar fakulteti

153-22KB guruh talabasi

Ilmiy rahbar: R.E.Xoliqova

"Biz buyuk Sohibqiron bobomiz Amir Temur hazratlarini dunyoda neki eng kuchli,eng jozibali,eng mahobatli bo'lsa, o'shalarga qiyoslashimiz mumkin."

Abdulla Oripov. O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri

Sohibqiron vafotidan keyin 6 asrdan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa ham uning hayoti va faoliyati haqida Sharq va G'arb olimlari yuzlab asarlar yaratishdi, lekin Amir Temur shaxsi hamon tadqiqotchilar nazaridan tushmagan.U haqida hamon yozishmoqda, talay tadqiqotlar va yangiliklar yaratilmoqda.

Sohibqiron Amir Temur o'z zamonasining talab-ehtiyojlaridan kelib chiqib davlat boshqaruvini takomillashtirdi.Davlatning tarkibiy tuzilishi harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan bo'lsa-da, jamiyat rivoji, barcha ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini ta'minlash nazarda tutilgan edi.Davlat boshqaruvi ishlarida islom qonun-qoidalariga asoslangan.Uning Qur'oni karim va Hadisi shariflarga munosabati samimiy va oliy darajada bo'lgan.

Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy san'ati va davlat boshqarish uslubiga bag'ishlangan maxsus asar yaratilib, u "Temur tuzuklari" nomi ostida shuhrat topadi.Amir Temurning "Kuch-adolatdadir" degan so'zlari uning mamlakatni aql-zakovat va adolat bilan boshqarganligidan guvohlik beradi.Sohibqiron

Amir Temur mashhur davlat arbobi, mohir sarkarda sifatida O'zbekistonda davlatchilikning yuksalishida muhim o'rin tutadi.

Tarixiy manbalarda Amir Temur Sohibqiron nomi bilan bir qator "Sohibi jahon" hamda "Sohibi adl"- "Adolat sohibi" nomlari bilan ulug'lanadi.Xalqaro YUNESKO tashkilotining tashabbusi bilan 1996-yilda

Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda Amir Temur tavalludining 660 yilligi keng miqyosda nishonlandi va shu yil O'zbekistonda "Amir Temur" yili deb e'lon qilindi.

Yevropa olimlarining Amir Temur shaxsi va uning faoliyatiga qiziqishi XVI asrdan boshlangan edi. 1553-yili Italiyaning Florensiya shahrida italiyalik olim Perondinoning "Skifiyalik Tamerlanning ulug'vorligi" asari bosilib chiqdi. Bu Yevropa olimlarining Amir Temur haqidagi birinchi ilmiy tadqiqoti edi.

Shundan beri buyuk Sohibqironga atalgan asarlarning keti uzilmaydi. Hozirgi paytga kelib Amir Temur va Temuriylar haqida 33 mamlakatda 500 dan ziyod chet ellik tadqiqotchilarning asarlari chop etilgan.

Sho'rolar tuzumi davrida Amir Temur shaxsi va faoliyatiga adolatsizlik bilan yondashilib, bir yoqlama baho berib kelindi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov sa'y-harakati bilan Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rnini o'z joyiga qo'yila boshladi. Amir Temurning nomi O'zbekistonda abadiylashtirildi.

Islom Karimov tashabbusi va rahnamoligida Toshkent, Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlarning markaziy maydonida Amir Temurga haykal o'rnatildi. 2017- yil 30-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida so'zlagan nutqi davomida yoshlarga harbiy ta'lim- tarbiya beradigan kursantlar maktablariga "Temurbeklar maktabi" deb nom berish taklifini ilgari surdi va ushbu taklif yoshlar tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilindi.

O'zbek adibi Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, "ma'naviyatni bir so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. U qudratli, boy va biz uchun azizdir." Bugungi kunda yosh avlodni ruhan vatanparvar qilib tarbiyalashda Amir Temur va o'sha davrda yashab, ijod qilgan mutafakkirlarning o'rnini beqiyos. Ulug' amir har ishda insoniy, axloqiy fazilatlarni, kuchli iymonni birinchi o'ringa qo'ygan. Sohibqiron davrida mamlakat iqtisodiyoti, ilm-fan, adabiyot va san'at, hunarmandchilik va me'morchilik rivojlandi. Amir Temurning axloqiy fazilatlari, amaliy faoliyati bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, aksincha, vaqt o'tishi bilan yanada mazmunga boyib bormoqda. Ular

qoldirgan ilmiy merosi va ko'rsatgan jasoratlari necha ming yillardan buyon yosh avlodlarni ma'naviy- axloqiy yetuklikka da'vat etib kelmoqda.

Ishonch bilan aytishimiz mumkinki, rivojlanayotgan O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar, ta'lim sohasidagi ijobiy o'zgarish va armiyamizning mustahkamligida buyuk ajdodlarimizning jasoratlari poydevor bo'lib xizmat qildi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Sohibqironning mashaqqatli hayot yo'li bizga, ya'ni, har bir yosh avlodga ibrat va porloq kelajak uchun harakat qilishimizga turtki bo'la oladi. Biz Amir Temur, Zahiriddin Muhammad

Bobur va Jaloliddin Manguberdi kabi jasur, el-yurtiga sadoqatli vatandoshlarimiz bilan doimo faxrlanamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sodiqov H. Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati. Toshkent, 2010.
2. Po'latova D.A. "Axloqshunoslik" fanidan mustaqil ta'lim uchun uslubiy qo'llanma. Toshkent, 1995.
3. Ozbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: "Davlat ilmiy nashriyoti", 2011.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI	3
<i>A.A.Odilov.</i> Amir Temur – yuksak ma’naviy sifatlar sohibi	5
<i>A.A.Beknazarov, F.T.Shermatov.</i> Sohibqiron qo‘shinidagi harbiy jang san’ati	14
<i>A.Мадраимов, А.Мадраимов.</i> «Бабур-наме» как ценный источник по истории темуридов	19
<i>S.R.Turayeva</i> Amir Temur va temuriylar davrida tog‘- kon ishlari haqida ma’lumotlar	25
<i>A.Madramov</i> Amir Temurning strategik mahorati	29
<i>Алимов Ш.К.</i> Амир Темур – великий государственный деятель и полководец, создатель, покровитель науки и культуры	43
<i>A.A.Tolipov</i> Amir Temur davrida elchilik munosabatlari	53
<i>N.S.Rasulova.</i> “Temur Tuzuklari” – muhim tarixiy manba	57
<i>I.M.Haydarov.</i> Amir Temur va temuriylar davri madaniyati	61
<i>F.M.Saydjanov.</i> Sohibqiron qo‘shinidagi harbiy san’at	66
<i>F.T.Shermatov, A.A.Beknazarov.</i> Amir Temurni ideal shaxs sifatida ta’lim-tarbiya jarayonida o‘rganilishining pedagogik-psixologik jihatlari	72
<i>R.E.Xoliqova</i> Temur Va Temuriylar davri manbalaridan “Temurnoma” asari haqida	80
<i>X.D.Xaknazarov.</i> Temur tuzuklari – yurtimizda millatlararo totuvlik va diniy bagrikenglikning tarixiy asosi	85

<i>D. G'.Raximov</i> Amir Temurning davlat boshqaruvida kadrlar siyosati	92
<i>M.Axmedova</i> Amir Temur davlatida jamoat tartibi va xavfsizligining tashkiliy-huquqiy ta'minlanishi	98
<i>D.N.Abdullayev</i> Amir Temur va temuriylar davrida homiylik an'anasi	112
<i>A.Sh.Xudayarov, F.M.Saydjanov.</i> Sohibqiron qo'shinidagi jangovar boshqaruv	119
<i>J. Rahimov</i> Amir Temur saltanatida Oliy Majlis, ya'ni parlament faoliyati	134
<i>I.Y.Inoyatov</i> Amir Temur Tuzuklarida harbiy masalalarning yoritilishi	152
<i>A.Zamonov</i> Amir Temur tug'ilgan joy va u yerdagi "polvon tosh" xususida	156
<i>Sh.X.Eshquvvatov</i> Amir Temur davrida qo'shinlarni boshqarish	160
<i>U.A.Abdullayev</i> Amir Temur va Yildirim Boyazid muhorabasining xalqaro ahamiyati	166
<i>О.Н.Строкова</i> Духовно-нравственное воспитание учащихся военно-академических лицеев на примере жизни, полководческой и государственной деятельности Амира Темура	177
<i>A.Sh.Xudayarov, F.M.Saydjanov</i> Sohibqironning harbiy san'at mahorati	181
<i>Z.A.Ilhomov, Z.Z.Adxamova</i> Amir Temurning harbiy dahosi va sarkardalik mahorati	187
<i>A.Sattorov</i> Amir Temur harbiy mahorati va faoliyati fransuz tarixchiligi nigo-hida	196
<i>С.М.Атаджанова</i> Некоторые аспекты военного искусства Амира Темура	201

<i>Sh.N.Xotamov</i> Yoshlar ongida vatanparvarlik ruhini singdirishda “Temur tuzuklari”ning o‘rni	205
<i>F.A.Musayev</i> Amir Temurning markazlashgan davlat tuzishi	211
<i>F. Ismatullayev</i> Temuriylarning Yevropa davlatlari bilan xalqaro hamkorligining ayrim jihatlari	221
<i>O.A.Mamaraufov, A.A.Beknazarov, S.S.Temirov</i> Amir Temur and his marches	227
<i>R.Xomitov</i> Amir Temur obrazining turli xalqlar adabiyotidagi talqini masalasi	233
<i>A.A.Sharipov</i> Zahiriddin Muhammad Bobur – Sohibqiron Amir Temur jang san’atining davomchisi sifatida (Panipat jangi misolida)	239
<i>R.R.Rashidov</i> Temur va temuriylar davrida ijtimoiy-siyosiy vaziyat	256
<i>T.X.Jumaev</i> Tarixiy manbalarda Amir Temur shaxsiyati va davlat boshqaruvi	264
<i>U.R.Xalmuminov, A.I.Ismoilov</i> Amir Temur siyosatida diniy va milliy bag‘rikenglik	269
<i>K.T.Islamova</i> Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Amir Temur ilmiy va ma’naviy merosining o‘rni	275
<i>A.X.Xudayorov</i> Amir Temur zamonaviy soliq tamoyillari asoschisi	280
<i>M.E.Xujamov</i> Amir Temur va yoshlar tarbiyasi	285
<i>A.U.Haydarov</i> Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Amir Temur harbiy san’atining o‘rni	290

<i>Temirov S.Sh., Saydjanov F.M</i> Muslim renaissance under the Timurians	298
<i>Temirov S.Sh., Beknazarov A.A.</i> Sahibqiran Amir Temur – symbol of perseverance	302
<i>Temirov S.Sh., Beknazarov A.A.</i> Legal psychological analysis of the system of socio-political principles of Amir Temur in public administration	306
<i>G.S.Saydullayeva</i> Amir Temur davrida ijtimoiy-siyosiy vaziyat	312
<i>A.A.Beknazarov, K.Sultanov</i> Factors indicative of spiritual views Amir Temur and his influence on the life of society	319
<i>U.A.Bo‘tayev</i> Amir Temur armiyasida psixologik ishlar va rag‘batlantirish masalalari	328
<i>L.Sh.Elimov</i> Amir Temur faoliyatining XV-XVI asr Yevropa mualliflari asarlarida yoritilishi	333
<i>U.A.Eshonqulov</i> “Temur Tuzuklarida” adolat tamoyillari	342
<i>L.E.Xamrayev.</i> Amir Temur lashkarlarning boshqaruvida ruhiyatning o‘rni	346
<i>A.M.Ergashev</i> Amir Temur va temuriylar davrini o‘rganilishiga oid manbalar	348
<i>A.K.Paxratdinova</i> Buyuk bobomiz haqida xalq og‘zaki ijodi va tarixiy ma’lumotlar	355
<i>N.SH.Faxriddinova</i> Amir Temur davrida jinoyat ishini rad etish masalalari	358
<i>N.Tangirova</i> The development of trade routes during amir temur and the timurids period	363
<i>D.G`aniyeva</i> Amir Temur va temuriylar davri ma`naviy hayotining hozirgi yoshlar tarbiyasidagi o`rni va ahamiyati	368

<i>E.H.Bozorboyev</i> Amir Temur faoliyati tarixchilar nigohida	377
<i>M.U.Sayitmurodov</i> Yoshlar ongiga Amir Temur va milliy istiqlol davri tarixini aloqadorlik asosida singdirish	383
<i>U.U.Haydarov</i> Amir Temur va uning siyosiy qarashlari	387
<i>Sh.U.Inogamjonova</i> Sohibqiron Amir Temur qadriyatini o'rganishning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy ahamiyati	395
<i>F.A.Baxtiyorov</i> The importance of information security in the domestic public policy of Amir Temur	398
<i>Sh.U.Nurkosimov</i> Amir Temur savdo va haj yo'llari posponi	404
<i>M.B.To'xtamurodov, A.A.Sattorov</i> Amir Temur davlatining tashkil topish asoslari va huquqiy boshqaruv tizimi	413
<i>M.Q.Tursunova</i> Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Amir Temur ilmiy va ma'naviy merosining o'rni	420

**AMIR TEMUR – BUYUK SARKARDA
VA DAVLAT ARBOBI**

**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari
2023-yil 6-aprel, Toshkent**

**Muharrir: Rasulova N.S.
Texnik muharrir: Abrayev A.S.**

Bosishga ruhsat etildi. 04.04.2023 y. Buyurtma № 53. Format 60x90/16
Times New Roman garniturasida bilan raqamli bosma usulda bosildi.
Hajmi 26,75 .sh.b.t. Adadi 2 nusxa

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi